B 7ya 73
F 16

FALSAFA

TOSHKENT

87.ya73 y-3612/1
F.20 Falsafa
T.19 191.666.673.

50190-K

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

87.Yo 73

FALSAFA

I qism

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Y-8612/1

TOSHKENT– 2019

UO'K: 1(075)
KBK 87ya7
F 22

F 22 **Falsafa (1 qism). Darslik. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 648 bet**

ISBN 978–9943–6151–7–5

Mazkur darslik davlat standartiga mos, namunaviy o'quv dasturiga asoslanib tayyorlangan. Darslikda falsafa fanining paydo bo'lishi va uni bosib o'tgan taraqqiyot yo'li, muammolarning qo'yilishi, metodologik hamda bilish jarayonidagi jihatlari aks ettirilgan.

Shuningdek, falsafa fanining tarkibiy qismlari hisoblangan mantiq, etika, estetika mavzulari ham yoritilgan. Barcha mavzularning ilmiy falsafiy qirralari O'zbekiston milliy g'oyasi falsafasi bilan uzviylikda tahlil qilingan hamda falsafaning hozirgi davr muammolari, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri va dunyoqarashi sohalariga e'tibor qaratilgan. Fanning ilmiy, nazariy, falsafiy xususiyatlari ochib berilgan. Darslikda aks etgan muammolar oldingi falsafiy muammolardan o'zining mazmun va mohiyati, zamonaviyligi jihatidan farq qiladi.

Darslik oliy o'quv yurtlari talabalariga hamda falsafa va mantiq, etika, estetika bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

***

Данный учебник разработан в соответствии с государственными стандартами и учебной программы Министерства Высшего и среднего образования Республики Узбекистан. В учебнике широко раскрываются теоретические основы онтологии,гносеологии,теории развития,философской антропологии и глобальных проблем современности, даётся анализ эволюции истории философии, раскрываются проблемы логики, этики и эстетики.

Все темы составлены в соответствии с Идеей Национальной Независимости и с учетом приоритетных направлений и задач Стратегии действий Узбекистана.

Учебник предназначен для студентов высшего образования, а также для тех, кто интересуется проблемами философии, логики,этики и эстетики.

***

This textbook is developed in accordance with state standards and curriculum of the Ministry of Higher and Secondary Education of the Republic of Uzbekistan. The textbook widely discloses the theoretical foundations of ontology, gnoseology, developmental theory, philosophical anthropology and global problems of modernity, provides an analysis of the evolution of the history of philosophy, reveals problems of logic, ethics and aesthetics.

All themes are compiled in accordance with the National Idea of Uzbekistan and taking into account the priorities and objectives of the Strategy of Uzbekistan's actions.

The textbook is intended for students of higher education, as well as for those interested in the problems of philosophy, logic, ethics and aesthetics.

UO'K: 1(075)
KBK 87ya7

Mualliflar:
Z.Davronov, N.Shermuxamedova, D.Fayzixo'jayeva, M.Nurmatova, B.Husanov, M.Qabborova, A.Sultanova

Taqrizchilar:
U.Qoraboyev – falsafa fanlari doktori, professor;
S.Raximov – falsafa fanlari doktori, professor;
N.Oblomurodov – tarix fanlari doktori, professor

ISBN 978–9943–6151–7–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab turli sohalarda jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu o‘zgarishlar qurilayotgan yangi jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Shu munosabat bilan aytish lozimki, mazkur sohalar falsafiy jihatdan tahlil qilinib nazariy xulosalar chiqarilishiga muhtoj. Bu jihatlar talabalar tomonidan oddiy tushunchalar asosida. tushunilsa falsafaning chuqur mazmuni nimadan iboratligini anglash ularga yengil ko‘chadi. Yoshlar falsafaning jamiyatda tutgan o‘rnini, maxsus xususiyatlarini, ayniqsa, insonda falsafiy dunyoqarash shakllanishini mushohada orqali sezsalar, olam to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladilar.

Falsafa fani umumbasharning intellektual muvaffaqiyati bo‘lib,u dunyo xalqlari, olimu-fuzallolari tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Demak, falsafa fanini rivojlanishiga mamlakatimiz hududida yashab, ijod qilib o‘tgan allomalar va hozirgi davrda yashab ijod qilayotgan ziyolilarning ham xizmati katta. Falsafada ushbularni o‘rganish, ularning nodir fikrlaridan xulosalar chiqarib, milliylikni unutmaslik va mustaqillik mafkurasi asosida falsafiy mushohada yurgizish yoshlarimiz uchun, ayniqsa, dolzarbdir.

Darslik O‘zbekiston respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ma’qullangan dastur mazmunini nazarda tutgan holda tayyorlandi. Chunonchi, dasturda ko‘rsatilgan barcha mavzular qamrab olingan bo‘lib, talabalar uchun dolzarb bo‘lgan muammolar va falsafiy mavzularga e’tibor qaratildi. Aynan falsafiy dunyoqarash va uning xususiyatlari qadimgi O‘rta Osiyo, Sharq va yevropa, Amir Temur, temuriylar davri hamda o‘rta asr Yevropa falsafasi ta’limotlarini yoritishga, hozirgi zamon falsafiy yo‘nalishlarining mohiyatini ochib berishga, borliq, taraqqiyot haqidagi falsafaning qonun va kategoriyalari, ong, jamiyat, bilish, antropologiya (inson falsafasi), globallashuv va global muammolariga e’tibor qaratilgan. Dasturda ko‘rsatilgan mantiq, etika, estetika mavzulari yoritilgan.

Mantiq, etika, estetika muammolari ham zamon talabidan kelib chiqib tahlil qilinganligi talabalarning ushbu sohalardan ham mukammal bilim olishga yordam beradi.

Darslikda Respublikamiz taraqqiyotidan kelib chiqib, uning rivojlanishida «Harakatlar strategiyasi»ning falsafiy jihatlari tahlil qilinganki, ular talabalarda ma'lum darajada falsafiy qiziqish uyg'otadi. Falsafiy ta'limotlarning umuminsoniy qadriyat sifatida ekanligini idrok qiladilar. Darslik uzoq yillar davomida falsafadan dars berish jarayonida mualliflar tomonidan to'plangan tajribalar asosida tayyorlangan. U kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin.Ta'llm jarayonida sinovdan o'tganidan so'ng keyingi zohir bo'lgan kamchiliklar inobatga olinadi, albatta.

Darslikning: 1, 2, 3, 5, 6 – mavzulari prof. Z.Davronov, 4, 6 mavzuning metod, metodologiya, metodika tushunchalari, 7, 8, 9 mavzulari prof. A.Shermuxamedova, 10, 11, 12 mavzulari prof. D.Fayzixo'jayeva,13, 14, 15 mavzulari prof. M.Qahhorava va kat.o'q. A.Sultonova, 16, 17, 18 mavzulari prof. M.Nurmatova va prof. B.Husanovlar tomonidan tayyorlangan.

I-QISM

1-mavzu. Falsafafanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafani shakllanishining asosiy bosqichlari.

Falsafa grekcha so'zdan olingan bo'lib, ikki jumladan iborat: philio – sevaman, sevmoq, Sorhia-donishmandlikni sevish, donishmandlik ma'nosini anglatadi. Rivoyat qilishlaricha, Fliunt shahriga safari chog'ida hokim Leon Pifagordan so'radi: "Sen qaysi ilm bilimdonisan?" – "Hech qaysi, – deb javob berdi Pifagor. – Men shunchaki bir faylasufman". – "Falsafa degani nima o'zi?"- taajjublanib so'radi hokim. Pifagor shunday javob berdi: "Inson umrini bozor va olimpiya o'yinlariga qiyoslash mumkin. Bozordagi sotuvchilar ham, xaridorlar ham doimo o'z foydalarini ko'zlaydilar. Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari esa shon-shuhrat va mashhurlik payida bo'ladilar. O'yingohdagi tomoshabinlar esa ularni diqqat bilan kuzatadilar. Hayotda ham shunday. Odamlarning katta bir guruhi boylik va shon-shuhrat orttirish maqsadida yelib-yuguradilar. Ana shu olomon orasida kamchilikdan iborat bir guruh borkim, ular chetdan turib atrofdagilarni jimgina kuzatadilar. Voqea-hodisalarni, inson tabiatini tadqiq etadilar. Haqiqatni anglash ularning eng sevimli amalidir. Ana shu toifadagi odamlar faylasuflar-donolikni sevuvchilar, deb ataladi. Ular sofoslar,ya'ni donishmandlar emas. Chunki tom ma'nodagi donishmandlik yolg'iz Allohga xos sifat. Bandalar esa donishmandlikka intilish bilan kifoyalanadilar, xolos." deb so'zini tugatgan ekan faylasuf Pifagor.

Falsafa qadimiy soha. Demak, falsafaning shakllanishining asosiy bosqichlari uzoq uzoqlarga borib taqaladi. Jumladan qadimgi sharqda tabiat, jamiyat inson tafakkuri haqida turli falsafiy fikrlar o'rtaga tashlangan. Ayniqsa, Qadimgi Hindiston, Xitoy, Misr, O'rta Osiyo mintaqalarida sodda falsafiy fikrlar paydo bo'lgan. Ana shu

sodda falsafiy qarashlar – urf-odatlar, asotirlarda, rivoyatlarda, dostonlarda aks etgan. Markaziy Osiyoda zardushtiylik ta'limoti, Hindistonda esa Lokayata, Chorvaka oqimlari paydo bo'lgan.

Ma'lumki, qadimgi Hindiston qadimgi sivilizatsiyaning asosiy markazlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, birinchi falsafiy qarashlar ham Hindistondan boshlangan. Manbalarda qayd etilishicha Hindistonda falsafiy fikrlar 4 davrga ajratilgan. 1.Vedalar (600 yilgacha) 2. Epik davr 3.Sutr davr 4. Sxolastika davri

Albatta bu davrlar o'z xususiyatiga ega bo'lgan. Birinchi davr, ya'ni Vedalar (Veda-bilim demakdir) Xudo bilan bog'liq gimnlardan yaratilgan. Ibodatxonalar barpo etilgan. Vedalardan biri Rigveda bo'lib u bir necha kitobdan iborat. Ulardagi madhiyalar o'z xususiyatiga ko'ra qoida hisoblangan. Qoidaga amal qilinmasa adolat qaror topmaydi. Rigvedalarda axloqiy ma'naviy fazilatlar ko'proq aks etgan. Rigveda „yani rita'' tushunchasi orqali voqea narsalarnig yo'li tushuntirilgan. Fazodagi jarayonlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning hayot haqidagi tasavvurlari undan o'rin olgan. Xulosa qilib aytganda, rita tevarak atrofdagi borliqning (moddiylik va ma'naviylikni) yo'lini ifodalagan.

Yana bir yo'nalish Upanishadlar ta'limoti bo'lib, (Upanishad o'qituvchining oyog'i ostida o'tirish ma'noda) unda ham vedalar madhiyasi ilohiy bashorat- qudratdan iborat deb hisoblangan. Yuqori tabaqada turuvchilar- ya'ni braxmanlar bu donolik ta'limotining jiddiy bilimdonlari deb qabul qilingan. Keyinchalik braxmanlarga qarshi tanqidlar sodir bo'lgan. Shulardan biri bu Jaynizm ta'limotidir. Ular ko'proq tabiat falsafasiga e'tiborni qaratganlar.

Yana bir ta'limot bu – buddizm ta'limoti bo'lib, bu ta'limotda rohat va azob, qiyinchilik va osudalik, yaxshilik va yomonlik kabi insoniy fazilatlar ustuvor bo'lgan. Buddizm va Upanishadlar olamni tushuntirish uchun ilg'or diniy fikrlarni o'rtaga tashlaganlar. Veda va Upanishadlar qarashlari „Maxabhorat" epik poemasida ham aks etgan. Krishna Vishna (Xudo)ning yerdagi vakili komillik elchisi sifatida tasvirlangan, insonlarni ezgulik g'oyalari bilan baxramand bo'lishiga chorlagan. Bulardan tashqari Hindistonda paydo bo'lgan oqimlar; Chorvyaka, Lokayatalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu ta'limotlar tarafdorlari olamni cheksizligini, bu

dunyodan boshqa dunyo yo‘qligini targ‘ib qiladilar. Ularning fikricha, olamni 4 unsur – suv, olov, havo, tuproq tashkil etadi. Olam ana shu to‘rt unsurning birlashuvidan tashkil topgan.

Falsafa taraqqiyotida Xitoy falsafasi muhim ahamiyatga ega u ham Hind falsafasi kabi paydo bo‘lgan. Xitoydagi falsafiy qarashlar ijtimoiy hayotning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Yangi falsafiy fikrlar, xo‘jalik yuritishlar, tovar-ayiraboshlash, yangi bilimlarning paydo bo‘lishi, davlatchilikni taraqqiyoti kabilar bilan bog‘liq. Qadimgi Xitoy hududida tabiiy fanlarini yuzaga kelishi (matematika, tibbiyot astronomiya va b). insonlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Xitoydagi dastlabki falsafiy qarashlarga sayyoh donishmandlar asos solishganlar. Falsafiy maktablar tashkil topa boshlagan. Ularga ko‘ra olam avval tartibsiz bo‘lgan. Ular qarama-qarshi tomonlar(osmon-in’, yer-yan’) dan iborat bo‘lib fazo kuchi bilan tartibga keltirilgan. Xitoydagi falsafiy qarashlar In-zinning o‘zgarishlar kitobida, Shi-tszinning qo‘shiqlar kitobida, Li-tszinning urf-odatlar kitoblarida aks ettirilgan. Xitoydagi qarashlarda ham olam suv, havo, olov, yer, yog‘ochdan paydo bo‘lgan degan fikrlar ustuvor. Olam to‘xtovsiz harakatda. Unda qarama-qarshiliklar mavjud.

Xitoydagi falsafiy qarashlar o‘rtasida Konfutsiy (ruschada Qonfutsiy) ta’llmoti muhim ahamiyatga ega. Konfutsiy (351-479y.) kambag‘al oilada tug‘ilgan. U o‘zining, Suhbat va fikr bayoni asarida ma’naviy-axloqiy qoidalarni, ota-onaga, davlatga, ulug‘larga bo‘lgan munosabatlarni bayon qilgan. Konfutsiy osmon va ruh muammolarini falsafiy jihatdan yoritishga intilgan. Uning fikricha osmon-kuch-oliy haqiqat, adolat, yerdagi odamlarning ham sababchisidir. Taqdir sababga bog‘liq. Uning fikricha, tarbiya inson hayotida eng muhimdir. Jamiyatni isloh qilishga da’vat etadi.

Xitoydagi falsafiy oqimlardan biri bu Moizmdir. Asoschisi Mo –Tszi(479-400y.y.) bo‘lib o‘z maktabini yaratgan. Bu ta’limotda ham Osmon faoliyatiga e’tibor qaratilgan. Osmon hamma uchun namuna, u hammani barobar ko‘radi, shu sababli katta-kichikni, kuchli-kuchsizni. boy-kambag‘alni, amaldor-fuqaroni kamsitmasligi, odamlar inoq bo‘lishi targ‘ib qilingan.

Falsafiy qarashlar eramizgacha bo‘lgan davrning VII-VI asrlarida qadimgi Gretsiyada yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Qadimgi Yunon va Rim falsafasi. falsafani fan darajasiga yetkazdi. Bu

davrga kelib mifologik qarashlar insonlarni qoniqtirmay qoldi. Eskicha fikrlash o‘z qadrini yo‘qota boshladi. O‘sha davrlarda Yunonistonda ham tabiiy fanlar rivojlandi. Natijada insonning aqliy tafakkuriga e’tibor qaratila boshlandi. Insonlar o‘z faoliyatini qadimiy falsafiy qarashlar asosida emas, endi yangicha yondashuvlar asosida tushunishlar boshlandi. Borliqni xususiyati va mohiyatini bilishga ehtiyoj sezildi. Tabiat, jamiyat, inson tafakkuri nimalarga qodir ekanligi haqida tasavvurlar aniq va ravshan o‘rtaga qo‘yilaboshlandi. Buning natijasida turli yo‘nalishlar va maktablar paydo bo‘ldiki, bu jarayon o‘z navbatida falsafani mukammallashishiga sabab bo‘ldi. Tabiat falsafasi yetakchi o‘ringa chiqdi. Fazoni o‘z vaqtida mutlaqlashtirib tushuntirgan bo‘lsalar, endi uni o‘zgartirib turishiga, rivojlanib borishiga, bir holatdan ikkinchi holatga, eskidan yangiga, pastdan yuqoriga, salbiydan ijobiyga, issiqlikdan sovuqlikka qarab borishiga ahamiyat berdilar. Bunday qarashlarni dialektik qarash deb atadilar. Dialektik qarash ko‘proq Geraklit, Zenon ta’limotlarida yaqqol ko‘zga tashlandi. (biz ularning falsafiy qarashlarini keyingi mavzularda batafsilroq yoritishga harakat qilamiz).

Platon, Demokrit, Aristotel’ va boshqa qadimgi yunon faylasuflari ham borliq haqida o‘z zamonasidan kelib chiqib falsafiy mushohada yuritdilarki, natijada falsafaning mazmun mohiyati kengaydi. Bu davrda sofiylar (sofiy-donolik demakdir) ham o‘z fikrlarini o‘rtaga tashladilar. Ularning yirik vakillari Protagor (mil.av. 490-420 y), Georgiy(mil.av.480-380y.)lar hisoblanadi. Sofiylar o‘z ta’limotlarini ko‘proq inson hayoti bilan bog‘laganlar. Axloqiy, huquqiy, siyosiy munosabatlarni shakllanishiga e’tibor berdilar. Bilish muammosini o‘rtaga qo‘ydilar. Ayniqsa, Sokrat (470-399) Sofiylar izidan borgan bo‘lsada keyinroq ularni tanqid qilgan. Insonning ongiga baho bera boshlagan. Uning fikricha, inson o‘zini, o‘zligini bilishi lozim. Bu holat falsafani o‘rganish obekti bo‘lishi kerak deydi. Shunday qilib, falsafa faninig shakllanishi taraqqiyot bosqichlari rangbarangdir.

Dunyoqarashning tuzilishi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.

Falsafa kishilarda dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash bu kishilarning tevarak-atrof, obyektiv reallikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Dunyoqarash ijtimoiy ongning barcha shakllariga taalluqli unsurlardan tarkib topadi. Unda: falsafiy, ilmiy, siyosiy, axloqiy va estetik qarashlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash sistemasiga qo'shilgach, insonning yoki guruhning tevarak-atrofidagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Falsafiy qarashlar esa dunyoqarashning butun sistemasi asosini tashkil etadi.

Dunyoqarash tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlarini ifoda etadi. O'z davrida marksizm va marksistik partiyalar, o'z masalalarini hal qilishda dialektik va tarixiy materializmga amal qilinmasa (ya'ni marksizm-leninizm falsafasiga), u vaqtda biryoqlamalik, subyektivizmga, fikrlarning qotib qolishiga, tajribadan ajralib qolishga, hamma narsa va hodisalarni ilmiy tahlil qilish qobiliyatini yo'qotishga va revizionistik yoki aqidaviy holatlarga hamda siyosatda yangilishlarga yo'l qo'yish hollariga tushib qolinadi, degan salbiy fikrlarni o'rtaga tashlaganlar.

Hayot tajribasi shuni ko'rsatyaptiki, falsafaning vazifasini bu qadar cheklab qo'yish haqiqatga to'g'ri kelmas ekan. Aksincha, yondoshish esa turli qarashlar va falsafiy muammolarni oydinlashtiradi. Borliqni tushunishda yaqindan yordam beradi.

Demak, dunyoqarash – bu insonning ijtimoiy guruh yoki qatlamning voqelikka bo'lgan munosabatini belgilaydigan tamoyillari, qarashlari, qadriyatlari, e'tiqodlari tizimidir. Dunyoqarash orqali insonlar hayotda o'z yo'nalishini topadi va shu yo'nalish orqali faoliyat ko'rsatadi. Dunyoqarashning shakllanishi tevarak atrofdagi borliq taraqqiyotiga bog'liq. Marksistik falsafa falsafadagi asosiy masala: tafakkurning borliqqa bo'lgan munosabati masalasi bilan dunyoqarashni qat'iy belgilab bergan edi. Bunday yondoshish inson faoliyatini, uning tafakkurlash jarayonini cheklab qo'yishga, uni tor aspektda tushunishiga olib keldi. Aslida, asosiy masala doirasida dunyoqarashni tushuntirishda, materializm va idealizm nuqtai nazaridan kelib chiqish lozim edi. Dialektik materializm tarafdorlari

bo‘lsa, faqat shundaygina materialistik yondoshilganda ilmiy dunyoqarash paydo bo‘ladi deya targ‘ib qilib keldilar. Diniy dunyoqarashda bo‘lganlar idealistik, dunyoqarashdagilar sifatida qattiq tanqid ostiga ham olindilar. Aslida har bir shaxs qaysi dunyoqarashda bo‘lishidan qat’iy nazar olam hodisalarini o‘zining e’tiqodiga qarab, uning muammolariga individual yondoshib hal etishi lozim. Shaxsga ma’lum bir nazariy jihatni tirkab qo‘yish bilan dunyoqarashini shakllantirib bo‘lmaydi. Dunyoqarashning shakllanishi erkin holatda-zaruriyat asosida paydo bo‘lishi ham mumkin. Sababi, shaxslarda his tuyg‘u, harakat, tafakkur, turli qarashlar bir xil emas, shuning uchun ham dunyoqarashni ikki-uch yo‘nalish bilan bog‘lab qo‘yish haqiqatdan uzoqdir.

Dunyoqarash insonning faoliyati bilan bog‘langan. Shu faoliyatni o‘zi uning dunyoqarashini belgilab beradi. Dunyoqarash va faoliyat dialektik munosabatdadir. Bir-birini taqozo etadi. Binobarin, dunyoqarash singari, faoliyat ham borliqdan kelib chiqadi. Borliq ta’sirida bu ikkala jarayon harakatga keladi. Dunyoqarash orqali hayotni tahlil qilish va fikrlash ehtiyoji tug‘iladi. Natijada inson o‘z dunyoqarashi orqali o‘z-o‘zini ham anglaydi. Tabiatda, jamiyatda tutgan o‘rnini mushohada qiladi. Dunyoqarash tarkibiga kiruvchi: ilmiylik, falsafiylik, axloqiylik, diniylik, siyosiylik, huquqiylik, nafosatlilik kabilarda barcha insonlarning fikrlari va qarashlari bir xil emas. Bundan o‘zgacha bo‘lishi ham mumkin emas. Ana shu ma’noda aytamizki, dunyoqarash ham turlichadir. Dunyoqarash bu faqat olamni u yoki bu tomondan aks ettirish degan gap ham emas, balki dunyoqarash olamga baho berish hamdir.

Dunyoqarash muammosi bu qotib qolgan va unga tegib bo‘lmaydigan jarayon emas. U ham davrlar o‘zgarishi bilan o‘zgarib boradi. Jumladan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng insonlardagi dunyoqarashni o‘zgarishi fikrimizning dalilidir. Insonlarda hayotga bo‘lgan munosabat, ishlab chiqarishga, vatanga, kundalik hayotga o‘zgacha yondoshish shakllana boshladi.

Dunyoqarash dunyoni tushunish bilan bog‘liq. Undagi jarayonlarni hal etish bilan chambarchasdir. Dunyodagi harakat insonlarda turli hissiyot va tuyg‘ularni vujudga keltiradi. Insonlar tafakkurida voqealar mujassamlashadi. Natijada, bu jarayonlar yangi fikr va tasavvurlarni, tushuncha hamda kashfiyotlarni keltirib chiqaradi. Insonga xos bo‘lgan

xususiyatlar: iroda, idrok qilish, jo'shqin faoliyat paydo bo'ladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, dunyoqarash ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda tevarak atrofni inson o'zida aks ettirsa, ikkinchi bosqichda nazariy va amaliy xulosalarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonlar uzviy aloqadadir, bir-birlarini to'ldiraboradi.

Dunyoqarash nafaqat tabiatni, balki, ijtimoiy borliqni ham aks ettiradi. Aniqrog'i, insonlarni turmush tarzi dunyoqarashda namoyon bo'ladi. Dunyoqarash har bir avlodga taalluqli bo'lsada, avlodlar o'zining ajdodlari dunyoqarashidan ham muayyan sohalarini oladi va o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Bu sohada ham, vorislilik, merosxo'rlilik tamoyillari amal qiladi. Dunyoqarash yo'q narsadan paydo bo'lmaydi, u oldingi faoliyat va qarashlar, urf-odatlar asosida rivojlanadi. Ya'ni o'zidan oldingi ijtimoiy borliq, shart-sharoitlar moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish jarayonlari, jamiyat tuzilishi, hukmron mafkuraviy qarashlar, ijtimoiy munosabatlar ta'sirida paydo bo'ladi. Demak, jamiyatning, ijtimoiy guruhning faoliyati o'zgarishi bilan dunyoqarash ham o'zgaradi.

Dunyoqarashning o'zgarishi, fan taraqqiyoti bilan ham bog'liq. Fanning rivojlanishi tufayli insonlarda kundalik hayotga bo'lgan munosabat ham o'zgaradi. Masalan, hozirgi zamonda turli yevropa mamlakatlarida yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qish joriy qilingan. Bu jarayon Sharq mamlakatlarida «Ustoz-shogird» o'rtasidagi munosabatni o'zgarishiga olib keladi. Demak, bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Fan taraqqiyoti inson his tuyg'usi jarayonlarini ham kashf etilmagan tomonlarini ochib, insonning o'zini o'zi baholashi uchun yangicha yondoshishni o'rtaga qo'yadi va hokazolar.

Umuman, dunyoqarash haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz, dunyoqarash insonlarda dunyo to'g'risida bir butun umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar, e'tiqodlarning to'planishidir. Dunyoqarash ma'lum maqsadlarni ko'zlab, o'z faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan jarayondir.

Mifologik yoki afsonaviy dunyoqarash

Dunyoqarash shaxsiy va ijtimoiy bo'lishi bilan birga o'zining tarixiy shakllariga ham ega. Ma'lumki, shaxsiy dunyoqarash

individual xarakterli bo‘lib, shaxsning olamga bo‘lgan munosabatini bildirsa, ijtimoiy dunyoqarash ijtimoiy guruhlarning tevarak atrofga bo‘lgan munosabatlaridir. Bu jarayonlar ham o‘zaro bog‘liq, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydi. Har ikkala dunyoqarashning paydo bo‘lishi tarixiy jarayonlarga bog‘liq. Qadim zamonlardan boshlab dunyoqarashning tarixiy shakllari rivojlangan. Ular qatoriga mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashlarni olish mumkin.

Mifologik yoki afsonaviy dunyoqarash yuqorida ta’kidlaganimizdek, dunyoqarash keng ma’noli tushuncha bo‘lib, inson faoliyatini muayyan voqea va narsalarga qaratadi (bu so‘z yunon tilidan olingan bo‘lib, mifos-naql, rivoyat; logos-ta’limot ma’nolarini beradi). Mifologiya dunyoqarash sifatida eng qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan. Insoniy faoliyatlarning paydo bo‘lishi bilan kishilik jamiyatining boshlang‘ich davrida vujudga kelgan xalq og‘zaki ijodi samarasi bo‘lib, u ijtimoiy ongning shaklidir. Mifologik dunyoqarashning asosiy xususiyatlaridan biri bu tirik va o‘lik tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ajratilmasligidir. Bu jarayonlarning ikkalasi ham bir xarakterda talqin qilinadi. Qadim zamonlarda insonlar tabiat, jamiyat taraqqiyoti haqida jiddiy tasavvurga ega bo‘lmaganlar. Ilmiy tahlil qilishning iloji bo‘lmagan. Ishlab chiqarish qurollari mukammalashmagan. Shu sababli ham barcha kishilar tabiat, jamiyat to‘g‘risida o‘zlari bilganlaricha turli naql va rivoyatlarni ayta boshlaganlar.

Voqelikni fantastik mushohada qilish, ongni paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Ongda qadimiy faoliyatlar xarakteri og‘zaki xalq ijodi orqali aks ettirilgan. Ko‘proq bu – xalq og‘zaki ijodida xudolar, afsonaviy qahramonlar, hodisalar obrazlari orqali ifodalangan. Ularda inson, tabiat, jamiyat hodisalari muhokama qilingan va xulosalar chiqarilgan, hatto ularning ma’lum bir qismi kundalik hayotga ham tatbiq etilgan. Afsonaviy dunyoqarash ham o‘zining ijobiy tomonlariga ega. Chunki, mazkur qarashda ham, insonlarning voqelikka nisbatan axloqiy qarashlari, his-tuyg‘usi, san’ati, estetik jarayonlari, borliqqa munosabatlari ifodalangan. Aniqrog‘i, tabiat va jamiyat hodisalari noilmiy bo‘lsada, badiiylashtirilgan. Afsonalar xarakteri ko‘proq san’at orqali tushuntirilgan. Shu san’at orqali ommaning shakllanishiga kuchliroq e’tibor qaratilgan.

Manbalardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, qadim zamonlarda insonlar yashin, dovul, suv toshqinlari, zilzila va boshqa tabiiy ofatlardan dahshatga tushib yashaganlar. Shu sababli, ular yer va osmon, undagi yulduzlarni, oy, quyosh kabilarni tirik jonzotlar, ayrim hayvonlarni esa muqaddas, deb bilganlar. Ularning ba'zilarini yaxshilikka chorlovchi, ba'zilarini esa yomonlik manbalari, deb tushunganlar. Qadimgi insonlar tasavvurida insonga nisbatan xayrixohlar va dushmanlar bo'lgan. Bular qatorida xayrixoh xudolar, ruhlar, devlar, jinlar, ajdarholar kiritilgan. Shular ta'sirida olamning paydo bo'lishi, undagi harakat va jarayonlar haqida tasavvurlar vujudga kelgan. Ana shu tasavvurlarda afsonalar: kosmos haqida, hayvonlar, qushlar, mahluqlar, qahramonlar, yaxshilik va yovuzliklar xususidagi fikrlar mujassamlashgan. Ularda insonlarni hayotni sevishi, har qanday qiyinchiliklarni yengishi, inson o'z mohiyat-mazmuni jihatidan ulug' ekanligi o'z aksini topgan. Shu bilan birga nur va zulmat yonma-yonligi tushuntirilgan. O'sha paytdagi kishilar yaxshilikni, baxt-saodatni, quyosh nuri va issiqlik orqali tasavvur qilsa, baxtsizlikni esa sovuqlik, zulmat manbai, deb tushunganlar. Ya'ni issiqlik baxt manbai bo'lsa, sovuqlik zulmat maskani sifatida tasvirlangan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, olamni ikki qutbga ya'ni ofat keltiruvchilar va ofatga qarshi chiquvchilarga bo'l-ganlar.Ta'kidlash joizki, afsonaviy dunyoqarashda asosiy mavzu-insonlarning ma'naviy jihatlari ko'proq diqqatga tortilgan. Xayrli ishlar, mehnat qurollarining yaratilishi, hunarmandchilik, dehqonchilik kabi insoniy fazilatlarga katta ahamiyat berilgan. Shu bilan birga afsonalardagi voqealar o'sha paytdagi insonlar tomonidan haqiqiy-hayotiy voqealar deya e'tirof etilgan. Chunki, ularning tushunchasiga, ajdodlar tomonidan yaratilgan afsonalardagi fikrlar turmushda bo'lgan voqealar kabi qabul qilingan. E'tirof etish kerakki, afsonalardagi jozibali fikrlar insonlarning borlig'ini his ettirib, barchaga ta'sir etgan. Voqealar shunday ta'riflanganki, ularning hayotiyligiga shubha qolmagan. Yunon mifologiyasidagi xudolar-ning xudosi Zevs, dengizlar va daryolar xudosi Poseydon, hosildorlik va dehqonchilik manbai Demetra, muhabbat va go'zallikning xudosi Afrodita, donishmandlik, ilm-fan, san'at xudosi Minera kabilar faoliyatining go'zalligi va odamiyligi, jonliligi bilan barchani lol qoldirgan.

Afsonalar o‘sha davrlarda yashagan barcha kishilarning ichki va tashqi xususiyatlarini mujassamlashtirish bilan birga o‘sha davrning falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy tomonlarini ham aks ettira boshlagan. Binobarin, insonlardagi mazkur xususiyatlar ya’ni diniy, falsafiy, siyosiy, badiiy sohalar mustahkam aloqada bo‘lib, ularni bir-biridan aslo ajratib bo‘lmas edi. Shu bilan birga voqealarni o‘ta mubolag‘alashtirish insonlarning hayotga bo‘lgan qarashlarida shubhalanishga shart va sharoit yaratar edi.

Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodiyoti juda qadimiy bo‘lib, shularning ta’siri ostida kelajakda, yangi ijodiy namunalari paydo bo‘ldiki, bular «Alpomish», «Manas», «Go‘ro‘g‘li» kabi doston va eposlar misolida maydonga chiqdi. Ushbu manbalar sinchiklab o‘rganilganda ularda olamni bilishga, insoniy xislatlarini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan hatti-harakatlar seziladi. Bu esa o‘sha davrlarda ham dunyoqarashni takomillashib borayotganligidan dalolat beradi.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi

Afsonaviy dunyoqarashga nisbatan aniqroq bo‘lgan dunyo-qarash bu diniy dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarash o‘zining hayotiyligi bilan farq qiladi. Diniy dunyoqarshda xudo bilan inson faoliyati ko‘proq o‘rin olgan. Ammo borliqdagi barcha mavjudot, harakat voqealarni diniy dunyoqarash ham qamrab olgan. Demak, diniy dunyoqarash deganda, voqelik taraqqiyoti ilohiy kuch, ya’ni xudoga bog‘lab ifodalanishi tushuniladi. Zero, bu dunyoqarashda barcha tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ichki ziddiyat va o‘zaro munosahatlardan emas balki Ollohning qudrati natijasidan izlanadi. Mo‘’jizaviy kuchga intilish paydo bo‘ladi. Diniy munosabatlar ko‘proq diniy kitoblar Qur’oni Karim, Hadislar, Tavrot, Zabur, Injilda o‘z aksini topgan. Diniy dunyoqarash ham to‘satdan paydo bo‘lmagan. Yakkaxudollk dinidan avval kishilar fetishizm (narsalarga e’tiqod) sehrgarlik, totemizm, animizm kabilarga sig‘inganlar. Dinning kelib chiqishi haqida turli fikr va qarashlar bo‘lgani singari, diniy dunyoqarshning ham kelib chiqishi haqida turlicha yondoshuvlar mavjud. Ba’zi birovlar diniy dunyoqarashning to‘la shakllanishini sinfiy jamiyatlarning paydo bo‘lishi bilan

bog‘laydilar. Ba’zilar esa uni abadiy bo‘lgan, deb e’tirof etishadi. Jumladan, quldorlik jamiyatini paydo bo‘lishi bilan poleteizm, xalq, millat dinlari paydo bo‘lib, feodalizm davrida esa jahon dinlari, buddizm (VI-V eramizgacha), xristianlik (eramizning I - asrida) islom (eramizning VII asri) kelib chiqqan. Diniy dunyoqarash diniy e’tiqodga asoslanadi. Bu degani ilohiy mavjudotlarning mavjudligini e’tirof etish va unga ishonishdir. Masalan, diniy ta’limotlar diniy e’tiqodi o‘ta kuchli bo‘lgan kishilar tomonidan madh etilgan va etilib kelinayotir. Diniy fikrlarning barchasi Allohning nomi bilan bog‘langan. XI asrda (ba’zi adabiyotlarda 1119-yil, ba’zida 1136-yil, yana birida 1145-yilda tug‘ilgan deb ko‘rsatiladi) yashab ijod etgan shayx shoir va mutafakkir Muhammad Farididdin ibn Ibrohim shayx Attori Nishopuriyning «Ilohiynoma» asarining qanday boshlanib yozilganiga e’tiborni qaratsak, diniy e’tiqodning salmog‘ini sezamiz. Chunki olim har bir hikoyatning boshlanishida Ollohga hamdu-sanolar aytib, o‘z fikrni davom ettirgan.

Diniy dunyoqarash ko‘proq dindorlar uchun o‘ta muqaddas bo‘lib hisoblangan va yuqorida keltirllgan mulohazalar sifatida asarlaridan o‘rin olgan.Diniy e’tiqodning tarixi ham juda uzoqlarga borib taqaladi. Diniy e’tiqod deganda faqat yakka xudolik emas, balki ko‘p xudolik kabi boshqa turdagi sig‘inishlar ham nazarda tutiladi (fetishizm, sehrgarlik, totemizm, anamizm kabi). Fetishizm - (portugal’cha fetishizm - volshebstvo) ibtidoiy jamiyatda paydo bo‘lgan. Madaniy taraqqiyotning pastligi natijasida shakllangan bo‘lib, o‘sha davr talabidan kelib chiqgan. Insonlar narsalarda ham ijtimoiy holat faoliyatini izlaganlar. Tabiiy kuchlar narsalarda ham rivojlanadi, deb taxmin qilganlar va shu tabiiy narsalarga sig‘in-ganlar. Qadimgi davrlarda kishilar fetishizmni shunday tushungan bo‘lsalar-da marksistik ta’limotda uning mohiyati o‘zgartirib tushuntiriladi. Ya’ni u tovar (mol – mulkga kapitalistlarning yondoshishi, deb tushuntirildi. Binobarin, kapitalistlarni tovarga sig‘inishlari boylik manbai), muqaddas bo‘lganligi uchun uni mutloqlashtirildi. Demak, davr o‘zgarishi bilan fetishizm ham o‘z mohiyatini o‘zgartirib borgan.

Sehrgarlikka sig‘inish Avstraliya, Janubiy va Shimoliy Amerika, Afrikada yashovchi qabilalar o‘rtasida keng tarqalgan. Masalan, hayvonlarni ikkiga bo‘lganlar. Toza va toza bo‘lmaganlar.

Ularning talqinida ba'zi hayvonlarni xudo o'z qudrati bilan saqlagan va ularni ovqat bilan ta'minlagan. Totemizm – (toteman – so'zidan olingan bo'lib, hozirgi Shimoliy Amerika hindu qabilalaridan birining nomi). Ibtidoiy tuzum davridagi qadimiy dinlardan biri. Bu so'z birinchi marta Dj. Longo tomonidan XVIII asrda qo'llanilgan. Totemizmda ma'lum turdagi hayvon yoki o'simlik turlari bilan inson guruhlarining aloqasi borligi tushunilgan. Yo'q bo'lib ketgan hayvonlar belgilariga, ularning ajdodlariga sig'inganlar. Emishki, o'sha o'tib ketgan turlar insonlarni turli ofatlardan saqlagan.

Animizm – (lat – ruh, qalb) ham ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan. Hodisa va narsalarga, inson faoliyatiga ta'sir etuvchi ruh va his-tuyg'ularini animizm, deb yuritganlar. Animizmning kelib chiqish sabablari bu tabiiy qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslik, ilmiy bilimlarni yetishmasligidir. Tabiatdagi sir-asrorlarni bilmagan kishilar his – tuyg'u va ruhlarga ishonganlar. Diniy dunyoqarashda insonning his-tuyg'ulari ko'proq ahamiyatga ega. Hozirgi davrda dinning insonlarga ta'sirini hisobga olib, uning fan bilan aloqasini ko'rsatuvchi faylasuflar ham yo'q emas. Bunday qarash tarafdorlari diniy e'tiqod va fan insonni haqiqatga yetaklovchi sohalar, deb targ'ib qiladilar. Ularning fikricha, bu sohalar bir – biriga zid emas.

Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o'ziga xosligi

Falsafiy dunyoqarash ham o'zining maxsus xususiyatlariga ega. Chunki, u nazariy tomonlarga ko'proq e'tiborni qaratadi. Falsafiy dunyoqarash olam, inson, jamiyat, tabiat haqidagi umumiy tasavvurlar va savollarga javob berishga intilgan jarayondir. Bu birinchidan, ikkinchidan esa falsafiy dunyoqarash insoniyatning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hisobga olib fan sifatida shakllangan. Shu ma'noda falsafaning predmeti haqida so'z yuritganda, e'tibor berilsa, dunyoqarash ta'rifi bilan aloqada ekanligini sezish qiyin emas. Falsafiy dunyoqarash oldingi tahlil qilingan dunyoqarashlardan yana shu tomoni bilan farq qiladiki, olam va uning turli jihatlari haqida fikr yuritganda muammolarning qo'yilishi, ularni yechish usullari, predmeti, vazifasi butunlay boshqachadir. Shu bilan bir qatorda, falsafiy dunyoqarashda umumiylik va ilmiylik ham mavjud. Falsafiy dunyoqarashda, diniy

dunyoqarashdan farqli o‘laroq, uning obyekti borliq, inson, jamiyat, zamon, vaqt muammolari bo‘lib, ularga aniq dalillar yordamida yondoshib tushuntirishga intilinadi.

Falsafiy dunyoqarash jamiyat a’zolarini loqaydlikdan tozalashga harakat qiladi. Barcha shaxslarning hayotiy muammolarini yechib yashashga chorlaydi. Hayot qiyinchiliklarini, undagi ziddiyatlarni oldini olishga yordamlashadi. Shu ma’noda, ilmiy falsafa insonlar faoliyatida katta ahamiyatga ega. Sababi, ilmiy falsafa inson faoliyati haqida dalilli falsafiy fikrlarni o‘rtaga qo‘yadi. Uning yashashi mohiyatini yoritadi.

Ilmiy falsafaning markazida inson va jamiyat, tabiat yotadi. Ayniqsa, insonning yaratuvchi kuch ekanligini e’tirof etadi. Ilmiy falsafa olamning yaratilganligini, shu haqidagi g‘oyalarni inkor qilishga intiladi. «Dunyoviy aql», «Dunyoviy mutloq ruh», «Mutloq g‘oya»lar to‘g‘risidagi fikrlarni inkor qiladi. Chunki, ular, ilmiy falsafiy dunyoqarash tarafdorlarining fikricha, ilohiyotni bo‘rtirgan holda talqin qiladilar. Ilmiy falsafa o‘z faoliyatida, olam, undagi barcha jarayonlar, predmetlar doimiy harakatdagi materiyaning mahsuli ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Olam o‘z qonuniyatlari asosida taraqqiy etadi, deb targ‘ib qiladi. Ilmiy falsafa bilan shug‘ullanuvchilar diniy ta’limotlardagi olam va odamni xudo yaratgan degan fikrni tanqid qiladi.

Ilmiy falsafa olamni bilish, uni xarakterlash mumkin, deb mulohaza qiladi. Insonning aql idrokini cheksiz, deb biladi. Ilmiy falsafa, falsafa yaratgan nazariy bilimlardan xulosa qilgan holda, barcha hodisalarning o‘zaro munosabatini, aloqadorlik va bog‘lanishlarni mantiqiy tafakkur yordamidan anglash mumkin, deb biladi. Ilmiy falsafaning ijobiy xususiyatlaridan yana biri shuki, u nazariya va amaliyotni birlikda tahlil qiladi. Ularni bir – biridan ajratmaydi. U ana shu birlik, aloqadorlik tamoyiliga amal qiladi.

Falsafiy dunyoqarash tafakkurlash jarayoniga e’tiborni qaratadi. Insonni ijod qilishga chaqiradi va shu bilan birga o‘z mavzusini boyita boradi. Falsafiy dunyoqarashda insonning odob – axloqiga, qadriyatlariga jiddiy e’tibor beriladi. Falsafiy dunyoqarashda milliylik bilan umuminsoniylik mujassamlashgan. Falsafiy dunyoqarash orqali fikr yuritish oliy darajadagi umuminsoniy faoliyatlarni qadriga yetish ham demakdir. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘tmishda alloma

4) -86 12/1

faylasuflar tomonidan aytilgan va ma'naviy meros qilib qoldirilgan falsafiy fikrlarda, da'vatlarda umuminsoniylik xislatlari mujassamlashganki, ular o'z mohiyati jihatidan axloq va tarbiyaviy jihatlar negizini tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson faoliyatida dunyoqarash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hozirgi zamonda O'zbekiston fuqarolari, ayniqsa, yoshlari yangicha fikrlashlari, yangicha dunyoqarashga ega bo'lishlari davr talabidir. Hayot to'xtab qolmas ekan, inson faoliyati ham, jamiyat faoliyati ham o'zgarib boradi. O'zbekistonda huquqiy demokratik, adolatparvar jamiyat qurilar ekan unda yashaydigan barcha insonlar hayot imkoniyatlaridan bahramand bo'lishga haqlidirlar. Buning uchun o'zbek xalqi yangi falsafiy dunyoqarash bilan qurollangan bo'lishi lozim. Bu dunyoqarash sobiq sovet tuzumi dunyoqarashidan mutloqo farq qilishi-sifat jihatidan yangilanishi tabbiiy bo'lishi kerak. Ma'lumki, Sobiq tuzumda ko'p fikrlilik, hur fikrlilik uncha ham qo'llab-quvvatlanilmagan. Tashabbuskorlik, ijodkorlik qilgan shaxslar shubha ostiga olinar edi. Ijod va tashabbuskorlik bilan dunyoga kelgan fikr va amaliy faoliyatlar ming chig'iriqdan o'tkazilgan. O'tganda ham byurokratlar, amaldorlar qo'lida yillab yotar edi. Inson tafakkuri nazar-pisand qilinmasdi. Dunyoqarash yagona kommunistik mafkuraga bo'ysundirilgan edi. Shu sababli insonlar tor dunyoqarash doirasida fikr yuritar edilar. Falsafaning milliylik jihatlari haqida baralla fikr yuritganlar «partiya va hukumatga» qarshi bo'lib chiqar edilar. Sobiq tuzim yemirilganda bunday yondoshishlarning loyqa jihatlari ko'zga tashlandi. Respublikadagi ilg'or fikrlilar marksistik falsafa hayotni buzib talqin qilganligini seza boshladilar. Hatto onda sonda ba'zi fikri tor odamlar falsafadan voz kechish kerak, degan xom-xayollarni o'rtaga qo'yib, o'z milliy falsafasini ham o'sha falsafaga qo'shib qo'yaqoldilar. Bunday yondoshish nonko'rlik bo'lar edi. Asrlar davomida shakllangan falsafaga "xanjar" urilardi. To'g'ri, markscha - lenincha falsafani muqaddas g'oyaga, hatto, diniy holatga tushirib qo'yilgan edi. Ammo, bundan to'g'ri xulosa qilish zarur. Demak, falsafaga yangicha yondoshish davr talabidir.

Fanning funksiyalari va taraqqiyotning asosiy bosqichlari

Ma'lumki, inson va insoniyat faoliyatida fan ham muhim ahamiyat ga ega. Fanlarning kelib chiqishi insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqa boshladi. Fanning paydo bo'lishi va shakllanishi haqida asosan ikki yo'nalish ko'zga tashlanadi: eksternalistik va internalistik.

Eksternalistik yondoshuv tarafdorlarining fikricha, fanning paydo bo'lishi faqat tashqi omillarga ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning ta'sirlari bilan bog'liq. Ushbu sohalarning determinatsiyasi – ya'ni sababiy bog'lanishlari natijasidir. Internalizm ta'limoti tarafdorlarining fikricha, fanning kelib chiqishi va rivojlanishi ehtiyojlarga bog'liq. Shu bilan birga internalizmchilar tafakkur taraqqiyotini ham unutmaydilar. Tafakkur natijasida qonun va qonuniyatlar paydo bo'ladi va ushbu sohalar fanlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Umuman olganda mazkur ikki sohada fikr yurituvchilarning mulohazalari nisbatan qarama-qarshi bo'lsa-da, bir-birlarini mutlaqo inkor etmaydilar.

Ko'plab tadqiqotlarning xulosalari bo'yicha fan qadimgi Yunonistonda milloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalarida vujudga kelganligini e'tirof etadilar. Aslini olganda fanning unsurlari bir necha ming yillar ilgari qadimgi Hindiston, Xitoy, Misr, Markaziy Osiyoda ham paydo bo'lgan. Tadqiqotchilar, ayniqsa, yevropatsentrizm tarafdorlari fanni faqat yevropa taraqqiyoti bilan bog'lashlari unchalik to'g'ri emas. Demoqchimizki, fanning paydo bo'lishida qadimgi Sharq mamlakatlarining ham hissalari ulkandir. Ta'kidlash lozikmki, fan bir butun institut sifatida ya'ni ilmiy bilimning mustaqil tarmog'i shaklida XIV asrning boshlarida shakllandi.

Bu davrda jahonda ijtimoiy inqiloblar yuzaga keldi. Natijada san'atning turli tarmoqlari, savdo-sotiq, harbiy bo'linmalar, dengizchilik, arxitektura sohalari rivojlandi.Ushbu jarayonlar avvalgi fan obyektlarini kengayishiga turtki bo'ldi. Fanlarning tarixiga e'tibor qaratsak, fanlarni klassifikatsiyalashga qadimdan uringanlar. Jumladan, mutafakkir Aristotel' fanlarning tasnifini quyidagicha izohlagan.



(Ushbu sxemalar 21-22 betlar I.Saifnazarov va boshqalar. Fanning falsafiy masalalari.T. "Fan va texnologiya" 2007 yil.dan olindi.)

Ko'rinib turibdiki, fanlar haqida faqat yevropa olimlari emas balki Sharq mutafakkirlari ham o'z fikrlarini bildirib qoldirganlar. Yuqoridagi sahifalarda falsafaning ilmiy dushyoqarash sifatidagi ahamiyatini ko'rsatgan edik. Binobarin, fan ham ilmiy dunyoqarash

qatorida e'tirof etilishi mumkin. Fan falsafa kabi dunyoni tushunish uchun vositadir.

Taraqqiyotning barchasi ma'lum bir bosqichlardan iborat bo'lganidek, fan rivoji ham bosqichlarga ega. Yuqorida ta'kidlanganidek, fan XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Fanning birinchi bosqichi er.av. birinchi ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda tabiat – jamiyat, inson haqida turli qarashlar va fikrlar paydo bo'ldi. Naturfalsafa, ya'ni predmet va hodisalar haqidagi, umuman matematika, astronomiya, tibbiyot to'g'risidagi ilmiy kashfiyotlar ko'zga tashlandi. Turli usul va metodlarga e'tibor qaratildi. Qadimdayoq fizika, o'simlikshunoslik, embiriologiya, mineralogiya, geografiya, tarix sohalarida fanlarning ilk ildizlari rivojlandi. Hatto, qadim davrlarda mexanika, gidrostatika, geometriya, optika kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Lekin bularning barchasi falsafa fanining bo'laklari sifatida o'rganib kelindi.

Fanning ikkinchi bosqichi XVII-XVIII asrlar bo'lib, bu bosqich XIX asrgacha davom etdi. Bu davr ko'proq N.Kopernik, G.Galliley tadqiqotlaridan boshlandi va I.Nyuton, Leybnitslarning kashfiyotlari orqali yuqori bosqichga ko'tarildi. Bu davrda oldingi kashf etilgan qonunlar, usullar tahlil qilindi. Astronomiya, fizika, matematika, ijtimoiy fanlar qayta tahlil qilindi. Shu paytda fanlarni falsafadan ajrala boshlagani ko'zga tashlanadi. Fanlar mustaqil bo'la boshladi. Ilmiy salohiyat rivojlandi. Qadimda faqat Platon, Ma'mun Akademiyalari faoliyat yuritgan bo'lsa, endi London Qirollik jamiyati, Parij Fanlar Akademiyasi, keyinroq Berlin, Sankt-Peterburg, Stokgol'm va yevropaning boshqa yirik shaharlarida ilmiy akademiyalar tashkil topdi.

Fan taraqqiyotining uchinchi bosqichi XIX asr o'rtalridan boshlab XX asrning 60-70-yillarigacha bo'lgan davrni olish mumkin. Bunga sabab XIX asrning o'rtalarida hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va bir turda ikkinchi turga aylanishi, evolyutsion ta'limotning yuzaga kelishi bilan ham bog'liq. Bu davrlarda ilm bilan shug'ullanuvchilar miqdori ancha kengaydi. Ularning mavqei ko'tarildi. Chunki amalga oshirilgan kashfiyotlar inson tafakkurini ham o'zgartira boshladi. Og'ir va yengil sanoat, qishloq xo'jaligi sohalariga jadal holda fan kirib keldi. Natijada ishlab

chiqarish ham tez rivojlandi. Sababi fan yutuqlari amaliyotdan chuqur o'rin oldi.

Fan taraqqiyotining to'rtinchi bosqichi XX asrning 50-yillaridan keyingi davrga to'g'ri keladi. Bu davrda genetika, kibernetika fanlari, kosmos haqida fanlar rivojlandi. Bu davrlarni tadqiqotchilar fan va texnika inqilobi davri ham aytadilar. Chunki ikkinchi jahon urushidan so'ng fanlarni yanada rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. Sanoatni turli tarmoqlarini qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, energetika, tanstport, elektrotexnika, komp'yuterlarni rivojlantirish kabi sohalarda yirik o'zgarishlar sodir bo'ldiki, haqiqatdan ham fanlar inqilobi edi. Bu davrga kelib, fan yutuqlarini hayotga tatbiq etish muddatlari ham qisqardi. Olimlarning fikricha, bu davr katta fan davri deb ham yuritiladi. Barcha rivojlangan mamlkatlarda ilmiy tashkilotlar, o'quv markazlari miqdori misli ko'rilmagan darajada oshdi. Natijada fanning funksiya (vazifa)lari ham ortdi. Sababi har bir davr fanlar oldiga turli yechimlarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda edi. Binobarin fanlarning maqsadi yangi obyektiv bilimlarni kashf etish va ularni yo'nalishlarini belgilashdan ham iborat bo'lgandi. Fan ijtimoiy madaniy hodisadir. Shu sababli uning vazifa va funksiyalari ham keng qamrovlidir. Ularga quyidagilar kiradi: a) ilmiy bilimlarni o'zida jamlaydi va qonun hamda va kategoriyalarni shakllantirib tushuntiradi, xususiyatlarini bayon qiladi; b) predmet va hodisalarni loyihalaydi va muayayn obyektni o'zgartirishga yordam beradi. Texnologiyalarni o'zgartirish, zamonaviylashtirishda yetakchilik qiladi. Madaniy funksiyaga ega. Inson faoliyatini yengillashtiradi. Dunyoqarashni shakllanishiga ta'sir qiladi; v) jamiyatdagi sohalarni tartibga solishda ko'maklashadi. Zaruriyatni amalga oshiradi. Faraz va taxminlarni isbotlaydi. Yangiliklarni, salbiy, ijobiy tomonlarini tasdiqlashda qatnashadi; g) xalq xo'jaligini turli tarmoqlar uchun bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi. Imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi; d) rejalar tuzishda, usullarni ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish yo'llarini belgilaydi. Fan ijtimoiy taraqqiyotda yetakchi kuch vazifa va funksiyalarni bajaradi.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, fan falsafa bilan mustahkam aloqadadir. Aniq fanlar ma'lumot va kashfiyotlarni ijro etsa, falsafa fani ularni umumlashtirib, xulosalarni beradi. Barcha fanlarni

nazariya bilan qurollantiradi. Fan taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shu sababdan ham falsafa fanlarning metodologiyasi bo'lib xizmat qiladi.

Falsafa fanining predmeti funksiyalari

Bizni o'rab turgan borliqda bir-biridan farq qiluvchi, lekin uzviy bog'langan moddiylik va ma'naviylik, jismoniylik va ruhiylik, obyektivlik va subyektivlik mavjuddir. Shuning uchun ham falsafa olam to'g'risida birdan-bir to'liq tasavvur berish uchun xizmat qiladi. Hayotdagi jarayonlar nimalardan iborat? Unda nimalar harakat qiladi, moddiylikmi yoki ma'naviylikmi? Fizik jismmi yoki ruhiyatmi, obyektmi yoki subyektmi, tabiatmi yoki ongmi, bu-bir tomondan, ikkinchi tomondan esa, inson tafakkuri olamni bila oladimi, uning rivojlanish qonunlari to'g'risida fikr yurita oladimi, fikr yuritish natijasida obyektiv borliqni o'zgartirib, kerakli tomonga bura oladimi. Dunyo o'tkinchimi yoki abadiymi? Uning boshlanishi bo'lganmi? Oxiri qachon bo'ladi? Dunyodagi borliq nima? Borliqda nimalar, kimlar harakat qiladi? Dunyoning bir butunligi nimada? Uning tizimi nimalardan tashkil topgan? Boshqa koinotlar bormi? Olamning rivojlanishi qanday qonuniyatlarga bo'ysunadi? Hayotni o'zi nima, unda yashash shartmi? Yashashdan maqsad nima? Odamning paydo bo'lishi va ongning taraqqiy qilishi nimalarga va kimlarga bog'liq? Evolyutsiya va revolyutsiya nima? Ongning tabiatga va jamiyatga ta'siri bormi? E'tiqod, iymon nima? Insonlarni umuman, azaldan nimalar qiziqtirib kelgan, degan masalalarni hal qilish amaliyotda muhimdir.

Ana shu jarayonlarning ba'zilarini tekshirish predmeti, aniq fanlar bo'lishi bilan birga falsafiy muammolar hamdir. Borliq faoliyatini subyektiv xohishlar belgilamaydi. Narsa va hodisalar faoliyati umumiy va xususiy qonunlar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan tabiatni, ijtimoiy hayotni alohida xususiy fanlar qonunlari ham o'rganadi. Bu narsa va hodisalar o'rtasida hukmron bo'lgan umumiy bog'lanishlar borki, ularni eng umumiy bo'lgan falsafiy qonunlar o'rganadi.

Shu sababli bu qonunlar falsafaning predmeti, bahs-mavzui bo'lib hisoblanadi. Falsafa avvalo, ong va tabiat, tafakkur va borliq, jamiyat va inson o'rtasidagi aloqadorliklarning eng umumiy

tomonlarini o‘rganadi. Falsafa ushbu muammoning yechimini o‘rganish bilan materiya ta’limoti to‘g‘risida fikr yuritib, uning xususiyati nima, ong qanday paydo bo‘lgan, ongning shakl va tuzilishi qanday, uning nisbiy xarakteri va faolligi to‘g‘risidagi savollarga javob beradi. Falsafa olam taraqqiyotini hisobga olgan holda, ongning tabiiy jarayonlar va hodisalarga umumiy munosabatini, ularning ta’sirini shakllarini tekshiradi. Falsafa predmetiga olamni bilish jarayoni ham kiradi. Binobarin, falsafaning predmeti tabiat, jamiyat rivojining hamda inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonunlaridir. Falsafada qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘zaro o‘tish, inkorni inkor qonunlari borki, bular predmet va hodisalarni o‘rganishda muhim bosqichlardir. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorliklar falsafiy kategoriyalar orqali tushuntiriladi. Bu kategoriyalar mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl va boshqalardir.

Dunyoda umumiy va xususiy qonunlar obyektiv mavjud bo‘lib, ular bir–biri bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Shuning uchun ham aniq fanlarni o‘rganmasdan turib dunyoning umumiy qonunlarini o‘rganish mushkul.

Boshqa tomondan umumiy qonunlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lmasdan turib, xususiy fanlar qonunlarini bilish mumkin emas. Demak, falsafa predmetiga ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari, bazis va ustqurma, xalq ommasi, sinflar, shaxs, dohiylar, zaruriyat va erkinlik to‘g‘risidagi muammolar ham kiradi. Keyingi paytlarda falsafa, logika, estetika, etika kabi sohalarni ham qayta tahlil qilishda va xulosalashda muhim qadamlar qo‘ydi.

Falsafiy muammolar doimo yangilanib turadi. Chunki, eski, an’anaviy masalalar yangi jihatlarni keltirib chiqaradi. Bu jihatlar maxsus tadqiqot zarurligini taqozo qiladi.

Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlanishi va xalqaro aloqalarni tashkil etishning ahamiyati

Falsafada milliylik va umuminsoniylik haqida turlicha fikrlar o‘rtaga tashlanadi. Falsafa o‘z mohiyati jihatidan o‘zining muhokama

obyekti sifatida mazkur masalalarni ham qamrab olgan. Markscha-lenincha falsafa milliylik va umuminsoniylikni ham biryoqlamalik bilan hal etgan. Chunki, bu ta'limotda sinfiylik nuqtai nazari o'ta mubolag'alashtirilgan edi. Shu munosabat bilan milliy falsafa haqida fikr yuritilganda, har bir xalqning manfaatlari ham nazarda tutilishi kerak. Falsafiy fikrlarning o'zi shu milliylikdan, aniqrog'i, xalq hisoblangan millatlar faoliyatidan kelib chiqadi. Ya'ni, yakkalikdan umuminsoniylikka qarab borib, muammolarni o'rtaga qo'yadi va uni yechishga yordam beradi. Demak, falsafa fani har bir millatning faoliyatidan kelib chiqib umumiy xulosalar chiqaradi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, o'zbek milliy falsafasi ham mavjud bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi. O'zbek falsafasi ham boshqa millatlar singari uzoq tarixiy manbalar asosida shakllangan, rivojlangan, rivojlanayapti. To'g'ri, falsafa fanining millatlar nomi bilan bog'lanishi falsafada kamdan-kam tilga olinadi. Chunki, bunday yondoshish O'zbekiston hududida eramizgacha bo'lgan davrlarda yashagan ajdodlarimiz ham borliq va koinot, inson ruhiyati va ilohiyot, bilish va haqiqat, jamiyat va hayvonot olami sirlarini bilishga intilganlariga shubha yo'q. Zero, bu sohalar qadimiy falsafiy tafakkur yuritish natijasidir. Ana shu tafakkur yuritish alohida mamlakatda, alohida millatga oid bo'lsa ham, boshqa mamlakat va millatlar tafakkuridek o'ta mustaqil bo'lgan. Ammo boshqa millatlar faoliyati bilan bog'langan. Tajriba, fikr almashilgan. Har bir millat o'zining qadriyatlari va urf-odatlarini, milliyligini tiklaganki, keyinchalik davr o'tishi bilan ularni avlodlar tahlil qilaboshlaganlar va o'z millatlarining falsafasini paydo qilganlar. Bundan o'zbek falsafasi ham istisno emas.Ta'kidlash lozimki, o'zbek falsafasini shakllanishiga ta'sir qilgan omillardan biri shuki, bu O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'zbek xalqi ko'proq o'troq holda yashagan. O'zbek ajdodlari azaldan hunarmandchilik, savdogarchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Shu turmush tarzining o'zi tabiat, jamiyat, inson tafakkuri faoliyatlarini tahlil qilish zaruriyatiga aylangan. Faoliyatdagi zaruriy muammolarni yechishning yo'l-yo'riqlari izlangan. Ayniqsa, ma'lumki, o'zbek davlatchiligi tarixi uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Ravshanki, davlatchilikning tashkil topishi, uni ifoda qilish, mohiyatini anglash falsafiy fikrlarni kelib chiqishiga sababchi ham bo'lgan. Ibtidoiy tuzumning

yemirilishi unga nisbatan yuqoriroq rivojlanishga ega bo‘lgan tuzumni paydo bo‘lishi borliq haqidagi tushuncha va tasavvurlarni yanada mukammallashtirishga olib kelgan. O‘zbek xalqi ajdodlari tarixiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, undagi tarixiy yodgorliklar, rivoyat va asotirlar, ertaklar, afsonalar rang-barang turmush tarzlarini o‘zlarida ifoda etgan. Ulardagi voqealar tafsiloti davrlar rivojidan darak beradi. Asta-sekinlik bilan borgan taraqqiyot, insonlar faoliyatini bir yo‘nalishda emas, balki turli yo‘nalishlarga burib yuborgan. Natijada qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘lganki, bu fikrlar borliq to‘g‘risida bo‘lib, borliqni turlicha ifodalaganlar. Afsonaviy, diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Natijada falsafiy qarashlar paydo bo‘lgan.Qadimgi dunyoda Movarounnahr hududida zardushtiylik dinini aniqrog‘i, yakka xudolik haqidagi fikrlarni kelib chiqishi yangi davr falsafiy qarashlarini shakllantira boshlagan. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hotamnoma» va boshqa bir qancha ilmiy-adabiy manbalarda ko‘rsatilgan hayratomuz voqealar, xalqlar haqida ma’lumotlar, insonlarning turmush tarzi jarayonlari o‘zbek falsafasining qadimdan mavjudligidan dalolat beradi. Gerodot, Strabon va boshqa qadimgi allomalar o‘zbek xalqining ajdodlari haqida o‘z vaqtida mukammal fikrlarni yozib qoldirganlarki, bu fikrlar turli sohadagi olimlarimiz tomonidan yanada chuqurroq o‘rganilishni taqozo etadi.

O‘zbeklar tarixida shu jarayon diqqatga sazovorki, boshqa hududlarda bo‘lgani kabi davr o‘tishi bilan fikrlar ham o‘zgara borgan. Oddiylikdan murakkablikka qarab borgan. Masalan, zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik, sarbadorlik, tasavvufiylik harakatlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Xalq irodasi, uning falsafasi orqali maydonga kelgan, rivojlangan. Keyinchalik jaddidchilik ta’limotlari paydo bo‘ldi. XX asrning oxirida esa istiqlol falsafasi qad ko‘tardi. Shu sababli ham o‘zbek falsafasini o‘rtaga qo‘yish va uni o‘rganish davr taqozosidir. Hozirgi o‘zbek falsafasining shakllanishida milliy faylasuflar asarlarini nazarda tutish o‘zbek falsafasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash va yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyatini beradi. XX asr o‘rtalaridan boshlab O‘zbekistondagina emas, sobiq ittifoq respublikalari o‘rtasida ham e’tiborga sazovor bo‘lgan bir qancha O‘zbekiston faylasuflari yetishib

chiqdi. Asarlari o'z davrini aks ettirgan bo'lsada, ularni o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Bu faylasuflar qatoriga I.M.Mo'minov, E.Yusupov, S.Shermuhamedov, J.Boboyev, M.Baratov, X.Po'latov, O.M.Xayrullayev, J.Tulenov, A.Ortiqov, M.Abdullayeva, T.Mahmudov, Z.Qodirova, V.Alimasov, N.Hakimov, O.Fayzullayev, A.Valiyev, M.Hasanov, Y.Jumaboyev, I.Soifnazarov, Z.G'ofurov, A.Jalolov, X.Aliqulov, R.Nosirov, Q.Nazarov, E.Hoshimova, R.Imomaliyeva, T.Mahmudov, R.Taganov, F.Abdurahmonov, A.Abdusaidov, S.Azimov, S.Otamuradov, B. Ziyomuhamedov, V.I.Zohidov, I.Karimov, Z.Davronov, O.Fayziyev. S.P.Tursunmuhamedov, Q.Xonazarov, Yu.Sh.Shodimetov, U.Haydarov, B.Ismoilov, S.Mamashokirov, J.Ramatov, K.Sodiqov, X.Shayxova, I.Xo'jamurodov, J.Ya.Yaxshilikov, I.Ergashev, U.Qoraboyev, U.Abilov, M.A.Abdullayev, T.Abdushukurov, B.Aliyev, M.Ahmedova, A.Begmatov, M.Boltayev, X.F.Vohidov, E.X.Bobomurodov, S.Komilova, S.Rahimov, S.Sanginov, I.Jaborov, J.Jaborov, B.R.Karimov, N.Najimov, O.P.Umrzoqova, B.T.To'ychiyev, A.Q.Qodirov, A.G'.Qahhorov, M.Qahhorova, A.Choriyev, S.Choriyev, M.Xolmatova, X.Yu.Salomova, B.O.To'rayev, E.U.Umarov va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur nomlari tilga olingan va olinmagan faylasuflar falsafaning turli sohalarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan olimlar bo'lib, ular yozgan asar va ilmiy ishlar davr talabidan kelib chiqqan va ba'zi muammolarni ma'lum ma'noda hal etishga yordam bergan.

Bu faylasuflarning XX asrning oxirgi yillarida yozgan asarlari ko'proq, mustaqillik, istiqlol falsafasiga qaratildi. Bular qatoriga A. M. Jalolovning «Inson omili, falsafa, mafkura, siyosat» T., 1991., «O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura» T., 1996y., «Istiqlol ufqlari» T., 1998y.; E.Yusupovning «Istiqlol yo'nalishida», I. Ergashevning «Mustaqillik, siyosat va qishloq» T., 1995y., S. Shermuhamedovning «Falsafa fani yangilanishining ba'zi muammolari» T., 1996 y., «Madaniyat va sivilizatsiya» T., 1996y.N.Shermuxammedovaning "Falsafa" T.,"Noshir" 2012., "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" T.,Fan va texnalogiya 2014, Z. Davronovning "Ilmiy ijod metodologiyasi," T.,Iqtisod-moliya 2007., "Ekologiyaning ijtimoiy siyosiy falsafiy asoslari" ((hammualliflikda) T..Iqtisod-moliya 2006), Sh.I.Xaitovning "O'zbekiston falsafa tarixi" (T., Noshir 2011), "Murosa va O'zbekiston

falsafa tarixiga kirish" (T.2006), J.Yaxshilikov, N.E.Muxammadiyevlarning "Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi" (T., "Fan" 2017), I.Saifnazarov va boshqalarning "Fanning falsafiy masalalari" (T. "Fan texnologiya" 2007), B.To'rayevning tanlangan asarlari ikki jild (T. 2015), O.Fayzullayevning "Falsafa va fanlar metodologiyasi" (T.2006), V.Alimasovning "Falsafa yoxud fikrlash san'ati" (T.2008) kabilarni nazarda tutish mumkin. Albatta milliy falsafa yakka holda rivojlanmaydi shu sababli barcha millatlarga oid bo'lgan falsafa bilan ham faylasuflarimiz shug'illanishi o'ta muhimdir ularning falsafiy asarlarini tarjima qilish davr talabidir.

(Ushbu mualliflarning va boshqa nomlari tilga olinmagan faylasuflarning har biri tomonidan nashr etilgan o'nlab asarlari chop etilgan bo'lsada, ularning barchasini ushbu sahifani cheklanganligi hisobga olib darslikga kiritish imkoni bo'lmadi, uning uchun uzr so'raymiz)

Tayanch so'z va iboralar:

Falsafa, faylasuf, muammo, milliy falsafa, falsafiy maktab, jamiyat, o'zbek falsafasi, dunyoqarash, mifologiya, din, kategoriya, qonun, falsafa predmeti, falsafada milliylik va umuminsoniylik

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Falsafa nimani o'rgatadi?
2. Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos jihatlarini ayting.
3. Dinning asosiy funksiyalari qaysilar?
4. Falsafaning predmeti va uning jamiyatdagi roli.
5. Insoniyatning muhim muammolarini hal qilishda falsafaning roli.

Mavzuga oid test savollari:

1. Falsafa fani nimani o'rgatadi?

a) tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rgatadi;

b) diniy ta'limotlarni o'rgatadi;

v) falsafa bilish sohasini o'rgatadi;
g) jamiyat taraqqiyotini o'rgatadi;

2. Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Mif va din;
b) Din va san'at;
v) San'at va mifologiya;
g) Poetika va lirika;

3. Dunyoqarash nima?

a) dunyoqarash – kishilarning obyektiv olamning tarixi, rivojlanishi va mavjudligiga bo'lgan shaxsiy munosabatlaridir;
b) dunyoqarash – madaniyatning bir turidir;
v) dunyoqarash – diniy e'tiqoddir;
g) dunyoqarash – ilmlar yig'indisidir;

4. Falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgllang.

a) ontologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika, aksiologiya,falsafiy antropologiya;
b) fenomenologiya, gnoseologiya, fan metodologiyasi, ijtimoiy falsafa, etika aksiologiya, falsafiy antropologiya;
v) pragmatizm, pozivitizm, strukturalizm, etika, estetika, aksiologiya, fenomenologiya;
g) ontologiya, ma'naviyat asoslari, g'oyalar falsafasi, falsafa tarixi, antropologiya.

2-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI. SHARQ FALSAFASI.

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. Misr va Bobil falsafasi. Hindistonda falsafiy maktablar. Avestoda falsafiy fikrlar. Konfutsiy va Lao szi ta'limoti.

Falsafa tarixi – dunyoqarash haqidagi munozaralar tarixidir. Dunyoqarash masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining boshlang'ich davrida sodda shaklda kishilar tomonidan qo'yila boshlagan. Ibtidoiy jamoa tuzumida falsafaning bo'lishi mumkin emas edi, unda hali ishlab chiqarish juda past darajada edi. Bu davrda kishilar o'zlariga noz-ne'mat topish uchun vaqt sarflar edilar. Tabiat hodisalari oldida ojiz bo'lib, hodisalarning sababini qandaydir ilohiy kuch, deb bilardilar.

Quldorlik tuzum–insoniyat tarixidagi dastlabki sinfiy jamiyatdir. Uning moddiy negizini quldorlik mehnatiga asoslangan ishlab chiqarish usuli tashkil qiladi. Quldorlik tuzumi sharoitida ishlab chiqarish vositalari bilan birga, qul ham xususiy mulk bo'lib hisoblanar edi. Qul va quldordan tashqari bu davrda o'z mehnati bilan kun ko'ruvchi hunarmand va dehqonlar ham bor edi. Quldorlik jamiyatida jismoniy mehnat va aqliy mehnat o'rtasida ajralish boshlandi. Quldor sinfi san'at, adabiyot, falsafa bilan shug'ulana boshladi. Quldorlik davrida ishlab chiqarishning past darajada bo'lishiga qaramay, savdo, hunarmandchilik rivojlanishi bilan quldorlar orasida tabaqalanish boshlandi. Eski amaldor bilan, yangisi orasida to'sqinlik bo'la boshladi. Quldor va qullar orasida kurash boshlandi. Ilg'or dunyoqarash bilan konservativ dunyoqarash o'rtasida kurash boradi. Materialistik va hayotiy diniy, mifologik dunyoqarash bir-biri bilan munozara qilishi natijasida dunyoga keldi. Quldorlar diniy afsonalarga suyanib, tabiat va jamiyat hodisalarini xudolar idora qiladi, har bir urug' boshida xudo turadi, degan fikrlardan foydalandilar. Diniy ta'limotlarga suyangan mafkurachilar ilg'orroq dunyoqarashga qarshi kurashda turli idealistik qarashlarni oldinga surdilar. O'sib kelayotgan ilg'or tabaqa, bu diniy afsonaviy qarashlarga qarshi kurashda materializm falsafasini olg'a surganlar.

Quldorlik davrida materializm stixiyali ravishda dahriylik yoki materialistik qarashlar natijasida rivoj topdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi asosida mazkur qarashlar paydo bo'ldi. Nil daryosi bo'yida geometriya fani kelib chiqdi. Misrda geometriya, geografiya, matematika, fanlarning asosi paydo bo'la boshladi. Tabiat fanlari ham asta-sekin rivojlana boshladi. Shuni aytib o'tish kerakki, qadimgi Misrda «u dunyo»ga ishonmaydiganlar ham bor edi, ular dunyoning asosida moddiy narsaning yotishini e'tirof etar edilar.

Qadimgi falsafiy qarashlarning paydo bo'lishida Misr madaniyati muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki ilk madaniy yodgorliklar eramizdan avval to'rt ming yil oldin paydo bo'lganligi shundan dalolatdir. Misr madaniy yodgorliklarida, ertaklari, rivoyatlari, madhiya, duo, didaktik asarlar, masal, epos, ishqiy lirika, umuman xalq donishmandchiligining boshqa turlarida o'sha davrning ijtimoiy muhiti, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlari, tabobat, urf-odatlari, tabiat hodisalari, diniy, axloqiy, falsafiy qarashlari yuzaki bo'lsada, o'z ifodasini topgan edi. Qadimgi Misr afsonalarida hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va barcha narsada havo bor, deb ta'kidlanadi. Shu sababli ham misrliklar suvni muqaddas, deb bilganlar. Ularning fikricha, hayot suvdan boshlanadi. Shu sababli ham ular Nil daryosini ilohiylashtirishga borib yetganlar. Misrliklar o'z falsafasida insonlarni dunyo lazzatlaridan to'la bahramand bo'lishlariga chaqiradilar. Quvnoq va shod xurram yashash asosiy maqsad bo'lishi kerak. Oxirat, o'lim haqida doimiy o'ylaverish shart emas.

Misrliklarning qadimiy manbalaridan ma'lum bo'lishicha, tabiat hodisalari, tabiat kuchlari mubolag'alashtirilgan. Shu sababli o'simlik va daraxtlarga sig'inish Misrliklarda ancha qadimiydir. Misr falsafasini shakllanishida u yerdagi tabiat haqidagi fikrlarning shakllanishi o'sha paytlardayoq falakiyot fanlari kurtaklari Misrda rivojlanganligidan dalolat beradi. Ular yulduzlar faoliyati bilan ko'proq qiziqqanlar. Shu fan asosida taqvim tuzganlar va uni 12 taga bo'lganlar. Inson salomatligi bilan bog'liq bo'lgan tibbiyot fanlari ham Misrda paydo bo'lganki, natijada falsafiy muammolar ham o'rtaga qo'yila boshlangan.

Misr mamlakatida bo'lgani singari qadimgi Vaviloniya (Bobil)da ham ko'hna yodgorliklar mavjud bo'lib, ulardan

hanuzgacha tarix va falsafa hamda boshqa fanlarni o'rganishda foydalanib kelinadi. Jumladan, Bobildagi Adapa haqidagi doston fikrimizni tasdiqlaydi. Bu dostonda insoniyatning abadiy hayoti to'g'risidagi fikrlari, abadiy yashash haqidagi o'ylar o'z aksini topgan. Unda "o'lgan va qayta tirilgan" xudolar, jumladan Bobil xudosi Marduqqa haqida fikrlar berilgan. O'sha davrdagi insonlar ham tabiat va jamiyat yer yuzidagi o'zgarishlar haqida mulohazalar yuritgan. Samoviy sirlarni bilishga intilganlar. Xayol surganlar, faraz qilganlar. Ertak va afsonalar to'qiganlar. Bobilliklarning Etapa haqidagi afsonalari ana shular haqidadir. Bu afsonada insonlarning quyosh, oy, yulduzlar bilan qiziqqanligi, o'zgarishlarni sabablarini ochishga harakat qilganliklari bayon etiladi.

Bobilliklarning "Jafokash avliyo haqida doston" hamda "Xo'jayinning qul bilan suhbati" asarlarida o'sha davrning falsafiy muammolari yoritilganki, biz ular orqali qadimgi davr falsafasi bilan tanishmiz. Ulardan yaxshilik va yomonlik, johillik va ezgulik g'oyalari kelajakni yaratuvchi insonlar uchun namuna bo'lganligiga shubha qolmaydi. Ularda falsafiy tasavvur va g'oyalar tasvirlangan.

Materialistik falsafiy dunyoqarash ilk bor Hindistonda va qadimgi Xitoyda ham paydo bo'la boshladi. Hindistonda falsafiy qarash eramizdan oldingi uchinchi ming yilliklardan so'ng boshlangan.

Hindistonda shakllangan yangi ilg'or tabaqa braxmanizm diniy qarashga qarshi chiqdi. Ijtimoiy qarama-qarshilikning keskinlashuvi idealizm bilan dinga qarshi bo'lgan materialistik maktablarning kelib chiqishi uchun zamin hozirlaydi. Qadimgi Hindistonda, «Ved» «Upanishad» kabi yodgorliklar uchraydi. Upanishad falsafasining asoschisi Brixaspati edi. Bundan tashqari «Charvaka» ta'limoti mavjud bo'lib, dunyoning asosida to'rtta narsa – yer, suv, havo, olov yotadi, deb tushuntiradi, shuningdek hamma narsa va hodisalarning paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi tabiiydir, deb ko'rsatadi. Dunyoni bilish masalasini ham materialistik asosda hal qilganlar. Haqiqiy bilimning manbai tashqi dunyo bo'lib, sezgi organlarimiz orqali u haqda tasavvur hosil qilamiz deydilar. Ular abstrakt tafakkurga ham baho berdilar. Shular sababli xudoga ishonmadilar.

Bunday afsonalar xalq o'rtasidan mustahkam o'rin olgan bo'lib, keyinchalik zardushtiylikning «Avesto» kitobida qat'iy muhrlandi. Jumladan, yaxshilik olamiga Axura Mazda, yomonlik olamiga

Axriman hukmron, deb ko‘rsatilgan. Yomonlik va yaxshilik o‘rtasidagi kurashlar Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp, Elikbek va boshqa obrazlar faoliyati orqali tasvirlangan. Karashlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, tabiatni sevish, mehr-muhabbat sohalarida qahramonlik ko‘rsatuvchi tamoyillar asos qilib olingan Masalan, «Avesto»dagi Mitra obrazini oladigan bo‘lsak, u shunday kuchliki, unga dushman o‘qlari o‘tmaydi, Mitra o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, dushmanlarni yakson qiladigan buyuk qahramon.

Xalq ijodida afsonaviy obrazlar orqali kishilarning osoyishtaligi va baxt saodati uchun kurashilgan, fidokorlik ko‘rsatilgan. Ana shunday qahramonliklardan yana biri XI asrda yashagan Asadi Tusiyning “Gershaspnoma”sida bayon qilinadi:Bir ajdar kishilarga ko‘p baxtsizliklar keltiradi, qabilaning hayoti xavf ostida qoladi. Qahramon Gershasp ajdarga qarshi jangga otlanadi, ajdarning maskaniga qarab yo‘l oladi. Gershasp tush chog‘iga qadar ajdarni qidiradi, biroq uni topaolmaydi. U o‘t qalab ovqat pishirmoqchi bo‘ladi. Ajdar shunchalik katta ekanki, Gershasp ancha vaqt uxlab yotgan ajdarning ustida aylanib yursa ham, uni payqamagan ekan va o‘z o‘chog‘ini uning ustiga qurgan ekan. O‘t ajdarning badanini qizitibdi, ajdar vazmin qimirlay boshlabdi. Shundan keyingina Gershasp ajdar ustida kezib yurganini payqab olibdi. Lekin Gershasp vahimaga va sarosimalikka tushmabdi. U bu ulkan va dahshatli mahluqqa qarshi jang boshlabdi, qurollarini mohirlik bilan ishlatibdi, ajdarni yengib, kishilarni halokatdan qutqaribdi[1].

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. «Kitobi Jamshid», «Chistoni Elikbek», «Qirqqiz», «Qublandi Botir», «To‘maris», «Bexistun», «Bundaxshin», «Denkard» kabi qadimiy manbalar fikrimizni tasdiqlaydi. Mazkur qadimiy manbalarda falsafiy fikrlarni uchratish mumkin. Ularda ko‘proq yovuzlik va ezgulik hislatlarni falsafiy qilib tushuntirilgan. Bundan tashqari, Xitoyda ham sinfiy tabaqalanishning boshlanishi, sinfiy kurashning keskinlashuvi ideologiyada o‘z aksini topdi. Xitoyda hokim sinflar, dinni xalqni ezish uchun qurol qilib oldilar, xalq ongiga diniy aqidalarni ham singdirdilar. Xitoyda matematika, meditsina, biologiya sohasida ham bir qancha yangiliklar ochildi. Qadimgi Xitoyda birinchi materialistik

[1] Gershasp obrazi xalq xotirasida saqlanib qoldi, u qayta-qayta ishlandi va yozma adabiyotdan o‘rin oldi. Yozuvchi Asadi Tusiy (XIasr), shu afsonalardan foydalanib, o‘zining “Gershaspnoma” asarini yaratdi.

qarash - dunyo besh xil elementdan – suv, yer, havo, olov, yog'ochdan iborat deb tushuntirdi.

Xitoy materialistik faylasuflari, dunyoni moddiy birligini e'tirof qilib, dunyoning asosida bitta «tsi» ya'ni abadiy harakat qiluvchi modda yotadi, deydilar. Moddaning harakat manbai ijobiy (yan), salbiy (in') ta'sir orasidagi munosabatdan iborat, deydilar.

Millodan avvalgi V-IIIasrlarda Konfutsiy ta'limoti paydo bo'lgan va keng tarqalgan. Konfutsiy eramizgacha bo'gan davrning 551-479-yillarida yashab, faoliyat yuritgan. Uning fikricha insonlarning barchasi tug'ma xususiyatlariga ko'ra o'zaro yaqindirlar.Keyinchalik ular o'zlaridagi xossa-xususiyatlarga ko'ra farqlanadilar. Konfutsiy podsholarning ulug'vorligiga e'tiborni qaratadi. Agar podshoh adolatli bo'lsa insonlar uni e'zozlaydilar. Uning fikricha podshoh osmon o'g'lidir. Bu o'g'il buyruqni osmondan oladi va jamiyatni boshqaradi.

Tabiatning qonuniy rivojlanishi to'g'risidagi materialistik, stixiyali, dialektik qarash dao-qonun daotsizm deyiladi. Buning asoschisi Lao-TSzidir. Loa-TSzi maktabi qadim Xitoy materialistik falsafaning rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Lao - szining ta'llm berishicha, hech narsa abadiy emas, hamma narsa harakatda. Lao-TSzi fikricha narsalarning asosiy rivojlanish qonuni shundaki, har bir narsa o'zining rivojlanish darajasiga yetishi bilan o'zining qarama-qarshisiga aylanadi. Bu hayot qonunidir, deydi u.

Ushbu materialistlarning fikricha, dunyo doimiy o'zgarib turuvchi yaxlitlikni tashkil etadi. Aytish lozimki, mazkur ta'limotlarda dunyoning rivojlanishi haqidagi materialistik elementlar ancha rivojlangan edi.

Demak, falsafa kishilik tarixida qadimgi Sharq mamlakatlarida Misr, Vavilonlya, Hindiston, Xitoyda paydo bo'lib, sodda stixiyali materializm xarakteriga ega edi. Chunki Xitoy, Hindiston, Arabiston, O'rta Osiyoda feodalizmning dastlabki davrida tabiiy ilmlar ancha rivojlangan edi.

Qadimgi Xitoy va Hindiston falsafasi ilmiy zaminga ega bo'lmasada, umuminsoniyat ilmiy xazinasiga katta hissa qo'shdi. Lekin u falsafa feodalizm davri ideologiyasining asosiy shakli edi. Chunki ruhoniylar feodal sinfining asosiy qismini tashkil etar edi. Kishilik fikrining barcha sohasi falsafaga, dinga, diniy tizimga

moslashtirilgan edi. Falsafa shu davrga kelib ilohiyotga, sxolastikaga aylandi. Tabiatni o'rganish gunoh hisoblanar edi. Tabiat haqida fikr bildirganlar o'ldirilganlar, quvg'in qilinganlar. Lekin bunday harakatlar insonlar fikriga aksincha ta'sir etmadi. Chunki feodalizm zaminida kapitalistik ishlab chiqarish usuli vujudga kelgani uchun din va cherkovga qarshi atomistik, materialistik tendensiyalar ham avj oldi. Lekin ochiq kurashish mumkin emas edi. Shuning uchun progressiv fikr berish asosida harakat qildilar. Bularning barchasi sivilizatsiyadan dalolat edi.

Islom dinining vudjudga kelishi va falsafiy ta'limoti. Ilk o'rta asr Sharq falsafasi. Ilk o'rta asrda tasavvuf va ilohiyotshunoslik.

Islom dini dunyoda sig'inuvchilar miqdori jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Islom so'zi arabcha «Xudoga o'zini topshirish», «itoat», «bo'ysunish» ma'nosini beradi. Bu dinga ishonuvchilar arabcha «Muslim» deb ataladi. Uning ko'pchilik shakli bo'lgan «Muslimun» so'zining boshida xalqlar orasida turlicha: forslar – musulmon, o'zbek-musulmon, qirg'iz-qozoq- musulmon, Ukraina-Rossiya-bosurman, deb ataladi ular Muhammad ismini Magomed, deb aytadilar. Islom dinining kelib chiqishi masalasini turlicha talqin qiladilar. Islom manbalarida islom jamiyat bilan bog'lanmagan. Xudo tomonidan yuborilgan oxirigi ta'limot, deydilar. Bu birinchi nuqtai nazar, ikkinchi nuqtai nazar: VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrda qabilalar tugatila boshlagan. Sinfiy jamiyat yuzaga kelgan. Hukmron sinflar jamiyatga egalik qilgan, ya'ni ezuvchi sinflar ravnaq topgan. Avval mushrikiylik, ya'ni ko'p xudolik bo'lib, endi unga barham berish payti kelgan. Qadimiy ma'naviyat va madaniyat yanada rivojlanib, quldorlik tuzumini paydo qilgan, Yaman yarim oroli orqali karvonlar Habashiston, Hindiston, Suriya, Misr, Vizantiya va Eronni bog'lagan. Makkada karvonlar to'plangan. Savdo, chorvachilik, hunarmandchilik, savdogarlik taraqqiy etgan. Madina ham, Makka ham o'sha paytda diniy markaz bo'lgan. Undagi Ka'ba ibodatxonasi, u yerdagi qoratosh va uch yuzdan ortiq qabila xudolarining sanamlari tufayli bu joylar

e'tiqod markaziga aylangan. Qur'onning 108 – «Al- Kavsar» (Chashma buloq) surasida Arablarning Ka'ba ziyoratiga kelib, qurbonlik so'yish odatlari o'z ifodasini topgan.

V-VI asrlarda Makkada arablarning Qurayishlar qabilasi hukmron bo'lib, savdo qilish natijasida boyib ketgan. Pul muomalasi, sudxo'rlik keng rivojlangan. Qul savdosi bo'lgan. Sinfiy qarama-qarshiliklar kuchaygan. Bu joylarda yahudiylar va xristianlar ham yashagan. Islom dinini paydo bo'lishida yahudiy va xristian dinlari ta'sir etgan.

Yakka xudolikka ishonish islom dinigacha ham mavjud edi. Uni dastlab Xaniflar (haqiqat izlovchilar, e'tiqod qiluvchi) targ'ib qilgan. Islom dinida payg'ambar, deb tanilgan Muxammad 570-yilda tug'ilgan. U Makkada Qurayish qabilasiga mansub bo'lgan Hoshimiylar xonadonidandir. U 609-610-yilda Makkada yakka xudoga e'tiqod qilish to'g'risida targ'ibot boshlagan. Qurayishlarga ummaviylar qabilasi qarshilik ko'rsatgan. Ziddiyatlar kelib chiqqan. Makkada ahvol keskinlashgan. Shundan so'ng Muhammad Madinadagi Avs va Xazraj qabilalari vakillari bilan muzokara olib borib, ular yordamida Madinaga o'tgan. Natijada 622 -yili yuz bergan ko'chish (arabcha «hijra») dan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlangan.

Muhammad Hoshimiylar mavqeini tiklash uchun ummaviylarga qarshi kurashgan. Madinada musulmonlik tez qabul qilingan. Musulmonlikni qabul qilish ba'zida tinchlik – ba'zida urush yo'li bilan amalga oshirilgan. Madina kuchli davlatga aylanib, Muhammad qo'lida mujassamlashgan. Uning mavqei Makkaga nisbatan jiddiy kuchaya borgan. Natijada Makka zadogonlari Muhammad bilan kelishish yo'lini topganlar. 630-yili Madina qo'shinlari Makkani qarshiliksiz qo'lga oladi. Keyinchalik Makka aholisi ham Muhammadni yordamchilariga aylangan. Muhammad 632-yil iyun oyida Madinada vafot etadi. Undan so'ng uning o'rinbosarlari-xalifalar davlatni boshqarganlar. Shu sababli arab xalifati, deb yuritdilar.

Muhammadning ilk safdoshlaridan biri (qaynota) Abu Bakr (632-634) keyin Xalifa Umar (634-644) undan so'ng Xalifa Usmon (644-656) va keyin Hazrati Ali (656-661) davrlarida istilolar bo'ldi. Ayniqsa, Usmon va Ali davrida Kavkaz va O'rta Osiyoga kurash

boshlangan. Arab istilochilari VII asrni 70-yillarida Eronni bosib olib, O'rta Osiyoga hujumni boshladilar. Arablar (Movoraunnaxr – ikki daryo o'rtasidagi yerlar) avval bosqinchilik hujumlari qildilar, keyinroq VIII asr boshlarida va VIII asr o'rtalarigacha O'rta Osiyoni to'la bosib olganlar. Movoraunnaxrda ularga qarshi Muqanna, Sumbod Mug', G'urak va boshqa sarkardalar qo'zg'olonlar ko'targanlar. Bosqinchilik natijasida: mahalliy madaniyat, falsafa, mahalliy dinlar, ma'naviy qadriyatlar cheklangan, inqirozga yuz tutgan.

Islom dinining asosiy manbasi ya'ni, birinchisi Qur'ondir: unda islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Muhammadga 22 yil davomida farishta Jabroil orqali nozil qilingan (uqtirilgan). Vahiylar Muhammad davrida sistemali yozib olinmagan, balki Abu Bakr davrida yozilgan. Buni Muhammadga kotiblik qilgan Zayd ibn Sobit amalga oshirgan. 632-yil oxirida Qur'onning matni tayyor bo'lgan. Manbalarda u «Suxuf» (sahifalar) deb yuritilgan. Ular o'rtasida tafovutlar ham bo'lgan. Xalifa Usmon davlatni mustahkamlash uchun yana Zayd ibn Sobitga Qur'onning matnini to'plaganlar bilan birgalikda taqqoslashni va yagona to'plam tuzishni buyurgan. Bu to'plam «mushad» degan nom olgan. Usmon boshqalarning «Suhuf»ini yo'qotishga buyruq bergan. Yangi to'plamning asl nusxasi (ayrim ma'lumotlarga qaraganda VII) ko'chirtirilib, Kufa, Basra, Damashq va boshqa shaharlarga yuborilgan.

Qur'onni o'qishdagi tafovutlarni yo'q qilish uchun unga arab yozuvidagi xos belgilar qo'yib chiqilgan. «Mushaf»dan ko'chirilgan eng qadimiy nusxalaridan 4tasi hozirgacha saqlanib qolgan. Ulardan biri Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasida saqlanadi. Qur'on 114 suradan iborat; har sura oyatlarga bo'lingan. Suralar nomlangan. Masalan, 1-sura «Fotiha», 2-sura «Baqara» va h.k. Suralarning yaratilgan vaqti 2 davrga: 610-622-yillarda Makkada 90 sura, 622-632-yillarda Madinada 24 sura yaratilgan.

Qur'onning asosiy g'oyasi yakka xudolik – Alloh to'g'risidagi ta'limotdir.U birinchi manba. Shu bilan bog'liq holda unda payg'ambarlar, oxirat, taqdir va boshqa aqidalar bayon qilingan. Islom dinining asosiy talabi: e'tiqod, namoz, ro'za, zakot, haj. Qur'onda musulmonlarning falsafiy va axloqiy, huquqiy qarashlari

o‘z aksini topgan. XII asrda Yevropaning ba’zi xalqlari tillariga tarjima qilingan. XVIII asrda esa yevropaning ko‘pchilik tillariga, jumladan, rus tiliga 1878, 1894, 1907-yillarda tarjima qilingan. Islom dinining ikkinchi manbasi Sunna (arab tilida odob, an’ana, hatti-harakat)dir. Sunna islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan. Muhammadning so‘zlari, qilmishlari, hatti-harakatlari aks ettirilgan hadislarda to‘plangan. Sunna islomda Qur’ondan keyingi uni to‘ldiruvchi manbadir. Islom mohiyati va shariatning ikkinchi asosi sifatida e’tirof etilgan. Sunna VII asr o‘rtalarida yig‘ila boshlagan. Unda qarama-qarshiliklar, yaxshi va yomon qadriyatlar to‘g‘risida fikr yuritilgan. Bir, ikki asr davomida hadislar ko‘payib ketgan.IX asrda tizimga solingan. Aniq, ishonchli hadislar hamyurtimiz Imom Ismoil Buxoriy (810-870) tomonidan to‘plangan.

Islom dinining uchinchi manbasi – shariat qonunchiligi bo‘lib, u islom dinining huquqiy tizimidir. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalarga va amaliy diniy talablarga ham qonuniy tus berilgan.

Islomda jamiyatni boshqarish Qur’on asosida olib borilgan. Keyinchalik, feodalizm rivojlanishi bilan diniy faoliyatni qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug‘ilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini yaratganlar. Unga asos qilib, Qur’on va Sunnalar olingan. Shariat qonunlari XI-XII asrlarda to‘la shakllangan. Shariatda davlat huquqi normalari, majburiyat, jinoyat, jazo va oila-nikoh huquqlari, shuningdek, sud yuritish, vasiylik ko‘rsatmalari berilgan. Shariat, xususiy mulkni xudo tomonidan belgilangan, doimiy va o‘zgarmas, deb hisoblaydi. Kishi faoliyati ikki turga-harom va halolga ajratilgan. Shariat shakllanib tugallangan davrda 5ta kategoriya vujudga kelgan: 1.Farzning bajarilishi qat’iy, majburiy bo‘lgan; 2.Mansub (sunnat)- majburiy emas, lekin ma’qul, lozim deb hisoblangan; 3.Mubah –ixtiyoriy normalar; 4.Makruh – noma’qul normalar; 5.Harom-qat’iy ravishda ta’qiqlangan harakatlar. To‘rtinchi manba: Tafsir (arab-sharh, tushuntirish, izoh) islom an’anasida Qur’on, hadislar va boshqa diniy manbalarni talqin qilish. Qur’on tafsirlarida Qur’onning matni aynan sharhlab beriladi. Beshinchi manba: kalom (arab,–so‘z, nutq) islom ilohiyotining ilk shakli. Falsafiy ta’limot sifatida arab xalifaligida VIII asrda paydo bo‘lgan. IX asrga kelib, O‘rta Osiyoga tarqalgan.

Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyiladi. Kalom asoschisi al – Ash'ariy(873-935)dir. Kalomda aytilishicha, Alloh ham insoniy xususiyatlarga ega, deb tushuntiriladi. Kalomchilar Qur'onga suyanib jannat va do'zaxni azaliy mavjud, deb biladi. Insonda erkinlik yo'q, barcha qilmishlari uchun insonlar Alloh oldida javob beradi. Oltinchi manba: fiqx (arab-tushunish) musulmon huquqshunosligini ishlab chiquvchi soha. Huquqshunoslik fani sifatida ham qo'llaniladi. Shariat manbalarini ishlab chiqish, shariatni hayotga tatbiq qilish hllan shug'ullanadi. Fiqx bilan shug'ullangan olimlar (O'rta Osiyoda) Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Lays Samarqandiylardir. Huquqda 4 mazhab (yo'nalish) bor. Xanafiya, molikiya, shofi'iya va hanbaliyalar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyodagi falsafa ana shu manbalarga asoslanib targ'ib qilingan. Olam to'g'risida islom dini ma'lumotlaridan kelib chiqib ta'rif berilgan.

Diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi bag'rikenglikni taqozo etadi. Ayniqsa, buyuk muhaddislar hadislar to'plashda bu jarayonlarga e'tiborni qaratganlar. Jumladan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hadislarida bag'rikenglik jihatlari ochib berilgan. Imom Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «sahih» va 200 ming «g'ayri sahih» hadislarni yod olgan. Hadis ilmi bobida nihoyatda iqtidorli bo'lgan. Minglab shogirdlar tarbiyalagan. Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zur'a, Yusuf al-Forobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir. Imom Buxoriyning «Al-Jom'i, as-sahih (ishonarli to'plam)» deb nomlangan to'rt jilddan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhadislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng mukammalidir. To'plamda hadislardan tashqari islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma'lumotlar ham bor. To'rt jildlikda 600 ming hadisdan faqat 7275 tasi eng «sahih» hadislar kiritilgan. Bu to'plam juda ko'p marta chop etilgan. Unga sharhlar berilgan.

Imom Buxoriy yana bir qancha boshqa asarlar tasnif etgan. «Al-adab ul Mufrad», «Kitob asmo' is-sahoba», «Kitob af'ol il-ibod», «Kitob bad' il-maxluqot», «Kitob birr il-volidayn», «Ta'rix us-siqot va-z-zu'afo min ruvot il-hadis», «Ta'rix Buxoro» va boshqalar.

Imom Buxoriyning falsafasi qadriyatlarimizni tiklashda kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo'ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni singdirish va qaror toptirishda muhim ahamiyatga egadir. Muhammad payg'ambar «Kimgaki Alloh-taolo yaxshilikni ravo ko'rg'aydir, uni din ilmidan bahramand qilgaydir, ilmga ilm olmoq yo'li birlan erishilg'aydir» deganlar. Mazkur fikrda diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham e'tiborga olingan.

Sunniylik ta'limotining "otasi" degan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan samarqandlik Abu Mansur al-Motrudiy (Islom qomusi bo'yicha) 870-yilda Samarqandning Motrud mavzesida tug'ilib 944-yilda (ba'zi adabiyotlarda 941) vafot etgan. Qabri Samarqandning Chokardiza Qabristonidadir. U joy hozir ziyoratgohga aylantirilgan.

"Ta'vilati Ahli sunna"-Qur'on va sunnaning rasmiy ta'villari, ya'ni rasmiy islomiy talqini, sharhlari bitilgan kitob; Shariat asoslari va sofligi haqidagi kitob; "Kitob ul-Jadal" -diniy-axloqiy bahs munozaralarda g'olib kelish haqidagi kitob; "Kitob ul-Usul"-diniy ta'limot uslubiyotiga oid asar; "Risolat ut-Tavhid"-Allohning yakkayu-yagonaligi, birligi, vahdoniyat dini, ya'ni ilm-ul aqoidning nazariy asoslari haqidagi va boshqa o'nlab asarlarni tilga olish mumkin.

Islom dini nuqtai nazdida o'tmishda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan yana biri bu al-Marg'inoniydir. Alloma Burxoniddin al-Marg'inoniyning to'liq ismi Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniydir. U kishi 1123-yilda tug'ilib 1197-yilda vafot etgan. O'z davrining ilmlarini mukammal o'rgangan. Ayniqsa islom dinining asosiy manbalari Qur'oni Karim va hadislarni tahlil qilish natijasida Fiqh-islom huquqshunosligi sohasida jiddiy obro' e'tibor qozongan. Ayniqsa, yaratilgan "al-Hidoya" asari islom dini olamida hanafiya mazhabining qo'llanmasiga aylandi. Ushbu kitobda islom dinidagi huquqiy masalalar keng ko'lamda yoritilgan. "Hidoya" kitobi asrlar davomida musulmon mamlakatlarida huquqshunoslik bo'yicha muhim qo'llanma hisoblangan. O'rta Osiyoda esa 1917-yildan 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib sovet sud sistemasi joriy etilgan paytlargacha rioya qilindi. Ushbu kitob 1893-yilda rus tiliga N. P. Grodekov tomonidan (ingliz tilidan) tarjima qilingan edi. 1994-yilda "Hidoya" qayta nashr etildi. Kitob muallifi Burxonuddin Marg'inoniyga hurmat va e'tibor O'zbekiston

mustaqillikka erishgandan so‘ng kuchaytirildi. Uning 910 yillik tavallud sanasi 2000-yilda nishonlandi.

Bunday g‘oyalarni paydo bo‘lishida Ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Yazid Bistoniy, Mansur al-Xalloj, Abu Bakr ibn Muso al-Vositiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Firdavsiy, Abdulla Jafar Rudakiy, Yusuf Bolasog‘uniy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad ibn Abdulloh, Ahmad ibn Abdulloh Mavraziy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf· Xos Xojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi yuzlab allomalarning xizmati kattadir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (787- 847) ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shib astronomiya, matematika sohalariga oid ko‘plab asarlar yozgan. Xorazmiy xalifa Ma’mun rahbarligida “Donishmandlar uyi”da ishlagan. Uning “Al-jabr val muqobala” asari ayniqsa mashhurdir. Bu asar G‘arb va Sharq olimlariga algebra fanidan dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Xorazmiyning “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soati to‘g‘risida risola”, “Hind hisobi haqida risola”, “Tarix bo‘yicha risola”, “Musiqa bo‘yicha risola”, “Zij” kabi asarlari ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlardir. Bu asarlar Xorazmiyning buyuk matematik, umuman qomusiy alloma ekanligidan dalolatdir. To‘g‘ri, Xorazmiy aynan falsafaga oid maxsus asar yozmagan bo‘lsa-da, ammo uning matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va musiqa ilmiga oid barcha asarlarida ilgari surilgan ilmiy isbotlangan falsafiy fikrlar, g‘oyalar, nazariy ta’limotlar son-sanoqsiz. Hamyurtimiz o‘zining bu asarlari bilan dunyo ilmining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan hamyurtimiz.

Falsafa tarixida ayniqsa O‘rta asr sharq falsafasida panteistik qarashlar ham paydo bo‘lgan Panteizm so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib rap-hamma, theos-xudo degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu ta’limotning asosida Alloh bilan tabiat o‘zaro mosdir, aynan birdir, Alloh va tabiatni bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishi zararli deb tushuntiradi, tafakkurga zid deb e’tirof eadilar. Mazkur tushuncha sharq mamlakatlarida vijudiyun ma’nosida ishlatilgan. Panteizm turli davrlarda turlicha xarakterga ega bo‘lgan. Xilma-xil qarashlarni o‘zida aks ettirgan. Jumladan, sharq mutafakkirlari qarashlarida ham panteizim sohasida fikr yuritilgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy ham borliq va uning paydo bo‘lishini panteistik qarash bilan ifodalagan.

Forobiy fikricha, moddiy boshlanish o'zini olloh orqali oshkor qiladi. Allohda moddiy ibtido nisbatan, go'yoki ochiq oydin ifoda etilmagan bir shaklda mavjud bo'ladi. So'ngra oiloh noaniq shakldan o'zini batafsil holda ozod qilib kuch-quvvat yarasha bir tarz namoyon bo'lib beradi. Alloma, faylasuflar Ibn Rushd ham Abu Nasr Forobiy izidan borib panteistik qarashlarni targ'ib qilgan. Abu Ali ibn Sino ham Forobiy ta'limotiga asoslanib "vujudi vojib" va "vujudi mumkin"ning o'zaro munosabati orqali panteizm karashda bo'lgan. Panteizm G'arb mamlakatlarida ham tarqalgan. Uning vakillariga Ioann Skot Eriugena, David Dinanskiylarni olish mumkin.

O'rta asrda Aristotel' boshlab bergan falsafiy ta'limotlaridan yana biri peripatetizmdir. Bu so'z ham yunon tilidan olingan bo'lib peripateo –sayr etib yurmoq ma'nosini anglatadi. Maktabda tinglovchilar bilan sayr qilib dars o'tilgan. (nomi shundan olingan) Bu ta'limotning asoschilari asosan tabiat taraqqiyotini e'tirof etganlar. Tabiiy fanlar natijalariga ishonib ko'proq materialistik qarashlarni targ'ib qilganlar. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel' bo'lib, undan so'ng Teofrast davom ettirgan. Ularning ta'limoti ta'sirida O'rta asr O'rta Osiyo mutafakkirlari ham ularga taqlid qilganlar.

Forobiy Abu Nasr Muhammad (870-950) Sirdaryo bo'yidagi Forobda keyin Damashqda bilim oldi. U yirik tilshunos, mantiqshunos, matematik, ximik, tabib, psixolog, etnik, musiqashunos edi. Grek madaniyatini yaxshi egallagan, tabiat fani, sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy fikr egasi edi. Forobiy Aristoteldan keyingi, ikkinchi ustoz bo'lib tanildi. Aristotel asarlarini to'g'ri tarjima qilgan yirik faylasuf edi. Aristotelning "Kategoriyalar", "Analitika", "Poetika" kabi asarlarini tarjima qildi. O'zi esa yuz ellikdan ortiq asar yozgan. Asarlari yo'qolgan bo'lishiga qaramay, ulardan bizga bir qanchasi yetib kelgan. Metafizikani sharhlash, "Ehsonul-ulum" falsafa, tibbiyot, matematika, mantiqshunoslik, tilshunoslik, siyosatshunosliklarga oid fikrlar berilgan. "Musiqaning ulug' kitobi" "Assiyosat al madaniyat", "Fanlarning kelib chiqish risolasi" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan.

U moddiy dunyoni moddiy obyektlar, deya anglaydi va Aristotelning progressiv qarashini mistikadan ozod qilishga urindi, progressiv fikrlarni targ'ib qildi. Olim tabiatdan tashqaridagi kuchga

ishonadi va uni massa, sifat, xususiyatga ega emas, deya ishlarga aralashmaydi, deydi.

Forobiy falsafasida materialistik tendensiya kuchli. Materiyani u inkor etmaydi, uni birinchi asos, deb biladi. Uning fikricha, suv, havo, olov, osmon, yerdagi narsalar qo'shilib boshqa predmetlar paydo bo'ladi. Osmon jismi ham shundan paydo bo'lgan deydi.

Demak, uning fikricha olamda materiya va shakl bor, lekin ular teng. Bu yerda uni fanda, falsafada Aristoteldan ilgari ketgan deya olamiz. Aristotel shakl birlamchi, materiya ikkilamchi degan. Forobiy "materiyaning harakati obyektiv, zero materiya obyektivdir. U moddiy olamning harakat manbai, olamdagi narsalar o'zgarishda, harakatning sababi turli moddalarning birikishida" deb ko'rsatadi.

U moddiy narsalarni o'zgaruvchan – vujudga keladi, yo'qoladi deydi. Uning fikricha, moddiy elementdan tashkil topgan narsalar o'zgarmaydi, yangisi vujudga kelmaydi, yo'qolmaydi.

U moddiy olamni, harakat va o'zgarishda bo'lgan narsalarni quyidagi qismlarga bo'ladi: 1) osmon jismlari; 2) minerallar; 3) o'simliklar; 4) hayvonlar; 5) insonlar. Bular sifat jihatidan farq qiluvchi cheksiz hodisalardir. Sifat o'zgarishining sababi, materiya deb biladi. Bu stixiyali dialektika va sodda materializmdir. Forobiy bilish nazariyasida ham progressiv fikrlarni ilgari surgan. Odam, uning sezgisi aqldan ilgari paydo bo'lgan, aql esa moddiy olam mahsulidir. Inson hayvondan aqli bilan farq qiladi, deydi. Inson bilishi sezishdan aqliy bilish tafakkurigacha ko'tariladi, deydi. Bu-bilish nazariyasidagi materializmdir. Forobiy inson bilimi moddiy dunyo sirini yorita olmaydi, deb fikr yuritdi. Forobiy jon va tana haqidagi masalada jon chiqishi bilan tan o'ladi, deydi.

Shunday qilib, Forobiyning falsafiy qarashlarida ilg'or fikrlar mujassamdir.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan yana biri Abu Rayhon al Beruniy (973-1048)dir. U katta qomusiy olim hisoblanadi. O'zining tabiiy bilimlar sohasidagi yutuqlari bilan fan tarixida katta o'ringa ega. Olim yil hisobini, kalendarni ishlab chiqqan. Uning "Hindiston" asari esa falsafa, geografiya, astronomiya, mineralogiyaga oid. Mutafakkirning fikricha, materiya bor narsalarni o'zgartiradi, shaklini yaratadi. Materiya tafakkurning ham asosi hisoblanadi. Kishining bilish imkoniyatiga ishonadi, diniy xurofotga ehtiyotlik

bilan yondoshadi. Materiya barcha narsaning asosi, uningcha, hamma narsa o‘zgaradi, o‘sadi, vujudga keladi, halok bo‘ladi. Bu tabiiy jarayon. Materiya yaratuvchi xususiyatga ega deydi.

O‘sha davrning buyuk mutafakkiri. Abu Ali ibn Sino(980-1037) Buxoro yonidagi Afshona qishlog‘ida, Somoniy Nuh ibn Mansur saroyi amaldori oilasida tug‘ilgan. Bu davrda O‘rta Osiyoda arablar hukmronlik qilgan davr edi. Lekin undan keyin bu yer markazga aylandi. Fan, madaniyat rivojlandi. Ibn Sino tabib, farmakolog, adabiyotchi, ximik, astronom, faylasuf, etnologik sifatida boshqa fanlarning ham rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olim. 500dan ortiq asar yozgan. Ulardan 60 tasi bizgacha yetib kelgan. Asarlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Abu Ali ibn Sinoni qadim davrdagi Gippokrat, Galen, Aristotel bilan yonma-yon qo‘yadilar. Uning “Kitob al-qonun fittib” asari tabiblarga qo‘llanma bo‘lib keldi va kelmoqda. Undan XVIII asrgacha anatomiya, fiziologiya, terapiya, diagnostika, profilaktika, farmakologiyadan ensiklopediya sifatida foydalanildi. Bu asar Lion, Rim, Neapol’, Venetsiyalarda lotin tilida 30 martadan ortiq nashr qilingan.

U tabiat fani bilan din orasidagi munosabatda xolislik bo‘lishini talab qiladi. O‘sha vaqtlarda u anatomiya bilan yashirin shug‘ullandi, bemorlarni davolaydi. U, kishidagi psixik holat organizmga, uning ahvoliga bog‘liqligini, ruhiy faoliyatni bilish uchun biologik jarayonni va nerv sistemasini yaxshi o‘rganish kerakligini, shuningdek, dam olish, sayohat, jismoniy tarbiya, ob-havo va profilaktika jarayonlari inson salomatligiga zarur ekanligini ko‘rsatdi. Hali mikroblarni aniqlashdan oldin, suv orqali kasallik tarqalishini aniqladi. U nazariya va amaliyot birligi masalasiga e’tibor qaratdi. Tabiatni o‘rganish sohasida vulqonlar, tog‘lar borasida, ularni harakatlanishi haqidagi ilmiy falsafiy fikrlarni bildirdi.

Ibn Sinoning falsafiy ilmiy tabiiy qarashlari bilan bog‘liq asarlari «Kitob ash shifo», «Donishnoma», «Najot» kabilardir. U, fizika (tabiat to‘g‘risidagi ta’limot), logika (tabiat va insonni bilish yo‘llari), metafizika (borliqni bilish to‘g‘risidagi) falsafa borliq xususidagi fanlar, deb e’tirof etdi. Ibn Sino bu sohada Aristotel izdoshidir. U Aristotelning noto‘g‘ri qarashlarini qabul qilmasdan o‘z

fikrlarini rivojlantirdi. Olam mangu, yaratilmagan deb tushuntirdi. Borliqni materiya degan. Mangu materiya mavjud, buyumlar materiyadan paydo bo'ladi. Materiya borliq manbaidir. Shakl materiya bilan aloqadadir, deydi.

Aristotelning abstrakt shaklini rad etdi. Ibn Sino bilish nazariyasida materialistik qarashlarni ilgari surgan. Uning fikricha, aql faol kuch, bilish qurolidir. Inson tajribasini birinchi o'ringa qo'yadi, tushuncha keyin keladi. Moddiy dunyo birlamchi, tushuncha ikkilamchi. Inson aqli uzoq davr davomida mehnat orqali hissiy qabul qilishi orqali yuzaga keladi. Aristotelning mantiq fanini asosladi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga to'xtalsak, u adolatsizlikka qarshi kurashgan. Uningcha ruhoniylar ham, davlat arboblari, adabiyotchilar, harbiylar ham aniqrog'i, har kim o'z o'rnida bo'lishi zarur. Bu fikr o'sha davr ijtimoiy ziddiyatlaridan kelib chiqqan fikrlar bo'lsa, ajab emas.

Tasavvuf ilmi yoki so'fiylik diniy oqimi VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Dastlab so'fiylar shaxsiy istakdan to'la voz kechish g'oyasini targ'ib qilganlar. Tasavvuf musulmon mamlakatlaridagi ijtimoiy taraqqiyotning xususiyatlari bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan. Unda neoplatonizm ta'limoti, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik va ayniqsa, buddizmlarning ta'siri bor. Tasavvuf tarafdorlari axloqiy jarayonlarni targ'ib qilib xudoga yaqin bo'lishni asosiy maqsad qilib qo'yganlar. Shaxsiy manfaat xislatlardan voz kechishni talab qilganlar. Tasavvuf ham xilma-xil shakl va oqimlarga ega. Tasavvufning asosiy maqsadi, obyekti inson va xudo.

Tasavvufda inson 4ta bosqich orqali kamolatga erishadi. Birinchi shariat qonunlaridir. Shariat qonunlariga barcha musulmonlar bo'ysunishi kerak. Faqat shundan so'ng ikkinchi bosqich-tariqatga ko'tariladi. Bunda muridlar o'z pirlariga itoat qilishi, o'z shaxsiy shakllaridan voz kechishi shart hisoblangan. Bu bosqichdan o'tganlar uchinchi bosqichga – ma'rifatga ko'tariladi. Bunda koinotning birligi xudoda mujassam bo'lishini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, balki qalb bilan anglash kerak, deya talqin qilinadi. To'rtinchi bosqich haqiqat. Tasavvufda haqiqatga erishuv so'fiylikni «Shaxs sifatida tugatib» xudoga singib va natijada abadiylikka erishishi deb qayd etilgan. Bunga

tasavvufchilar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar (psixofizik) sig'inish va ibratlar orqali erishadi, ular haqiqiy boylik bu- moddiylik emas, balki ma'naviylikdir deydilar. Abu Hamid G'azzoliy tasavvufni islom dini bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olishga yo'l ochgan. Movarounnahrda tasavvufchilik Yusuf Hamadoniy tariqati(XII asr)dan boshlangan. Undan tashqari Abduxoliq G'ijduvoniy va Ahmad Yassaviy tariqati, XIII-XIV asrda Naqshband tariqatlari yuzaga kelgan. Ular ta'sirida Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vali ta'limotlari ham paydo bo'lgan. Sobiq Ittifoq davrida bu ta'limotlarni reaksion ta'limot sifatida taqiqlaganlar. Uni insonlarni jamiyat hayotidan chetga tortadi, qizg'in faoliyatni so'ndiradi deb tushuntirllgan.

Tasavvuf ta'limotida Ahmad Yassaviy (1041-yilda tug'ilgan. Ilmiy adabiyotlarda vafoti 1165-1167-yillar deb ko'rsatilgan) ta'limoti muhim ahamiyatga ega. Yassaviy buyuk shayx sifatida musulmonlar o'rtasida e'tibor qozongan. Rivoyatlarga ko'ra, Ahmad Yassaviy payg'ambardan ortiq umr ko'rishni gunoh deb bilib, 63 yoshida yer to'laga – chillaxonga kirgan. Umrining oxirini shu chillaxonda o'tkazgan. Mavlono Xusomiddin Sig'noqiyning risolasida Ahmad Yassaviy 130 yil umr ko'rgan, deb ma'lumot beriladi. Ahmad Yassaviyning she'rlar to'plami «Devoni hikmat» deb yurtiladi. «Devoni hikmat»ning yetakchi g'oyasi din va tasavvufdir. Ahmad Yassaviy islom dinining qonun-qoidalari va urf-odatlarining yig'indisi bo'lgan «shariat»ni, tasavvuf mohiyati bo'lgan «tariqat»ni, ishqi-ilohiy-«ma'rifat»ni, xudo va unga erishmoq-«haqiqat»ni targ'ib qilgan. «Devoni hikmat»da «Ey darvesh, bilgil va ogoh bo'lg'ilkim, avval kalimai shariat, ikkinchi kalimai tariqat, uchinchi kalimai ma'rifat, to'rtinchi kallmai haqiqatni bilmoq kerak. So'fiy bo'lib bu kalimalarni bilmasa so'fiy emas» - deyiladi. Ahmad Yassaviyning hikmatlarida diniy olamga g'arq bo'lish bilan birga tarkidunyochilik birlashib ketgan. Zolimlar qoralangan, kambag'allar faoliyati yaxshilik bilan bog'langan. Uning falsafasida insonlarni yaxshilikka chorlash, boylikka berilmaslik, mansabni suiste'mol qilmaslik g'oyalari yetakchi o'rinni egallaydi.

Tasavvuf falsafasi Abduxoliq G'ijduvoniy (1220-yilda vafot etgan) ta'limotida ham rivojlantirildi. Uning vasiyatnomasida jamoatga mulozim bo'lish unga xizmat qilish muqaddas vazifa

ekanligi uqtiriladi. Allohga yaqinlashishning yo'li shudir, deb ko'rsatadi u. Shu bilan birga insonlarni chillaxonada hadeb o'ltiravermaslik, Allohga toat-ibodat haddan tashqari oshirilib yuborilmasligi ta'kidlanadi. Mehnat qilishga chorlanadi. Halol yashashga chaqiriladi. Uning falsafasi Yassaviy ta'limotidan ilg'orroq edi.

Tasavvuf falsafasining yirik siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro(1145-1221)dir. Tasavvufdagi Kubroviya tariqati Kubro tomonidan yaratilgan. U yirik olim sifatida «Jamolning muattarlari va kamolotning egalari», «O'nta qonun va qoidalar» nomli asarlarning muallifidir. Najmiddin Kubro falsafasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Shaxsiy faoliyati bilan mazkur sohalarda namuna ko'rsatgan.

Tasavvuf falsafasi XIV asrda Bahouddin Naqshband(1318-1389) tomonidan rivojlantirildi. Uning ta'limoti suluki naqshbandiya, deb ataladi. Naqshband tahallus bo'lib, aynan ma'nosi matoga gul-naqsh solishni bildiradi. Naqshband kishilar hayotida xilvatchilik, tarkidunyochilik bilan hayot kechirishini targ'ib qilmaydi, balki bu dunyoda shod va hurram yashash kerak, deya takidlaydi. Ammo bu holat kelajakni, xudoni esdan chiqarishga olib kelmasligi lozim. Uning ta'limotida «kishi zohirda odamlar bilan, botinda (ichdan) esa xudo bilan bo'lishi kerak» degan fikr yotadi. Uning falsafasi insonlarni o'z qo'li bilan, mehnati bilan, mehnat orqali keladigan daromad bilan kun kechirish, tirikchilik qilish sohalarini yoritib beradi.

Islom dini singari tasavvuf ta'limotining asosichlari ham insonlarni yaxshilikka, hur va farovon hayot kechirishga, tinchlikni barqaror bo'lishiga undaydilar. Bu ta'limotlar Vatanimiz hududidagi insonlarni diniy aqidalar orqali insofli bo'lishga chaqirgan. Falsafani diniy nuqtai nazaridan yuqori darajaga ko'targan.

Nizomiy, Navoiy, Hofiz, Jomiy kabi allomalarimiz ham ilmi tasavvuf bilan bog'laganlar.

Temuriylar sulolasi davri. Abduraxmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida gumanizim g'oyalari.

Ma'lumki, Amir Temur mazmun jihatidan farq qiladigan, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Bu bilan u o'z xalqining

buyukligini ham ta'minladi. Keyinchalik Amir Temur asos solgan davlatchilik «Temuriylar davlatchiligi», «Temuriylar davri», «Temuriylar saltanati», «Temuriylar sulolasi» kabi nomlar bilan tarix sahifasidan o'rin oldi. Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat'iy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi Amir Temur qonunlar va urf-odatlarga asoslangan davlatni barpo etdi.

Temuriy tamoyillar davlat yuritishdagi muhim yo'nalishlar bo'lib, ular davlatchilik falsafasining o'ziga xos ifodasidir. Shu bois, xulosa qilish mumkinki, A. Temur falsafasida bog'lanish va aloqadorliklarga e'tibor qaratilgan. «Tuzuklar»dagi bog'lanishlar va aloqadorliklarning hammasi quyidagi xarakterga ega:

- hodisalardagi sababiy bog'lanish va aloqadorliklar;
- muhim hamda muhim bo'lmagan bog'lanish va aloqadorliklar;
- vositali hamda vositasiz bog'lanish va aloqadorliklar;
- zaruriy hamda tasodifiy bog'lanish va aloqadorliklar.

Bu bog'lanish va aloqadorliklarni alohida-alohida tahlil etadigan bo'lsak, ular ham o'z navbatida o'zaro ta'sir vositasida navbatdagi bog'lanish va aloqadorliklarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, davlat boshqaruvi benihoya ko'p omillar bilan bog'liq, uning zamirida murakkab falsafa, son-sanoqsiz jarayonlar mavjud. Ularning birini anglab yetsangiz, undan ikkinchi bir haqiqat kelib chiqadi. Shuning uchun hodisalar mohiyatini bilish, barcha aloqador jihatlarni, vositalarni bir butun holda tekshirish talab qilinadi. Shundagina xatolardan saqlangan holda hodisalar rivoji ta'minlanadi. Shu bilan birga, ularni aniqlashda turli uslublardan ham foydalaniladi.

Ta'kidlash lozimki, Amir Temur bobomiz a'lo darajadagi falsafiy tafakkur uslubiga ega bo'lgani sababli, boshlagan ishlarining barchasini poyoniga yetkazib, yutuqlarga erishgan. Zero, bog'lanish va aloqadorlikning o'zi ham falsafiy deterministik (bog'lanish, aloqa, o'zaro ta'sir) xususiyatlariga egadir. Amir Temur o'z faoliyatida tamoyillardan foydalanib ish yuritdi. Tamoyillardan birinchisini sababiy bog'lanishlar nuqtai nazaridan teranroq tahlil qiladigan bo'lsak, ya'ni Tangri taoloning dini va Muhammad payg'ambarning shariatiga qat'iy amal qilib yashashiga asosiy sabab, avvalo, o'sha

davrdagi ijtimoiy siyosiy muhit hisobga olingan edi. Amir Temur yashagan davrda islom dini Turon zaminida xalqning ongi va tafakkuridagi real kuch sifatida e'tirof etilar edi. Bu mukammal ilohiy ta'limot xalq qalbiga singib ketgandi. Tabiiyki, Amir Temur hazratlari ham islom dini aqidalariga qat'iy amal qilib, mamlakatga hukmronlik faoliyatida islomiy g'oyalarni bosh shior qilib oldi. Madrasa va masjidlar qurdirdi. Din peshvolarini hurmatladi. Natijada mudom g'alaba ul zotga yor bo'ldi. Islom dinini targ'ib qilish natijasida Sohibqiron tarafdorlari ortdi, davlatining kuch-qudrati oshdi.

Amir Temur tuzuklari bevosita Temuriy tajribasining mantiqiy natijasi bo'lib, ul zot umrining poyonida bitilgan asardir. Amir Temur o'zining davlat boshqaruviga xos ustun jihatlarini e'tirof etgan holda bu boshqaruv an'ana sifatida davom ettirilishini orzu qilib, «...Toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay», deya umidvor vasiyat etgan edi. Haqiqatan ham, Amir Temurning avlodlari turli davrlarda, turli mamlakatlarda bu vasiyatdan to'g'ri xulosa chiqaradilar va shu bois Temuriylar sulolasi uzoq asrlar mamlakatni boshqarib keldilar.

Amir Temurning asaridan sezilib turadiki, o'zi tanlagan va tayinlagan kishilarning axloqiy xislatlariga ko'proq diqqatni tortgan. Jumladan Sohibqiron fikricha, vazirlar 4 sifatga ega bo'lishi kerak:

1. Asillik, toza nasllik va ulug'vorlik.
2. Ko'pni ko'ra oladigan, tez xulosa qiladigan, aqlu-farosatlilik.
3. Insonparvar, xalq ahvolini, sipohlarni biladigan va g'am-xo'rlik ko'rsata oladigan.
4. Chidamli, sabr-toqatli, xushmuomalali, muloyim.

Ko'rib turibmizki, bu axloqiy xislatlar Amir Temur tomonidan yuqori baholangan va ularga amal qilingan.

Turli manba va fikrlarni tahlil qilgan kishi buni darrov fahmlab yetadiki, Amir Temur falsafasi faqat inson falsafasidir. Chunki insonning yurish turishi, faoliyati, barcha ishlari Sohibqironning doimiy diqqat markazida turgan.

Sohibqiron o'z davrida ilm-fan arboblari, din peshvolari va donishmandlarga hamisha xayrixoh bo'lgan. Manbalardan ma'lumki, Amir Temur buyuk sarkarda bo'lishi bilan birga, u ilm-

fan va yuksak falsafaning shakllanishida buyuk homiy edi. Zero, ilm va fanni e'zozlagan Amirning o'zi ham shubhasiz ilm fandan jiddiy xabari bo'lgan. Demak, Sohibqiron keng ma'lumotli bo'lib, har bir sohani nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qila olgan. Qur'on, Hadis, qonun, geografiya va tarix, falsafa ilmlarini o'zida mujassamlashtirgan. «Musulmonlarga diniy masalalardan, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan-tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb... har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim»[1] – deya ta'kidlaydi Amir Temur. Demak, Amirning majlis va kengashlari doimo fuzalolarsiz o'tmagan. Manbalar yana shuni ko'rsatadiki, sohibqiron davrida yuqorida tilga olingan ilm-fan sohalari jiddiy rivojlandi. Bu rivojlanish podshoning marhamatisiz bo'lmas edi, albatta. Buni hatto, Amir Temur faoliyatiga tanqidiy qaragan ibn Arabshoh ham tan olgan. U shunday deb yozadi: «Xullasi kalom, Temur har bir (foydali) jonni atrofiga yig'ib, nimaiki bo'lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san'atlar g'aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo'lib, o'z tengqurlaridan ustun turgan, o'z sohasida alloma kishilar yig'ilgan edi»[2].

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur biron shahar yoki mamlakatda bo'lganida, albatta, bironta bino qurib qoldirgan. Rus tarixchisi A.Yu.Yakubovskiyning fikricha, mashhur podshoh Mahmud G'aznaviy butun dunyoni talab, katta boylik yiqqan bo'lsa, Temur topganini el-yurt obodonchiligiga sarflagan, ilm maskanlarini qurdirgan. Buni Amir Temurning o'zi shunday ta'kidlaydi: «Har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar. Faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar».[3] Shu kabi sohalarda Amir Temur bir necha bor to'xtalgan va ularni sodda qilib tushuntirgan. Jumladan, Amir Temur yosh avlodlarga nasihat qilib aytadiki, bilimli kishilar o'tirgan o'rni bilan ham podshohga yaqin bo'lishi darkor.

Amir Temur saroyida o'sha vaqtda ko'plab ilm-ma'rifat allomalari yashagan va ijod qilgan. Mavlono Abdujabbor Xorazmiy,

---

[1] Temur tuzuklari. T.: 1996 yil, 73-bet.
[2] B. Ahmedov. Amir Temurni yod etib. T.: «O'zbekiston». 1996. 115-bet.
[3] Temur tuzuklari. T.: 1996. 125-bet.

Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No''moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar shular jumlasidandir.

Amir Temur o'z davrining barcha ilmlariga e'tibor berganligini fransuz olimi Lyangle shunday ta'riflaydi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborni berardi[1]». Yoki Ibn Arabshoh yozganidek: «Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamoyu fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddas ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzatu-ikromini unga izhor qilar edi»[2]. Ammo ko'rsatilgan mehr-muhabbat va oqibatga olimu fuzalolar tomonidan himmat ko'rsatilmaganda, Amir Temur ularni to'g'ri yo'lga boshqarishga intilardi, jumladan: «Ilm va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim-mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiste'mol qilinganligi va qilinmayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan ezilayotgani mendan ko'ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma'lumot beringiz, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo'lurdi», deb norizolik bildirgan.

Temuriylar avlodiga mansub bo'lgan Shohruh Mirzoning o'g'li – Muhammad Tarag'ay-Mirzo Ulug'bek (1394-1449) falsafa, ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi. U yoshligidanoq o'z davridagi ilm-fanga qiziqqan. Olimlar, shoirlar, san'atkorlar, diniy ulamolar,

[1] Buyuk siymolar, allomalar. T., 1996. 15-bet.
[2] Amir Temur o'gitlari. T., 1992. 39-41 betlar.

allomalar davrasida bo‘lib, ilmiy bahslarda qatnashgan va ilhomlangan.

Qiyin va murakkab, ziddiyatli sharoitda yashagan Ulug‘bek mamlakatni siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ishlar bilan shug‘ullangan. Olimlarga rahbarlik qilgan. O‘z ustida tinmay ishlagan. Ilmiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirgan. U o‘z faoliyatida falsafa, tarix, mantiq, astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va huquq bilimlari bilan shug‘ullanib asarlar yozgan. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel’, Ptolomey asarlari bilan tanishgan. Ulug‘bek o‘tmish ajdodlaridan, xususan, O‘rta Osiyo olimlaridan qolgan madaniy meros, falsafiy qarashlardan unumli foydalangan. Uning falsafasida aql-zakovatni jangu-jadallarga, yurt olish, boylik orttirishga emas, adolat bilan hukm surish, mamlakatni obod qilish, adabiyot ilm-fanni rivojlantirish markaziy o‘rinni oladi. Ulug‘bek o‘z atrofiga o‘z davrining «Aflotuni» deb nom qozongan mashhur matematik, astronom Qozizoda Rumiy va taniqli olimlar Ali Qushchi, Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, G‘iyosiddin Jamshid, Muhammad ibn Umar Chag‘niniy kabilarni to‘plagan. Ulug‘bek shu olimlar ishtirokida kengashlar o‘tkazib matematika, astronomiya, geometriya fanlari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Obi rahmat soyi yoqasida rasadxona qurdirgan. Ko‘rinib turibdiki, u tabiat muammolarini yechish bilan birga diniy e’tiqoddan voz kechmagan. Uning falsafasida moddiylik va ma’naviylik mujassam edi. Ulug‘bek 1437-yilda «Zichi Ko‘ragoniy» risolasini yozib tugatdi. Uning asari hozirgacha olimlar qo‘lidan tushmaydi. O‘z rasadxonasida ish olib borib 1018 ta yulduzning muvozanatini aniqlagan.

Mirzo Ulug‘bek ilmiy kuzatishlar olib borish va madrasada falakiyot ilmidan va’z aytish bilan birga madaniy-maishiy ishlarga ham jiddiy e’tibor bergan. O‘nlab madrasa, honaqoh, machit, karvonsaroylar qurdirgan. Oldinroq qurila boshlagan Bibixonim masjidi, Go‘ri amir maqbarasi, Shohi zinda ansamblini nihoyasiga yetkazgan. Ulug‘bek haqida yuzlab asarlar mavjudki, ularda donishmand faylasuf, adolatli sulton, ustoz sifatida madh etiladi. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida «Ulug‘bek madhiyasi» degan maxsus bob mavjud. Unda Ulug‘bekni zaminda osmon yaratgan olim deb ta’riflanadi:

Rasadkim bog'lamish zebi jahondir,
Jahon ichra yana bir osmondir.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi «Zichi Ko'ragoniy».
Qiyomatga degancha ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidin ahkom.

«Zichi Ko'ragoniy» asari nazariy-kirish qism va to'rtta katta bobdan iborat. Birinchi bobida muallif xitoylar, hindlar, greklar, eroniylar va boshqa xalqlarning kalendarlari bilan tanishib, o'z fikrlarini bildiradi. Ikkinchi bobda esa amaliy astronomiya, uchinchi bobda sayyoralar nazariyasi va to'rtinchi bobda astrologiya haqida o'z fikrlarini bildiradi. Uzoq yillar kuzatish va ilmiy tekshirishlar natijasida Ulug'bek fazodagi sir-asrorlarni o'rganishda, yil, hafta va kecha-kunduzlarni belgilashda ulkan yutuqlarga erishadi. O'zidan oldin o'tgan Erotosfen, Gipparx, Ptolomey, al - Batonniy, ibn Yunus, Nosiriddin Tusiy va boshqa astronomlarning bu sohadagi yutuqlarini orqada qoldirgan edi.

«Zichi Ko'ragoniy» asaridan tashqari Ulug'bek, «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risola-dar ilmu musiqa» asarlarini ham yozib qoldirgan. Ulug'bek falsafasi dunyoviy falsafa bo'lib, jahon tabiatshunosligi, ijtimoiy fanlarining rivojlantirishda muhim hissadir.

Temuriylar sulolasi davrida ijod qilgan fors-tojik mutafakkiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) o'zining insonparvarligi-gumanist allomaligi bilan tarixda qolgan. Abdurahmon Jomiy o'z davridagi fan, ma'naviyat, san'at, falsafani rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan shoirdir. O'zining insonparvarligini Sulton Husaynni Qunduz viloyatiga qarshi yurishga to'sqinlik qilgan. Maqsadi ko'pgina kishilarni o'lib ketishiga qarshi bo'lgan. Podshohni bu yurtga bormasligini A.Navoiydan iltimos qiladi. A.Jomiy bizga ulkan va mazmunli adabiy va ilmiy meros qoldirgan. Uning asarlari falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san'at sohalariga hamda nazm va nasrning har xil janrlariga oiddir. A.Jomiy ijodida xalqning ayanchli ahvoli ko'proq aks etgan. Mazlumlarga shoir samimiylik, zolimlarga esa nafrat bilan qaragan. Falsafani rivojlantirishda uning diniy qarashlari ustuvordir. Uning fikricha xudo jonli mavjudot bo'lmay, nurga o'xshash, na tanaga, na jismga ega. Barcha narsani

paydo qilgan xudo go'zal ma'shuqaga o'xshagan bo'lib, xudo minglarcha oynada turli qiyofada va ko'rinishda namoyon bo'ladi. A.Jomiy qo'proq Plotin 204-269) ta'limotini ya'ni (jilollanish) emanatsiya falsafasini davom ettirgan va rivojlantirgan. Ruh bilan moddani, subyekt bilan obyektni o'zaro qo'shib tasvirlamoqchi bo'lgan.

A.Jomiy o'rta asr sharoitida borliqni va undagi ulug' zot insonni ulug'laydi. Olamni tuzilishini avval diniy ilohiy asosda yechib so'ngra panteizm oqimida ish yuritadi. Uning ta'limotida tasavvuf yetakchi o'rin egallaydi. Butun ijodi davomida adolat va omma manfaatlarini himoya qiladi. Insonlarni teng huquqli bo'lib yashashini orzu qilgan. U ma'rifatni kuylagan. Jaholatga qarshi kurashgan. U o'zining "Yusuf va Zulayho", "Suhbat ul-abror", "Tuhfat ul-ahror", "Layli va Majnun", "Solomon va Ibsol" asarlarida yuksak axloqiylik g'oyalarini targ'ib qilgan va hal etgan. O'z lirikasida hayotiy voqealarni yozib qoldirgan.Insonni go'zalligi, his tuyg'ularini madh etgan.

Ya'ni yaxshi xulqli bo'lgil hamda sof. ko'ngil,
Odamlarga doim insofli bo'lgil.
Bu mehnatxonada yaxshiyu yomon,
Uchraydi, yaxshilik qilover hamon.

Jahon madaniyati tarixida ulkan iz qoldirgan mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o'z davrida falsafa fanini taraqqiy etishida salmoqli hissasini qo'shgan allomadir. Uning faoliyati XV asrda O'rta Osiyo mintaqasida ko'zga tashlandi. Bu faoliyat ijtimoiy-siyosiy, badiiy, ilmiy, falsafiy faoliyat edi. Navoiyning ilm-ma'rifat sohasidagi harakati uning juda yoshligidan boshlangan. U tasavvuf ilmini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan. Uning falsafasida «Kalom», «Shariat», «Oriflik», «Axloqiylik», «Siyosat», «Komillik», «Davlat», «Fozil jamiyat», «Muqaddas oila» sohalari mustahkam o'rin olgan. Navoiy dunyoqarashi ijodi va faoliyati turkiy xalqlarning jahon taraqqiyotidagi o'rni, falsafasi bilan bog'lanib ketgan. Navoiy asarlarida odil podshoh, fozil jamiyat to'g'risidagi fikrlar Navoiydan oldin o'tgan allomalar fikrlaridan farq qiladi. Navoiy o'z falsafasida butun olam, borliq, koinotning xudo tomonidan yaratilganligini e'tirof etadi. Butun olam jumladan, tabiat va jamiyat Allohning namoyon bo'lishi, zuhr etilishidir. Uning bu

fikri tasavvuf ta'limotidagi xudo butun mavjudotning, borliqning yaratuvchisi, qolgan barcha narsa va hodisalar jumladan, inson ham uning zarralaridir, degan umumiy qoidaga to'la asoslangandir. Ma'lumki, tasavvuf falsafasi qoidasiga binoan inson xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, boshqa mahluqotlardan farqli ravishda ilohiy aqlga egadir.

Navoiy o'zining epik asarlari bilan katta muvafaqqiyatlarga erishdi. U 1482–1485-yillarda o'zining «Xamsa»sini, 1499-yilda esa «Lisonut-tayr» falsafiy dostonini yaratdi. Uning «Lisonut-tayr» asari XV asr taraqqiyparvar falsafiy fikrlarning badiiy mujassami bo'ldi. Navoiyning «Xamsa» yaratishi o'zbek klassik adabiyoti va uning istiqboli uchun ham katta va mas'uliyatli imtihon bo'ldi.

Ta'kidlaganimizdek, Navoiy dostonlaridan uch xildagi masalalarni e'tirof etish mumkin. Bular: 1. Falsafiy masalalar. 2. Ijtimoiy-siyosiy masalalar. 3. Axloqiy-ta'limiy masalalar.

Navoiy falsafiy masalalar ustida to'xtalar ekan, uning fikrlarida obyektiv borliq va ilohiyot, inson va uning o'zligi, din, tasavvuf va boshqalar falsafiy qarashlarning asosini tashkil etadi. Bu masalalar ayniqsa, «Hayratul-abror»da o'z aksini topgan. Navoiyning falsafiy qarashlari rang-barangdir. Unda materialistik elementlar ham mavjud bo'lsa-da, tabiat va jamiyat hodisalarini ilohiyot nuqtai nazaridan mushohada qiladi. U o'zining insonparvarligi, oqilona mushohadasi va xalqparvarlik tendensiyasi bilan falsafiy qarashlarning saviyasini yuqori ko'taradi. Navoiyning fikricha, ilohiyot, xudo, butun borliqning yagona boshlanishi – substansiyasidir. Dastlab yolg'iz xudoning o'zidan boshqa hech kim va hech narsa bo'lmagan. Xudo hadsiz kuch-qudrat va imkoniyatlarga ega bo'lgan. Natijada xudo o'z kuch-qudrati va imkoniyatlarini namoyish qilib, butun borliqni yaratgan. Shunday qilib, Alisher Navoiy obyektiv borliqni e'tirof qiladi. Shu bilan birga uni ilohiylashtiradi. U obyektiv borliqni inkor etuvchi kishilarga va uni rad qiluvchi dinsizlarga qarshi fikr bildirib, borliqni e'tirof etishni tavsiya etadi. Hatto ularni sevishga, yaxshilashga, insonning baxt-saodati uchun e'zozlashga undaydi. Navoiy falsafasida inson butun borliqning ko'rki va sharafidir:

Muncha g'aroyibki misol aylading,
Borchani mir'oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi.
Koniyu hayvoni, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifot.
Barchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni sharif aylading —

deb insonni madh etgan. Navoiy dinni e'tirof etish bilan birga uni madh etgan allomalarga hurmat va ehtirom ila qaraydi. Jumladan, tasavvufning yirik namoyondalari Bahovuddin Naqshband va Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarni o'z asarlarida madh etgan.

Buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur(1483-1530)dir. Bobur jahon ilmiga, madaniyatiga katta hissa qo'shgan alloma. U yirik davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, talantli yozuvchi, faylasuf shoir va adib, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon. Boburning asarlarida, yirik she'rlari va ruboiylarida inson va Vatan faoliyati muqaddas ne'mat sifatida ta'riflanadi. Uning «Boburnoma» asari qomusiy asar bo'lib, unda ziddiyatli ijtimoiy, tarixiy voqealar bilan birga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga, xalq ommasi hayotining turli-tuman sohalariga taalluqli juda qimmatli falsafiy mulohazalar, hayotiy tafsilotlar o'z aksini topgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davri 1506-yilgacha bo'lgan Turkiston davridir. Ikkinchi davri 1506-yildan keyingi Afg'oniston va Hindiston davridir. Birinchi davrida u Farg'onada taxtga o'tirib, temuriylar orasidagi tarqoqlik holatlarini bartaraf etishga harakat qilgan. Ikkinchi davrida Bobur nafaqat siyosatchi, sulola asoschisi, harbiy sarkarda, balki juda iqtidorli olim, islomiy ilmlar, shariat, tariqatlar bilimdoni, buyuk so'z ustasi, shoir va vo'iz sifatida tanilgan.

Boburning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-axloqiy, siyosiy va huquqiy, irfoniy, islohchilik qarashlari nihoyatda keng qamrovlidir. Bobur falsafasining bosh yo'nalishlari insonparvarlik, ma'rifatparvarlik san'atsevarlik, vatanparvarlikdir. Bobur o'z yurtini e'zozlaydi, qo'msaydi. Kunlarning birida unga Farg'onadan qovun keltirganlarida, u achchiq-achchiq yig'laydi. Bobur ilm-ma'rifatni qadrlab unga homiylik qiladi. Ilm o'z-o'zidan paydo bo'lmasligini falsafiy tahlil qiladi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O‘rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilm yo‘q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak —

deya insonlarni ilmga bo‘lgan havas va ishtiyoqini ta’riflaydi. Uning asarlarida yaxshilik falsafasi–axloqiy mavzu asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, u quyidagicha fikrni bildiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Temuriylar davrida yuqorida keltirilgan mutafakkirlardan tashqari ko‘plab allomalar yetishib chiqdiki, ular O‘rta Osiyo falsafasini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Jumladan, Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy, Mirzo Abdulqodir Bedil va boshqalar fikrimizning yorqin dalilidir. Bu allomalar o‘z davrida o‘zbek xalqining falsafiy qarashlarini dunyo ahliga tanitganlar. Shu sababli ham Amir Temur va temuriylar davri falsafasini o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammosidir. Ularning falsafasi vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini madh etganki, ulardan o‘rnak olish hozirgi zamon yoshlarining maqsad va vazifalariga mos tushadi. Milliy g‘oyalarni singdirish uchun buyuk ajdodlarimizning faoliyatlari misol bo‘la oladi. Insonlar faoliyatidagi sivilizatsiya kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab rivojlangan. sivilizatsiya madaniyat so‘zining sinonimi sifatida ham talaffuz efiladi. Shu sababli sivilizatsiyani moddiy ishlab chiqarish bilan ham bog‘lash o‘rinlidir.

Dunyo mamlakatlaridagi o‘zgarishlar xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar jahon sivilizatsiyasini tashkil qiladi. Dunyodagi barcha xalqlar jahon sivilizatsiyasini taraqqiy qilishga o‘z hissasini qo‘shadi. Ma’lumki, XX asrning oxirida insoniyat juda ko‘p yangiliklarni kashf etdi. Bu kashfiyotlarni biror xalq faoliyati bilan bog‘lab, tor ma’noda tushunish noto‘g‘ridir. Kashfiyotlarning minglab qirralari borki, bu qirralar qanday bo‘lmasin u yoki bu xalq faoliyatiga taalluqli. Umumiy madaniyatni ko‘tarishda Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari ham o‘z hissalarini qo‘shganlar. Umumjahon

sivilizatsiyasiga turli dinlar ham o‘z hissasini qo‘shib kelayotir. Inson faoliyati ko‘pqirrali bo‘lganligi bois madaniyatning ham qirralari beqiyos. Bu qirralar bir mamlakatda bir vaqtning o‘zida rivojlanmaydi. U asta-sekinlik bilan uzoq davrlar ichida rivojlanadi. Shu asosda insonlarning dunyoqarashlari ham rivojlanadi, o‘zgarib boradi.

Sivilizatsiya mintaqalarning rivojlanish darajasiga ham bog‘liq. Har bir mintaqaning o‘z tarixi mavjud bo‘lib, shu tarix o‘rganilganda mintaqa jahon madaniyatiga qanchalik hissa qo‘shilganligini aniqlash mumkin. Mintaqalar madaniyati bir-biridan farq qilsa-da ularni mutloqo ajratish mumkin emas. sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi. G‘arbiy Yevropada fan va texnika ko‘proq taraqqiy qilib, ishlab chiqarish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatdi. Natijada olimlar xulosa qila boshlaganlarki, jamiyatni, faqat inson aql idroki bilan yuksak darajaga ko‘tarishi va uni o‘zgartirishi mumkin ekan. Shu bois, erkinlikda ma’rifatparvarlikka jiddiy e’tibor qaratish payti kelib, o‘sha davrning Ilg‘or fikrlovchi kishilari ma’rifatni keskin holda targ‘ib qilganlar. Binobarin, G‘arbiy Yevropa uchun «Ma’rifatparvarlik» so‘zining o‘zi ham yangi ibora bo‘lib, uni Vol’ter, Gerder va boshqalar birinchi bor ilmiy muloqotga olib kirdilar. Shundan so‘ng I.Kantning «Ma’rifatparvarlik nima?» (1784) maqolasi bosilib chiqdi va bu so‘z keng tus ola boshladi. Ma’lumki, u davrlarda G‘arbiy Yevropada tabiat, jamiyat, tafakkur haqidagi ilmlar rivojlandi. Bu davrda Tomas Gobbs, Dekart, Leybnits, Nyuton, Spinoza kabi yevropalik buyuk tabiatshunoslar va faylasuflar yetishib chiqib, turli fanlarda ayniqsa, fizika, kimyo, matematika, geometriya, mexanika, astronomiya sohalarida kashfiyot qildilarki, natijada bu kashfiyotlar ma’rifatprvarlikning kengayishiga olib keldi. O‘z navbatida ma’rifatparvarlik Yevropadagi Renessans (uyg‘onish) davri bilan ham uzviy aloqada bo‘ldi. Ma’lumki, uyg‘onish davri vakillari insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan edilar. Ularning fikricha, kapitalistik rivojlanish feodalizmga nisbatan ustunroq bo‘lib, inson faoliyatini kapitalizmgina yangi pog‘onaga ko‘tarar edi. Shu sababli, uyg‘onish davrining targ‘ib qiluvchilari bilan ma’rifatparvarlari o‘rtasida birmuncha tafovut mavjud bo‘lib, ma’rifatparvarlar uyg‘onish davri tarafdorlarini ko‘proq tanqid qilib ham chiqdilar. Bu jamiyat va davlat

tuzilishlarini qayta ko'rib chiqishga, ularni jiddiyroq hal qilishga olib kelardi. Ular ma'rifatni iqtisodiy soha, xususiy mulkchilik, dunyoqarash, estetik qarashlar, badiiy jarayonlar, shaxs faoliyatlari bilan bog'lab tushuntirdilar. Shu o'rinda Lokk, Gel'vetsiy, Didro, Jan Jak Russo va boshqa faylasuflarning yozgan asarlarini tilga olish kifoyadir.

«Yevropatsentrizm» deya ataluvchi oqimning faoliyatiga bir yoqlama baho berib, uni qo'llab-quvvatlaydilar. Ularning fikricha taraqqiyotning markazi ham Yevropadir. «Yevropatsentrizm» oqimi rim-grek taraqqiyotidagi ma'naviy, markaziy «papachilik» deb yuritlluvchi katoliklar fikrlariga qarshi chiqish natijasida paydo bo'lib, ko'proq nemis faylasufi Georg Gegel (1770-1831) ta'limotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Aslini olganda esa, ma'rifatparvarlikning ildizlari, bizning fikrimizcha, (boshqa sohalarda bo'lgani singari) Sharq mamlakatlari, aynan O'rta Osiyo mamlakatlari donishmandlari faoliyatiga ham borib taqaladi. «Yevropatsentrizm»ning paydo bo'lishi «Osiyotsentrizm»ning keltirib chiqargan. «Osiyotsentrizm» tarafdorlari «Yevropatsentrizm»ga qarshi chiqib «Yevropatsentrizm»ning salbiy tomonlarini ochib tashlagan. Hatto, yevropalik olimlarning o'zlari jumladan, Montes'ke, Gotfrid, Vol'terlar uyg'onish davri har bir millatga taalluqli va uni har bir millat rivojlantirishga qodir deb, chiqdilar. Umuminsoniy qadriyatlar barchaga taalluqli ekanligini targ'ib qildilar.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida, Osiyoda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun eradan oldingi davrlarda harakat boshlanganki, keyinchalik barcha sohada jumladan iqtisodiyotda, siyosatda, madaniyatda beqiyos o'zgarishlar bo'lgan. Buyuk ipak yo'lini Osiyo mamlakatlaridan boshlanganligi bejiz emas. Umuminsoniy ma'naviyat va madaniyatni rivojlanishiga Osiyo xalqlarining ta'siri bo'lganligiga shubha yo'q. Qadimgi Hindiston, Xitoydagi fan, madaniyat, ma'rifat sohasidagi o'zgarishlar O'rta Osiyo taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir qilmay qolmagan. Natijada O'rta Osiyodan buyuk allomalar yetishib chiqdiki, ular ma'rifatda, diniy e'tiqod hamda ma'naviy sohalarda dunyoda yetakchi o'rinlarni egalladilar. Masalan, vatandoshimiz Zamaxshariy «Jorulloh» degan (Alloh qo'shnisi) mo''tabar nomga sazovor bo'lgan. Undan

avvalroq alloma Abu Nasr Forobiy esa Aristoteldan so‘ng, «Ikkinchi muallim» degan faxriy nisbatga erishgan. Endilikda ma’lum bo‘layotirki, o‘rta asrlarda falsafiy fikrlarni va ma’rifatni targ‘ib qiluvchilar aynan O‘rta Osiyoda ko‘pchilikni tashkil qllgan. Yaqin yillargacha, ming afsuslar bo‘lsinki, biz ulardan xabardor bo‘lmay keldik. Bularga misol: Yusuf Hamadoniy, Zamaxshariy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Vali, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abu Mansur Moturudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy va boshqalar. Bu ulug‘ zotlarning har biri bitmas-tuganmas bilim jarayonlarini egallabgina qolmadilar, balki ilg‘or g‘oyalarni o‘rtaga tashlab yuksak ma’naviyat va ma’rifatparvarlikning oldingi saflarida bordilar. Demak, ilk uyg‘onish davri IX – XII asrlardayoq O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan. Al-Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom ta’limotlari ham shundan dalolat beradi.

Sobiq sovet davlatining ba’zi bir «o‘tkir» targ‘ibotchilari esa mazkur buyuk shaxslarning, fan va taraqqiyot sohasidagi ishlarini faqat dinga taqab tanqid qildilar, faoliyatlarini (asl nusxada) o‘rganishga yo‘l qo‘ymadilar. Sovet davridagi lug‘atlarda, ensiklopediyalarda faqat fransuz, ingliz, rus olimlari to‘g‘risida fikr yuritildi, xolos. To‘g‘ri, jahon sivilizatsiyasi, madaniyati, ilm fanining rivojida yevropalik allomalarning hissasi beqiyosdir. Ammo, har bir zamon va makonning o‘z xususiyati, mavqei bor. Shu sababli ham aytishga to‘la asos borki, uyg‘onish davri oldinroq O‘rta Osiyoda paydo bo‘lganligi haqidagi Osiyotsentrizm tarafdorlarining fikrlari to‘g‘ridir.

Tayanch so‘z va iboralar:

Sharq falsafasi, Avesto, islom, shariat, tariqat, tasavvuf, O‘rta asr Sharq allomalari, Amir Temur, “Kuch – adolatdadir”, Temur tuzuklari, Alisher Navoiy falsafasi, Bobur va Boburiylar davri, yevropatsentrizm, osiyotsentrizm.

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Qadimgi manba “Avesto”dagi falsafiy qarashlarning mohiyati.
2. Ibn Sino ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.

3. Markaziy Osiyoda peripatetizm an'analarning rivojlanishi.
4. Islom falsafasi.
5. Temuriylar davri falsafasi. (Ulug'bek – o'rta asr madaniyatining atoqli vakili).

Mavzuga oid test savollari:

1. Qadimgi Movarounnahr hududida qaysi diniy ta'limot asosida falsafiy qarashlar shakllana boshlagan?
a) xristianlik;
b) zardushtiyllk;
v) buddizm;
g) iudaizm;

2. Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharqda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?
a) mifologiya;
b) gnoseologiya;
v) ontologiya;
g) dialektika;

3. Islom dinining asosiy manbalari qaysilar?
a) tasavvuf;
b) Qur'oni Karim, Hadislar;
v) Hidoya;
g) naqshbandiya;

4. A.Temurning 660 yilligi qachon nishonlandi?
a) 1996-yil;
b) 1993-yil;
v) 2000-yil;
g) 2018-yil;

3-MAVZU. FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI. G'ARB FALSAFASI.

Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi. Sofistlar. Sokrat. Platon

Eramizdan oldingi VI asrda Yunonistonda ham quldorlik tuzumi ancha rivojlangan edi. Yunonistonning Milet, Efes, Fokiya kabi shaharlarida hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi. Natijada, Osiyo, Afrika, Misr bilan bo'lgan madaniy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi greklar madaniyatiga ta'sir etdi.

Milet materialistik maktabining asoschisi Fales (eramizdan oldin 625-547-yilda yashagan)dir. Fales geometriya, astranomiya, matematika fanlarini rivojlantirdi. Bu davrda falsafa fani inson bilimlarining yig'indisini ifoda qilardi. Gretsiya falsafasi tarixida Fales birinchi bo'lib, tabiatdagi hodisalarning manbaini qidirdi.

Fales fikricha, tabiat hodisalari asosida suv yotadi. Undan tashqari Fales shogirdi Anaksimandr(eramizgacha 610-546-yillarda yashagan) dunyoning asosida suv emas, cheksiz shaklga ega bo'lgan apeyron yotadi, deb tushuntirdi. Uning fikricha, hamma narsa shu apeyrondan kelib chiqqan, va yana apeyronga qaytadi. Apeyron harakati esa qarama-qarshilikning kelib chiqishi asosida bo'ladi.

Mavjudot Anaksimandr fikricha, rivojlanish, taraqqiyot xudolarga bog'liq emas. Anaksimandr birinchi bo'lib odamning paydo bo'lish masalasiga qiziqadi va uni balchiqlardan paydo bo'lgan deydi. U birinchi bo'lib, geografik karta tuzdi, quyosh soatini yasagan.

Milet maktabining undan keyingi vakili Aneksimen (eramizdan avval 585-525-y. da yashagan) Anaksimenning fikricha, dunyo havodan tashkil topgandir. Anaksimen materializmida ateistik qarashlar bor edi. Kosmik o'zgarish xudosiz, moddiyning doimiy o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Milet maktabi vakillarining ta'limoti materialistik xarakterga egadir. Ularning ta'limoticha, dunyoning asosida moddiy bir narsa-modda yotadi. Ular tabiatning qonuniy rivojlanishini modda va uning xarakteriga bog'laydilar.

Grek dialektikasini Pifagor maktabi rad etdi. Milet faylasuflari dunyoning asosiga materiyani qo'ysalar, Pifagor maktabi esa sezish

mumkin bo'lmagan abstrakt raqamni-sonni qo'yadi. Bu idealistik falsafa stixiyali materializmga qarshi chiqdi. Bunga sabab, jarayonning qiyinchiliklari natijasi edi.

Pifagor, eramizdan oldin (576-496) yashagan. Pifagor maktabi matematika bilan qiziqqani uchun tabiat qonuniyatining miqdoriy xususiyatlarini anglashga qaratdi. Bu maktab g'oyalarida idealistik diniy falsafiy qarash bilan ilmiy tafakkur elementlari uchraydi. Pifagorchilar o'zlarining ta'limotlarida dunyoqarash sohasi bilan miqdor kategoriyasini kiritdilar.

Afina faylasuflari materiyaning ichki tuzilishi, moddiy elementlar xarakterini, uning rivojlanish sabablarini tushuntirishga uringanlar.

Levkip (500-440) birinchi bo'lib ateistik qarashni olg'a surdi. Dunyo uning fikricha, mayda-bo'linmaydigan moddiy element-atomlardan tuzilgan atmos-bo'linmaydigan, grekcha so'z deydi. U dunyodagi narsalarning paydo bo'lishi va yo'qolishini zaruriyat va sababiyat bilan bog'laydi. Bu ta'limot Demokrit falsafasining ham negizini tashkil qiladi.

Efess shahrida (475-374) Geraklit yashab o'tgan. Geraklit dunyoning asosida olov yotadi, dunyo mana shu olovning qonuniy alanglanib va so'nib turishidan iborat deydi. Geraklit hech qanday xudo ham, odam ham dunyoni yaratmagan, dunyo o'z-o'zidan qonuniyat bilan so'nuvchi, tirik olovdan iboratdir, deydi. Geraklitning materialistik ta'limoti ham stixiyali xarakterga ega, farazlardan iborat edi. Chunki o'sha davrda dialektika va materializmni fan darajasiga ko'tarishga imkoniyat yo'q edi.

Qadimgi Yunonistonda turli oqimlar paydo bo'lib, ulardan biri sofistlardir.

Sofistlar (donishmandlar) qadimgi grek falsafasida muhim o'rinni egallaganlar. Avvalgi grek faylasuflari barcha o'zgaruvchan rang-baranglikdagi birlik haqidagi masala bilan mashg'ul bo'lganlar. Ular urf-odatlarning turlichaligini, axloqiy, siyosiy, huquqiy jarayonlarning falsafiy jihatlarini asoslashga urindilar. Ammo, muhim bir fikrga kela olmaganlar. Grek faylasuflarining ba'zilari bitta universal umumiy axloq va bitta siyosiy ideallik mavjud deb tushuntirsalar, ba'zilari bu holatlarni jamiyat yoki yagona bir odam dunyoga keltirgan deb fikr bildirganlar. Qisqasi har bir faylasuf

o‘zicha olamdagi predmet va hodisalarni tahlil qilganlar. Keyinchalik, jamiyatdagi axloqiy huquqiy sohalar bilan bog‘liq jihatlarning hal etilishi alohida kishi faoliyati bilan bog‘liq, degan to‘xtamga kelganlar. Aslida axloq, huquq, did, huzur-halovat, siyosiy, boshqaruv kabi jarayonlar haqidagi fikrlar xilma-xil. Tahlili ham turlicha. Shunday bo‘lishidan qat’iy nazar faylasuflar bu savollarga javob topishga intilganlar. Bunday-faylasuflarni-sofistlar deb yuritganlar.

Sofistlar ko‘proq axloqiy, siyosiy, huquqiy sohalar bilan shug‘ullanishgan. Sofistlarga zamonaviy jihatdan yondoshadigan bo‘lsak, ular bir vaqtning o‘zida muallif, jurnalist, yozuvchi, shoir umuman ziyoli kishilar bo‘lganlar. Ular ko‘proq bahslashishni olg‘a surib, haqiqatga erishmoqchi bo‘lganlar. Sofistlar predmet va hodisalarni aqliy (ratsional) dalillash san’atidan foydalanib asoslashga harakat qilganlar. Sofistlar munozara va muzokarada foydalanish mumkin bo‘lgan ayyorlik va mug‘ombirlik, makkorlik usullaridan foydalanib borliqni tushuntirganlar. Shu holatga boshqalarni ham yetaklaganlar. Ularning yirik vakillari Gorgiy, Frasimax va Protogorlardir.

Gorgiy taxminan miloddan avvalgi 483-375-yillarda yashagan .va mashhur notiq edi. Uning “Tabiat to‘g‘risida yoki mavjud bo‘lmagan narsa to‘g‘risida”, “Palamedni yoqlab” asarlari bo‘lgan. Frasimax Sokrat zamondoshidir. Miloddan oldingi 470-yillar atrofida tug‘ilgan, deb taxmin qilinadi. Frasimax o‘zining huquq va adolat to‘g‘risidagi qarashlari bilan barchani lol qoldirgan. Huquq zo‘rlarga xizmat qiladigan narsadir. Huquq bu kuch qudratdir. Bunday tushunchaga zid keladigan fikr ahmoqona go‘llikning o‘zi xolos deya, ta’kidlagan u. Protogor miloddan avvalgi 480-410-yillarda yashab ijod qilgan. Uning fikrlaridan biri.., “Inson qanday bo‘lsa shu holida mavjud bo‘lgan jamiki narsalarning borligi va yo‘qligi bilan ma’lum mavjud narsalarning mezoni hisoblanadi.” Yana quyidagi fikrni bildiradi: “Xudolar to‘g‘risida men ularning na mavjudligi, na mavjud emasligi yoki ularning qanday tusda ekanligi haqidagi bilimga ega bo‘la olmayman chunki ko‘p narsa: idrok etilmaslik va inson hayotining qisqaligi bilishga to‘sqinlik qiladi”. Uning “Tangrilar haqida”, “Mohiyat haqida”, “Davlat to‘g‘risida” va boshqa asarlari bor.

Sofistlar etika, ijtimoiy fanlar va epistemologiya bilan aloqador bo'lgan sohalarni baholashda ilg'or bo'lganlar. Bunday fikrlar hozirgi davrda ham dolzarb. Chunki bu muammoli sohalardir. Ularning fikrlarida nisbiylik va mutloqlik, huquq va hokimiyat, al'truizm; individ va jamiyat; aql-idrok va his-tuyg'ular kabi atamalar mavjud bo'lganki, bular haqida hozirgi faylasuflar ham fikr yuritadilar.

Misr, Bobil, Hind falsafiy ildizlari bilan bog'liq xususiyatlar

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, eng qadimgi falsafiy fikrlar Sharqning Bobili(Vaviloniya)da eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan. O'sha davrlardayoq odamlarning olamda ro'y berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlariga bo'lgan munosabatlari hamda qiziqishlari, eng sodda bo'lsa-da, falsafiy qarashlarda namoyon bo'la boshlagan. Vaviloniyadagi o'sha davrning mashhur asarlaridan biri, "Gil'gomesh haqidagi doston" bo'lib, unda tuproq, suv, havo, issiqlik inson hayoti va tirikligining asosiy va abadiy manbasi, deya e'tirof etilgan. Boshqa xalqlarning ham bunga o'xshagan asarlari, ertak va sarguzashtlari mavjudki, ularning bir-biriga yaqinligini sezamiz. Shu ma'noda jahon madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan falsafa fani dunyoviy asoslar yordamida shakllangan. Demak, falsafa bir millat, bir xalq, bir mamlakat falsafasi bo'lmay balki turli davr va sharoitlarda yashab ijod etgan, yashab kelayotgan barcha xalqlarning butun insoniyatning ma'naviy, madaniy boyligidir. Uzoq asrlar davomida shakllangan, to'ldirilgan muammolari yangilangan hamdir. Dunyo mutafakkirlari, allomalari, donishmandlari, shoir va yozuvchilarning mahsulidir. Nemis, fransuz, yapon, o'zbek falsafasi deganda, ularning falsafaga nisbatan nisbiyligini e'tirof etish zarur. Dunyo fani bo'lgan falsafaga har bir xalq, har bir millat o'z hissasini qo'shadi, xolos. Bu hissa orqali falsafaning umumiy jihatlari boyiydi, taraqqiy etadi, rivojlanadi. Shu sababli ham, Sharq va G'arb falsafasi aloqada va bog'lanishdadir. Zero, har bir qo'llanma va darsliklarda, risolalarda, ilmiy maqolalarda umuminsoniy fikrlardan foydalanadilar. Shu o'rinda qadimgi Sharq va antik G'arb dunyosining falsafasini o'rganish ayni muddaodir. Bu davrlardagi falsafiy fikrlarni

o‘rganish har bir insonni ma’naviy boyitadi, fikrini o‘tkirlashtiradi, tabiat va jamiyatning faoliyatini bilishga undaydi. Falsafiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Falsafiy qarashlar orqali o‘sha zamon madaniyati, hayoti, davlati, jamiyati o‘rganiladi. Insonlarning turmush tarzi solishtirilib, ma’lum bir fikrga kelinadi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q, deb bejiz aytilmagan. Insonlar o‘z kelajagini belgilashda oldingi faoliyatni bilmasalar, tuzatib bo‘lmas kamchiliklarga yo‘l ochadilar. Demak, antik dunyodagi, qadimgi Sharq mamlakatlaridagi falsafiy merosni o‘rganish kelajak poydevorini o‘rnatishga yordam beradi. Uning ilmiy, madaniy, axloqiy tomonlari borki, kelajak avlod undan bahramand bo‘ladi. Ularni o‘rganish zaruriyatdir.

Qadimgi grek falsafasini rivojlantirishda Sokrat alohida o‘rin tutadi. U miloddan avvalgi 469-yilda tug‘ilib 399-yilda vafot etgan. Uning ta’limotida ham epistemologik (epistemologiya-bilim, uning tuzilishi, tuzilmasi va rivojlanishini o‘rganadigan falsafiy-metodologik ta’limot) va etnik- siyosiy muammolar markaziy o‘rinni olgan. U sofistlarning ko‘p qarashlarini rad qilgan. Uning falsafasida umumiy ne’mat-(oliy ezgulik) va adolat hisoblanadigan qadriyatlar va me’yorlar mavjud. Sokrat falsafaning bilish muammosini hal etishga intildi. Uning talqinida bilim- bu bizning o‘zimiz va o‘zimiz o‘zimizning mavjudligimizni ko‘radigan vaziyatlar haqidagi bilimdir. Sokrat falsafasida shu narsa xarakterliki, u bilimni tajribaga murojaat etish yo‘li bilan izlamagan. U bilimni tushunchalarni tahlil etish yo‘li bilan o‘zlashtirishga harakat qilgan va boshqalarni ham shunga chaqirgan. Sokrat falsafasida adolatlilik, mardlik, sahovatlilik, yaxshi hayot tushunchalari markaziy o‘rinni olgan.

Falsafa tarixida yana bir grek faylasufi Platondir. Qarama-qarshi falsafiy fikrlar asosida Platon falsafasi paydo bo‘ldi, (Platon eramizdan avval 427-349-yillarda yashagan). Afina aristokratiyasining vakillari platonchilar idealistik karashni oldinga surdilar. Platon falsafasi asosida g‘oyalar yotadi. Uning fikricha narsalar asosida g‘oya yotadi, sezgi qabul qiladigan narsa, ideya dunyosining ko‘lankasidir.

Platon fikricha, hayotda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan g‘oyalar mavjud bo‘lib, bu g‘oyalar o‘zgarmaydi, ya’ni sezgi organlarimizda ifodalangan narsalar paydo bo‘lishi va yo‘qolishi bu

doimiy o‘zgaruvchan emasligidir. Eng oliy g‘oya bu xudo to‘g‘risidagi g‘oyadir. Bu narsa idealizm bilan dinning birligini ko‘rsatadi.

Platon bilish nazariyasini ham idealistlarcha tushuntirdi. Uning fikricha, bilim-g‘oyalar orqali paydo bo‘ladi, tasavvur narsalar orqali hosil bo‘ladi. Abstrakt tafakkurni sezgilarga bog‘liq bo‘lmagan g‘oyalar dunyosida yashovchi, ruhni “eslash” jarayon natijasi, deb tushuntirdi. Platon bilish bu-eslashdir degan g‘oyasini o‘rtaga tashladi. U dialektikani ilohiy bilimning mantiqiy nazariyasi, deb hisoblaydi. Umumiy tushunchaning ahamiyatini ta’kidlashi, kishi tafakkurining faol rolini (idealistik bo‘lsa ham) ishlab chiqishi Platon dialaektikasining ratsional mag‘zini tashkil etadi.

Platon “ideal davlat” ta’limotini ma’qullab, uni uch tabaqaga:1) davlatni idora qiluvchi faylasuflar,-dono; 2) davlatni ichki va tashqi dushmanlardan asrovchi qo‘riqchi askarlar-jasoratli; 3) jismoniy mehnat bilan shug‘ullanuvchi dehqonlar, hunarmandlar itoatkorlarga bo‘ladi.

Qadimiy yunon faylasuflaridan yana biri bu Aristoteldir. Aristotel’(eramizgacha 384-322-yillar) fanlar klassifikatsiyasini birinchi bo‘lib tuzib berdi (falsafa, matematika, fizika). Uning fikricha, falsafa borliq to‘g‘risidagi fan, matematika va fizika borliqning ba’zi xususiyatlari to‘g‘risidagi fandir.

Aristotel’ Platonning davlat nazariyasini tanqid qildi va quldorlik tuzumini tan oldi. U falsafa fanini amaliy faoliyatdan ajratib oldi, ya’ni bilim moddiy manfaatdan yiroq bo‘lsa, ilmiyroq bo‘ladi, deydi. Aristotel’ obyektiv tabiatni bilishni, bilimning asosiy sharti deydi, lekin u izchil materializm pozitsiyasiga o‘ta olmadi. Materiya Aristotelning fikricha, passiv imkoniyat, shakl faol o‘zgarish manbaidir. Materiya bilan harakat o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatib, harakat, o‘zgarishning manbai ekanligini aytsa-da, lekin harakat, buyumlarning ichki ziddiyatlarida ekanligini ko‘ra olmadi.

U bilish jarayonini materialistik asosda tushuntiradi. Bilish manbai tabiatning o‘zidir, deb obyektiv borliqni qo‘yadi. Sezgilar orqali olingan hissiyot narsa va hodisalar obrazidir, deydi. Lekin sezgini chegaralab qo‘yadi. Ya’ni sezgilar umumiy shaklni, ya’ni shakllar shaklini-xudoni bilishga imkon bera olmaydi.

Aristotel' sezgilar asosida topilgan bilimni tafakkur orqali hosil qilingan bilimdan ajratib qo'yadi. Aristotel kategoriyalar klassifikatsiyasini ishlab chiqdi. Ayrim dalilar umumlashtirilishidan umumiy xulosa chiqishni deduktiv mantiqni ta'rifladi. Aristotel' imkoniyat va voqelik, materiya va shakl, mohiyat va hodisa kategoriyalarini dialektik asosida tushuntirishga urindi, lekin to'la dialektik asosda hal qila olmadi. Din arboblari uning dialektikasini uloqtirib, metafizikasini olib qoldilar.

Qadimgi Gretsiyada eramizdan oldingi II asr oxiri I asrning boshida Demokrit tarafdorlari ko'proq materialistik fikrlarni olg'a surdilar.

Demokrit (eramizdan oldin 460-370-yillarda yashagan) ensiklopedik olim edi. Demokrit atom ko'zga ko'rinmaydi, deb harakat bilan materiyaning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Demokrit olam cheksiz dunyo, yer bir sayyora, deydi. Olam uning fikricha, bo'shliq bo'lib, fazoda atomlarning to'qnashishi natijasida turli dunyolar kelib chiqqan. Bu dunyolar paydo bo'ladi, yo'qoladi deydi. Olam haqidagi fikrida ateistik qarashlar bor, u yerda zaruriyat mavjuddir, deydi. Demokrit diniy xurofotlarga qarshi tan bilan ruhning o'lishini ko'rsatadi. Undan tashqari bilish jarayonining dialektik bosqichini materialistik asosda tushuntirdi. Bilish jarayonida birinchi bosqich sezgi, deb biladi. Sezgi organlarimizga ta'sir etib, ongimizda tasavvur paydo qiladi. Bilim uchun tafakkur kerak, deb o'rgatadi.

Demokrit materializmi ateizm tarixida ham katta rol' o'ynadi. Uning fikricha, xudoga ishonish kishilarning tabiat kuchlari oldidagi ojizligidir. Demokritning siyosiy, iqtisodiy qarashlari ham demokratik edi. Falsafada ikki yo'l "Demokrit yo'li" bilan "Platon yo'li" orasida kurash ketgan.

Demokrit yo'lini tutganlardan biri Epikurdir (341-270). U, kishi baxtiyor bo'lishi uchun tabiat va uning qonuniyatlarini bilishi kerak, deydi. Falsafani uch qismga fizika, logika (kanonika) va etikaga bo'ladi. Epikur fizikasida atomizm himoya qilinadi va uni rivojlantiriladi. Atomlarning birlashuvini o'ziga xos erkin irodaning oqibati, deb ko'rsatadi. Garchi bu fikr idealistik harakterga ega bo'lsa-da, stixiyali ravishda materiyaning o'z ichidagi harakatini e'tirof etadi.

Epikur ham bilishning birdan- bir manbai sezgilarda, deb biladi. Uning bilish nazariyasi oddiy, lekin materialistik xarakterga egadir. U ham xudoni inkor etmaydi, balki tabiat mahsuli deb biladi.

Gretsiya falsafasining yana bir vakili rimlik Piy Lukretsiy Kar(99-55)dir. U Epikur ta'limotini davom ettirdi. Qadimgi materialistlar singari Lukretsiy ham materiyaning obyektivligini ilmiy ravishda tushunish darajasiga yetmadi. Lukretsiy narsalarning sifatini obyektiv xarakterga egaligini, fazo va vaqt masalasini ham materialistlarcha tushuntirdi. Sezgi masalasini ham to'g'ri hal qilgan. Uning falsafasi feodalizm jamiyatining tarixiy kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotning oldinga surilishidan darak berar edi. Feodalizm jamiyatida sinf, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi to'qnashuvlar ideologiya kurashida o'z ifodasini topdi. Feodalizm davrining ideologiyasi din edi. Shuning uchun bu davrda qarashlar ham diniy tusda bo'lardi. Rimda feodalizm davrida, idealizmning turli oqimlari, materializm va ateizmga qarshi kurashdilar. Ular – skeptitsizm, agnostitsizm, neoplatonizmlardir. Obyektiv idealizm, Aristotel idealizmi va metafizik ta'limotning davomi edi.

Falsafa tarixida Ellinizm oqimi ham o'zining falsafiy fikrlari bilan ajralib turadi. Janubiy Italiyadagi Eliya shahri nomi bilan bog'langan. Eramizgacha bo'lgan VI asrning oxiri V asrning boshlarida paydo bo'lgan. Ellinistlar ta'limotining asoslanishida Parmenid va uning shogirdi Zenon Eleyskiylarning xizmati katta bo'lgan. Ellinizmni paydo bo'lishida pifagorchilar va Ksenofon fikrlari ta'sir qilgan.

Ellinizm ta'limotida insonlar olamni tarki dunyo qilish emas, balki o'zlarida burch va xarakterni tarbiyalash uchun harakat qilishi lozim. Shu bilan birga bu oqimning tarafdorlari xudo haqidagi xalq faoliyatini tanqid qilganlar. Ksenofonning fikricha, xudoni, xalqni o'zi yaratgan. Aslida xudolar odamlarni o'zidan farq qilmaydi. Ksenofon Gomer va Gesiodlar tomonidan xudoning tasvirlanishi bu axloqsizlik va haqiqatdan uzoqlashishdir, deb ko'rsatdi.

Ksenofonni tushunishicha efioplarni xudosi qora, frakiylarning xudosi esa ko'kko'z va ularning sochi qo'ng'ir rangdadir. Agar xo'kizlar, otlar, sherlar ham tasviriy san'at bilan shug'ullanganida, ular ham o'zlariga o'xshagan xudolarni tasvirlab chizgan bo'lardilar. Xudoning insonlar bilan umuman aloqasi yo'q. Bundan tashqari xudo

harakatsiz. Xudo sharsimondir. Bu fikrlar eleyliklar tomonidan qayta tahlil qilindi va ba'zilar ularning ta'limotini rivojlantirdilar. Demak, ellinizmning asosichisi Ksenofondir. Ammo u Eleyda tug'ilmagan. Tug'ilgan joyi Kolofondir. Kolofon shahrini persidlar bosib olgandan so'ng Ksenofon o'z shahrini tashlab darvesh sifatida safar qilib yuradi. U shoir va ashulachidir. So'ngroq Eley shahrida muqim topadi va ijod qiladi. Uning safdoshlari Parmenid, Zenon va Melisslardir. Ular ham Ksenofon ta'limotini targ'ib qildilar va falsafada Eilinistlar deb atala boshlanadi.

Ellinistlar ta'limotining davomchilari Stoiklar oqimidir. Bu oqim qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Stoiklarning vakillari sitseron, (eramizdan avvalgi 106-43-yillar) Seneka (eramizdan avvalgi 4 milodiy 65-yillar), Epiktet (taxminan 50-138-yillar), Mark Avreliy (121-180-yil)lardir. Ular qadimgi greklarning ta'limotiga suyanib faoliyat ko'rsatdilar. Ularning fikricha, insonlar guruhlarning organik qismi emas, balki umumiy davlat ichidagi individdir. Umumiy huquqning subyektidir. Insonlar oliy kosmosning bir qismidir. Inson tafakkuri olamning tafakkuriga dahldor bo'lganligi uchun olam tafakkuri inson tafakkuriga aloqadadir.

Stoiklar ta'limoti, aniqroq aytilsa, shaxsiy baxtni ta'minlashga qaratilgan. Ular har bir insonga tashqi holat va kuchlardan erkin bo'lishni tavsiya etadilar. Agar, deydi ular, biz o'zimizning shaxsiy quvonch va baxtimizni qurmoqchi bo'lsak, imkoniyati boricha nazorat qilinmaydigan tashqi omillardan ozod bo'lishni o'rganishimiz va o'zimiz nazorat qilaoladigan, o'zimizning ichki olamimiz ichida yashashni o'rganishimiz kerak. Demak, ularning (Stoiklarning) fikricha, inson baxti biron-bir tashqi noz-ne'matga bog'liq emas. Quvonchli, baxtli hayotning manbai, uning asosiy sharti – ezgu hayot kechirishdir. Ezgulikning asosi bilimli bo'lishdir. Stoiklarning asosiy maqsadlari shular edi. Bu esa keyinchalik paydo bo'lgan tasavvufchilar ta'limotiga o'xshaydi. Sababi, stoiklar ham kiniklar ham jamiyatdan uzoqlashib, sodda va bir qadar ibtidoiy hayot kechirishni targ'ib qilganlar.

Kiniklar antik davrdagi Sokrat maktablaridan biridir. Kiniklarning vakillari Antisofin, Diogen, Sinopskiy, Kratet va boshqalar. Stoiklardan Seneka "Sen bilan nimaiki ro'y bermasin barini xuddi o'z xohishing bilan ro'y berayotgandek qabul qilishing

kerak. Shuning uchun sen hamma narsa xudoning irodasi bilan ro'y berayotganini bilgandek xohlashing kerak", deb yozgan edi. Bu fikri bilan Seneka, insonda tashqi olamga axloqiy-asketik munosabat va ichki his-tuyg'uni shakllantirish va tarbiyalashni orzu qilgan. Ya'ni inson o'z taqdirida tashqi o'zgarishlarga nisbatan xotirjam – stoik bo'lishi zarur. Stoitsizm o'sha vaqtda oliy tabaqalarning quroliga aylangan. Rimning oliy tabaqalari bu ta'limotdan insonlarni burch va vazifalarini tushuntirishda foydalanganlar. Rim imperiyasiga xizmat qildirganlar. Qadimgi Rimda sitseron ta'limoti ko'zga tashlandi. Uning falsafiy fikrlarini aks ettirgan asarlar keyinroq, O'rta asrlarda diqqatga sazovor bo'ldi. Rimda epikurizm, kiniklar, sofistlar, stoiklar ta'limotlari paydo bo'lganligi va davom etganligi Rim imperiyasining rivojlanishiga olib keldi. Bu oqimlarning fikrlari Rim mafkurasini tashkil topishida muhim manba bo'lib xizmat qildi. Siyosat, huquq, demokratiya, davlat boshqaruvi sohasidagi falsafiy fikrlarni o'rtaga qo'yishiga sabab bo'ldi.

Qadimgi davr falsafasining rivojlanishi ko'proq xristianlik dinining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ma'lumki, xristianlik dini birinchi asrda Falastin hududida paydo bo'ldi. Bu din eramizning V asrgacha Rim imperiyasini geografik hududida tarqaldi. So'ngroq esa Sharqiy Suriya, Armaniston, Efiopiya mamlakatlariga tarqaldi. Ayniqsa, birinchi ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ham shakllandi. Xristianlikning shakllanishi bilan iudaizmning ko'pgina xususiyatlari inkor etildi. Mazkur din o'z xarakteri bilan yakkaxudolikni targ'ib qildi. Xristianlik tarafdorlari azob-uqubat ko'rish tabiiy bo'lib, kelajakda esa narigi dunyoda hur farovonlikka erishiladi. Bu hayot qiynoqlariga bardosh berish insonning burchidir, deb targ'ib qildi. Ularning fikricha, borliqni faqat xudoning o'zi boshqaradi. Unda kuch-quvvat, bilim, zakovat, ijod, bunyodkorlik mavjud. Insonlar esa xudoning ijodidir. Xristianlikning asosiy g'oyasi xudo-odam-Isus Xristos faoliyati bilan bog'liq. Xristianlikning aqidalari, e'tiqod talablari huquqiy, axloqiy normalari cheklanish va taqiqlar Bibliya hamda boshqa muqaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan. Bu dinda ko'rsatilishicha, Xristos o'zining qiynoqlarga chidamliligi bilan dunyo zulmini yengadi va insonlarning gunohlarini o'ziga oladi. g'am-g'ussalardan qutultirish uchun o'zini qurbon qiladi. Xudoning

amriga bo'yinsunmagan insonlar Alloh sharafiga muyassar bo'la olmaydilar. Xristianlik insonlardagi sabr-chidamlilikni, qiynoqlarga tan berish kabi sohalarga birinchi o'rinni beradi. Rim imperiyasida davlat diniga aylantirilgan. Tarixiy taraqqiyot ta'sirida (Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy) bu din ikkiga bo'lingan. Bular: xristianlik cherkovining katolitsizm (G'arbiy qismi), pravoslaviye (Sharqiy qism)larga ajralgan. Bunday bo'linish 1054-yilda sodir etilgan bo'lsada, lekin bu jarayon XIII asrning boshlarida tugatilgan. Xristianlik Rossiyada X asrning oxirida Vizantiyaning ta'sirida tarqalgan.

Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Ilk o'rta asrlar falsafiy tafakkurida apologetika va patristika. Sxolastika. Nominalizm va realizm.

Eramizning IV asri oxirida Rim imperiyasi ikkiga bo'linib ketdi. Shu munosabat bilan xristianlik dini davlat diniga aylandi. Ayni shu davrlarda (375-568) ro'y bergan german qabilalarining ko'chishi G'arbiy Rim imperiyasining barbod bo'lishiga olib keldi. Antik davr tugab O'rta asrlar boshlandi.

Ellada-Rim davridagi ijtimoiy shart-sharoitlar o'sha davr siyosatidan muayyan darajada chekinish va nazariy falsafaga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga olib keldi. Aytish lozimki, antik davrning tugashi insonlar faoliyatida muhimroq bo'lgan jarayonlarni izlab topishga majbur qila boshladi. Insonlar turmush qiyinchiliklari sabablarini endi dindan axtara boshladilar. O'sha davrda rivojlangan neoplotonizm va tugab borayotgan stoiklar qarashlari xristianlikning keng tarqalishiga sabab bo'la boshladi. Xristianlik o'z mohiyati jihatidan insonlar faoliyatiga qaratilgan edi. U har bir kishiga najot izlashga yordam berardi. O'sha davrdagi insonlar siyosiy huquqsizlik, moddiy nochorlik va jismonan azob-uqubatlar, yovuzlik va johillik hukmron bo'lishidan qat'iy nazar, yaxshi yashash umidini yo'qotmasdi. Hech bo'lmaganda shunga intilardilar. Bu dunyodagi hayot, xristian dinining targ'iboticha, dramatik tarixiy jarayonning bir qismi bo'lib, uning oxirida har kishini bu hayotdagi nohaqliklar va ko'rilgan jabru sitamlar uchun kelajakda odil mukofoti bor. Chunki, barcha holatlarni sezuvchi tangri taolo barchani yaratuvchisi

sifatida o'zi mehribonlik qiladi. Ana shunday g'oyalar asosida O'rta asrning boshlarida Aristotel ta'limoti xristianlik bilan sintezlashtirildi va xristian dini hukmron bo'la boshladi. Oldingi mavzularning birida ta'kidlanganidek, xristian dinining ikkiga: "katolik" va "protestantlik"ka bo'linishi yagona mafkuraning yemirilishiga olib keldi. Bu bo'linish xristianlik teologiyasini keltirib chiqardi. Teologiya noxristianlarning e'tirozlarini himoya qilishga qaratildi. Grek faylasuflari uchun inson umuman va butkul kosmosda boshqa jonivorlar bilan birga bo'lgan mavjudot hisoblanadi. Insonlar muayyan darajada yuqori turuvchi ammo alohida, imtiyozli o'rinni egallamagan mavjudot hisoblangan. Tosh va tuproq, o'simlik va hayvonlar, odamlar va xudolar bitta tugal olamda mavjud deb tushunilgan. Xristianlik qoidasiga ko'ra esa bunday bo'lmagan. Xudo bu dunyodan yuqoridagi mavjud shaxs hisoblanadi. Butun borliq-toshlar, o'simliklar, hayvonu odamlar xudo tomonidan odamlarning makoni sifatida insonlar panoh topishi uchun yaratilgan. Olam va odamlar xudoga nisbatan ikkilamchidir.

Inson kosmologik va qadriyatlik jihatidan markaziy mavjudotdir. Hayot tarixdan iborat bo'lib u qiyomatga qarab harakatlanadi. Davr o'tishi bilan xristianlikning g'oyalari falsafadan, jumladan, siyosiy falsafadan ham o'rin ola boshladi. Bu g'oyalar asosida dunyoviy institut va cherkov institutlari paydo bo'ldi. Cherkovlar davlat qo'l ostidagi va u davlat tomonidan qo'llab quvvatlanuvchi institut sifatida shakllandi. Cherkov davlatning etnik-diniy masalalar bo'yicha rasmiy tanqidchisi mavqeini qo'lga kiritgandan so'ng, odamlar dunyoviy hukmronlarni tanqid qilish uchun ma'lum asoslarga ega bo'ldilar. Bu yevropada ozodlik g'oyalarining rivojlanishiga yordam berdi.

O'rta asrlar falsafiy tafakkurida diniy ta'limotlarning rivojlanishida apologetika, patristika, sxolastika kabi yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Jumladan, apologetika (grek tilidan olingan bo'lib apologetikos-himoya qiluvchi) ma'nosini aglatadi. Bu ta'limot dalilar orqali diniy ta'limotni himoya qilishga intildilar. Shu sababli ularning ta'limotini teologiyaning bir bo'limi sifatida e'tirof etuvchilar harakati boshlangan. Bu ta'limot katoliklar va pravoslavlar sistemasida ish yuritdilar. Protestanlar esa ularga qarshi chiqdilar. Apologetika tarkibida ollohni borliqda faoliyat yuritishini isbotlovchi aql-farosat

hammadan oliy ekanligini isbotlashga urinadilar. Ruhni o'lmasligi ollohning faoliyatiga taalluqli ekanligini targ'ib qildilar. Xulosa qilib aytganda, apologetikaning faolyati ratsionalizim va irratsionalizm ko'rinishida diniy ta'limotni oqlashga harakat qilganlar.

Yana shunday oqimlardan biri bu-patristika oqimidir. Patristika so'zi lotin tilidan olingan bo'lib-poter-ota,(otets) degan ma'nolarni anglatadi. Xudo haqidagi xristianlikni targ'ib qiluvchi ta'limot. 2-8 asrlarda cherkovda xizmat qiluvchilar avliyo otalar (bilim beruvchilar) deb tanilgan. Ushbu ta'limotda xristian avliyolarining ilohiyotga oid falsafiy, ijtimoiy siyosiy qarashlar aks etgan-Patristika atamasi "avliyo otalar adabiyoti" atamasi bilan ham mashhur. Ushbu ta'limotning asoschilari qatorida Origen, Aleksandriyalik Kliment, Buyuk Vasiliy, Ioann Zlatoust, Vizantiyalik Leontiy, Avliyo Avgustin va boshqalarni ko'rish mumkin. Patristikaning asosiy mavzusi: uchlik mavzusidir. Ya'ni uch ko'rinishda xudoning yagonaligi ifodalanadi. Xudo-ota, Xudo-o'g'il, Xudo-muqaddas. Patristikada Iso payg'ambarning ikki tabiati-ilohiy, insoniy xususiyati madh etiladi. Cherkov yig'inlarlarida mazkur soha mavzu qilib olingan. Ammo bunday mavzuga e'tiroz bildirganlar ham bo'ldi. Bular cherkov reformatsiyasi asoschilari M.Lyuter va J.Kalvinlardir. Shunday bo'lishiga qaramasdan Patristika asarlari Bibliya bilan bir qatorda turib Xristian dinining asosiy manbasi hisoblanadi. Yana bir oqim sxolastikadir.

Sxolastika oqimi ham o'rta asrlarda faoliyat yuritgan ta'limotlardandir. Grek tilidan olingan bo'lib maktab ma'nosini bildiradi. Bu ta'limot tarafdorlari diniy dunyoqarashning nazariy jihatdan asoslashga uringanlar. Sxolastik ta'limot antik dunyo faylasuflari Platon va Aristotel' g'oyalariga ko'proq asoslangan. Sxolastika ta'limoti bir necha davrlarga bo'linadi. Neoplatonchilik ruhida Ioann Skot Eriugena, Ansel'm Kenterberskiy, Ibn Rushd, Ibn Sino kabi mutafakkirlar ham fikr bildirganlar. 14-15 asrlarda xristian Aristotelizm yuqori pog'oniga ko'tarilgan 15-16 asrlarda katoliklar va protestantlar birgalashib reformatsiyaga qarshi chiqishlar ro'y bergan. Yani davr yevropa filosofiyasi sxolastik ta'limotini tanqid qilganlar.

Ana shunday bir sharoitda yangi falsafiy oqimlar paydo bo'la boshladi. Shular jumlasiga nominalizm va realizmni olish mumkin.

G‘arbiy Yevropa falsafasida ikki oqim – nominalizm, realizm orasida kurash davom etdi. Realizm – sxolastika, diniy qarashdir. Nominalizm – o‘z davrining progressiv qarashi edi. Ular orasidagi kurash umumiy tushuncha – universallar masalasi uchun kurash edi.

Realizm vakili Duns Skot fikricha, tushuncha real mavjud mohiyatga ega, u birlamchi, narsalar ikkilamchi, tushuncha mangu, narsalar vaqtincha.

O‘rta asr realizmi idealizmning ifodasi katolitsizm, sxolastikaning falsafiy asosi edi. Foma Akvinskiy Aristotel falsafasi orqali xristianaqidalar tizimini nazariy asoslashga urindi. Aristotelning materialistik, progressiv qarashlarini olib tashladi. F.Akvinskiy shakl bordir, shakl birlamchi, jon o‘lmas, tana esa halok bo‘ladi. 1. Tabiatdan tashqari aql bor. 2. Tabiiy kishini aqli bor. Bu xristianlik falsafasining asosidir, deb fikr yuritdi.

Feodalizm davrida falsafa o‘zining yangicha bosqichiga ko‘tarildi. Foma Akvinskiy (1225-1274) katolik dini ideologiyasini ishlab chiqdi. Ya’ni uning ideologiyasida falsafa va dinning maqsadi xudoning mavjudligini isbotlashdir. Undan tashqari jamiyatdagi tengsizlikni ham xudodan, deb biladi.

O‘rta asrda diniy ideologiya asosiy hukmron bo‘ldi. Lekin materialistik va ateistik qarashlarni tamomila tugata olmadi. O‘rta asrda materializm bilan idealizm o‘rtasidagi qarama-qarshilik realizm bilan nominalizm o‘rtasidagi qarashda ifodalanadi. Nominalistlar fikricha, yakka yakka narsalar, ularning xususiyatlari obyektiv mavjud. Ular birinchi, tushuncha ikkilamchi. Tabiat bo‘lmaganda ularda tushuncha ham bo‘lmasdi.

Nominalistlar va realistlar tushunchalarni umumlashtirishning haqiqiy mohiyatini, ya’ni narsa va hodisalardagi mavjud hodisalar bizning ongimizda aks etganligini tushuntirdilar, ammo ayrim va umumiy hodisalar orasidagi bog‘lanishni birga emas, qarama-qarshi qilib qo‘ydilar.

G‘arb Uyg‘onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari

Jamiyat moddiy hayotning o‘zgarishi, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi feodal ishlab chiqarish usulida revolyutsion

o‘zgarishning zarurligini keltirib qo‘ydi. Ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi feodal tuzumini yo‘q qilishga harakat qlla boshladi, bu jarayon burjuaziya revolyutsiyasi bilan tugallandi. Lekin bu davrdagi falsafiy dunyoqarash shunday keskin kurashlarga duch keldiki, Kopernikning nazariyasini xudosizlikda ayblash, Djordano Brunoning o‘tda kuydirilishi, Galileyni qorong‘ulikka uloqtirilishi ham fan va umuman materialistik falsafaning progressiv taraqqiyotiga to‘sqinlik qila olmadi. Tabiat hodisalarini o‘rganuvchi tabiiy fanlar shakllana boshladi. Endi tabiat fani bilan, falsafa orasidagi munosabat o‘zgara boshladi, ya’ni tabiiy fanlarning o‘sishi materialistik falsafaning o‘sishiga olib keldi.

Kopernik geliotsentrik tizimini ishlab chiqdi. Ya’ni, yer shari o‘z o‘qi atrofida aylanishi bilan kun va tunni bo‘lishi, Quyosh atrofida aylanishi bilan yil fasllarining o‘zgarib turishini isbotlab berdi. Ptolomeyning Quyosh sistemasining markazi yer deyilishining noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib geliotsentrik sistemani yaratdi. Ptolomey ta’limoticha, Quyosh yer atrofida aylangandek ko‘rinadi aslida mohiyati unday emas. Kopernikning progressiv g‘oyalari falsafa tarixida katta rol’ o‘ynadi.

Undan keyingi o‘tgan olim Djardano Bruno Kopernik nazariyasidan materialistik xulosa chiqardi. Bruno dinga qarshi kurashuvchi progressiv olim edi. Bruno fikricha, olam hisobsiz yerlar, quyoshlar sistemasidan iboratdir. Lekin, Bruno yashagan davr uning progressiv fikrlarini rivojlantirishga yo‘l qo‘ymadi. Uning faoliyati inkivizatsiya katolik cherkovi sudi davridagi sudda qoralanib o‘zi esa o‘ldirildi.

Yangi va yangi davr falsafasining ustuvor yo‘nalishlari. Asosiy muammolar

Yangi davr falsafasi XVI-XVII asrda Angliyada kelib chiqdi. Angliya materializmining asoschisi F.Bekon(1561-1626) edi. Bekon falsafasi Angliya burjuaziyasining intilishini ifodalaydi. Bekon tajribaga asoslagan bilim haqiqiy bilim, deydi. Undan tashqari inson tabiatini o‘rganishi va o‘ziga bo‘ysundirishi kerakligini uqtirdi. Dunyoda bilimning asosiy quroli tajribadir, deydi. Bilim jarayonida tafakkurning, nazariyaning rolini inkor etmaydi. Narsa va

hodisalarning sababiy bog'lanishini aniqlash haqiqiy bilim garovidir, deydi. Elementlarning sifat muayyanligini ta'kidlaydi. Materiya bilan harakat o'rtasidagi uzluksiz bog'lanishni e'tirof etadi. Bekon falsafasida dialektika elementi bo'lishiga qaramay, uning materializmi asosan mexanistik edi.

Angliya materializmining ikkinchi vakili Tomas Gobbs(1588-1679) bo'lib, uning falsafiy qarashlari Bekonnikiga o'xshardi. Bekonning dinga yondoshgan tomonlarini tuzatib, uni rivojlantirdi. Gobbs falsafasi mexanistik, metafizik tusda edi. Gobbs moddiy dunyoni bir-biridan real bilib, falsafaning predmeti shu olamni o'rganishdir, deydi. Gobbs taraqqiyotni faqat miqdor o'zgarishlaridir, harakat esa mexanistik tashqi turtki natijasidir deydi. U moddalarning xossalari, sifati yorug'liq, hid, rang, issiqlika xos bo'lmasdan balki tasavvurlarimizdan iborat, deb tushuntiradi. Gobbsning materialistik qarashlari uning tafakkur bilan materiya haqidagi fikrda ko'rinib turadi. Tafakkur materiyadan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, degan edi, u.

Gobbs bilish nazariyasida moddiy dunyoning kishiga ta'sir qilishi natijasida hosil bo'lgan hissiyotlar to'g'risida to'g'ri fikr bergan. Lekin, uning xatosi, tafakkur mexanistik funksiyani bajaradi, deb izchil bo'lmagan materializmga yo'l qo'yadi.

XVII asrda Fransiya Angliyaga nisbatan ancha orqada qolgan mamlakat edi. Demak, Fransiya falsafa sohasida ham Angliyaga nisbatan orqada edi. Lekin, Fransiya o'ziga xos yo'llar bilan rivojlandi.

Fransiyada rivojlangan falsafa dualistik tasnifga ega edi. Fransiyadagi dualistik oqim vakili Rene Dekart(1596-1650) dir, o'zining "Metod to'g'risida mulohazalar" asarida bilish uslubini yaratishga uringan.

Dekart o'zining falsafasida matematika aksiomalariga va hatto «xudoning qudratiga» ham gumonsirash kerak, deydi. Tafakkur Dekart bo'yicha, birdan bir voqelik hisoblanadi. U shuning uchun ham «Men tafakkur qilaman, demak men yashayman» degan qoidasini keltirib chiqardi. Tafakkurni materiyaga qarshi qo'yadi. Bu narsa falsafaning bosh masalasini idealistlarcha hal qilishga olib keldi. Bilish nazariyasida asosiy uslub qilib deduksiyani oladi. Ya'ni

tafakkur umumiydan xususiyga qarab harakat qiladi va mantiqiy yo'llar bilan haqiqatni ochishga imkon beradi.

Dekart falsafasidagi dualizm ong bilan materiyaning, tan bilan ruhning mustaqil yashashini isbotlashda o'z ifodasini topadi. Dunyoning moddiyligini inkor etadi va dunyo ikki: ruhiy va moddiy substansiyalardan iborat, deydi Dekart.

Dekart shunday kamchiligi bo'lishiga qaramay, u falsafa tizimini yaratdi. Dekart fan sohasida yangi kashfiyotlar ochdi. Masalan, Quyosh sistemasini paydo bo'lishi to'g'risidagi fikrlar, ya'ni cheksiz olam havo, olov, yerga o'xshash uch elementdan tashkil topganligi haqidagi fikrini olish mumkin.

Dekartning dualizmini tanqid qilish asosida Barux Spinoza (1632-1677) falsafa tizimi vujudga keldi. Spinoza Gollandiya (Benedikt) burjuaziyasining manfaatini ifodalaydi. Spinoza falsafasi tizimini Dekart rad etib, dunyoning asosida moddiy substansiya yotadi, deya e'tirof etadi.

Spinoza fikricha, tabiatda ikki substansiyaning bo'lishi mumkin emas. Undan tashqari, substansiya o'zidan tashqaridagi sababga, xudoga bog'liq emas, balki u o'zining sababidir. Substansiya zamonda abadiy, makonda cheksizdir. Spinozaning substansiya to'g'risidagi fikri, cheksiz materiya haqidagi materialistik ta'limotdir. Lekin shunga qaramay Spinoza substansiya niqobiga o'rab diniy fikrni yurgizadi. Uning xudosi dindorlar xudosiga o'xshamaydi.

Spinoza fikricha, zaruriyat ta'sirida harakat qiluvchi xudo erkin irodaga ega emas va o'z oldiga hech qanday maqsad qo'ya olmaydi, bu narsa tabiatning o'zginasidir. Shu davrda vujudga kelgan subyektiv idealistlar (J. Berkli, D. Yum) dinga yangi yo'l ochib, materializmga qarshi fikrlarni ilgari surishga harakat qilishgan edi.

Mari Fransua Arue (1694-1778). Fransuz yozuvchisi, psixologi, faylasufi, tanqidchisi, publitsisti, tarixchisi. Mari Fransua Aruening taxallusi Vol'terdir. Parij teatrining sahnalarida "Edip" tragediyasi shon-shuhrat keltirgandan so'ng, ya'ni 1718-yildan boshlab shu taxallusni olgan. Vol'ter notarius oilasida tug'ildi. Oilasi o'sha davrdagi aristokratlar davrasida yaxshi maqega ega edi. "Kryostniy"-o'gay otasi uni yoshligidan boshlab erkin fikrlashga o'rgatdi. Kollejda ta'lim oldirdi, lekin u otasi orzu qilgan yo'ldan bormadi. Natijada moddiy tomondan o'g'ilni otasi qo'llab-quvvatlamadi.

Turmush tarzini yaxshilash maqsadida moliyaviy ishlarda qatnashdi. Bu bilan o‘zining ijtimoiy va ijodiy faoliyatini ham yo‘lga qo‘ydi. Shaxsiy faoliyat natijasida, kundalik hayotda burjuaziya sinfining feodal tuzumi bilan kelisha olmasligini seza boshlaydi. Shu bilan birga, diniy faoliyat sir-asrorlari bilan yaqindan tanishadi. Kelajakda o‘z davridagi feodal tuzum va diniy fanatizmga qarshi kurash boshlab yuboradi. Siyosiy erkinlik g‘oyasini xalq ommasi o‘rtasida tinmay targ‘ib qiladi. Bu faoliyat hukmron doiralarida qoralanib, ikki marta (1717,1725) qamaladi. Angliyada surgunda (1726) bo‘ladi. Umrining talaygina qismini surgunlikda o‘tkazgan. Angliyada surgun bo‘lmagan davrida, u mamlakatning madaniyati, ijtimoiy hayoti bilan yaqindan tanishadi. Fransiya hayoti bilan Angliya hayotini solishtirib ko‘radi. Bu esa Vol’ter faoliyatini revolyutsionlashtiradi. Yirik asarlar yoza boshlaydi: “Faylasufning maktublari” (1733), “Metafizika to‘g‘risidagi traktat” (1734), “Nyuton falsafasining asoslari” (1738), “Falsafa lug‘ati” (1764-690), “Johil faylasuf” (1760), lirika, she’r, poema, drammalaridan: “Genriada”, “Brut”, “Orlean qizi”, “Sezarning o‘limi” va boshqalar. Bu asarlarning barchasida Vol’ter o‘z davrining buyuk ma’rifatparvari sifatida shakllandi. Uning bu faoliyati, ayniqsa, Rossiyada ijobiy baholandi. Rossiyada Vol’terchilik oqimining kelib chiqishiga uning ta’limoti asos bo‘ldi. Vol’ter faoliyatining ta’sirida rus ma’rifatparvarlari: P. P.Popovskiy, S.Ye.Dosnitskiy, D.S.Anichkov, I.Ya.Tret’yakov, A.Ya.Polenov, Ya.P.Kozel’skiy, N.I.Novikov, D.I.Fonvizinlar ijtimoiy-siyosiy maydonga chiqqanlar. Bu mutafakkirlar Rossiyadagi feodal krepostnoy tuzumiga qarshi faoliyat ko‘rsatganlar.

1778-yil 30-may kuni davolab bo‘lmaydigan kasal Vol’ter hayotini to‘xtatdi. Politsiya uning o‘limni oshkor qilmaslik choralarini ko‘radi. Pe’salarini teatrlarda qo‘ydirmaydi. Baribir, Vol’terni xalq esdan chiqarmaydi. Cherkov va hokimiyat ruxsatisiz Parij yaqinidagi qabristonda dafn marosimi uyushtiriladi. Uning tirikligida 19 ta asarlar to‘plami nashr qilingan bo‘lsa, vafotidan so‘ng 70 tomlik to‘la asarlar to‘plami nashr etildi. 1791-yilda ta’sis majlisining qarori bilan uning jasadi solingan tobuti Parijning ulug‘ insonlar qabri Panteonda joylashtiriladi. U qo‘yilgan joyda insoniyatning aqlini rivojlantirishga qo‘shgan xizmatlari e’tirof etilib, mavqei haqida fikrlar yozilib qoldirilgan.

Vol'ter materializmning deizm shaklini qabul qilgan faylasufdir. Ma'lumki, deizm so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, xudo degan ma'noni anglatadi. Ya'ni bu so'zning falsafiy ma'nosi borliqning qiyofasi va mavhum ilk sababchisi xudodir, lekin u tabiiy va ijtimoiy hayot taraqqiyotiga ta'sir etmaydi, deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan. Uning asoschisi ingliz faylasufi Cherberidir. Uning izdoshlaridan biri Vol'ter. Vol'ter ko'pgina diniy aqidalar, vahiy, xudoning irodasi tasavvurlarini, marosimlarni inkor etib, vijdon erkinligini targ'ib qilgan faylasuf. U fan va falsafani clerkov zo'ravonligidan, aqlni din tazyiqidan uzoqlashtirishga harakat qildi. Bu o'rinda Vol'ter, J.Lokk, I.Nyuton, G.V.Leybnitsning faylasuflik ta'limotlarini himoya qildi. Subyektiv idealizmga qarshi chiqib uni barcha tomonlarini tanqid qildi. Agnostitsizmni qo'llab-quvvatlamadi. Metafizik qarashlarning, falsafadagi zararini anglab bu uslubni ham tanqid qildi. Metafizikani tanqid qilishda u Jon Lokk (1632-1704)ni sensualizmidan foydalandi. Uning "Tug'ma g'oyalar" nazariyasini yuqori baholadi. Chunki, Jon Lokk ham metafizik ta'limotni kamchiliklarini ko'rsatib bergan edi. Lokkning ta'limotida harakat xudo faoliyati bilan bog'lab tushuntirilsa ham, ijobiy fikrlar bayon qilingan edi. U tabiiy din tarafdori bo'lib, cherkovni davlatdan ajratish zarurligini, din erkinligini qo'llardi.

Vol'ter ta'limoti olamni bilishga ham qaratilgan bo'lib, bilishni cheksiz, deb hisoblaydi. Bilish insonning sezgilariga bog'liq. Materiya ong sezgilari orqali idrok qilinadi. Bu idrok esa tajribaga bog'liq. Tajriba esa insonlar faoliyatidan kelib chiqadi. Tabiatni o'rganish, bilish, tajribaga bog'liq. Ayniqsa, tabiatni bilishda matematik tajriba faoliyati muhimdir. Bu o'rinda u Rene Dekart ta'limotining ijobiy tomonlariga e'tiborni qaratadi va yuqori baholaydi.

Tafakkur qilish bilishning manbaidir. Bilim esa olamni o'zgartirishga olib keladi. Bilish aqliy jihatlarga bog'liq. Aql, ayniqsa, ilmiy falsafiy bilimlarning kelib chiqishi va rivojlanishida benihoya muhim rol' o'ynaydi. Faqat aqlning yordamida inson o'ziga xos zarur bo'lgan haqiqatga erishishi mumkin. Haqiqat esa bu aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo'lgan nazariy xulosalardir.

Vol'ter materiyaning ongga munosabatini ham materialist sifatida hal etdi. Teologiyaning ba'zi bir tomonlaridan foydalanib, materializmni targ'ib qildi. Olamda materiyadan boshqa obyekt borligiga shubha bilan qaradi. Materiya tuzilishi jihatdan har xil bo'lib, mohiyatan moddiydir. Materiya xususiyatlari ham cheksiz holda universaldir. O'tmishdagi ko'pgina materialistlar singari, Vol'ter ham ongni materiyaga nisbatan ijodiy xarakterini e'tirof etsada bu materiyaning barcha turlariga mosdir, degan xulosadan uzoqlasha olmaydi. Uning ta'limotida ham jonli tabiat bilan jonsiz tabiat, hayvonlar psixikasi bilan inson tafakkuri o'rtasidagi chegara aralashib ketdi. Lekin, ong tashqi, moddiy olamning miyada aks etishining natijasi ekanligini inkor etmadi. Jonsiz tabiatdagi aks etish, jismning boshqa jismlar ta'siri ostida o'zgarishida namoyon bo'ladi. Materiya strukturasining murakkablashuvi in'ikos ko'rinishlarini ham murakkablashtiradi. Eng oddiy jonvorlardagi ta'sirlanuvchanlik oddiy shakldagi in'ikosdir. Ta'sirlanuvchanlik, o'z-o'zini saqlash va nasl qoldirishda muhim rol' o'ynaydi. Nerv sistemasiga va miyaga ega bo'lgan jonli, ko'p hujayrali organizmlar evolyutsiyasi jarayonida in'ikosning psixik shakli vujudga keladi. U organizmning tevarak-atrofdagi muhit bilan signal tariqasidagi o'zaro ta'sir etishini ta'minlaydi. Mazkur sohalar Vol'terning materiya haqidagi ta'limotidan xulosalar sifatida keltirildiki bu okeandan bir tomchidir, xolos.

Vol'ter faoliyatining markaziy o'rinlaridan birida insonning ijtimoiy turmush tarzi turadi. Bunda ham insonni diniy soxtaliklardan uzoqlashtirish lozim, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Diniy johillikdan qutulishning birdan-biri yo'li, uning fikricha, tabiat qonunlarini bilishdir. Insonning erkin yashashi uchun uni barcha tazyiqlardan qutultirish lozim. Buning uchun har bir inson o'zini-o'zi "sevishi" kerak. O'zi uchun harakat qilishi lozim. Boshqa fransuz materialistlari singari Vol'ter ham inson ijtimoiy muhitning mahsulidir, degan fikrda turdi.

Agar ijtimoiy muhit inson talabiga javob bermasa, bunday ijtimoiy muhitdan voz kechish lozim. Chunki, insonning o'zi shu muhitga moslashib qoladi. o'zgarish ham bo'lmaydi. Bu jaholatdir. Sababi, jamiyat olg'a qarab rivojlanmaydi. Inson va jamiyat o'zaro dialektik munosabatdadir. Bu munosabat mavjud bo'lmasa

rivojlanish ham bo'lmaydi. Jamiyat inson talabiga javob bermasa, u jamiyatda axloqsiz kishilar, buzuq niyatlilar, johillar ko'payadi. Shu sababli bunday yaramas jamiyatni yangi, takomillashgan jamiyat bilan almashtirish, albatta, zarur. Bu vazifa faqat ma'rifatning rivoji orqali amalga oshadi.

Vol'ter fikricha, ijtimoiy muhit bu – davlat, siyosiy idoralar va ularni chiqargan qonunlaridir. Tafakkur jamiyatni boshqaradi. Tafakkur rivoji qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday rivojlanadi. Binobarin, inson irodasi barcha narsaga qodir. Inson erkin, chunki, o'z ongiga ega. Hayotda o'zi to'g'risida o'ylaydigan inson irodalidir. Borliqning xudosi ham zaruriyatdan kelib chiqqan. Shu bilan birga u xudolar borasida "ijobiy" xudolarning tasdiqlanmaganligini ta'kidlaydi.

Agar, - deydi u, "xudo bo'lmaganda edi, uni o'ylab chiqish mumkin bo'lar edi". Vol'ter falsafasi qanchalik ziddiyatli bo'lishidan qat'iy nazar insonlarni ma'rifatga chorlaydi. Vol'ter o'z faoliyatini faqat, yevropa tarixini o'rganish bilan bog'lab qo'ymadi. Keyinchalik dunyo mamlakatlari tarixini ham o'rganishga kirishdi. Jumladan, Hindiston tarixi to'g'risida ham asar yozdi. «Tarix falsafasi»da tarixni o'rganish metodologiyasini ishlab chiqdi. A. S. Pushkin iborasi bilan aytganda Vol'ter tarixni o'rganishning «Yangi yo'lini topib, uning yoritgichini aniqlab berdi». Tarix fanini ilmiy predmet darajasiga ko'tardi. Tarixni afsonaviy obrazlardan tozalashga, badiiy tasvirlashlariga chek qo'yishga intildi. O'tmishdagi voqealarni tanqidiy o'rganishni tavsiya etdi va kelajak uchun turtki berdi. Shu sababli ham, rus mutafakkiri Plexanov fikricha, Vol'terning «Tarix falsafasi» tarixni ilmiy talqin qilish namunasidir. Shu narsa muhimki, tarixini yoritishda ko'proq xalq faoliyatini o'rganish lozim. U tarixchilardan xalqlarning ma'naviy, axloqiy, falsafiy, huquqiy, siyosiy, ilmiy bilish, san'at va adabiyot sohalarini kengroq yoritishni talab qildi. Moddiy hayot ravnaqi haqida yozishlarini zarur, deb topdi. Vol'ter fikricha, tarixni yozishda milliy boyliklar, savdo-sotiq, moliya ishlari hisobga olinmog'i darkor. U butun dunyo tarixini yozishda qadimiy mamlakatlar faoliyatiga e'tiborni qaratdi. Jumladan, yevropa faylasuflari o'rtasida birinchi bo'lib, Hindiston, Xitoy, Arab xalqlari, aborigenlar faoliyatini to'la yoritishga harakat qildi. U xulosa qiladiki, tarixni xalq yaratadi. Jamiyatni harakatga

keltirishda inson fikrlari muhimdir. Tarix falsafasini yaratish bilan birga Vol'ter, ijtimoiy falsafani asoslashda ham birinchilardan bo'lib maydonga chiqdi.

Yevropa mutafakkirlaridan yana biri Berklidir. U o'zining "Inson bilishining asoslari to'g'risida traktat" (1710) degan asarida inson bilishining obyektlarini ko'zdan kechiruvchi har bir kimsaga bu obyektlar yo haqiqatan sezgilar vositasi bilan idrok qilinadigan g'oyalardan, yoki emotsiyalardan his va aql faoliyatini kuzatish natijasida olgan g'oyalarimizdan va nihoyat xotira yoki xayolot yordami bilan hosil qilingan ideyalardan iborat ekanligi ravshandir. Ko'rish, eshitish hidlash va boshqa sezgilar qo'shilib bir narsaning ifodasini beradi", – deydi.

Demak, Berkli fikricha, narsa "ideyalar yig'indisi"dan iborat ekan. Uning fikricha, bularni idrok qiluvchi narsa aql, ruh, jon umuman men mavjud bo'lib undan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emasdir. Berkli tabiatdagi hamma hodisa va narsa sezgilar yig'indisi (ideyalar kolleksiyasi)dan iboratdir.

Berkli fikricha, subyektiv idealizmining gnoseologik ildizi obyektiv, moddiy dunyoni absolyutlashtirish bilan uni sezgilar tassuroti orqali birlashishidadir. Lekin, Berkli g'oya, sezgilar mavjud obyektlarning nusxasi, in'ikosi ekanligini inkor qildi. O'zini subyektiv idealizm va solipsizmda ayblanishidan himoya ham qiladi. Berkli, Yumlar sezgilardan nariga o'ta olmadilar. Berkli va Yum solipsizmi idealistik ta'limotining eng ratsional ko'rinishidir.

Bu davr fransuz materialistlari dialektikani materialistik nuqtai nazaridan asoslashda juda katta hissa qo'shdilar, ayniqsa fransuz mutafakkirlari Lametri, Gol'bax, Gel'vetsiylar shular jumlasidandir. Ijtimoiy davrning o'zi fransuz materialistlari oldiga shunday vazifani qo'ydi. Ular idealizmga, dinga qarshi chiqishda tabiatni materialistik asosda tushunish kerakligini birinchi masala qilib qo'ydilar.

Deni Didro (1713. 5. 10, Langr-1784. 31. 7, Parij) Fransiyaning Langr shaharida o'ziga to'q hunarmand oilasida tug'ildi. Denining otasi ikki o'g'ilni ham yetuk ma'lumotli qilib tarbiyalash maqsadida o'sha vaqtdagi yagona o'quv markazlaridan hisoblangan iyezuitlar kollejida o'qitadi. Bu kollejda asosan qadimgi tillar, tarix, notiqlik mahorati, adabiyot o'qitilar edi. Didro 15 yoshga yetganda Parijga yo'l oladi. Sababi, u yerda o'zini to'la ma'lumotga, bilimga ega qilish

edi. Uning maqsadi zamonaviy bilim olib, hayot bilan yaqindan tanishish edi. Parijdagi D. Arkur kollejida joylashib grek, lotin tilini o'rganishda davom etadi. Avvalida, matematika fani bilan qiziqmasa ham so'ng matematika va boshqa fanlar bilan jiddiy shug'ullanadi. O'qishni tugatgandan so'ng otasining maslahati bilan ikki yil davomida Langrlik prokurorga yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Lekin uni huquqiy sohalar unchalik qiziqtirmaydi. Bo'sh vaqtlarida ingliz tilini o'rganishga kirishadi. Uning falsafiy qarashlarining dastlabki davrlari 1740-45-yillarga to'g'ri keladi. 1745-yilda ingliz axloq-shunosi A.E.Sheftsberining asari («Исследование о достоинстве и добродетели»)ni tarjima qilish davriga to'g'ri keladi. Bu asar unga jiddiy ta'sir etgan edi. Asar izohlarida aytilgan fikrlar bo'lajak mutafakkir fikrlari edi. Unda Didro katolitsizmdan uzoqlashib, diniy fanatizmni jiddiy tanqid ostiga oladi.

Shundan so'ng, 1746-yilda anonim holda nashr etilgan «Falsafa fikrlari» (Filosofskiye misli)da xristianlik bilan to'la aloqani uzib materialistik g'oya bilan sug'orilgan deizm falsafasiga o'tadi. Shu yillarda Didro J.J.Russo, Kondilyak kabi yozuvchi va faylasuflar bilan tanishadi, munozara hamda suhbatlarda qatnashadi, o'zini, qiyinchilik, quvg'in va tanqidlarga tayyorlaydi.

«Falsafiy fikrlar» hayot izini ko'rishi bilan parlament tomonidan yoqib yuborishga qaror qilinadi. Uni oldindan sezgan Didro shu asarning o'zidayoq «muqaddas qutlug'lar»ning fikriga qarata aytilgan fikr va mulohazalardan yuz o'girsalar, ularga nisbatan yana yangi g'oyalar paydo bo'lishini ta'kidlaydi. "Ular, - deydi u, Dekart, Monten, Lokk va Beylyasarni doimiy tanqid ostiga olgan ekanlar, meni ham shunday qiladilar. Meni ayblasalar, osongina qutuldik deyishlari mumkin, ammo unday bo'lmaydi, bilaman, kelajakda menga o'xshaganlarni muhokama qilish davom etaveradi". Didroning bu fikrlarni aytishdan maqsadi iyezuitlarni diniy sohada noto'g'ri yo'l tutganlarini isbotlab hamma dinlarning tengligini, shu bilan birga insonning borliq xudosining borligiga shubha qilishiga huquqi borligini talab etish edi. Hamma joyda aql, fahm, idrok (razum) faoliyatga suyanish, jumladan dinda ham shunday qilish zarurdir. Didroning mustaqil falsafiy fikrlarining shakllanishi daxriylik sohasiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki, bu yillarda u Aristotel, Platon, F. Bekon, R. J.Lokk, R. Dekart, B. Spinoza

asarlarini chuqur o‘rganadi. «Ojizlar to‘g‘risidagi xat»dan boshlab «Fiziologiya elementlari» (1773-yildan 1780-yillargacha davom etgan) gacha ko‘plab falsafiy muammolarni ishlab chiqdi. Bu o‘rinda «Tabiatni tushuntirishga oid fikrlar» (1754), «Jiyan ramo» (1762), «Dalamber bilan Didro suhbati» (17690, «Jak-Fatalist» (1773), «Materiya va harakatning falsafiy prinsiplari» (1770), «Ensiklopediya»da yozilgan maqolalar va asarlarini misol qilib olish mumkin. Bu asarlarda va maqolalarda tahlil qilingan muammolar Didroning buyuk mutafakkir bo‘lib yetishganligidan dalolat beradi. Butun umrining oxirigacha Didro insonparvarlik va ma’rifatparvarlikni targ‘ib qilar ekan, barcha joylardagi hokimiyat tiranlar haq-huquqlarni va beadablikni (nevejestvo) tanqid qildi, ularga qarshi kurash e’lon qildi. Didro falsafada materialist va ateistdir. Shu o‘rinda Didroning turli asarlardan tarjima qilingan fikrlariga o‘quvchini diqqatini tortamiz. «Odamlar boshqa hech narsadan qo‘rqmasliklariga ishonganlarida,-deydi u,-bu dunyoda ancha tinch yashagan bo‘lardilar: xudo yo‘q, degan fikr hali hech kimni dahshatga solmagan, lekin menga tasvirlab berishganlari xudoning mavjudligi haqidagi fikr qancha-qanchalarni vahimaga solmagan axir!» (V.L.Voronsov) «Tafakkur gulshani», Toshkent, 1981:- «Qayerdaki xudoni tan olinsa, u yerda shaxsga sig‘inish mavjud, qayerda shaxsga sig‘inish mavjud ekan, u yerda axloqiy burch tartibotlari buziladi va axloq yuz tuban ketadi» (O‘sha kitob, 265-bet). «Dunyoning hech bir yeri yo‘qki, u joyda diniy qarashlar o‘rtasidagi tafovut tuproqni qonga bulg‘amayotgan bo‘lsa» (O‘sha kitob, 267-bet). «Agar aqlni samoviy tuhfasi deb qarab, shu gapni din xususida aytsak, u holda samo bizga o‘zaro kelisha olmaydigan va bir-biriga zid ikkita tuhfa yuborgan bo‘lib chiqadi. Bu anglashilmovchilikni to‘g‘rilash uchun din tabiatda mavjud bo‘lmagan xom-hayol bir prinsip ekanligini tan olish darkor» (O‘sha kitob, 272-bet).

Ma’lumki, 1762-yilda yekaterina II imperator kursisiga o‘tirgandan so‘ng u o‘zini ma’rifatparvar hukmron podshoh sifatida ko‘rsatish uchun ma’rifatparvarlar bilan xatlar orqali aloqa bog‘lagan. U D.Didroni hurmat qilar edi. O‘sha davrda yashab ijod etayotgan Vol’terni aloqasi esa Didronikidan yaxshiroq bo‘lgan. Fransiyada ma’rifatparvarlar quvg‘inlikka uchraganlaridan so‘ng

yekaterina II Didroni Rossiyaga taklif etadi. Ensiklopediyani chop etishga va'da beradi.

Didroni falsafaning azaliy muammolaridan bo'lgan materiya va uning harakati to'g'risidagi fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, materiya- abstrakt hajm va geometrik jism emas, balki alohida, bizni o'rab turgan aniq jismlardir. Materiya kichik molekula va atom zarrachalaridan iboratdir. Atomlar esa bo'linmasdir. Bu qarashlar Didro yashagan davrdagi materialist faylasuflar ta'limotiga ham taalluqlidir. Didro fikricha, tabiat mangu va cheksizdir. U yaratilgan emas, g'ayri tabiiy kuchlar to'g'risidagi uydirmalarga ishonish ham kerak emas. Bizni o'rab turgan tabiatdan boshqa olamda hech narsa yo'q. Shu tabiatdan tashqarida biror kuchni o'zi yo'q. Faylasufning ta'kidlashicha, materiya kabi harakat ham abadiydir. Sukunat esa nisbiydir, vaqtinchadir. Olamda paydo bo'lish va yo'q bo'lishdan boshqa narsa yo'q. Olam ham, dunyo ham sekinlik bilan davom etadigan evolyutsion jarayondan iborat. Hayvonot olamining qator bosqichlarini boshidan o'tkazib, hozirgi holatiga ega bo'lgan odamlarda tabiiy rivojlanishning oliy stixiyali ko'rinishi seziladi. Olamdagi barcha predmetlar va hodisalar sababiy (determinastik) bog'lanish hamda aloqadadir. Sababiy bog'lanish va aloqadorsizliklarsiz biror predmet va hodisa paydo bo'lmaydi. Didroning fikricha, sababiy bog'lanishlarsiz taraqqiyot ham yo'q. Taraqqiyot ushbu bog'lanish va aloqadorliklarga bog'liq. Tabiat va jamiyat, inson tafakkuridagi sababiy bog'lanishlar umumiy rivojlanishning asosini tashkil etadi.

Materiya va uning xususiyatlari haqida, Didro to'xtalganda aytadiki, notirik materiyadan, ya'ni sezmaydigan materiyadan sezadigan, tirik materiyaga o'tishni asoslashga harakat qilib o'z fikrlarini baralla bayon qilgan. His-tuyg'u, sezish jonli organizmlarga xos xususiyat ekanligini e'tirof etgan. Shu bilan birga materiyada umumiy sezishga o'xshagan holat borligini ham eslatib o'tadi. Mutafakkir olamda zaruriyat hukmronligini targ'ib qiladi. Sababiy bog'lanishlarning barchasi ham zaruriyatdan iboratdir.

Didro ta'limotida olamni bilish muammosi ham markaziy o'rinlarni olgan. Didro olamdagi predmet va hodisalarni insonlar bila borishiga shubha qilmadi. U idealistik ta'limotlardagi agnostitsizm va skeptitsizmlarning qonun-qoidalarini qabul qilmadi. Faylasufning

ta'kidlashicha, dunyoviy ilmlardan barcha insonlar bahramand bo'lishi lozim. Bu sohadagi barcha harakat birlashtirilsa, u holda, tabiatdagi barcha jarayonlarni bilish tezlashgan bo'lur edi. Insoniyat tabiatni bilmasligi tufayli ko'pgina qiyinchiliklarga duchor bo'lib kelayapti. Tabiatni oliy mavjudoti inson bo'lib, undagi sezgilar bilish uchun quroldir. Bu o'rinda idealistlardan Berkli ta'limotiga qarshi chiqib, sezgilar faollyatini noto'g'ri baholanganligini isbotlaydi. Mazkur sohada fikr yurituvchi idealistlar sistemasini e'tirof etmaydi. Jumladan u shunday fikr aytadiki, "Faqat o'zlarining mavjudligini va ichimizda almashinib turuvchi sezgirlarning mavjudligini ma'lum deb bilib, bulardan boshqa hech bir narsaning mavjudligini e'tirof qilmaydigan faylasuflarni idealist deb, ataydilar. Mening fikrimcha, bunday ajoyib va g'aroyib sistemani, garchi eng bema'ni sistema bo'lsa ham, uni rad qilish hammadan ko'ra qiyinroqdirki, bu hol inson aqli uchun, faylasuf uchun isnotdir[1]".

Didro faoliyati, falsafasi jamiyat taraqqiyotiga ham qaratilgan. Ammo, sobiq sovet ittifoqi davridagi darslik va monografiyalarda bu jarayon hisobga olinmaydi. Didroni ham boshqa fransuz materialistlari singari jamiyatni tushunishda idealist, deb bo'rttirib ko'rsatadilar. Aslida esa Deni Didro jamiyat taraqqiyotinio'z davridan kelib chiqib baholagan.

Didro tomonidan jamiyatda yashagan kishilarni ma'rifatli kishi bo'lishini talab qilinishi jamiyatdagi barcha hodisalarning to'g'ri tahlil qilinganligidan dalolatdir. Jamiyatdagi yaxshilik va go'zallikni targ'ib qilish uchun estetika to'g'risida fikr yuritadi. Bu sohalar uning «Ensiklopediya»dagi «Go'zallik» (1751), «Tasviriy oyna san'at tajribalari» (1765), «Aktyor to'g'risida para» (1773) va boshqa asarlarida o'z aksini topgan. Boshqa fransuz materialistlari singari Didro ham shaxs ijtimoiy shart-sharoitining mahsulidir deydi. Uningcha shu ijtimoiy hayot qanday bo'lsa, insonlar ham shunday bo'ladilar.

Didroning qarashlari XVIII - XIX asrdagi sotsiologlar fikrini yanada mukammalashtirdi, konkretlashtirildi. Jamiyatning taraqqiyotini tushunishda uning inson haqidagi qarashlari muhimdir. Inson aql-farosati, shaxslarning fikri jamiyat tuzilishiga ta'sir etadi.

[1] Didro asarlarining mukammal to'plami. Parij. J. Aseyez nashri. 1875. 1 -tom. 304-bet.

Xalq va jamiyat axloqi inson axloqiga bog'liq. Shu sababli, jamiyat tarixi xalq tarixi emas, balki buyuk shaxslar tarixidir, degan fikrlarni o'rtaga tashladiki, bu fikrlar jamiyat taraqqiyotini tushunishda haqiqiy manbadir. Didro ta'limotida, marksistlar ta'qiqlagan mavhum inson yo'q. Balki konkret inson bor. Marksizm bu sohada ham Didro ta'limotiga bir yoqlama yondoshadi. To'g'ri, uning ta'limotida jamiyat tabiat qonunlariga bo'ysunadi, degan fikirlar mavjud. Bu ashda xolisona tahlilda haqiqatdir. Ba'zi tabiat qonunlari oldida insonlar kuchsizligi maxfiy emas. Albatta, bu bilan u, inson imkoniyatiga bepisand bo'lgan deyishdan yiroqmiz. Ma'rifatli jamiyatni boshqaruvchisi insondir, deb targ'ib qilish insonlarga bo'lgan hurmatining amaliy ifodasidir.

Jamiyatni iqtisodiy manfatlarini to'g'ri tushungan holda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishni targ'ib qildi. Kishilarning ma'naviy erkinliklarini qo'llab-quvvatladi.

XVIII asr fransuz materialistlarining markaziy, eng yirik ma'rifatparvari sifatida shakllangan Didro ta'limotining ko'pgina tomonlari hozir ham eskirgan emas, zamon talabidadir. U o'z falsafiy fikrlari bilan insoniyatni lol qoldirgan buyuk alloma sifatida tarixda qolgan. Uning ijodi va merosini o'rganish foydadan holi emas.

Umuman xulosa qilib aytganda, fransuz falsafasi moddiy dunyoni materialistik tushunishdagi asosiy davr hisoblanadi. Materialistik falsafaning namoyondalari qatoriga rus olimlaridan M.V.Lomonosov, A.N.Radishchevni ham olish mumkin.

M.V.Lomonosov tabiat hodisalarining asosida zarracha harakati yotadi, deb o'zining atom-molekulyar (korpuskulyar) nazariyasini yaratdi. Materiya atomlardan tashkil topgan, doim harakatda, fan buni o'rganishi va bu sohadagi nazariyani kengaytirishi kerakligini ko'rsatadi.Fazo va vaqt V.M.Lomonosov fikricha, materiyaning ajralmagan holda obyektiv mavjudligini ko'rsatuvchi dalildir. V.M.Lomonosov moddalarning saqlanish qonunini kashf qilish bilan moddiy dunyoning, ya'ni tabiat taraqqiyotidagi rivojlanish dialektikasiga asos soldi. Olimning fizika, kimyo, biologiya, geologiya va boshqa fan sohasidagi erishgan yutuqlari uning materialistik dunyoqarashiga dalil hamda asos bo'ldi. Shunday qilib XVIII asr materialistlari, o'sha davrdagi tibbiyot fani erishgan

yutuqlar asosida din va idealizmga qarshi chiqqanlar. Bu tarixiy haqiqat.

Fransuz falsafasi bilan nemis klassik falsafasi XVIII asr oxiri XIX asr boshida vujudga keldi. Bu davrda Germaniyada kapitalizm endi vujudga kelayotgan, feodal munosabatlar yemirilayotgan davr edi. Nemis klassik falsafasi shu davrdagi burjua demokratik jarayonlar va inqilobiy qo'zg'olonlar ta'siri ostida vujudga keldi va rivojlandi. Nemis klassik falsafasining namoyondalari nemis burjuaziyasining ideologlari sifatida maydonga chiqdilar. Germaniya boshqa G'arbiy yevropa mamlakatlariga qaraganda bir muncha siyosiy va iqtisodiy jihatdan qoloq edi. Nemis burjuaziyasi qo'rqoq va kuchsiz edi. Ana shunday davrda oddiy til bilan aytganda, ko'proq"Mayda ishlar va katta xayollar bilan shug'ullanar edi".

Nemis klassik falsafasining asosichisi I. Kant(1724-1804) publitsist, falsafa va huquq singari fanlar bilan shug'ullanadi. U nemis burjuaziyasining ideologi bo'lgani uchun falsafasida nemis burjuaziyasiga xos ikkilanish o'z ifodasini topgan. Olim idealizm bilan materializmni, din bilan fanni kelishtirishga urinadi, ikkinchi tomondan, u narsani bilishni inkor etadi (agnostitsizm). Kant falsafasi ikki davrga bo'linadi. "Tanqidgacha" va "tanqidiy davr". Har ikki davrda ham materializm va idealizmni kelishtirishga urinadi. Birinchi davrda tibbiyot fanlarini o'rganishining ta'sirida unda materiallstik tomonlar kuchll edi. Ikkinchi davrda esa, idealistik g'oyalari ustun keldi. Kant o'z faoliyatini Nyutonning kosmogoniyasini tanqid qilishdan boshlaydi. Nyuton olam tortishish qonunini o'z davri holatidan kelib chiqib ifodalagan bo'lsa, Kant uning paydo bo'lish va rivojlanishidan boshlaydi. Nyutonning xudoga bog'lanishini fojea deb, bu masalani Demokrit, Epikurlar davomchisi sifatida tekshiradi. Quyosh sistemasining paydo bo'lishini tumanlik kelib chiqishi bilan tushuntiradi va hech qanday turtki yo'q deya, materiyani doimiy paydo bo'lishi va yo'qolib turish muammosini isbotlaydi. Kant o'z oldiga qo'ygan ilmiy bilish imkoniyati haqidagi muammoni vazifa qilib qo'yadi. Uning fikricha, avval inson bilish imkoniyatini tekshirishi kerak. Bu esa bilish jarayoni bilan bilishi lozim bo'lgan narsalarni bir qatorga qo'yishga olib keladi. Ammo I. Kant tafakkurni chegaralab qo'yadi. Uning fikricha, narsalarning voqeligi mohiyatidan farq qiladi. Obyektiv dunyo bor, lekin ular (narsa) o'zida

bo‘lib, uni bilish mumkin emas, deydi. Kantning bu fikri agnostitsizmga olib keladi. Kantning fikricha, voqelik tartibsiz bo‘lib, bizning ongimizgina tajriba bilan bog‘lanmagan holda u voqelikka umumiy zaruriy qonuniyatlar kirgizadi. Demak, Kantning fikricha narsa ong bilan muvofiqlashuvi kerak.

Kant xizmati metafizik uslubni tanqid qilish va dialektik uslubga yaqinlashuvida, kishi tafakkuridagi qarama-qarshiliklarni e’tirof qilishidadir. Kant falsafasidagi idealizm va materializm elementlari nemis falsafasini rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Uning falsafasi G. Gegel idealizmi va Feyerbax materializmida kelib chiqdi. Gegel (1770-1831) falsafasida nemis idealizmi eng yuqori cho‘qqiga chiqqan bo‘lib, yetakchi masala obyektiv idealizm asosida hal qilindi. U tabiat, jamiyat hodisalarining asosida dunyoviy ruh yotadi, deb tasdiqladi. Dunyoviy ruh birinchi, tabiat esa hosila, deydi. Gegel falsafasining asosini absolyut ideya tashkil qiladi. Gegel falsafiy sistemasi bilan uning uslubi orasida ziddiyat bor edi. Bu ziddiyat nemis burjuaziyasining tabiatini, ya’ni bir tomondan, eskicha feodal munosabatlarga qarshi kurashi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘sib kelayotgan ishchilar sinfining harakatidan cho‘chishni ifodalar edi. Gegel falsafada rivojlanish g‘oyasini ilgari surishi bilan dialektik uslubga asos soldi.

Dialektik uslub Gegel falsafasining ratsional mag‘zini tashkil qiladi. Gegel dialektik harakatning umumiy shakllarini birinchi bo‘lib to‘la-to‘kis va ongli ravishda tasvirlab bergan.

Gegelning boy mazmunga ega bo‘lgan keng va chuqur rivojlanish haqidagi ta’limotiga ko‘pgina faylasuflar ijobiy baho bergan. Gegelning pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab boruvchi dialektik rivojlanish haqidagi ta’limoti metafizik ta’limotga bergan zarbadir. Gegel dialektikaning qonunlarini, garchand idealistik asosda bo‘lsa ham, birinchi bo‘lib ta’riflagan.

Ziddiyatlarning realligini e’tirof etib, metafizikaga qarama-qarshi bo‘lgan fikrni bergan Gegel, ziddiyat harakat va rivojlanishning ichki manbaini tashkil etishini, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi dialektikaning asosiy qonuni ekanligini isbotlaydi.

Gegel rivojlanishning asta-sekin miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishiga sakrashlar orqali o‘tishini tasniflab, dialektikaning miqdor o‘zgarishidan sifat o‘zgarishiga o‘tish qonunini asosladi.

Rivojlanishda eski bilan yangi o'rtasidagi bog'lanish mavjudligini va rivojlanishning yuqori bosqichida inkor etilayotgan quyi bosqich ijobiy mazmunining saqlanishini isbotlab, inkorni inkor qonunini ochdi. Gegel dialektikaning asosiy qonunlaridan tashqari, sabab va oqibat, ziddiyat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa kabi dialektika kategoriyalarini ham tavsiflab berdi. Bular Gegel falsafasining ilg'or tomonlari va uning asosiy xizmatlaridir.

Gegelning xizmati yana shundaki, u birinchi bo'lib, butun tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyoni bir jarayon shaklida, ya'ni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, qaytadan tuzilib, taraqqiy qilib turadigan holda ko'rsatadi va bu harakat bilan taraqqiyotning ichki bog'lanishini nazariy jihatdan ochib berishga urinadi. Gegelning vazifani amaliy jihatdan hal qilmaganligining bu yerda ahamiyati yo'q. Uning tarixiy xizmati bu vazifani o'rtaga qo'yganligida edi.

Gegel falsafasining asosiy yutug'i falsafiy sistemasidir. U obyektiv idealist bo'lganligi uchun materializmga qarshi edi. U moddiy dunyoni abstrakt ideyaning mujassami, uzluksiz rivojlanish jarayoni real dunyoga emas, absolyut ruhga xos deb, dunyoning asosi ham, shu ruh deb bildi.

Gegel fikricha, voqelikni yaratuvchi ham, absolyut ideyadir. Gegel sxemasida absolyut ideya o'z rivojlanishida uch davrni boshidan kechiradi: 1) g'oya: tabiatdan oldin paydo bo'lgan tafakkur holatida yashaydi. U insondan oldin paydo bo'lgan. Uning fikricha, kishi ongidan tashqarida yashovchi mavhum tafakkur-absolyut ideya yotadi. U buni «Logika» kitobida ifodalagan.

Absolyut ideya o'z rivojlanishining muayyan ikkinchi bosqichida o'zining qarama-qarshisiga-tabiatga aylanadi. Ya'ni o'zini begonalashtiradi. Absolyut ideya uchinchi davrida esa kishida mujassamlanadi. Buni u «Ruh falsafasida» yoritadi.

Uchinchi davrda kishi tafakkuri ijtimoiy ongning turli shakllarida o'z ifodasini topadi va absolyut haqiqatga erishadi shu bilan absolyut ideyaning rivojlanish davri tugaydi, natijada rivojlanish bekik doiraga aylanadi.

Gegel falsafasi davlat va huquq falsafasi, estetika, din falsafasi masalalariga to'xtalib, bu sohada ham o'zining idealistik fikrlarini beradi.

Nemis falsafasining yirik vakillaridan biri Lyudvig Feyerbax(1804-1872) edi. U Gegel va Kant idealizmini tanqid qilib, XVII asr materializmining ilg'or traditsiyalarini tikladi va rivojlantirdi. Bu davrda-XIX asrning ikkinchi choragida Germaniyada sanoat kapitalizmi kuchaygan, jamiyat tarixida ikki sinf – burjua va proletariat sinfining o'sishi davri edi. Dvoryan bilan burjuaziya va burjuaziya bilan proletariat orasidagi sinfiy ziddiyatlar kuchaygan edi. Bularning hammasi Germaniyadagi g'oyaviy kurashning kuchayishiga olib kelgan edi. Bu kurash Gegel falsafasini tushkunlikka tushishida o'z ifodasini topdi. Bu davrdagi yosh gegel'chilar orasida Feyerbax ham bor edi. U birinchi bo'lib Gegel idealizmiga qarshi chiqib, materializm bayrog'ini ko'tardi. U idealizm va diniy asoslarni tanqid qildi. U ijobiy g'oyalarni targ'ib qildi. 1839-yili «Gegel falsafasining tanqidi», 1841-y «Xristianlikning mohiyati» degan asarlarini yozdi. Feyerbaxning bu asarlari ateistik idealarni o'rtaga qo'yilishida katta rol' o'ynaydi. Feyerbax materiyaning doimiy uzluksiz harakatdaligini, tabiat, materiya birlamchi, ong, ruh ikkllamchi ekanligini ta'kidlaydi. Falsafaning asosiy masalasini materialistlarcha hal qiladi. Materializmni yangi pog'onaga ko'taradi, unga tabiiy ilmiy asos beradi. U mexanistik materializmning tabiat qotib qolgan, harakatsiz, deb qarashi o'ringa tabiat rang-barang, deb qaradi. U bilish nazariyasini materializm asosida rivojlantirdi. Feyerbax Kant agnostitsizmini tanqid qilib, dunyoni bilish mumkinligini isbotladi. Uning fikricha, bilish jarayoni sezgilarga, keyin esa tafakkurga o'tish yo'li bilan obyektiv haqiqatni bilishdan iboratdir. Lekin Feyerbax materializmi va bilish nazariyasi chegaralangan edi.

Feyerbax Gegel dialektikasining ratsional mag'ziga to'g'ri baho bermadi, uning idealizmi bilan dialektikasini qo'shib uloqtirdi. Feyerbaxning kamchiligi shuki: u tabiatga va bilish jarayoniga tarixan yondoshmadi, bilish jarayonida jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga o'tish dialektikasini va amaliyotning rolini metafiziklarcha tushuntirdi. Ya'ni bilishning subyekti qilib tarixiy-ijtimoiy munosabatdan tashqaridagi mavhum insonni oladi, kishilarni biologik tarzda tushunadi, lekin, ular orasidagi sinfiy munosabatni ko'rmaydi. Inson harakati faoliyatini ko'rolmadi. Feyerbax materialistik sistemani kishi fiziologiyasi va psixologiyasi asosida

ko‘rishga intildi. Ijtimoiy jaholat, tengsizlikdan kishilarni qutqarishni maqsad qilib qo‘yadi, lekin bu vazifani amalga oshirishda ijtimoiy tuzumning yo‘qotilishi zarurligini bilmadi. Aslida dunyoni turlicha izohlash mumkin, lekin gap uni o‘zgartirishdadir, degan edi boshqa bir faylasuf.U dinni jaholat va qorong‘ulik deb tushundi, lekin uni sinfiy va ijtimoiy mohiyatini tushuntira olmadi. U ijtimoiy hodisalarga materializmni tatbiq eta olmadi.

Shunday qilib, Feyerbax Gegel falsafasining asl mag‘zini uloqtirdi. Dinga qarshi chiqdi. Shunday bo‘lsada, ba’zi faylasuflar ularning ijobiy tomonlarini ko‘rsatdilar. Falsafani yanada yuqori pog‘onaga ko‘targan kishilar XIX asr oxiridagi rus faylasuflari Belinskiy, Gersen, Dobrolyubov, Chernishevskiy, Pisarev edilar. Bu faylasuflar o‘tmish faylasuflaridan shu bilan farqlanadilarki, ular ezilgan omma ideologlari sifatida maydonga chiqqanlar. Rus revolyutsion demokratlarining xizmati shundaki, ular materialistik mazmunga ega bo‘lgan inqilobiy nazariyalarni olg‘a surdilar. Ular Gegel dialektikasidan foydalanishda uni tanqid qilish bilan birga «falsafaning algebrasi» Gersen deb bildilar. Ular dinga qarshi kurashdilar.

Ularning fikricha, materiya bu obyektiv haqiqatdir, uni hech vaqt yo‘q qilib bo‘lmaydi. Masalan, Gersen shunday deydi: «Xohlaganingcha moddani abstraktlashtirishing mumkin, lekin uni hech vaqt yo‘qota olmaysan» (Filosof. izbr. proizv. T. 1. str 151, 280). Gersen falsafasi dialektikani materialistik asosladi, falsafani tabiat qonunlarigagina bog‘lab qo‘ymay, jamiyat qonuniga ham bog‘ladi. Uningcha odam faqat fikr yurituvchigina emas, balki ta’sir etish bilan o‘zini o‘rab turgan tabiatni maqsadga bo‘ysundirish kerak. Gersen dialektik uslub va amaliy faoliyatlarning birligini ham ko‘rsatdi. Insonning amaliy faoliyati tarixiy ijodiy kuchlardan iboratdir, deydi u. Amaliyot bilan nazariya birga borishi kerakligini ta’kidladi, dunyoni qayta qurishda falsafa ilmiy qurol ekanligini ko‘rsatdi, lekin bu fikrni oxiriga yetkaza olmadi. Bunga sabab Rossiyaning ijtimoiy qoloqligi edi. Falsafa tarixida Gersen dialektikani ilmiy ravishda asosladi, u metafizik qarashga qarshi chiqdi, tabiat va jamiyat hodisalarini bir-biriga bog‘liq ravishda, o‘zaro ta’sirda ekanligini ko‘rsatdi. Gersen, umumiy jamiyatda ham har bir hodisa boshqa hodisalar bilan bog‘langan bo‘lib, falsafani

vazifasi ana shu bog'liqlikni ochishdir, tabiat va jamiyat taraqqiyoti jarayoni eskining o'lishi bilan yangining paydo bo'lishidagi kurashdadir, degan edi.

Xuddi shuningdek, Gersen kabi Belinskiy, Dobrolyubov, Chernishevskiylar ham materiya birlamchi, ong ikkilamchi, tabiat va jamiyat hodisalari, o'sib, o'zgarib turadi, ular o'zaro bog'liq, deb idealistik qarashga qarshi chiqdilar. Jamiyat ikki bir-biriga qarama-qarshi sinfdan tashkil topganligi kishilik jamiyati tarixi o'zining turli bosqichlarida mana shu sinflarning o'rtasidagi kurashni o'z ichiga oladi, deb ko'rsatdilar. Jamiyat taraqqiyotini dialektik asosladilar, lekin shu bilan birga, progressiv hal qiluvchi kuch dehqon sinfidir, deydilar.

Rus revolyutsion demokratlari falsafasining o'ziga xos xususiyati birinchidan, internatsional yo'nalishga ega ekanligi, ikkinchidan, ularning falsafaning asosiy masalasini materializm asosida tushungan holda idealizm va dinga qarshi kurashganlari, uchinchidan, ular materialistik qarashlarida dialektika elementlari mavjudligi kabilarda edi.

O'rta asr va yangi davr yevropa falsafasini o'rganish hozirgi davr uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki, falsafa o'tmishda o'zining shakllanishi uchun tarixiy davrlarni boshidan o'tkazgan. Uning ba'zi muammolari hayot chig'iriqlaridan o'ta olmagan. Natijada, yangi muammolarni keltirib chiqargan va o'rtaga qo'ygan. Har bir davr o'zining yutuqlariga ega bo'lishi bilan birga kamchiliklariga ham egadir. Falsafa tarixini o'rganish hozirgi zamon kishilarining falsafiy tafakkurini rivojlanishiga asos bo'ladi. Tarixga nazar tashlab kelajak falsafasini yaratishga yordam beradi.

XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari. XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida falsafaning rivoji.

Hozirgi dunyoda fanlar taraqqiyoti avjiga chiqqan bir davr bo'lib, ular falsafa faniga ham o'z hissasini qo'shib kelayotir. Shu munosabat bilan jahon falsafasida yangi-yangi yo'nalishlar (germenevtika, mantiqiy pozitivizm, tanqidiy ratsionalizm, fenomenologiya, ekzistensializm, ssiyentizm, universalizm, psixoanalizm,

pragmatizm, freydizm) paydo bo'ldiki, ular o'z faoliyatini ko'proq inson va jamiyat taraqqiyotiga qaratdilar.

Bu yo'nalishlar zamon talablaridan kelib chiqib inson va jamiyatni falsafiy tahlil qilishga kirishdilar. Jumladan, germenevtika tarafdorlarining tushuntirishicha, tabiatshunoslik fanlari tabiat hodisalarini tushuntirishga intiladi. Gumanitar fanlar esa, inson haqidagi sohalarni izlashga harakat qiladi. Tabiiy va gumanitar fanlar sifat jihatidan turli obyektlarni o'rganadilar. Turli usullarga ega. Insonlar til bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sir va shu ta'sirni ta'minlaydigan soha ya'ni germenevtikani fanlarning fani, deb ifodalaydilar. Ularning fikricha, faqat germenevtika ijtimoiy antropologiyani mukammal tasvirlaydi.

Dekonstruktiv yo'nalishning fikricha, tahliliy falsafani rivojlantirish lozim. Chunki, barcha predmet va hodisalar mukammal tahlilga muhtoj. Lekin falsafa hukm chiqarishga qodir emas, degan e'tiqodda turib, ko'proq «taklif qilish», «ishora qilish» va fikr bildirishning boshqa muqobiliaridan foydalanish lozim deyiladi, u ta'limotda.

Ekzistensialistik (mavjudlik) falsafiy oqim falsafasining asosiy xususiyati har bir individning o'z hayoti chegarasini anglab berishga qaratilishi kerak. Har bir shaxs o'z o'limiga muqarrar ekanligini tan olishi, o'zining hayotiga turtki bo'ladi. Bu holatni tushunish uchun falsafiy tafakkurga ega bo'lishi kerak. Jumladan, ekzistensialist Sartr fikricha, inson mavjudligi uchun o'z mohiyatidan avval paydo bo'lgan. Inson mavjud ekan, u ozoddir, erkindir. Ozodlik va erkinlikni inson tanlashi zarur.

Fenomenologiya (mazmuni: fenomenlar yoki hodisalarnazariyasi) hodisa va voqealarni qanday bo'lsa, shundayligicha ta'riflaydi. Fenomenologiya oqimi faqat tabiiy fanlar taraqqiyotini, undagi dalillarni e'tirof etadi. Falsafiy fikrlarni ikkilamchi deb tushuntiradi. Freydizm esa insonlarni seksuallik faoliyatiga e'tiborni qaratadi va barcha insonlarni rivoji hamda harakati shu jarayondan boshlanishini tushuntiradi.

Ko'rib turibmizki, hozirgi davrda falsafiy yo'nalish va oqimlar talaygina. Shu sababli ham falsafiy dunyoqarashni shakllantirish o'ta mushkul. Lekin, yoshlarning bilim-saviyasi qanchalik o'tkir bo'lsa bu yo'nalish va oqimlarning mohiyatini tezda tushunib yetadilar.

Shunday ekan, yo'nalishlar faoliyati bilan qiziqish davr talabi. Ularni o'rganish natijasida yoshlar kamoloti yanada yuksaklikka ko'tariladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Antik dunyo, Milet maktabi, sofist, atomist, ellinizm, stoiklar, xristianlik, patristika, apologetika, sxolastika, nominalizm, realizm, nemis klassik falsafasi, Kant, Gegel, Vol'ter, freydizm, pragmatizm, siyentizm, ekzistensializm

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Sokrat va uning falsafiy maktablari.
2. Aflotunning g'oyalar to'g'risidagi ta'limoti.
3. Aristotel' falsafasi.
4. Yangi davr falsafasi (F.Bekon.R.Dekart).
5. XX asr falsafasi.

Mavzuga oid testlar:

1. Atomistik ta'limotning asoschisi kim?
a) Demokrit;
b) Pifagor;
v) Sokrat;
g) Aristotel';

2. Milet materialistik maktabining asoschisi kim?
a) Fales;
b) Pifagor;
v) Pratagor;
g) Konfutsiy;

3. Nemis mumtoz falsafasi vakillari kim?
a) Kant, Gegel, Feyerbax;
b) F.Bekon, R.Dekart;
v) T.Gobbs, G.Leybnits;
g) O.Kont, G.Spenser;

4. Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?

a) sxolastika va din;

b) sxolastika va tabiat;

v) tabiat va din;

g) falsafada ajralishlar bo'lmadi;

4-MAVZU. BORLIQ–FALSAFA KATEGORIYASI

Borliq tushunchasining tahlili

Borliq falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o‘rganiladi, mavjudlik sifatiga ega bo‘lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. Dastlab Aristotel’ tomonidan asos solingan ontologiya tushunchasi 1736-yilda Kristian Vul’f tomonidan olam haqidagi falsafiy bilimning ifodasi sifatida ilmiy muamalaga kiritilgan. Rudol’f Goklenius narsalarning mavhumligini ifodalash uchun “ontologiya” tushunchasidan foydalangan. U uch xil - fizik, matematik va transnatural mavhumlikni farqlagan. Transnatural mavhumlik Xudo obrazida o‘z ifodasini topgan.

“On” - yunoncha hozirgi zamoni bo‘lib “bo‘lmoq” va “logos” so‘zidan nimanidir haqida gapirmoq degan ma’nolarni anglatadi. Shu bois, ontologik nutqning asosi mazmunini mohiyat tashkil etadi. Shunga ko‘ra falsafa yoki fan narsalarning mavjudligini o‘rganadi. Maxsus fanlar faqatgina mavjud narsalarni o‘rganadi. Masalan, fizika fani barcha narsalarning fizik xossasini o‘rganadi. Biologiya esa, tirik mavjudotlarning tirikligini o‘rganadi. Ontologiya olamdagi narsalarning barcha jihatlarini o‘rganadi. “Mavjudlik” ontologiyaning asosiy xossasi va u bor bo‘lmoq fe’lidan tashkil topadi. Shu bois, umum qabul qilingan falsafa tilida u ontologiya deb ham ishlatlladi.

Hozirgi davrda «Ontologiya» atamasi (yunoncha ontos – borliq, logos – so‘z, ta’limot), borliq haqidagi ta’limot degan ma’nada foydalaniladi. Ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o‘z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko‘p jihatdan belgilaydi.

Borliq haqidagi fan – ontologiya qadim zamonlardayoq falsafaning muhim qismi hisoblangan. Borliq kategoriyasi dunyoda hamma narsaga xos bo‘lgan xususiyatning o‘ta umumiy tavsifi sifatida vujudga kelgan. Falsafada ontologiya umumiy jihatlarni obyektlarning fizik xossalarida ham, nofizik (kimyoviy, biologik, ijtimoiy) xossalarida ham izlaydi. Shunga qaramay har qanday

ontologiya qanoatlantirishi lozim bo‘lgan bir mezon mavjud: insoniyat ijtimoiy-tarixiy amaliyoti rivojlanishining mazkur bosqichida u mavjud bilimlar bilan ziddiyatga kirishmasligi kerak. Turli ontologik konsepsiyalar bu mezonni turli darajada qanoatlantiradi. Sun’iy o‘ylab topilgan, fanga tayanmaydigan ontologik konsepsiyalar tajriba bilan to‘qnashuvni chetlab o‘ta olmaydi. Mazkur mezonga materialistik ontologiya ko‘proq mos keladi, zero uning zamirida jamiyat to‘plagan tajribani umumlashtirish yotadi.

Falsafiy nuqtai nazardan ontologik konsepsiya mavhum tushunchalarni va borliqning umumiy tamoyillarini spekulyativ tarzda tuzish yo‘li bilan yaratilmasligi kerak. Bu yo‘l tafakkurning voqellkdan uzoqlashishiga olib boradi. Tamoyillar va tushunchalar tabiatga muqarrar va shak-shubhasiz haqiqatlar sifatida bog‘lanmasligi kerak. Aksincha, ular tabiatni o‘rganishdan, fan to‘plagan borliqni bilish tajribasini umumlashtirishdan keltirib chiqarilishi lozim.

Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o‘rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida gapirib berishni, falsafa «borllqning nimaligi, u qayerdan paydo bo‘lgani va qayerga yo‘qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan shug‘ullanadi. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma’no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. «Borliq» falsafiy kategoriyasi dunyoning ayniqsa keng tarqalgan tillarida ayni bir ma’no – «bo‘lish», «mavjud bo‘lish», «hozirlik», «hozir bo‘lish», «mavjudlik» ma’nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o‘tilgan va ma’no jihatidan unga yaqin fe’llar negizini tashkil etadigan «bo‘lmoq» fe’li, o‘zining bevosita ma’nosidan tashqari, yordamchi fe’l sifatida ham faol ishlatiladi. Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud

emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlalaridayoq tom ma'noda universal fe'l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o'zbek tilida - «bo'lmoq», «bor», ingliz tilida – is, nemis tilida – ist va h.k.

Shunday qilib, «borliq» va «yo'qlik» kategoriyalarining o'ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy ma'nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular «bo'lmoq» fe'lidan (yoki uning inkoridan) hosil bo'lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o'zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, stol bor, yomg'ir yo'q, oqlik bor, aks yo'q, miya bor, g'oyalar yo'q va h.k.

Borliq va yo'qlik dialektikasi

Falsafa tarixida birinchi bo'lib Parmenid «Borliq bor, yo'qlik esa – yo'q»,degan fikrni ilgari surgan. Binobarin, yaxshi, yomon, to'g'ri, noto'g'ri, quvnoq, sho'r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o'xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo'lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

«Yo'qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik» atamasi ayni shu ma'noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi. Lekin sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyaning alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero unda mumkin bo'lgan

barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo‘q[1].

Ikkinchidan, amalda mavjud bo‘lgan narsaning obyektiv borlig‘i yo‘qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya’ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo‘lsa, bu narsa ongda mavjud bo‘ladi va o‘zining «ikkinchi» borlig‘ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki obyektning nusxasi, ideal obrazi bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, o‘tgan zamondagi borliq yo‘qlikdir. Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo‘ladi, u faqat hozirgi zamonda o‘zini namoyon etadi, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lsa, agar u potensial, ya’ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo‘lishi obyektiv rivojlanish mantig‘i bilan belgilangan bo‘lsa. Amalda yo‘q bo‘lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O‘tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma’noda so‘z yuritishimiz mumkin.

Inson o‘zi va umuman dunyo haqida o‘ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko‘radi. Ayni vaqtda u o‘zini qurshagan dunyoni sinchiklab o‘rganish va uning butun rang-barangligini tushunib yetish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o‘rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko‘ramiz.

Falsafa tarixida borliq muammosi

Borliq muammosini falsafiy anglab yetishga ilk urinishlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan qadimgi Markaziy Osiyo, hind va qadimgi xitoy falsafalaridayoq kuzatiladi. Xususan, Markaziy Osiyoning eng qadimiy kitobi “Avesto”da, borliq

[1]Qarang: Малюкова О.В. Материя, пространство и время с точки зрения физики XX века // Онтология, гносеология, логика и аналитическая философия. – СПб., 1997. – С.93.

harakatdagi dunyo, butun jonli va jonsiz narsalarning uyg'unligidagi mavjudlik deb ifodalanadi.

Vedalar (qadimgi hind tafakkurining ilk yodgorliklari) va (ularga diniy-falsafiy sharhlar) –Upanishadalarda yaxlit ma'naviy substansiya, o'lmas jon haqidagi g'oyalar, shuningdek dunyo haqidagi tasavvurlar o'z aksini topgan. So'nggi zikr etilgan tasavvurlarga muvofiq butun borliqning negizini tabiiy asoslar – olov, havo, suv, yorug'lik, makon, vaqt tashkil etadi. Qadimgi Hindiston mutafakkirlari borliq sirining tagiga yetishga harakat qilar ekanlar, quyosh tunda qayerga ketadi, yulduzlar kunduzi qayoqqa yo'qoladi kabi savollarga javob topishga uringanlar va bu tasavvurlarni eng qadimgi kitob – Rigvedalarda aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy falsafasi avvalo ijtimoiy muammolarga qarab mo'ljal olgan, unda inson borlig'iga, shuningdek ijtimoiy borliqqa ko'proq e'tibor berilgan. Ayni vqtda, tabiatning birinchi asoslari ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu qiziqish, xususan, narsalar va hodisalarning butun rang-barangligini belgilovchi besh stixiya (suv, yer, daraxt, temir, olov) haqidagi ta'limotda o'z aksini topgan. Keyinroq "O'zgarishlar kitobi"da borliqning butun rang-barangligini tashkil etuvchi bunday birinchi asoslarning sakkiztasi qayd etiladi.

Xudolarning kelib chiqishi, ularning hayoti, ishlari, o'zaro kurashi haqida hikoya qiladigan va shu tariqa qadimgi odamlarning dunyoning vujudga kelishi va evolyutsiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan kosmogonik miflar Suqrotga qadar avvalo, tabiat falsafasi sifatida yuzaga kelgan va rivojlangan yunon falsafasining birinchi manbai bo'lib xizmat qildi. Ilk yunon faylasuflari o'z asarlarini odatda "Tabiat haqida" deb nomlaganlari, ularning o'zlari esa naturalistlar, "fiziklar" deb atalishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Qadimgi yunon falsafasi vujudga kelgan paytdan boshlab ular butun borliqning birinchi sababini mavjud voqelikning o'zidan izlaganlar, uni dam suv (Fales) yoki havo (Anaksimen) deb, dam hamma narsani boshqaradigan boqiy va cheksiz asos – «apeyron» (Anaksimandr taxminan mil. av. 611-545-yillar) deb tavsiflaganlar. Anaksimandr hatto jonli mavjudotlarning tabiiy kelib chiqishi g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, mazkur mavjudotlar dengiz suvida vujudga kelgan va suv o'tlaridan paydo bo'lgan. So'ngra baliqsimon mavjudotlar quruqlikka chiqqan va ulardan odamlar

rivojlangan. Shunga o'xshash fikrlarni Ksenofan (mil. av. 580-490-yillar) ham ilgari suradi. U hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo'lganmiz», deb hisoblaydi.

O'sha davrning bosh falsafiy masalasi – «hamma narsa nima?» degan savolga javob berar ekan, Pifagor (mil. av. 580-500-yillar) «hamma narsa sondir», degan xulosaga keladi. U yerning sharsimonligi haqidagi g'oyani birinchi bo'lib ilgari suradi.

Parmenid (mil. av. 540-480-yillar) faylasuflar orasida birinchi bo'lib borliqni kategoriya sifatida tavsiflagan va uni maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirgan. U haqiqiy borliq mohiyatining o'zgarmasligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Parmenid fikricha, borliq paydo bo'lmagan va u yo'q ham bo'lmaydi, chunki undan boshqa hech narsa yo'q va bo'lishi mumkin ham emas. Borliq yagona (uzluksiz), harakatsiz va barkamoldir. U o'z chegaralariga ega bo'lib, «ulkan mutlaqo yumaloq Sharga» o'xshaydi.

Eleatlar maktabi vakili bo'lgan (samoslik) Melis «Tabiat yoki borliq haqida» deb nomlangan asarida borliq chegarasiz deb qayd etadi. Uning fikricha, agar borliqning chegarasi bo'lsa, bu borliq yo'qlik bilan chegaradoshdir. Biroq, hamonki yo'qlik mavjud emas ekan, borliq ham chegarali bo'lishi mumkin emas.

Shunday qillb, qadimgi yunon falsafasining Suqrotga qadar bo'lgan davrida ontologiya sezilarli darajada rivojlangan: o'sha davr atoqll faylasuflarining deyarli barchasi borliq muammosini bevosita yoki bilvosita o'rganib, uni, boqiy va barkamol kosmos, «yagona tabiat», ya'ni moddiy-hissiy dunyo bllan tenglashtiradi. Masalan, Empedokl (mil. av. 484-421-yillar) «borliq» atamasini bevosita ishlatmagan bo'lsa ham, «barcha narsalarning to'rt negizi» (olov, havo, suv va yer) haqida so'z yuritar ekan, dunyo (kosmos) tuxumsimon ko'rinishga ega deb hisoblagan, hayot nam va issiq suv o'tlaridan kelib chiqqani haqida mulohaza yuritgan. Demokrit va Levkipp atomlarni muayyan modda sifatida tavsiflab, ularni «bo'shliq» - yo'qlikka zid o'laroq, «to'la» yoki «qattiq» borliq bilan tenglashtirgan.

Shu davrda borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondashuv ilk bor namoyon bo'ladi. Geraklit (mil. av. 544-483-yillar) butun dunyo muttasil harakat va o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi deb

hisoblagan va shu munosabat bilan «ayni bir narsa mavjud va nomavjuddir» deb qayd etgan..

Aristotel (miloddan avvalgi 322-384-yillar). «Borllq nima?» degan savol qo'ygan, tafakkur va borliqning bir xilligi g'oyasini ilgari surgan. Aristotelning fikricha, «borliq kategorial so'zlash shakllari orqali ifodalanuvchi barcha narsalarga o'z-o'zidan bog'lanadi. Zero, bunday so'zlash usullari qancha bo'lsa, borliq ham shuncha ma'noda ifodalanadi. Ayrim iboralar narsaning mohiyatini, ayrimlari - sifatini, ayrimlari - miqdorini, ayrimlari – nisbatini, ayrimlari – harakati yoki o'zgarishini, ayrimlari – «qayerda»ligini, ayrimlari – «qachon»ligini anglatgani sababli, borliq ularning har biriga mos ma'nolarga ega bo'ladi»[1].

Aristotel ontologiyasi asosida uchta ta'limot yotadi:

a) borliqning kategorial tahlili (kategoriyalar haqidagi ta'limot);

b) borliqning kauzal tahlili (borliqning sabablari haqidagi ta'limot);

v) borliqning imkoniyat va voqelik munosabati orqali tahlili. (imkoniy borliqdan voqelikka o'tish jarayonining tahlili). Demak, Aristotel ontologiyasini tushunish uchun ana shu uch ta'limot yoki tahlil mazmuniga tayanish kerak.

Borliq tushunchasini Platon (mil. av. 427-347-yillar) sezilarli darajada kengaytirdi. U nafaqat moddiy, balki ideal narsalar ham borliqqa ega ekanligini falsafa tarixida birinchi bo'lib ko'rsatib berdi. Platon «haqiqiy borliq» bo'lishi «obyektiv mavjud g'oyalar dunyosi»ni «hissiy borliq»qa qarama-qarshi qo'ydi. Bunda u inson ongida mustaqil mavjud bo'lgan tushunchalar borlig'ini ham ko'rsatib o'tdi va shu tariqa ilk bor «borliq» tushunchasiga amalda mavjud bo'lgan barcha narsalarni kiritdi.

Borliq muammosiga oid Demokrit va Platon yondashuvi. Birinchi Demokrit yondashuvi borliqni turli tarzda namoyon bo'lishi va ongda aks etishi (diskret situativ-empirik) ko'rinishida tushunishni nazarda tutadi hamda naturalizm sifatida namoyon bo'ladi. Bu holda borliq muayyan empirik harakatlarga bog'liq bo'ladi va insonning har

[1] Аристотел //Всемирная энциклопедия.-Москва : Современный литератор, 2001. –С.24.

bir kuni nimadan tashkil topsa, shuning o'zidangina tashkil topadi. Ikkinchi Platon yondashuvi borliqning mohiyati xususida alohida mushohada yuritishga yo'naltiradi, bunda borliq g'oyaga, erishib bo'lmaydigan orzuga, amalga oshmaydigan, noreal jarayonga aylanadi. Borliqning mazkur sxolastik talqini shiorlar, dasturlar, chorlovlar va deklaratsiyalarda hozirgacha mavjud. Real hayot jarayonida bu ikki qarama-qarshi yondashuv yakka, xususiy va umumiyning o'zaro aloqadorligi bilan barham topadi. Zero, o'zining yakkaligida o'z umumiyligini ifoda etmaydigan, o'zining mavjudlik holati bilan o'zgarish va yo'q bo'lishni nazarda tutmaydigan bironta ham narsa va hodisa yo'q. Voqealar borliqning mohiyatini namoyon etadi, haqiqiy hayot faoliyatining parchasi tarzida yangi sifat kasb etadi. Ushbu jarayondagi shakllanish, o'zgarish, rivojlanish hayot jarayonining tarkibiy qismlaridir. Keyinchalik falsafa tarixida borliqning ko'p sonli har xil talqinlari shakllandi, lekin ularning barchasi borliq haqidagi hissiy va oqilona tasavvurlar atrofiga u yoki bu tarzda tiziladi. Bunda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligi namoyon bo'ladi.

O'rta asrlar G'arb va Sharq falsafasi

O'rta asrlar G'arb va Sharq falsafasida "Haqiqiy borliq" – "Xudoning borlig'i" va "haqiqiy bo'lmagan", Xudo yaratgan borliq farqlanadi. O'rta asrlarda borliqning oliy asosi Xudodir. Barcha barkamolliklar yig'indisi sifatida Xudo mavjudlik xususiyatiga ham egadir, chunki mavjud bo'lmagan mavjudot nomukammaldir. Binobarin, hamma narsaning mavjudligi Xudoda mujassamdir. Xudo borligi to'g'risidagi ontologik dalilning shiorlaridan biri ana shundan iboratdir. Unga ko'ra, butun dunyoni bir joyga bo'ysunish, quyi va oliyning subordinatsiyasiga asoslangan iyerarxik tuzilmalar qamrab olgan. Bunda inson ruhi va ilohiy asosning o'zaro ta'siri masalasi bosh muammoga aylanadi.

Foma Akvinskiy ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq – ayrim narsalarning mavjudligi, ya'ni substansiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl

kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g'oyalaridan foydalanib, din haqidagi ta'limotni ularga to'la bo'ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo'lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog'liqdir. Xudo esa sof ma'naviy mavjudot. Shaklning materiya bilan birikuvi moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) passivdir. Unga shakl faol tus beradi. Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o'z-o'zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo'lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi zamon katolik cherkovi ham foydalanuvchi o'z dalil-isbotini taklif qiladi. Demak, o'rta asrlarning borliq muammosi teotsentrik xususiyatga ega.

Sharqning buyuk mutafakkiri Forobiy "Fuqarolik siyosati" va "Fozil shahar odamlari" asarida borliq va uning ibtidosi masalasi haqida fikr yuritadi. Forobiy borliq muammosini hal qilishda "vujudi vojib" va "vujudi mumkin"ning o'zaro nisbatiga murojaat qiladi. Uning fikricha, "vujudi vojib" barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning birinchi sababi. Birinchi sabab sifatida u o'zga turtkiga muhtoj emas. U mutloq borliq va donishmandlik ifodasi. "Vujudi mumkin" esa doimo o'zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda bo'lib, unda barcha narsalar oddiydan murakkabga, tartibsizlikdan tartiblilikka qarab harakat qiladi. "vujudi vojib" yaratgan eng buyuk voqelikdan biri inson aqlidir. U "Fuqarolik siyosati" asarida borliqni olti darajaga bo'ladi:

1. Birinchi holatdagi sabab.
2. Ikkinchi holatdagi sabab.
3. Uchinchi holatdagi aqli faol.
4. To'rtinchi holatdagi instinkt.
5. Beshinchi holatdagi shakl.
6. Oltinchi holatdagi materiya. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta'limotidan foydalangan. Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo'lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli

faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o'simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o'rganadi. Shu tariqa u tashqi dunyoning obyektiv mavjudligiga urg`u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari Sharq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ibn Sino fikricha ham borliqning asosi "vujudi vojib" ya'ni Allohdir. Vujudi vojib bu birinchi mohiyat. Uning mavjudligi sababini boshqa narsalardan qidirish noo'rin. Chunki birinchi sabab uning natijasi bo'lgan xilma xil jarayonlarning mohiyatiga bog'liq bo'la olmaydi[1]. Zero vujudi vojibning mavjudligi uning o'ziga bog'liq. U yagona, abadiy mohiyat. Unda kamchilik va qusurlar bo'lishi mumkin emas. Vujudi vojib doimiy faol, unda toliqish sustlik bo'lishi mumkin emas.Vujudi vojibning mavjudligi ukning o'ziga bog'liq. Vujudi vojib vujudi mumkinning yaratuvchisi. Vujudi mumkinning ichki mohiyati harakat bilan bog'liq. Vujudi vojib va vujudi mumkin bir biridan karami va sahovati bilan farq qiladi. Ibn Sino vujudi mumkin, ya'ni yaratilgan jism va harakat doimo bir biri bilan bog'liq deb hisoblaydi. Harakat – harakatlantiruvchi, harakatlanuvchi, masofa,ibtido, chegara va nihoya, vaqt kabi omillar bilan bog'liq. Harakat va vaqt funksional munosabatda amal qiladi.

Ibn Sino harakatning uchta turini asoslaydi: Aksidental harakat – bunday harakatda jism boshqa jism tarkibida bo'lib, o'sha obyektlar harakati bilan birga harakat qiladi, bir joydan boshqa joyga ko'chadi, lekin jism o'z tarkibidagi jismlarga nisbatan o'z maqomini o'zgartirmaydi.

Majburiy harakat –bunday harakatning sababi uning o'zida emas, balki undan tashqaridadir. Masalan, mashina odam tashiydi.

Tabiiy harakat-bujismning o'z-o'zidan harakatidir. Tabiiy harakat to'g'ri chiziq bo'yicha harakat va aylanma harakat shaklida namoyon bo'ladi (chaqmoq, momaqaldiroq, zilzila).

Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlari keyingi mutafakkirlar ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tasavvuf ta'limotida borliq muammosi. Tasavvufda oriflar va oshiqlar o'zlarining poetik asarlarida va mifologik g'oyalarida borliq

[1] Ибн Сино Трактат о разделении // Классификации существующих вещей//Материалы по истории прогрессивной философии. -Москва., 2003. –С. 56

haqidagi bilimlarini bayon etganlar. Poetik ontologiyada birinchidan, ramz, majozlar, qiyos va h.k. ko'p. Ikkinchidan, ushbu ontologiya inson tafakkuriga emas, ko'proq tuyg'ularga yo'nalgan. Ayniqsa, musiqa jo'rligi, tasviriy san'at asarlarida namoyon bo'lgan, «Aruz» vaznida bitilgan maqomlarda kuylangan.

Uchinchidan, poeziya qalb faolligining mahsuli hisoblanadi va u asosan, tuyg'ularga ta'sir etadi. Buni anglashning mantiqiy tafakkurdan yuqori shakli, deyish mumkin. Shu ma'noda poeziyani tushunish uchun ongning mantiqiy (nazariy) tafakkurdan yuqoriroq shakli – intellektual intuitsiya taqozo etiladi. Chiziqli (mantiqiy) tafakkurning yolg'iz o'zida esa, na intellektual va na estetik (hissiy) intuitsiya ishtirok etmaydi. Shu ma'noda A.Navoiy aytganidek, majozlar haqiqatga ancha yaqinroq.

To'rtinchidan, ramzlar, majozlar hammaga ham aytilishi mumkin bo'lmagan ba'zi g'oyalarni (sirlarni) muayyan odamlargagina yetkazish vazifasini bajargan .

A.Navoiyning badiiy mistik ontologiyasi «Lison ut – tayr» asarida yorqin ifoda etilgan. Unga butun olamdagi barcha mavjudot bir xil, dastlabki ulug' (moya) yoki javhar – ilohiy substansiyaning zaruratidir. Xudo bu mavjudotlardan tashqarida emas, balki ularning o'zida mavjuddir Koinot (kosmos, olam) uning mir'ati (oynasi, ko'zgusi) va undagi barcha mavjudot Xudoning zuhurati botinlik ichki, noayyonlik holatidan ayonlik, tashqi, ko'rinadigan (seziladigan) holatga o'tishidir. Asar muqaddimasidayoq Navoiy Xudoning xillaridan biri bo'lgan insonni ilohiyligini va uni olam yaratilishining bosh maqsadi ekani g'oyasini bayon etadi.

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviylar" asaridagi tasavvuf poetik ontologiyasidan mashhur nemis faylasufi Gegel ta'sirlanib, o'zining dialektik ta'limotini ishlab chiqqan. Rumiy «Vahdati Vujud» tushunchasi orqali Vahdati vujud konsepsiyasi namoyondalari kabi «birdan – bir mavjud narsa Ollohdir, qolgan hamma narsalar uning nuri, shu'lasi va «bu dunyo» ham haqiqat lekin u yashirin dunyoning namoyonlik shaklidir deb hisoblaydi. Shuning uchun inson bu dunyoga emas, balki yagona Ollohga muhabbat bilan intilishi kerak, deb hisoblaydi. Bu uning panteizmi (yunon pan – hamma narsa va theos – Xudo) –ya'ni hamma narsa Xudo ekani haqidagi ta'limotidir.

Aziziddin Nasafiyning ontologik qarashlari. Nasafiy borliqni «Zubdat ul – Haqoyiq» «Haqiqatlar qaymog'i» asarida Olami Kubro (katta, ulug' Olam, yunon falsafasidagi Makrokosm) va Olami sug'ro (Kichik Olam, inson borlig'i, yunon falsafasidagi Mikrokosm) ga ajratadi hamda ular orasidagi uzviylikni ko'rsatadi. Asarning birinchi bobi Olami Kubro, (makrokosm, kosmos) uning kelib chiqishi, strukturasi va boshqa ontologik muammolarni yoritishga bag'ishlangan.

Nasafiy fikricha, bizni qurshagan Olam (kosmos) zang (javhar, substansiya) va sifatlarning ismlaridan iboratdir (substansiya va aksidensiya). Olam Olami g'ayb (yashirin olam), va Olami shuhud (shohidlik, ya'ni ko'rinuvchi olam)dan tashkil topgan. Har ikki olam miqdoriy va umumiy (yaxlit) ma'nolarda turli nomlarda tilga olinadi. Masalan, holiqiyat (yaralmishlar) olami va amr (yaratuvchi) olami, mulk (moddiyat) olami va malakut (farishtalar) olami, jism olami va ruh (jon) olami, his -tuyg'ular olami va shuur (fikrlar, tafakkur) olami (mintalitet), nur va soya (zulmat) olami va h.k. Bu nomlar shu ikki olam – yashirin (ko'rinmas, g'ayb) olami bilan ko'rinuvchi (seziluvchi, shuhud) olamning turlicha nomlaridir.

Yangi davrda borliqning mohiyati Xudoning ishlariga emas, balki tabiat qonunlariga bog'lanadi. Tabiat borliqning butun yashirin ma'nosini qamrab oladi, shu sababli u bilan muloqot qilish, uning tabiiylik darajasini sinab ko'rish muhimdir. Tabiatni o'rganuvchi fanlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda tashabbuskorlik, faollik va omilkorlikning rivojlanishi individualizmga asoslangan antropotsentristik dunyoqarashni shakllantiradi.

XVII-XVIII asrlarning faylasuflari Gol'bax, Gel'vetsiy, Lametri borliq tushunchasini fizik borliq bilan bog'laydi. Bu faylasuflarning naturalistik qarashlari mexanikaning faol rivojlanishi bilan belgilangan va ularning tabiat haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarini aks ettirgan. Bundan borliqni «naturallashtirish» g'oyasi kelib chiqqan.

Nemis klassik falsafasi «substansiya» (dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat), «mutlaq «Men»ning erkin, sof faoliyati» (Fixte), «obyektiv rivojlanuvchi g'oya» (Gegel) kabi falsafiy kategoriyalarni qayd etib, borliq muammolari talqiniga yanada teranroq mazmun baxsh etdi.

Jumladan Gegelning «Ruh fenomenologiyasi» asari falsafiy tizimga o'ziga xos debochadir. Bu asarda Gegel inson ongi turli darajalari rivojlanishining izchil qatorini tahlil qiladi.

XX asrda borliqqa munosabat. XX asr borliqni tushunishni tarixiylik, insonning mavjudligi, qadriyatlar va til bilan bog'lab, uning talqinini kengaytirdi. Ontologiya falsafaning emas, balki ayrim fanlarning predmeti deb hisoblanib, falsafadagi borliq muammosini soxta muammo sifatida talqin qildi.

Borliq mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Bunda borliq hayot faoliyati jarayoni sifatida tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari tobora jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda mazkur dunyoqarash ko'pincha texnokratik dunyoqarash deb ataladi.

Noklassik borliq. Noklassik falsafa dunyoning aqlga muvofiqligi, shuningdek inson ongining mustaqilligiga shubha bildirdi. Pozitivistlar umuman ontologiyani yaratishdan bosh tortdilar. Irratsionalizm, marksizm va ekzistensializmda ontologik konsepsiyalar hayot, jamiyat va inson tushunchalari rivojlantirildi, ular borliqning noyob usullari sifatida tavsiflandi. Quyida noklassik falsafada borliqqa munosabatni tahlil qilamiz.

Borliqning irratsionalistik konsepsiyasi.Falsafiy irratsionalizm asoschisi A.Shopengauer olamning aqlga muvofiqligi haqidagi tezisga shubha ko'zi bilan qaraydi. Uning fikricha, borliqning o'zi emas, balki bizning u haqdagi tasavvurimiz aqlga muvofiqdir, zero tasavvur – bu inson aqlining mahsulidir. Ammo tasavvur – bu hodisa, mohiyat darajasida esa dunyoni aqliy idrok etish mumkin emas. Shopengauer o'zining «Dunyo intilish va tasavvur sifatida» deb nomlangan asarida dunyoning borlig'ini ikki tarkibiy qismga – «yashashga intilish sifatidagi dunyo» va «inson tasavvuri sifatidagi dunyo»ga ajratadi. Uning fikricha, yashashga intilish haqiqiy borliqdir. Yashashga intilish ko'r-ko'rona va nooqilonadir, zero uning asosiy niyati – o'z-o'zini asrashdir. O'z-o'zini asrash instinkti – butun tiriklikning tabiiy xossasidir. Ammo Shopengauer romantiklarga ergashib, yashashga intilish dunyoning barcha narsalariga va umuman dunyoning o'ziga xosdir, deb hisoblaydi. Dunyo haqidagi bunday mifopoetik tasavvur hayotda yana ta'riflar va

tushunchalar tilida ifodalab bo'lmaydigan o'ziga xos tabiiy stixiyani ko'rish imkoniyatini beradi.

Fridrix Nitsshe (1844-1900) borliqning ikki asosi: dionisiycha hayotiy asos va apolloncha bir yoqlama-intellektual asosni ajratgan va haqiqiy madaniyat bu asoslarni muvozanatga solishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan. yevropa madaniyati mazkur idealni ro'yobga chiqara olmadi va inson borliq deganda stixiyali shakllanishni emas, balki tartibga solinganlikni tushunib, o'z mavjudligining asosiy negizlaridan uzoqlasha boshladi. Vaholanki, hayot abadiy harakat va shakllanishdan iboratdir.

Borliqning tarixiy konsepsiyasi. XIX asrda ijtimoiy borliq haqidagi ta'limot shakllandi. Unga ko'ra, ijtimoiy borliq individning borlig'iga nisbatan ham, ijtimoiy ongga nisbatan ham birlamchidir. Shunday qilib, bu davrda jamiyatga fizik borliqqa o'xshash borliq sifatida qaralgan. Ayni shu sababli jamiyat ham tabiat qonunlariga o'xshash aniq va shubhasiz qonunlarga bo'ysunishiga bu davr mutafakkirlarining ishonchi komil bo'lgan. Ijtimoiy borliq – bu moddiy borliq. U individlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy borliq qonunlari uning tarixiy rivojlanish jarayonida namoyon bo'ladi. Jamiyat tarixi bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar: ibtidoiy jamoa, quldorlik, kapitalizm va kommunizmning tadrijiy va qonuniy ketma-ketligi sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, har bir tuzum ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'z ichiga olgan tegishli ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi.

Borliqning ekzistensial-germenevtik konsepsiyasi.

Ekzistensialistlar mushohada yuritish orqali anglab yetish mumkin bo'lgan mohiyat (essensiya)ni amalda mavjudlik (ekzistensiya)ga qarshi qo'yadilar. Ular borliqning mazmuni to'g'risidagi masalaga qaytish lozimligini e'tirof etadilar. Lo'nda qilib aytganda, borliqning oqilona tavsifi uning asl mazmunini yoritib berishga qodir emas. Bunday mazmun hayot tajribasida, ya'ni «shu yerda-borliq» yoki mavjudlik orqali namoyon bo'ladi. Germenevtika borliq sxemasi yoki formulasini aniqlashga emas, balki uning mazmunini bilishga qaratilgan. Falsafiy muammo sifatidagi

borliqning mazmuni insonni o‘z mavjudligining pirovardliligi va tasodifiyligini anglash natijasida yuz bergan shokdan xalos etishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, bu yerda aristotelcha analitikaga Xaydeggercha germenevtika qarshi qo‘yiladi.

Borliq va mavjudlik konsepsiyasi. M.Xaydeggerloyihasining tayanch nuqtasi hisoblanadi (1889-1976. Bu loyihani ishlab chiqish bilan u asosan «Borliq va vaqt», «Fenomenologiyaning asosiy muammolari» asarlarida shug‘ullanadi). M.Xaydegger fikricha borliq, mavjudlikning borlig‘i, lekin borliq mavjudlikdan kelib chiqadigan yo‘qlik emas, ya’ni u mavjudlik hisoblanmaydi. Bu yerda Xaydegger I.Kantning borliq predikat emas, degan fikriga qaytadi. Ammo bu holda borliq nima? Keng tarqalgan tasavvurga ko‘ra, mavjud narsalarning barchasi ayni bir borliq usuli – mavjudlik bilan tavsiflanadi. Shunga muvoflq tabiat va ruh (g‘oya va narsa, rescogitans va resextensia) farqlanadi. Ammo bu farqlash borliqning usullari o‘rtasidagi farqni ifodalashga qodir emas. U faqat mavjud narsaning mohiyatini belgilovchi unsurlar o‘rtasidagi farqni aks ettiradi.

Borliq shakllari: Borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o‘rin oladigan o‘ziga xos piramida hosil bo‘ladi. Borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq, inson borlig‘i va virtual borliq,energik borliq kabilardir. Borliqning bu umumiy shakllari o‘ziga xos xususiyatga, o‘zining betakror mohiyatiga egadir. Borliqning turli shakllarini jonsiz tabiatdan boshlab mufassalroq ko‘rib chiqamiz, zero u hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan jonli va ijtimoiy tabiatning negizi hisoblanadi.

Tabiat borlig‘i birlamchi (ya’ni inson va uning faoliyatidan qat’i nazar mavjud bo‘lgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig‘i) tabiat borlig‘iga bo‘linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig‘i – butun tabiiy va sun’iy dunyo, shuningdek, tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, yer, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko‘zgudagi aks va sh.k.)dir.

«Tabiat» tushunchasining maxsus talqinida e’tibor muhokama predmetining ildizlari, fundamental asoslarini yoritishga qaratiladi. Mazkur kontekstda, masalan, inson, u yoki bu ijtimoiy hodisa,

elementar zarra yoki sharsimon chaqmoqning tabiati qanday, degan savol mutlaqo o'rinli yangraydi. Falsafada ko'pincha u yoki bu predmet, jism, mavjudot va shu kabilarning mohiyati, asosiy mazmunini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Fanda ham ba'zan muayyan hodisa, voqeaning xususiyati va yuz berish sabablarini aniqlash talab etiladi. Ayni holda mazkur obyekt yoki hodisaning tabiati haqida shu ma'noda so'z yuritiladiki, uning mohiyati, shuningdek qolgan obyektiv borliq - so'zning keng ma'nosidagi tabiat bilan aloqasi aniqlanadi.

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: olla, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Virtual borliq (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan) inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini komp'yuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Uning zamirida Birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydo bo'lgan komp'yuterlar yordamida dunyolar modelini yaratish mumkin, degan g'oya yotadi.

«Virtual borliq» atamasi 1970-yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Len'yer tomonidan o'ylab topilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama komp'yuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi, amerikalik kinematografchilar tomonidan muomalaga kiritilgan.

Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, komp'yuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan komp'yuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. Virtual olam –

inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi his-tuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas, virtual kolbasa haqiqiy kolbasa o'rnini bosa olmaydi va h.k.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois, virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq obyektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki komp'yuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Energiya borliq shakli. Fanning fundamental qonunlaridan biri – energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonunidir. Energiya moddiy jismlarning o'z holatini o'zgartirish orqali muayyan vazifani bajarish qobiliyati bo'lib, u yo'q qilib bo'lmaydigan, rang-barang o'zgarishlarga qodir substansiya sifatida, materiya atributi sifatida talqin qilinadi.

Qadimda suv, shamol va hayvonlarning muskul kuchi ham energiya sifatida tan olingan. Qadimgi misrliklar yelkanni yaratib, shamol kuchi va energiyasidan foydalanganlar, uni namoyish etganlar. Evolyutsiya qonunlari hamma narsa va jarayonlar nafaqat muskul kuchi bilan yoki fizik energiya ta'sirida, balki inson miyasi – tafakkur energiyasi yordamida ham amalga oshirilishini talab qiladi.

Yunon tiliga mansub «energiya» tushunchasi Aristotel' tomonidan ko'p qo'llanilgan. Dunyoning tabiiy ilmiy manzarasi

doirasida energiya haqidagi tasavvurlar mexanikada shakllangan va bu atama fanda birinchi marta 1807-yilda qo'llanilgan. U bilan bir vaqtda «kuch» atamasidan ham foydalanilgan. G.Leybnits energiya hodisasini «jonli kuch» deb tavsiflagan. G.Gel'mgol's ilmiy muomalaga kiritgan potensial energiya haqidagi tasavvurni «kuchlanish kuchi» deb nomlagan.

XIX-XX asrlar chegarasida fizikaning rivojlanishi harakatning yangi turlari kashf etilishiga olib keldi, lekin ularda aynan nima harakatlanishi noma'lum bo'lib qoldi. Ayrim olimlar bu holatdan foydalanib, materiyasiz harakat mumkin emasligini isbotlashga urindilar. Elektron tabiat hali yaxshi o'rganilmagani tufayli, elektron muayyan «nomoddiy kuch», moddiy tashuvchisiz sof harakat, deb e'lon qilindi.

Energiyani barcha hodisalarning birinchi negizi deb biluvchi falsafiy yo'nalish – energetizm deb nomlanadi. Energetizmning asosiy tezisi «materiya» tushunchasini ma'lum energiyalar kompleksi bilan almashtirishdan iborat. Materiya moddaga tenglashtirilgan. Energiya deganda, aksariyat hollarda moddiy harakat tushunilgan.

Energiya turlarining hozirgi tipologiyasi yo moddiy tashuvchilar – mexanik, issiqlik, kimyoviy tashuvchilarni hisobga olgan holda, yo ularning o'zaro ta'sirlari turi – elektromagnit yoki gravitatsion o'zaro ta'sirga ko'ra tuziladi. Mexanik energiya kinetik (harakatlanuvchi jismlar tezligiga bog'liq) va potensial (jismlar holatiga bog'liq) energiyaga bo'linadi. Termodinamikada erkin va bog'liq energiya farqlanadi. Ba'zan tashqi va ichki energiya to'g'risida so'z yuritiladi. Tashqi energiya deganda mexanik energiya, ichki energiya deganda esa to'liq energiyaning butun qoldig'i tushuniladi.

Ruhiy energiya inson tanasining barcha hujayra va a'zolariga singib, u yerda muayyan tartib, garmoniya yoki disgarmoniya o'rnatadi, degan ta'limotga asoslanadi. Bunda inson toliqish his etib, hattoki depressiya holatiga ham tushadi. Insonning ruhlanishi, hattoki, go'zalligi ham ruhiy energiya bilan bog'lanadi. German Gesse «Sharqqa sayohat» asarida agar odam ahamiyatsiz ishlar bilan uzoq vaqt shug'ullansa, bu uni qo'zg'atishi va unga kuch berishini qayd etgan. Binobarin, ahamiyatsiz ishlar bilan shug'ullanganda hayot energiyasi tiklanadi. Fanda ba'zilar buni relaksiyalash qonuni

deb nomlaganlar. Ammo ruhiy energiya sohasi hozirgacha fanda yaxshi o'rganilmagan. Ruhiy energiya dunyo va hayotning barcha holatlaridan ta'sirlanadi yoki tebranadi.

Bugungi kunda fikr va tasavvur energiyasi ham tan olinmoqda., «Nozik daraja»dagi rang-barang energiya hodisalarining amal qilish mexanizmlarini tushuntirishga urinishlar, asosan, ezoterikaga oid adabiyotlarda uchraydi.

Ruh va materiya, hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik kabi mutlaqo qarama-qarshi sohalar (oliy ziddiyatlar)ga duch kelinganida, ularni neytrallashtirish, ya'ni uchinchi bog'lovchi narsani yaratish imkoniyati nazarda tutiladi. Shu tariqa «energiya» tushunchasi qadimgi germetizm ta'limotida ruh – materiya ziddiyatida o'rtadagi bog'lovchi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviy rivojlanish ichki ma'naviyat, inson ma'naviyatini bilish, anglash va namoyon etishni anglatadi. Ruhiy energiyani sinovchi sabr-toqatli va ezgu niyatli bo'lishi kerak. U shikoyat qilishi va tushkunlikka tushishi mumkin emas.

Substansiya (lot. substantia – mohiyat, birinchi asos), narsalarning yagona asosga egaligi, ularning kelib chiqishi bilan belgilangan umumiy va uzviy xossalari esa – atributlar (lot. attributum –xos bo'lgan, qo'shib olingan) degan g'oyaga asoslanadi. Shunday qilib, biron-bir obyektning borlig'i deganda substansial borliq, ya'ni obyektning substansiyadan vujudga kelishi bilan belgilangan borliq tushunilsa, bu obyektni mavjud deb hisoblash orqali biz unda muayyan atributlarning mavjudligini taxmin qilamiz (holbuki «sof borliq»dan bunday borliqning tabiati haqida biron-bir taxmin kelib chiqmaydi). Masalaga bunday yondashilganda borliq nima, degan savol substansiya nima, uning atributlari qanday, degan savolga aylanadi. Falsafa tarixida bu masala yechimining turli variantlarini aks ettiruvchi ontologik konsepsiyalar taklif qilingan.

Materialistik ontologiya borliqning asosi moddiy narsalar degan ta'limot bo'lib, uni antik faylasuflar yaratgan. Qadimgi yunon faylasufi Fales butun borliqning birinchi asosi deb suvni, Anaksimen – havoni, Geraklit – olovni e'tirof etgan. Qadimgi ta'limotlar orasida Anaksimandr ontologiyasi alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha birinchi asos cheksiz va sifat jihatidan nomuayyan bo'lishi kerak, chunki unda narsalarning barcha konkret sifatlari (issiq va sovuq,

namlik va quruqlik, achchiq va shirin va h.k.) aralash bo‘lishi lozim. Atomlar, efir, modda – bularning barchasi materiyani barcha narsalarning substansiyasi sifatida tushunishning turli variantlaridir.

Idealistik ontologiyasubstansial borliqni «narsalar dunyosi» zamirida yotuvchi «g‘oyalar dunyosi» sifatida tasavvur qilingan bu g‘oya Platon falsafasida rivojlantirilgan.

Dualistik ontologik konsepsiyalarda ikki xil borliq va tegishli ravishda ikki substansiya farqlanadi (Dekart). Leybnits ontologiyasi ko‘p sonli substansial shakllar (monadalar)ning mavjudligini nazarda tutadi.

Empirik yo‘nalish vakillari substansiya g‘oyasini tajribadan keltirib chiqarish mumkin emas, deb hisoblaydi. Berkli bizning sezgilarimiz ruhimizdan tashqarida «idrok etilmagan narsalar» mavjudligidan dalolat berishi mumkin emas, deb, moddiy substansiyani rad etgan. Yum Berklining ayni shu fikrini ma’naviy substansiyaga nisbatan ham tatbiq etgan. Uning fikricha, substansiyaning umumiy (moddiy substansiya ham, ma’naviy substansiya ham) g‘oyasi xayolot mahsulidan boshqa narsa emas. Biz ayrim narsalarni idrok etamiz, lekin hech qachon ularning o‘rtasidagi sababiy aloqani idrok etmaymiz. Substansiya shunday bir nomki, uning ostida biz o‘zaro bog‘lanmagan ro‘yolarni birlashtiramiz. D. Yum substansiyani umuman borliq tushunchasiga tatbiq etadi. Yum,“Bizning sezgilarimizdan tashqarida biron-bir narsa mavjud yoki mavjud emasligini so‘rash befoydadir. Biz tashqi dunyo mavjud, ya’ni bizga bog‘liq bo‘lmagan va uzluksiz borliqqa ega ekanligiga ishonishimiz mumkin, lekin u mavjud ekanligini isbotlay olmaymiz. Mavjud bo‘lgan narsa mavjud bo‘lmasligi ham mumkin... Butun mavjudlikning mavjud emasligi uning mavjudligi kabi aniq va ravshan g‘oyadir»[1], deb yozadi. Ammo Berkli va Yum mohiyat e’tibori bilan shunday bir ontologik konsepsiyani rivojlantirganki, unda substansiya rolini uning «surrogati» – subyektda tug‘ilgan sezgilar oqimi o‘ynaydi.

Substansiya deganda barcha narsalarning muayyan umumiy birlamchi asosi tushuniladi. Turli narsalar va hodisalar vujudga kelishi va yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lsa, substansiyani yaratish ham,

[1] Юм Д. Сочинения. В 2 т.Т.1 –Москва. 1965. –С 167-168

yo‘q qilish ham mumkin emas, u faqat o‘z borlig‘ining shaklini o‘zgartiradi, bir holatdan boshqa holatga o‘tadi. Substansiya – o‘z-o‘zining sababi va barcha o‘zgarishlar asosi, borliqning eng fundamental va barqaror qatlami. Substansiyaning o‘z-o‘zidan amalga oshishi hodisalarning umumiy, uzviy xossalari – atributlarda va narsalarning muayyan, alohida xossalari – moduslarda sodir bo‘ladi.

Substansiya g‘oyasidan turli falsafiy ta’limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o‘zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Substansiyaga oid turli yondashuvlar shakllangan. Dunyodagi narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substansiyadan iborat degan ta’limot «monizm» (yunon. monos – bitta, yagona) deb ataladi. Substansiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialistik va idealistik monizmni qayd etish lozim.

Materialistik monizmdunyo yagona va uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni shu moddiylik yotadi, deb hisoblaydi. Bu konsepsiyalarda ruh, ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o‘ta rivojlangan ko‘rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza, va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz. Shuningdek, Zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lmish “Avesto”ning “Yashtlar” qismidagi ko‘pxudolik aqidalariga zid o‘laroq “Gohlar”qismida yakkaxudolik g‘oyalari targ‘ib qilingan.

Idealistik monizm materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo‘q bo‘lmasligi va birinchi asosiga ega bo‘lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli deb hisoblaydi. Bunda obyektiv-idealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o‘lmas g‘oyalar, zardo‘shtiylikda olov, o‘rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o‘z-o‘zidan rivojlanadigan «mutlaq g‘oya») va subyektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruksiyalari, «elementlari»dan keltirib chiqargan Max) farqlash mumkin.

Dualizm birinchi asos sifatida ikkita substansiyaning tan oluvchi falsafiy yondashuv(lot. dualis – ikki yoqlama). XVIII asr boshida nemis faylasufi X.Vol’f «Dualizm» atamasini falsafiy muomalaga

kiritgan. X.Vol'f dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g'oyalar va aql-idrokning alohida o'rnini aniqlash hamda ta'kidlashga harakat qilgan. Uning zamondoshlari – ma'rifatli absolyutizm g'oyalarining tarafdorlariga ta'siri juda katta bo'lgan. X.Vol'fning falsafaga oid qo'llanmalari barcha o'quv yurtlarida o'qitilgan va eskirgan (sxolastik) jihatlarni siqib chiqargan. Ular universitet ta'limining asosiy manbalari sifatida amal qila boshlagan. Rene Dekart falsafa tarixidan dualizmning yorqin vakili sifatida o'rin oldi. R.Dekartning radikal mexanizmi uni materiyaning butunlay ruhsizligi haqidagi yondashuvga olib keldi. R.Dekart nazarida, moddiy jismoniy substansiya o'z atributi sifatida uzunlik, kenglik va chuqurlik ko'lamigagina ega. U mutlaq bo'shliqni istisno etadi, harakatlanish, ya'ni jismoniy zarralarni bo'lish, joydan-joyga ko'chirish va o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Plyuralizm (lot. – ko'plik, ko'p xillik, ko'p sonlik)dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko'proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limot. (Bu atamani falsafaga X.Vol'f 1712-yilda taklif qilgan).

Leybnitsning «monadologiyasi», ya'ni monadalar haqidagi ta'limoti plyuralizmning klassik ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko'ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substansiyalardan tashkil topadi. Ammo, plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to'rt asosi haqidagi ta'limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi. Ba'zan plyuralizmga mustaqil ta'limot sifatida emas, balki dualizmning o'zgargan ko'rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o'z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda yechimini topmagan ruh va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Substansiyani barcha o'zgarishlarning sababchisi va (causa sui) o'z-o'zining sababchisi sifatida tushunish I.Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substansiyani «hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o'zgarmas asos»[1], deb ta'riflagan. Uningcha, substansiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda

[1]Кант И. Критика чистого разума. –Москва., 1996. –С. 47

bo‘ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o‘zgarish uning modusi, ya’ni o‘zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Hozirgi zamon falsafasida substansiya kategoriyasining ontologik mazmuni o‘zaro ta’sir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o‘zaro ta’sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning causafinalisi hisoblanadi. Narsalarni substansiyalilik nuqtai nazaridan o‘rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o‘zaro ta’sirlar nuqtai nazaridan yoritish, demakdir. Shu ma’noda substansiyani ichki birlik nuqtai nazaridan, uning cheksiz va rang-barang o‘zgarishlaridan qat’iy nazar qaraladigan obyektiv borliq sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo‘q bo‘luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtai nazaridan yondashiladigan materiya deb ta’riflash mumkin.

Falsafada «Substansiya» kategoriyasiga «substrat» (lot. – to‘shama, negiz) tushunchasi yaqin turadi, deb qaraladi. Substrat borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi.Qadimgi atomistik ta’limotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o‘ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, ma’lum fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zarralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o‘zaro ta’sirlar amal qiladi. Turli moddalarning hosil bo‘lish va o‘zgarish jarayonlarida o‘zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo‘ladi. Elementar «hayot birliklari» sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarning molekulalari biologik jarayonlar substrati bo‘lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o‘zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo‘lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Materiya tushunchasining vujudga kelishi va uning funksiyalari. “Materiya” atamasi lotincha materia so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, modda degan ma’noni anglatadi. Shunga qaramay, falsafa tarixida “materiya” tushunchasining mazmuni bir necha marta o‘zgargan, tabiatshunoslikning va falsafaning rivojlanishiga muvofiq rivojlangan.

Hamma narsalarning asosi bo‘lgan birinchi modda haqidagi tasavvur materiya bilan bog‘langan. Materiya yuzaga keluvchi

hamma narsalarning substrati sifatida namoyon bo'lgan. Materiya haqidagi tasavvur shakllanishining quyidagi bosqichlari farqlanadi.



Qadimgi yunon faylasuflari orasida Anaksimandr o'zining materiya haqidagi fikr-mulohazalari bilan alohida ajralib turadi. Uning uchun materiya yoki birinchi modda sezish mumkin bo'lgan konkret jism emas, balki ayrim nomuayyan o'zgaruvchi mohiyatga ega bo'lgan apeyrondir. Atomistlarda materiya tabaqalashgan substrakt ko'rinishini kasb etadi.

Materiyaning birinchi ilmiy konsepsiyasini miloddan avvalgi V asrda qadimgi atomistlar (Demokrit va boshqalar) taklif qilgan.



Oldingi mavzularning birida ta'kidlanganidek, Demokrit barcha narsalar oddiy ajralmas zarralar – atomlardan iborat, degan g'oyani

ilgari surgan. Uning tasavvurida bu zarralar bir-biri bilan to'qnashib, bir-biriga yopishib va bir-biri bilan birikib, biz ko'radigan narsalarni hosil qilgan. Narsalarning xossalari pirovard natijada ularni tashkil etuvchi atomlar shakli, kattaligi, o'zaro joylashuvi va harakatiga bog'liq. Bu barcha narsalarni tavsiflash va tushuntirishga asos qilib yagona umumiy sxemani – bilish obyektining har qanday obyektni atomlar birikmasi sifatida aks ettiruvchi modelini olish imkonini beradi. Shunday qilib, antik faylasuflar nuqtai nazaridan, materiya – bu barcha narsalar asosi. Odatda bular qadimgi donishmandlarning farazlari bo'lgan va ularning materializmi o'ta sodda xususiyat kasb etgan, chunki nazariy xulosalar borliqni kuzatish natijasi, tabiatni eksperimental o'rganish mavjud emasligi mahsuli bo'lgan. Materiya falsafiy kategoriyasini ilk bor Platon ishlatgan. U hyle atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydo bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo'lib, har qanday geometrik shakl ko'rinishini kasb etishi mumkin bo'lgan makon bilan tenglashtirlladi. Keyinchalik materiya haqidagi tasavvurlar asosan uning muayyan xossalari (massa, energiya, ko'lam) bilan bog'langan va muayyan turlari (modda, atomlar, korpuskulalar va sh.k.) bilan tenglashtirilgan.

Aristotelning materiya haqidagi tasavvuri o'rta asr falsafasiga ancha o'zgargan ko'rinishda o'tdi. O'rta asr teologlari Aristotelning ilmiy merosidan foydalanib, uning «morfe» (shakl) haqidagi g'oyasini o'zlashtirdilar. Ushbu g'oya boshqa qarashlardan ustun qo'yildi, u ma'naviy asos sifatida qarala boshlandi. Mazkur talqin materiyasiz sof shakllar, chunonchi: xudolar, ruhlar, farishtalar, odamlarning o'lmas ruhlari mavjudllgini e'lon qilish imkonini berdi. Materiya doimiy, u dunyo yaralgunga qadar ham mavjud bo'lgan, degan g'oyani ilgari suruvchi «dahriylar» haqida ma'lumotlar «cherkov rahnamolari» o'rtasidagi munozaralar orqali bizgacha yetib kelgan bo'lsa-da, dunyoning moddiyligini o'rganish bilan bog'liq muammolar bu davrda ham to'la-to'kis barham topmadi. Materiyaning tabiati haqidagi masalada ular bir to'xtamga kelmagan bo'lsalar-da, uni yechish fanning rivojlanishida muhim rol o'ynashiga, zero bilish qaysi yo'ldan rivojlanishi lozimligini belgilashiga ularning ishonchi komil bo'lgan. Ular avval barcha

narsalarning asosi sanalgan materiyaning nimaligini aniqlash va shundan keyingina hunga asoslangan holda ayrim narsalarning kelib chiqishi va xossalarini tushuntirish lozim, deb hisoblaganlar. Jumladan, bu xususda Aristotel' shunday deb yozgan: «Avvalo, birinchi asos va sababni bilish kerak, zero ular orqali va ularga muvofiq qolgan barcha narsalar anglab yetiladi...»[1].

Uyg'onish davri faylasuflari izchil materialistlar bo'lmasalarda, o'rta asrlarning quruq muhokamaga asoslangan, spekulyativ tafakkurini yakdillik bilan inkor etdilar. Mustaqil faol asos sifatidagi shakl g'oyasi chetga surib qo'yildi, materiya nafaqat potensial, balki amalda ham mavjud bo'lgan narsa sifatida tushunila boshlandi. Shunisi ajablanarliki, alximiya sohasidagi eksperimentlar amaliyoti ta'sirida shakl-materiya mahsuli, degan yondashuv yuzaga keldi. Uyg'onish davrining Bernardino Telezio, Fransiska Patritsiya, Jordano Bruno kabi faylasuflari ijodida «materiya» tushunchasi yangicha mazmun kasb etdi. Materiyaning yaralishi g'oyasi inkor etildi, materiya boqiy deb e'lon qilindi, harakat tabiiy kuchlar ta'siri natijasi sifatida tushunila boshlandi.

Materiyaga oid turli konsepsiyalar shaklangan. Materiyaning substansional konsepsiyasi uni yaratib ham, yo'q qilib ham bo'lmasligini, uning mavjudligi va o'zgarishining tashqi sabablari mavjud emasligini ko'rsatadi. Ushbu ta'rif barcha narsalar materiyaning substansiyasi deb bilishga asoslanadi. Materiyaning substrat konsepsiyasidailk materializm namoyandalari materiyani substrat sifatida tushunishga asos solganlar: ular materiyani barcha mavjud narsalarni yaratishga asos bo'luvchi substrat (lot. substratum – asos, zamin), material, modda sifatida talqin qilganlar. Bu substrat boqiy, uni yaratib va vayron qilib bo'lmaydi, deb taxmin qilingan. Ammo ularning hissiy idrok etiladigan ayrim moddalar (suv, yer va boshqalar)ga umumiy substrat sifatida qarashga urinishlari juda sodda va ishonarsiz bo'lgan.

Materiyaning dialektik konsepsiyasi XIX-XX asrlar chegarasida shaklandi. Materiyani dialektik tushunish uni bilishga nisbatan falsafiy va ilmiy yondashuvlarning birikuvi natijasida vujudga keldi. Zero,bir qator yirik olimlar (Gel'mgol's, Darvin, Mendeleyev, Plank,

[1] Аристотел В 4-х т.Т.1 –Москва., 1975 -С.68.

Eynshteyn, Bor va boshqalar)ning asarlarida materiyaning dialektik talqinini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar ilgari surildi.

Gap shundaki, ularda materiya uning bir (yoki bir nechta) turi – suv, atomlar va hokazolar bilan bog‘lanadi, materiyaning bu turi dunyoda mavjud bo‘lgan barcha narsalarning birlamchi, universal, mutlaq asosi deb e’lon qilinadi. Fan mazkur materiya turining mavjudligi bilan belgilangan hodisalarni o‘rganish bilan mashg‘ul ekan, ko‘rsatilgan kamchilik sezilmaydi va uning rivojlanishiga jiddiy moneliklar tug‘dirmaydi. Ammo materiyaning yangi turlari, shakllari va holatlarining kashf etilishi darhol bu turga narsalarning birdan-bir, umumiy va universal asosi sifatida qaraydigan substrat konsepsiyasining torligini namoyon etadi. Shunda uni yangi, kengroq konsepsiya bilan almashtirish zaruriyati tug‘iladi. Materiyaning har qanday substrat konsepsiyasi o‘z qo‘llanish chegarasiga ega va fanning rivojlanish jarayonida u ertami-kechmi aniqlanadi. Materiyani dialektik tushunish uning bitmas-tuganmasligi, ya’ni materiya turlari, shakllari, holatlarining cheksiz rang-barangligi mavjud ekanligi haqidagi g‘oyaga olib keladi.

XIX-XX asrlar chegarasida atomlarning parchalanishini o‘rganish materiyaning ilgari ma’lum bo‘lmagan turi – elementar zarralar kashf etilishiga olib keldi. Shunday qilib, atomlar parchalanganda materiya yo‘q bo‘lmasligi, balki faqat bir shakldan boshqa shaklga o‘tishi aniqlandi.

Hozirgi zamon fizikasida ham moddiy obyektlarning yangi turlari aniqlanmoqda. Fiziklar mikrodunyoni o‘rganish jarayonida fizik bo‘shliq, virtual zarralar, kvarklar kabi g‘ayrioddiy obyektlarga duch kelmoqdalar. Megadunyo (ulkan kosmik miqyosdagi dunyo) sari harakatlanib, ular bu yerda protoyulduzlar, kvazarlar, «qora» va «oq» tuynuklarni kashf etmoqdalar.

Materiya kategoriyasining funksiyalari qo‘yidagilar:

- ongga, ma’naviy kuchlarga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv borliqning mavjudligi haqidagi fikrni ifodalaydi;
- barcha narsalarda mavjud bo‘lgan umumiy xossalarni tavsiflaydi;
- barcha narsalarni bilishga eltuvchi yo‘lni, ularni bilishda amal qilish lozim bo‘lgan umumiy dastur yoki strategiyani umumiy ko‘rinishda belgilaydi.

Bu funksiyalarni materiya kategoriyasi falsafaning keyingi rivojlanishi jarayonida saqlab qoldi.

Olamning chekliligi va cheksizligi. Falsafada olamning chekliligi va cheksizligi bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir konkret narsaning chekli ekanligi, umumiy olamning cheksiz va chegarasizligi e'tirof etiladi. Cheksizlikni ifodalash uchun ichki (intensiv) va tashqi (ekstensiv) shakllar mavjudligi ko'plab falsafiy adabiyotlarda qayd etilgan. Intensiv cheksizlik materiyaning ichdan nihoyasizligi haqidagi tasavvurdir. Intensiv cheksizlikning mavjudligi tabiatda ichki tuzilishga ega bo'lmagan, mutlaqo elementar obyektlar yo'qligini ko'rsatadi. Intensiv cheksizlik mikrozarralarni o'rganish jarayonida materiyaning kichikroq qismlarga cheksiz bo'linishi sifatida qaralishi mumkin emas. Zarralarning bir-biriga aylanuvchanligi ular ancha murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ekstensiv cheksizlik ichdan emas, balki sirtdan cheksizlikdir. U mazkur obyekt doirasidan tashqarida, «katta» dunyoda kuzatiladi va obyektdan tashqaridagi cheksizlikni ifodalaydi. Bu yerda obyekt xossalari va sifatlarining atrofdagi narsalar bilan o'zaro ta'sirlar tizimiga bog'liqligi muammosi muhimroqdir. Amalda cheksizlik mavjud bo'lib, u bilish qaratilgan yo'nalishdan kelib chiqadi va intensiv yoki ekstensiv deb tushuniladi. Ekstensiv va intensiv cheksizlik – haqiqiy cheksizlikning o'ziga xos proyeksiyalaridir. Ularni geometrik shaklning koordinatalar o'qidagi proyeksiyalariga o'xshatish mumkin. Dunyoning chekliligi yoki cheksizligi g'oyasini isbotlash va inkor etishga Kant antinomiyalaridayoq harakat qilingan edi. Kant antinomiyalariga, agar dunyo vaqtda o'z ibtidosiga ega bo'lsa, demak, dunyo yaralgunga qadar hech narsasiz sof vaqt mavjud bo'lgan, lekin bu «hech narsa»dan dunyo yaralishi mumkin emas. Agar dunyo makon va vaqtda ibtidoga ega emas, deb taxmin qilinsa, bundan hozirgi vaqtgacha cheksizlik o'tgan, ya'ni har qanday voqeadan oldin cheksiz vaqt o'tgan, bugun esa u tugadi va olam nimagadir ayni shu vaqtda vujudga keldi, degan xulosa kelib chiqadiki, bu ham ehtimoldan uzoq bo'lgan holdir.

Kengayuvchi olam konsepsiyasi. Kosmologiya muammosining taklif qilingan yechimlariga nisbatan munosabat bir xil emas. Ayrim olimlar cheksiz kengayuvchi Olam gipotezasini qabul qilganlar va

«Katta portlash» konsepsiyasiga ko‘ra, taxminan 17-20 mlliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o‘ta zich singulyar holatda bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan «katta portlash» olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o‘zgargan, maydonning egriligi to‘g‘rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko‘ra, kengayish o‘rnini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. Shu asosda harakatlanuvchi Olam gipotezasi ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra taxminan har 100 milliard yilda yangi sikl «katta portlash»dan boshlanadi. Aqlga sig‘maydigan gipotezalarning birida «dastlabki portlash» natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko‘plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko‘rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida topologiyali (o‘lchovlar miqdori har xil bo‘lgan mahalliy ochiq yoki mahalliy yopiq) makoni va o‘z kosmologik vaqtiga ega bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Ammo «qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya’ni galaktikalar taxminan o‘zigacha bo‘lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e’tirof etilgan fakt hisoblanadi. 1912-yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani - «qizil siljish»ni aniqladi. 1929-yilda Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo‘lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo‘ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga yetishini aniqladi. Shunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

In’ikos nazariyasi. Tabiat obyektlari va hodisalarining umumiy xossasi sifatidagi in’ikos – avvalo, o‘zaro ta’sirdir. U bir jism boshqa jismga ta’sir ko‘rsatishini, boshqa jism esa birinchi jism ta’siriga javob berishi yoki undan ta’sirlanishini nazarda tutadi (A↔V;

V↔A). Bunday o'zaro ta'sir tarzida namoyon bo'ladigan in'ikosda, bir jism o'ziga xos xususiyatlarining boshqa jismda aks ettirish jarayoni tushuniladi. Binobarin, in'ikos tashqi ta'sirga mos o'zgarishlar majmuini ifodalaydi. Bunda o'zaro ta'sir natijasida aks etuvchi tizimlarning strukturalaridan go'yoki «nusxa» ko'chirib olinadi va aks ettiruvchi tizimlarning alohida strukturalarida o'zgartirilgan ko'rinishda, «izlar», «muhrlar» shaklida aks ettiriladi. In'ikosni o'zaro ta'sirga kirishuvchi narsa va hodisalarning o'z tarkibi hamda xossalarida ayni shu o'zaro ta'sirning izlarini qoldirish qobiliyati sifatida tushunish mumkin.

In'ikosning shakllari. In'ikos jarayonining namoyon bo'lish xususiyati materiyaning tuzilish darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan in'ikosning turli, chunonchi:

- jonsiz tabiatdagi;
- jonli tabiattdagi;
- jamiyatdagi darajalari farqlanadi.

Materiyaning rivojlanish jarayonida uning tuzilishining murakkablashuvi yuz beradi. Shu bois materiyaning harakat shakllari qancha bo'lsa, in'ikos shakllari ham shuncha bo'ladi: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik (psixik), ijtimoiy va hokazo. In'ikos shakllarining evolyutsiyasi jonsiz tabiat narsalarining xossasi sifatida amal qiluvchi in'ikos yuqoriroq darajadagi in'ikosning elementar negizini tashkil etishini nazarda tutadi. Bu darajada in'ikos muhit haroratining o'zgarishiga qarab oddiy mexanik deformatsiya, qisqarish yoki kengayish ko'rinishida, yorug'lik in'ikosi, elektromagnit to'lqinlarning o'zgarishi in'ikosi, ovoz to'lqinlari in'ikosi (aks sado), kimyoviy o'zgarishlar (masalan, lakmus qog'oz rangining o'zgarishi) in'ikosi sifatida amal qilishi mumkin.

Jonsiz tabiatdagi in'ikosga tanlash xususiyati va kumulyativlik, ya'ni oldingi ta'sirlarning izlarini saqlash xosdir. In'ikosning tanlash xususiyati o'zaro ta'sirga kirishuvchi obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, kimyoviy element boshqa har qanday element bilan emas, balki tanlash va ajratish asosida kimyoviy reaksiyalarga kirishadi hamda birikadi. Tabiatdagi ayrim predmetlar ekranlashtirish xossalariga ega bo'ladi va elektromagnit to'lqinlarni aks ettiradi, ayrim predmetlar esa bunday xossalarga ega bo'lmaydi. Kumulyativlik – oldingi ta'sirlarning izlarini saqlash

tizimning eskirishi haqida hukm chiqarish imkonini beradi. Aks ettiruvchi tizim oldingi ta'sirlarni «yodda saqlaydi» va o'zining keyingi faoliyatida ularni hisobga oladi.

Jonli tabiatda in'ikos oddiy bir hujayralilar va o'simliklarning ta'sirlanuvchanligi, asab hujayralarining ta'sirchanligi ko'rinishida, shuningdek, hayvonlar darajasida ularning xulq-atvorini tartibga solishni ta'minlovchi psixik in'ikos ko'rinishida mavjud bo'ladi. Biologik in'ikos shunday bir xossaki, usiz hayvonlar o'z mavjudlik sharoitiga moslasha olmaydi. Ma'lumki, ayrim o'simliklarning barglari doimo yorug'lik manbai tomonga – nurlar ularga 90 gradusga intiluvchi burchak ostida tushadigan tarzda qarab o'sadi. Kungaboqar boshchasi quyosh tomonga o'girilib o'sadi. Shunga o'xshash hodisalarni ildiz sistemasining o'sishida ham kuzatish mumkin. Oziqlanish va suv ta'minoti shart-sharoitlari optimal bo'lgan joyda ildiz yaxshi o'sadi.

Biologik in'ikosda ikki jarayon kuzatiladi. Birinchi – in'ikosda aks etayotgan narsani in'ikosning barcha (tubanroq) shakllariga xos bo'lishi mumkin bo'lgan tuzilishi o'z ifodasini topadi. Masalan, issiqlik ta'sirida har qanday jism, shu jumladan, organizm qiziydi. Ikkinchi - aks etayotgan narsaning o'ziga xos xususiyatlari in'ikosning jonli tizimlargagina xos bo'lgan alohida jarayonlari bilan bog'lanadi. Keltirilgan jarayonga tatbiqan aytish mumkinki, organizmning nafaqat qizishi, balki uning suvsizlanishi ham yuz beradi. O'simlik suvni bug'lantiradi, inson terlaydi, uning butun ichki sistemalari normal faollyati o'zgaradi. I.Pavlov fikriga ko'ra, har qanday in'ikos ikki asosiy komponentdan tashkil topadi: birinchi – tashqi komponent predmetlar o'rtasidagi reaksiyalar shaklida namoyon bo'ladi; ikkinchi – ichki komponent o'zaro ta'sirlar natijasida yuzaga keluvchi ichki holatlar, izlar shaklida mavjud bo'ladi[1].

In'ikosning psixik shakliga sezgi bilan bir qatorda instinktlar, shartli reflekslar, idrok etish, emotsiyalar, fikrlash kiradi. Instinkt mazkur turning hamma ko'rinishlarida bir xil bo'lgan murakkab tug'ma xususiyat sifatida amal qiladi. Lekin instinkt juda tor doiradagina maqsadga muvofiqdir. Asalarilar shaklan va

[1] Павлов И.П. Двадцатилетний опыт объективного изучения высшей деятельности (поведения) животных - Москва., Наука, 1973 –С.607

mustahkamlik jihatidan mukammal bo'lgan mumkataklar yasaydi. Lekin katak tobi qirqib olib tashlansa, asalari bunga e'tibor bermaydi va katakka asal quyishda davom etadi. Tirik organizm darajasidagi in'ikosning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, jonli sistemalarda aktual in'ikoslar tarzida yuz beruvchi o'zgarishlar individlar tajribasida va turlarning xossalarida saqlanib qoladi hamda yig'ilib boradi.

Torsion maydonlar o'ng va chap aylanishga ega bo'lib, bu «o'ng» va «so'l» dunyolar mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi Ilgari surilgan gipotezalarga ko'ra, beshinchi fundamental fizik daraja manbasi torsion maydonlar (aylanish maydonlari) bo'lishi mumkin. Ular ekstrasensor o'zaro ta'sirlarda qayd etiladi va ularda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tabiiy muhitlar orqali o'tishda torsion nurlanishlarning zaiflashuvi mavjud bo'lmaydi. Olimlar taxminiga ko'ra, torsion maydon kvantlari sifatida past energetik reliktli neytrinolar amal qiladi, torsion nurlanishlarning o'ta o'tuvchanligi esa tabiiy xususiyat sifatida qaraladi.

Tadqiqotchilar torsion maydonlarning effektlarini o'rganar ekanlar, shuni qayd etadilarki, «vakuum fluktuatsiyasi magnit maydonining muayyan analogiga olib keladi. Bunda ushbu maydon torsion tuzilmalar tarzida shakllanadi. Torsion maydonlarning o'zi vakuumning axborot tashuvchi birlamchi bioenergetik qo'zg'alishlari sifatida qaraladi. Ular vakkumdan materiyaning tug'ilishini, uning rivojlanishi va o'zaro ta'sirlarini boshqaradi»[1]. G.Shilov torsion maydonlar informatsion maydondagi moddiy obyektning o'rni va ahamiyatini aks ettiruvchi barqaror maydon tuzilmalari – fikr shakllaridan iborat, degan xulosaga keladi[2]. Barcha moddiy obyektlar o'z atrofida torsion maydonlarni yaratsa, ong ular bilan o'zaro ta'sirga kirishish xususiyatini aniqlaydi. Torsion maydon tashqi torsion maydon ta'siri yo'qolganidan keyin saqlanib qoladigan qutblashuvni induksiyalaydi.

Torsion maydonlar nazariyasi – hozirgi zamon fanining eng so'nggi yutuqlaridan biri va shu bilan bir vaqtda ezoterikaning ko'pgina hodisalarini tushuntirish uchun sababiy asos. Torsion

[1] Панов В.Ф., Тестов Б.В., Клюев А.В. Влияние торсионного поля на лабораторных мышей // Сознание и физическая реальность. – Москва., 1998. №4. – С. 48-49.
[2] Qarang: Шилов Г.И. Теория физического вакуума. – Москва., 1993. – 192-б.

maydon tushunchasi sinergetika tamoyillarini, xususan attraktorlar harakatiga doir qoidalarni chuqurlashtiradi. Elektromagnit nurlanish ham doim torsion elementga ega bo'ladi. Katta tezlikda aylanayotgan jism gravitatsiya kuchini kamaytiradi. Fikr shakli torsion maydonlar yordamida uzatilganida telekinez fizikasini abstrakt holda tasavvur qllish mumkin.

Qizil siljish. «Qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proporsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan dalil hisoblanadi. Shu bois, Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. 1912-yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgan - «qizil siljish»ni aniqladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach (1929-yilda) Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan darajalarga yetishini aniqladi.

Kengayuvchi olam konsepsiyasi. Ayrim olimlar cheksiz kengayuvchi Olam gipotezasini qabul qilganlar va «Katta portlash» konsepsiyasiga ko'ra, taxminan 17-20 milliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o'ta zich singulyar holatda bo'lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan «katta portlash» olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o'zgargan, maydonning egriligi to'g'rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, kengayish o'rnini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. Shu asosda harakatlanuvchi Olam gipotezasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra taxminan har 100 milliard yilda yangi sikl «katta portlash»dan boshlanadi. Aqlga sig'maydigan gipotezalarning birida «dastlabki portlash» natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko'plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko'rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida topologiyali (o'lchovlar miqdori har xil bo'lgan mahalliy ochiq yoki

mahalliy yopiq) makoni va o‘z kosmologik vaqtiga ega bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Hozirgi «ko‘p sonli dunyolar» konsepsiyalarida olamning ajabtovur manzarasi chiziladi. Bu fundamental falsafani moddiy dunyoning makon va vaqtdagi cheksizligini metrik cheksizlik ma’nosida emas, balki materiyaning makon va vaqt strukturalarining benihoya rang-barangligi sifatida tushunish lozim, degan asosiy qoidasi bilan hamohangdir. Shunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

Geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar. Geotsentrik dunyo haqidagi tasavvur yer miqyosidagi obyektlarga daxldor nazariyalarning umumlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan. Unda, aynan yer dunyosi andoza va negiz sifatida qabul qilinadi. Geotsentrizm ta’limotiga ko‘ra, moddiy tizimlarning atributlari barcha darajalarda biz yer sharoitida duch keluvchi atributlar bilan bir xil bo‘ladi. Geotsentrizm makon, vaqt, sifat, sababiyat va boshqa atributlar ontologik ma’noda yagonadir, degan tasavvurga asoslanadi.

Atributlarning universal mazmuni, inson tanasi mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo‘luvchi atributlarning universal mazmuniga mos kelishi geotsentrik dunyodir. Bu Nyuton vaqti (zamoni), Evklid makoni dunyosidir. Atributlarning universal mazmuni, inson tanasining mavjudlik shart-sharoitlarida namoyon bo‘luvchi atributlarning universal mazmunidan farq qiluvchi moddiy obyekt nogeotsentrik dunyo deb ataladi. «Nogeotsentrik dunyo» tushunchasi non’yuton vaqti (zamoni), noevklid makoni, umuman, borliqning nogeotsentrik turini nazarda tutadi. Mikrodunyo va megadunyoni nogeotsentrik dunyolar tomon mavjud bo‘lgan «darcha»lar deb faraz qilish uchun asoslar mavjud. Ularning qonuniyatlari bizga o‘zaro ta’sirlarning o‘zga turini uzoq darajada bo‘lsa ham tasavvur qilish imkonini beradi. Ayni vaqtda, makrodunyo aloqalari va o‘zaro ta’sirlari borliqning geotsentrik turini aks ettiradi. Shunga qaramay, universal mazmunning «geotsentrik andoza»dan og‘ish xususiyati to‘g‘risidagi masalani faqat amaliyotda yechish mumkin. Bu yerda falsafadan ko‘ra aniq fanlarga asoslanish lozim.

Harakat borliqning yashash sharti. Bizni qurshagan dunyoning muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o'zgarishlardir. Hozirgi zamon falsafasida «harakat» tushunchasi «keng» ma'noda umuman har qanday o'zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o'zaro ta'sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko'payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo'ladi. Agar biz biron-bir tabiiy obyekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo'lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtai nazaridan bu noto'g'ri, zero, aytaylik, Al'p tog'lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo'lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo'lib, bu yerda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galakatik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir. Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo'lgan elementar zarralardan tashkil topadi. Temperatura o'zgarishlari, kimyoviy tarkib o'zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko'rinishlari hisoblanadi. Shuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolyutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit'alar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo'laklari kabi yerning qaynoq magmasi bo'ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

«Materiya harakatining shakli» tushunchasi tabiat rivojlanishining muayyan bosqichiga xos bo'lgan alohida qonuniyatlarni qayd etishga xizmat qiladi. Harakat shakli sifat jihatidan o'xshash moddiy obyektlar o'zgarishlarining o'ziga xos tiplarini va ularning o'zaro ta'siri xususiyatlarini aks ettiradi. Ba'zan materiya harakatining muayyan shakli o'zaro ta'sirga kirishayotgan elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarning o'ziga xos tizimi sifatida yoki muayyan

qonunlarga bo'ysunish belgisiga ko'ra birlashtirilgan o'zgarishlar guruhi sifatida ta'riflanadi.

Harakat shakllarining tasnifi. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. XIX asrning saksoninchi yillarida materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakatni qayd etgan.

- mexanik harakat – turli jismlarning makonda bir joydan boshqa joyga ko'chishi: mayda zarralar harakati, katta jismlar, shu jumladan kosmik obyektlar harakati, materiya harakatining mexanik shakli boshqa har qanday shaklga kiruvchi eng sodda shakl sifatida namoyon bo'ladi;

- fizik harakat – elektromagnetizm, gravitatsiya, issiqlik, yorug'lik, ovoz, moddalar agregat holatining o'zgarishini, fizika o'rganuvchi issiqlik, yorug'lik, elektr kuchini qamrab oladi;

- kimyoviy harakat – noorganik va organik tabiatdagi turli kimyoviy reaksiyalarni, kimyoviy sintez jarayonlarini o'z ichiga oladi;

- biologik harakat – jonli organizmlarda yuz beruvchi rang-barang biologik jarayonlar; - organik hayotni qamrab oladi. Ular tabiat sohasidagi asosiy shakllar hisoblanadi. Ulardan yuqorida yanada oliyroq soha – ijtimoiy-tarixiy jarayon mavjud;

- ijtimoiy harakat – ijtimoiy o'zgarishlarni, shuningdek fikrlash jarayonlarini qamrab oladi.

Harakatning har bir shakli nisbatan mustaqil bo'lsa-da, ularning barchasi bir-biri bilan bog'liq. Harakatning murakkabroq shakli o'zidan oldingi soddaroq shakllar negizida vujudga keladi, ularning sintezi hisoblanadi, lekin ularning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmaydi. Masalan, harakatning biologik shakli harakatning soddaroq fizik-kimyoviy shakllari negizida vujudga keladi, ularni o'zining sharti sifatida o'z ichiga oladi va harakatning oldingi shakllari bilan taqqoslaganda uning butunlay yangi shakli hisoblanadi. Xuddi shuningdek, harakatning ijtimoiy shakli – kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi ham harakatning biologik va o'zidan oldingi boshqa barcha shakllarini o'zining sharti sifatida o'z ichiga oladi, lekin ularning yig'indisi emas, balki

harakatning butunlay yangi shakli hisoblanadi. Materiya harakati asosiy shakllarining keltirilgan tasnifi fan tabiat rivojlanishining teran aloqalarini endigina aniqlay boshlagan. XIX asrning saksoninchi yillarida yaratilgan edi. O'sha davrda hali ko'p narsa noma'lum, ko'p narsalarni aniqlash lozim edi.

Fan rivojlanishining hozirgi bosqichida harakat shakllarining yuqorida keltirilgan tasnifi to'ldirish va aniqlik kiritishni talab qiladi. Kimyo, fizika, biologiyaning rivojlanishi, kompleks fanlarning paydo bo'lishi materiya harakati shakllari rang-barangligining yagona talqini to'g'risida so'z yuritish imkonini bermaydi. Shu sababli yangi tasniflar paydo bo'ladi. Masalan, informatsion-kibernetik harakat, astronomik harakat, galaktika doirasidagi harakat, galaktikalar o'rtasidagi harakat tilga olinadi. Materiya harakati muammolarini yoritishda falsafaning asosiy vazifalari shulardan iborat. Harakatning shakllari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda har bir keyingi harakat o'zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog'lanmaydi. Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog'lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanitsizm», «reduksionizm» (lot. reductio – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik konsepsiyalarida mavjud.

Qadimgi olimlar yer qobig'ining harakatini ustki suvlar va yer ostidagi issiqlik faoliyati bilan tushuntirganlar. Dunyoviy moddaning harakati kosmik sabablar ta'sirida ham yuz bergan, jumladan, olis o'tmishda yer vujudga kelganidan keyin uning yuzasi ulkan asteroidlar urilishidan larzaga kelgan, suvning 1,5 kmgacha balandlikka ko'tarilishi esa rel'yefni buzgan, degan fikrlar ham bor. Ba'zan «materiya harakatining geologik shakli» tushunchasi boshqa sayyoralarga nisbatan tatbiq etilgan. Bunday taxmin harakatning universalligini namoyish etgan, ammo bu aynan yer sayyorasini ko'rsatuvchi va unda zarur komponentlar: suv, kislorod, mo''tadil harorat rejimi mavjudligini nazarda tutuvchi «geo» atamasiga zid bo'lgan. Ushbu komponentlar majmui boshqa sayyoralarda uchramasligi mazkur fikrning isboti sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Materiya harakatining asosiy, xususiy va kompleks shakllari ham mavjud. Materiya harakatining xususiy shakllari asosiy shakllar tarkibiga kiradi. Masalan, fizik materiya bo'shliq, maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar, molekulalar, makrojismlar, yulduzlar, galaktikalar, metagallaktikani o'z ichiga oladi. Materiya harakatining biologik shakli darajasida o'simliklarning quyidan oliyga rivojlanishi imkoniyatsiz tarmoq sifatida qaralishi mumkin, chunki bu rivojlanish jarayoni o'z tabiati chegaralaridan chetga chiqishigacha olib kelmaydi. Hayvonlarning rivojlanishi sifat jihatidan yangi obyekt – inson paydo bo'lgungacha davom etadi. Bu materiya harakatining sifat jihatidan boshqa shakli vujudga kelganidan dalolat beradi. Materiya harakatining har bir shaklida makro va mikrodarajalarni farqlash, shuningdek, umumiy hamda xususiy qonuniyatlarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Makon va vaqt o'z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi. Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko'lamli shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyligi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtai nazaridan ham alohida e'tibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog'liq ko'p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog'liq holda keladimi? Matematikadan farqli o'laroq fizika amalda mavjud bo'lgan makon-vaqt strukturalarini (matematika yaratgan vositalar yordamida) bilishga harakat qiladi. Unda bu strukturalarni tushunishga nisbatan qarama-qarshi falsafiy nuqtai nazarlardan kelib chiqqan ikki xil yondashuv rivojlanadi.

Substansional yo‘nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substansional konsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo‘yicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtni materiyaga ham, bir-biriga ham bog‘liq bo‘lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo‘shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo‘shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo‘shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta’limotiga ko‘ra, makon obyektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin – u o‘tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan ibrat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy. Makon narsalarning ko‘lamini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligni ifodalaydi. Obyektlarning ko‘lamliligi va jarayonlarning davomiyligi birlamchi xossalar emas, ular tortilish va itarilish kuchlari, ichki va tashqi o‘zaro ta’sirlar, harakat va o‘zgarish bilan belgilanadi. Mazkur nuqtai nazardan ko‘rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishning atoqli namoyandasi G.Leybnitsdir (1646-1716).

O‘rta asrlar falsafasida obyektiv idealizm nuqtai nazaridan Xudo makon va vaqtdan tashqarida deb hisoblangan. Mazkur nuqtai nazarning shakllanishiga Avliyo Avgustin (354-430) salmoqli hissa qo‘shgan. Idealistik qarashlar makon va vaqtning obyektivligini rad etish va ular ongning turli shakllariga qaramligini tan olish bilan bog‘liq.

Subyektiv idealizm vakillari (Berkli, Yum, Max va boshqalar) makon va vaqtga individual ong shakllari sifatida yondashadi. Sub’yektiv-idealistik yondashuv uchun makon va vaqt – tasavvurlarning joylashuv usuli, binobarin, ular o‘z kelib chiqishining psixologik manbaiga ega. Berklidan Maxga qadar makon va vaqt - sezgilarning tartibga solingan qatorlari shakllaridir, degan yondashuv amal qildi. Ingliz faylasufi Pirson fikriga ko‘ra, makon va vaqt

amalda mavjud emas, ular narsalarni idrok etishning subyektiv usuli, xolos. Makon – narsalarni idrok etish tartibi yoki kategoriyasi bo'lsa, vaqt voqealarni idrok etish kategoriyasidir. A.A.Bogdanov makon va vaqtni tashkil etuvchi va uyg'unlashtiruvchi inson tafakkuri mahsuli deb hisoblaydi.

Makonning uch o'lchovliligi. Makon va vaqtning cheksizligi hamda tuganmasligi, makonning uch o'lchovliligi, vaqtning bir yo'nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim. Makon va vaqtning umumiyligi, ular universumning barcha strukturalarini qamrab olgan holda, mavjudligini anglatadi. Shu munosabat bilan makon va vaqtning nafaqat makro-, mikro- va megadunyoda, balki jonli va ijtimoiy materiyada ham namoyon bo'lish shakllarini qayd etib o'tish lozim. Biologik vaqt, psixologik vaqt, ijtimoiy makon va vaqt maxsus tahlil qilinadi. Makon va vaqtning obyektivligi ular o'zini idrok etish mumkinligi yoki mumkin emasligidan qat'iy nazar, olamning barcha strukturalarini qamrab olgan holda mavjudligini anglatadi. L.Feyerbax makon va vaqtni borliqning asosiy shartlari - Wesenbedingung deb hisoblaganida ayni shuni nazarda tutgan edi. Ammo bu makon va vaqt moddiy jismlar vujudga kelishiga sabab bo'lganini anglatmaydi, balki materiya makon va vaqtdan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi. Makonning uch o'lchovliligi hanuzgacha ilmiy-nazariy jihatdan aniq isbotlanmagan. Makon va vaqtning cheksizligi hamda tuganmasligi, makonning uch o'lchovliligi, vaqtning bir yo'nalishliligi, orqaga qaytmasligi makon va vaqtning asosiy xossalari sifatida qaralishi lozim. Biz makroskopik tajribada ko'radigan obyektlar uch o'lchovli ko'lamlilikka – uch o'lchovdagi o'lchamlilikka ega. Makonning har qanday nuqtasi uch soni yordamida beriladi. Ammo makonning uch o'lchovliligi faylasuflar uchun amalda jumboq bo'lib qolamoqda. Ular uchun bu asoslashga urinishlar natija bermayotgan empirik postulat sifatida qabul qilinadi. Makonning uch o'lchovliligini ta'riflab bergan Aristotel' pifagorchilarning g'oyalari yordamida uni asoslashga harakat qilgan. U uch o'lchov eng mukammal va tugallangan bo'lib, aynan 3 soni shunday xususiyatga ega ekanligini qayd etgan.

Biz yashaydigan makon uch o'lchovlidir. Bu boshqa makon mavjud bo'lishi mumkin emas, degan ma'noni anglatmaydi, lekin

boshqa makonda atomlar ham, molekulalar ham, Quyosh sistemasi ham bo'lmasligi mumkin. Agar makon uch o'lchovli bo'lmaganida, amaldagi barcha fizik qonuniyatlar buzilgan bo'lar edi; narsalar biron-bir sababsiz paydo bo'lishi va yo'q bo'lishi mumkin edi (ularning sabablari boshqa o'lchovlarda bo'lar edi); atomlar mavjud bo'lishi mumkin emas edi, chunki elektronlar darhol yadrolar ustiga tushar edi. Butun dunyo boshqacha bo'lishi lozim bo'lar edi. Demak, bizning dunyomizda har qanday voqea to'rt son: makonning voqea yuz bergan joyni qayd etuvchi uch koordinati va uning vaqt ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Shunday qilib, moddiy dunyo obyektlarining «3 1» ko'rinishidagi makon va vaqt tuzilishiga mansubligi ularning universal xossasi hisoblanadi.

Makonning ko'p o'lchovliligi. Nisbiylik nazariyasini rivojlantiruvchi va kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion o'zaro ta'sirlarga nisbatan yaxlit yondashuvchi hozirgi tabiiy-ilmiy konsepsiyalar makonning uch o'lchovliligi va vaqtning bir o'lchovliligi (u o'tmishdan kelajakka qarab oqishi)ni moddiy jismlar borlig'ining ehtimol tutilgan hollaridan biri sifatida talqin qiladi va bizning Metagalaktikamiz bilan bir qatorda o'zga dunyolar ham mavjudligini faraz qilib, makon va vaqtning ko'p o'lchovliligi g'oyasini ilgari suradi. Boshqa olamlarda makon va vaqt butunlay o'zgacha tuzilish, ko'lamlilik va shakllarga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi. Makon va vaqt ko'rsatkichlari nafaqat mikro-, makro- va megadunyo darajasida, balki jonli tabiat, ijtimoiy borliq darajasida ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir. yerda hayot paydo bo'lishi bilan go'yo jonsiz tabiat makon va vaqti doirasida joylashgan alohida, biologik makon va vaqt o'lchovi yuzaga keladi. Shu munosabat bilan jonli va jonsiz tabiatdagi simmetriklik muammosi hayotni o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar e'tiborini o'ziga tortdi. Jonli organizmlar simmetriyasi va asimmetriyasi hodisalarini L.Paster, I.Kant, V.I.Vernadskiy va boshqalar o'rgandi. Ular jonsiz tabiatga xos bo'lmagan asimmetriya molekulyar darajada atomlar guruhlarida «so'l» va «chap» qanotlar ko'rinishida namoyon bo'lishi, organizmlar darajasida esa ularning tuzilishi va dinamikasida aks etishini aniqladilar.

Ijtimoiy vaqt. Ijtimoiy vaqt individ vaqti va avlod vaqtiga bo'linadi. U kishilik jamiyatining o'zgaruvchan informatsion

sig'imiga bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda vaqt jarayonlariga makon xossalarining kirishi, ya'ni ijtimoiy vaqt uzunligi – hayot sikllari bosqichlarining ketma-ketligi sifatida, kengligi – faoliyat turlarining miqdoriy rang-barangligi sifatida, chuqurligi – individning o'zi ishtirok etayotgan faoliyat turlaridagi faollik darajasi sifatida ko'rsatilishi bilan bog'liq fikrlarga ham duch kelish mumkin. Makon va vaqt bog'lanishi hamma joyda har xil bo'lgan «mahalliy vaqt» tushunchasida yorqin namoyon bo'ladi.

Bularning hammasi makon, vaqt va materiya jarayonlari o'zaro bog'liq ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Nazariy jihatdan esa, makon va vaqt munosabatlarining relyatsion va dinamik konsepsiyalari rivojlanishining ahamiyatini yanada oshiradi, bu borada tadqiqotlar olib borish zaruratini namoyon qiladi.Ijtimoiy vaqt ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u, biologik va planetar-kosmik vaqtdan farqli o'laroq, notekis oqadi. Ijtimoiy vaqtning yana bir jihati bu subyektiv, ichki vaqtdir. Subyektiv vaqt borliq vaqti emas, balki ong vaqti hisoblanadi. Ammo o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra bu ijtimoiy fenomendir. Subyektiv vaqtni psixologlar bilan bir qatorda san'atshunoslar va estetika mutaxassislari ham keng o'rganganlar. Ijtimoiy hayot tabiiy hayotning davomi hisoblanadi. Odamlar tug'iladilar, yashaydilar, o'ladilar, nasl qoldirish yo'li bilan o'z nasabini muttasil quvvatlaydilar. Ijtimoiy darajada «individ – avlod – nasab» uchligigina emas, balki bir strukturaviy darajadan boshqa strukturaviy darajaga o'tish obyektiv tamoyili ham saqlanib qoladi. Ammo muammoning mazmuni amalda boshqacha ko'rinish kasb etadi. Inson vaqti uning hayot faoliyati vaqtidir. Hayvon o'z mohiyatini tabiatdan oladi, u o'zini o'zi yaratmaydi va shu ma'noda u tarixiylikdan xolidir. Hayvon o'z tarixini o'zi yaratmaydi – tarix uni yaratadi. Inson esa o'z tarixini o'zi yaratadi. Insonning mohiyati uning o'z ijtimoiy munosabatlari majmui bilan belgilanadi.

Davr ruhi tushunchasi ijtimoiy vaqt umumiy kategoriyasi bilan bevosita va tabiiy bog'lanishi lozim. U ichdan, ya'ni o'z mazmuni tomonidan va sirtdan – davr ruhi zamondoshlar hayotida, ularning turmush tarzi va fikrlash uslubini shakllantirishda bajaruvchi funksiyalar nuqtai nazaridan o'rganilishi darkor. Har bir davrning o'z ruhi bor, chunki davr – bu ayni holda inson avlodi vaqtidir. Bu yerda zamondoshlar ijtimoiy-tarixiy avlodining ma'naviy dunyosi haqida

gapirish o‘rinli bo‘ladi. Avlodning ma’naviy dunyosi ko‘p sonli, ba’zan o‘z xususiyatiga ko‘ra bir-biriga zid bo‘lgan omillar majmui ta’sirida shakllanadi. Ammo bu omillar orasida moddiy hayot ziddiyatlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ushbu ziddiyatlar ijtimoiy vazifalarni ilgari surish, jamiyatda ijtimoiy manfaatlarning rivojlanishi, ba’zan ularning qutblashuvini belgilovchi obyektiv asos sifatida amal qiladi. Moddiy hayot ziddiyatlari murakkab voqealar va jarayonlarda, xronologik zamondoshlar ularda o‘ynaydigan o‘ta rang-barang va hatto qarama-qarshi rollarda o‘zini namoyon etadi.

Individual ong zamirida ham, ijtimoiy ong zamirida ham ijtimoiy vaqtni anglab yetish yotadi. Avlod ongi bu munosabatda alohida o‘rin egallaydi. Gnoseologik subyekt sifatida ijtimoiy-tarixiy avlod individ va jamiyat o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘indir. Ammo bu hol ong muammosini o‘rganishda doim ham e’tiborga olinavermaydi. Zamondoshlar avlodi kishilik tarixining gorizontal kesimi, ya’ni vaqtning muayyan, xronologik jihatdan ixcham qismida olingan jamiyatdir. Shu tufayli ham avlod tarixiy harakatni, o‘z borlig‘i vaqtini anglab yetishi ijtimoiy ong mexanizmini harakatga keltiruvchi birlamchi, boshlang‘ich omil hisoblanadi.

Ijtimoiy makon. Makon va vaqt munosabatlarining yanada murakkabroq manzarasi ijtimoiy tuzilmalarda kuzatiladi. Ijtimoiy makon bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyati va amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlariga tarixiy bog‘liqligidir. U alohida insoniy ma’no kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o‘rin oladi, shu bilan birga inson yaratgan infratuzilma, o‘zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko‘rinishida ulardan ajralib turadi. Bunda ko‘lamli strukturalar o‘z holicha, xaotik tarzda vujudga kelmaydi, balki jamiyat evolyutsiyasi obyektiv jarayonlarining mahsuli hisoblanadi va muayyan xalqlarning turmushi va madaniyatini, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini, ma’lum vaqt ruhini o‘zida aks ettiradi. Bularning barchasi pirovardida «ikkilamchi tabiat»ni tashkil etadigan tegishli arxitektura, o‘zgartirilgan landshaft va shu kabilarda o‘z aksini topadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Makon, vaqt, harakat, borliq, virtual borliq, ijtimoiy borliq, inson borlig‘i, ma’naviy borliq, borliq va yo‘qlik, ontologiya, substansiya, materiya, borliq shakllari, dunyoning chekliligi va cheksizligi.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Ontologiya nimani o‘rganadi?
2. Borliqning asosiy shakllari qaysilar?
3. Harakat va rivojlanish bir-biridan qanday farq qiladi?
4. Ijtimoiy harakatning o‘ziga xos xususiyati.
5. Makon va vaqtga substansional yondashuvning ahamiyati nima?

Mavzuga oid test savollari

1. Falsafada o‘zining mavjudligi uchun o‘zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo‘lmagan birinchi asosga nima deyiladi?

a) Substansiya;
b) Aksidensiya;
v) Reallik;
g) Dalil;

2. Substansiyani «causa sui» – «o‘z-o‘zining sababchisi» deb atagan faylasufni toping?

a) Spinoza;
b) Dekart;
v) Kant;
g) Fixte;

3. Falsafa tarixidagi mashhur «Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi» iborasi muallifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a) Geraklit;
b) Fales;

v) Zenon;
g) Platon;

4. Tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o‘zgarishi bu - ...

a) Harakat;
b) Taraqqiyot;
v) Rivojlanish;
g) O‘zgarish;



Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar




Falsafada makon va vaqt konsepsiyasiga yondashuvlar
Substansional yondashuv
Substansional yondashuv
Makon va vaqt – borliqning narsalar va jarayonlardan alohida va ularga bog'liq bo'lmagan holda mavjud shakllari.
Makon va vaqt – obyektlar o'rtasida ularning mavjudligi bilan belgilangan munosabatlar tizimi.
Substansional yo'nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar
Relyatsion (lot. relativus – nisbiy) yo'nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo obyektlari va jarayonlari o'rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog'lanadi.

5-MAVZU. BILISH NAZARIYASI, YO'NALISHLARI VA ASOSIY MUAMMOLARI.

Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari.

Gnoseologiyaning mazmuni

Biz oldingi mavzularimizda insonning bilish jarayoni murakkab ziddiyatli dialektik jarayon ekanligini, bilishning asosi va kriteriyasi amaliyot ekanligini hamda bilishimizning ana shu xususiyatlarini ochib beruvchi dialektikaning metodologik tamoyillarini ko'rib chiqqan edik. Falsafaning gnoseologiya masalasi, ya'ni dunyoni bilish mumkinmi yoki yo'qmi? masalasini ham tahlil qilgan edik. Falsafa bilish nazariyasi, obyektiv voqelik, rivojlanish qonunlarining kishi ongidagi in'ikosi to'g'risidagi masalani o'z ichiga oladi. Voqelik hodisalarini bilish oddiy hayotiy tirikchilik uchun yo'l topish emas, balki ilmiy tadqiqot yo'li bilan izlanishlar natijasida yangi fan yutuqlariga ega bo'lish, yangi bilimlarni vujudga keltirishdan ham iboratdir. Ma'lumki bilim insonning tarixiy amaliy faoliyati negizida vujudga keladi. Tabiat va jamiyatning murakkab, xilma-xil, rang-barang hodisalarining haqiqiy mazmunini, mohiyatini, rivojlanish qonunlarini bilishning aniq usullari mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqot va izlanishning aniq yo'nalishini ifodalaydi.

Har bir fan obyektini o'rganuvchi predmetning aniq izlanish usuli mavjud bo'lib, bu xususiy, umumiy va eng umumiy usullardir. Ilmiy bilish masalasida usul muammosi bilan falsafa tarixida Aristotel shug'ullangan. Lekin, birinchi marta fanni usul sistemasi asosida ingliz faylasufi F.Bekon ilgari surgan. U ilmiy bilishning induktiv va empirik usuliga asos solgan. Dekart esa obyekt bilan subyekt munosabati masalasida tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan, I.Kant bilishni alohida shakllarga ega bo'lgan o'ziga xos faoliyat sifatida tahlil qilishga asos solgan. Bu masalani hal etishda, ayniqsa, Gegel qarashlari alohida ahamiyat kasb etdi. U bilishning, umuman ma'naviy faoliyatning umumiy uslubi–dialektikaning rolini ko'rsatib bergan.

Falsafa dialektikaning bu rolini saqlab qolib qayta ishlab chiqdi. Dialektika ilmiy bilishning, obyektiv voqelikni bilishning asosi.

umumiy metodologiyasidir. Bu metod bilimlarning aniq, tarixiylik nuqtai nazaridan oldinni ko'ra bilish funksiyalariga ega bo'lgan usulidir. Falsafa obyektivlik prinsipiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. U voqelikka har qanday yondoshish, yaqinlashishning son–sanoqsiz turlari, har bir ayrim turdan o'sib butunga aylanuvchi sistemasi borligini ifodalaydi.

Bilishda metafizik tafakkur usuli hukmronlik qilgan davrda bilishning shakl va usullari bir–biriga bog'liq bo'lmagan holda olib qaralgan. Bilishning empirik va nazariy tomonlari, ular orasidagi munosabat masalasi ham bir tomonlama hal qilingan. Falsafa uslubi asosida tabiat, jamiyat tafakkur hodisalarining eng umumiy qonuniyatlari ochiladi. Ilmiy bilish jarayonida turli xil uslub va usullarni qo'llash asosida bilim vujudga keladi va rivojlanadi. Bu masala gnoselogik xarakterdagi masala bo'lib, amaliy va nazariy faoliyatning murakkab dialektik munosabatlarini o'z ichiga oladi. Hayotdagi bilishning aniq shakl va usullaridan foydalanish orqali ilmiy bilim rivojlanadi.

Bizni o'rab turgan dunyoning hodisa va predmetlari ko'p qirrali, ko'p sifatlilik xususiyatiga ega. Ularni bir vaqtda tushunish, bilish mumkin emas. Shuning uchun bilish metodologiyasi bilishning umumiy uslubi va tafakkur usulining rivojlanish qonunlarini asoslab berdi. Bu umumiy metod asosida har bir aniq fan o'zining usul va usullarini ishlab chiqadi. Aniq fanlar usuli xususiy usul hisoblanadi.

Falsafa usuli eng umumiy uslub yoki ilmiy bilish metodologiyasidir.Bilish jarayoni subyekt – inson bilan bog'liq jarayon. Insonsiz bilish jarayoni bo'lishi mumkin emas. Subyektning ilmiy bilish jarayonidagi faoliyati quyidagi sxemaga asoslanadi: masalaning qo'yilishi, hal qilinishi, natijaning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirish, yangi masalaning qo'yilishi yoki eski masala qaytadan tekshirilishi kabilardir. Bu jarayon spiralsimon taraqqiyot yo'li bilan davom etadi. Bilish jarayoni spiralni tashkil etuvchi xalqalar yig'indisi bilan bog'liqdir. Har bir xalqa ma'lum masalaning to'g'ri qo'yilishi, hal qilinishi bilan aniq va noaniq bilimlar to'plami yoki tizimini ifodalaydi. Bu tizimlar muammosi masalalarning qo'yilishi va hal etganligini ifodalaydi. Har bir muammo yoki masalalar tarixiy aniq bilish jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Shuning uchun har bir fanning o'z predmeti va tadqiqot usuli mavjud. Har bir fan o'zi

o‘rganayotgan obyektga nisbatan amaliy va nazariy tadqiqot usuli orqali yondoshadi. Lekin, ba’zi bir fanlar bir–biriga yaqin bo‘lgani uchun ularning tushuncha va qonunlari ham bir–biriga yaqindir. Shu jihatdan ularning izlanish usullari ham o‘zaro yaqin. Aniq usullar asosida ularning bilim tizimi chuqurlashib borsa, umumiy usul orqali bilish doirasi kengayib boradi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya singari fanlar o‘zlarining maxsus usullari orqali izlanishi bilan bilim chuqurlashsa, izlanishning umumiy uslubi (masalan, modda tuzilishiga ko‘ra, energiyaning saqlanish va bir turdan ikkinchi turga aylanish nazariyasiga ko‘ra) orqali bilim kengayadi. Fan tarixida vujudga kelgan, tabiat, ijtimoiy va texnik fanlar tizimi va har bir tizimni tashkil etuvchi aniq predmetlar tizimi vujudga kelgan ekan, ularning har biri aniq tadqiqot usuliga ega. Ularning tadqiqot usullarida esa umumiy o‘xshash tomonlar bo‘lishi mumkin. Bilishning barcha fan uchun umumiy tadqiqot usuli quyidagicha izohlanadi. Ilmiy bilishning fan uchun umumiy uslubi: analiz va sintez, induksiya va deduksiya, analogiya mantiqiylik va tarixiylik abstraktidan aniqlikka yoki aksincha.

Ilmiy bilishning bu uslublari fan taraqqiyotida garchi umumiy hisoblansa ham, eng umumiy falsafiy dialektik uslubga nisbatan xususiy bo‘lishi mumkin. Lekin bu uslublar (xususiy holda) falsafiy yoki umumiy usul bilan bog‘langandir. Xususiylik bilan umumiylikning bog‘lanishi qonuniy jarayondir. Biz uni dialektikaning kategoriyalari mavzusini o‘tganda tahlil qilgan edik.

Har qanday masalani hal qilinishi mantiqda universal, ilmiy tafakkur uslubi mavhumlikdan aniqlikka qarab borish uslubidir.

Bu uslub didaktikaning eng asosiy tamoyiliga aylangandir. Har bir uslub aniq ilmiy bilish jarayonida bir–biri bilan bog‘liq yoki bir–biriga zid bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir uslubning vazifasi bilimning haqiqiy aniq bilim ekanligini isbotlashidir. Shu usul orqali bilim yanada chuqur va keng mazmun asosida boyib boradi. Masalan, klassik fizikaning rivojlanishi natijasida nisbiylik nazariyasi, Kvant mexanikasi, elementar zarralar fizikasi kelib chiqdi. Mikrofizika qonunlarini o‘rganish va tahlil qilinishi natijasida uni klassik fizikaga tatbiq etishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Shunday qilib, biz xususiylik va umumiylik dialektikasiga asoslangan holda falsafiy usul bilan xususiy fan usullarining o‘zaro

munosabatini ko'rib chiqdik. Falsafiy uslub real olamni ilmiy bilishning eng umumiy uslubi bo'lib, u barcha fanlar uchun metodologiyadir. Falsafiy uslub xususiy fanlar, erishgan yutuqlardan foydalanib, ularning uslublari bilan birgalikda rivojlanadi. Ular bir–birini to'ldiradi va boyitadi. Xususiy, umumiy va eng umumiy uslublar tadqiqotning yaxlit sistemasini tashkil etadi. Uslub bilim harakati, yangi bilimga borish usulidir.

Empirizm, ratsionalizm va epistemologiyaning uyg'unligi.

Bilimning asosiy, haqiqiy, aniq mazmunini ifodalashda bir–biridan farq qiluvchi, sifat jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan darajalariga e'tibor berish kerak. Ular empirik va nazariy bilim darajalaridir.

Bilimning empirik darajasi asosan tajriba bilan bog'langan. Kuzatish va eksperimentlardan asbob orqali olingan ma'lumotlar empirik bilim asosi bo'lib, u, shu asosda vujudga keladi va rivojlanadi. Eksperimentlar fizika, biologiya, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiyada ham keng qo'llanilmoqda. Nazariy bilim empirik darajadan farq qiladi, u nazariy tafakkur orqali vujudga keladi. Lekin shuni aytish kerakki, bu ikki bilim darajasi o'zaro bog'langan nazariy bilim empirik bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Ammo hamma vaqt nazariya bevosita tajribadan kelib chiqmay, balki boshlang'ich asos sifatida foydalanish bilan mavjud tushuncha va nazariyalar asosida kelib chiqishi mumkin. Masalan, nisbiylik nazariyasi Lobachevskiy va Riman geometriyasining sintezi sifatida kelib chiqqan. Bu ayrim nazariy bilimlarga nisbatan misol bo'lishi mumkin. Lekin umuman nazariy bilimlarni oladigan bo'lsak, albatta u empirik bilim darajasi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir.

Nazariy bilimlar tajriba ma'lumotiga nisbatan o'zib ketishi mumkin. Masalan, nazariy fizikada antizarralar haqidagi fikr tajriba yo'li bilan emas, balki nazariy hisoblashlar orqali topilgan. Ba'zan kutilmaganda tajriba nazariyani isbotlashi yoki isbotlamasligi mumkin. Bu holda tajriba yangi nazariya uchun manba bo'lib qoladi. Tajribaning qimmati ham mana shundadir – degan edi akademik S.I.Vavilov.

Empirizm (yunon.empeiria – tajriba) hissiy tajribani bilishning asosiy yoki birdan bir manbai deb e'tirof etuvchi oqim. Tajriba va

hissiy bilishning ahamiyatini barcha billsh jarayonlaridan ustun qo'yib, aqliy jihatlarga e'tibor bermaydi. Ya'ni ratsional bilishdagi tushunchalar nazariyalarning roliga salbiy munosabatda bo'ladi. Empirizm oqimi XVII-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Empirizmni F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, J.Berkli, D.Yum kabi faylasuflar targ'ib qilganlar. Ularning fikricha, tajriba inson sezgi organlariga predmet va hodisalar ta'sir etadi. Faqat shu doirada bilish namoyon bo'ladi. Tajriba sof subyektiv xarakterga ega bo'lib, har qanday odam o'z tajribasidan chetga chiqa olmaydi, deb tushuntiradilar. Demak, bu ta'limotning kamchiligi shundaki, insonning ijodkorligiga e'tibor bermaydi. Hissiy tajriba bilishda yagona emas, balki bilish nazariy tafakkurdan ham iboratdir. Hozirgi paytda empirizmning tarafdorlari pozivitizm,neopozivitizm oqimlarida ko'rinadi, ular empirizmning davomchllaridir.

Bilish muammosini tushuntirishda ratsionalizm oqimining ham o'rni bor. Ratsionalizm (lotincha rationalis – aqllilik,vatio – aql) bilishning asosiy vositasi bu kishilarning xulq-atvoridir deb tushuntiradi. Bilish jarayonida aqlni hissiy sezgi, idrok, tasavvur orqali tushunish mumkin. Ya'ni bilishda sezgi, idrok, tasavvur ustuvordir. XVII-XVIII asrlarda yashab o'tgan R.Dekart, B.Spinoza, G.Leybnitslar o'rta asrlar sxolastikasiga qarshi chiqganlar. Ularning fikricha haqiqiy ilmiy bilishga aql vositasidagina erishiladi. Insonning hissiyotlari hamma vaqt ham predmet va hodisalar to'g'risida to'la ma'lumot bera olmaydi. Ratsionalizmning mohiyati falsafiy kategoriyalar orqali ochib beriladi. Gnoseologiyada ratsionalizm keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda u, irratsionalizmga qarshi, tor ma'noda esa empirizm va sensualizmga qarshi deb qaraydi.

So'nggi yillarda falsafaga epistemologiya so'zi ham kirib keldi. Aslida bu so'z ham bilish nazariyasi sifatida qaraladi. Epistemologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib episteme – bilim va logos –ta'limot demakdir. Falsafani bo'limi hisoblanadi. Gnoseologiya singari bilish jarayonining mazmun va mohiyati bilishning voqealikka bo'lgan munosabati, bilish jarayonining umumiy asoslarini, uning haqiqatliligi, shart-sharoitlari kabi muammolarni o'rganadi. Epistemologiyaning asosiy muammolari: bilishning tuzilishi, turlari, qoidalari, o'zgarishlari va rivojlanishi, ilmiy nazariy va amaliy faoliyatda uning

xosiyatliligi va hayotga joriy etish holatlari hisoblanadi. Antik dunyo davridayoq shularga e'tibor qaratilgan. Epistemologiya bilish jarayonidagi obyektiv hisoblangan narsa va hodisalar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'llarini xarakterlab beradi.

Bilishning asosiy turlari va shakllari

Demak, nazariyalar asosida empirik bilim umumlashtirildi, tizimlashtirildi, natijada yangi nazariyalar kelib chiqadi yoki eskisi to'ldiriladi. Bu yerda bir narsani unutmaslik darkor: empirik va nazariy bilim darajasi haqida fikr yuritar ekanmiz, hissiy (konkret) va mantiqiy (abstrakt) bilim haqida gapirishda ularni bir–biriga aralashtirmaslik kerak. Empirik bilim darajasi ham nazariy bilim darajasi ham aniq va abstraksiya metodi vositasi bilan voqelikni bilishga olib kelishini e'tirof etish zarur. Empirik bilish darajasi voqelikni yaxlit ichki, chuqur aloqalarini bilib olishga emas, aksincha, tashqi munosabat va aloqalarni bilishga olib keladi. Empirik bilim obyektning yaxlit ichki va tashqi mohiyatini, nazariy bilim darajasi bog'lanishini aks ettirishga intiladi. Inson hech qachon voqelikni, to'la qamrab olishga erisha olmaydi. Uni har tomonlama bilib olishga intiladi. Empirik bilish darajasining usullari shunday qilib quydagicha bo'ladi: priborlar, asboblar yordamida kuzatish, eksperiment o'tkazish, taqqoslash, modellashtirish, formallashtirish, matematik hisoblash, sistemali, strukturali yondoshish.

Nazariy darajaning usuli tarixiy va mantiqiylikdir. Tarixiylik usul voqelikni aniq shakllarda butun borlig'i bilan yoritishning zaruratidir. Mantiqiylik esa obyektming eng muhim aloqalarini abstraksiya sistemasida qayta hosil qilish orqali unmg mohiyatni ochib berishdir. Bu usul predmetning strukturasini, uning tarixini o'rganish orqali tushunish imkonini beradi. Mantiqiylik tarixiylik bilan dialektik bog'langandir.

Demak, bilimning nazariy darajasining usuli tarixiylik, mantiqiylik mavhumligidan aniqlikka tizimli, strukturali yondoshishdir. Har ikki darajaning umumiy usuli: anallz va sintez, induksiya va deduksiya, analogiya va matematikalashtirish. Bu usullar har ikki bilim darajalarining vujudga kelishi va rivojlanishini ifodalaydi. Bu usullar empirik yoki nazariy bilimlarni rivojlantirishning muayyan

tipidir. Mazkur usullar yordami bilan yangi bilim hosil qilinadi yoki mavjud bilim yangi mazmun bilan boyitiladi.

Bilishda empirik va nazariy darajalar ilmiy tadqiqotning turli usuli hisoblanadi. Bilishning hissiy xususiyati sezgi, idrok va tasavvur shakllaridan iborat in'ikos shakli bo'lsa, empirik darajasi eksperiment o'tkazish asosida yangi dalillarni tizimlashtirish bilan bog'liq bo'lgan bilishning faoliyati hisoblanadi. Bu daraja nazariya bilan bog'liqdir.

Bilimlarimizning haqiqiy ekanligini isbotlashning birdan bir o'lchovi kishilarning moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyatdir. Ilmiy bilishning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan ilmiy tadqiqotning yangi usullari, tafakkur uslubi va unga xos til vujudga keladi. Bilish jarayoni ziddiyatli jarayondir. Hamma vaqt eskirib borayotgan bilim yangisini keltirib chiqaradi, degan edik. Bu ikki tomon orasidagi ziddiyatli musbatning hal qilinishi bilan yangi qonunlar, nazariyalar tushuncha va tamoyillar, ya'ni yangi bilim tizimi kelib chiqadi. Demak, bilimlarimiz tizimi aniq tarixiy bo'lishi bilan birga ma'lum chegaraga ham ega. Bu tamoyll ya'ni tarixiylik, ma'lum aniq tarixiy davrda subyekt tomonidan obyektning qanday darajada aks etganligini ifodalaydi. Bilim darajalarining empirik va nazariy darajasi o'zaro bog'liq. Nazariy tizimlar kuzatish, eksperiment natijasida vujudga kelgan bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Bu, albatta, hamma nazariy bilim tizimi bevosita empirik bilish natijasi, degan ma'noni bildirmaydi. Empirik bilim mavjud nazariy bilimlar asosida vujudga kelishi mumkin. Nisbiylik nazariyasi o'zining kelib chiqish jihatidan hech bir fizik yoki astronomik natijasidan emas, balki nisbiylik nazariyasi, Lobachevskiy va Riman geometriyasining sintezi sifatida vujudga kelgan. Nazariy bilim empirik bilim bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir.

Ba'zida nazariy bilim empirik bilimdan o'zib ketishi mumkin. Masalan, nazariy fizika antizarradan eksperimental yo'l bilan topilishidan ilgari ularning mavjudligini keltirib chiqargan. Ba'zida, degan edi fizik olim S.I.Vavilov, tajriba muayyan bilim tizimlarini to'g'ri yoki xatoligini tekshirish uchun ham o'tkaziladi. Ba'zida mana shunday tajriba yangi nazariyaning kelib chiqishiga kutilmaganda sabab bo'ladi. Masalan, radioaktivlik haqidagi ta'limot

shu tariqa yuzaga kelgan. Demak, bilimlarning rivojlanishi ma'lum darajada asoslab berilgan nazariyalarga bog'liq ekan. Hozirgi zamon adabiyotshunoslik va jamiyatshunoslikning ko'p sohalarida empirik material to'plangan, ular fundamental nazariyalarga ehtiyoj sezmoqda. Fan–texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishlarida rivojlanishni jadallashtirmoq barcha ilg'or sohalarni tez va keng ko'lamda o'zlashtirmoq, ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan o'zgartirmoq demakdir.

Hozirgi vaqtda davlatimiz fan–texnika taraqqiyoti aosida ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berayotir. Bu masalani hal qilishda sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, respublikamiz chinni zavodi uchun keramika tashib kelinardi. Buni endi o'z fanimiz rivoji asosida ishlab chiqarish vaqti keldi.

Fan va texmkani jadal sur'atlar bilan rivojlantirishda mazkur bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish talab etiladi. Bu esa yangi bilimlar uchun yo'l ochadi. Fan taraqqiyotida, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda parallelizmga yo'l qo'yish mumkin emas. Ilmiy tadqiqot muammolari, ularning yechimlari fan taraqqiyoti uchun samarali bo'lishi kerak. Davlatimizning fan sohasidagi siyosati bilimning barcha tarmoqlarining jadal ravnaq toptirish uchun qulay shart–sharoitlar yaratishga, xodimlarni, moddiy va ma'naviy resurslarni mo'ljallanilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish, jamiyatning ma'naviy rivojlanishini jadallashtirish, mamlakatning ishonchli mudofaa qudratini ta'minlash lozim bo'lgan eng istiqbolli natijalarni jamlashga qaratilgandir.

Billsh jarayonida olimning ijodiy faoliyati qanday qonunlarga amal qilishni, ya'ni uning harakati ma'lum qonun shaklga egami yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun ilmiy bilishning aniq usullari bilan birga shakllari ham bor ekanligini ko'rib chiqamiz. Ilmiy bilishning shakllari: ilmiy muammo, dalil, nazariya, gipoteza, qonun, g'oyadir.

Bilishning bu shakllari bir–biri bilan dialektik munosabatda bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Bir bilim sistemasidan ikkinchi sistemaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bilishning rivojlanishi jarayonida bu shakllarning har biri o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum vazifani bajaradi. Biz ularning alohida–

alohida olib o'rganish bilan ularning bilishdagi o'rni, mohiyati va vazifasini to'la tushunishimiz mumkin.

Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi

Inson o'z aql va idroki bilan amaliy faoliyati jarayonida voqelik hodisalari va ularning mohiyatini bilishga intiladi. Bilish jarayonida insonning ijodiy faoliyati ma'lum qonuniyatga bo'ysunadimi yoki yo'qmi degan savol qo'yiladi. Bu savolga javob berish bilishning shakli orqali amalga oshadi. Shakllardan biri bo'lgan dalillar kishilarning bilimidagi amaliy faoliyatining natijasi, voqelikning, bilishning asosiy bosqichidir. Nazariyotchi uchun bilib olingan nazariya bilan yangi dalil orasida kelib chiqqan ziddiyatdan boshqa qiziqarliroq narsa bo'lishi mumkin emas. Demak, izlanuvchi uchun muhim narsa, dalil bilan eski nazariy bilim orasidagi ziddiyatli bog'lanishni aniqlashdan iborat. Bu ziddiyatli munosabat esa izlanuvchi oldiga yangi hal qilinishi kerak bo'lgan vazifani qo'yadi. Bu ziddiyatli vazifa yangi masalani, ya'ni muammo(ilmiy muammo)ning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu muammo amaliy yoki nazariy muammo bo'lishi mumkin. Sub'yekt, obyektiv borliqning asosiy tomonlarini, ko'rinishlarini bilish jarayonida o'z bilimi bilan yangi dalillar bilan boyitadi, chuqurlashtiradi. Bilimning chuqurlashishi jarayonida yig'ilgan aniq dalillar bir–biri bilan taqqoslanadi va mantiqan izchil sistemaga solinadi. Bunday tizimlar bilimning biror sohasiga (fizika, kimyo, geologiya, meditsina), jamiyatga yoki umuman borliqqa tegishli bo'lishi mumkin. Demak, nazariyalar konkret fan, ijtimoiy fan nazariyalariga ajratiladi. Har bir nazariya tarixiy taraqqiyot jarayonining muayyan davrida mavjud bo'lgan bilimlarni o'z doirasida sistemalashtiradi. Lekin insoniyatning bilim doirasi kengayib chuqurlashib borgan sari eski nazariyalar yangi kashf etilgan qonunlar, topilgan yangi dalillarning xususiyatlarini tushuntirib bera olmaydi va nazariyaga o'z o'rnini bo'shatadi. Demak, eski nazariya dialektik tarzda yangisiga o'rin bo'shatadi.

Ba'zilar nazariyani qotib qolgan, o'zgarmas, abadiy deya da'vo qiladilar. Bu bilimning dialektik taraqqiyotiga zid qarashdir. Nazariya azaldan mavjud, borliq esa shu azaliy nazariyalarning namoyon bo'lishidir, deb da'vo qiladilar. Bu noto'g'ri.

Biz nazariya haqida gapirar ekanmiz, gipoteza haqida ham tushuncha beramiz. Chunki nazariyaning boshlang'ich shakli gipoteza. Amaliyotda, amaliy tekshirish jarayonida gipotezaning to'g'ri haqiqat ekanligi isbotlansa, yangi nazariya yuzaga kelishi mumkin. Hali ilmiy asosda tasdiqlanmagan faraz gipotezadir. Faraz oddiy kuzatish yo'li bilan isbot qilinmaydi. Gipoteza hodisalarni izohlab berganligi uchun to'g'ri deb, hisoblanadi. Lekin u ilmiy xarakterdagi nazariyadan farqlanadi. Gipoteza uzoq izlanish, tajriba, eksperiment o'tkazish natijasida yuzaga keladi. Fanda gipotezaning roli katta. U obyektiv qonunlarni topishga qaratilgan, fikrga ma'lum yo'nalish beradi. Har qanday ilmiy nazariya avvalo gipoteza shaklida vujudga kelib, so'ng bir necha bor isbotlanishi jarayonida nazariyaga aylanishi mumkin. A.I.Oparinning yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi gipotezasini hozirgi fan taraqqiyoti asoslamoqda. Gipoteza-ilmiy turtki vazifasini bajaradi, desak ham bo'ladi. Ilmiy tadqiqot jarayonida yangi gipotezalar vujudga keladi va haqiqatni aniqlash, ilmiy tadqiqotni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyat ochib beradi. Masalan, hozir quyosh tizimidagi sayyoralarda hayotning mavjudligi kabi gipotezalar borki, ular isbotlanib ilmiy nazariyaga aylanishi mumkin. Nazariya o'z o'rnida yangi ilmiy tadqiqotlarga yo'l ko'rsatadi, ularning yo'nalishini aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar esa o'z navbatida yangi nazariya va qonuniyatlarning shakllanishiga olib keladi.

Demak, bilishning rivojlanishida shakllarining ahamiyati kattadir. Ilmiy bilishda shakllarning metodologik ahamiyatini ko'pgina faylasuflar asarlarida ko'rsatib, ularning bilish rivojlanishidagi o'rni, o'zaro aloqadorligi dialektik munosabatini ilmiy asoslab berganlar.

Ilmiy bilishning yana bir shakli qonundir. Qonun–narsa va hodisalar o'rtasidagi zaruriy, muhim, barqaror takrorlanuvchi munosabatlarini ifodalovchi dialektikaning kategoriyasidir. Bu joyda qonunni ilmiy bilishning shakli sifatida ko'ramiz. Ilmiy bilish jarayonida qonun–obyektiv xarakterga ega bo'lgan narsalarning real munosabatlarini, shuningdek ularning real in'ikosini ifodalashni, tabiat, jamiyat va tafakkurdagi sodir bo'ladigan jarayonlarni bilish mumkinligini va bilishning rivojlanishidagi uning yo'nalishiga ozmi–ko'pmi ta'sir etish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Qonun umuman narsa va hodisalarning mohiyatini ifodalaydi. Ularning ochilishi va tatbiq etilishi ma'lum darajada fanning, ijtimoiy taraqqiyotning ilgarilab borishiga ta'sir etadi. Kelajakni bashorat qilishga yordam beradi. Qonunlarning to'g'riligini amaliyot isbot qiladi. Har bir ijtimoiy hayot sohasida ma'lum qonunlar ochiladi. Eski qonunlar yangi qonunlarga o'rin bo'shatadi. Moddiy olam cheksiz, undagi hodisalar, narsalar, ular o'rtasidagi bog'lanishlar murakkabdir. Mana shu murakkab ko'p qirrali bog'lanishlarni bilish orqali yangi–yangi qonunlar ochiladi. Masalan, hozirgi fizikaning taraqqiyoti mikrodunyo qonunlarini bilishga olib keladi. Nazariya singari qonun ham qotib qolgan emas. Shuningdek, qonun ham nazariya singari bilimning nisbatan tugallangan tizimidir. Bu tizim taraqqiyot jarayonida o'zgarib turadi. Yangi dalillar, nazariy bilimlari bilan birga ularni ifodalovchi qonunlar ham kelib chiqishi kerak. Yangi qonunlar eski qonunlar zaminida, ziddiyatli vaziyatda vujudga keladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, bilim subyektning tarixiy amaliy faoliyati asosida paydo bo'ladi, rivojlanadi va unga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bilish bilimning muayyan shakllari asosida ro'yobga chiqadi va tizimlashtiriladi. Bilim to'liq, obyektiv, aniq yuqori darajaga erishgani bilan, yangi g'oyani, ideyani keltirib chiqaradi. Demak, yangi bilimning kelib chiqishida g'oyaning roli katta. G'oyani kishilar moddiy vosita bilan emas, insonning ma'naviy kuchlari yordami bilan ro'yobga chiqaradilar. Subyekt o'z faoliyati bilan obyektni o'zgartirishga azm qiladi.

Subyektning azmi qarori tafakkur beradigan bilimga asolanadi. g'oyaning amalga oshishida esa ishonchkatta ahamiyat kasb etadi. g'oyalar inson dunyosini boyitmoq uchun o'zi moddiylashmog'i kerak. Buning ikki tomoni bor: 1) ijtimoiy tomoni; 2) gnoseologik (bilish) tomonidir. G'oya voqelikda mujassamlashgan uning haqiqatligi aniqlanadi. g'oyaning predmetlashuvi tadqiqotning bir davrasini yakunlab, ikkinchisini keltirib chiqaradi.

Ilmiy bilishni qisqacha ko'rib chiqilgan shakllari - dialektik tafakkur taraqqiyotining falsafiy asosda tushunishlikni talab qiladi. Ilmiy bilishning metod va shakllari voqelikning inson ongidagi in'ikosi jarayoni bilan bevosita bog'liq holda qarashning zarurligini taqozo qiladi. Bu jarayon dialektik jarayon bo'lib, falsafaning

qonunlari asosida hal qilinadi. Ilmiy bilishning usul va shakllari ham dialektik munosabatda bo'lib, uni ilmiy asosda tushuna bilishni talab qiladi.

Ma'lumki, ilmiy bilish shakllarini o'rganish bilan logika (mantiq) shug'ullanadi. Falsafa obyektiv olam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari ahamiyatini, mohiyatini ochib berib, haqiqat to'g'risidagi fanga aylanadi. Falsafa bilish nazariyasining metodologiyasi bo'lishi bilan dialektik logika sifatida maydonga chiqadi. Dialektik logika tafakkur shakllarining tuzilishinigina olib qaramaydi, balki ularning aloqadorligi munosabati, harakatida olib qaraydi.

Hozirgi ilmiy texnik jarayon davrida jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti jadallashib borayotgan bir vaqtda, fan rivoji ayniqsa zarurdir.

Mutafakkirlarning ijtimoiy jarayonlar qonuniyatlari haqida qimmatliroq fikrlarni italiyalik olim Viko va nemis faylasufi Gegel aytganlar. Vikoning aytishicha, jamiyat tarixi tabiat tarixidan shu bilan farq qiladiki, birinchisi biz tomonimizdan, ikkinchisi esa bizning ishtirokimizsiz yaratilgan. U ijtimoiy hodisalarni bilishning prinsipial imkoniyatlarini asoslab berishga harakat qilgan edi.

Viko tarixda odamiylikning o'zida zaruriy o'zaro kelishuvlari bilan belgilanadigan fuqarolik dunyosini keng umumiy va doimiy tartibini ko'radi. Biroq, tarixni, oqilona olg'a borishni e'lon qilgan holda, Viko insoniyat tarixini doimiy bir xil bo'lgan mexanik qaytarilishdan iborat qilib qo'yadi. Jamiyat alohida odamdek uch bosqichni: bolalik, yoshlik va yetuklikni bosib o'tadi. "Bolalik" davriga xudolar asri (davlatning bo'lmasligi, koxinlar kastasining absolyut hokimligi), yetuklik davriga esa "odam asri" (demokratiya respublika yoki demokratik ozodliklarga ega bo'lgan vakolatli monarxiya) to'g'ri keladi. Jamiyat rivojlanishi mana shu uch bosqichni bosib o'tib, boshlang'ich nuqtasi qaytib keladi va o'z tadrijotini o'sha aylana bo'ylab davom ettirishga majburdir.

Gegelning qarashlariga muvofiq, tarixda ilohiy, absolyut, har bir xalq, har bir individni pirovard maqsadga erishishiga majburlovchi, har bir davr uchun qaytarilmas o'ziga xoslikni ta'minlab turuvchi, shu bilan birga uni insoniyatning umumiy taraqqiyotida zaruriy bosqichga aylantiruvchi ilohiy, absolyut aql hukmronlik qiladi. Gegel

jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlarini tarixni o'zidan qidirmagan edi. Aksincha, bu kuchlarni tarix sohasiga-chetdan, falsafiy mafkuradan keltirib chiqargan edi.

Viko ham, Gegel ham ijtimoiy bilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ular ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushuntirishda idealistik pozitsiyada turib tahlil qildilar.

Marksistik ta'limot ham ijtimoiy hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beruvchi ijtimoiy bilishning ilmiy nazariyasini yaratishga yordam berdi. Ularning fikricha, moddiy hayot, ishlab chiqarish usuli, umuman hayotning ijtimoiy, siyosiy va ruhiy jarayonlariga sababchi bo'ladi. Paydo bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlarni va davlat munosabatlarini, barcha diniy va huquqiy tizimlarni, barcha nazariy qarashlarni har bir tegishli davrdagi hayotning moddiy sharoitidan keltirib chiqargan vaqtidagina tushunish mumkin.

Marksizm ta'limotida u yoki bu jamiyat nima ishlab chiqargani emas, balki qay usulda ishlab chiqarishi bilan, uning asosida qanday ishlab chiqarish usuli yotgani bilan tavsiflanadi. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish usulining rivojlanishi almashinuvi tabiiy tarixiy tavsifga egadir. Ya'ni o'z ichki qonuniyatlariga asosan amalga oshib, uni o'zgarishi esa ijtimoiy bllishning asosiy masalasini tashkil qiladi.

Ijtimoiy bilishning obyekti jamiyat, uning predmeti esa inson hamda uning faoliyati va madaniyati hisoblanadi. Insoniyat jamiyati tabiat qonunlaridan farq qiladigan o'ziga xos alohida qonunlar asosida rivojlanadi. Inson hayoti, hayvon hayotidan farqlanib, ijtimoiy qonuniyatlar tomonidan boshqariladi, ularning o'ziga xos belgilari esa birinchi navbatda mehnat faoliyati, ularning moddiy hayotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish bilan bog'liq.

Jamiyat tarixi subyektning o'z maqsadiga erishishidagi faoliyatdan boshqa narsa emas. Jamiyat tarixi ongli mavjudotlar, insonlarning o'zaro ta'sirlari mahsulidir.

Kishilar tarixiy dramaning aktyorlari bo'lib qolmasdan mualliflari hamdir. Ular iste'mol vositalari sifatida tabiat bergan tayyor narsalardangina foydalanmasdan, o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun zaruriy vositalarni mehnat qurollari yordamida ishlab chiqaradilar. Mehnat faollyati asosida va

jarayonida inson tafakkuri va tili, ma'naviy dunyosi, uning madaniyati kelib chiqadi va rivojlanadi.

Ma'lumki, obyektiv olamni bilishda tafakkur ham katta ahamiyatga ega. Tafakkur deganda predmet va hodisalarning inson ongida mavhumlashgan, ya'ni abstraksiyalashgan holda aks etishi tushuniladi. Tafakkur obyektiv olamning in'ikosini oliy shaklidir. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz, o'ylash kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkurni paydo bo'lishi tevarak-atrofdagi shart-sharoitlarga ham bog'liq. Tafakkur ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lib, bilim jarayonining asosiy vositasi hamdir. Tafakkur bilish jarayonida nutq bilan aloqada bo'ladi. Nutq tafakkur unsurlarini bayon qilish usulidir. Demak, tafakkur va nutq o'zaro aloqada, bog'lanishda, dialektik munosabatdadir. Ilmiy bilishda yuqorida aytganimizdek, tafakkur o'zining shakllariga ega. Ular: tushuncha, muhokama, (hukm) xulosalardir. Inson tafakkuri fiziologiya, mantiq, psixologiya, gnoseologiya, falsafa, pedagogika, informatika, kibernetika, iqtisodiyot, san'atshunoslik va boshqa fanlar tomonidan turli usullar ishtirokida o'rganiladi. Badiiy, ijodiy mahsullar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar inson tafakkurining natijasi hisoblanadi. Shu sababli ham bilish jarayoni tafakkursiz ro'y bermaydi.

Moddiy boyliklar ishlab chiqarish subyekt va obyektning o'zaro ta'siridan iborat bo'lib, bu ta'sir natijasida subyekt ham, obyekt ham o'zgaradi. Subyekt va obyektning o'zaro ta'siri jarayonida ularning bir-biriga o'tishi sodir bo'ladi, subyekt obyektivlashadi, obyekt subyektivlashadi. Obyektivlashtirish jarayonida subyektdan ma'lum miqdorda subyektiv energiyaning ajralishi sodir bo'lib, individning o'z individualligini ma'lum bo'lakning ajralishi va uni mahsulotda o'tirib qoiishi yuz beradi. Demak, inson mehnat jarayonida subyektning ma'lum qismini obyektiv mavjud predmetga aylantiradi.

Obyektning subyektivlashishi ishlab chiqarish jarayonida obyekt subyekt xususiyatlariga ega bo'la borishida namoyon bo'ladi. Inson o'z orzu niyatiga muvofiq narsa shaklini o'zgartiradi. Unga o'z ehtiyojlariga muvofiq keladigan xususiyatlar bag'ishlaydi. Bularning hammasi jamiyatning organik birligini tashkil qilgan subyekt va obyektdan iborat ekanligidan dalolat beradi.

Tabiatdan farq qiluvchi jamiyat, faqat bilish obyekti bo'lmasdan, balki, uning subyekti hamdir. Inson o'zini o'rab turgan dunyodan, chunonchi, hayvonot olamidan ajralib chiqib subyektga voqelikni o'zgartirish yo'liga o'tishi bilan ham bog'liq. Mehnatdagina "insonning shakllanishi" vujudga keladi.

Ijtimoiy bilish, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari amal qilishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan qiyinchiliklar bilan bog'liqdir. Ijtimoiy bilishda jamiyatni (hodisalarni) tahlil qilganda, mikroskopdan ham, kimyoviy tahlildan ham foydalaib bo'lmaydi, unisini ham, bunisini ham inson abstraksiyasi egallaydi.

Haqiqatan ham ijtimoiy munosabatlar beqiyos turli tumanligi bilan tavsiflanadi. Uning barcha garmoniyalarini bilib olishga doimo intiluvchi inson buning uddasidan to'la chiqa olmaydi. Insoniyatning eng oliy vazifasi xo'jalik evolyutsiyasining mana shu obyektiv mantig'ini umumiy va asosiy belgilarida qamrab olishi va imkoniyati boricha aniq, yorqin tanqidiy, o'z ijtimoiy onglari bilan mamlakatlardagi ilg'or ongga moslashtirmoq kerak. Ijtimoiy jarayonlarni bilishdagi qiyinchiliklar jamiyat qonuniyatlari faoliyatidan kelib chiqadi.

Birinchidan, tabiat qonunlari olamidagi predmet va hodisalarni ojiz, stixiyali kuchlarning o'zaro ta'siri shaklida namoyon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari esa ongga ega bo'lgan kishilarning faoliyati orqali namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, uzoq amal qiluvchi tabiat qonunlaridan farq qiluvchi jamiyat qonunlari ichida qisqaroq vaqt amal qilish xususiyatiga ega bo'lganlari ham mavjud. Ijtimoiy jarayonlarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri – ularning biologik populyatsiyalar va barcha organik dunyo hodisalariga qaraganda yuqori tezlikda rivojlanishidir. Tabiatda sharoit o'zgarishi bilan yangi qonunlar kelib chiqishi odatda uzoq davr mobaynida, million yoki milliard yillarda amalga oshadi. Ijtimoiy hayotda esa ahvol boshqacha bo'lib bu sharoitlar nisbatan tez o'zgaradi.

Kishilik jamiyatining ko'pgina qonunlari tabiat qonunlaridan farqli o'laroq ma'lum tarixiy davrdagina amal qiladi, keyin ular o'z o'rnini boshqa yangi qonunlarga bo'shatib beradilar. Bu hol insonlar ularni bekor qilganliklari uchun emas, balki bu qonunlar amal qiluvchi sharoit o'zgarganligi uchun amalga oshadi.

Uchinchidan, tabiatda yangi qonunning kashf qilinishi va qo‘llanishi ancha tekis amalga oshadi va bevosita ijtimoiy larzalarga olib kelmaydi. Tabiat qonunlarining kashf qilinishi va foydalanishi ishlab chiqarishning rivojlanishi va texnika takomillashuvi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shuning uchun turli e’tiqodli kishilar tabiat qonunlarini ochishlari va o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishlari mumkin.

Aksincha, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari kishilarning, jamiyatdagi guruhlar munosabatlarini qamrab olib to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita ma’lum guruhlari manfaatlariga ta’sir qilmasdan qola olmaydi. Guruhlar buni anglash yoki anglamasligidan qat’iy-nazar, ular ijtimoiy taraqqiyot qonunlari talabini bajaradilar-bunda ularning faoliyati tarixiy qonuniyatga mos keladi va ular o‘z maqsadlariga erisha oladilar–yoki bu talablarni bajarmaydilar, bunda taraqqiyot jarayonida to‘qnashuvlar va ijtimoiy larzalar yuz beradi.

Ijtimoiy bilishning subyekti – bu o‘zining aniq maqsad, manfaat va ehtiyojlarini ko‘zlovchi ma’lum ijtimoiy guruhlarga mansub bo‘lgan aniq shaxsdir. Subyekt ijtimoiy hayotga qanday munosabatda bo‘lish xarakteriga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ijtimoiy bilish insonni olamga amaliy–faollik munosabati asosida amalga oshadi. Bunda kishilarning amaliy hulqi ularning ijtimoiy mazmuni kishilar faoliyati amalga oshadigan ma’lum ijtimoiy sohalar ta’siri ostida to‘plangan bo‘ladi. Bu hol ijtimoiy bilishda obyektiv haqiqat masalasini, shuningdek turli guruh vakillari tomonidan ijtimoiy jarayonlarni baholashdagi o‘lchov (mezon) muammosi dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida ijtimoiy hayotni obyektiv bilishdan manfaatdor bo‘lgan ilg‘or fikrlovchilar vujudga kelishi bilan jamiyat haqida obyekt, subyektga to‘la bog‘liq bo‘lmagan bilim olishdan manfaatdor bo‘lgan haqiqiy fan paydo bo‘ladi.

Falsafada hodisalar tahliliga aniq tarixiy nuqtai nazardan yondoshish talab qilinadi. Falsafa insonni “umuman” mavhum (abstrakt) odamning ehtiyoji va manfaatlari sifatida qarash amaliyotini butunlay tugatadi. Butun insoniyat nomidan so‘zlash albatta yanglishuvlarga olib keladi. Chunki, bunda insonning olamga

va boshqa kishilarga aniq munosabatlari, ularning jamiyat rivojlanishi bilan o'zgaradigan shakllari hisobga olinmaydi.

Falsafa ijtimoiy ong shakli sifatida o'zining u yoki bu voqealarga baho berish orqali namoyon qiladi, lekin bu yerda ushbu baho o'z aniq nomiga ega bo'lib, uning xarakteri muayyan ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga bog'liqdir. Ya'ni aynan bir xil ijtimoiy voqelik hodisalariga bo'lgan real munosabatlar bilimdagi farq bilan bog'liq bo'lmay, balki ijtimoiy sharoitlar va shaxsiy manfaatdagi farqqa ham bog'liq.

Falsafa tarixiy voqelikni obyektiv tahlil qilish tamoyiliga tayangan holda, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari tabiat qonunlari kabi obyektiv xarakterga ega ekanligini isbotlab beradi. Bu qonunlar kishilarning irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, ma'lum sharoitda kishilar bu qonunlarni bilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin, lekin ular bu qonunlarni bekor yoki yo'q qila olmaydilar.

Shunday qilib, jamiyatda obyektiv qonunlarni bilish va ulardan foydalanish ijtimoiy sababga ega bo'lib, u murosasiz kurash jarayonida amalga oshadi.

Ilmiy oldindan ko'ra bilish har doim tabiat va jamiyatning ma'lum qonunlarini noma'lum yoki hali yuz bermagan hodisalarda ham kuchini saqlab qolishiga va ularni tatbiq etishga asoslanadi. Ilmiy oldindan ko'ra bilish ehtimollik elementlariga ega, bu hol ayniqsa, kelgusida paydo bo'luvchi aniq hodisalar va ularning yuz berish vaqti masalasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bunday holat rivojlanish jarayonida ilgari uchramagan, sifati jihatidan yangi sababiy bog'lanishlar va imkoniyatlarning vujudga kelishi bilan shartlangandir, jamiyatga tatbiq etganda esa–unda ongli, individual xarakter va shu kabilarga ega bo'lgan kishilarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning murakkabligi va uning natijasida kutilmagan vaziyatlarning paydo bo'lib qolishi sababi bilan bog'langandir.

Bilish muammosi mantiqiy va intuitiv bilish darajalari bilan bog'liq. Mantiqiy bilish tushunchalarining mohiyatini tahlil qilish jarayonida u yoki bu predmet haqida hukm chiqaradi, xulosa qiladi.

Albatta bilish uchun bu jarayon o'ta muhim bo'lib hisoblanadi. Bilishda yana bir soha borki, uni intuitiv bilish deb ataladi. Intuitsiya

– lotin tilidan olingan bo‘lib, diqqat bilan qarash degan ma’noni anglatadi.

Intuitsiyani har bir shaxsda bo‘lishi intellektual xususiyatdir. Ushbu sohani ko‘proq Anre Bergson (fransuz) shug‘ullangan. Uning fikricha, falsafiy intuitsiya ilmiy bilishning asosi bo‘lmay, balki unga ziddir. Intuitsiya ijtimoiylashgan instinktdir.

Tabiat va jamiyatni bilish tasavvur va intuitsiya bilan bog‘liq. Chunki subyekt ma’lum narsa va hodisalar haqida fikr bildirish uchun obyektlarning xususiyatlari, qismlari va ko‘rinishlari to‘g‘risida olingan ma’lumotlar asosida paydo bo‘ladi. Umuman intuitsiya qadimdan insonlarni qiziqtirib kelgan. Intuitiv bilish mantiqiy bilish bilan bog‘liq. Intuitsiya insonning bilimdonligi va o‘tkir zehniga ham bog‘liq. Insonning sezgi va aql farosati idrok qilishini inkor etmagan holda o‘zini namoyon qiladi. Demak, intuitsiya predmet va hodisa biror dalil bilan isbotlamasdan, sezgilar bergan ma’lumot asosida aql farosat bilan anglab olish qobilyatidir.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak, narsa va hodisadagi muammoni hech bir mushohada va isbotga tayanmasdan, to‘satdan bir butunligicha qamrab olish natijasida navbatdagi yangi bilimni hosil qilishdir. Ba’zi olimlar intuitsiyani instinkt bilan ham bog‘laydilar. E.Gusserelning ta’limotida hodisalarning mohiyati va mazmunini birdaniga aql bilan anglab olish intellektual yoki aqliy intuitsiya deyilsa, M.Sheller biror narsaning butun holatini his qilish natijasida anglab yetishdir, Z.Freyd esa, intuitsiyani ijod jarayonidagi ongsizlikning datlabki tamoyili deb tushuntiradi. Sharq mutafakkirlari intuitsiyani o‘rganib (Abu Ali ibn Sino) “ilohiy ilhom” yoki “ilohiy zehn” ham deb ataganlar. Intuitsiyani mukammal o‘rganib, boshqarib ham bo‘lmaydi. U birdaniga miyada sodir bo‘luvchi fikr va bilimdir.

Prognozlash–ilmiy, oldindan ko‘ra bilishning aniq shakli bo‘lib hisoblanadi. Prognozlash ilmiy oldindan ko‘ra bilish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini bilishga, ijtimoiy voqelikning ma’lum davrga (10, 15 va undan ko‘p yilga) mo‘ljallangan rivojlanish tendensiyalarini tushunishga asoslanishdir.

Aks etish nazariyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy prognozlashni mavjudlik va rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslanib qurilgan bo‘lajak real jarayonlar va hodisalarning ideal modeli deb qarasa bo‘ladi. Ijtimoiy prognozlash o‘z navbatida tegishli rejalarda

aniqlashtiriladi. Rejaning prognozdan farqi uning, harakat uchun aniq ko'rsatmaligidadir. Futurologiya termini kelajak haqidagi hozirgi zamon nomarksistik konsepsiyalarida ko'proq qo'llaniladi. Futurologiya kelajak haqida–ta'limot so'zidan olingan bo'lib, kelajak haqidagi ta'limot demakdir. Birinchi marta "futurologiya" terminini 1943-yilda nemis sotsiologi O. Flextxeym mafkura va utopiyaga zid bo'lgan sinfdan tashqari bo'lgan muayyan "kelajak falsafasi"ni nomlash uchun tavsiya qilgan.

Futurologiya va germenevtika farqli o'laroq, falsafa ilmiy oldindan bilish va prognozlash konsepsiyasi kishilarga bog'liq bo'lmagan ijtimoiy taraqqiyotning tendensiya va qonuniyatlarini aniq hisobga olishga asoslanadi. Uning ilmiyligi va obyektivligi mana shunda namoyon bo'ladi.

Obyektiv ijtimoiy bilish germenevtikasi – izohlash san'ati nazariyasi-pozitsiyasidan ham amalga oshirilishi mumkin germenevtika-lotincha tushuntiraman, izohlayman degan ma'noni anglatadi. Germenevtikaning asosiy nuqsoni ongning bevosita guvohligiga ishonmasdan, mantiqdan ko'ra tilda namoyon bo'ladigan ongning "boshqa" guvohlarga murojaat qilishidan P.Riker (Fransiya), G.Kun, E.Kareto, E.Xaynbel (Avstriya) iborat.

Bugun faylasuf olimlar oldida ma'lum hayot talablariga yaqinlashish, falsafani amaliyotga qaratish vazifasi turibdi. Bu borada O'zbekiston faylasuflari ham ko'p ish qilishlari kerak. Respublika jamiyatshunos olimlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'z ma'suliyatlarini to'la his etib, jadallashtirish strategiyasining nazariy va amaliyoti muammolariga, ijtimoiy-madaniy va millatlararo munosabatlar dinamikasiga, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishga e'tibor berishlari, yangi insonni shakllantirish mexanikasini takomillashtirish, poraxo'rlik, o'g'rilik, olib-sotarlik, byurokratizm va boshqa ilgarilab borishimizga halal beradigan noaxloqiy hodisalar sababini har tomonlama o'rganib xulosalar berish kerak.

Hozir har doimgidan ham O'zbekiston va boshqa qo'shni respublikalar uchun tabiatni qo'riqlash, ekologiya masalalari, chunonchi, regionimizdagi noyob bo'lgan suv havzasi, oqib chiqib ketmaydigan dengiz-Orol va uning tevaragini saqlash masalasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Shu sababli faylasuflar va boshqa fan namoyondalari Orol va Orol oldi muammosini tez orada yechiishning puxta tavsiyanomalarini tayyorlashga e'tibor berishlari talab etiladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston uchun, shuningdek, mehnat resurslarini o'rganish, ulardan ratsional foydalanish, tez o'sayotgan mehnat ahlini, ilmiy-texnika va ijtimoiy o'stirish va intensifikatsiyalash masalalarini hisobga olgan holda, ish joylari bilan ta'minlash g'oyat dolzarbdir.

Shuningdek, biz uchun paxtachilikda kam chigitli paxta navlari tayyorlash va kamchiqim texnologiyani ishlab chiqarish va yaratish bilan bog'liq, O'rta Osiyodagi boshqa respublikalar uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni kompleks o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Zamon baynalminallik, diniy tarbiya masalalari, bozor munosabatlari turmush tarzi, oila-nikoh masalalarini chuqur o'rganishni talab qilmoqda. Ularni o'rganib falsafiy xulosalar chiqarish ham olimlarimiz faoliyati maqsadlaridan biridir.

Xulosa qilib aytish kerakki, ijtimoiy bilim umuman bilish jarayonining bir qismi bo'lib, o'zining spetsifik xususiyatlariga ega, ularni bilmasdan turib jamiyatda bo'layotgan voqealar va jarayonlarni tahlil qilish va baho berish, ularning bo'lajak harakat tendensiyalarini aniqlash mumkin emas.

Bilishda haqiqat va amaliyot uyg'unligi, asosiy shakllari va konsepsiyalari

Bilish jarayonida haqiqat masalasiga katta e'tibor beriladi. Bilish jarayonidagi bilim obyektiv borliqqa mos kelish kelmasligini haqiqat to'g'risidagi ta'limot yoritadi. Haqiqat, obyektiv borliqqa mos keladigan narsa va hodisalarning mavjud holati, mohiyati, mazmunini, sifat hamda xususiyatlarini to'g'ri va aniq aks ettiruvchi, amaliy faoliyat orqali sinalgan bilimlardir. Falsafiy dialektika e'tiborni haqiqat turlariga qaratadi. Haqiqatning mutloq va nisbiy turlari mavjud. Biror narsa yoki hodisaning mavjudligini e'tirof etish va uning inson miyasida to'g'ri to'la ifodalanishi mutloq haqiqatdir. Nisbiy haqiqat deb obyektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida to'la bo'lmagan bilimlar yig'indisiga aytiladi.

Obyektiv yoki mutloq haqiqat kelajakda to‘ldirishi mumkin emas. Masalan: «yer shar shaklidadir», «atom zarrachasi kashf etildi» yoki «Ivan vafot etdi». Nisbiy haqiqatlar esa kelajakda to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan haqiqatlardir. Masalan, «bozor munosabatlariga o‘tish qonunlari mavjud». Mazkur jarayon haqiqat. Ammo u hozirgi davr uchun haqiqatdir. Bozor munosabatlariga o‘tish qonunlari mavjud bo‘lsa ham, bu qonunlar davr taqozosi bilan mutloq bo‘lmasa-da nisbatan o‘zgaradi. Ular o‘rnini yangisi olishi yoki yangisi kashf etilishi mumkin. Ikkinchi misol: «Mars planetasida hayot bor-yo‘qligi o‘rganilmoqda». Demak, planeta o‘rganilayotganligi aniq bo‘lsada, u to‘g‘risida mutloq bilimga ega emasmiz. Zero, planetani o‘rganish davom etayotir. Bilimlar to‘ldirilayotir. Bu bilimlar mavjud bilimlar taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida mutloq haqiqatga aylanadi. Hozircha planetada hayot borligi haqida nisbiy haqiqatga erishganmiz.

Obyektiv haqiqat inson va insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan mavjud reallikning to‘g‘ri in’ikosidan iboratdir. Mazkur in’ikos etiluvchi obyektiv reailikka mos kelishi kerak. Falsafa fani inson bilimlari abadiy emas, ular doimiy sur’atda takomillashib boradi deb o‘rgatadi. Oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlanadi, bilmaslikdan bilishlikka, nisbiy haqiqatdan mutloq haqiqatga qarab boradi, deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga ilmiy falsafa inson bilmaydigan soha yo‘q, uning bilishi cheksiz bo‘lganligi uchun barcha sohani biladi deb o‘rgatadi. Inson bilimi obyektiv olamga nisbatan nisbiydir, xolos. Inson erishgan bilimi yuqori bosqichda bo‘lsada, undan ham yuksak yangi bosqichga qarab intilaveradi. Har bir nisbiy haqiqatda mutloq haqiqatning bir elementi mavjud bo‘ladi. Sababi barcha predmet va hodisalarda rivojlanishning keyingi bosqichi mujassam. Nisbiy haqiqatda ham obyektiv olam to‘g‘ri aks etadi. Inson faoliyatida nisbiy haqiqat takomillashib boradi. Predmet va hodisalar rivojida miqdoriy va sifat o‘zgarishlari namoyon bo‘lganida nisbiy haqiqat uchun sharoit yaratiladi. Shu ma’noda predmet va hodisalarning holati haqida inson bilishini aniq va aniqlanishi, chuqurlashtirilishi to‘laroq bo‘la borishi nisbiy haqiqatdir. Ammo haqiqatni qabul qilish mutloq haqiqatni e’tirof etmaslik degani emas, u ham nisbiy. Mutloq haqiqatni bilish nisbiy haqiqatsiz amalga oshmaydi. Dialektik xarakterda bo‘lgan bu jarayonlar bir-birini taqozo etadi. Olamni

bilish uchun bir inson, bir-ikki, yuzlab avlod umri ham kamlik qiladi. Chunki bilish cheksiz, olam o'zi cheksiz bo'lganidek, inson ruhiyatini bilishning ham poyoni yo'q. Har bir inson, avlod olamdagi, tabiat sirlarini bilishga yondoshadi xolos. Masalan, birgina atomning tuzilishi haqidagi ta'limot elektron kashf etilganiga qadar ikki ming yildan ko'proq vaqtni o'z ichiga oldi. Endilikda elektronning xususiyatlarini bilishning o'ziga yuz yildan ortiq vaqt sarflandi. Elektron va uning xususiyatlari haqida inson bilimlari tobora kengayib, ma'lum hajm va shaklga yetganda bu haqidagi bilimlar mutloq haqiqatga aylanadi. Buning o'zi ham uzoq, ham murakkab taraqqiyotni o'z ichiga oladi. Binobarin, atom, elektron tuzilishi juda murakkab bo'lib, ularning xususiyatlarini o'rganish ham mushkul va og'ir mehnat, doimiy izlanish, harakatni talab etadi. Atom sohasidagi yangi har qadam u sohada yangi bir bosqichni paydo qiladi, bu bosqich esa atom haqidagi bilimni mutloq haqiqatga yaqinlashtiradi. Ijtimoiy hayot hodisalari ham shu kabi xarakterga egadir. Ammo, jamiyatdagi hodisalarni bilish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yish mumkin. Sababi hodisa va jarayonlar mutloq turg'un emas, ular vaqt o'tishi, sharoit o'zgarishi bilan yangicha ko'rinish yoki tus olishi mumkin. Bunga misol marksizm-leninizm ta'limotidir. Zero, ba'zi mamlakatlarda bu ta'limot jamiyat hodisalarini tushuntirib berishda izchil bo'la olmadi. Shunday bo'lsa-da insonlar, avlodlar tabiat va jamiyat hodisalarini oxirigacha bilish uchun harakat qilaveradi. Masalan, olimlar so'nggi ellik yil davomida kosmik fazoni o'rganishda davom etib ma'lum xulosalarga ega bo'lganidan (nisbiy haqiqatga erishganidan) so'ng Mars planetasi faoliyati bilan qiziqib, unda hayotning bor yoki yo'qligini aniqlashga kirishdi. Inson Mars haqidagi mutloq haqiqat izidan bormoqda. Demak, inson olam to'g'risidagi bilimlarni to'la qamrab ololmasa ham, shunga intilaveradi. Shu sababli qayta takrorlaymizki, insonning mutloq haqiqatga erishuvi, unga yaqinlashishi nisbiydir. Inson bilishi nisbiy bo'lar ekan, bu bilimlarda obyektiv mazmun yo'qdir degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har qanday nisbiy bilimda obyektiv, mutloq haqiqatning ma'lum qismi mujassam. Ya'ni unda haqiqat unsurlari mujassamlashgandir. Haqiqat esa aniqdir. Mavhum haqiqatning o'zi yo'q, mavhum haqiqat o'tkinchi, yolg'ondir. Shunday qilib nisbiy haqiqatni mutloq haqiqatga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ularni

mujassam holda o‘rganmoq lozim. Mujassam yondoshish haqiqatga dialektik yondoshishni taqozo etadi. Dialektik yondoshish esa turli aqidaparastlik nuqtai nazaridan yondoshishlardan saqlaydi, xatolardan holi qiladi. Falsafa tarixida shunday ba’zi oqimlar bo‘lganki, bu oqimlar insonlarning olamini bilishdagi faoliyatini buzib talqin qilgan. Bilish imkoniyatlarini cheklashga harakat qllgan. Agnostitsizm, relyativizm, volyuntarizm kabi oqimlar shular jumlasidandir. Masalan, relyativizm oqimi nisbiy haqiqatni e’tirof etsada, mutloq haqiqatni inkor etgan. Bu oqimlar haqiqat muammolariga dialektik yondoshmay, o‘z ta’limotlarida kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlar. Hayotdagi faqat nisbiy haqiqatni e’tirof etish suvdan so‘ng quruqlik bo‘lishini sezmaslikka monand. Ya’ni nisbiy haqiqatdan so‘ng albatta mutloq haqiqat bo‘lishini sezmaslik masalaga jiddiy yondoshmaslik dalolatidir.

Inson faoliyatida ilmiy haqiqatlar mavjud. Ilmiy haqiqatlar bilan birga tarixiy haqiqatlar ham e’tirof etiladi. Insonlar obyektiv olamni ilmiy va tarixiy haqiqat orqali ham biladilar. Binobarin, ilmiy haqiqatlar ma’lum va ular aniq tarixiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lib muayyan shaklda namoyon bo‘ladi. Ana shu ma’noda ham haqiqatlar mavhum emas, balki, aniq va ravshan. Xulosa qilib aytganda, haqiqat to‘g‘risidagi insonning nazariy va ilmiy faoliyati o‘tmishni, hozirgi zamonni, kelajakni anglashga yordam beradi, xulosalar chiqarishga olib keladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ong, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, empirik bilim, kuzatish, eksperiment, gnoseologiya, hissiy va aqliy bilish, haqiqatning konkretligi, mutloq haqiqat, nisbiy haqiqat.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Bilishning mohiyati nimada?
2. Gnoseologiya nima?
3. Bilimning qanday shakllarini bilasiz?
4. Bilim va amaliyot birligi.
5. I.Kant agnostitsizmining o‘ziga xos xususiyatlari.

Mavzuga oid test savollari:

1. Bilish haqidagi ta'limot bu- ...

a) Gnoseologiya;

b) Ideologiya;

v) Ontologiya;

g) Epistemologiya;

2. Haqaqatni tushunishda intuitivizmga asos solgan faylasuf kim?

a) Shopengauer;

b) Kant;

v) Fixte;

g) Nitsshe;

3. Ong nima?

a) ong sezgi, idrok, tasavvur va tushunchalar asosida voqelikni inson miyasida ruhiy jihatdan aks etishidir;

b) ong sezgilar yig'indisidir;

v) ong inson faoliyatining ijtimoiy holatidir;

g) ong jamiyat haqidagi tasavvurlardir;

4. Haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir, deb e'tirof etgan faylasuf kim?

a) Aristotel';

b) Platon;

v) Suqrot;

g) Demokrit;

6-MAVZU. FALSAFANING METOD, QONUN VA KATEGORIYALARI. FALSAFIY USLUBLAR, QONUNLAR VA KATEGORIYALAR.

Falsafada metod, metodologiya, metodika tushunchalari. Ilmiy maktablar, metod, metodologiya, metodika tushunchalari

Ilmiy maktablar o‘zida muayyan shaxs, olimning ilmiy faoliyati yo‘nalishini o‘rganish natijasida shakllangankasb egalari, olimlar kogortasi bo‘lib, unda muayyan g‘oya, nazariya doirasida hamjihatlikda faoliyat olib boriladi. Ilmiy maktab tushunchasi metod tushunchasidan kengroqdir.

Ilmiy maktablar fan taraqqiyotida vorisiylikni ta’minlaydi, ya’ni fandagi tizimli rivojlanishi o‘zida namoyon qiladi. Ilmiy maktablarning paradigmal va lokal darajalari farqlanadi. I.Nyuton, A.Eynshteyn, N.Bor, I. Prigojin ilmiy maktablari paradigmal darajani namoyon qilsa, mamlakat, alohida oliy ta’lim muassasalari yoki ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat olib boradigan ilmiy maktablar lokal darajani aks ettiradi. Ilmiy maktabning paradigmal darajasi o‘z navbatida o‘z yetakchilariga ega bo‘lgan lokal darajadagi ilmiy maktabning majmuini tashkil qiladi. Ilmiy maktablarda bir yoki undan ortiq yetakchilar bo‘lishi mumkin. Ilmiy maktabda o‘ziga xos ilmiy innovatsion mexanizmlar amal qiladi, ularning paydo bo‘lishi doimo yangi g‘oyalarni amaliyotga joriy qilishda shu g‘oyaga aks g‘oyani ilgari suruvchi opponentlar bilan kurashida shakllanadi. Ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra, yangi g‘oyalar ilgaridan qotib qolgan eski g‘oyalardan amaliy ahamiyati bilan ustuvorlikqiladi, ilmiy maktab vakillarining shu g‘oyani himoya qilishi uning amaliyotiga joriy qilinishining garovidir. Ilmiy maktabda ustozning rahbarlik mahorati va ilmiy salohiyati, olimlilik mas’uliyati muhim ahamiyatga ega. Ilmiy maktablar nazariy konsepsiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy g‘oyalar majmui shaklida namoyon bo‘ladi. Ilmiy maktablar ilgari g‘oyalarning masshtabi, ularning ahamiyatiga ko‘ra bir biridan farq qiladi. Ilmiy maktablarning o‘zga xos xususiyati g‘oyalarni umumlashtirish xossasiga egalikdir. Ilmiy maktablar individual ilmiy tadqiqot olib borish metodi shakllanadi.

Metod (yunon. Metods- ysul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarinig yig'indisi hamdir. U tamoyillar, tizimi bo'lib, subyektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishi sari yunaltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchini tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvidan iborat. Biroq:

- birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik("metodologik negavizm");

- ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto'g'ridir. Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetninig mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. Shunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadiva yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi. Metod bilish predmeti va harakatining sun'iy ravishida bog'lamaydi, balki ularning xususiyatlari o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga dahldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma'lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo'ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (obyekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod subyekt va obyektning murakkab dialektikasi asosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, obyektiv, mazmunli va aniq bo'lsa-da, ayni paytda, subyektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki obyektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada ularga asoslanadi.Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy (shuningdek, ilmiy), moddiy va amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. Yangilik yaratish san'ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarinig metologik rolida o'z aksini topgadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqelikdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, u oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqni tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qidan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba'zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdur. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda u yoki bu obyektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining

hususiyatlari bilan belgilanadi. Metodologiya – faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.) va tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi sifatida amal qiladi.

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo'ldi va u albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o'z sohasida amaliyotida ham qo'llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e'tibor qaratmoq kerak. Metodologiya – faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganadi. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini ajiratish fan rivojlanishinig "postnoklassik", deb nomlangan hozirgi bosqichda ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tadbiq qilish mexanizmlari va shakllrini o'rganadi. Xullas, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqdagi ta'limotidir. Metodlarning tasnifi. Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: fan metodlari, xususiy ilmiy metodlar, umumilmiy tadqiqot metodlari, empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari, umummantiqiy metodlar, fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir. Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

Fan metodlari – ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi. Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetga va o'ziga xos tadqiqot usullarga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotninig taqdirini hal qiladi. Aynan bir dallly materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.B Bekon uni yulovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, u yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Zero, nafaqat

natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim. Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazarida: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishninig sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyati metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va quyilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Fanlararo tadqiqot metodlari – asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Xususiy ilmiy metodlar - materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-tamoyillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumilmiy yondashuvlarning muhim roli shundan iboratki, o'zining «oraliq xususiyati»ga ko'ra, ular falsafiy va aslida ilmiy bilim (shuningdek, tegishli metod)larning o'zaro o'tishida vositachilik qiladi. Mazkur metodlar barcha fanlarda qo'llanilganligi uchun ham ular umumilmiy metodlar deb ataladi. Ammo ularni fanlarda qo'llashda har bir fan yoki fan sohasining xususiyatlari, tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy hodisalarni bilish xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tadkiqotning umumiy mantiqiy metodlari - mantiqiy mushohida yuritish orqali egallangan bilimlar majmui bo'lib, ular quyidagilar: analiz—obyektni amalda yoki fikran tarkibiy qismlarga ajratish; sintez - qismlardan butunni, xuddi shunday tarzda, qayta birlashtirish.

Sintez natijasida mutlaho yangi obyekt hosil bo'ladi.

Analiz (tahlil qilish faoliyati) jarayonida fikr murakkablikdan oddiylikka, tasodifdan zaruratga qarab, xilma- xillikdan ayniyatga va birlikka qarab xarakat qiladi. Analiz qilishning maqsadi qismlarni, murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular o'rtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan iboratdir. Biroq analiz mohiyatni ajratib qarashga olib keladiki, mavhum holda qolayotgan birlik, xilma-xillikdagi birlik sifatida hali ochilmagan bo'ladi. Sintez, aksincha, analiz vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalar, munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birlikdan tafovutga va xilma-xillikka qarab yo'naltirilgan bo'lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi. Analiz va sintez chambarchas bog'lik holda amal qiladi.

Mavhumlashtirish-o'rganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikranuzoqlashish, ayni paytda tadqiqotchini qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish», «qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi. Matematika, mantik, dialektika va falsafa eng rivojlangan tizimlardir.

Ko'rib chiqilayotgan xossalarning qay biri muhim kaysinisi ikkinchi darajali ekanligini aniqlash mavhumlashtirishning bosh masalasidir. Mazkur masala har bir muayyan holatda, eng avvalo, o'rganilayotgan predmetning tabiatiga, shuningdek, tadqiqotning muayyan vazifalariga qarab hal qilinadi.

Umumlashtirish—predmetning umumiy xossa va belgilarini aniqlash jarayoni bo'lib, mavhumlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Bunda har qanday umumiy (abstrakt-umumiy) yoki muhim (muayyan umumiy, qonun)belgilar ajratilishi mumkin.

Ideallashtirish – tajribada prinsipial amalga oshirib bo'maydigan, lekin real olamda ularning timsoli bulgan obyektlarning tushunchalarini fikran shakllantirishni ifodalaydigan («nuqta», «ideal gaz», «mutlaqo qora jism» va h.k.) tushuncha.

Ideallashtirilgan obyektlar, pirovard natijada, obyektiv ashyolar, real jarayon va hodisalarning in'ikosi sifatida maydonga keladi.

Ideallashtirish yordamida shakllangan tushunchalardan keyinchalik real obyektning in'ikosi sifatida izlanishlar olib borishda, mulohazalar yuritishda, real jarayonlarning mavhum sxemalarini tuzishda foydalanish mumkin.

Ideallashtirish ilmiy yoki g'ayrilmiy, real yoxud mavhum bo'ladi. Ilmiy, real ideallashtirishni mavhum ideallashtirishdan farqlaydigan belgi shundan iboratki, unda hosil etilgan ideallashtirish obyektlari, shaxslar muayyan sharoitlarda ideallashtirilgan, ya'ni real obyektlar atamalarini ishlatib, talqin etish mumkin.

Induksiya—ayrimlik (tajriba, dalil)dan umumiyga (ularni umumlashtirib xulosa chiqarishga) fikran harakat qilish; deduksiya — bilish jarayonining umumiydan ayrimlikka yuksalishi. Induksiya va deduksiya o'zaro bog'lanadi hamda bir-birini to'ldiradi. Tajriba hamisha cheksiz va nomukammal bo'lganligi uchun induktiv xulosalar doim muammoli (ehtimoliy) xususiyatga egadir. Induktiv umumlashtirishlarga, odatda, tajribada billngan haqiqatlar (empirik qonunlar) deb qaraladi. Induktiv umumlashtirish turlaridan ommaviy induksiya, to'liqsiz induksiya, to'liq induksiya, ilmiy induksiya va matematik induksiya ajratiladi. Mantiqda sababiy aloqalarni aniqlashning induktiv metodlari-induksiya qonunlari (Bekon-Mill induktiv tadqiqot qoidalari) farqlanadi. Yagona o'xshashlik, yagona tafovut, o'xshashlik va tafovut, bog'liq o'zgarishlar metodlari va qoldiqlar metodi shular jumlasidandir.

Deduksiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, tadqiqotchi deduksiya vositasida bir sinf, bir jins, bir guruh narsa yoki hodisa to'g'risidagi umumiy bilimlardan ularning har biri u haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma'lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo'lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki hodisaga ham xos bo'ladi.

Analogiya (moslik, o'xshashlik) — o'xshash bo'lmagan obyektlarning ayrish jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o'xshashliklarni aniqlash. Aniqlangan o'xshashlik asosida tegishli analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi. Uning umumiy sxemasi: V obyekt a, ', s, d belgilarga ega; S obyekt, s, d belgilarga ega; binobarin, S obyekt a belgiga ega bo'lishi mumkin. Analogiya haqiqiy emas, balki ehtimoliy bilim beradi. Analogiya bo'yicha

xulosa chiqarishda muayyan obyekt (model)ni ko‘rib chikish natijasida olingan bilim boshqa nisbatan kam o‘rganilgan obyektga ko‘chiriladi.

Sistemali yondashuv-fanda turli obyektlarni sistemalar sifatida tadqiq etishni nazarda tutadigan metodologik tamoyil (talab)lar majmui. Mazkur talablarga quyidagilar kiradi:

a) har bir elementning tizimdagi o‘rni va funksiyalariga bog‘liqligini aniqlash, bunda butunning xossalari uning tarkibiy qismlari xossalarining yig‘indisiga bog‘liq bo‘lmasligini e’tiborga olish; b) tizimning xulq-atvori uning alohida tarkibiy qismlari xususiyatlari hamda uning tuzilishi xossalariga qay darajada bog‘liqligini tahlil qilish; v) tizim bilan muhitningo‘zaro aloqalari mexanizmini tadqiqqilish; g) mazkur tizimga xos bo‘lgan daraja-lilikning xususiyatini o‘rganish; d) tizimni har tomonlama, ko‘p jihatli tavsiflashni ta’minlash; e) tizimga dinamik rivojlanayotgan yaxlitlik deb qarash.

Sistemali yondashuv o‘z-o‘zidan rivojlanuvchi murakkab obyektlar (ko‘pdarajali, iyerarxik, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi biologik, psixologik, sotsial va h.k. sistemalar)ni tadqiq etishda keng qo‘llaniladi. Sistemali yondashuvning muhim xususiyati shundaki, faqat tadqiqot obyektigina emas, balki tadqiqot jarayonining o‘zi ham murakkab sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi obyekt turli modellarini yaxlit qilib birlashtirishdir.

«O‘z-o‘zini tashkil etish» tushunchasi sistemali yondashuvning muhim tushunchasidir. Mazkur tushuncha tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar qat’iy emas, balki ehtimoliy xususiyatga ega bo‘lgan murakkab, ochiq o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim (tirik hujayra, organizm, biologik populyatsiya, odamlar jamoasi va sh.k.)ni yaratish, rivojlantirish yoki takomillashtirish jarayonini tavsiflaydi.

Hozirgi zamon fanida o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizimlar o‘z-o‘zini tashkil etish umumilmiy nazariyasi — sinergetikaning tadqiqot predmetini tashkil qiladi.

Falsafa metodlari. Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog‘liq. Turli aniq vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo‘lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar hakiqatini

anglashda umumiy yo‘lni ko‘rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar obyektning qonuniyatlarini o‘rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo‘lsa, falsafiy metodlar shu obyektlarda namoyon bo‘ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat, taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aynan shu o‘rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod obyektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo‘lsa, ikkinchisi metafizikadir. Birok, falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik (hozirgi zamon analitikfalsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunishi) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro‘y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat kiladi).

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko‘p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa subyektiv omlllarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur fanlarda oddiy (dalillar va hodisalar chetdan turib kayd etiladi) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib (bunda tadqiqotchi ma’lum ijtimoiy muhitga qo‘shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichidan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o‘z-o‘zini kuzatish (introspeksiya) va empatiya (boshka odamlarning ruxiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi - sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi. Etnometodologiya ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g‘oyalari bilan to‘ldirilshi nazarda tutadi. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kul’turologiyada tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar ular ijtimoiy tashkil etish va jamiyatni boshqarishni oqilonalashtirishning yangi shakllarini amalga tatbiq etishga ko‘maklashmoqda. Ijtimoiy eksperiment obyekti odamlarning ma’lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo‘lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi,

tadqiqotchi esa o‘zi o‘rganayotgan vaziyatga bevosita qo‘shiladi. Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va tamoyillarga qat’iy rioya etishni talab qiladi. Bu yerda (tibbiyotda bo‘lgani singari) «ziyon yetkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo‘lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati. Shakllantiruvchi eksperimentda muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o‘tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo‘yiladi va unga ma’lum masalalarni hal qilish taklif etiladi. Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada qo‘llaniladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumiy ilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog‘liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi. Ideografik metod- alohida tarixiy dalillar va hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflash.

Dialog (savol-javob metodi) – ikki va undan ortiq kishilar orasidagi muloqot. Hujjatlarini tahlil qilish – son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent- analiz). So‘rovlar o‘tkazish- maxsus tayyorlangan savollar yordamida u yoki bu masalaga oid ijtimoiy fikrini anglash, (yuzma – yuz) so‘rov (intervyu) yoki sirtidan (so‘rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so‘rov o‘tkazish, ommaviy va maxsus so‘rovlar farqlanadi. Maxsus so‘rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi. So‘rovnomada tadqiqot maqsadlari va faraziga muvofiq ma’lumot olish uchun zarur savollar turkumini o‘z ichiga olgan anketani ishlab chiqishga alohida e’tibor beriladi. So‘rovnomada maqsad asosli bo‘lishi; savollar tushunarli va ziddiyatli tuzilmagan bo‘lishi; respondentga (javob beruvchida) salbiy ma’sir ko‘rsatmasligi lozim. Savollar yopiq yoki ochiq shaklda berilishi mumkin. Anketada javob variantlarining to‘liq to‘plami berilgan savol yopiq savol deb ataladi. So‘rovdan o‘tayotgan shaxs uning fikriga mos variantni belgilab qo‘yadi, xolos. Bu holda ochiq savollardan foydalaniladi. Ochiq savolga javob bera turib, javob berayotgan odam faqat o‘z tasavvuriga tayanadi, bunday javob nisbatan ko‘proq individuallashgan hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan hodisa, jarayon to‘g‘risida ishonchli ma’lumot olishi uchun barcha kontingentni so‘rovga jalb etish shart emas, chunki tadqiqot obyekti miqdor jihatidan juda katta bo‘lishi mumkin. Tadqiqot obyekti bir necha yuz kishidan ko‘p bo‘lganidan tanlab so‘rovnoma o‘tkaziladi. Yozma so‘rov – anketlashtirish. Uning asosida avvaldan ishlab chiqilgan savolnoma (anketa) yotadi, respondentlarning (so‘rovdan o‘tayotganlar) barcha savollarga javoblari izlanayotgan empirik axborotni tashkil etishi kerak.

Proyektiv metodlar (psixologiyaga xos) - insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bevosita o‘rganish usuli.

Testlash (psixologiya va pedagogikada)-standartlashtirilgan topshiriqlar bo‘lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o‘lchash imkonini beradi. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi-intellekt testlari (mashhur koeffitsiyentda) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Shuningdek, testlarning blankali, uskunali (masalan, komp’yuterda) va amaliy turlari farqlanadi; shuningdek, individual va guruhli uslublari qo‘llanadi. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g‘irrom tadqiqotchining qo‘lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Sotsiometriya metodlari - ijtimoiy hodisalarni o‘rganishda matematika vositalaridan foydalanishdir. Undan ko‘pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishda foydalaniladi.

Hozirgi zamon metodologiyasi. «Kumatoid», «case studies», «abduksiya» tushunchalari an’anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o‘ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo yangi tushunchalarni kiritish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog‘liq, Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo‘lgan «bifurkatsiya», «fluktuatsiya», «dissipatsiya», «attraktor» tushunchalarini, shuningdek, «kumatoid»

(yunoncha-to'lqin) degan innovatsion tushunchani kiritish mumkin.

Kumatoid - suzayotgan obyektni anglatadi va obyektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo'lishi, shuningdek yo'qolishi, parchalanishi mumkin. U o'zining barcha elementlarini birdaniga emas, balki o'ziga xos «hissiy-o'ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli obyekt - o'zbek xalqini ma'lum vaqt, makon bo'lagida ifoda etish va mahalliylashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, obyektni yaxlit ifoda etish uchun o'zbek xalqining barcha vakillarini yig'ish mumkin emas. Shu bilan birga, mazkur obyekt soxta emas realdir. Uni kuzatish, o'rganish mumkin. U butun sivilizatsion-tarixiy jarayonning yo'nalishini ko'p jixatdan belgilab beradi. Yana bir misol - talabalar guruhi. U dam paydo bo'ladigan, dam ko'zdan yo'qoladigan suzuvchi obyekt sifatida o'zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit obyekt sifatida mavjud bo'lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma'lum vaziyatlar (guruhraqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u obyekt sifatida namoyon bo'ladi va o'z- o'zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashkari, mazkur kumatoid guruh, a'zolari o'rtasidagi do'stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Kumatoidning o'ziga xos xususiyati shundaki, u vaqt va makonda maxdshgaylashishga befarq bo'libgina qolmay, substrat-o'zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog'lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo'nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog'liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma'lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to'plami bilan aniq identifikatsiya kilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi obyektlar- kumatoidlar bilan to'lib-toshgan.

«Case studies», ya'ni vaziyatli tadqiqotlar o'tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o'tkazishda fanlararo tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasiga tayaniladi,

ammo individual subyektlarni, mahalliy,guruhiy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o'rganish nazarda tutiladi. «Case studies» atamasi pretsedentning, ya'ni kuzatish ostida bo'lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig'maydigan individuallashtirilgan obyektning mavjudligini aks ettiradi. Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantiantlar Baden maktabining idiografik metodi bilan boglik.

Hozirgi zamon metodologiyasi o'z an'anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tushunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o'tganligi uchun tanqid qilinadi.

Abduksiya fikr yuritish orqali empirik dalillardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi. Bunday fikr yuritish turmutssha va amaliyotda ko'p uchraydi. Dar bir inson tushuntirish yo'llarini izlashga beixtiyor abduksiyaga murojaat etadi. Masalan, shifokor kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi shuningdek, olim ham sodir bo'layotgan hodisani tushuntirishda abduksiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induksiya va deduksiya singari mashhur, keng e'tirof etilgan bo'lmasa ham, u yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol' o'ynaydi. Evristika yunoncha heurisko-topaman, kashf etaman, degan so'zdan kelib chiqqan. «Evristika» atamasining qo'llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bllan bog'lanadi. Bu nuqtai nazardan evristika matematika masalalarini yechishni o'rganishni istaganlarga mo'ljallangan qoidalarning maxsus to'plami sifatida namoyon bo'ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat'iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evristikani kashfiyotlar to'g'risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san'ati» g'oyasi amalga oshmadi, B. Spinoza to'g'ri metod oqilona tanlashni ta'minlashi, noma'lumni bilish qoidalariga ega bo'lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo'lsada, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi.

Muayyan ilmiy bilimdagi barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evristika g'oyasini to'ldiradi. Shuning uchun ham evristika ba'zan qayg'urish, ilhomlanish, insayt bilan bog'lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evristikaga ko'pincha yetarli darajada anglab bo'lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo'lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evristik metodlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Barcha mumkin bo'lgan hollarda evristikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma'lum bo'lmagan yangilikni yaratish kutiladi.

Ko'pincha «evristika» tushunchasini tafakkurga bog'lab, «evristik tafakkur» tarzida qo'llaniladi. Aytish mumkinki, bunday hollarning barchasida tafakkurning yaratuvchi funksiyasi to'g'risida so'z yuritiladi. Farb falsafasida evristik tafakkurni tushuntirishga harakat qiluvchi nazariyalarning uch turkumi farqlanadi: «tinch oqar suv» yoki o'rtacha hisobga keltirilgan mehnat nazariyasi; blitskrig yoki insayt nazariyasi; yaxshi kopkon yoki oqilona metodologik koida nazariyasi.

Evristika metodologiyaning bo'limi sifatida hali rasman e'tirof etilgani yo'q. Ammo o'z-o'zidan ayonki, ilmiy bilimning har bir sohasida u eng tez, samarali va o'ziga xos yechim topishning strategiyasi hisoblanadi, evristik usul va qoidalar noan'anaviy yo'llarni izlash, ulardan foydalanishga turtki beradi. Evristika fanlararo xususiyatga egaligi mazkur sohaning o'ziga xos belgisidir. Ammo evristik xususiyat fan ichidagi bilimda ham mavjud. Evristik sezgi ilmiy izlanishning deyarli har bir qadamiga hamroh bo'ladi. Reduksiya, metodlarini o'zlashtirish, gumanitar va texnika fanlarining usullarini birlashtirish, muayyan ilmiy ishlovlarni amalga tatbiq etishni tanlash, hal qiluvchi eksperimentning o'zi ma'lum darajada evristik farazlarga asoslanadi.

Evristika ilmiy va noilmiy bilim, oqilonalik va nooqilonalik o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. U xulq-atvor taktikasini tanlashga va rivojlanish jarayonida to'g'ri yo'l topishga ko'maklashadi. Ilmiy tavakkalchilik mezoni sifatida evristika ilmiy bilimni rivojlantirishning tarkibiy kismi sifatida hamisha olqishlangan, dunyoning postnoklassik manzarasida esa

nazariyaning evristik xususiyati bilim berish jarayonini o‘zgartirish, uni ijodiy, muammoli, o‘yin tarzida o‘tkazish imkonini beradigan ilmiy bilim mezoni darajasiga ko‘tarildi.

Evristika sirlariga yaqinlashigiga bo‘lgan eng so‘nggi urinigilardan A.F.Osbornning «miyaga hujumi»ni qayd etish mumkin. Unda kashfiyotchilikning o‘rindoshlik,o‘tkazish, birlashtirish va ajratish bilan bog‘liq an’anaviy usullari bilan bir qatorda, xayolni rag‘batlantiruvchi usullar: tig‘iz muddatlar tizimi, muammoni tanqidsiz vaziyatda erkin muhokama qilish, tortishuvlik muhitini yaratish, shuningdek, u shu zail taxminlar qilish qayd etiladi. Ammo, evristika yo‘nalishining vakili D.Poyya ilgari surgan ijodning (yoki muammolarni samarali hal qilishning) muqarrar tarzda amal qiladigan qoidalarini ishlab chiqish amalga oshirib bo‘lmaydigan vazifa, degan g‘oyasi yanada an’anaviyroq hisoblanadi.

Darhaqiqat, evristika o‘ziga xos metodologiya, ya’ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma’lum talablar qo‘yadi:

- u oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi;
- qo‘llaniluvchi usullar an’anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan jiddiy farq qilishi mumkin;
- usullardan foydalanishga tadqiqot ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko‘rsatadi;
- izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo‘lib, bilish subyektining ruhiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Falsafa tarixidan ma’lumki, Gegel o‘zining falsafasida taraqqiyot g‘oyasini ilgari surish bilan dialektika uslubiga asos soldi. Dialektika so‘zi qadimgi grek so‘zidan olingan bo‘lib, dialektika- «dialegomay» yoki tortishuv, munozara ma’nosini anglatadi.

Bu so‘z birinchi marta qadimgi grek faylasuflari Sokrat va Platon tomonidan qo‘llanila boshlandi. Qadimgi grek faylasuflari haqiqatni bilish, ziddiyatlarini yechish, munozara san’ati, mahorati bilan amalga oshadi, deb tushuntirganlar. Haqiqat mazmuni fikrlarning bir-biriga qarama-qarshi kelishi asosida hosil bo‘ladi. Jumladan, Platon dialektikani mohiyatini so‘rash san`ati va unga aniq javob berish mahoratidir, deb ko‘rsatdi. Tortishuvlarni mulohaza

qilish va yechish tafakkur qilish dialektikasi bo'lib, u subyekt dialektikasidir. Shu mulohazalarning o'zi tafakkur rivojlanishiga olib keladi.

Olam rang-barang. Ziddiyatli. Eskilik va yangilik o'rtasida kurash uzluksiz. Aloqadorlik va bog'lanishlar, o'zaro ta'sir natijasida tabiat va ijtimoiy hayotning tinimsiz harakati davom etadi. Bularning barchasi dialektik jarayonlardir. Dialektikada mujassamlashgandir. Shu sababli, falsafa dialektikasiz, dialektika falsafasiz yashay olmaydi. Dialektika va uning kategoriya hamda qonunlari falsafaning mohiyatlni tashkil qiladi. Demak, olamni tushunish dialektik mushohadasiz, uslubisiz amalga oshmaydi.

Predmet va hodisalarni to'g'ri baholash dialektik yondoshuvga bog'liq. Hayotning o'zi munozarali jarayondan iboratki, bu jarayonlarni absolyut ma'noda yo'q qilib bo'lmaydi. quyidagi juft tushunchalarga e'tiborni qaratsak uning guvohi bo'lamiz. Gul oshnosi xorlik, ganj va ranj, aysh va g'am, rohat va zahmat, ochlik va to'qlik, issiqlik va sovuqlik, tiriklik va notiriklik, muloyimlik va badjahllik, botirlik va qo'rqoqlik, o'g'rilik va to'g'rilik, tinchlik va notinchlik, erkaklik va ayollik, cho'l va bog', shodlik va qayg'ulik, balandlik va pastlik, kulgi va yig'i, e'tiqodlilik va e'tiqodsizlik, axloqlilik va axloqsizlik, boylik va kambag'allik, shirinlik va achchiqlik, ba'manilik va be'manilik, oqibatlilik va oqibatsizlik, yovuzlik va ezgulik, go'zallik va xunuklik kabilar. Buningdek hayotiy qarama-qarshi tomonlarni yuzlab, minglab keltirish, mumkin. Bu inson va tabiat qirralarini qamrab olgan tushunchalar. Keltirilgan misollarning o'zi dialektik jarayonning abadiy ekanligidan dalolatdir. Zero, ba'zi «mutasaddilar»ning dialektika bu soxta, bir xayoldir. U vaqtinchalik jarayon, deb alahsirashlariga qarshi keltirilgan fikrlardir. Hayotda ushbu jarayonlarni yo'q qilib bo'lmaganidek, aynan shu sohalarni umumlashtirib tartibga solib beruvchi dialektikani ham yo'q qilib bo'lmaydi.

Dialektika tushunchasining lug'aviy ma'nosining o'ziyoq ko'p narsa qamrab olinganligi haqida xabar beradi. Ya'ni, dialektika deganda bahslashish san'ati, munozara yuritish, muhokama qilish kabilar tushuniladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, ana shu xislatlar orqali obyektlar bilib olinadi, obyektlar haqida xulosalar qilinadi, haqiqatga erishiladi. Shu sababli ham dialektikani obyektiv olamni

bilish uslubi, deb e'tirof etib keldilar. Shunday bo'lib qoladi ham. Sababi, tabiat, jamiyat, inson tafakkuridagi qarama-qarshiliklar yoki yangilik bilan eskilik, regres va progres, bilishlik va bilmaslik, oddiydan murakkablikka qarab borishlar hayotdagi mutloq ro'y beradigan jarayonlardir. Holbuki, bu jarayonlarning o'zi dialektikadan dalolatdir. Demak, dialektika ham ma'lum ma'noda, mutloq tavsifga ega. Bu tavsifni yo'q qilishning o'zi mumkin emas. Ammo davrlar o'tishi bilan bu holatdagi tushunishni yo'q qilmasdan, aynan shu dialektikaga suyangan holda boshqacharoq shakldan foydalanish mumkin bo'lar.

Binobarin, yuqorida aytilganidek, ba'zi «zamonaviy» faylasuflar zamonaviy dialektikadan ba'zi-ba'zida voz kechishni tavsiya etadilar. Boz ustiga, XIX asrda yashab ijod etgan, faqat materialistik dialektikaga asoslangan Marks va Engelsni dastak qiladilar. Holbuki, dialektika haqida qadimdan, ya'ni Geraklitdan tortib hozirgi davrga qadar bo'lgan minglab olimlar (idealistik, dualistik, metafizik, sofistik bo'lishidan qat'i nazar) fikr yuritib, ular qaysi yo'nalishda bo'lmasinlar uni asoslashga intilib kelganlar. Zero, dialektikaga faqat K. Marks yoki F. Engelsgina izoh bergan emas. Bu bilan biz Marks va Engelsni falsafada aybsiz demoqchi emasmiz, ular dialektikani mubolag'alashtirdilar. Ba'zida unga keraksiz mazmun va mohiyatni bag'ishladilar. Bu aniq. Chunonchi, ular dialektikadan qanday maqsadlarda foydalanganligini chuqurroq va atroflicha tahlil qilib, obyektiv baho bermoq zarur. Bu maqsadda xorijiy adabiyotlarni varaqlar ekanmiz, ana shunday holatlarga duch kelamizki, ba'zida ulardan o'rnak olmoq foydadan xoli bo'lmaydi.

Ta'kidlash lozimki, dialektik munosabatni to'g'ri tushunish uchun, unga ilmiylik nuqtai nazardan yondoshmoq zarur. Dialektikani e'tirof etish to'satdan paydo bo'lmagan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, dialektikaning mohiyati va mazmuni asrlar davomida shakllangan. Insoniyat, jamiyat, fanlar faoliyati ta'sirida paydo bo'lgan. Shunday ekan, har bir predmet va hodisaga dialektik yondoshishda ilmiy jihatga (qaysi yo'nalish bo'lishidan qat'iy nazar) e'tibor berish lozim. Masalan, biror-bir metallga baho berish uchun undagi juda ko'p qirralar: chidamliligi, solishtirma og'irligi, erish harorati, rangi va boshqa jihatlari bor. Metallni baholashda xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun ana shu jihatlar baholovchi ko'z

o‘ngida bo‘lmasa, u mudom xatoga yo‘l qo‘yaveradi. Yoki boshqa misol: insonlar faoliyatida, biror oilaga baho berishdek murakkab, lekin sharafli, ma’rifiy-ma’naviy vazifa turadi. Bunga ham dialektik yondoshish ayni muddaodir. Oilani yaxshi va yomon deyish uchun avvalo, oilaning tarixiy shajarasi, oila a’zolarining ma’naviy hislatlari, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga rioya qilishi, oilaning iqtisodiy holati, farzandlar tarbiyasi, jamoatchilikka munosabati mahallada tutgan o‘rni, oila a’zolarining kasb-kori, bilimdonligi, siyosiy, huquqiy jihatlariga munosabati haqida, e’tiqodi va yana boshqa o‘nlab jihatlarini bilgandan so‘ng ijobiy yoki salbiy baho berish mumkin. Bu oilaga nisbatan dialektik yondoshish, oilani yaqindan bilish va h.k.

Hozirgi davrda tabiat dialektikasi haqida ancha bilim to‘plangan. Ayniqsa, XIX asrning oxiri va XX asr davomida tabiatning kichik zarrachalari haqida fizika, ximiya, biologiya fanlari bergan ma’lumotlar fikrimizning dalilidir. Boshqacha aytganda, tabiatni dialektik tushunish jamiyatni dialektik tushunishga qaraganda ancha ilgarilab ketdi. Jamiyatning taraqqiyotini dialektik, falsafiy tushunish endilikda ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi. Ro‘y berayotgan hodisalar jarayoni dialektika oldiga murakkab vazifalarni qo‘ymoqdaki, ularni tahlil qilishda dialektik yondoshuvsiz ilmiy nazariyalar yaratish qiyin. XX asr oxiriga kelib, mamlakatlar rivojida goh salbiy, goh ijobiy siljishlar bo‘ldiki, bularga falsafiy yondoshuv zaruratga aylandi. Jumladan, fan-texnika taraqqiyotining inson ruhiyatiga ta’siri, energetik muammolar, formatsiyalar qarama-qarshiligi, xristianlar bilan musulmonlar o‘rtasidagi munosabatlar, spid va shu kabi boshqa kasalliklar paydo bo‘lishi, ba’zi mamlakatlarda genotsidga yo‘l qo‘yilishi, terrorizmning keng quloch yoyishi, ba’zi mamlakatlarda yadro qurolining qirg‘in keltirishi mumkinligini bilgan holda u bilan qurollanishga harakat qilinishi va boshqa jarayonlarning paydo bo‘lishi falsafiy tafakkurni zamon talablariga javob beradigan darajada rivojlantirishni talab etayotir. Falsafiy tafakkur esa dialektik mushohada bilan bog‘liqdir. Shu sababli ham dialektikaga bo‘lgan munosabatni oydinlashtirish zarur. Ya’ni undan yuqorida eslatilgan jarayonlar mohiyatini tahlil qilishda foydalanish davr talabidir. To‘g‘ri, bu jarayonlarni tahlil qilishda

mutloq haqiqatga erishish murakkab bo'lishiga qaramay, ammo nisbiy haqiqatga erishish mumkin.

Jamiyatdagi salbiy yoki ijobiy hodisalarni tahlil qilib, ma'lum bir xulosaga kelishda falsafiy tafakkur yordam beradi. Zero, falsafaning asosiy vazifalaridan biri ham shudir. Dialektik uslub ta'sirida falsafa o'z funksiyasini bajara oladi. Xolisona baholaydigan bo'lsak, dialektikaning muqobillari (ular ham falsafa rivojiga ulkan hissa qo'shgan bo'lsa ham)metafizika, sofistika, dualistika, eklektika, dogmatika, sinergetikaning ham olamni tasniflashida o'z o'rni bo'lsada, istaymizmi, istamaymizmi, ularda qisman biryoqlamalik seziladi. Ya'ni, ba'zi kamchiliklardan xoli emas. Dunyo faylasuflari ta'limotlariga diqqat bilan qarab, deyarli barchasida, qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar, dialektika haqida fikr yuritishiga guvoh bo'lamiz. Dialektikaning ijobiy tomonlarini madh etadilar. Dialektika o'z mohiyati, mazmuni, shakli, imkoniyati, zarurligi jihatidan eng umumiydir. Tabiat, jamiyatdagi dialektik jarayon mutloqdir. Dialektik jarayondan foydalanib, insonlar haqiqatga erishadilar. Dialektika haqiqatga yetaklaydi. Haqiqat esa qarama-qarshi tomonlarni hamda turli jarayonlar faoliyatini muhokama qilish orqali namoyon bo'ladi.

Dialektika shunday bir san'at asosidirki, u tabiat, jamiyat, inson haqidagi bilimlarni o'tkirlashtiradi. Predmet va hodisalarni o'rganishda ularning o'zgarishida, barqarorligida, tinimsiz harakatda ekanligini isbotlashga yordam beradi. Tabiatdagi bahor, yoz, kuz, qish fasllari o'zgarib turganidek, dialektikada ham fikrlar almashinib turadi. Bu almashinish jarayonida qotib qolgan fikrning o'zi bo'lmaydi. Fikrlarning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan yangi jarayon, kelgusi jarayonni keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, buyuk faylasuf Georg Gegel o'zining falsafiy sistemasini tuzishga harakat qilganda, o'zaro ta'sirni shartli ravishda: tezis-antitezis-sintez deb belgilaganda ham dialektik jarayondan foydalangan. Dialektika orqali o'z falsafa sistemasi mohiyatini ochib bergan. O'zaro ta'sir yordamida ziddiyatlar borligi va ularning yechilishi, o'zgarishlar mavjudligi va ularning doimiyligi, oddiylikdan murakkablikka, pastdan yuqoriga qarab chiqishni, bilmaslikdan bilishlikka intilishni, mohiyat va mazmunini ta'riflagan. Har tomonlilikni, ko'p qirralilikni (tabiat, jamiyat, inson tafakkurida)

bir kishi tomonidan ochib bo'lmaydi, albatta. Aniqrog'i, bu jihat bitta inson faoliyati bilanemas, balki ko'pchilik faoliyati yordamida ochiladi.

Muammolarni yechishga qarab olamni tushuntirishning dialektika kabi uslublaridan tashqari yuqorida ta'kidlanganidek, yana: metafizik eklektik, sofistik, sinergetik uslub va boshqalari ham bor.

Metafizik qarash tarafdorlarining fikricha, narsa va hodisalar bir-biri bilan aloqada emas. O'zgarish va rivojlanish oddiy ko'payish va ozayishdan iboratdir. Metafiziklar rivojlanishni narsalarning bir-biriga tashqi ta'sir etishidan ko'radilar. Olam to'g'risidagi dialektik va metafizik uslublar ijtimoiy-siyosiy kurash, tabiiy–ijtimoiy fanlarning rivojlanishi natijasidir. Dialektik va metafizik qarashlarni materialistlar va idealistlar ham rivojlantiradilar.

«Metafizika» yunoncha so'z bo'lib, «metafizika» - bu fizikadan keyin, tabiat to'g'risidagi fan demakdir.

Falsafada bu so'zni Andronik Rodosskiy, so'ngroq Aristotel ishlatganlar. Ular o'z asarlarini yaratar ekanlar, tabiat hodisalari aniq, fizik dunyo nisbiy, oquvchidir, doimiy hech narsa yo'q, deb tushuntirgan edilar. Andronik Radosskiy tabiat to'g'risidagi fanni "fizika" deb ataydi. Aristotel– "Metafizika" asarini yozdi. Bu asarda borliqning umumiy tomonlari va bilish hamda xudo to'g'risida, ruhning o'lmasligi, irodaning erkinligi to'g'risida fikrlar fizikadan, tabiatdan keyin hosil bo'ladi, deb tushuntirildi. Gegel esa metafizika so'zini dialektikaga qarshi ishlatdi.

Bu qarashlardan tashqari eklektik (tanlayman) uslubi mavjud. Ekletika–narsalarning asosiy aloqa va tomonlarini ajratmay ularning turli–tuman bog'lanishlarini tartibsiz ravishda aralashtirib yuboradi. Ekletika so'zi yunoncha so'z bo'lib– tanlayman demakdir.

Sofistika yunon so'zidan olingan bo'lib-donishmand, ustoz degan ma'noni anglatadi. Sofistika-muayyan bir davrdagi hodisa va voqealarning uzviy bog'lanishligini va ularning rivojlanish qonuniyatlarini boshqa bir sifatdagi hodisa va voqealarga bog'lab uzib olgan holda tadbiq etadigan yo'nalishdir.

Determinizm konsepsiyasi keng ma'noda barcha predmet va hodisalarni qonuniyatlar yordamida sababiy jarayonlarini izohlab beradigan oqim. Indeterminizm esa barcha predmet va hodisalarni

sababiy boglanishlari qonuniyatlar asosida ro'y berishiga shubha bilan qarovchilar oqimidir. Predmet va hodisalarning paydo bo'lishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi doimiy bo'lib ular biror sabab orqali amalga oshadi. O'zaro ta'sir kelib chiqadi. Ushbu o'zaro ta'sirlar determinatsiyalanish jarayonida amalga oshadi. Ya'ni predmet va hodisalardagi harakatlarni barchasi bir vaqtni o'zida amalga oshmaydi. Ulardan ma'lum bir qismlar va hodisalargina yangi predmet va hodisalarni kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Bu ham qonuniyatdir. Determinatsiya ana shu ba'zi qismlar yordamida tubdan yangi qismlarni kelib chiqishini ifodalaydi.

Determinizm oqimlaridan biri bu mexanistik determinizm oqimi bo'lib, ular aynan predmet va hodisalardagi umumiy o'zaro ta'sirnigina e'tirof etadilar. Predmet va hodisalardagi alohida alohida ro'y beradigan tomonlarni inkor etadilar. Masalan, daraxtlar quyosh nuridan bahramand bo'lib o'sadilar. Bu umumiy ta'sir. Lekin daraxtlarni rivojlanishi uchun boshqa sababiyatlar ham bor, chunonchi, yer, yerdagi elementlar, suv, namlik va boshqalar. Bularning bo'lishi bir tomondan zaruriy bo'lsa ikkinchi tomondan sababiyatdir. Bular birlashib sababiy qonuniyatni keltirib chiqaradi. Bu holatlar falsafada determinatsiyani tashkil etadi. Aniqrog'i mexanik determinatsiya, bu tashqi ta'surot natijasida holat o'zgaradi deb tushuntiradi. Ular predmet va hodisalardagi ichki va turli tuman zaruriy ehtiyojlarni yuzaki tushuntirganlar. Aslida esa yangiliklarni paydo bo'lishi qat'iy va biryoqlamalik natijasida emas, balki son sanoqsiz muhit va sharoitlar yordamida hosil bo'ladi. Bu jarayonlarni ilmiy hal etish, tabiat va jamiyat qonunlarini to'g'ri tushunishga olib keladi. Boshqacha aytganda, determinizm bu metodologiyadir.

Determinizm tamoyilini tabiat, jamiyat hodisalarini mohiyat va mazmunini bilishga jalb etish turli kamchiliklardan saqlaydi. Har bir predmet va hodisada ichki va tashqi hamda zaruriy bog'lanish qonuniyatlarini bilmasdan turib to'la bilimga ega bo'la olmaymiz. Determinizmni qo'llash yordamida predmet va hodisa haqida to'laroq bilimga ega bo'lamiz. Shu sababli ham, ehtimoilik, statistik, bir yoqlamalik, qat'iylik determinatsiyalarini bir biridan farq qilish zarur. Masalan, statistik determinatsiyalanish bu katta qismdagi miqdoriy jihatlarni birlashishi natijasidir. Determinatsiyalanish jarayoni juda ko'p jihatlarni qamrab oladi. Jumladan predmet va

hodisalarning imkoniyatlari, mazmun va shakli mohiyati, zaruriy, tasodifiy tomonlar birlashmasi determinatsiyalanish ya'ni jipslashgan holda yangilikni keltirib chiqarmaydi. Demak, rivojlanish va taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Falsafa fanidagi dialektika, metafizika, determinizm, indeterminizm, relyativizm va sinergetik ta'limotlarning barchasi ham insonning olamni bilishdagi uslubiy qurollaridir. Bu uslublarni har birini falsafada o'z o'rni bo'lib, ularni hayotda qo'llash natijasida olam, tabiat, inson va jamiyatlarni sir asrorlari o'rganib kelindi. Bu uslublardan biri sinergetik uslubdir.

Sinergetika ta'limoti falsafa fanida nisbatan yangi uslub bo'lib, bu uslub ham tabiat, jamiyat, inson tafakkuridagi jarayonlarni tahlil etib o'ziming xulosalarini beradi. Uning mazmun va mohiyati predmet va hodisalarining o'z-o'zini tashkil etish, "tartibsizlikdan tartibni" kelib chiqishi hamda hozirgi zamon voqealari bilan bog'lanuvchi g'oyalarni ifoda etadigan ta'limotdir. Sinergetikaning asoschisi Nobel' mukofotining sovrindori Il'ya Prigojin (1917-yilda tug'ilgan) bo'lib u o'zining "Порядок из хаоса" nomli asari bilan ko'p millionli o'quvchilarga ma'lum. Mazkur olimning fikricha olamni zamonaviylik nuqtai nazaridan tahlil payti kelgan. Jumladan moddiy va ma'naviy borliq haqida ularning turli bosqichlarida o'zini o'zi tashkil etish, borliqdagi mikro-makro-megaolamlarning taraqqiyot qonunlarining o'zaro yaqin va umumiysiga, barcha o'zgarishlarni tekis emasligi, taraqqiyotning ko'p variantliligi va ba'zilarini orqaga qaytmasligi, xaos va taqibning hamda tasodif va zaruriyatning o'zaro aloqasi haqida fikrlari olamni zamonaviy tushunishga qaratilgan. Olamning sinergetik holatida o'zgaruvchi jarayonlarni vazifalarining sintezi paydo bo'ladi. Tizimdagi beqarorliklar, chekinishlar, siljishlar fazo va vaqtda paydo bo'ladi. Bu namoyon bo'lish tartibsiz-beqarordir. Sinergetika ta'limoti bo'yicha olamning taraqqiyoti bir yo'ldan emas, nochiziq holda tasodiflarga, turli yo'nalishlarga, tarmoqlanishga, har xil variantlarga ega. Nisbatan barqaror sistemalar (tuzilmalar) beqarordir. Ular doimiy ravishda tartibsizlikdan kelib chiqadi, o'zi o'zini tuzadi, shakllantiradi. Ayni paytda yo'naltirilgan va qaytmas o'zgarishlarni paydo qiladi. Ba'zida o'ladi, ba'zida rivojlanadi. Narsa va

hodisalarning barqaror bo‘lishi tartibsizlikdan tartiblilikka o‘tish universaldir, har yoqlamalik natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, sinergetika ta’limoti tartibsizlik va tartibning, beqarorlik va barqarorlikning antalogik qonuniyatlarini o‘rgatadi. Bu qonuniyatlarni bilish, idrok qilish muvaffaqiyatlar garovidir. Hayot mavjud ekan, dunyoning tashkil topishini, bu dunyoda har bir hodisaning vujudga kelishini, yashirin sirlarni haqiqiy faoliyatini o‘rganishni ham kim istamaydi deysiz. Bunga sinergetika uslubi yordam beradi.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Shakllanish, o‘zgarish va rivojlanish tushunchalari.

Tabiat va jamiyatdagi har qanday hodisa yoki predmet o‘z–o‘zidan kelib chiqmaydi. Sirtdan qaraganda moddiy olamdagi predmet va hodisalar go‘yo har biri alohida, bir–biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagandek ko‘rinadi. Aslida esa unday emas, aksincha, har bir predmet yoki hodisa son - sanoqsiz, boshqa hodisalar bilan bog‘liq holda yuz beradi.

Umuman olganda, tabiat va jamiyatdagi predmet va hodisalarning bir-biri bilan alohida munosabatda, o‘zaro bog‘liq ekanligini fan taraqqiyoti, insoniyatning ijtimoiy tarixiy faoliyati isbotlaydi. Bu masalani quyidagi misollar orqali yoritish mumkin. Tabiatdagi jismlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatuvchi butun olam tortishish qonuni yoki materiyaviy eng kichik zarralarning o‘zaro munosabati, tabiatdagi hayvonot olami bilan o‘simliklar olami yoki ularning muhit bilan aloqadorligi, tabiat bilan jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi materiya harakati barcha shakllarining aloqadorligi, har bir insonning o‘sib kamol topishi, boshqa kishilar bilan, muhit bilan bog‘liqligi kabilar. Agar inson borasida gapiradigan bo‘lsak, u oilada, bog‘chada, maktabda, ishlab chiqarishda, jamiyatda yashaydi, ijod qiladi, har tomonlama o‘sib ulg‘ayadi.

Voqelikdagi hamma narsa o‘zaro aloqada va munosabatda, harakatda va rivojlanishda. Bu jarayon obyektivdir (Bu obyektiv dialektika), insonning aqliy in’ikoslari esa taraqqiyot qonunlarini, olamda yuz beradigan hodisalarning ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Dialektiklar insoniyat amaliyoti va ilmiy bilishning natijasi

o‘laroq obyektiv voqelikdagi predmet va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi va taraqqiyoti masalasini chuqurroq talqin qilib berdilar. Ular obyektiv olam hodisalarining aloqadorligi va bog‘liqligi hamda taraqqiyoti masalasini tushuntiribgina qolmay, uni o‘zgartirish, qayta qurish mumkinligini ochib beradi.

Endi biz munosabat, o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir tushunchalari hamda ular haqidagi qarashlarni ko‘rib chiqamiz.

Tabiat, jamiyat va insonlar tafakkurida nisbiy barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi mavjud. Barqarorlik va o‘zgaruvchanlik falsafaning juftiy tushunchalari bo‘lib rivojlanishning ma’lum bir tabiatini o‘zida namoyon qiladi. Barqarorlik narsa va hodisalarning nisbatan tinch, o‘ziga xos muayyanlikni namoyon qilsa, o‘zgaruvchanlik esa narsa va hodisalarning ma’lum bir holatdan, ikkinchi holatga o‘tishidan dalolat beradi. O‘zgaruvchanlik keng ma’nodagi harakat tushunchasini namoyon etadi. Shu jihatdan o‘zgaruvchanlik absolyut xususiyatga ega. O‘zgaruvchanlikni barqarorlikdan mutloq ajratishni bilimlarni shubhaga solib qo‘yadi. O‘z navbatida barqarorlikka katta e’tibor berish ham fikrlarni qotib qolgan holda tushunishga olib keladi. Shu sababli barqarorlikni o‘zgaruvchanlik bilan aloqadorlikda tushunish kerak. Ularda qarama-qarshiliklar bor, ularni o‘z me’yorida ishlatish lozim. Shundagina barqarorlik va o‘zgaruvchanlik metodologik ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Barqarorlik va beqarorlik rivojlanish jarayonida nisbiy harakatlarda bo‘ladi. Rivojlanish deganda kosmik fazodagi galaktikalardagi jarayonlarni, bizni o‘rab turgan jonli tabiatdagi biologik sohalarni o‘zgarishlarini, jamiyatdagi ijtimoiy hayotni – fan, texnika, og‘ir va yengil sanoat, qishloq xo‘jaligidagi yangiliklarni tushunish lozim. Rivojlanish inson, insoniyat tafakkurida ham namoyon bo‘ladi. Demak, rivojlanish faqat moddiy olamda emas ma`naviy ma’rifiy sohalarda ham ro‘y beradi.

Bog‘lanishlarning ko‘rinishlari: vositali va vositasiz, ichki va tashqi, muhim va muhim bo‘lmagan kabilar bo‘lishi mumkin.

Hodisalar bog‘lanishida bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) bog‘lanishini vositali (boshqa narsalar orqali) bog‘lanishdan ajrata bilish kerak. Quldorlik bo‘lmaganida hozirgi kapitalistik tuzum ham bo‘lmas edi. Kapitalizm quldorlik jamiyati bilan tarixiy jihatdan bog‘langan. Lekin

bu feodalizm orqali bog'lanish. Demak, bu vositali bog'lanishdir. Ammo kapitalizm feodalizm bilan bevosita bog'langan.

Tabiat va jamiyat hodisalarini bilishda muhim va muhim bo'lmagan bog'lanishlarni ham ajratish kerak. Bularni bilmaslik yoki aralashtirib yuborish salbiy qarashga olib keladi. Demak, dialektikani tushunmaslik eklektika yoki dogmatizmga olib keladi. Dialektika biron hodisani o'rganish va bilishda uning muhim bog'lanishlarini topishni talab qiladi. Muhim bog'lanish predmet va hodisalarning mazmuni va mohiyatini bilishda ahamiyatga ega. Masalan, o'simlikning o'sishi uchun yorug'lik, suv, issiqlik, mineral o'g'itlar bo'lishi kerak. Zero o'simlik bilan sharoit orasidagi bog'lanish muhim bog'lanishdir. Lekin o'simlik yashayotgan muhitda boshqa moddalar ham bo'lishi mumkin, ammo ular o'simlik uchun muhim emas. Quyosh nuri yerdagi hayot uchun muhim, oy nuri esa muhim emas.

Bog'lanishlarning ichki va tashqi shaklini ham bilish muhim ahamiyatga ega. Ichki bog'liqlik bir butun predmet va hodisalarning ichki sifat va xususiyatlarining aloqadorligini munosabatini ifodalaydi. Tashqi bog'lanish biror predmet yoki hodisaning boshqa predmet va hodisa bilan aloqadorligi, munosabatining ifodasidir. Ichki bog'lanish asosiy, tashqisi esa ikkinchi darajali bog'lanish hisoblanadi. Ichki bog'lanishlar o'zgarishlarga olib keladi. Tashqi bog'lanish esa uni o'zgartirmaydi, lekin predmet va hodisaning o'sishiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi. Masalan, jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatiari orasidagi bog'lanish ichki bog'lanishdir. Bu bog'lanish jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati tashqi bog'lanishdir.

Shunday qilib, olamda turli-tuman bog'lanishlar, munosabatlar mavjud bo'lib, ular o'zaro munosabatda, bog'liqlikda-umumiy bog'lanish va munosabatdadir. Bu bog'lanishlar, demak, bir butun sistemali bog'lanishlardan iborat. Agar olam bir butun tizim desak, bu tizim bir qancha sistemachalardan tashkil topgan. Har bir sistemani tashkil etuvchi elementlari bo'lib, ular bir-biri bilan o'zining tutgan o'rni, vaqti, imkoniyatlariga ko'ra funksional bog'langan. Birining o'zgarishi ikkinchisi bilan bog'langan, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Bu funksional bog'lanishdir. Har bir

tizimni tarixiy holda boshqalar bilan bog'liqlikda, tarixiy konkret tajribaga asoslanib o'rganish talab qilinadi. Lekin murakkab va xilma-xil bog'lanishlar turlarini amaliy jihatdan birdaniga bir vaqtda bilish mumkin emas. Ularni bilish, bir-biridan ajratish, o'zaro bog'liqlikda olib qarash fan va amaliyotda biryoqlamalikka olib kelmaydi.

Obyektiv olamdagi predmet va hodisalar o'rtasidagi sababli bog'lanishlar eng umumiy bog'lanish ifodasidir. Hodisalar zanjirida o'ziga muvofiq keladigan biror natijani keltirib chiqaruvchi hodisa, sabab, kelib chiqqani esa oqibatdir. Sabab ma'lum ta'sir natijasida kelib chiqadi.

Dialektik nuqtai nazardan qaraganda har qanday hodisa o'zining tabiiy sababiga ega. Sababsiz hech qanday hodisa yuz bermaydi. Sabab hodisalarning kellb chiqishini aniqlaydigan genetik bog'lanishdir. Sababning kelib chiqishini ta'minlovchi sharoit oqibatdir. Sabab va oqibat ketma-ket. Bu bog'lanish zaruriyatni ifodalaydi. Dunyo abadiy harakatda, o'zgarish va rivojlanishda. Bu masalani chuqurroq anglash uchun taraqqiyot tushunchasining harakat va o'zgarish tushunchalari bilan o'zaro nisbatini ko'rib chiqamiz.

Dunyoda qotib qolgan, o'zgarmaydigan, rivojlanmaydigan narsa yo'q. Hamma narsa harakatda. Biz harakat materiyaning atributi yashash usuli, deb o'rganamiz. Haqiqatan materiya harakatda, materiya evolyutsiya bilan bog'liq ravishda. Uning turli shakllari mavjudligini ham e'tirof etish zarur. Masalan, neorganik tabiatdan organik tabiatning kelib chiqishi natijasida neorganik tabiat to'xtab qolmagan, u atrof sharoitining o'zgarishiga qarab rivojlanib borgan. Biologik taraqqiyot natijasida jonli organizm olami ham o'zgarib, rivojlanib borgan. Biz biologik jarayon, hayot sharoitlari o'zgarib borishi bilan o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarish, rivojlanishni o'simlik va hayvon turlarining sifat jihatidan murakkablashib borishidan iborat ekanligini bilamiz. Tabiatdagi bu o'zgarish million yillar davomidagi harakatning natijasidir. Hamma narsa o'sish-o'zgarishda degan masalani fan orqali, aniqrog'i, hozirgi zamon tabiatshunoslari tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar yordamida ko'rsatish mumkin. Bu misollar, ya'ni atomdan tortib quyoshgacha, oddiy hujayradan tortib inson

miyasigacha bo‘lgan materiya harakatdadir. Ular qotib qolgan, o‘zgarmas narsalar emas. Atomlar ham o‘zining kimyoviy, fizik xossalariga hamohang ravishda o‘zgarib turadilar. Atomni tashkil etuvchi yadro va elektronlar harakati atom harakatda ekanligini ifodalasa, atom tarkibidagi zarrachalar elektron va yadroni tashkil etuvchi-proton, neytron, pozitronlar ham bir - biri bilan bog‘langan. Bu bog‘lanish ularning harakatda ekanligini ifodalaydi.

Parchalanish, yemirilish, taraqqiyot, o‘zgarish, harakat bir xil mazmunni ifodalovchi tushunchalar emas. Harakat mazmuniga ko‘ra keng tushuncha, u har tomonga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin, bunda o‘zgarish kuzatiladi. Taraqqiyot ham ma’lum yo‘nalishdagi harakat, bu harakat mohiyatiga ko‘ra quyidan yuqoriga qarab, oddiydan murakkabga qarab yo‘naladi. Bu jarayonda biz shunday o‘zgarishni anglashimiz kerakki, eski sifatdan yangi sifatga o‘tish, harakatning oddiy shaklidan murakkab shakliga o‘tishi bo‘lsin. Bu jarayonlar faqatgina qarama-qarshiliklar birligi va kurashi zaminida eski holat o‘rniga undan farq qiluvchi yuqoriroq darajadagi yangi holatning takrorlanishi, eskining o‘rniga yangining kelishi, deb tushunmoq kerak. Demak, taraqqiyot tushunchasi ham keng, ham chuqur mazmunga ega ekan.

Taraqqiyot bu shunday jarayonki u olg‘a qarab boradi. Harakat va o‘zgarish olg‘aga ham, orqaga ham qarab borishi mumkin. Taraqqiyot jarayoni, hamma narsa va hodisaning o‘ziga xos xususiyatiga, aniq sharoitiga, vaqtiga bog‘liq.

Qonun tushunchasi. Qonunlarning turlari. Bazis va lokal qonunlar. Falsafiy qonunlar.

Dialektikaning qonun va kategoriyalari voqea olam hodisalari va predmetlarining taraqqiyot jarayonini bosqichma-bosqich tarixiy mantiqiy bilishning asosidir. Dialektikaning qonun tushunchasi obyektiv olam predmet va hodisalarning bir- biri bilan o‘zaro munosabatlari bog‘lanishlarini bir butun holda ifodalaydi. Demak, biz qonun nima degan savolga javob beramiz. Qonun, bu narsa va hodisalardagi ichki, muhim, umumiy, zaruriy takrorlanadigan barcha bog‘lanishlardir. Qonun haqida fikr yuritganimizda, albatta, zaruriy turg‘un takrorlanuvchi aloqadorlikni, munosabatni ko‘zda tutish

lozim. Predmet va hodisalar orasidagi bog'lanishlar bir-biriga o'xshaydi. Lekin ularning o'ziga xos individual, betakror, tasodifiy xususiyatlari ham bo'ladi, qonun mana shu individual, tasodifiy xususiyatlarni ifodalamaydi, balki har bir narsa va hodisaga xos bo'lgan umumiy, takrorlanuvchi, zaruriy munosabat va bog'lanishlarni ifodalaydi. Qonun hodisa va bog'lanishlar ma'lum voqealarning ma'lum sharoitida, qat'iy, shubhasiz sodir bo'lishini belgilaydi. Masalan, kunning tun bilan almashinuvi qonuniy xarakterga ega, chunki yerning o'z o'qi atrofida aylanib turishi kunning tun bilan almashinuviga olib keladi. yer o'z o'qi atrofida harakat qilmaganda, bu hodisa zaruriyat tariqasida bo'lmas edi. Endi qonunning asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Qonunlar asosan: xususiy, umumiy, eng umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Xususiy qonunlar alohida fanlarga taalluqli bo'lsa, umumiy qonunlar bir necha fanlar tarkibida o'rganiladi. Eng umumiy qonunlar esa falsafiy qonunlar bo'lib, ular tabiatda ham, jamiyatda ham, inson tafakkurida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan eng umumiy qonunlar sirasiga kiradi.

Dialektika tabiat va jamiyat obyektiv qonunlarga tayanishni ko'rsatadi. Demak, tabiat va jamiyat obyektiv qonunlar asosda rivojlanadi.

Qonun kishilarning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshadigan obyektiv jarayonlarning irodasidir. Inson qonunlarni bilib olishi, ulardan o'z manfaati uchun foydalanishi mumkin. Inson obyektiv qonunlarni yarata olmaydi. Shunday qilib, tabiat va jamiyatning har qanday qonuni uchta muhim xususiyati bilan tavsiflanadi. Buni J. Tulenov shunday izohlaydi: a) qonun obyektiv asosga ega bo'lib, muhim, zaruriy, umumiy bir qator munosabatlarni ifodalaydi; b) qonunning muhim alohida xususiyati shuki, u voqealar rivojlanishi qat'iy muayyan yo'nalishi oqibatida vujudga keladi; v) qonun ma'lum shart-sharoitlarda namoyon bo'ladi.

Bu uch holatni hisobga olgan holda qonunga quyidagicha ta'rif beriladi: qonun muayyan shart- sharoitda voqealar rivojining xarakteri va yo'nalishini belgilaydigan ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy, barqaror munosabatlar ifodasidir. Bu o'rinda nemis faylasufi Kantning fikri ham xarakterli. Uning fikricha,

inson qonun tushunchasini tabiat va jamiyatdagi umumiy munosabatlarni bilish asosida yuzaga keltirmaydi, balki uni tabiat va jamiyatga o'zi kiritadi. Demak, uning fikricha, inson va uning tushunchasi bo'lmasa tabiat va jamiyatdagi zaruriy, qonuniy bog'lanishlar ham bo'lmaydi. Maxizm vakili Pirson shunday deydi: «Fan qonunlari tashqi olam bo'lishidan ko'ra ko'proq, inson aqlining mahsulidir. Inson tabiat va qonun yaratuvchisidir. U tabiatga qonunlarni yaratib beradi». Ba'zi hozirgi zamon faylasuflari ham tabiat va jamiyat qonunlarining obyektiv xarakterini inkor qiladilar. Jumladan, tabiatshunos olimlar N. Bor, V. Geyzenberglar qonuniy bog'lanishlar faqat makro dunyodagina mavjud emas, degan fikrni ilgari suradilar. Makro dunyo bilan mikro dunyo bir–biri bilan bog'liq holda yashaydi, makro dunyo obyektiv qonunlar asosida yashaganidek, mikro dunyo qonunlari ham obyektivdir, lekin o'ziga xos xususiyatlari bor. Qonunlarning obyektiv xarakterini inkor etish asosan jamiyatning obyektiv qonunlar asosida rivojlanishini inkor etishga olib keladi. Obyektiv qonunlarni inkor etish bilan ular yo'qolmaydi, yoki bekor qilinmaydi. Obyektiv qonunlar asosida amalga oshayotgan qonuniy taraqqiyotni bo'g'ish yoki to'xtatib qo'yish mumkin emas. Buni fan taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy tajribasi orqali amaliy va nazariy jihatdan isbotlash mumkin.

Tabiat va jamiyat qonunlarining obyektiv xarakterga ega bo'lishi bir xil umumiy xususiyatga ega, lekin ular orasida ma'lum farq bor. Tabiat qonunlari yer yuzida inson bo'lmagan chog'da ham mavjud bo'lgan. Jamiyat qonunlari esa inson faoliyati natijasida vujudga kelgan shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Engelsning ko'rsatishicha, jamiyat qonunlari kishilarning ijtimoiy munosabatlaridagi eng umumiy, muhim bog'lanishni ko'rsatadi. Yana bir farq jamiyat qonunlariga nisbatan tabiat qonunlari asta-sekinlik bilan o'zgarishida. Masalan, neorganik tabiatdan million–million yillardan so'ng o'zining imkoniyatiga ko'ra organik tabiat kelib chiqqan. Ijtimoiy tarixiy qonunlar esa ma'lum davr davomida amal qilib, so'ngra o'z o'rnini yangi qonunlarga bo'shatib beradi, ba'zilar o'z kuchini yo'qotadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodal va kapitalistik tuzumlarga xos qonunlarning o'zgarishi bunga misol bo'la oladi.

Tabiat va jamiyatdagi qonunlar o‘zining harakat doirasiga ko‘ra eng umumiy, umumiy va xususiy qonunlar bo‘lishi mumkin.

Eng umumiy qonunlar bu tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalardagi bog‘lanishi aloqasini ifodalovchi dialektika qonunlaridir. Bular miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuni, inkorni inkor qonunidir. Umumiy qonunlarga massaning saqlanishi, energiyaning bir turdan ikkinchi turga o‘tishini olish mumkin. Xususiy qonunlarga misol-fizikadagi Kulon qonuni, tok kuchi uchun Amper qonuni yoki biologiyadagi irsiyatga oid genetika qonuni, ximiyadagi Mendeleyevning elementlarning davriy sistemasi qonuni va boshqalar. Bular ham obyektiv qonunlardir. Faqat o‘z obyektidagi bog‘lanish, aloqadorlikni ifodasidir. Endi fanda dinamik va statistik xususiyatga ega bo‘lgan qonunlarga to‘xtalsak. Statistik qonunlar mutloq ma’nodagi zaruriy qonunlar emas, ular ehtimollik sababiga muvofiq bo‘lgan bog‘lanishlarni ifodalaydi va ular dinamik qonunlardan farq qiladi. Statistik qonunlar ma’lum sharoitda bo‘lishi ehtimolini ifodalaydi. Masalan, Darvinning tabiiy saralanish qonuni hamma individlar uchun emas, chunki individlarning sharoitga muvofiqlashganlari yashaydi xolos, muvofiqlashmagani nobud bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shunday qonunlar borki, ular shu jamiyatdagi ma'lum sinflar manfaatiga muvofiq keladi. Bu qonun shu jamiyat, shu sinf uchun ehtimol zarurdir, lekin u umuman zaruriyat natijasi bo‘lmasligi mumkin. Dinamik qonunlar bu bir–biriga bog‘liq, o‘zaro aloqada bo‘lgan holda eski qonunlar harakatini davom ettiradi, lekin uning mavjud doirasi chegaralangan bo‘ladi, sharoitiga qarab u qonun o‘zgarishi, kengayishi mumkin. Makro dunyo qonuniga Nyuton mexanikasi, kvant mexanikasi va boshqalar misol bo‘la oladi. Makro dunyo qonunlarini chuqurroq o‘rganish mikro dunyo qonunlarini bilishga yordam beradi.

Demak, obyektiv mazmunga ega bo‘lgan dialektik qonunlar bilishning pog‘onasi, real voqelik in’ikosining mantiqiy shaklidir. Dialektikaning kategoriyalari qonun singari umumiylik xususiyatiga ega, ya’ni obyektiv. Dialektikaning qonun va kategoriyalari, hamda prinsiplari bilimning hamma sohasini singdirib oladi.

Qarama-qarshilik va ziddiyat qonuni

Falsafa qonunlaridan biri-qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunidir. Falsafa tarixida bu qonun ko'proq mantiq fanidan kelib chiqib tushuntirilgan. Chunki, mantiqda qarama-qarshiliklar tafakkurlashga xos maxsus xususiyatlarni ifodalaydi. Unda obyektiv olamni to'g'ri aks ettirishni zaruriy sharoitlari mavjuddir. Aristotel bu qonunni faqat mantiqda bo'lishini e'tirof etib, uning barcha sohalarida amal qilishiga e'tibor qaratmagan.

Falsafaning qonun va kategoriyalarini asoslashga intilgan mutafakkirlar anchagina. Ayniqsa, XVIII asr fransuz-ingliz faylasuflari, yangi davr XIX-XX asr faylasuflari ta'limotlari bunga misol bo'la oladi. Jumladan, taraqqiyot manbaini Nyuton ham ko'rsatishga harakat qilib uni birinchi turtkida, deb izohlagan bo'lsa, XVIII asr fransuz materialistlari taraqqiyot sababi predmet va hodisalarning o'zida deb uqtirdilar. Ularning fikricha, taraqqiyot manbai qarama-qarshiliklar kurashi asosida emas, balki moddiy obyektlarning bir-biriga ta'sir etishidadir. Keyinchalik XIX asrda taraqqiyot manbaini Georg Gegel ko'rsatib berdi. Uning fikricha, taraqqiyotning sababi qarama-qarshiliklar birligi va kurashidadir. Bu g'oyani so'ngroq marksistik falsafa ham davom ettirdi.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi taraqqiyotni tushuntirishdagi muhim qonun ekanligini isbotlash uchun avvalo uni tashkil etadigan tushunchalar mohiyati bilan tanishib chiqish zarur. Bu tushunchalar ayniyat, tafovut, ziddiyat kabilardir. Ta'kidlash lozimki, ular o'zaro aloqa va bog'lanishdadir.

Ayniyat – narsa va hodisalarning nisbiy turg'unligini, barqarorligini belgilaydigan tushuncha bo'lsa, tafovut predmet va hodisalarning farqli tomonlari orasidagi munosabatni ifodalaydi. Ziddiyat qarama- qarshi tomonlarning konfliktli munosabatlarini bildiradi.

Ayniyatni yanada to'g'riroq tushunish uchun aynan o'xshashlikni, bir xillikni ko'z oldimizga keltirishimiz zarur. Lekin, ta'kidlash lozimki, mutloq o'xshashlik, bir xillikning o'zi yo'q. Masalan, egizaklar, yoki qolipdagi g'ishtlar bir-biriga o'xshasalar ham makondagi egallagan joylari bilan farq qiladilar. Hech bo'lmasa, tarkibiy tuzilishida farq mavjud. Ammo nisbiy o'xshashdirlar.

Tafovut–narsa va hodisalardagi o‘xshamaslik va bir–biridan ajratuvchi belgi ifodasidir. Tafovutda har bir narsaning o‘ziga xosligi yoki xos emasligi tushuniladi. Masalan, har qanday jonli organizm yoki o‘simliklar hayoti to‘xtovsiz modda almashinuviga asoslansa, mexanik ta’sir va o‘zaro ta’sir natijasida jismlar harakatga keladi. Bu yerda ta’sirlar farqli, tafovutli jihatlar hisoblanadi. Demak, tafovut qarama-qarshi tomonlar asosini tashkil etadi.

Ziddiyat – tafovutdan kelib chiqmaydigan jarayondir. Qarama-qarshi tomonlar harakatidan ziddiyat kelib chiqadi. Ziddiyat kelib chiqishi uchun qarama-qarshi tomonlar bo‘lishi shart. Qarama-qarshi tomonlardagi munosabatlarning keskinlashuvi natijasi ziddiyatdir. Ziddiyatning yuqori shakli konflikt (to‘qnashuvdir). Shu o‘rinda aytish mumkinki, ziddiyat qarama-qarshi tomonlarning to‘qnashuvli (konfliktli) munosabatlarini ifodalaydi.

Ko‘rib turibmizki, qarama-qarshi tomonlarning bo‘lishi o‘z-o‘zidan kelib chiqmay, ko‘p jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu jarayonlar natijasida hosil bo‘lgan qarama-qarshiliklar, tabiat va jamiyatda, tafakkur hodisalaridagi mavjud bo‘lgan tomonlarni tashkil qiladi. Bu tomonlardagi xossa va xususiyatlar gohida bir-birini inkor qilsalar, gohida bir-birini taqozo etadilar. Magnitning manfiy va musbat qutblari, atomdagi tortilish va itarilish kuchlari, jamiyatdagi yollovchi va yollanuvchilar turli tomonlarni aks ettiradi. Ammo, bu jarayonlarda qarama-qarshi tomonlar ham, mavqei ham tafovutli munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Tomonlar o‘rtasidagi munosabat keskinlashsa, konflikt jiddiy tus oladi. Shu sababli, konflikt tushunchasi ziddiyatdan farq qiladi. Konflikt, qarama-qarshi tomonlar orasidagi munosabat bo‘lib, u keskinlashganda eski chegara yangi chegaraga chiqadigan harakatda xarakterda bo‘ladi. Lekin ziddiyat hamisha ham konfliktga olib bormaydi, ularning oldini olish mumkin. Tabiat va jamiyat, inson tafakkurida ziddiyatlar turlicha bo‘ladi. Chunki olam cheksiz va turli-tuman, hodisa va o‘zgarishlar esa son-sanoqsizdir. Shunday ekan, ziddiyat shakllari ham turlicha. Ziddiyatsiz harakat paydo bo‘lmaydi. Har qanday harakat ziddiyat orqali sodir bo‘ladi. Aytish mumkinki, harakatning o‘zi ham ziddiyatdir. Hayotning o‘zi ham ziddiyat zamiriga qurilgan. Demak, tevarak atrofda mavjud ziddiyatlarni bir-biridan farqlash lozim, zero ziddiyat harakat va taraqqiyot manbai. Ziddiyatlar vujudga kelishi

bilan ma'lum shaklga ega bo'lgach, kurash keskinlashadi va keyingi bosqich uchun sharoit yaraladi. Ta'kidlash lozimki, tabiat va jamiyatdagi ziddiyatlar o'zaro farqlanadi. Tabiatdagi ziddiyatlar stixiyali bo'lib, insonga bog'liq emas. Inson paydo bo'lishidan oldin ham shunday ziddiyatlar bo'lgan. Ular keskinlashib, rivojlanib halokat yoki muvaffaqiyatga olib kelgan. Bu ziddiyatlar o'ziga xos qonuniyatlar asosida paydo bo'llb, yoki yo'qolib turadi. Jamiyatdagi ziddiyatlarga inson faoliyati ta'sir etadi va boshqarib turiladi. Jamiyatdagi ziddiyatlar iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy faoliyatda aks etadi. Ular xarakteriga ko'ra: ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik hamda bosh ziddiyatlarga bo'linadi.

Narsa va hodisalarning harakat jarayoni va mohiyatidan kelib chiqadigan ziddiyatlar ichki ziddiyat deb atalsa, narsa va hodisalar o'rtasidagi tashqi ziddiyat deb tushuniladi. Ko'pincha, ichki ziddiyatlar taraqqiyot yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, mehnat va kapital, boylik va qashshoqlik o'rtasidagi ziddiyat ichki ziddiyat bo'lsa, bir mamlakat bilan ikkinchi mamlakat o'rtasidagi ziddiyat tashqi ziddiyat hisoblanadi. Ziddiyatning ichki va tashqi ziddiyatlarga bo'lish umuman nisbiydir. Chunki ular bir-birlariga o'tib ham turadi. Ma'lum bir ziddiyat bir narsaga nisbatan tashqi ziddiyat bo'lishi mumkin. Masalan, o'simlik bilan muhit orasidagi ziddiyat o'simlik uchun tashqi ziddiyat hisoblansa, tabiat hodisalarining taraqqiyotiga nisbatan uning ichki ziddiyati hisoblanadi. Taraqqiyot tashqi ziddiyatlardan ham kelib chiqishi mumkin yoki aksincha.

Taraqqiyot asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlarga ham bog'liq. Asosiy ziddiyatlar deganda, hodisaning mavjudligi va rivojlanishi, vujudga kelishi va yo'q qilinishigacha yoki eski sifatining tugatilishini o'z ichiga olgan chinakam mohiyatni ifodalaydigan ziddiyatlar tushuniladi. Asosiy ziddiyatlar har bir predmet yoki hodisaga nisbatan olinadi. Masalan, Afg'onistondagi asosiy ziddiyat bu muholiflar o'rtasidagi ziddiyatdir. Asosiy bo'lmagan ziddiyat ma'lum taraqqiyot bosqichida narsa va hodisalar mohiyatining u yoki bu tomonini aks ettirib uni belgilash yoki o'zgartirish kuchiga ega bo'lmagan ziddiyatdir. Asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatni bosh ziddiyatdan farq qilish lozim. Bosh

ziddiyat, taraqqiyotining u yoki bu bosqichi mohiyatini belgilab beradi.Masalan, dunyoda tinchlikni saqlash bosh ziddiyat. Bosh ziddiyat ham o‘zgaruvchan bo‘lib, sharoit va vaqtga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Amaliy faoliyatda ikkinchi darajali ziddiyatga ham e’tibor qaratish xatoliklardan holi qiladi.

Olam taraqqiyotida antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar ham mavjud. Antagonistik ziddiyat, deb maqsad va manfaatlari tubdan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan jarayonlarga aytiladi. Masalan mushuk bilan sichqon o‘rtasidagi ziddiyat antagonistikdir, ya’ni ularni kelishtirish mumkin emas. Noantagonistik ziddiyat deganda, manfaat va maqsadlari umumiy bo‘lgan ziddiyatlarni tushunish mumkin. Respublikamiz hayotida ham ziddiyatlar mavjud bo‘lib, ularni rejalashtirish yo‘li bilan, fan va texnikadan to‘g‘ri foydalanish natijasida tartibga solinadi. Natijada ular konflikt keltirib chiqarmaydi. Ko‘proq konstitutsiya va boshqa qonunlar orqali bu ziddiyatlar oldi olinadi va hal etiladi. Ziddiyatlar ham universaldir. Taraqqiyotga erishishda ular turli tomondan ta’sir qiladilar. Shundan kelib chiqib, hozirgi zamonga zid ziddiyatlarni guruhlash mumkin: 1. Mamlakatlar o‘rtasidagi umum iqtisodiy, siyosiy, madaniy ziddiyatlar. 2. Mamlakatlar ichkarisidagi ziddiyatlar. 3. Mamlakatlar o‘rtasida sivilizatsiyaga oid ziddiyatlar.

Bu ziddiyatlar ham o‘zaro bog‘liq bo‘lib, turli sohalarni qamrab oladi va shu jarayonlarning hayotiyligini hisobga olish zarur. Taraqqiyotga hissa qo‘shadigan qarama-qarshiliklar tabiat, jamiyat tafakkurida ro‘y beradigan hodisalardir. Barcha narsa va hodisalar qarama-qarshiliklar birligidir. Ularda ayniylik, tafovut, ziddiyatlarning bo‘lishidir. Demak, falsafiy xulosa shundan iboratki, har bir narsa va hodisaning muayyanligi, harakati, rivojlanishi, taraqqiyotining asosiy sababi, manbai, shu narsa va hodisalarda mavjud qarama-qarshi jihatlar ular orasidagi munosabatlar natijasidir. Bu jarayonlarning hammasi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunida aks etadi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining mohiyati yana shundaki, unga muvofiq har bir narsa va hodisa qarama-qarshi tomonlarga-salbiy va ijobiy, o‘tmish va kelajak, o‘tib boruvchi va rivojlanuvchi, eski va yangi xossalarga ega. Har bir narsa va hodisa qarama-qarshi tomonlarning birligidir (m: magnitning o‘zi bir jism, lekin uning mohiyati qarama-qarshilikda–manfiy va

musbatligida yoki organizm bitta, lekin u assimilyatsiya va dissimilyatsiya mavjud bo'lganda birlikni keltirib chiqaradi). Kurash va birlik genetik usulda o'zaro bog'langan, yoki boshqacha aytganda, qarama-qarshiliklarni – bir-biridan ajratib, qotib qolgan holda,faoliyatsiz holda olish va tekshirish aslo mumkin emas. Ular nisbiy birlikda bo'lib, vaqti–vaqti bilan bir-biriga o'tib turadilar, bir-birini taqozo qiladilar, kurashadilar. Qarama-qarshilik bir mohiyatning ikki tomonini ifodalaydi. Qarama-qarshiliklar kurashi to'xtamaydi, lekin u nisbiy bo'lib, birlik esa mutloq. Shu sababli qarama-qarshi tomonlar birligi ma'lum bir narsa yoki hodisadagi ikki qarama-qarshi kuchning ma'lum nisbiy vaqt ichida birga mavjud bo'lib turishi deb aytish mumkin. Shunday qilib, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunning umumiylik xarakteri faqatgina moddiy olamdagi hamma narsa va hodisalarga ularning paydo bo'lishidan tortib halok bo'lishigacha qadar o'z ichiga olganligida ham namoyon bo'ladi.

Harakat, rivojlanish, taraqqiyot mazkur jarayonlarning natijasidir. Zotan hayotning o'zi xilma-xil, unda kutilmagan qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi dunyo juda murakkab, rang-barang, jo'shqin, qarama-qarshi tendensiyalarga boy. Shu bilan birga u orzu umidlar dunyosidir. Inson o'zi yaratgan mo''jizalar oldida, o'zining naqadar ojizligini sezayotgan dunyodir. Shu sababli taraqqiyotni to'g'ri baholash, «pala-partishlik»ka emas, balki o'zaro kelishuvchilik yo'llarini izlashga va oqilona fikrlashga bog'liqdir.

Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi

Taraqqiyot haqida fikr yuritar ekanmiz, unda miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlarga o'zaro o'tish ham amal qiladi. Bu qonun ham taraqqiyotning ma'lum bir tomonini o'zida aks ettiradi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, predmet va hodisalarning miqdor, sifatlari o'rtasidagi munosabatlarni, miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini hal qilib beradi. Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan sifatiga ko'ra farq qiladi. Shu sababli, sifat, miqdor, xususiyat, me'yor tushunchalari nimalarni ifodalaydi? Avvalo, shularga e'tiborni qaratamiz.

Moddiy dunyoda ma'lum sifatga ega bo'lmagan biror narsa yoki hodisa bo'lishi mumkin emas. Narsa va hodisalarning sifati ularning

xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Har bir narsa bir qancha xususiyatga ega. Narsa va hodisalar xususiyatlarining yig‘indisi ularning sifatini tashkil etadi. Sifat va xususiyat o‘zaro teng bo‘lishi mumkin emas. Sifat va xususiyatlarning o‘zaro munosabati ijtimoiy jarayonlarni ham qamrab oladi.

Ijtimoiy hayotda ham miqdoriy jihatdan farq qiladigan sohalar ko‘p. Masalan, bir ijtimoiy formatsiyadagi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasini–sanoatining o‘sishi, sur’ati, darajasi, mehnat unumdorligi bilan ikkinchisidan farq qiladi. Shunday qilib, narsa va hodisalarda sifat va miqdor muayyanligi bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq. Sifatsiz miqdor bo‘lmaganidek, miqdorsiz sifat ham bo‘lmaydi. Chunki, ular ayni narsa va hodisalarda ajratib bo‘lmas tomonlardir.

Narsa va hodisalarning miqdor va sifati birligi me’yor yoki o‘lchov tushunchasida ifodalanadi. Har bir narsa o‘ziga xos aniq o‘lchov bilan xarakterlanadi. Me’yor narsa va hodisalarning barqaror holatini ifodalaydigan har qanday chegarada miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga olib kelmaydi. Masalan, normal sharoitda suvning o‘lchovi 0 dan 100 darajagacha bo‘lgan harorat hisoblanadi. Agar suv 100 darajadan keyin ham qaynatilaversa, uning miqdor va sifat birligi buziladi, natijada suv bug‘ga aylanadi. Yangi me’yor hosil bo‘ladi. Me’yorning o‘zgarishi natijasida bir sifatning o‘rniga ikkinchi sifat vujudga keladi.

Falsafa tarixida birinchi bo‘lib, Aristotel sifat kategoriyasini o‘rgangan. U «Kategoriyalar» asarida sifat tufayli narsalarning bir - biriga o‘xshash yoki o‘xshash emasligini, biri ikkinchisiga aylanishini dialektik asosda yondoshish orqali ta’riflangan.

Miqdor o‘zgarishining tub sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni obyektiv xarakterga ega. Miqdoriy o‘zgarishlar ma’lum chegarada sifatning barqarorligiga ta’sir etmaydi. Miqdor o‘zgarishi chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi, natijada sifat o‘zgarishi sodir bo‘ladi, eski sifat yo‘qolib yangi sifat paydo bo‘ladi. Bu ayni miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishidir. Bu qonun tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotida amal qiladi. Masalan, ikki atom vodorod bilan bir atom kislorod birikmasi suv molekulasini tashkil etadi. Agar ikki atom vodorod bilan ikki atom kislorod birikmasini hosil qilsa, u holda vodorod pereoksidini hosil qiladi.

Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo‘ladi. Gegel o‘zining «Logika»sida sof miqdor o‘zgarishlarining ma’lum bir bosqichida sifat darajasiga aylanishini ko‘rsatib bergan. Aslida bu holat jamiyatda ham tasdiqlanadi.

Jamiyatda yangi sifatning paydo bo‘lishi muayyan miqdor o‘zgarishlari zaminida, eski sifat doirasida miqdor shart-sharoitlari pishib yetilgach, sodir bo‘ladi. Masalan, eski formatsiyadan yangi formatsiyaga o‘tish kishilik jamiyati tarixida tub sifat o‘zgarish hisoblanadi. Bu qonun tafakkur taraqqiyotiga ham oid. Masalan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lgan falsafa fanining taraqqiyotini olib ko‘rishimiz mumkin. Falsafaning har bir taraqqiyot bosqichida to‘plangan bilim-miqdor o‘zgarishlari bo‘lmasa, sifat o‘zgarishlari, ya’ni ta’limotlar kelib chiqmas, sifat o‘zgarishi bo‘lmas edi. Demak, bunda ham miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga o‘tishini ko‘rdik. Sifat o‘zgarishlari ham miqdor o‘zgarishlariga o‘tadi.

Obyektiv voqelikda faqat miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga olib kelmay, shu bilan birga sifat o‘zgarishlari ham miqdor o‘zgarishlarga olib keladi, vujudga keladigan yangi sifat ko‘rsatkichlari rivojlanadi.

Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular:

1. Miqdor o‘zgarish doimo yuz berib turadi, lekin sifat o‘zgarishiga o‘tish ma’lum davrda boshlanadi;

2. Miqdor o‘zgarishlari ma’lum vaqtgacha predmetga ta’sir ko‘rsatmaydi, masalan, suv 0 dan 100 darajagacha haroratda suyuqlik holatini yo‘qotmaydi. Har qanday miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi uchun ma’lum sharoit bo‘lishi kerak;

3. Miqdor o‘zgarishlari asta-sekin, sifat o‘zgarishi esa tez, ayrim holatda keskin yuz beradi;

4. Sifat o‘zgarishi miqdor o‘zgarishiga nisbatan tub o‘zgarish hisoblanmaydi.

Masalan, XIX asrda bel’giyalik olim de Friz biologiyada o‘simlik va hayvonot olamida bir tur o‘rniga yangi turning kelib chiqishi to‘satdan mutatsiya usulida portlash orqali sodir bo‘ladi

deydi. Taraqqiyotni faqat miqdor o'zgarishidan iborat jarayon deb qarash ham noto'g'ri.

Taraqqiyot o'zaro dialektik bog'langan miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlaridan iboratdir. Miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlarini tayyorlasa, sifat o'zgarishlari o'z navbatida miqdor o'zgarishlariga olib keladi.

Biz endi bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tishning umumiy shakli bo'lgan sakrash nima, degan savolga javob beraylik.

Predmet va hodisalarning bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishi dialektik sakrash shaklida amalga oshadi. Sakrash bir sifatdan boshqa bir sifatga o'tishining qonuniy shakli hisoblanadi. U taraqqiyot jarayonidagi tasodifiy hodisa emas, balki predmet va hodisaning ichki mohiyatidan zaruriy ravishda vujudga keladi.

Sakrash nima? Sakrash ma'lum bir predmet yoki hodisalarning bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishi, uzluksiz taraqqiyotining uzilish davridir. Masalan, materiya harakatning bir shaklidan ikkinchi shakliga o'tishi noorganik tabiatning organik tabiatga o'tishi, organik dunyoda hayvonlar va o'simliklarning bir turdan ikkinchi turga o'tishi kabilarning hammasi sakrash natijasida vujudga keladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida bo'ladigan ijtimoiy inqiloblar ham-sakrash. Sakrash bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tish qonuniyati bo'lishi bilan uning nisbiy tomoni ham bor. Sakrash biror predmet va hodisaga nisbatan bo'lsa, ikkinchisiga nisbatan sakrash bo'lmasligi mumkin.

Sakrash ilg'or kuchlar g'alabasi va konservativ kuchlar halokatini anglatadi. Demak:

1) Sakrash taraqqiyot jarayonidagi obyektiv qonuniy jarayondir;

2) Sakrash uzluksizlik uzilishi holatidir;

3) Sakrash eski qarama-qarshiliklarning tugatilishi va yangi sifatga mos keladigan qarama-qarshiliklarning vujudga kelishidir;

4) Sakrash ilgarilab borishdir.

Sakrashlar turli shaklda sodir bo'ladi. Har bir narsa va hodisa o'zining muayyan sakrash shakliga ega. Sakrash shiddat bilan yoki bir muncha sekin sodir bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayotda sakrash portlash yo'li bilan sodir bo'ladi.

Tabiat va jamiyatdagi sakrashlar bir-biridan o‘z holati bilan farq qiladi. Tabiatdagi sakrashlar kishi irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda, stixiyali ravishda vujudga keladi. Tabiatdagi sakrash sifat o‘zgarishlari inson irodasiga, xohishiga bog‘liq bo‘lmasa ham, inson tabiatdagi bu jarayonga ta’sir etishi, uni tezlashtirishi, undan jamiyat manfaatlari uchun foydalanishi mumkin. Jamiyatdagi sakrashlar esa kishilar tomonidan obyektiv zaruriyatlarni bilish natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi.

Sakrashlar xarakteri rivojlanayotgan predmetning tabiati, uning boshqa hodisalarga bo‘lgan munosabati natijasida vujudga keladi. Demak, tabiatda sakrash portlash yo‘li bilan yoki asta-sekin yangi sifat elementlarining yuzaga kelishi orqali yuz beradi. Masalan, kimyoviy moddalar portlash natijasida o‘z tabiatini o‘zgartiradi. Ijtimoiy hayotda portlash asta-sekinlik bilan bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tishi mumkin. Tabiatda asta sekinlik bilan bo‘ladigan sakrashga, masalan o‘simliklar va tabiatda hayvonot olamidagi turlarning kelib chiqishini misol qilib olishimiz mumkin.

Taraqqiyotning evolyutsion shakli predmet va hodisalarda yuz beradigan miqdoriy o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Evolyutsion taraqqiyotda asta–sekin miqdor o‘zgaradi. Evolyutsion taraqqiyotda predmet va hodisalarda ichki o‘zgarishlar yuz berishiga qaramay ular o‘z mohiyatini asta sekinliklar bilan o‘zgartiradilar.

Rivojlanishning revolyutsion shakli esa predmet va hodisalarda yuz beradigan sifat o‘zgarishlari bilan ifodalanadi. Rivojlanishning revolyutsion shakli evolyutsion shakliga nisbatan tez sakrash xususiyatiga ega.

Rivojlanishning evolyutsion shakli revolyutsion shaklidan o‘z xususiyati va natijasi bilan farqlanadi. Bu taraqqiyot shakllari bir-biri bilan o‘zaro dialektik munosabatda bo‘ladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida sifat o‘zgarishlariga o‘tish siyosiy revolyutsiyalarsiz, asta-sekinlik bilan sodir bo‘ladi. Yangi bilan eski orasidagi kurash ijtimoiy hayotning barcha sohalarida voqe bo‘ladi. Ba’zida evolyutsiya revolyutsiyani tayyorlaydi. Shuning uchun ham rivojlanishning evolyutsion va revolyutsion shakllarini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki, revolyutsion o‘zgarishlar evolyutsion o‘zgarishlar asosida sodir

bo‘ladi, revolyutsion o‘zgarishlar kelgusi evolyutsion o‘zgarish uchun zamin tayyorlab beradi.

Revolyutsiya - bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o‘tish demakdir. Evolyutsiya va revolyutsiya o‘rtasidagi munosabat faqatgina miqdor o‘zgarishlarini o‘z navbatida sifat o‘zgarishlariga olib borishdangina iborat bo‘lmay, yangi sifatga mos bo‘lgan yangi miqdor o‘zgarishlarini ham vujudga keltiradi.

Taraqqiyot–evolyutsion o‘zgarish bilan revolyutsion o‘zgarishlarning zaruriy birligidir.

Miqdor – o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni fan va texnika uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu qonundan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan metodologik qoidalar kelib chiqadi. Predmet va hodisalarning sifat o‘zgarishiga oldingi miqdor o‘zgarishlar sabab bo‘ladi, binobarin jamiyatda, ijtimoiy hayotda, yangi sifat o‘zgarishlariga olib keladigan miqdor o‘zgarishlar yig‘indisini tezlashtiradigan zarur sharoitni tayyorlamoq zarurdir.

Iqtisodiyotni intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish sohasidagi aniq ish, ijtimoiy ishlab chiqarishning har bir qismini, shu jumladan aniq ish joyini topib berish, xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish kabilardir. Bu o‘rinda gap, iqtisodiyotning keng, yetakchi tarmoq bo‘lishi, sanoatdagi ishlarni tubdan yaxshilash haqida bormoqda. Demak, bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tish masalasi amalga oshiriladigan bo‘lsa, sakrash sharoiti diqqat bilan o‘rganilishi, aniqlanishi zarur.

Miqdor o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tishi–ikki paytmiqdor va sifat o‘zgarishini uyg‘unlashtirib olishi kerak. Shuning uchun bu qonun taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab borishini ta’minlab, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishini ifodalaydi. Bu qonun fan taraqqiyotida metodologik ahamiyatga ham ega bo‘lgan qonundir.

Inkorni–inkor qonuni

Falsafaning inkorni inkor qonuni ham avvalgi qonunlar: miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni singari muhim o‘rin egallaydi. Bu umumiy taraqqiyot qonuni ham faylasuflar tomonidan mukammal

talqin qilingan. Mazkur qonun tabiat, tarix va tafakkurda g'oyat darajada keng amal qiluvchi muhim taraqqiyot qonunidir. Binobarin, bu qonunni chuqur va har tomonlama o'rganish undan amaliy faoliyatda to'g'ri va izchillik bilan foydalanish, taraqqiyotni to'g'ri tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Inkorning mohiyatini to'g'ri tushunish - taraqqiyotning dialektik konsepsiyasini izchillik bilan ilmiy asosda tushunishdir.

Har bir narsa va hodisaning rivojlanishi va eskirishi, umri tugayotgan tomonlarning yemirilishi parchalanishi hamda yangi, ijobiy tomonlarning rivojlanish yangi bilan eski, o'lib borayotgan narsalar bilan tug'ilib kelayotgan narsalar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ochib beradi.

Har bir narsa va hodisa abadiy emas, balki ichki va tashqi ziddiyatlar zaminida o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib boradi, bu o'zgarish eskirgan narsa va hodisalarning o'lib, yemirilib borishi zaminida yangi narsa va hodisalar paydo bo'ladi. Inkor bo'ladigan narsa va hodisalar esa butunlay uloqtirilib tashlanmay, balki ularga xos ijobiy tomonlar, belgi va xususiyatlar saqlanib, umumiy rivojlanish jarayonini ifoda etadi.

Har bir narsa va hodisa, obyektiv ravishda ichki ziddiyatlardan kelib chiqadi. Bu qonun yemirilish va parchalanishni sodda inkorda ifodalamay, balki taraqqiyotni egri yo'llar bilan, spiral' shaklida, nisbiy takrorlanishlar asosida oddiylikdan murakkablikka, pastdan yuqoriga qarab borishi xarakterini ilmiy asosda ochib beradi. Hech bir sohada o'zining ilgarigi yashash shakllarini inkor etmaydigan taraqqiyot sodir bo'lmaydi. Har bir jarayon inkor qilish holatiga ega. Taraqqiyot natijasida vujudga kelgan yangi narsa eskining inkor qilinishidir. Eskining inkor qilinishi natijasida hamma narsa va hodisada ilgarilanma harakat sodir bo'ladi. Yangi, eskini o'rnida uning ijobiy tomonlarini saqlab qolgan holda, yangi-yuksakroq progressiv holatni egallaydi. Shunday qilib, taraqqiyot bir-birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo'lib, bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchisi uchinchisi tomonidan inkor etiladi. shunday qilib bu jarayon cheksiz davom etilaveradi.

Inkor shunday inkorki, buning natijasida taraqqiyot davom etishi, yangi inkor sodir bo'lishini taqozo etishi kerak. Dialektik inkor obyektiv jarayondir.

Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarda inkor etishning har xil turlari va shakllarini uchratish mumkin. Masalan, donning unib chiqish yo'li bilan inkor etilishi, chirish bilan inkor etilishi, qurtlar tomonidan ozuqa sifatida yeb inkor etilishi, tegirmonda donni unga aylantirish yo'li bilan inkor etilishi va hokazo. Lekin har qanday inkor, inkor bo'lavermaydi, chunki inkor ilgarilab borishning uzilishi, to'xtab qolishni ifodalaydi. Bunday inkor mutloq inkordir. Dialektik inkor esa eskilikning ugashi yangilikning paydo bo'lishi bilan birga, eskining ijobiy tomonlari asosida yangining o'sishidan iboratdir. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" demak emasdir. Demak, birinchi inkorni shunday qilish lozimki, natijada ikkinchi inkor chiqsin, rivojlanish.

Inkorni inkor, voqelikdagi o'lib borayotgan narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va vorislikni, ilgarilab rivojlanishning ma'lum bo'laklari, holatlari orasidagi bog'lanishlarni ifodalovchi falsafiy kategoriyadir.

Inkorni inkor qonunini falsafa tarixida birinchi bo'lib Gegel asoslagan edi. U, bu qonunni tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuni sifatida izohlagan edi.

Dialektikaning boshqa qonunlari kabi, Gegel bu qonunni ham bir biriga qarama-qarshi fikrlash asnosida ajoyib, mazmunan boy mulohazalarni aytib o'tdi. Masalan, Gegelning inkorni inkor qonuni orqali olg'a qarab harakatlanishning cheksizlik g'oyasini ilgari surgan edi. Bu qonunda taraqqiyotning yangi asosdagi boshlang'ich holatiga qaytish tendensiyasining ichki mazmunini ochishiga harakat qilgan. Gegel inkorni inkor qonuni orqali rivojlanishning yuqori bosqichida eskilikni dialektik "olib tashlash" yo'li bilan, ma'lum ijobiy tomonlarini saqlab qolish g'oyasini olg'a surgan. Gegelning inkorni inkor qonunida ana shunday ijobiy va diqqatga sazovor tomonlari mavjuddir.

Gegel bu qonunni uchlik sxema shaklida izohlaydi. Gegel "mutloq g'oya" taraqqiyotini quyidagi yo'nalish bo'yicha, ya'ni da'vo (tezis), inkor (antitezis), inkorni inkor (sintez) bosqichlari orqali o'z-o'ziga qarab rivojlanadi, deb ko'rsatadi.

Marksizm klassiklari fikricha, inkorni inkor qonuni tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotiga xos bo'lgan ilgarilab

boradigan qonun. Bu qonun bilan ular eskilikning inkor etilishi va yangilikning paydo bo'lishini isbotlashga intilganlar.

Inkorni inkor qonuni va inkor etish masalalari orqali XIX asrdagi rus revolyutsion demokratlari Belinskiy, Gersen, Chernishevskiy, Dobrolyubovlar o'z davridagi «qabih, rus voqealigini» inkor etish zaruriyat ekanligini to'g'ri tushungan edilar, lekin dehqon ideologlari bo'lgan rus revolyutsion demokratlari dialektikaning boshqa qonunlari singari bu qonunning ichki mohiyatining to'liq va har tomonlama yorita bilmaganlar. Bu qonunning mohiyatini chuqur bilish uchun nima uchun inkorni inkor deb atalishini bilish kerak edi. Dialektikaning bu qonuni «inkorni inkor» deb atalishining sababi, moddiy olamdagi narsa va hodisalar doimiy ravishida o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi oqibatida uzluksiz rivojlanishidan kelib chiqadi. Taraqqiyot jarayonida bir inkor ikkinchi inkor bilan alınashadi. Natijada taraqqiyot ilgariga qarab boradi.

Falsafa tarixida shunday oqimlar bo'lganki, ularni nigilistlar deb ataganlar. Nigilizm (lot. Nihil - hech nima) har qanday ijtimoiy ideallar, turmush tarzi, hayotiy normalar, qadriyatlar va tamoyillarni inkor etuvchi oqimning nomidir. Avval G'arbiy yevropada keyinroq-XIX asrning o'rtalarida Rossiyada tarqalgan. Nigilizm birinchi marta nemis faylasufi Yakobi Fridrix Genrix (1743 - 1819) tomonidan qo'llanilgan bo'lsada, uning Rossiyada tarqalishiga sabab I.S.Turgenevning «Otalar va bolalar» romani (1861) sababchidir. Shu roman orqali nigilizm Rossiyada ommalashgan. O'sha davrlarning aksil inqilobchilari demokrat inqilobchilarni nigilistlar, deb ataganlar. Chunki demokrat inqilobchilar o'zlarigacha bo'lgan jamiyatlarning madaniy-ma'rifiy, urf-odat va qadriyatlariga qarshi chiqib ularni tanqid qilgan edilar. Shu sababli demokratik inqilobchilar o'tmishdagi madaniyatni inkor qilishda ayblanganlar. Ular o'zlarining yangi - sivilizatsiya sohasidagi g'oyalarini ilgari surganlar. Nigilizmni rus yozuvchilaridan yana biri D.I.Pisaryovning publitsistik faoliyati bilan bog'lasalarda, lekin I.S.Turgenev romanida nigilizm yaqqol ko'zga tashlanadi. Romanning asosiy qahramonlari Arkadiy va yevgeniy suhbatidan xulosa qiladigan bo'lsak, yevgeniyning o'zidan oldingi hayotga e'tiborsizligini sezamiz. Jumladan, Arkadiy, Yevgeniyga o'z amakisi yashagan davr

tarbiyasini eslatganda, yevgeniy o'sha davr tarbiyasini ham inkor qilib: «tarbiyami,-deydi u,-har bir kimsa o'zini o'zi tarbiya qilmog'i lozim. Masalan, aytaylik, aqalli mening kabi... Endi davr masalasiga kelsak, nima uchun men davrga tobe bo'lay? Yaxshisi-davr menga tobe bo'lsin. Yo'q, birodar, bular hammasi beboshlik, ma'nosizlik!» (I.S.Turgenev. «Otalar va bolalar» T.: 1953 y. 40-b.). Yana inkorga qaytadigan bo'lsak, suv isitilganda bug'ga, metall eritilsa, suyuq holatga o'tadi, bu yerda rivojlanish sodir bo'lmaydi, bir narsa o'rniga ikkinchi narsa paydo bo'ladi. Dialektik inkor esa shunday ziddiyatlarni hal qilishni maqsad qilib qo'yadiki, buning natijasida taraqqiyotda yuqori bosqichga erishiladi. Bu dialektik inkorning xususiyatlari. Dialektik inkorning yana bir xususiyati shuki, u eskisini yemiribgina qolmay, uning ijobiy tomonlarini umumlashtiradi, sintez qiladi. Sintez oldingi eskining ijobiy tomonlarini mexanik tarzda birlashtirish emas, balki yuqori bosqichda o'zgartirilib birlashtirilishidir. Ikkinchi inkor harakatning shart-sharoitlarini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, inkor tushunchasi davrni ham ifodalaydi.

Ma'lum jarayonning tugalanish davri yangi davr uchun asos bo'ladi, bu hol cheksiz davom etadi. Davriylik taraqqiyot ritmini xarakterlaydi. Davriylik tufayli harakat quyidan yuqoriga qarab boradi. Davriylik to'g'risidagi masalani kundalik hayotimizda uchraydigan juda oddiy narsa va hodisalardan tortib g'oyat murakkab biologik va ijtimoiy hodisalar va inson bilishining hammasida ko'rishimiz mumkin. Masalan, don urug'i tuproqqa tashlangach, ma'lum bir davr o'tishi bilan asil holatini yo'qotadi, ya'ni inkor etiladi. U o'sib rivojlanib, o'simlik shaklini oladi, o'simlik ham o'sish, gullash davridan so'ng o'zini inkor etib donga aylanadi, lekin paydo bo'lgan don ilgarigi bitta donning o'zini takrorlamay, balki bir necha don sifatida, o'z tarkibidagi o'zgarishlar orqali vujudga keladi. Biogenetik qonun ham yuqorida aytilgan fikrlarning to'g'riligini isbotlaydi.

Biogenetik qonunning mohiyati shundan iboratki, har bir tirik organizm o'zining individual paydo bo'lishi va taraqqiyoti davomida shu turga xos bo'lgan o'tmishdagi eng oddiy bir hujayralik shaklidan tortib barcha taraqqiyot bosqichlarini qisqa davr ichida takrorlaydi. Bu takrorlash oddiy, aynan takrorlash bo'lmay, balki yangi sharoitda yuqoriroq asosda sodir bo'ladi. Turlarning kelib chiqishi bunga

misoldir. D.I.Mendelleyevning kimyoviy elementlar davriy tizimida ham bu holat yaqqol ko‘rinadi. Kimyoviy elementlar atom og‘irliklarining ortib borishi natijasida elementlarda sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Davrdan davrga o‘tish, davr ichida elementdan elementga o‘tish sakrashdan iborat bo‘ladi.

Jamiyatning umumiy yo‘nalishi, rivoji-eski ijtimoiy- iqtisodiy formatsiyaning yangi, yuqoriroq ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya bilan almashish tarixidan iborat. Bu jarayon asosida ishlab chiqarish usulining rivojlanishi yotadi. Ishlab chiqarish usulining o‘zi esa yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarning xarakteriga mos, mavjud ishlab chiqarish munosabatlarining eskirganligini inkor qilish yo‘li bilan paydo bo‘lishi va rivojlanishidan iborat. Demak, shunday qilib, inkorni inkor qonunining mohiyati shundan iboratki, hodisalarning inkor etilishi ijobiy tomonlarning saqlab qolinishi natijasida mavjud hodisalar to‘xtab qolmaydi, yo‘qolib ketmaydi, balki yana olg‘a qarab harakat qiladi.

Taraqqiyotning yo‘nalishi va xarakteri haqidagi masala borasida asrlar davomida faylasuflar o‘z fikrlari bilan o‘zaro tortishib keldilar. Ba’zi bir faylasuflar olamdagi o‘zgarishlar bir doira ichida takrorlanishdan iborat desa, ba’zi birlari to‘g‘ri chiziq bilan boradi, deb tushuntirib keldilar. Masalan: XVIII asrda yashagan italiyalik faylasuf Janbattisto Viko fikricha, jamiyat doimo takrorlanib turuvchi uch bosqichni: go‘daklik, yigitlik va yetuklik davrini kechirib boradi.

Fransuz olim Jan Batist Lamark esa tirik tabiatda harakat uzluksiz va sakrashsiz to‘ppa-to‘g‘ri yo‘ldan ilgarilab boradi, deydi. Bu nazariyani jamiyatga tatbiq etishni fransuz revolyutsiyasining ideologlari, ma’rifatchilari, D.Didro, Gelvetsiylar ham olg‘a surgan edilar. Inkorni inkor qonuni fan va amaliyot uchun muhim ekanligini ular ham sezgan edilar.

Tabiat fanlari tarixidan ham inkorni inkor qonuni namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Masalan, geometriyada Evklid geometriyasidan N.I.Lobachevskiy geometriyasi kelib chiqqan. Noevklid geometriya evklid geometriyasini inkor etadi va shu bilan birga uning davomi-geometriyaning yana bir yangi bosqichi sifatida yuqoriga ko‘tariladi. Xuddi shuningdek, fizika fanidan ham misol: XVIII asr yorug‘lik nazariyasida tasdiqlangan qoidaga binoan, yorug‘lik zarrachalardan iborat bo‘lib, shu zarrachalar harakat

qonuniga binoan yorug'lik tarqaladi degan fikr fizikada hukm surgan. Shu bilan birga ikkinchi nazariya – yorug'lik to'lqin xususiyatga ega, shu to'lqin qonunga muvofiq tarqatiladi, degan qoida ham paydo bo'lgan. Lekin yorug'likning kvant xususiyati kashf etilishi bilan XX asr fizikasi bu ikki kashfiyot yorug'likning ikki xil xususiyatiga ega ekanligini ochib berdi. Yorug'likning difraksiya va interfraksiya xususiyati orqali uning to'lqin xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatsa, foton elektrik effekti uning zarra xususiyatiga ega ekanligini ochib berdi. Ikki-bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar sintezi natijasida bu nazariyaning kamchiligi bartaraf etildi (inkor etildi). Bu nazariya bir pog'ona yuqoriga ko'tarildi, inson bilimi esa boyidi. Demak, yangilik eskining negizida paydo bo'lib, u bilan aloqada bo'lishidir. Uning ijobiy tomonlaridan foydalanishi asosida fan mazmuni boyib boradi. Shunday qilib, falsafaning inkorni inkor qonuni quyidagi umumiy xususiyatlariga ega:

1. Inkorni inkor qonuni – tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyotining umumiy, obyektiv xarakterga ega qonunidir.

2. Dialektikaning inkorni inkor qilish qonuni dunyodagi narsa va hodisalarning ilgarilab rivojlanishi murakkab jarayonini ifodalash bilan birga, eskilik bilan yangilik, o'lib borayotgan narsalar bilan tug'ilib kelayotgan narsalar o'rtasidagi dialektik munosabatlarni birdan bir to'g'ri hal qilib beradi. Bu qonun eski-o'lib borayotgan tomonlarni dialektik olib tashlash bilan birga, ularga xos bo'lgan ijobiy tomonlarni saqlab qolish zarurligini asoslab beradi.

3. Inkorni inkor qonuni olamni bilishda tafakkur taraqqiyotida g'oyat muhim rol' o'ynaydi.

4. Inkorni inkor qonuni, jamiyat va tafakkur taraqqiyotini sipiral' shaklida ilgarilab borishini ochib beradi.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi

Taraqqiyotning bir butun tushunish uchun falsafa fanining kategoriya tushunchasi haqida oldingi paragrflarda qisman to'xtalgan bo'lsak-da, tahlil qilish lozim.

Har bir fanning o'ziga xos, u o'rganayotgan obyektiv dunyodagi predmet, hodisalar doirasining xususiyatlarini ifodalovchi

tushunchalari, terminlari bor. Bu tushunchalar cheksiz obyektiv olamning turli sohalari va shu sohalarni o'rganuvchi fanlarning maxsusligi, bir-birlaridan o'zaro farqlarini ko'rsatib turadi. Falsafa fani ham obyektiv reallikni ma'lum, o'ziga xos tushunchalarda aks ettiradi va ular yordamida dunyoni o'rganadi.

Predmet va hodisalarning umumiy hamda muhim tomonlari, xususiyatlari yoki munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalar-kategoriya deb aytiladi. «Kategoriya» so'zi grekcha bo'lib, lug'aviy ma'nosi «guvoh», «ta'rif», «ifodalovchi» demakdir. Falsafa fani kategoriyalari boshqa fan kategoriyalaridan o'zining nihoyatda umumiyligi bilan farqlanadi. Falsafa kategoriyalari eng umumiy tushunchalar sifatida inson fikri shakllari bo'lib, va shu taxlitda ular mantiqiy mazmunga ham egadirlar. Kategoriyalarning mantiqiy mazmuni deganda, inson tafakkuri hodisalarining mohiyatiga kirib borishi, uning chuqurlashuv darajasi ko'zda tutiladi. Falsafiy kategoriyalar obyektiv dunyoning eng umumiy va muhim pog'onalari va tayanch markazlari hisoblanadilar. Ularni bila borish orqali insonning nazariy va amaliy faoliyati uchun muhim bo'lgan qonuniyatlarini va insonni bilish faoliyati natijasida dunyoni o'zgartirishda erishgan yutuqlarini xarakterlaydi. Falsafa kategoriyalarida inson tafakkurining mazmundorligi va yetukligi, hamda tashqi olamni bilishdagi katta muvaffaqiyatlari o'z ifodasini topgan. Inson ongida tabiatning in'ikos etishi qandaydir qotib qolgan, voqelikning o'lik nusxasi emas balki, narsalar mohiyatiga chuqur kirib borishning murakkab dialektik jarayonidan iborat. Bu jarayon o'zining ichki mantiqiga ega bo'lib, bu mantiq narsalar mantiqiga mos keladi. Shu bilan birga, bu mantiq nisbiy mustaqillikka ega. Bilishning ichki mantiqi bilish tafakkurining ijodiy faolligi xarakterini, harakat qilish va rivojlanish jarayonini, obyektiv dunyoga nisbatan murakkab munosabatini chuqur tushunishga yordam beradi. Falsafiy kategoriyalar mazmun jihatidan tashqi olamning qonuniyatlariga mos keladilar, lekin o'zlarining mavjudligi, shakllariga qarab farq qiladilar. Kategoriyalar o'z manbai mazmuni jihatidan obyektivdir, lekin shakl jihatidan subyektivdir. Agar narsalar va ularning taraqqiyot qonunlari moddiy bo'lib, inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda obyektiv ravishda mavjud ekan,

tafakkur kategoriyalari ma'naviy bo'lib, faqat kishilar miyasidagina mavjuddir.

Kategoriyalar dialektikasi shundayki, ular bilish jarayonida bir-biriga uzviy bog'langan holda kelib chiqadilar, o'zaro munosabatda bo'ladilar, chunki tushunchalar, kategoriyalar universal bog'lanish va rivojlanishda bo'lgan moddiy dunyoning inson miyasidagi in'ikosidir.

Dialektik kategoriyalar ilmiy bilishda muhim metodologik rolni bajaradilar. Obyektiv dunyo hodisalarning eng muhim qonunlari harakatini o'rganish bilan falsafiy kategoriyalarni kashf qilishga bir tomondan, narsalarning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga yordam beradilar, ikkinchi tomondan, obyektiv narsa va hodisalar haqida yangi bilimlar olishga, ularni to'ldirishga sababchi bo'ladilar.

Ayrimlik, xususiylik (maxsuslik) va umumiylik kategoriyalari boshqa kategoriyalar singari bilishning ayrim muhim tomonlarini inson fikrining alohida shakllari sifatida xarakterlaydi, obyektiv olamdagi narsalar va hodisalarning o'zaro bog'lanishi va taraqqiyotini aks ettiradi.

Ayrimlik-yakka sifat va miqdor, xususiyat, aniqlikka ega bo'lgan alohida ko'rinishdagi narsa, hodisa yoki jarayondir. Umumiylik-voqelikdagi barcha yoki bir qancha yakka predmet yoki hodisalardagi mavjud umumiy tomonlar, xossalar va belgilarning majmui hamda ular orasidagi aloqa va munosabatlarning o'xshashligidir.

Xususiylik – narsa yoki hodisalarning shunday doirasiki, bunda ular ma'lum bir munosabatda umumiy, boshqasida yakkalik, alohidalikdir.

Umumiylik narsa va hodisalarning eng umumiy tomonlari orasidagi aloqalarni o'zida aks ettirib, o'z ko'rinishini faqat yakkaliklar orqali aniqlashtiradi. Bunga quyidagi misollar orqali ishonch hosil qilish mumkin: ma'lumki, tirik organizmlar mavjudligining zarur sharti ulardagi modda almashinuvi jarayonidir. Tirik organizmlar taraqqiyotining bu umumiy qonuni o'simlik va hayvonlar rivojlanishining xususiy qonunlari orqali namoyon bo'ladi. Tabiatdagi organik birikmalarning o'zlashtira oladigan o'simliklarda hayvonlarga nisbatan assimlyatsiya juda chuqur va murakkabdir. Hayvonlar organizmi iste'mol qilinadigan ovqatdagi organik birikmalarning tayyor mahsulotlarnigina qayta ishlaydi.

Ayrimlik va umumiylik dialektik bog‘liqligini ayrimlikning rivojlanishi davomida umumiylikka aylanishi orqali ham namoyon qiladi. Umumiylik va ayrimlik birgalikda bir butunlikni tashkil qilsada, ularning har biri o‘z xususiyatlariga ham ega.

Har bir umumiylik bir qancha ayrimlarga xos bo‘lgan tomonlar, belgi xossalarni o‘z ichiga olganligi uchun qandaydir ayrimlik bilan teng qilish mumkin emas. Ayrimliklar orqali namoyon bo‘ladigan, ularning maxsus xususiyatlarini o‘zida aks ettiradigan umumiylik o‘zining mustaqil qiymatiga ega. Shu bilan birga ayrimlikni umumiylikka almashtirib yubormaslik kerak. Har bir ayrimlik umumiylikni ifodalaydigan xossa, belgi va tomonlar bilan bir qatorda, faqat o‘ziga xos bo‘lgan va shu orqali boshqa ayrimliklardan farq qiladigan-maxsus xususiyatlarga ham ega. Bu xususiyat va belgilar umumiylik tomonlarni qamrab olmasdan, faqat ayrimlikda yashaydi.

Umumiylik va ayrimlikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Umumiylikni ayrimlikka va aksincha, ayrimlikni umumiylikka qarshi qo‘yish amaliy jihatdan katta xato va zararli xulosalarga olib kelishi mumkin.

Ayrimlik, xususiylik va umumiyliklar har birining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek ularning o‘zaro dialektik aloqasini bilish voqelikdagi hodisalar analiziga aniq tarixiy yondoshishning zaruriy shartidir. Har qanday hodisaning mohiyati uning o‘ziga xos maxsus xususiyatlari, shuningdek, uning boshqa narsa va hodisalar bilan umumiy tomonlari hisobga olingan taqdirdagina noto‘g‘ri tushunilishi mumkin.

Hodisalar zanjirida o‘zidan boshqa, ikkinchisini keltirib chiqargan hodisa-sabab, kelib chiqqani esa oqibat deyiladi.

Obyektiv hodisalar o‘rtasida sabab-oqibat bog‘lanishlarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagicha ifodalanishi mumkin: birinchidan, hodisalarning sabab-oqibat aloqadorligi umumiy tavsifga ega. Dunyoda hech bir narsa sababsiz yuz bermaydi, ikkinchidan, sabab va oqibat kategoriyalari yakka, alohida hodisalarning yuz berishini bildiradi, chunki, u yoki bu hodisani o‘rganish uchun uning boshqa hodisalarini ajratib olish lozim. Shundagina hodisalar ichidan biri sabab, boshqasi oqibat sifatida ko‘zga tashlanadi.

1. Dialektika nuqtai nazaridan qaraganda sabab voqelikdagi narsa va hodisa jarayonlarning kelib chiqishini aniqlaydigan genetik bog'lanishdir.

2. Sabab-oqibat bog'lanishning xususiyati shundan iboratki, ma'lum vaqt va sharoit mavjud bo'lgan taqdirdagina bir hodisa boshqa hodisani keltirib chiqaradi. Sharoit, bu voqelikdagi narsa va hodisalarning yuzaga kelishi, mavjud bo'lib turishidir, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan obyektiv omillar majmuidir.

3. Sabab va oqibat bog'lanishlarning asosiy belgilaridan biri, sabab-oqibatning vaqtida ketma-ket kelishidir. Sabab vaqt nuqtai nazaridan oqibatdan oldin keladi va uni keltirib chiqaradi. Bu yerda shuni hisobga olish lozimki, ketma-ket keluvchi har qanday narsa, sabab-oqibat bog'lanishlari bo'lavermaydi. Masalan, kunduzdan keyin kechasi, kechadan keyin esa kunduz keladi. Bundan kunduz kechaning, kecha esa kunduzning bo'lishi sababi, degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Chunki, kunduz va kechaning almashib kelishi yerning o'z o'qi va quyosh o'qi atrofida aylanib turishidir.

4. Sabab-oqibat bog'lanishlarning muhim xususiyatlaridan biri-bu bog'lanishning zaruriy xarakterga egaligidir. Ya'ni sharoitlar ayni bir xil bo'lganda, bir xil sabab har doim bir xil oqibatni keltirib chiqaradi.

Sabab va oqibat bog'lanishlari turli-tuman shakllarda ifodalanadi. Falsafa bosh va ikkinchi darajali, ichki va tashqi, obyektiv va subyektiv sabablarni farq qilish lozimligini ta'kidlaydi. Narsa yoki hodisa uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, ularning umumiy zarur belgilarini ko'rsatib beradigan bosh sababdir. Bosh va ikkinchi darajali sabablar taraqqiyotga turlicha oqibatlar ko'rsatayotganliklari uchun amaliy faoliyatda ularni bir-biridan ajrata olish muhimdir.

Ichki sabablar oqibatning kelib chiqishida belgilovchi bo'lsa, tashqi sabablar hodisaga bevosita aloqador bo'lmagan tashqi hodisalarning ta'siridan iboratdir. Ichki sabablar hodisalarga xos bo'lgan ichki qarama-qarshilikning kurashidan kelib chiqadi, shuning uchun ham oqibatning kelib chiqishida hal qiluvchi rol' o'ynaydi, tashqi sabablarning yig'indisi sharoitni, muhitni tashkil qiladi, bu asosan ichki sabablar orqaligina hodisalarning kelib chiqishiga ta'sir etadi. Ichki sabablar oqibatning kelib chiqishida belgilovchi,

takrorlanuvchi xarakterga ega bo'lsa, tashqi sabablar yig'indisi va sharoit doim tarixiy xarakterga ega bo'lganligi uchun ham o'zgaruvchidir. U rivojlanishning turli davrlarida turlicha bo'ladi va ichki sabablarga turlicha ta'sir etadi.

Ijtimoiy hayotda obyektiv va subyektiv sabablar ham bir-biridan farq qiladi. Obyektiv sabablar – iqtisodiy omillar taraqqiyoti natijasida kelib chiqqan, xohishga bog'liq bo'lmagan sabablar. Subyektiv sabablar esa muayyan ijtimoiy hodisalarning yuz berishini tezlashtiradigan yoki sekinlashtira oladigan shaxslarning amaliy strategiyasi va taktikasidir.

Sabab va oqibat murakkab dialektik bog'lanishda bo'lib, bu bog'lanish har doim bir xil emas, balki o'zgaruvchan, nisbiydir. Buni quyidagilardan ko'rish mumkin:

a) bitta sabab bir qancha oqibatlarni keltirib chiqara oladi. Masalan, elektr toki lampochkalar yonishi, stanok harakati va boshqalarning sababi bo'lishi mumkin;

b) bitta sabab bir qancha sabablar orqali, ya'ni jismning o'sishi, quyosh nuri, elektr toki, ishqalanish kabi hodisalarning har biri orqali yuz berishi mumkin;

v) sabab va oqibatning o'zaro ta'siri ularning o'z o'rinlarini almashish orqali ham ifodalanishi mumkin.

O'ziga xos bo'lgan kategoriyalaridan biri zaruriyat va tasodif kategoriyalaridir. Bu kategoriyalar kishilarning obyektiv reallikdagi sabab-oqibat bog'lanishlari haqidagi tasavvurlari yanada chuqurlashishi natijasida shakllanadi. Kishilar o'z mehnat faoliyati jarayonida sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rganib, sabab va oqibat o'rtasidagi munosabatlarning zaruriy ekanligiga, agar sabab mavjud bo'lsa, oqibat muqarrar suratda kelib chiqishiga ishonch hosil qila boshladilar.

Zaruriyat va tasodif kategoriyalari moddiy dunyoning obyektiv bog'lanishlarini aks ettiradi. Ular aks ettirgan bog'lanishlar sifat jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega.

Zaruriyat quyidagi asosiy belgilar bilan xarakterlanadi:

1) zaruriyatning sababi o'zida bo'lib, u mazkur hodisa yoki jarayonning ichki tabiatidan kelib chiqadi;

2) zaruriyat voqelikdagi narsa yoki hodisalarning chuqur, muhim qaytarilib turadigan ichki bog'lanishlardan kelib chiqadi;

3) zaruriyat oldingi taraqqiyot yo'li orqali tayyorlanadi;

4) zaruriyat muqarrarlik xususiyatiga ega, muvofiq shart-sharoit mavjud bo'lganda, zaruriyat hodisalar jarayonini muqarrar sur'atda, muayyan yo'nalishga olib keladi.

5) zaruriyat umumiy, ommaviy va shuning uchun ham u tipik xarakterga ega. Tasodif zaruriyatdan farq qilgan holda, quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1) tasodifning sababi o'zida emas, balki boshqa narsa yoki hodisalardadir;

2) tasodif voqelikdagi muhim bo'lmagan, ikkinchi darajali bog'lanishlardan kelib chiqadi;

3) zaruriyatdan farq qilgan holda tasodif hodisaning butun taraqqiyoti davomida tayyorlanmaydi, balki o'z tabiatiga ko'ra turlicha bo'lgan jarayonlarning aralashuvi natijasida sodir bo'ladi;

4) tasodif narsalar rivojlanish tendensiyasini belgilab bermaydi va shuning uchun ham muqarrar emas. Tasodif yuz berishi va yuz bermasligi mumkin;

5) tasodif tipik bo'lmagan, individual xarakterga ega.

Zaruriyat va tasodif o'zaro dialektik aloqadadir. Bu birinchidan, ikkinchidan, ular «sof» holda bo'lmasdan, balki bir -biri bilan chambarchas bog'liq mavjudlikda ko'rinadi. Zaruriyatdan mutloqo ajralgan tasodifning bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, ayrim tasodif bilan bog'liq bo'lmagan zaruriyat ham mavjud emas.

Tasodiflar zaruriyat tizilmasi ostida bekingan bo'ladi va ular orqali yuzaga keladi. Zaruriyat va tasodif abadiy o'zgarmas bo'lmay, rivojlanish jarayonida bir-biri bilan o'rin almashib turadi, ya'ni tasodif sifatida vujudga kelgan hodisalar, bog'lanishlar sharoitining o'zgarishi bilan asta-sekin zaruriylik xarakteriga kira boradilar va ma'lum sharoitda zaruriy bo'lgan hodisalar asta-sekin predmet rivojlanishining ichki mohiyatini belgilashdan chiqib, tasodif holda uchray boshlaydi.

Moddiy olamdagi narsa va hodisalarning haqiqatdan hozirda qanday ekanligi va kelajakda qanday rivojlanishligini mazmun va shakl kategoriyalarini bilmasdan turib o'rganib bo'lmaydi.

Mazmun-muayyan narsa va hodisalarning ichki elementlar va o'zga tuzilishlar majmuidan iborat. Shakl, mazmun ifodalanishining strukturasini tashkil etuvchisidir. Masalan: atomning mazmuni uni

tashkil etgan elementar zarrachalarning joylanish tartibi va strukturasidan iborat. Ijtimoiy hayotga e'tibor bersak, u yerda ham mazmun va shakl aloqadorligini ko'rishimiz mumkin. Masalan: moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usulini tashkil qilgan ishlab chiqaruvchi kuchlar ijtimoiy ishlab chiqarishni mazmunini, ishlab chiqarish munosabatlari esa uning shaklini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish usuli doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lgan har ikkala tomonning birligidan iborat.

Demak, mazmun narsalarning ichki jarayonlari, xossalari, aloqalari, rivojlanishlari va zaruriyatlari tendensiyalarining mazmunidan iborat.

Shakl mazmunni ifodalash usuli, mazmun elementlarining nisbatan turg'un, muayyan aloqalari va o'zaro ta'sirlari, uning tuzilishi strukturasidir.

Mazmun va shakl kategoriyalari mohiyat va hodisa kategoriyalariga juda yaqin. Lekin bular aynan o'xshash tushunchalar emas, mazmun narsaning barcha elementlari va jarayonlaridir. Mohiyat esa narsaning ichki asosiy muayyan munosabatlaridir. Agar mazmun mohiyatga nisbatan boyroq bo'lsa, mohiyat ham ma'lum munosabatda mazmunga nisbatan chuqurroqdir. Shakl mazmunning struktura tuzilishi, hodisa va mohiyatning namoyon bo'lishidir. Biz hodisani dastlab idrok qilgandan oldin shaklga, keyin mazmunga, nihoyat uning mohiyatiga kirib boramiz.

Falsafa tarixida turli oqimlar mazmun va shaklni turli xil talqin qilib, ularning ahamiyati va dunyoni o'rganishdagi rolini tushunishga harakat qilib keldilar. Aynan, qadimgi dunyo falsafasida Aristotel mazmun va shakl kategoriyalariga katta ahamiyat bergan edi. U materiya bilan shakl o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni asoslashga harakat qildi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsa materiyadan paydo bo'lgan, lekin materiya o'z-o'zicha passiv, faoliyatsizdir. Undan farqli o'laroq «Shakl faol ibtidodir». Materiya, Aristotel fikricha, shaklning ta'siri ostida borliqdagi, voqelikdagi muayyan narsalar mazmunga aylanadi. Aristotel shaklni mazmunga nisbatan ustun qo'yib, barcha shakllarning shakli, ilohiysi xudo mavjuddir, degan xulosaga keladi.

Ibn Sino mazmun va shakl masalasida Aristotelga nisbatan oldinga ketdi. Lekin ibn Sino ham mazmun va shakl masalasini

umuman materiya va uning yashash shakllari doirasida tekshirdi. Ibn Sino ta'limoticha, materiya va shakl buyum, hodisalarning kelib chiqishida teng huquqli ikki asosdir. Materiya buyumlar uchun moddiy material bo'lsa, shakl asosida buyumlar o'z mavjud holatiga keladilar.

XVIII asr metafizik materializmining vakillari mazmun va shakl o'rtasidagi uzillshni bartaraf qilishga harakat qildilar. Ingliz materializmning asoschisi F. Bekonning fikricha, shakl materiyaga xosdir. Ammo u, shakl ma'nosida harakatni, mazmun ma'nosida esa materiyani tushunadi. XVIII asr nemis faylasufi I. Kant mazmun va shakl kategoriyalari har qanday inson tajribasidan ham oldin, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan mushohada tushunchasidir, deb qarar edi. Uningcha, bilish shakllarining obyektiv olam bilan, ya'ni mazmun bilan hech qanday aloqasi yo'qdir. Bu bilan I. Kant mazmunni shakldan ajratib qo'yadi.

Gegel idealistik nuqtai nazardan turib, Kantni mazmun va shaklni bir-biridan ajratib qo'yganligini tanqid qlldi. Lekin Gegel mazmun ostida absolyut g'oyani, shakl ostida g'oya rivojlanishining turli xil ifodalanishi yotadi, deb ta'lim berdi.

Hozirgi zamondagi ba'zi falsafa oqimi vakillari shaklni mazmundan mutloqo ajratib olib, uni mustaqil, har qanday rivojlanishning asosida yotuvchi, degan fikrda talqin qiladilar. Ayniqsa, bu san'atda keng tarmoq yoygandir.

Mazmun va shakl kategoriyalarining o'zaro munosabatlari, ularni hal qilishning to'g'ri yo'li bu ularga nisbatan dialektik yondoshishdadir. Har bir narsa va hodisada mazmun bilan shakl ajralmas birlikda bo'ladi. Mazmunga ega bo'lib, shaklga ega bo'lmagan yoki shaklga ega bo'lib, mazmunga ega bo'lmagan hodisalar yo'q.

Mazmun bilan shakl birgalikda. Mazmun hal qiluvchi asosdir. Mazmun shaklni belgilaydi. Oldin mazmun so'ngra shakl o'zgaradi. Shakl nisbiy mustaqildir. Shaklning nisbiy mustaqilligi yana quyidagilarda o'z ifodasini topadi: shakl mohiyatning rivojlanishini tezlashtirish yoki sekinlashtirishi mumkin. Shakl mazmunga mos kelgan hollarda, u mazmunning rivojlanishiga yordam beradi. Aksincha, shakl mazmunga zid kelganda mazmunning rivojlanishiga

to‘sqinlik qiladi. Shakl muayyan sharoitlarda mazmunni rivojlantirishdan orqada qoladi.

Shunday qilib, falsafaning mazmun va shakl ta’limotiga tayanib, ko‘p qirrali hayotning turli sohalarida ba’zan yuz bergan ziddiyatlarni o‘z vaqtida oldini olish mumkin.

Biror moddiy narsa yoki hodisa mazmunini batafsil tekshiradigan bo‘lsak mazmunning alohida tomonlari bilan uning strukturasi chunonchi, narsani tashkil qilgan elementlari va ularning bog‘lanishlarini turg‘un tizimi o‘rtasida munosabatlarni ochish zaruriyati kelib chiqadi. Bu munosabatlar dialektikasi “element” va “ struktura” kategoriyasida aks etadi.

Element-nisbiy turg‘un, sifat muayyanlikdagi reallikdir. U boshqa nisbiy turg‘un, sifat muayyanligidagi realliklar bilan o‘zaro aloqadorllkda bo‘lib, ular bilan birgalikda butun tizimni tashkil qiladigan reallikdir.

Struktura-butunni (narsani) tashkil qiluvchi elementlarning nisbiy turg‘un bog‘lanishlar tizimidir. Bog‘lanish o‘z ichiga alohidalik yoki birgalikni olgan munosabatning zaruriy tomoni ekanligini hisobga olinsa, strukturani elementlar o‘rtasidagi turg‘un munosabatlarning majmui desa bo‘ladi.

Nihoyat, strukturani o‘zaro ta’sirdagi elementlar tabiatidan kelib chiqadigan zaruriy, umumiy munosabat bog‘lanishlarining turg‘un tizimi tashkil qilib, ular “qonun” kategoriyasi orqali aks etganligi uchun uni butun tizimdagi elementlar bog‘lanishini ifodalovchi qonunlar majmuidan iborat, deb tasavvur qilish ham mumkin.

Element va struktura bir-biri bilan organik bog‘liqlikda mavjud bo‘lib, ular bir-birini taqozo qiladi, butunni tashkil qilgan elementlarning bog‘lanish xarakteri, ularning butun doirasidagi munosabatlar tizimi elementlarining tabiatiga, ularning sifati va miqdoriga bog‘liq. Elementlarning sifat xususiyati, o‘rni, roli, va ahamiyati esa, ular ishtirok etayotgan bog‘lanishlar sitemasi ya’ni butunning strukturasiga bog‘liq. U yoki bu butunni tashkil qilgan elementlarning o‘zgarishi strukturaning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ya’ni strukturaning paydo bo‘lishi esa unga kiruvchi elementlarning muvofiq ravishda o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ularda yangi xususiyat, yangi sifat va miqdor tavsifnomalari paydo bo‘ladi. Struktura butunni tashkil qiluvchi ta’sir sifatda izomeriya hodisasini ko‘rsatishi

mumkin. Bu bir xil tarkibdagi va bir xil molekulyar og'irlikdagi turli moddalarning mavjudligi bo'lib, uni A.M.Butlerov o'zining kimyoviy tuzilish nazariyasida tushuntirib bergan. Bu nazariyaga muvofiq kimyoviy birliklarning sifati uning molekulasini tarkibiga kirgan atomlar soni, xarakteri bilangina belgilanmasdan balki, uning strukturasi bilan ham belgilanadi. Bunda bir xil tarkibli lekin turli sifatli moddalarning mavjudlik imkoniyati vujudga keladi.

Element va struktura qarama-qarshiliklar birligini tashkil qiladi. Elementlar doimo o'zaro ta'sirda bo'lib, doim o'zgarib turadi. Struktura esa turg'unlikka, o'zgarmaslikka intiladi. Bu ziddiyat rivojlanishning ma'lum bosqichda o'zgargan elementlarga mavjud struktura mos kelmay qolganida, eski struktura buziladi va yangisi o'rnatiladi. Yangi strukturani tashkil topishi moddiy unsurlarning yangi holatga, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishini anglatadi. Bu yerda mazmun va shakl aloqadorligi qonuniyatlari namoyon bo'ladi. Chunki element mazmunning muhim tomonini tashkil qilsa, struktura shakl(ichki tomoni)ni tashkil qiladi. Shunday qilib, element va struktura mazmun va shakl aloqadorligi dialektikasini izchilligini ko'rsatadi.

Endi moddiy unsurlarning rivojlanishi va ishlab chiqarishida muhim rol o'ynaydigan "struktura" va " funksiya" kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Funksiya tushunchasi butun tizim elementlarining bir-biriga o'zaro ta'siri va ularning barqaror mavjudligini ta'minlovchi boshqa tizimlar (unsurlar) bilan o'zgarishlar ta'sirini aks ettiradigan jarayon. Bu yerda struktura narsadagi hamma turg'unliklarni ifodalaydi.U o'zaro ta'sir tufayli vujudga kelgan o'zgarishlarga qarshi bo'ladi.

Struktura va funksiya qarama-qarshi tendensiyalarga ega. Struktura va funksiya o'zaro bog'liq va narsaning mavjudligi asosini tashkil qiluvchi ziddiyatlardan iborat bo'lib, bu narsaning ishlab turishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Mavjud struktura doirasidagi unsurning elementlarini o'zaro va shuningdek, boshqa narsalar bilan ta'siri uning butunligini saqlab, moddiy unsurning harakatlanib turishini ta'minlaydi, uni tashkil qilgan elementlarning funksiya o'zgarishlarining yig'ilib borishi natijasida strukturaning qayta tashkil qilinishining rivojlanish holatini – narsaning yangi sifat holatini, uning boshqa narsaga aylanishini ifoda etadi. Bu yerda o'z-

o‘zidan «struktura» tushunchasini turli kategorial munosabatlarda ishlatganimizda ma’nosi o‘zgaradimi yoki bir ma’noda qolaveradimi?, degan savol kelib chiqadi. O‘zgaradi, albatta. «Struktura» tushunchasini «shakl» kategoriyasi sifatida uni mazmun bilan shakl, bog‘liqlik dialektikasini aks ettirishda ichki turg‘un bog‘lanishlarnigina emas, balki tashqilarini ham nazarda tutamiz. Chunki narsaning mazmunini faqat ichki o‘zaro ta’sirlar va o‘zgarishlar emas, tashqilari ham tashkil qiladi. Shakl – bu nisbatan turg‘un bog‘lanishlar tizimi bo‘lib, unda ichki va tashqining o‘zaro ta’sirida jarayonlar amalga oshadi.

Biz «struktura» tushunchasidan element va struktura bog‘liqlik dialektikasini aks ettirishda foydalanganimizda, strukturani faqat ichki bog‘lanishlar (narsa uchun) tizimini tushunamiz. Zero «struktura» tushunchasini struktura va funksiya bog‘liqlik dialektikasini aks ettirish uchun ishlatganimizda, struktura deganda, o‘z ichiga zaruriy moment va zveno sifatida elementlarni ham olgan turg‘un bog‘lanishlar tizimini tushunamiz. Bu yerda o‘zaro ta’sirlar va ular tufayli vujudga kelgan o‘zgarishlarga element va bog‘lanishlarning birligidan iborat bo‘lgan tizim qarama-qarshi qo‘yiladi. Shunday qilib, «struktura» kategoriyasi ko‘p ma’noli bo‘lib, uning ma’nosi qanday maqsadni bajarilishi va qaysi kategoriya bilan dialektik juftlikni tashkil qilishiga bog‘liq. Strukturani qaysi sohada olib qaramaylik u narsani tashkil qilish va mavjudlikda muhim rol’ o‘ynaydi. U o‘zaro ta’sirdagi moddiy narsalarni tizimli elementlarga, shu bilan birga, butunni qismlarga aylantiradi. Element-tizimga nisbatan mustaqil, alohida bo‘laklarga ajralgandir. Bu bo‘laklar esa, muayyan, o‘zaro bog‘lanish tipi va butunlik bilan harakatlanadi. Aslida tizimni bunday tushunish, uni moddiy narsa bilan ayniylashtiradi. Haqiqatan ham, narsa alohida, nisbatan mustaqil elementlarga ajralgan butundan iborat bo‘lib, unda bu elementlar bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda va bog‘liqlikdadir.

Endi «butun», «qism» va «element» kategoriyalarining taqqoslab, ularni o‘xshashlik va farqli jihatlarini aniqlashimiz kerak.

«Qism» tushunchasi ham, «element» tushunchasi ham, muayyan butunga nisbatangina ma’noga egadir. Butundan tashqari qism, faqat qismni emas, balki, mustaqil moddiy narsani tashkil qiladi. Element ham shunday. U yoki bu reallik, boshqa realliklar

bilan o‘zaro ta’sirda butun tizimni tashkil qllmagunicha element bo‘la olmaydi, balki u narsadir. Narsa qachonki, tegishli strukturaga kirib, yangi-butun tizimni vujudga kelishiga olib keluvchi boshqa realliklar bilan o‘zaro aloqada bo‘lsa, narsa-elementga aylanadi. Qism ham, element ham, butunning xususiyatini, uning xossasini, sifat muayyanligini ifodalaydi.

Qism va elementning farqi shundan iboratki birinchisi butunni tashkil qilgan komponentlarni, ularni, o‘zaro ta’sirini, ularga mos munosabat va bog‘lanishlarni ifodalaydi, ikkinchisi esa, faqat ma’lum aloqadorlikda bo‘lib, butun sistemani hosil qilgan komponentlarga taalluqlidir.

Shunday qilib, element bo‘lish uchun muayyan mustaqillikka ega bo‘lgan, o‘zaro ta’sirda ishtirok etgan, u yoki bu sistemani tashkil qilgan, qat’iy funksiyani bajaruvchi realliklar bo‘lishi kerak. «Qism» tushunchasi «element» tushunchasiga nisbatan umumiyroq tushunchadir.

Butun va qism kategoriyalari voqelikni o‘rganishning muayyan formasi bo‘lib, dunyoni moddiy birligini ifodalaydi. Aniqrog‘i bu muammo yagonalik va ko‘plik dunyoda bo‘lganligi, voqelik hodisalarda turli-tuman va o‘zaro bog‘liqlik o‘rtasida ziddiyatlar ifodasi borligini aniqlashga, ochishga yordam beradi. Bu muammo ilmiy bilish tarixida turlicha hal qilinib kelindi, binobarin, butun va qism kategoriyalarining munosabatlari ham turlicha tushunilgan.

Ba’zi falsafa namoyondalari-eleatlar bo‘lib, ular uchun dunyo butun sifatidagina real borliq, o‘zgarmaydigan, harakatsiz borliqdir. O‘zgaruvchanlik, bo‘linuvchanlik esa real borliq emas, bu faqat dunyoning xossasidir. Aristotel fikricha, qismlar butun kabi real mavjudlik bo‘lsa ham, butun muhim hal qiluvchi rol’ o‘ynaydi. Bu yerda uning «shakllar shakli»ni eslash kifoya qiladi. Bunday butun va qismning munosabatini izohlash o‘rta asr falsafasiga ham xos bo‘lgan.

Boshqa nuqtai nazarda turuvchilar asosan Marksga qadar bo‘lgan materialistlar bo‘lib, ular dunyoni asosiy elementlar: olov, havo, suv, tuproq, atomlarga tenglashtiradilar.

Mohiyat va hodisa kategoriyalarini ko‘rib chiqamiz. Mazmun va shakl kategoriyalari bilishning hodisa, mohiyatiga tomon birga borishining bosqichlaridir, dedik. Mohiyatni bilish esa fanning

pirovard maqsadi hisoblanadi, chunki, u narsa va hodisalarning harakati va rivojlanishining asosida yotgan qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Mohiyat hodisaning ichida yashiringan, moddiy olamning turli-tuman hodisalarida yuz beradigan chuqur, muhim, nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqelikning ichki tomonidir. Hodisa mohiyatning u yoki bu holda uchratilishini ifodalovchi obyektiv voqelikning o'zgaruvchan, harakatchan xususiyatlarga, belgilarga boy bo'lgan tomonidir.

Har bir narsada mohiyat va hodisa ajralmas birlikda bo'ladi. Har qanday mohiyat albatta, hodisalarda ko'rinadi, namoyon bo'ladi. Har qanday hodisada mohiyat namoyon bo'ladi.

Mohiyat va hodisa kategoriyalari umumiy va maxsus jihatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, mohiyat ichki aloqa va tomonlarni, hodisalar, tashqi aloqa va tomonlarni ifodalaydi. Shuning uchun mohiyat sezgilarimiz orqali bevosita idrok etilmaydi. U bizdan yashiringan holda mavjud bo'ladi. Mohiyat narsalarning sirtida emas, balki ichida bo'lgani uchun chuqur ilmiy tahlil qilish va izlanish natijasida, amaliyot jarayonida yuzaga chiqishi mumkin. Hodisa esa, aksincha, inson tomonidan hissiy organlar orqali bevosita idrok qilinadi. U hissiy organlarimizga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etib, u yoki bu sezgini uyg'otadi.

Hodisani bilishgagina asoslanib chiqarilgan xulosa to'g'ri bo'lavermaydi, chunki, voqealarning ko'rinishi doim mohiyatni to'g'ri, to'la ifodalay bermaydi.

Bir necha asrlar davomida astronomiyada dunyoning geotsentrik tuzilishi haqida Ptolomey asoslab bergan fikr hukmron edi. Olimlar yerni olamning markazi, Quyosh va barcha yulduzlar uning atrofida aylanadi, deb keldilar. Bu oddiy ko'zga ko'rinuvchi hodisalarni yuzaki ko'rsatish asosidagina chiqarilgan xulosa edi.

XV-XVI asrlarda yashagan mashhur polyak astronomi Kopernik geliotsentrik tizim haqidagi fikrni asoslab berdi. Uning yer harakatsiz jism bo'lmay, balki, u o'z o'qi atrofida aylanadi, bundan kecha va kunduz hosil bo'ladi, hamda yer boshqa planetalar kabi Quyosh atrofida aylanadi, bundan to'rt fasl kelib chiqadi. Bu hodisalar ichida yashiringan mohiyatning belgisidir, deb ko'rsatgan edi.

Ikkinchidan, mohiyat doimiyligi va barqarorligi bilan farq qiladi. Hodisalar harakatchan bo'lib, ba'zan yo'qolishi, ba'zan yangidan paydo bo'lishi mumkin, biroq mohiyat esa o'zini tug'dirgan obyektiv sharoit mavjud ekan, u saqlanib turaveradi.

Mohiyat va hodisa, shuningdek umumiy tomonlarga ham egadir. Chunonchi: birinchidan, har qanday mohiyat u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi, hodisa esa, mohiyatning u yoki bu holdagi ko'rinishidir; ikkinchidan, mohiyat va hodisa obyektiv xarakterga ega bo'lib, inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir; uchinchidan, mohiyat ham, hodisa ham doimo o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Mohiyatning o'zgarishi yoki yo'qolishi hodisaning yo'qolishiga yoki o'zgarishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan kategoriyalarning barchasi rivojlanishdagi buyum va hodisalarning turli tomonlarini, bu tomonlarning dialektik munosabatlarini ifodalasa, imkoniyat va voqelik kategoriyalari ularni vujudga kelishi, shakllana borishi, rivojlanish davrlarini, darajalarini aks ettiradi.

Shuning uchun ham imkoniyat va voqelik kategoriyalarining xususiyatlarini o'rganish narsa va hodisalarning hozirdagi mavjud shakli bilan bir qatorda, ularning o'tmishi hamda kelajagini ham nazarda tutishni talab qiladi, chunki, imkoniyat va voqelik uzluksiz rivojlanish jarayonida bo'lgan narsa va hodisalarning ikki xil davrini, ikki xil holatini, bu davrlarning o'zaro munosabatini o'zida ifodalovchi kategoriyalardir.

Imkoniyat va voqelik. Voqelik bu mavjud dunyo, mavjud narsalardir. Lekin bular rivojlanish jarayonida birdaniga vujudga kelmay, o'zining ma'lum kelib chiqish davriga, tarixiga ega. Voqelik o'zining tug'ilish davrida imkoniyat shaklida mavjud bo'ladi. Imkoniyat hali amalga oshmagan, lekin yuzaga chiqishi mumkin bo'lib, voqelikka aylana oladigan narsa yoki hodisadir.

Ba'zan faylasuflar imkoniyat va voqelik kategoriyalariga real dunyodan ajratib olingan, unga bog'liq bo'lmagan abstraksiya deb qaraydilar. Masalan, I.Kant imkoniyat va voqelikni tafakkurga bog'liq tushuncha sifatida qarab, uning tashqi olamga hech qanday aloqasi yo'q, deb hisoblagan. Gegel ham imkoniyat va voqelik real borliqning emas, balki mantiqiy g'oyalar rivojlanishining holatlaridir, deb qaragan.

Har qanday voqelikning paydo bo'lishi va mavjudligi muayyan qonuniyatlarning ta'siri bilan belgilanadi. Agar ana shu shart buzilsa, u holda voqelik o'zining zaruriyatlik xususiyatidan, mavjud bo'lgan huquqidan mahrum bo'ladi. U yoki bu tarzdagi imkoniyat paydo bo'lishining asosi obyektiv qonuniyatdir. Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadigan, o'ta mos keladigan hodisalargina imkoniyat holida yuz berishi mumkin.

Imkoniyatning teskarisi imkoniyatsizlikdir. Imkoniyatsizlik obyektiv olam qonunlariga zid bo'lib, unga mos kelmaslikdir. Masalan, doimiy dvigatel' qurish imkoniyati mavjud emas, chunki, u energiyaning saqlanishi va bir turdan ikkinchi turga aylanish qonuniga zid bo'lib, unga mos kelmaydi. Magnitdagi shimoliy qutbni, janubiy qutbdan ajratish imkoniyati ham yo'q; chunki bu hol qarama- qarshiliklar birligi va kurashi qonuniga ziddir.

Imkoniyat imkoniyatsizlikdan farq qilib, u ma'lum darajadagi ehtimollikka ega. Ehtimollik imkoniyat rivojlanishining obyektiv darajasi, uning o'lchovi.

Imkoniyatsizlik ehtimollikka ega emas, chunki u moddiy dunyo qonunlariga zid. Imkoniyat paydo bo'lishi uchun minimal kamolatga yetishish, aniq voqellika aylanish, maksimal darajadagi ehtimollikka ega bo'lish shart. Imkoniyatlar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Masalan, sepilgan urug', shart-sharoit borligidan qat'iy nazar, o'simlik bo'lib chiqish imkoniyatiga ega. Bu–urug'ning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Bordiyu urug'ni qushlar yeb ketgan bo'lsa, u holda urug' o'sib chiqmaydi. Bu faqat urug' o'sib chiqishi uchun tashqi imkoniyat zarurligini ko'rsatadi.

Ichki va tashqi imkoniyatlar turli mavqega ega bo'lganliklari uchun hodisalar rivojlanishida bir xil rol' o'ynamaydi. Ichki imkoniyat va hodisalar rivojlanishida, zaruriyat, qonuniyat bilan bog'langan bo'lib, tashqi imkoniyat sababi esa boshqa narsa yoki hodisalarda bo'ladigan tasodif bilan bog'liq. Hayotdagi formal, abstrakt va real imkoniyatlarni ham farqlash lozim.

Formal imkoniyat deganda obyektiv qonunlarga zid bo'lmasada, voqelikka aylanishi uchun hech qanday shart-sharoitga ega bo'lmagan imkoniyatlar tushuniladi.

Amalga oshishi uchun hamma shart-sharoitlar bo'lgan imkoniyat abstrakt imkoniyat, deyiladi. Abstrakt imkoniyatning

formal imkoniyatdan farqi to'la bo'lmagan ba'zi shart-sharoit mavjud bo'lgan imkoniyatlardir. Real imkoniyat doim aniq xususiyatga ega, amalga oshuvchi imkoniyatlardir.

Formal va abstrakt imkoniyatlar imkoniyatsizlik bilan bir xil emas, chunki ular ham obyektiv borliqda o'zlarining asosi va zaminiga ega. Masalan, rak kasalliklarini tugatish imkoniyati mavjud bo'lsada, u hali aniq emas. Shuning uchun ham bu imkoniyat abstraktdir, chunki u fanning real imkoniyatlaridan kelib chiqmaydi. Real imkoniyat esa konkret sharoit va shu asosda amal qiluvchi qonuniyatlardan kelib chiqadi. Shunday imkoniyatgina voqelikka aylanishi mumkin.

Abstrakt imkoniyat taraqqiyot davomida real imkoniyatga aylanib qolishi mumkin. Masalan, odamlar fazoga uchishni atlaqachon orzu qilganlar ammo tarix nuqtai nazardan, yaqin paytgacha buning uchun zarur shart-sharoit yo'q edi. Shu sababli kishilarning fazoga uchish haqidagi orzusi formal, abstrakt imkoniyat bo'lib qolar edi. Odamning fazoga uchishi real imkoniyatga aylandi. Bundan ko'rinib turibdiki, abstrakt imkoniyat yangi, real imkoniyat tug'ilishiga zamin bo'lishi mumkin.

Tabiat bilan jamiyatda imkoniyat bilan voqelik o'rtasida dialektik bog'lanish bor. Bu bog'lanish, avvalo, imkoniyat va voqelikning bir–biriga o'tib turishi, imkoniyatning ma'lum shart–sharoitlarini voqelikka aylanishi, voqelikning esa yangidan-yangi imkoniyatlarini yaratishida ifodalanadi.

Imkoniyatni voqelikdan ajratish mumkin emas, chunki voqelik imkoniyat tomonidan tayyorlanadi. Shu bilan birga, imkoniyatni voqelikka tenglashtirish ham yaramaydi, chunki barcha imkoniyat ziddiyatli xususiyatdadir. Obyektiv olamda narsa va hodisalar ikki qarama-qarshi tomonga bo'linadi va ular bir-birini taqozo qiladi. Imkoniyat va voqelik kategoriyalari ziddiyatlarni aks ettiradilar.

Imkoniyat voqelikka aylanishi haqida gapirganda shuni e'tiborga olish kerakki, imkoniyat voqelikka aylanish yo'lida bir qator izchil bosqichlarni bosib o'tadi, shu jarayonda dastlab imkoniyatlar kengayib boradi. Shundan keyin yangi imkoniyatlar tug'iladi. Ular o'z navbatida ko'p va turli imkoniyatlarga olib keladi. Hozirgi zamon sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishda ham O'zbekistondagi barcha imkoniyatlar hisobga olingan.

Imkoniyat va voqelik fan va amaliyot uchun katta metodologik ahamiyatga ega. Imkoniyat va voqelik kategoriyalaridan yangini yengib bo'lmasligi haqidagi muhim xulosa kelib chiqadi. Endi yuzaga kelayotgan yangi, dastavval imkoniyat ko'rinishida vujudga kelganligi tufayli yangining rivojlanishini diqqat bilan kuzatib borish, unga ahamiyat berish lozim. Yangi o'zining dastlab paydo bo'lishida nimjon bo'lsa ham yengilmasdir. Chunki u kun sayin o'sadi, mustahkamlanadi va zamonaning progressiv tendensiyalarini ifodalaydi. Eski kun sayin kuchsizlanishi natijasida asta-sekin halokatga uchraydi.

Obyektiv qonuniyat va kishilarning ongli faoliyati orasidagi dialektik munosabat erkinlik va zaruriyat kategoriyalarida ifodalanadi. Kishilarning ongi, xohish jarayonidan qat'iy nazar qonunlarning amal qilishi jamiyat taraqqiyotidagi zaruriyatni ifodalaydi.

Zaruriyat tarixiy taraqqiyotning qonuniyatidir. Bu tarixiy qonuniyat tasodiflar orqali o'ziga yo'l ochadi. Jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuni xarakteriga ega ekanligi to'g'risidagi qarash kishilarning ongli faoliyatlarini inkor etmaydi. Erkinlik va zaruriyat, kishilarning ongli faoliyati haqidagi eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala hozirgi falsafiy adabiyotlarda ma'lum darajada yoritilgan.

Tayanch so'z va iboralar:

Metod, fan kategoriyalari, falsafiy kategoriyalar, qonun, miqdor, sifat, mohiyat, ayniyat, tafovut, dialektika, sinergetika, narsa, aloqa, qarama-qarshillk, ziddiyat, inkorni-inkor qonuni, vorisiylik, harakat, rivojlanish, butun, qism.

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Metod va metodologiya tushunchalari.
2. Falsafa metodlarining o'zaro aloqadorligi.
3. Sinergetikaning asosiy tamoyillari.
4. Hozirgi zamon metodologiyasi.
5. Dialektikaning muqobillari va ularning o'zaro ta'siri.
6. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi qonunining jamiyat taraqqiyotida amal qilish.

7. Falsafa kategoriyalarining ijtimoiy ahamiyati va tarixiy zaruriyati.

8. Dialektika kategoriyalari falsafiy kategoriyalar tizimida qanday o'rin egallaydi?

Mavzuga oid test savollari:

1. Falsafiy metodlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang;

a) Dialektika,metafizika, sofistika, eklektika;

b) Dialektika, kuzatish, eksperiment, taqqoslash;

v) Metafizika, eklektika, analitika, sofistika;

g) Metafizika, ofistika, eksperiment, kuzatish;

2. Dialektika nimani o'rgatadi?

a) tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi;

b) inson faoliyatini;

v) diniy faoliyatni o'rganadi;

g) jamiyat hodisalarini o'rganadi;

3. Bulardan qaysisi falsafiy kategoriyalar?

a) zaruriyat va tasodif, sabab va oqibat, mazmun va shakl;

b) o'simlik va irsiyat;

v) iqtisodiyot, renta, pul;

g) daftar, roman;

4. Kategoriya deb nimaga aytiladi?

a) predmet va hodisalarni izohlashda qo'llaniladigan tushunchalarga aytiladi;

b) ijtimoiy hayot yig'indisiga;

v) inson faoliyatini tushuntiruvchi jumlalarga;

g) jamiyat va inson faoliyatini aks ettiruvchi tushunchaga;

7-MAVZU. TARIXIY JARAYONDA JAMIYATNING MADANIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARI. JAMIYAT VA TARIX FALSAFASI.

Jamiyat va tarixning o'zgaruvchanligining falsafiy jihatlari

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'rnini faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin.

Tarixning mazmun va mohiyatini anglab yetish borasidagi ilk urinishlarga qadimgi faylasuflarning asarlarida duch kelish mumkin. Tarix ularning talqinida oldinma-ketin yuz beradigan voqealar majmui sifatida namoyon bo'lgan. Tarix tavsifi ancha to'liq bo'lgan, ba'zan bo'yab ko'rsatilgan, lekin ularning hikoyatlari tarix haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini bermagan. Bu narrativ tarixdir (tarixchining talqini, interpretatsiyasi). Keyinchalik qadimgi faylasuflar tarixni uzluksiz takrorlanib turadigan jarayonlar, «abadiy ortga qaytish» (F.Nitsshe) sifatida tasavvur qilganlar.

Diniy an'ana tarixning butunlay boshqacha talqinini taklif qildi. O'rta asrlarda ilohiy taqdir asosiy tarixiy kuch sifatida e'tirof etildi. Tarixiy voqealarning ichki mantiqi alohida mazmun kasb etdi: Xudo nafaqat tarixiy jarayonni boshqaradi, balki adashgan insoniyatga gunohlardan forig' bo'lish, jannatdagi boqiy hayotga erishish yo'lini ko'rsatadi. Avreliy Avgustin o'zining «Ilohiy shahar haqida» asarida boqiylik va muvaqqatlik, ilohiylik va dunyoviylikning birligi to'g'risida so'z yuritadi. Uning fikricha, Iso Masih insoniyatga boqiyllk sari yo'l ko'rsatgan. Tarixning mazmuni – boqiylikka eltuvchi yo'ldan borishda, inson hayotining mazmuni esa – Xudoga xizmat qilish, gunohlardan forig' bo'lishdadir.

Ibn Xaldun tarixning mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan, uni, inson hayotining mazmuni kabi, tarix tugaganidan keyingina aniqlash mumkinligini qayd etadi. Ammo, shunga qaramay, tarixning mazmuni haqida erkinlik, ijod tushunchalariga tayanib so'z yuritish mumkin, deb hisoblaydi. Tarixning harakatida ibn Xaldun obyektivlashuvning inson ustidan hukmini kamaytiradigan, uning

erkinligi va ijodining tantanasini qaror toptiradigan jarayonlarni aniqlashga harakat qiladi.

Tarixda mazmunning mavjudligi haqidagi tasavvur, shuningdek O'rta asrlar falsafasi ilk bor ta'riflab bergan insoniyatning taraqqiyoti g'oyasi ancha yashovchan bo'lib chiqdi: u turli yo'nalish va oqimlarga mansub faylasuflar tomonidan muayyan falsafiy ta'limotlar nuqtai nazaridan u yoki bu tarzda talqin qilingan. Masalan, Ma'rifat davrida barcha tarixiy voqealarga oqilonalik mezoniga muvofiq baho berilgan. Mazkur konsepsiya eng mukammal ko'rinishda D.Didro tashabbusi bilan yaratilgan «Ensiklopediya»ning faol ishtirokchilaridan biri, fransuz ma'rifatchisi Nikolay Kondorse asarida o'z aksini topgan. U o'zining «Inson tafakkuri taraqqiyotining tarixiy manzarasiga chizg'i» deb nomlangan risolasida kishilik jamiyatining barcha jabhalariga tafakkurning kirishi g'oyasini mazkur jamiyat rivojlanishining uzoq istiqboli sifatida asoslashga harakat qiladi.

Tafakkurning tantanasi g'oyasi insoniyat tarixining mazmuni sifatida Gegel tomonidan ham asoslangan. U tarixga mutlaq ruh, olamiy Aql taraqqiyoti sifatida yondashgan. Gegel fikriga ko'ra, mazkur taraqqiyot o'zining alohida vazifasini ado etishi lozim bo'lgan ayrim xalqlar ruhi orqali amalga oshadi. Uning fikricha, tarixiy jarayon «aqlga muvofiq», ya'ni tasodiflardan yoki ayrim shaxslarning o'zboshimchaligidan qat'iy nazar o'ziga yo'l ochadigan obyektiv qonuniyatlar bilan belgilanadi. Tarixning mazmuni mutlaq ruh o'zini o'zi anglab yetishidadir, deb qayd etadi Gegel.

Bugungi kunda jamiyatning globallashuvi munosabati bilan tarixning mazmuni haqidagi masala yana kun tartibidan o'rin olmoqda. Zamonlar va xalqlar aloqasini, xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni qaror toptiradigan, ajdodlarning ma'naviy merosini saqlash va ko'paytirishni, hozirgi avlodlarning erkinligi va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan qadriyatlar tizimiga qarab mo'ljal oluvchi g'oyalar yana muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrda falsafadan sotsiologiya ajralib chiqa boshladi. Mazkur fan jamiyatni tushunishga nisbatan falsafiy yondashuvlarni asosan tan oladi va ayni vaqtda o'z predmeti va tadqiqot metodlariga ega.

O.Kont (1798-1857). Ijtimoiy tadqiqotlarning obyektivligiga erishish lozim, degan g'oyani himoya qilgan O.Kont fan sifatidagi sotsiologiya asoschisi. U sotsiologiyani ikki qismga ajratadi: birinchi qism ijtimoiy statikani, ya'ni ijtimoiy tizimlarning mavjudlik shartlarini va ularning amal qilish qonunlarini, ikkinchi qism esa – ijtimoiy dinamikani, ya'ni jamiyatning rivojlanish va o'zgarish qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy statika – odam organizmining tuzilishiga o'xshab ketadigan jamiyat «anatomiyasi»dir. Kont jamiyatda oila, din, davlat kabi muhim institutlarni farqlaydi. U jamiyat rivojlanishining uch bosqichi qonunini ta'riflaydi. Mazkur bosqichlar insoniyat aqliy rivojlanishining uch bosqichiga mos keladi: teologik bosqich (u qadimgi davr va ilk O'rta asrlarni qamrab oladi va XIII asrda tugaydi), metafizik bosqich (XIV-XVIII asrlar) va pozitiv bosqich (XIX asrda boshlanadi).

G.Spenser(1820-1903) jamiyatga individlar birlashmasi sifatida yondashadi. Uning fikricha, mazkur individlarning rivojlanishidagi farqlar jamiyat evolyutsiyasining dastlabki shartlari hisoblanadi. Jumladan, ibtidoiy qabilalar rivojlanishda oqsaganini Spenser ularning qobiliyatlari rivojlanish darajasining pastligi bilan tushuntiradi. Eng moslashuvchan jamiyatlarning yashash uchun kurashini ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni deb hisoblaydi. U iqlim, tabiiy sharoitning ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini o'rgangan. Spenser yaratgan ta'limotni keyinchalik sotsiologiyadagi geografik oqimlarning vakillari rivojlantirgan.

E.Dyugeym (1858-1917), jamiyatni tushunishni qadriyatlar tizimi bilan bog'lagan, faqat shu yo'l bilan tarixni uning o'ziga xos xususiyatiga muvofiq tarzda o'rganish mumkin, deb hisoblagan. E.Dyugeym ham qadriyatlarni jamiyat tuzilishini belgilovchi muhim omil deb bilgan. Jamiyat tuzilmasini o'rganishga nisbatan u strukturaviy funksionalizm nuqtai nazaridan yondashgan. Jamiyat borliqning alohida sohasi bo'lib, u o'z qonunlariga muvofiq rivojlanadi. Noijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan omillar jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatishga qodir emas. Jamiyat tuzilmasiga Dyugeym o'zaro ta'sirga kirishadigan va bir-birini vujudga keltiradigan ijtimoiy dalillar majmui sifatida qaraydi. Ijtimoiy dalillar sababini ongdan emas, balki bundan oldingi ijtimoiy dalillardan qidirish lozim. Ijtimoiy tuzilma dalillarning ikki guruhidan tarkib

topadi: birinchidan, u moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, ikkinchidan, ijtimoiy jamoalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy jamoalarni tahlil qilar ekan, Dyugeym oila, kasbiy guruh kabi jamoalarni, shuningdek mehnat taqsimotiga muvofiq vujudga keladigan, ijtimoiy birlik (axloq, din)ni ifoda etadigan ijtimoiy institutlarni farqlaydi. Ijtimoiy jarayonda sababiyat ijtimoiy muhitning yuqorida zikr etilgan elementlarining u yoki bu hodisani vujudga keltiradigan o'zaro ta'siridir.

M.Veber (1864-1920) o'z sotsiologik qarashlarida Rikkertning borliq va ongning o'zaro aloqasi zamirida subyektning qadriyatga bo'lgan muayyan munosabati yotadi, degan g'oyasiga tayangan. Shunga muvofiq Veber tahlil qilinayotgan materialning iqtisodiy, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan o'zaro nisbatini aniqlash lozim deb hisoblagan. O'zining «Protestantcha axloq va kapitalizm ruhi» asarida Veber dastlab Niderlandiya, Angliya va AQShda vujudga kelgan sanoat kapitalizmining qaror topishiga protestantcha axloq qadriyatlarining ta'sirini tahlil qiladi. U hozirgi zamon xo'jalik hayotida hukm surayotgan kapitalizmning o'ziga xos xususiyatiga mos keladigan xo'jalik yurituvchi subyektiar – tadbirkorlar va ishchilar shakllanishi natijasida vujudga kelganini qayd etadi. Veber tarixiy materializmning g'oyalar iqtisodiy munosabatlar ustqurmasi sifatida yuzaga kelgan, degan «sodda» tasavvurlariga to'g'ridan-to'g'ri e'tiroz bildiradi va aksincha, kapitalizm «ruhi» uning vujudga kelish omili bo'lgan, deb hisoblaydi.

O'zining boshqa bir qator asarlari, chunonchi: «Tushunuvchi sotsiologiyaning ba'zi bir kategoriyalari haqida», «Jahon dinlarining xo'jalik axloqi», «Xo'jalik va jamiyat», «Xo'jalik tarixi»da Veber ijtimoiy harakat va uning motivatsiyasi tushunchasini ta'riflab berdi. Borliqni tushuntirish uchun u «ideal tiplar» metodologiyasini yaratdi va undan foydalandi. Veber fikriga ko'ra, ijtimoiy organizm hujayrasi hisoblanadigan ijtimoiy harakat ikki omil: subyektiv motivatsiya va boshqalarga qarab mo'ljal olishni o'z ichiga oladi. U ijtimoiy harakatning oqilona maqsadli ijtimoiy harakat, oqilona qadriyatli ijtimoiy harakat, affektli ijtimoiy harakat va an'anaviy ijtimoiy harakat kabi tiplarini farqlaydi.

O'zining ijtimoiy harakat konsepsiyasini Veber hokimiyatni tushunishga nisbatan ham tatbiq etadi. O'zgalarning umidlariga qarab

mo'ljal olish ijtimoiy harakatning muqarrar belgisi bo'lgani bois, hokimiyat siyosiy munosabatlarda ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro umidlarini nazarda tutadi. Shu holdagina hokimiyat qonuniylik kasb etadi: boshqarayotganlar o'z buyruqlariga bo'ysunishlariga umid qiladilar; boshqarilayotganlar esa oqilona buyruqlarni kutadilar. Veber qonuniy davlatlarning: ish vakolatlari qonuniy belgilanishining majburiyligiga bo'lgan ishonchga ko'ra hukmronlik; muayyan xulq-atvorga ko'nikish bilan belgilangan hukmronlik; xarizmatik hukmronlik kabi uch tipini farqlaydi. Boshqaruvning oqilona-byurokratik tipi vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan hokimiyatning namunaviy-oqilona tipini Veber hokimiyat ideali deb hisoblagan.

XX asrda M.Veber ilgari surgan tarixiy jarayonning teng huquqli omillari ta'siri haqidagi g'oyasi asoslab berildi. Ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bir qancha nazariyalari texnika, sanoat, axborot tizimlari, kommunikatsiya, globallashuv kabi omillarni birinchi o'ringa qo'yadilar.

N.Jo'rayev (1952) fikricha,vaqt o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borishi natijasida tarix falsafasi atrofidagi mulohazalar kengayadi. Uning predmeti va obyektiga aniqlik kiritiladi. Shu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, N.Jo'rayev hozirgi zamon tarix falsafasining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

- insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;

- insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelapyotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqlol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal etish;

- sivilizatsiyalar va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil etish;

- tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil etish, ularni o'tmish, bugun, kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;

- tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonunlar nuqtai nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat ilmiy va amaliy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;

- qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan tadqiq etish va baholash;

- insoniyat tarixida to'plangan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarning tarixiy tahlili orqali mantiqiy va falsafiy asoslarini o'rganish;

- tarixni anglashning yangi yo'nalishlarini hozirgi zamon falsafiy tafakkur mezonlari asosida belgilash hamda unga tayangan holda ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash orqali, tarixning murabbiylik rolini oshirish;

- yaxlit insoniyat taraqqiyoti omillarini va manbalarini o'rganish, shu asosda jahon tarixiy taraqqiyot istiqbollarini belgilash;

- tarix fani predmeti va metodologiyasini hozirgi zamon talablari asosida qayta ishlab chiqish hamda tarixni tadqiq etishning turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy tarix, iqtisodiy tarix, din tarixi, san'at tarixi, etnogenezis va boshqa yo'nalishlar bilan mushtarak holda kompleks tadqiqotlarni olib borish orqali, inson, insoniyat va uning tarix yaxlit mohiyatini ochib berish[1].

Ana shu vazifalarni hal etishda tarix falsafasi va tarix fanining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bir qarashda tarix falsafasi va tarix fani bir-biridan ayri yo'nalishdek ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixida qaysidir hodisaga tarixchi tarix ko'zi bilan qarasa, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi. Aslida har ikki qarashlar zamirida inson taqdiri, tafakkur tarzi va manfaatlar ustuvorligi yotadiki, bu inson fenomeni va hayot falsafasining mantig'idir.

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari

Tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligi, uni davriylashtirish va uning shakllarini tizimga solish haqidagi tasavvurlar, shuningdek, insoniyat tarixiy rivojlanishini harakatlantiruvchi

[1] Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari-T.: Ma'naviyat, -B.186. 2001

kuchlar va uning yo'nalishi haqidagi masala har doim tarix falsafasining muhim tarkibiy qismlari hisoblangan.

«Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat? Bu savolga javob berar ekanmiz, tarix falsafasi tushunchasiga «Falsafiy qomusiy lug'at» mualliflari bergan ta'rifni keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz: «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bog'liq bo'lgan bo'limi»[1]. Demak, tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarix falsafasining predmeti tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat. Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada o'zgargan va hozirgi vaqtda tarix falsafasining turli yo'nalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi.

Masalan, antik davr tarixchilari va faylasuflari (Gerodot, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarx va b.)ning tadqiqotlari o'tgan va hozirgi zamon kishilarining qilmishlari, tabiat va insonning o'zaro aloqasi haqida ma'lumotlar yig'ishdan, ya'ni tarixiy dalillarni ularni nazariy jihatdan anglab yetmasdan va yagona falsafiy-tarixiy tizimga solmasdan tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan. Tarixiy harakat yo'llarini, tarixiy jarayon tendensiyalari va yo'nalishini anglab yetish muammosi antik davr mutafakkirlari, avvalo Gerodot, Fukidid, Aristotel, Teofrast, Pliniy Katta va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otgan. Bu tarixchi va faylasuflarning asarlarida insoniyatning o'tmishi va kelajagi haqida muayyan tasavvurlar, odamlarning qilmishlari haqida, tarixiy voqealarning yo'nalishi va mazmuni to'g'risida mulohazalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik bularning barchasi jamuljam holda «tarix falsafasi» deb nomlangan, lekin ular hali qarashlarning mukammal tizimini tashkil etmagan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar va tarixchilarning aksariyati diniy-mifologik dunyoqarashga amal qilgan. Bu dunyoqarashga ko'ra, jamiyatda, xuddi tabiatdagi kabi, aylanma harakat mavjud, odamlarning hatti-harakatlari taqdirga yoki xudolar irodasiga bo'ysunadi. Buyuk shaxslar – jamoa oqsoqollari, siyosiy arboblar,

[1] Философский энциклопедический словарь. – Москва ,Современный литератор, 1989 700-б.

qahramonlarga xos bo'lgan, o'z tabiatiga ko'ra o'zgarmas sanalgan ehtiros va iroda inson xulq-atvorini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'rta asrlarda (Avgustin va b.) tarix falsafasining predmeti sifatida avvalo, Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish amal qilgan. O'rta asrlarda falsafiy tafakkurining namoyandalari Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy va b. Injil va yunon-rim falsafiy-tarixiy tafakkurini sintez qilib, tarixning yangi, teologik konsepsiyasini yaratdi, tarixiy voqealarning mazmuni, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifalari haqida yangicha tasavvurlarni ilgari surdi. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, xristian mualliflari, tarix orqali ilohiy niyatni tushunib yetishga harakat qilib, aylanma harakat g'oyasini rad etdilar va tarixiy jarayonni o'tmishdan kelajak (bo'lg'usi panohga erishish, masihning kelishi) sari chiziqli harakat sifatida tasavvur qildilar.

Sharqda tarix falsafasining (A.Beruniy, ibn Xaldun, A.B.Narxashiy, R.Hamadoniy) predmeti sifatida jahon tarixi, umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini belgilovchi kishilik jamiyatining o'ziga xos davriylik nazariyasi alohida o'rin tutadi. "Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega"[1]. Beruniy tarixni o'rganish tahlil qilish va so'ng xulosalar chiqarish zaruligini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'fish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baho berish mumkin deb hisoblaydi. Markaziy Osiyo mutafakkiri A.R.Beruniy podsholiklar tarixi orqali o'tmishni davrlarga bo'lishni taklif qiladi. Tarix uning fikricha, fikr va tafakkur manbai. U doimo turli fanlarning o'zaro ta'sirining uzviyligi va uyg'unligi natijasida takomillashadi. Shu bois, tarix har qanday olim uchun tadqiqotning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Beruniy tarixiy tadqiqotlarni boshqa turdosh fanlarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borish, muayyan natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. Zero, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asossiz ekanligin isbotlash tarixiy tadqiqot uchun mas'uliyatli jarayondir. Chunki tarixiy manba

[1] Qarang: Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan.- «Ma'naviyat», 2003. -B.263

yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki o‘z manfaatlari, maqsadlari doirasida dalil to‘playdilar. Shu holat nuqtai nazaridan Beruniy “xabar-xabarchilar tufayli rost va yolg‘on tusini oladi”[1], deb e’tirof etgan. Tarixiy haqiqatni tiklash, tarixiy tafakkur va tarixiy ma’lumotlarni yig‘ish Sharq tarix falsafasida aniq me’yorlar vositasida amalga oshirilgan.

Uyg‘onish davri (XIV-XVI asrlar) mutafakkirlari, xristian tarixchilaridan farqli o‘laroq, tarixiy jarayonni dunyoviy sharoitlardan, insonning tabiatidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildilar., Nikkolo Makiavelli (1469-1527) moddiy manfaat, xususiy mulkni asrash va ko‘paytirishga intilish jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab, siklli rivojlanish g‘oyasini asoslashga harakat qildi. Uning ayrim asarlarida ijtimoiy hodisalarning qonuniyatlariga doir farazlar ham mavjud, lekin u mazkur qonuniyatlarni ta’riflashning uddasidan chiqmagan.

Uyg‘onish davrida va Yangi davrda (Nikkolo Makiavelli, Jambattista Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs va b.) tarixning maqsadi, yo‘nalishini, shuningdek, tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash (Ogyusten T’yerri, Fransua Gizo, Ogyust Min’ye) tarix falsafasining predmetiga aylangan. Yangi davrda «tarix falsafasi» atamasi ham paydo bo‘lgan, uni ilk bor 1765-yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan fransuz ma’rifatchisi Vol’ter ishlatgan. Keyinchalik tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlari va dialektikasini aniqlash yo‘lida izlanishlar olib borish Georg Gegel uchun tarix falsafasining asosiy predmetiga aylangan.

XVII-XVIII asrlar Yevropa industrial sivilizatsiyasi vujudga kelishiga va ijtimoiy rivojlanish jarayonining jadallashuviga olib kelgan sanoat va ijtimoiy-siyosiy inqiloblar davriga aylandi. Yangi davr mutafakkirlari qarashlarining shakllanishida tabiiy fanlar ulkan rol o‘ynadi. Bu davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga tabiatshunoslik shu darajada kuchli ta’sir ko‘rsatganki, tarix aksariyat hollarda tabiiy ilmiy nuqtai nazardan tushuntirilgan.

[1] Beruniy A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: «Fan», 1968.–B. 50.

Tarixiy o'zlikni anglashning rivojlanishiga o'z tadqiqotlarida tarixni inson aqlli tabiatining evolyutsiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan alohida borliq sifatida falsafiy jihatdan anglab yetishga urg'u bergan Vol'ter (1694-1778) asarlari, shuningdek, tarixiy jarayon g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Mari Jan Kondorse (1743-1794) tadqiqotlari ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Gegel (1770-1831) tarixga har bir davr betakror tarzda rang-barang bo'lgan holda, ayni vaqtda insoniyat rivojlanishining qonuniy bosqichi sanalgan yagona qonuniy jarayon sifatida yondashdi. Bu rivojlanish tabiiy qonuniyatlar sohasi bilan taqqoslaganda boshqacha xususiyat kasb etadi. Bu yerda tarixiy qonunlar kishilarning ongli faoliyati vositasida amalga tatbiq etiladi, lekin shu bilan birga tarixda muayyan obyektiv mantiq ham amalga oshiriladi va tarixiy jarayon dunyoviy aql, mutlaq g'oyaning cheksiz tarzda o'z-o'zidan rivojlanishi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida tarixiy bilim sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Turli matnlarning tarixiy va lingvistik tahlili metodlarining takomillashishi, arxeologiyaning rivojlanishi, o'tmish guvohliklariga yanada tanqidiyroq yondashish natijasida tarixiy bilim fan maqomini qo'lga kiritdi. Shu bilan bir vaqtda tarixiy va tabiiy ilmiy bilimlar butunlay har xil obyektlarga mansub bo'libgina qolmasdan, o'zlari ham bir-biridan butunlay farq qilishi yanada teranroq anglab yetildi.

Tarixiy o'zlikni anglash jarayoni evolyutsiyasining keltirilgan tavsifi bizga tarix falsafasining hozirgi konsepsiyalariga nazar tashlash imkonini beradi. Bu konsepsiyalar orasida gnoseologik yo'nalish (tanqidiy tarix falsafasi), ontologik konsepsiya, aksiologik konsepsiya, tarixning texnokratik konsepsiyalari alohida o'rin egallaydi.

Tarix falsafasining gnoseologik konsepsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran mazkur fanning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi. Bu yondashuv namoyandalari (Vil'gel'm Dil'tey, Benedetto Kroche, Georg Zimmel', Robin Kollingvud, Raymon Aron) tarix falsafasining asosiy predmeti – tarixiy o'tmishni o'rganishning mantiqiy-nazariy va metodologik muammolari, uni

nazariy jihatdan rekonstruksiya qilish va tarixiy dalillarning haqiqiyligini aniqlash, deb hisoblaganlar.

Bu yo'nalishining asoschisi nemis madaniyat faylasufi Vil'gel'm Dil'tey (1833-1911). Uning nazariyasida inson borlig'i usuli, madaniy-tarixiy voqelik sifatidagi hayot tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi (shu sababli Dil'tey nuqtai nazari ko'pincha «hayot falsafasi»ning istoritsistik varianti deb ataladi). Dil'tey fikriga ko'ra, inson o'z tarixiga ega emas, lekin uning o'zi tarixdir va aynan shunda uning mohiyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, hayot va tarix ayniydir.

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi nimani o'rganishi lozim? Dil'teyning izdoshi – Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalarini va shu bilan bir vaqtda mazkur fikr-mulohazalarning obyektini o'rganadi. Shu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Tarix falsafasining aksiologik konsepsiyasi tarixning qimmati muammosiga, shuningdek, tarixiy bilimning ayrim hodisalarini qimmatga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Mazkur konsepsiyaning rivojlanishiga nemis faylasuflari – neokantchilik Baden maktabi namoyandalari Vil'gel'm Vindel'band (1848-1915) va Genrix Rikkert (1863-1936) salmoqli hissa qo'shgan. Bu tadqiqotchilar falsafani qadriyatlar haqidagi umumiy fan sifatida tavsiflaganlar. Rikkert qadriyatlar «subyekt va obyektning narigi tomonida joylashgan butunlay mustaqil saltanat»ni tashkil qiladi, deb hisoblagan. Vindel'band va Rikkert nazariy va amaliy aqlning kantcha tafovutidan kelib chiqib, qadriyatlar haqida mulohaza yuritish va joizlikni bilishga asoslangan normativ ta'limot sifatidagi tarix falsafasini nazariy mulohaza yuritish va «borliq» haqidagi empirik ma'lumotlarga tayanuvchi tajribaga asoslangan fanlarga qarshi qo'ygan. Ular qonuniyatni tarixiy bilishning asosiy tamoyili sifatida rad etib, uni «qadriyatlarga mansub deb topish» tamoyili bilan almashtirgan. Vindel'band va Rikkert fikriga ko'ra, qadriyatlar tarixdan ustun xususiyat kasb etadi va jamuljam holda odamlarga

bog‘liq bo‘lmagan ideal transsendental (narigi) dunyoni tashkil qiladi. Bu dunyodan tegishli g‘oyalar, avvalo transsendental joizlik g‘oyasi kelib chiqadi. U mazkur qadriyatlarning vaqt va makon bilan cheklanmagan shak-shubhasiz, mutlaq ahamiyatiga ishora qiladi. Odamlar ularni anglab yetishlariga qarab qadriyatlarga tegishli munosabat va talablarni yaratadilar va ularga hayotda, xulq-atvorda, kundalik va tarixiy faoliyatda amal qiladilar.

Vindel’band va Rikkert ijtimoiy borliq va ma’naviy hayotning o‘zaro nisbatini o‘rganib, jamiyat tarixida ma’naviy hayot borliqqa nisbatan yetakchi rol o‘ynaydi, degan xulosaga kelgan va shu bois ular K.Marks taklif qilgan, jamiyatning rivojlanishida iqtisodiy omil (ya’ni borliq)ning hal qiluvchi ahamiyati asoslangan tarixni materialistik tushunishga tanqidiy ko‘z bilan qaragan. Rikkert fikriga ko‘ra, mazkur yondashuv noilmiydir, chunki u proletariat g‘alabasini «mutlaq qadriyat» deb e’lon qiluvchi marksizm siyosiy dasturi bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon G‘arb ijtimoiy falsafasi va tarix falsafasida texnokratik konsepsiyalar ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o‘ynaydi deb hisoblovchi va sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish va kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslashga harakat qiluvchi yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur konsepsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot jamiyati konsepsiyasini (Daniyel Bell, Olvin Toffler), texnotron jamiyat konsepsiyasini (Zbignev Bjezinskiy), yangi industrial jamiyat konsepsiyasini (Jon Gelbreyt)ni kiritish mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshida tarix falsafasining ko‘pgina yangi yo‘nalishlari vujudga kelgan. Ularning har biri o‘z tadqiqot predmetiga ega bo‘lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasi namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, Osval’d Shpengler, Arnold Toynbi), o‘z o‘tmishdoshlari kabi, o‘z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo‘ygan. Xristian tarix falsafasining ko‘p sonli yo‘nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Et’yen Anri Jil’son va b.), neoavgustizm (Moris Blondel’, Gabriyel’ Marsel’, Jan Lakrua), teyyardizm (P’yer Teyyar de Sharden) va qisman ekzistensializm (Karl Yaspers) namoyandalari tarixning mazmuni muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar. Tarixiy

bilish gnoseologik nazariyasi va tanqidi namoyandalari (Vil'gel'm Dil'tey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik (istoriografiya) doirasi bilangina cheklanib qolmaganlar, balki so'zning keng ma'nosidagi tarixiy ongni ham tahlil qilganlar. Neokantchilik tarix falsafasi (Vil'gel'm Vindel'band, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel', Karl Gempel' va b.) ham o'zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo'nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi.

Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi uning tuzilishi va funksiyalarini o'rganishga o'tish imkonini beradi.

Tarix falsafasining tuzilishini tarix falsafasi u yoki bu yo'nalishi namoyandalarining metodologik mo'ljallari bilan uzviy bog'liq. Ayni vaqtda, ahamiyatsiz tafovutlarni e'tibordan soqit etsak, aksariyat yo'nalishlar doirasida o'rganiladigan asosiy muammolarni qayd etishimiz mumkin. Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlarini aytib o'tamiz va ularga qisqacha to'xtalamiz.

Tarix falsafasi ontologiyasi – bu tarix falsafasining tarixiy borliq muammolari, chunonchi: tarixning mazmuni va yo'nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi, jahon tarixining yagonaligi asoslarini, insonning koinotdagi o'rnini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy qismi. Mazkur bo'limda jamiyatning rivojlanish mantig'ini, uning turli tomonlari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ham muhim o'rin egallaydi.

Tarix falsafasi gnoseologiyasi asosiy e'tiborni tarixiy bilish muammolariga, aniqroq aytganda, tarixiy faktlar va voqealarni o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish, tarixiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, tarixiy bilishda haqiqatning tagiga yetishga qaratadi.

Tarix falsafasi tarixi tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarix falsafasi predmetining shakllanishi muammolarini, tarix falsafasining turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki differensiatsiyalanish jarayonini o'rganadi. Tarix falsafasi mazkur bo'limining muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o'rnini aniqlash masalalari ham kiradi.

Tarix falsafasi antropologiyasi insonning tarixiy jarayondagi o'rnini, bu jarayonda tarix subyektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli yo'nalishlari tarixiy jarayon subyektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinflar va atoqli shaxslarni kiritadi va qo'yilgan savolga har xil javob beradi.

Tarix falsafasining funksiyalari. Tarix falsafasining funksiyalari to'g'risidagi masalani hal qilmasdan uning predmeti va o'ziga xos jihatlarini to'la anglab yetish mumkin emas. Quyida ularni ko'rib chiqamiz .

Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasi shundan iboratki, u insonda tarixga, ya'ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligiga, uning mazmuni va yo'nalishiga, insonning undagi o'rni, roli va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.

Tarix falsafasining nazariy funksiyasi tarixiy jarayonni teran anglab yetish va u haqda nazariya, ya'ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanish yo'nalishi haqidagi qarashlar tizimi darajasida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarix falsafasining mazkur funksiyasi tarixiy o'tmishni nazariy darajada rekonstruksiya qilishni amalga oshirish, tarixiy dalillar va voqealarning haqqoniylik darajasini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Tarix falsafasining metodologik funksiyasi uning qoidalarini tarixiy o'tmishning u yoki bu ijtimoiy fanlar doirasida o'rganiluvchi ayrim hodisalari va voqealarini o'rganish jarayonida amalga tatbiq etish imkoniyatidan iborat. Bu holda tarix falsafasining qoidalari va xulosalari tarix, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, huquq falsafasi, psixologiya va boshqa fanlar sohasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarda qudratli metodologik vosita rolini o'ynaydi.

Tarix falsafasining prognostik funksiyasi tarixiy jarayon qonuniyatlarini bilish jamiyat, uning ayrim kichik tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini, tarix voqealari, kishilar faoliyatining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini bashorat qilishga yordam beradi. Bunday bashorat negizida u yoki bu ijtimoiy hodisalar va umuman jamiyatning rivojlanishini prognoz qilish mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, tarix falsafasining ko'rib chiqilgan funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga o'tadi. Ularning

har biri qolganlarini nazarda tutadi va ularni o‘z tarkibiga u yoki bu tarzda kiritadi.

Hozirgi zamon tarix falsafasida tarixiy jarayon mantig‘i va yo‘nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud.

Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi.U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar oldinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi nazariyaning mohiyatini uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo‘lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o‘rtasida o‘rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma’naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma’naviy munosabatlarning o‘zaro aloqasida moddiy munosabatlar yetakchi rol o‘ynaydi. Ularning o‘zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faollyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo‘lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o‘rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma’naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko‘pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko‘p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo‘lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo‘lishi ham mumkinligi (ya’ni har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan. Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o‘zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan. Bu qoidalardan kelib chiqib,

ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlargina belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo'ylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

Shunday qilib, hozirgi davrda tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo'lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli tarixni tushunishga nisbatan, nochiziq, sivilizatsion yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi.

XIX-XX asrlarda vujudga kelgan tarixni tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnol'd Toynbi (1889-1975) N. Danilevskiy va Shpenglerning tarixning sikllilligi haqidagi fikr-

mulohazalarini rivojlantirgan, (dastlab u 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa ularni 13 tagacha qisqartirgan). Shuningdek, A.Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

A.Toynbi bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash deb hisoblab, shunga asoslangan holda yaqin kelajakda dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy rivojlanish takroriyligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyutsiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Jamiyatning vujudga kelishiga doir qarashlar. Jamiyatning vujudga kelishi haqida ajdodlarimiz hayotining arxeologlar topgan va odamlarning ko'plab avlodlari bosib o'tgan murakkab va fojialarga to'la tarixiy yo'ldan dalolat beradigan izlarga qarab xulosa chiqarish mumkin. Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar mehnat va mehnat qurollari nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra mehnat, so'ngra burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi aniq ilmiy dalillarga duch kelmadik. Z.Freyd inson vijdonini uning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu farazni umuman tasdiqlamaydi. Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi. Ernst Kassirer (1875-1945) ilgari surgan farazga ko'ra, simvolik shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramzlar va belgilar madaniyatning turli shakllarini birlashtiruvchi oliy va universal tamoyil hisoblanadi. Kassirer fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi yetarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatini qo'lga kiritgan. O'z navbatida taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan.

To‘plangan tajribani belgilar tizimida qayd etish va avloddan-avlodga o‘tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to‘dasi kishilik hamjamiyatiga aylanishining muhim omili bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish etish, o‘rnak ko‘rsatish, taqiqlar va cheklashlar tizimi muloqotning nafaqat noverbal, balki asta-sekin shakllangan verbal vositalarida ham o‘z ifodasini topgan. Muloqot mehnat ko‘nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o‘z jamoa harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini bergan. Etnografik ma’lumotlar tajribani avloddan-avlodga o‘tkazish va jamoa faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o‘yin ulkan ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari.Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi. Hozirgi ko‘rinishda jamiyat takror ishlab chiqarish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tashkil etish ichki mexanizmlariga ega bo‘lgan tarixan muayyan, yaxlit va barqaror tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat – bu odamlarning shunday bir birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya’ni odamlarning umuman ishlab chiqarish, o‘z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta’minlanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish – vaqtda davom etadigan va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan jarayon (takroriy ishlab chiqarish).Ayni vaqtda u o‘zgaruvchanlikni, muayyan ijtimoiy dinamikani (ya’ni sof ishlab chiqarishni) o‘z ichiga oladi. Ko‘rsatilgan omillarning birligi, bir tomondan, an’ana, ijtimoiy merosga, boshqa tomondan esa, amaliy va ma’naviy tajribaning oshishi va to‘planishiga asoslanadi. Ijtimoiy dinamika, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqarishda va odamlar xulq-atvorini boshqarishda to‘plangan tajribani saqlash va kelgusi avlodlarga qoldirish usullarini takomillashtirish bilan ta’minlanadi. Tajribani baham ko‘rishning muhim vositalari – til, namoyish etish, o‘rnak ko‘rsatish va eng muhimi – tajribani o‘zlashtirayotgan odam qaysi xalq vorisi bo‘lsa, shu xalqning ijtimoiy boyligi va madaniy mulki hisoblanadi.

Keng ma’noda ijtimoiy ishlab chiqarish – ijtimoiy hayotning barcha elementlarini o‘z ichiga oluvchi serqirra jarayon.Unga odamlarning ko‘payishi; moddiy ishlab chiqarish, ya’ni odamlar

hayotini saqlash va quvvatlashning moddiy omillarini yaratish; ma'naviy ishlab chiqarish, ya'ni bilim, tajriba, qadriyatlarni yaratish; odamlarni boshqarish, ular faoliyatining muvofiqligini, jamiyatning yaxlitligi va uyushqoqligini ta'minlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish –jamoaning ishi. Ayni shu sababli u ijtimoiy hayotning har bir elementiga xos bo'lgan munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ularning asosiylari – oila-ro'zg'or, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy, ma'naviy (mafkuraviy), siyosiy munosabatlardir. Ijtimoiy hayot murakkablashuviga qarab jamiyatda tabaqalanish va mehnat taqsimoti kuchayib boradi. Natijada jamiyatning nisbatan mustaqil bo'lgan alohida muhim kichik tizimlari vujudga keladi. Bu kichik tizimlarning har biri butun ijtimoiy organizm uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Jamiyatning muhim kichik tizimlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kichik tizimlardir.

Moddiy ishlab chiqarishiqtisodiy kichik tizim ishlab chiqarish faoliyati va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarining majmuidir. Har bir jamiyat o'z mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur tabliy boyliklarga ega. Ammo ijtimoiy boylik inson mehnati bilan yaratiladi. Ajdodlar yaratib qoldirgan boyliklarni saqlash va ulardan foydalanish hamda jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ijtimoiy boylikning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida mulk instituti ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositasi va rag'batlantiruvchi omili sifatida vujudga keladi. Dastavval kuch huquqi, obro' va odatga tayangan mulkiy munosabatlar keyinchalik yuridik shakl-shamoyil kasb etadi. Rivojlangan ko'rinishda mulk ijtimoiy boylikning ma'lum ulushiga egalik qilish, uni tasarruf etish va undan foydalanish huquqini anglatadi. U turli shakllarda mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud bo'llb, bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaklini ham belgilaydi.

Iqtisodiy tizim moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni hamda moddiy va ma'naviy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari – mehnat qurollari va vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi. Ishlab chiqarish moddiy-texnika vositalari va ularni ishga solishga qodir bo'lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar

o'rtasida turli-tuman munosabatlar yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsa, tashkiliy-iqtisodiy va ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan ne'matlar va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy normalar va huquq normalari bilan tartibga solinadi va ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk – xo'jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut. U nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki iste'mol predmetlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tatbiq etiladi. Ijtimoiy boylikning barcha elementlari – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, yer va yer osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ijodiy va o'zga aqliy faoliyat mahsullari va hokazolar mulk bo'lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo'lishini, xo'jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarni yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylashuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi, unga esa, o'z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta'sir ko'rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

Jamiyat rivojining ma'naviy asosi. Odamlarning ma'naviy faoliyati jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Odamlar ongli mavjudotlar bo'lib, ular o'z tafakkuri bilan ijtimoiylikning barcha ko'rinishlarini anglab yetadi. Bu jarayonda olimlar, rassomlar, jurnalistlar, turli partiyalar va harakatlarning mafkurachilari va shu kabilarning ixtisoslashgan kasbiy ma'naviy faoliyati muhim rol o'ynaydi. Ularning nisbatan mustaqil kasbiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalariga xizmat ko'rsatadi. Ma'naviy ishlab chiqarishda iqtisodiy kichik tizim qonuniyatlari, ya'ni jamiyatning xo'jalik jarayonlari o'rtasidagi takrorlanuvchi muhim-zaruriy

bog‘lanishlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ularning qatoriga ehtiyojlarning yuksalish qonuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarish qonunlari, qiymat qonunini kiritish mumkin.

Jamiyat ma’naviy kichik tizimining vujudga kelishi rang-barang ijtimoiy va shaxsiy ma’naviy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ularning eng muhimlari – ma’rifiy, axloqiy, estetik, diniy ehtiyojlardir. Ularni qondirish axborot va kommunikatsiya turli vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Axborot va kommunikatsiya ham shaxs va jamiyatning muhim ma’naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ma’naviy muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ma’naviy ehtiyojlar orasida alohida o‘rin egallaydi. Jamiyatda ma’naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari va institutlari asta-sekin vujudga keladi. Ular turli ma’naviy ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy institutlar va olimlarning turli-tuman birlashmalari tabiat, jamiyat va insonni o‘rganish bilan shug‘ullanadi va shu tariqa odamlar faoliyatini ilmiy jihatdan ta’minlaydi. Fanda ham ijtimoiy amaliyotga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan o‘z muammolari yuzaga keladi. Mazkur muammolarni yechish fan rivojlanishining sharti, uning ichki ehtiyoji hisoblanadi.

Axborot va kommunikatsiya ma’naviy ishlab chiqarishning axborot almashinuviga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sohalari bo‘lib,bu avvalo aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot berish vositalaridir. Qadimda bular podsholarning farmonlarini maydonlarda o‘qib eshittirgan jarchilar, voizlar, shoirlar va baxshilar, masxarabozlar, teatr, shuningdek, yozma adabiyot bo‘lgan. Keyinchalik, axborot texnika vositalari rivojlanishi bilan ma’naviy muloqotga bo‘lgan ehtiyojlar bosma nashrlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar) bilan qondirilgan, so‘ng radio, kino, televideniye, ya’ni hozirgi ko‘rinishdagi ommaviy axborot vositalari (OAV) paydo bo‘lgan. Hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari o‘z mahsulotini ishlab chiqaradigan va uni bozorda sotadigan sanoatning alohida tipidir.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning bevosita shaxsiy va kollektiv muloqotiga bo‘lgan ehtiyojga chek qo‘ymaydi. Mazkur ehtiyoj butunlay boshqa vositalar bilan va o‘zga sharoitda (uyda yoki teatrda, o‘quv auditoriyasida yoki yozishmalar orqali va h.k.) qondiriladi. Shunga qaramay ommaviy axborot

vositalari hozirgi jamiyatda ma'naviy muloqotning muhim elementi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda va kundalik nutqda «axborot» va «kommunikatsiya» tushunchalari ko'pincha sinonimlar sifatida ishlatiladi. Ammo ma'naviy muloqotning mazkur hodisalari amalda har xil ma'noni anglatadi. Axborot deganda yangi bilimni aks ettiradigan va mazkur axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o'zgartiradigan xabar tushuniladi. Kommunikatsiya- g'o-yalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma'naviy muloqot turi. U odamlar o'rtasida hamjihatlikning mavjudligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ong ma'naviy kichik tizimning bosh bo'g'ini hisoblanadi. U bilimlar, g'oyalar, qarashlar, fikrlar, dunyoqarashga doir mo'ljallar, qadriyatlar va hokazolarning butun rang-barangligida namoyon bo'ladi.

Individual ong – ayrim insonda uning yashash sharoiti va ruhiy xususiyatlari ta'sirida shakllanadigan dunyoning subyektiv obrazi.U shaxsning ichki borlig'iga ega bo'ladi, aksariyat hollarda hammadan yashirin ong oqimini tashkil qiladi. Ijtimoiy ong ijtimoiy birliklar va guruhlar tashqi omillar – jamiyat hayotining moddiy sharoitlari va uning ma'naviy madaniyati ta'sirida shakllantiradigan kollektiv tasavvurlarni tavsiflaydi.

Individual va ijtimoiy ongning farqi faqat ijtimoiy onggina sotsial xususiyat kasb etishini anglatmaydi. Individual ong – jamiyat ongining ajralmas qismi. Jamiyatda asrlar mobaynida shakllangan madaniyat shaxsni ma'naviy jihatdan boyitadi va individual ongning uzviy qismiga aylanadi. Har bir individ o'z xalqi, etnosining, o'zi istiqomat qiladigan joyning vakili bo'lib, uning ongi jamiyat bilan chambarchas bog'liq. Ayni vaqtda ijtimoiy ong faqat individual ong bilan muttasil o'zaro ta'sirga kirishish orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. U ikki daraja: kundalik ong va nazariy ongni o'z ichiga oladi. Kundalik ong o'z tuzilishiga ko'ra turli jinslidir. U ajdodlar to'plagan mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy me'yorlar, odatlarni, kundalik turish-turmush qoidalarini, tabiatni kuzatish natijasida shakllangan tasavvurlarni, dunyoqarashga doir ba'zi bir mo'ljallarni, xalq og'zaki ijodi (fol'klor) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Kundalik ong asosan mehnatga, kundalik turish-

turmushga va odamlarning ular bilan bog‘liq bo‘lgan yashash sharoitlari va munosabatlariga qarab mo‘ljal oladi. Kundalik hayot, ya’ni faoliyat, odatlar va munosabatlarning uzluksiz takrorlanadigan shakllari kundalik ong mazmunini tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U o‘zining sinkretik xususiyati, mazmunan qash-shoqligi, emotsiyalarga boyligi, stixiyaliligi va amaliyotga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Kundalik ongning bilish imkoniyatlari cheklangan: u hodisalar mazmunini teran anglashga, dalillarni tizimga solishga qodir emas. Nazariy ong kundalik ongga tayanadi, lekin uning tor doirasidan tashqariga chiqa oladi.

Ijtimoiy psixologiya tushunchasida o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy bo‘lgan inson ruhiyatining namoyon bo‘lish shakllari aksini topadi. Ammo ijtimoiy psixologiya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida kishilarning ommaviy xulq-atvori xususiyatlarini, ijtimoiy birliklar va guruhlarning ijtimoiy hayot hodisalariga bo‘lgan munosabatlarining muayyan tipini tavsiflaydi. Ular e’tiqodlar, ijtimoiy mo‘ljallar, tuyg‘ular, odatlar, stereotiplar va hokazolar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy psixologiya ruhiyat tarzini, muayyan ijtimoiy guruhga xos bo‘lgan jamoa xulq-atvorining ruhiy xususiyatlari va shakllari barqaror majmuini ham o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarni tushunishda ijtimoiy fe’l-atvorni hisobga olish muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy psixologiyada u yoki bu guruhga yoki butun jamiyatga mazkur jamiyat tarixining muayyan davrida xos bo‘lgan ijtimoiy tuyg‘ular muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy tuyg‘ular juda faol va o‘ta ta’sirchandir. Ular aks etish va tarqalish xususiyati va usullariga ko‘ra farq qiladi. O‘zaro ruhiy induksiya, taqlid, ijtimoiy nazorat, ta’sir ko‘rsatish, emotsiyalarni yuqtirish va hokazolar shular jumlasidandir.

Mafkura. Mafkura ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo‘lib, ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarining tizimga solingan, nazariy ko‘rinishda aks ettradigan va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash yoki o‘zgartirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, qarashlar majmuidan iborat. Mafkura mazmunini ijtimoiy rivojlanishning yetilgan, muhim, dolzarb va yechishni talab qiladigan ziddiyatlari tashkil etadi. Shunga muvofiq yuz berayotgan jarayonlar mazmuniga va ijtimoiy muammolarni yechish yo‘llariga nisbatan alohida yondashuvni aks ettiruvchi ayrim nazariy mulohazalar yuzaga keladi. Bu mafkuraning

shakli hisoblanadi. Uning mazmuni esa muayyan ijtimoiy guruh – sinf, etnik guruh, hukmron elita yoki uning muxolifati va hokazolarning manfaatlarini ifoda etishdan iborat. Mafkura shaklan obyektiv, lekin mazmun jihatidan subyektivdir. U nazariy jihatdan tizimga solingan ko'rinishda ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga bo'lgan munosabatini aks ettiradi va ularning ijtimoiy-siyosiy natijalarini nazariy jihatdan asoslash va oqlashga harakat qiladi.

Ijtimoiy ong shakl va mazmun jihatidan rang-barangdir. Ijtimoiy ongning ilmiy, diniy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, falsafiy turlari farqlanadi. Ular o'zi aks ettiruvehi hodisalar mazmuni, moddiylashuv shakli va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra farq qiladi. Ijtimoiy ong turlari yoki shakllari ko'p darajali tuzilmalar bo'lib, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan oddiy va nazariy darajalarni, ijtimoiy psixologiya va mafkurani o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ong holatlari. Ijtimoiy ongning yaxlit tavsifi ijtimoiy ong holati, ommaviy ong, jamoatchilik fikri kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ijtimoiy ong holati mazkur tarixiy davrda qaysi g'oyalar va qarashlar yetakchilik qilayotgani, ijtimoiy ongning qaysi shakllari jamoatchilik fikri va kayfiyatiga ayniqsa samarali ta'sir ko'rsatayotgani, jamoatchilik fikrini shakllantirishning qaysi mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi (u mafkuraviy majburlov mahsulimi yoki stixiyali tarzda shakllanadimi), jamoatchilik fikrini shakllantirish vositalari orasida fan, din, siyosat va huquq qanday o'rin egallashi bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong holatlarini tavsiflashda ilmiy va noilmiy tasavvurlarning o'zaro nisbatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ijtimoiy bo'hronlar va tangliklar davrida o'ta xurofiy aqidalar tiklanadi, sarosimalik kayfiyatlar, ijtimoiy ongning beqaroligi kuchayadi. Ijtimoiy ong madaniyatda o'zining amaliy ifodasini topadi.

Jamiyat rivojining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va ixtisoslashish muqarrar tarzda ijtimoiy tabaqalanishga turtki beradi, o'ziga xos vazifalarnigina bajaradigan, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lgan va o'z manfaatlarini ilgari suradigan nisbatan mustaqil ijtimoiy birliklar va guruhlar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tabaqalanish va odamlar o'rtasidagi tengsizlik jamiyatning tabiiy

holatidir. «Oltin asr», umumiy va to'la tenglik haqidagi orzu mutlaqo noilmiy bo'lgani bois uni ro'yobga chiqarish mumkin emas. Shuningdek, u zararlidir, chunki odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradi, ijtimoiy munosabatlarga keskin tus beradi. Tarixdan ma'lumki, umumiy tenglik haqidagi shiorlar hech qachon ro'yobga chiqmagan: bir tengsizlik o'rnida boshqa tengsizlik paydo bo'lgan. Oilada, urug' yoki qabilada ustun mavqega erishish uchun, o'z shaxsiy obro'si – kuchi, mardligi yoki mahorati tan olinishi uchun kurash ijtimoiy hayotning dastlabki bosqichlaridayoq yuzaga kelgan.Tengsizlik shaxs va pirovard natijada – jamiyat rivojlanishining muhim omilidir.

Ijtimoiy tengsizlik vujudga kelishi va jamiyatning rivojlanishida mulk instituti alohida rol o'ynagan. Mazkur institut vujudga kelishi bilan odamlarning mulkiy tengsizlik bilan bog'liq tabaqalanishi kuchaygan. Alohida kasbiy faoliyat sifatida aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kishilar paydo bo'lgan. Mazkur jarayonlar mehnat taqsimotini faollashtirgan. Ayrim guruhlarning alohida ajralib chiqishiga, boshqalarining turli hamjamiyatlarga birlashishiga turtki bergan. Har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilishi mazkur jamiyat tarixining ma'lum davridagi muayyan-tarixiy ijtimoiy birliklar va guruhlarning o'zaro munosabatlari, hamda mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus institutlar va muassasalar majmui bilan tavsiflanadi.

Katta ijtimoiy guruhlar – tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga keladigan sinfiy, etnik, hududiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa guruhlardir.Ular shaxs va jamiyat hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

Etnik birliklar ijtimoiy hayot xo'jalik, hudud, til, odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, e'tiqodlarning birligi belgisiga ko'ra tarkib topadigan va etnik birliklarning har xil turlarini tashkil etadigan kishilarning ayrim muayyan-tarixiy jamoalari doirasida kechadi. Urug' mazkur birliklarning ilk shakli. U qon-qarindoshlik belgisiga ko'ra uyushgan odamlar birlashmasi bo'lib, ibtidoiy jamoaning asosiy, ishlab chiqaruvchi va etnik bo'g'ini hisoblangan. Qabila ikki yoki undan ortiq urug'ning bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lgan odamlardan iborat birlashmasidir. Qabila umumiy mulk, umumiy boshqaruv, turish-turmushning umumiy jihatlari va ayrim umumiy xo'jalik faoliyatiga ega bo'lgan.

Bir hududda yashaydigan, umumiy xo'jalik faoliyati, til, ruhiyat tarzining xususiyatlari, turish-turmush, madaniyat va hayot tarzining odatlar va an'analarda mustahkamlangan ba'zi bir jihatlari elat va millatni tavsiflaydi. Ammo ularning o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjud. Qabilalarning uyushmalari, aholi migratsiyasi, tilning yaqinligi elat vujudga kelishining omillari hisoblanadi. Ular qon-qarindoshlik, urug'doshlik aloqalarini buzuvchi omillardir. Ammo elatni birlashtiruvchi aloqalar ham ancha shartlidir. Elatni tashkil etadigan qabilalar yashaydigan hudud muhim birlashtiruvchi asos hisoblanadi.

Millatning asosiy o'ziga xos xususiyati – muayyan yaxlit tuzilmaga birlashgan va assimilyatsiyalashgan elatlarning faol iqtisodiy aloqalari negizida shakllanadigan moddiy va ma'naviy madaniyatning o'ziga xosligi. Millatga uni tashkil etadigan elatlar uchun umumiy sanalgan til; ruhiyat tarzining umumiyligi; madaniyatning o'ziga xos jihatlari; shakllangan barqaror hayot tarzi; an'analar; tarixiy taqdirning birligi va rivojlangan etnik o'zlikni anglash tuyg'usi meros bo'lib o'tadi. Madaniy rivojlanish, til, umuman milliy o'ziga xoslik muammolariga millatning ta'sirchanligi ayni shu omillar bilan belgilanadi.

Tabaqalar va sinflar. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o'rin egallaydi. Tabaqalar – sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan, yuridik yoki odatga asoslangan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan huquqlar va burchlarga ko'ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar. Tabaqaviy bo'linish jamiyatning murakkab iyerarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko'ra farqlanadigan sinflar alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero sinfiy bo'linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida sinflarni farqlashning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, ijtimoiy guruhlar ega bo'lgan ijtimoiy boylik ulushiga ko'ra ular oliy, o'rta va quyi sinflarga bo'linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o'rin olishlari mumkin. Bu hol o'rta va

hatto quyi sinflarda ham kuzatiladi. Shuningdek ijtimoiy mehnatni tashkil etishdagi roliga ko'ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi zamon jamiyatida yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda shug'ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – ziyolilar alohida rol o'ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma'naviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Ziyolilar guruhi o'z kelib chiqishiga ko'ra ham, ijtimoiy maqomiga ko'ra ham turli jinslidir. Tegishli ravishda uning siyosiy mo'ljallari ham har xildir.

Institutlar. Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar – institutlarningtarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi. (Siyosiy partiyalar, jamg'armalar, uyushmalar) Institutlar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi. Bunday institutlar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlar, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta'lim va madaniyat muassasalari, sog'liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokazolar kiradi. Ijtimoiy institutlar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste'mol va hokazolarga nisbatan tatbiq etiladi. Institutlar turli birliklar va guruhlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o'zaro aloqasini ta'minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va yangilarini yaratadi.

Hududiy guruhlar. Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarning o'zaro munosabatlarida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bu ma'naviy hayot an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o'lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo'lishi mumkin (masalan, AQSh yoki Italiyada Shimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma'muriy birlikning boshqa ma'muriy birliklarga hududiy e'tirozlari hududiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi. Bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy

guruhlarning o'zaro aloqasi va manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarning turlari ularning o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo'sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida manfaatlar muhim rol o'ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo, siyosiy tizim hal qiladi.

Ijtimoiy makon. Moddiy borliq makoni kabi, ijtimoiy makon ham moddiy obyektning tuzilishi bilan belgilanadi. Tegishli ravishda ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy o'zaro aloqalar ijtimoiy makon xususiyatini belgilaydi. Makondagi aloqalar o'zaro aloqaga kirishayotgan subyektlar o'rtasida ma'lum masofa mavjudligi bilan ajralib turishi mumkin. Biz mazkur masofa xususiyatini o'zimiz uchun botiniy tarzda aniqlaymiz va yo uni saqlab qolishga, yo o'zgartirishga harakat qilamiz. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham makon mezoni bilan o'lchanadi. Ular vizual, yo bevosita, yo bilvosita, yo doimiy, yo nomuntazam bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy makon o'zining serdarajaliligi bilan ajralib turadi. Bu ayni bir inson turli birliklarda har xil maqomga ega bo'lishida namoyon bo'ladi (masalan, o'zi mehnat qiladigan ishxonada u xizmat pillapoyasida eng past o'rinni egallaydi, oilada esa boshliq hisoblanadi).

Insonning ijtimoiy makondagi o'rni uning butun umri mobaynida o'zgarib turadi. Bu hol «ijtimoiy mobillik» kategoriyasi bilan tavsiflanadi.

Jamiyat rivojining siyosiy asoslari. Rivojlangan ijtimoiy tizimga ega bo'lgan jamiyatda ijtimoiy, etnik va diniy tabaqalanishning kuchayishi muqarrardir. Mavjud mavqeidagi tub o'zgarishlardan kelib chiqadigan qarama-qarshi manfaatlarni ko'zlovchi ijtimoiy birliklar va guruhlar mavjudligi ularning o'rtasida siyosiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu manfaatlarni muvofiqlashtirish zaruriyati jamiyat siyosiy tizimining tuzilishi va funksiyalarini belgilaydi. Siyosiy tizim jamiyatda siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlat va siyosiy tashkilotlar, institutlar va muassasalar majmuidir. Siyosiy tizim murakkab tuzilishga ega. Jamiyatda fuqarolarga nisbatan qonuniylashtirilgan

majburlov choralarini qo'llash yo'li bilan o'zining siyosiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat siyosiy tizimning bosh elementi hisoblanadi. Davlat jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy instituti bo'lib, muayyan hududda unga oliy hokimiyat vakolatlari beriladi. Bu vakolatlardan davlat odamlar, ularning guruhlari va birlashmalari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanadi. Davlatning asosiy belgilari:

1. Jamiyatdan ajratilgan xalq hokimiyati. Hokimiyat – bir subyekt (hokimiyat boshlig'i)ning o'z hukmi ostidagi fuqarolarga buyruqlar berish, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish va ularni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llash imkoniyati.

2. Suverenitet, ya'ni o'z mamlakati hududida oliy hokimiyatga to'liq egalik qilish va tashqi siyosatda mustaqillik.

3. Hokimiyat chiqargan qonunlar va uning vakolatlari amal qilinadigan hudud.

4. Butun aholi uchun majburiy sanalgan qonunlar va normalar qabul qilish mutlaq huquqi.

5. Davlat xizmati xodimlari, qurolli kuchlar, majburlov organlari va hokazolarni ta'minlash uchun aholidan soliqlar undirish huquqi.

Davlatning boshqaruv shakli (ya'ni hokimiyatni tashkil etish usuli) va davlat qurilishi shakllari mavjud. Boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika farqlanadi. Monarxiya quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: birinchidan – hokimiyat bir shaxsga qarashli bo'ladi; ikkinchidan – davlat boshlig'iga hokimiyat meros bo'lib o'tadi. Davlat boshlig'ining vakolatlari hech qanday konstitutsiyaviy normalar bilan cheklanmaydigan mutlaq monarxiyalar va monarx vakolatlari konstitutsiya bilan cheklanadigan konstitutsiyaviy monarxiyalar farqlanadi. Respublikaning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda hokimiyat manbai xalq hisoblanadi, zero davlatning oliy organlarini xalq saylaydi. Parlament, prezidentlik respublikalari va aralash respublikalar farqlanadi.

Parlament respublikasi hukumatni parlament ko'pchiligi tamoyiliga ko'ra shakllantirishni nazarda tutadi: qaysi partiya parlamentda ko'pchilikni tashkil qilsa, shu partiya parlamentga hisobdor bo'lgan o'z hukumatini shakllantiradi.

Prezidentlik respublikasi davlat boshlig‘i va hukumat boshlig‘i vazifalarini prezident bajarishi bilan tavsiflanadi.

Aralash respublika (yarim prezidentlik respublikasi)da kuchli prezidentlik hokimiyati hukumat faoliyati ustidan parlamentning samarali nazorati bilan uyg‘unlikda amal qiladi.

Davlat qurilishi shakliga ko‘ra unitar, federativ va konfederativ davlatlar farqlanadi. Ma’muriy birliklari o‘z davlatchiligiga ega bo‘lmagan yagona, siyosiy jihatdan bir jinsli davlat unitar davlat hisoblanadi.

Federatsiya – siyosiy subyektlar (shtatlar, yerlar, federatsiya subyektlari va sh.k.), o‘z konstitutsiyalari, qonunchilik, ijro va sud organlariga ega davlatlar uyushmasi. Ularning mustaqilligi markaz bilan federatsiya tarkibiga kiruvchi subyektlar o‘rtasida vakolatlarning taqsimlanishi bilan belgilangan chegaralarga muvofiq cheklanadi. Davlatlararo birlashmaning alohida shakli konfederatsiya bo‘lib, u mustaqil davlatlar muayyan o‘zaro maqsadlarga erishish uchun tuzgan doimiy uyushmadir.

Forobiy fikricha, davlat jamiyatning tayanchidir. U jamiyatning mukammaligi va mukammal emasligi haqidagi g‘oyaga tayanadi. mukammallik “...shunday davlat vositasida qo‘lga kiritiladiki, u ezgu an’analar, odamlar va yaxshi axloqni tarqata olsin” va jamiyatda bu xislatlarni barqaror eta olsin. Bunday davlat bo‘lmasa fozila, ezgu xislatlar odamlarda uzoq saqlanmaydi va barqaror bo‘lmaydi. Forobiy nazarda tutgan davlat, mustabidlikka emas, balki tiklanish va faoliyatida xalqning istak va irodasi bevosita rol o‘ynaydigan davlatdir. Xalq irodasiga asoslanmagan davlat ideal davlat emas. Demak, davlat – jamiyatning tayanchi, xalqning irodasi va xohishi uning shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

Hozirgi davlatlarning aksariyati o‘z faoliyatini konstitutsiyaga muvofiq amalga oshiradi. Konstitutsiya – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquqlari va burchlarini, asosiy davlat organlarini tarkib toptirish mexanizmi va ularning faoliyat tamoyillarini, saylov tizimi asoslari va hokazolarni mustahkamlovchi davlatning asosiy qonuni. Konstitutsiya boshqaruv va davlat qurilishi shaklini belgilaydi.

Huquqiy davlatda konstitutsiya nafaqat fuqarolar va davlatning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni, shaxs huquqlari

va erkinliklarini belgilaydi, balki hokimiyatni cheklaydi. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat qonunlaridan ustunligi mustahkamlanadi. Huquqiy davlat rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjudligi bilan tavsiflanadi. Har bir individning erkinligi boshqa odamlarning erkinligi va huquqlari bilan cheklanadi. Qonunning ustunligi va huquqning umumiyligi, hokimiyat, qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo'linishi huquqiy davlatning muhim belgilari hisoblanadi.

Siyosiy tizim mamlakatning siyosiy hayotida ishtirok etuvchi turli-tuman partiyalar, harakatlar, tashkilotlar, institutlar, diniy muassasalar va ta'sir guruhlari majmuini ham o'z ichiga oladi. Siyosiy tashkilotlar davlat tuzilmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'z faoliyati dasturlarini belgilaydi, ijtimoiy birliklar va guruhlarning manfaatlarini tegishli shiorlar, ijtimoiy loyihalarda ifoda etadi va ularni amalga oshirishda qonuniy vositalar bilan ishtirok etadi. Ularning faoliyati o'z guruhlarining o'zgalarning manfaatlariga zid bo'lgan yoki ularni kamsitadigan manfaatlarini ro'yobga chiqarish zaruriyati bilan belgilanadi. Shu sababli partiyalar va harakatlar hokimiyat obro'siga tayanadi. Hokimiyatning aralashuvi ziddiyatlarni tartibga solish, manfaatlarni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.

Siyosat. Jamiyatni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat faoliyati va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va muassasalarning o'z ijtimoiy muhim manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun xalq hokimiyati institutlaridan foydalanish borasidagi faoliyati siyosat sohasini tashkil qiladi.

Davlat siyosatining asosiy vazifasi – jamiyatning yaxlitligini ta'minlash, aholini jipslashtirish, qarama-qarshi manfaatlarni ilgari suruvchi ijtimoiy birliklar va guruhlarning munosabatlarini oqilonalashtirish, mazkur vazifalarni hal qilish uchun huquqdan foydalanishdir. Davlat jamiyatning xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jabhalarini mazkur jamiyat normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan darajada tartibga soladi.

Partiyalar va harakatlar siyosatining asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining

inqirozli davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, shuningdek jamiyatda hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi.

Siyosat – ongli yoki stixiyali harakatlar sohasi. U ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini, hokimiyat esa – o'z siyosiy vazifasini anglab yetishini nazarda tutadi. Siyosiy jarayon mazmuni va yo'nalishi asosan fuqarolarning siyosiy mentaliteti bilan belgilanadi. Shu sababli siyosiy ong siyosiy tizimning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning hokimiyat institutlari bir-biri bilan jamiyat va davlatni boshqarishda o'z ishtirokiga doir aloqalari haqidagi hissiy va oqilona, qadriyatlarga doir va normativ, oqilona va intiutiv tasavvurlarini qamrab oladi. U fuqaro o'zining muayyan guruhga mansubligini va bundan kelib chiqadigan manfaatlarni anglab yetishini, hokimiyatga, o'z fuqarolik maqomiga, o'z huquqlari, erkinliklari va burchlariga nisbatan siyosiy nuqtai nazarini anglab yetishini nazarda tutadi.

Siyosiy ong ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va ularning ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari tizimidagi ahamiyatini anglash sifatida mafkurani o'z ichiga oladi. Siyosiy mafkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan tarkib topadi. Xususan, empirik daraja jamiyatning ayrim guruhlari siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. Siyosiy psixologiya siyosiy ong elementi sifatida ommaning siyosiy xulq-atvorini, ularning kayfiyati, mo'ljallari va odatlarini tavsiflaydi. Ijtimoiy guruhlarning siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglilik va stixiyalilikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajrallb turadi.

Siyosiy ong ommaning siyosiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U stixiyali tarzda shakllanishi ham, izchil shakllanishi ham mumkin. Shu sababli davlat o'z vazifalariga mos keladigan siyosiy ong shakllanishidan manfaatdor. Siyosiy ongning shakllanishida ommaviy axborot vositalari ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Ular «to'rtinchi hokimiyat» deb nomlanishi bejiz emas.

Kommunikatsiya – siyosiy tizimning zaruriy elementi. U, birinchidan, siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqa vositalarini, ikkinchidan, hukumatga axborot uzatish yo'llarini, uchinchidan, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Mazkur axborot tizimlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ommaviy axborot vositalari nafaqat aholiga axborot beradi, balki hokimiyat vakillari, partiyalar va harakatlarning u yoki bu siyosiy bayonotlarini sharhlaydi, ularga baho beradi, informatsion materiallarni tegishli tarzda saralaydi, fuqarolarning kayfiyati va siyosiy mo'ljallarini shakllantiradi. Umuman olganda siyosiy tizim ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. U o'z vazifalarini bajarish uchun nafaqat o'zining huquq va davlat majburlovi institutlaridan foydalanadi, balki jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlar va me'yorlar tizimiga tayanadigan va o'z fuqarolarining siyosiy va huquqiy ongini shakllantiradigan ishontirish vositalarini ham ishga soladi.

Ijtimoiy hayotning asoslari. Jamiyatning yuqorida sanab o'tilgan kichik tizimlari o'ziga xos vazifalarni bajaradi va bir-biri bilan aloqa qiladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ularning o'rtasida belgilovchi va belgilanuvchi muayyan iyerarxiya mavjudmi? Jamiyat – yaxlit tuzilma va har bir mamlakat betakror tarzda o'ziga xos, o'zining betakror tarixi va madaniyatiga ega. Bu tarqoq ijtimoiy kichik tizimlarni muayyan birlikka birlashtiradigan omillar mavjudligini nazarda tutadi.

Markscha falsafa nuqtai nazaridan moddiy ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkdorlik shakllariga asoslanadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizim tashkil etuvchi omll sifatida qaraladi. Hozirgi vaqtda G'arbdagi texnokratik oqim faylasuflari jamiyatning rivojlanish darajasini tavsiflovchi asos sifatida texnikaning rolini mutlaqlashtiradi. Hozirgi zamon falsafasida yetakchilik qiladigan qarashga muvofiq jamiyatning yaxlit tavsifi sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarida beriladi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

• u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;

• u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;

• unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;

• mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;

• uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;

• individlar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan, fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;

• bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviy-hokimiyat vakolatlariga ega emaslar;

• davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;

• hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan.

Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui.

XIX asr fransuz sotsiologi A.de Tokvil' Amerikada demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritar ekan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy

tashkilotlar tuzishga bo‘lgan moyilligiga alohida e’tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo‘lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma’naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko‘p kishilik va atigi bir nechta a’zodan iborat birlashmalardir... Shunday qilib, odamlar o‘zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo‘lgan maqsadga bahamjihat erishish san’atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko‘proq qo‘llay boshladilar».[1]

Fuqarolarning birlashmalari o‘z a’zolarida hamkorlik, hamjihatlik va jamiyatga sadoqat tuyg‘ulari rivojlanishiga ko‘maklashadi. Keng maqsadli guruhga ixtiyoriy qo‘shiladigan individlar nafaqat hamjihatlik ko‘nikmalarini va kollektiv harakatlar uchun fuqarolik mas’uliyati hissini kasb etadilar, balki o‘zini o‘zi boshqarish, sabr-toqatlilikni va boshqalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar.

Davlat doim fuqarolar hayotining barcha tomonlarini o‘z nazorati ostiga olishga, ularning tartibga solinmagan faoliyati doirasini toraytirishga, ularni bir-biridan ajratish va tarqatishga harakat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatga o‘z faoliyat sohasini kengaytirish va uni kishilarning axloqiy, ma’naviy, diniy, milliy va boshqa munosabatlariga tatbiq etishga yo‘l qo‘ymaydi. Davlat fuqarolik jamiyatini «yutib yuborishi» totalitarizmga xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyati davlatga muttasil ta’sir ko‘rsatadi. Bu shunday bir ta’sirki, usiz davlat o‘z vakolatlari doirasini toraytirishga hech qachon bormagan bo‘lur edi. Davlatga fuqarolik jamiyati ta’sirining bosh mexanizmi demokratiya (yunon. «demos» - xalq va «kratos» - hokimiyat) – vaqti-vaqti bilan boshqariluvchilar boshqaruvchilarga o‘z hukmini o‘tkazishidir. Davlat va fuqarolik jamiyatining bu qarama-qarshiligi va ayni vaqtda o‘zaro bog‘liqligi erkinlikning muhim shartidir.

[1] А.де Токвиль. Избранные призведения. –Москва., 2003. –С.45.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi demokratik o‘zgarishlarning negizidir. Kishilarni ijtimoiy tartibni ixtiyoriy ravishda, cho‘chimasdan qabul qilishga majbur etadigan sharoitlar faqat fuqarolik jamiyatida mavjuddir.

Siyosiy erkinlik – fuqaroning davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqi. Bu erkinlik faqat demokratiya sharoitida, ya’ni hamma o‘z xohish-irodasini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lgan sharoitlarda ro‘yobga chiqarilishi mumkin. «Formal demokratiya, ya’ni erkin, teng huquqli va yashirin ovoz berish huquqi erkinlikning kafolati emas, balki aksincha, unga tahdiddir» [1], deb yozadi K.Yaspers.

Demokratiya mexanizmi samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy shartlaridan biri qonunga zid aralashuvlardan muhofaza etilgan barqaror fuqarolik jamiyatining mavjudligidir. Shunday shartlardan yana biri huquqiy davlat - qonunlar faqat huquqiy yo‘l bilan qabul qilinadigan va hammaga teng tatbiq etiladigan davlatdir. Bunday davlat insonni zo‘ravonlikdan himoya qilish orqali unga o‘z qarashlari va xohish-irodasini ifoda etish yoki demokratiya uchun imkoniyat yaratadi.

Demokratiya ochiq va hech narsa bilan cheklanmagan bahs-munozara imkoniyatini nazarda tutadi. Bunga erishish uchun matbuot, yig‘ilishlar, so‘z erkinligi talab etiladi. Demokratiya siyosiy partiyalar mavjudligini ham talab qiladi.

Demokratiyaning samaradorligini ta’minlashning yana bir muhim sharti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yuksak darajasiga erishishdir. So‘nggi ikki yuz yillik mobaynida sanoat inqilobi g‘arb jamiyati hayotining muhim omiliga aylandi. U shahar aholisi sezilarli darajada o‘sishiga, sinfiy tuzilishning o‘zgarishiga, hayot andozalari, ta’lim va sog‘liqni saqlash sezilarli darajada yuksalishiga olib keldi.

Demokratiya siyosatni iqtisoddan va dunyoqarashga oid muammolardan ajratishni, hokimiyatning bo‘linishini, samarali faoliyat olib boradigan sud tizimini talab qiladi.

Demokratiya erkin jamiyat qo‘lida samarali qurol bo‘lib qolishini belgilaydigan omillar ro‘yxati u doim muayyan ijtimoiy kontekstda amalga oshirilishini va hokimiyatni saylovda g‘alaba

[1] Ясперс К. Смысл и назначение истории. –Москва., 1991. –С. 124

qozongan ko‘pchilikka beradigan umumiy saylov huquqidangina iborat emasligini ko‘rsatadi.

Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolik, davlatga doir) atamasi har xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich. Mazkur talqinda «tsivilizatsiya» atamasi «jamiyat» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil etishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug‘doshlik shakllariga qarama-qarshi qo‘yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «sivilizatsiya» atamasi o‘zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma’nosini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, sivilizatsiya – barcha madaniyatlar yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida («jahon sivilizatsiyasi», «ma’rifatli hayot tarzi» va sh.k.)namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, sivilizatsiya – «moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay narsa, texnika yaratadigan qulaylik (turar joy, ro‘zg‘or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko‘rsatish va sh.k.)ni ifodalaydi.

To‘rtinchidan, sivilizatsiya – tarixiy jarayon birligining tavsifi sifatida xarakterlanadi. Bu tushuncha ijtimoiy boylik rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma’rifatlilik», «tsivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «tsivilizatsiyaning umumiy darajasi», «tsivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to‘liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo‘q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o‘z davrida birinchi bo‘lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asosslangan g‘oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo‘lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aytadi.

XVIII asr o‘rtalarida sivilizatsiya tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining

mezoni sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari surilgan. Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. Shpengler sivilizatsiyani madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mutlaqlashtirgan. Uning (keyinchalik P.Sorokin, A.Toynbi va boshqa mutafakkirlarning) konsepsiyasida sivilizatsiya madaniyatning zavol topish bosqichi sifatida, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri Ch.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarix jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-axloqiy konsepsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar majmuini ifodalaydi deb hisoblab, bu tushunchalar ayniydir degan xulosaga keldi.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

Ijtimoiy munosabatlar, odamlar faoliyati va xulq-atvorini tartibga soluvchi normalar universal tizimining ta'sirini o'rganish sivilizatsiyalarning rang-barangligini tushuntirish imkonini beradi. Ular, birinchidan, hukmron diniy va dunyoqarashga doir mo'ljallarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayondagi o'rni bilan; ikkinchidan, ularning texnik-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan; uchinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar sur'ati, shuningdek ularning manbalari, mexanizmlari xususiyati va uyg'unlik darajasi bilan farq qiladi. sivilizatsiyaning har bir tipi siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari va o'z huquqiy qoidalarining xususiyati bilan tavsiflanadi. sivilizatsiyalar axborotni kodlashtirish, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish usullari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Jamiyatning sivilizatsion asoslari sivilizatsiyalar tipologiyasida ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Bunda sivilizatsiyalarning yevropacha va noyevropacha tiplarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu farqlar shu darajada kattaki, yevropacha sivilizatsiya qadriyatlari uzoq vaqt oliy qadriyatlar sifatida tavsiflangan. Xo‘sh, yevropacha va noyevropacha sivilizatsiyalar o‘rtasidagi farq nimada?

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noyevropacha sivilizatsiyalar ancha katta guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko‘ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o‘ziga xos va ayni vaqtda umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular yevropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an’anaviy sivilizatsiyalardir. An’anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noyevropacha sivilizatsiyalarning xo‘jalik faoliyati qishloq xo‘jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An’anaviy sivilizatsiyaning ma’naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noyevropacha sivilizatsiyalar evolyutsiyasi sikliliigi va o‘ziga xos institutlar va normalarga ega bo‘lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o‘zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o‘tadi.

Evropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipi bo‘lib, u Yevropada taxminan XV-XVII asrlarda shakllangan. Uning o‘tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va yevropa xristiancha an’anasidir. Uyg‘onish davrida bu ikki an’ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o‘ziga xosligini va uning texnika va texnologiya jadal sur’atlarda rivojlanishini, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o‘zgarishini ta’minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o‘z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o‘rin olishi yotadi. Odamlar o‘rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo‘lishi texnogen sivilizatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalik

alohida o‘ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o‘zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi subyektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

Sivilizatsiyaning «evropacha» va «noyevropacha» tiplari tushunchalari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida yevropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e’tirof etish bilan bog‘liq. Ayrim mutaxassislar fikriga ko‘ra, u an’anaviy jamiyat madaniyatining mutatsiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o‘xshashi mavjud emas. Shunga qaramay sivilizatsiyalar tipologiyasi yevropacha va noyevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklanmaydi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko‘pmi o‘xshash bo‘lgan ko‘p sonli sivilizatsiyalar mavjud.

Jumladan, madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko‘ra G‘arbiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy yevropa mamlakatlarini, shuningdek yevropacha sivilizatsiyaga mansub bo‘lgan, lekin o‘z madaniyatining xususiyatiga ko‘ra farq qiladigan AQSh va Kanadani farqlash mumkin.

Vujudga kelish va halok bo‘lish davriga ko‘ra hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o‘lik sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiylar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toynbi, S.Xantington va boshqa olimlar taklif qilgan sivilizatsiyalar tasnifida diniy omil muhim rol o‘ynaydi. A.Toynbi tasnifiga ko‘ra hozirgi vaqtda G‘arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq Sharq sivilizatsiyalari mavjud.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:

- ilk sivilizatsiya (arxaik, an’anaviy yoki ibtidoiy jamoa);
- qishloq xo‘jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;
- industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;
- hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko‘ra an’anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

Liberal sivilizatsiya yoki G‘arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy plyuralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog‘liq. Uning ildizlari xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O‘z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma’muriyatdan ustunligini, shaxs erkinligi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tamoyillarini o‘z ichiga olgan huquqiy tamoyillar va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

An’anaviy sivilizatsiyalar ijtimoiy hayotning vahshiylikka chek qo‘yish bilan bog‘liq dastlabki shaklidan iborat. Bular barcha a’zolari bevosita emotsional muloqot jarayonida bo‘lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o‘tmishga qarab mo‘ljal olishga asoslangan. An’anaviy sivilizatsiyaning o‘ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokratiyaga tayanuvchi jabr-zulmga asoslangan hokimiyat, tabaqalarning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning norasoligi, individning kamsitilishi kabilardir.

Oraliq sivilizatsiya yoki o‘tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (to‘g‘onlar, kanallar va sh.k.) barpo etish, yangi hududlarni bosib olish yoki o‘z hududini tashqi dushmandan himoya qilish (masalan, Buyuk Xitoy devori) zaruriyati tufayli vujudga keladi. Natijada an’analari va qadriyatlariga ko‘ra har xil lokal hamjamiyatlarning mexanik birlashuvi yuz beradi. Mazkur birlashuv rasmiy xususiyat kasb etadi va idrok etish ancha qiyin bo‘lgan normativ-huquqiy qoidalarga muvofiq va jamiyatni tashkil etishning lokal hamjamiyatlar ko‘nikkan hayot tarziga zid bo‘lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan va asosan kuch ishlatish yo‘li bilan hal qilinadi. Ayni shu sababli normalar tizimi asosan birlashtiruvchi mexanizm sifatidagi davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o‘tish davri sivilizatsiyalariga xos bo‘lgan huquqiy nigilizm kelib chiqadi. Davlat qadriyatlari va lokal hamjamiyatlarning qadriyatlari asosan bir-biriga zid bo‘lgani bois ularning o‘rtasida to‘qnashuv yuz berishi mumkin.

Qattiq davlat intizomi, ko‘p sonli soliqlar to‘lash, amaldorlarning o‘zboshimchaligi, rekrut majburiyati, urushlarda ishtirok etish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qismida norozilik uyg‘otadi.

Shunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil etishning keng ko‘lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. sivilizatsiyalar vaqtda va makonda o‘ta barqaror bo‘ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarning aloqalarini tartibga soladigan va jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma’naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. sivilizatsiya – avlodlar vorisiyligini ta’minlovchi tarixiy tajriba manbaidir.

Sivilizatsiya ijtimoiy hayotning barcha omillarini: madaniyat va madaniyatsizlikni, yutuqlar va kamchiliklarni o‘zida birlashtiradi. Ma’lumki, jamiyat rivojlanishiga qarab uning normalari eskirib boradi. Ular mazkur sotsiumning o‘zgargan yashash sharoitlari bilan to‘qnashib, uning mavjudligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid soladi. Ammo muhimi shundaki, normalar o‘z holicha jamiyatning saqlanishini kafolatlamaydi, ular mazkur normalarga amal qilishga, ulardan o‘z faollyatida foydalanishga, ularni o‘ziga xos tarzda talqin qilishga qodir bo‘lgan odamlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu sababli madaniyat sivllizatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. «Madaniyat» atamasi arabcha «madina» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «shahar» degan ma’noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa O‘rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne’matlari bilan bog‘langan.

Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko‘rinishida shakllangan. Shu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma’naviy madaniyat, go‘zallikka intilish, san’atni qadrlash kabilar ustuvorlik qiladi. Uyg‘onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik

belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalari: vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan.

Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga bo'ysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

XIX asrda madaniyatga avvalo, u yoki bu tipdagi jamiyat hayoti va uning o'z-o'zini tashkil etishidagi roliga ko'ra farqlanadigan qadriyatlar va g'oyalar tizimi sifatida yondashila boshlandi. Gegel madaniyatga mutlaq g'oya o'z-o'zini anglab yetishining boshlang'ich va yakunlovchi (falsafa) bo'g'ini sifatida qaraydi. Gegelning bu nazariyasi XIX-XX asrlarning madaniyatga doir bir qator konsepsiyalarida tanqid qilinadi. Jumladan, «lokal sivilizatsiyalar» konsepsiyasida Shpengler xalqlar madaniyatiga o'z rivojlanish jarayonida vujudga kelish, ravnaq topish, tanazzulga uchrash va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadigan berk, betakror organizmlar sifatida qaraydi. Shpengler tarixiy jarayonning o'ziga xos uzlukliligi dalilidan madaniyatlarning ko'p sonliligi g'oyasini keltirib chiqaradi.

XX asrda madaniyatni o'rganish asosan etnografiya va ijtimoiy antropologiya doirasida amalga oshiriladi. XX asrning ikkinchi yarmida madaniyatning kommunikativ xossalari haqidagi tasavvurlar rivojlanadi, uning germenevtik talqini keng tarqaladi. Bu esa madaniyatning tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish uchun asos sifatida tilga qiziqish kuchayishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, tarixiy jarayonda shakllangan madaniyatga doir rang-barang konsepsiyalarda mazkur hodisaning muhim xususiyatlariga tavsif beriladi. Madaniyatning hozirgi talqini mazkur tavsiflarni o'z ichiga oladi. Madaniyat tushunchasining mazmuni moddiy va ma'naviy qadriyatlar, ularni yaratish, ajdodlar tajribasini o'zlashtirib, undan yangi qadriyatlar yaratish uchun foydalanishga qodir bo'lgan insonni shakllantirish usullari tizimidan iborat. Madaniyat yaxlit bo'lib, ancha murakkab tuzilishga ega. Uning elementlari turli asoslarga ko'ra farqlanadi. Har qanday madaniyat:

- barqaror elementlar, ya'ni madaniy universaliyalarni;
- muayyan tarixiy sharoitda vujudga keladigan va yo'q bo'lib ketadigan o'tkinchi elementlarni o'z ichiga oladi.

Ommaviy madaniyat shakllanishining tarixi. Uchinchi ming yillik davlatlararo, shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi, bir tomondan, jamiyat ma'naviy madaniyatining yuksalishi va ikkinchi tomondan uning tanazzulga yuz tutishi bilan boshlandi. Dunyo olimlari va davlat rahbarlari inson kamoloti omillari haqida fikr yuritar ekan, albatta ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini eslashi odatga aylandi. Masalan, XX asr oxirida YUNESKO komissiyasining majlisida "Ommaviy madaniyat va ommaviy kommunikatsiya ikki asr oralig'idagi hodisa. Iqtisodiy nuqtai nazardan ularning shakllanishi yirik sanoat rivojlanishi oqibatida madaniyat sohasidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ldi. Natijada yirik sanoat ishlab chiqarishi paydo bo'ldi va axborot hamda madaniyat almushinuvi sur'atlari kuchaydi"[1] deb alohida ta'kidlangan. AQShning sobiq davlat kotibi Z.Bzejinskiyning "Agar Rim dunyoga huquqni, Angliya parlament faoliyatini, Fransiya madaniyat va respublikacha millatchilikni bergan bo'lsa, Amerika ilmiy texnikaviy taraqqiyotni va ommaviy madaniyatni berdi"[2] degan fikrida ommaviy madaniyatning o'chog'i Amerika ekanligiga ishorani ko'rish mumkin.

Aslida ham vaziyat shundaymi? Biz keyingi yillarda qayta va qayta qoralayotgan "Ommaviy madaniyat"ning o'zi nima? Bu savollarga javob berish uchun insoniyat tarixiga murojaat etamiz.

---

[1] Международная комиссия по изучению проблем коммуникации. Заключительный доклад. Париж.1980.-С.25
[2] Brzezinski Z/ Between two ages. America's role in the technetronic era.N Y., 1970.P. 50

Ommaviy madaniyat-o‘zining soddaligi va murakkabligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi ekran madaniyati, komp’yuter texnologiyalari rivojlangan davrda ommaviy madaniyatning asl mohiyatini ijtimoiy tahlil qilish, bilish va tegishli xulosa chiqarish maqsadga muvofiq. Zero, ommaviy madaniyatning shakllanishi aslida insoniyat tarixining dastlabki davrlaridan boshlangan. Odamlarning qabilalardagi birgalikdagi o‘yinlari, turli tomoshalar pul-tovar munosabatlarigacha shakllangan va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning vositasi sifatida amal qllgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda diniy urf odatlar yoki sport o‘yinlari bilan bog‘liq turli ommaviy marosimlar tashkil etilgan. Xususan, Afina shahri Xudosi sharafiga olov bilan yugurish, ot choptirish, musiqa va sport musubaqalari uyushtirilgan. Bu marosimlarda davlatning qudrati namoyish etilgan. Yunonlar bu bayramlarda aholining turli qatlamlari ishtirokini ta’minlagan.

Qadimgi Rimda esa, bu tadbirlar ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan. Respublika davrida yiliga yettita xalq bayramlari o‘tkazilgan bo‘lsa, keyinchalik bu bayramlar soni 175taga yetgan, ulardan 10 tasi gladiatorlar o‘yini, 101tasi teatr sahnasidagi spektakllar, 64tasi sirk o‘yinlarida o‘z ifodasini topgan[1].

Amfiteatrda Rimdagi eng mashhur gladiatorlar o‘yinlari o‘tkazilgan. Unda dastlab uchta, so‘ng 22 ta, 25, 60 ta juftliklarning o‘zaro kurashi jarayonida bir-birini o‘ldirishidan huzurlangan ommaning jazava bilan “o‘ldir”, “ur”, - deb baqirishi ommaviy ongsizlik darajasidagi ommaviy madaniyatning birinchi ko‘rinishi bo‘lib, bunda odamzod axloq normalaridan chekinib, gladiatorlarning o‘lim oldi talvasasidan huzurlangan. Tomoshani yanada qiziqarliroq o‘tkazish uchun rimliklar sahnani mavzuga oid dekoratsiyalar bilan bezagan va eramizdan oldingi 202 yildayoq harakatlanuvchi sahna dekoratsiyalari paydo bo‘lgan. Masalan, sahna bir lahzada katta kemaga aylanishi yoki u yo‘qolgandan keyin yer ostidan sherlar chiqib kelishi, yoki suvga to‘lib unda timsohlar paydo bo‘lishi odatiy holga aylangan. Shu bilan qadimgi yunonlar ommaviy tomoshalarga asos solgan. Bunda ishtirokchi va tomoshabinlar orasidagi masofa

[1] Саенкова Л.Н. Массовая культура. Минск. БГУ, 2003. год.-С.10.

kichik bo‘lgan, rimliklar esa bayramlarni ommaviy ermakka aylantirgan.

O‘rta asrlarda qadimgi davr ommaviy madaniyati vahshiyligi darveshlik, quvnoqlik va ommaviy bazmlar bilan almashadi. O‘rta asrlardagi bazmlarda jonglerlar, musiqachilar va qo‘shiqchilar, akrobatlar va raqqosalarning o‘yinlari bilan boshlangan va tarixiy qo‘shiqlar bilan yakunlangan. Shuningdek, O‘rta asrlarda ritsarlarning janglari uyushtirilgan, gladiatorlar jangidan farqli o‘laroq bu janglarda aslzodalar ishtirok etgan. Shaharlarning rivojlanishi bilan bu o‘yinlar yanada qizg‘inroq tashkil etilgan. Bu davrdagi o‘yinlar bir tomondan diniy ruhda bo‘lsa, ikkinchi tomondan belgilangan qoidalar chizig‘idan chiqishga harakat qilingan. Masalan, Shekspirning Qirol Lir asaridagi voqealarda masxarobozning doimiy ishtiroki va bazmlar bu davrdagi ommaviy madaniyatning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Uyg‘onish davridagi ommaviy madaniyat go‘zallikka e’tibori bilan ahamiyatlidir. Me’morlar, haykaltaroshlar, rassomlarning asarlariga buyuk ijod mahsuli sifatida yondashuv shakllangan. Reallik va illyuziya o‘rtasidagi chegara asta-sekinlik bilan yo‘qola boshlagan, barcha asarlar huzurlanish kayfiyatini uyg‘otish uchun yaratilgan, masalan ayol va erkaklarning yalang‘och tanasining san’at asarlaridagi ifodasi).

1789-yildagi buyuk fransuz inqilobi ijtimoiy hayotga ta’sir etmay qolmadi, bu odamlar dunyoqarashida yangi tipdagi ommaviy madaniyatning shakllanishiga olib keldi. Inqilob syujetlarni erkin tanlash huquqini berdi. XVIII asrning badiiy hayotida san’at sohasida bozor munosabatlarining shakllanishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy institut – Akademiya paydo bo‘ldi. Akademiyada doimiy ko‘rgazmalar tashkil etilgan, rassomlar ilgari faqat buyurtma asosida asarlar yaratgan bo‘lsalar, endilikda ommaga yoqishi mumkin bo‘lgan asarlarni yaratishi lozim bo‘lgan. Akademiya faoliyati haqiqiy san’at asarlari va soxta asarlar orasidagi farqni aniqlash vazifasini bajargan.

XIX asr boshlarida mehnat sharoitlari, axborotni yetkazish usullari turmush tarzi o‘zgargan. yevropadagi industrial inqilob natijasida qo‘l mehnati o‘rnini mashina, ustaxonalar o‘rnini fabrikalar egallagan, urbanizatsiya jarayoni faol rivojlangan. Jadal

sur'atlarda qishloq aholisi shaharlarga ko'chib o'tishi boshlangan. Dunyoni idrok etish va unda o'z o'znini his qilish o'zgargan. San'at asarlariga ehtiyoj ustivorlik qila boshlagan. XIX asr oxirlarida noyob qo'l mehnati mahsullari o'rnini ommaviy mahsulot egallagan. Va pirovard natijada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida modern uslubining barcha sohalardagi hukmronligi boshlangan. Xususan, texnika sohasida D.Uattning par mashinasi (1784), D.Fultonning paroxodi (1807), R.Steffensonning parovozi (1814), axborotni yetkazish vositasi sifatida Ch.Uinston va S.Morzening telegrafi (1840), radioning (1850) yaratilishi ommaviy madaniyatning keng qamrovli tarqalishiga zamin yaratgan.

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davr va yangi munosabatlarni boshlab berdi. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushi yangi texnika vositalarini yaratish va ulardan ommaviy foydalanishni taqozo etdi. Aynan shu asrda Yevropada Gabriel Shanelning (Koko Shanel) ayollar yurishlarida qulaylik yaratish uchun mutlaqo yangi andozadagi kiyimlarni yaratishi va Sharqda paranji tashlash g'oyasi bilan boshlangan ommaviy jarayon ularning ta'lim olish, mehnat qillsh uchun o'z huquqlarini himoya qilishida davom etdi. 1918-yilda Azarbayjonda ayollarning saylash huquqi qonun bilan belgilanishi, asrlar davomida ayollar haq huquqlarining kamsitilishiga qarshi yo'nalgan birinchi qadam bo'ldi.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy hayotdagi bir xil sokin hayot normalari asta-sekinlik bilan barcha sohalarda o'zgara boshladi. Xususan, Angliyaning Liverpul' shahrida Bitlz, AQShda Elviz Pristli, 70-yillarda O'zbekistonda Botir Zokirov, Luiza Zokirova, Farrux Zokirov va boshqalar san'at sohasiga yangi ruh olib kirdilar. Birinchi vokal instrumental ansabllari tashkil etildi. 1982-yilda lazer disklarining yaratilishi ijtimoiy hayotni tubdan o'zgartirdi. Dunyo bo'yicha video va musiqa kassetalari, turli ochiq jurnallar, plakatlar, al'bomlar tarqala boshladi. Hozirgi davrgacha lazer disklaridan foydalanuvchilarining soni 200 milliarddan oshdi. XX asrning 60-70 yillaridan dunyoda kiyinish madaniyati o'zgardi, odamlarning milliy liboslar o'rniga zamonaviy bichimdagi kiyimlarga ixlosi ortdi. 70-yillarda xippilar, 80-90-yillarda panklar, rokkerlar, 2000-yillarda emmolar noan'anaviy liboslar bilan o'z g'oyalarini targ'ib qila boshladilar.

1991-yilda internetning (O'zbekistonda 1997-yildan foydalanilishi boshlangan) 2001-yilda aypetning yaratilishi dunyoning cheksiz uzoq masofasini soniyalar darajasida yaqinlashtirdi. Hozirgi kunda Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va undan foydalanuvchilar ommaviy madaniyatning ochiq targ'ibotchisiga aylandilar. Demak, ommaviy madaniyat XIX asrning oxiri yoki XX asrda paydo bo'lgan degan fikr muayyan ma'noda yangilishish hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat tushunchasi. Ommaviy madaniyat tushunchasiXX asrning 30 yillarida paydo bo'lgan va 1944-yilda D. Makdonal'dning "Ommaviy madaniyat nazariyasi" nomli asarida birinchi marta ilmiy izohlangan. Yuz yil davomida ommaviy madaniyat hodisasiga ijtimoiy-siyosiy, psixologik, estetik, nazariy va mafkuraviy nuqtai nazardan baho berishga harakat qilingan. Ba'zilar omma foydalanishni mo'ljallagan badiiy madaniyatni ommaviy san'at, tijorat madaniyati, ong industriyasi, bozor madaniyati bilan bog'lagan. Kanadalik sotsiolog olim Mak-Lyuen fikricha "Ommaviy madaniyatni – industrial odamning fol'klori", fransuz olimlari A.Moren va A.Byurjelon fikricha, ommaviy madaniyat insoniyat tarixidagi total estetik madaniyatdir.

Ommaviy madaniyat deganda odatda ommaviy ishlab chiqarishga mo'ljallangan san'at asarlari ko'zda tutilgan. Abadiyot ensiklopediyasi "Ommaviy madaniyat bu ko'p martalik ishlab chiqarish va ko'pchilikning nafaqat ehtijini qondirishga balki bu jarayonni tashkil qilishni qamrab oladi".[1] Ommaviy madaniyatga baho berilganda uning xronologik, son parametrlari va kommunikatsion yetkazish usuli ko'zda tutilgan. Fransuz sotsiologi Jorj Fridman fikricha "ommaviy madaniyat ehtiyojlarning qondirilishiga yo'nalgan barcha yaxshi narsalardir"[2]. Ommaviy madaniyatni unga xos belgilar orqali aniqroq tasavvur qilish mumkin. Ommaviy madaniyat – bu marginal madaniyat; asosida ko'rgazmalilik yotgan madaniyat; dilxushi; universal til xos bo'lgan madaniyat tipi; karnaval madaniyati; reallik doirasidan chiqish illyuziyasini beruvchi madaniyat; ommaviy ishlab chiqarish; individul muloqot illyuziyasi; sun'iy madaniyat va h.k sifatida namoyon bo'ladi.

[1] Литературный энциклопедический словарь.Москва, 1987.-С.213.
[2] Friedman J. Enseignement et culture de mass Party,1962. P.3/

Ommaviy madaniyat bu nafaqat fil'm va musiqa, adabiyot va tasviriy san'at va ommaviy axborot, balki turmush tarzidir. Ayniqsa XX asrda u keng rivoj topdi. Undan voz kechish yoki qochib qutulish mumkin emas. Komp'yuter asrida ommaviy madaniyat o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Turmush tarzi sifatidagi ommaviy madaniyat ijtimoiy makonni to'liq qamrab oladi: bu bizning suhbatlashish madaniyatimiz, shaxslararo munosabatlar tipi, eshitatgan qo'shiqlarimiz mazmuni, dam olish madaniyatimiz va boshqa barcha hayotimiz bilan bog'liq jarayon. Ommaviy madaniyat an'anaviy turmush tarzini to'liq o'zgartiradi.

Ommaviy madaniyat ta'sirida an'analar va ularga munosabat o'zgaradi. An'ana buzilishi mumkin bo'lmagan qonun yoki hayot me'yorlari. An'analar obyektlar orasida muayyan masofani shakllantirgan. Masalan, insoniyatning tabiatga, yerga munosabati oilaviy munosabatlar o'zgarib borgan. An'analarning buzilishi, munosabatlar me'yorining buzilishiga tabiiylikning kamayishi va sun'iylikning ortishiga olib keladi. Masalan, ilgari qo'shnilarning munosabatlarida tabiiylik ustivor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda u soxta mulozamat bilan almashmoqda.

Tabiiylikning kamayishiga texnika taraqqiyoti ta'sir etadi. An'analar yangi noan'naviy munosabatlarning uyumida yo'qolib ketadi.

Ommaviy madaniyat ko'pchilikning kamchilikka ergashishi sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat va ommaviy madaniyatsizlik tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ommaviy madaniyatsizlik eng xavfli kuchga ega. U jamiyatning bir guruh a'zolari emas, balki ko'p sonli odamlar guruhini qamrab oladi, u aql bilan emas balki ommaning umumiy ta'sir kuchi bilan boshqariladi.

Qadriyat tushunchasi va uning umumiy tavsifi. Qadriyatlar– falsafaning alohida bo'limi (yunon. axios - qadriyatlar, logos – bilim: qadriyatlar haqidagi fan)bo'lib, u insonning dunyoga bo'lgan munosabatining alohida jihatini ifodalaydi, inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab yetish imkonini beradi.

Qadriyat kategoriyasining mazmuniinson uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa yoki hodisalarda o'z ifodasini topadi.

Muhimlik narsaning o'zidagi xossalari bilan emas, balki ularning inson hayotidagi ahamiyati bilan belgilanadi. I.Kant tafakkur qadriyatlarning manbalarini va ularni maqbul narsaga aylantiruvchi qadriyatlar o'lchovini anglab yetishga qodir ekanligini qayd etadi. Tabiat va madaniyat predmetlari sanalgan manbalar bo'lmasa, qadriyatlar ham bo'lmaydi. Qadriyatlar o'lchovi esa, ayrim mezonlarning mavjudligini nazarda tutadi. Muayyan predmetning mazkur mezonlarga muvofiqligi uni shaxs yoki jamoa uchun qadriyatga aylantiradi. Maqbullik subyektiv darajada baholash, ya'ni turli hodisalarning inson uchun ahamiyatini aniqlash tarzida amal qiladi. Mazkur hodisalarning inson uchun ahamiyati uning ijtimoiy pozitsiyasi, dunyoqarashi, madaniyat, aql-zakovat va ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli qadriyatning borlig'i intellektual darajadagina emas, balki emotsional darajada ham anglab yetiladi. O'z-o'zidan ravshanki, subyektiv maqbul narsa yoki hodisa bilan qadriyat o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Masalan, inson uchun muhim madaniy hodisa – o'yinni ko'pchilik faqat bolalikdagina kechishi mumkin bo'lgan behuda va befoyda faoliyat deb hisoblaydi. Shiller, aksincha, o'yinning inson uchun ahamiyatini qayd etib,: «Inson so'zning to'liq ma'nosida inson bo'lgan holdagina o'ynaydi va u faqat o'ynayotgan paytdagina to'laqonli inson bo'ladi»[1] deb yozadi.

Ammo baholargina emas, balki qadriyatlar dunyosi ham insoniyatga bog'liq bo'lib, uning rivojlanish darajasi, faoliyat sohasining kengayishi, madaniyat va sivilizatsiyaning xususiyati bilan belgilanadi. Turli sivilizatsiyalarga xos bo'lgan me'yorlarni taqqoslash qadriyatlar dinamikasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, qadimgi Yunonistonda inson hayoti to'laqonli tarzda uyg'un namoyon bo'lishi, Misrda esa – inson hayotining o'limga bo'ysunishi oliy qadriyat hisoblangan.

Qadriyatlar individual bo'lib, ular anglanishi yoki anglanmasligi yoki noto'g'ri anglanishi mumkin. Ammo qadriyatlarni subyektiv darajada maqbul hodisa sifatida anglashning har qanday varianti baholash ko'rinishida amal qiladi. Haqiqatdan farqli o'laroq, baholash narsalarning haqiqiy holatiga bilimning muvofiqligiga

[1] Шиллер М. Статьи по эстетике. – М., 1935. – Б. 302, 303.

erishishdan emas, balki narsalarni va ularning xossalarini inson uchun zarur va muhim deb anglab yetishdan iborat. Predmetning obyektiv mazmuni (ahamiyati) bilan subyekt baholash jarayonida eksplikatsiya qiluvchi shaxsga doir mazmun o'rtasida kuchli tafovut mavjud. Shu sababli baholashda dunyoni anglab yetishning shaxsiy xususiyati bilan izohlanuvchi subyektiv omil ustunlik qilishi mumkin. Bu tafovutga qaramay, haqiqat va qadriyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

Qadriyatlar san'at va din, axloq va huquq, siyosiy va madaniy hayot sohasida yetakchi o'rinni egallaydi. Ularni ilmiy tushunchalar tiliga o'girish mumkin emas va aksariyat hollarda ular badiiy-obrazli mifologik yoki diniy shakl-shamoyilga solinadi.

Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir va obyekt-subyektli xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning o'zi behudadir. Zero narsalar, voqealar ularning inson bilan, sotsium hayoti bilan aloqasisiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniylashgan tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki hatto ko'p sonli tabiat obyektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera yerda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. «Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. Shuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. Yomonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasalliklar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan.

Binobarin, «muhimlik» tushunchasi «qadriyat»ga qaraganda kengroq. Demak, qadriyat – ijobiy muhimlik. Ijtimoiy rivojlanishda salbiy rol o'ynaydigan hodisalar salbiy ahamiyatga molik deb talqin qilinishi mumkin. Shunday qilib, har qanday muhimlik emas, balki inson, uning birlashmalari yoki butun jamiyat hayotida ijobiy rol o'ynaydigan muhimlikkina qadriyat hisoblanadi.

Har qanday qadriyat ikki xossa: funksional ahamiyat va shaxsga doir mazmun bilan tavsiflanadi. Bu qanday xossalar?

Qadriyatning funksional ahamiyati – bu narsa yoki g'oyalarning ularni mazkur jamiyatda qadriyatga aylantiruvchi ijtimoiy muhim xossalari, funksiyalarining majmui. Masalan, muayyan g'oyaga ma'lum informatsion mazmun va uning haqqoniylik darajasi xos.

Qadriyatning shaxsga doir mazmuni – bu uning inson ehtiyojlariga bo'lgan munosabati. Qadriyatning shaxsga doir mazmuni, bir tomondan, qadriyat funksiyalarini bajaruvchi obyekt bilan belgilanadi, boshqa tomondan esa, insonning o'ziga bog'liq bo'ladi. Inson narsaning mazmun va mohiyatini anglab yetish jarayonida o'zining mazkur narsaga bo'lgan sof tabiiy ehtiyojidan emas, balki o'zi mansub bo'lgan jamiyat tarbiyalagan ehtiyojdan, ya'ni jins bildiruvchi ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqadi. U narsaga go'yo boshqa odamlarning, jamiyatning ko'zi bilan qaraydi va unda mazkur jamiyat doirasida o'z hayoti uchun muhim bo'lgan narsani ko'radi. Inson jins bildiruvchi mavjudot sifatida narsalarda ularning jins bildiruvchi mohiyatini, narsaning g'oyasini izlaydi va bu g'oya inson uchun mazmun kasb etadi.

Qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra obyektivdir. Subyekt mavjud bo'lmagan joyda qadriyat to'g'risida so'z yuritish behuda ish ekanligi yuqorida qayd etilgan. Qadriyat insonga, uning tuyg'ulari, mayllari, emotsiyalariga bog'liq bo'ladi, ya'ni qandaydir subyektiv narsa yoki hodisa sifatida qaraladi. Bundan tashqari, individning buyumga bo'lgan qiziqishi yo'qolgani, buyum uning ehtiyojlarini qondirmay qo'ygani zahoti individ uchun buyum o'zining qadriyat sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Boshqacha aytganda, subyekt bilan bog'liq bo'lmagan holda, uning ehtiyojlari, mayllari, manfaatlari bilan buyumning aloqasisiz qadriyat mavjud bo'lishi mumkin emas.

Qadriyat nazariyasining shakllanish tarixi. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda

qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardo'sht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik. ikkinchisida esa abadiy, yengilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi deb hisoblaydi Aristotel' inson, baxt, adolatni qadriyatlar tizimiga va anglab yetish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda g'arbda ham sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumiy, Leonardo da Vinche ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, muhabbat, komil inson ta'limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

Yangi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gel'vetsiy, Pol' Anri Gol'bax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqumiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida "yaxshi xulqlar-muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi "yomon xulqlar"ni farqlaydi. Keyinroq XX asrda o'zbek faylasufi S.Shermuxamedov Avloniy g'oyasini davom ettirib insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishi inson o'z hayotining qadriga yetishida ko'rinishini e'tirof etadi.

Qadriyatlar nazariyasi falsafiy bilimlarning ilmiy tizimi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Vil'gel'm Vindel'band, Rudol'f Lotse,

German Kogen, Genrix Rikkert kabi nemis faylasuflarining asarlarida shakllana boshladi. Ayni shu davrda R. Lotse va G.Kogen obyekt ma'nosidagi qadriyat tushunchasiga ilk bor falsafiy ta'rif berdi. XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. axios - qadriyat, logos – fan, ta'limot) atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Mamlakatimizda qadriyatlar haqidagi fan sho'ro davrida, uning nazariy asosini idealistik falsafa tashkil qilgani uchun rad etildi. XX asrning 80-yillaridan e'tiboran bu nazariya rivojlana boshladi. Bu dastlab X. Shayxova ijodida milliy qadriyatlarning asosiy shakllari, inson qadri va shaxsiy qadriyatlarning tahlilida o'z ifodasini topdi. Binobarin o'z shaxsi va boshqalarning qadrini anglash uchun insonning ma'naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning bebaho ne'mat ekanligini anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmog'i lozim.

Qadriyat voqelikning, ya'ni tabiat, jamiyat yoki madaniyat hodisalarining xossasi, degan fikrga qo'shilsak, haqiqat va qadriyatning ayniylashtirilishi muqarrardir. Ammo uning: «Baxt-saodat nima?», degan asosiy masalasini birinchi bo'lib ta'riflagan Suqrot haqiqat va qadriyat o'rtasida jiddiy farqlarni ko'rsatib bergan. Bilim baxt-saodatga erishishning muhim sharti, lekin u mazkur qadriyatga erishishning birdan-bir sharti emas. Bu hol shu bilan izohlanadiki, tabiat va jamiyat predmetlari va hodisalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni anglab yetish yo amalda nima mavjudligi haqidagi bilim shaklida, yo bu borliq qanday bo'lishi lozimligi, inson tabiatga va boshqa odamlarga nisbatan o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi tasavvur ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holda predmet haqidagi bilim uning haqiqiyligi yoki soxtaligi nuqtai nazaridan, ikkinchi holda – predmetning qimmati, ya'ni uning inson uchun ahamiyati nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

Qadriyatlarning turlari. Qadriyatlar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Mazmun jihatidan jamiyatning kichik tizimlari haqidagi

tasavvurlarga mos keluvchi qadriyatlar, chunonchi: moddiy (iqtisodiy), siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Kichik tizimlarning har biri o'z tasnifini nazarda tutuvchi tarkibiy qismlarga bo'linadi. Masalan, moddiy qadriyatlar ishlab chiqarish-iste'molga doir (utilitar) qadriyatlarni, mulkiy, maishiy munosabatlar bilan bog'liq qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviy qadriyatlar axloqiy, ma'rifiy, estetik, diniy g'oyalar, tasavvurlar va bilimlarni o'z ichiga oladi.

Tarixiy xususiyatiga ko'ra qadriyatlar jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga mos keladi yoki turli demografik guruhlar (yoshlar, keksa avlod vakillari)ning, shuningdek kasbiy, sinfiy, diniy, siyosiy va boshqa birlashmalarning qadriyatlarini aks ettiradi. Jamiyat ijtimoiy tuzilishining bir jinsli emasligi qadriyatlarning va qadriyatlarga munosabatning bir jinsli emasligini va hatto ziddiyatliligini vujudga keltiradi. Shu ma'noda qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar mavjudligining moddiy shaklidir.

Mavjudlik shakliga ko'ra moddiy va ma'naviy qadriyatlar farqlanadi. Ijtimoiy hayotning asosiy sohalariga muvofiq odatda qadriyatlarning uch guruhi farqlanadi: moddiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va ma'naviy qadriyatlar.

Moddiy qadriyatlar – bu qadriyat ahamiyatiga molik bo'lgan tabiiy obyektlar va predmetlar, ya'ni mehnat vositalari va bevosita iste'mol buyumlaridir. Tabiiy qadriyatlar qatoriga tabiiy boyliklarda mujassamlashgan tabiiy ne'matlar kiradi. Moddiy qadriyatlar jumlasiga inson mehnati natijasida yaratilgan moddiy dunyo predmetlari, shuningdek o'tmish madaniy merosi predmetlari kiradi. Moddiy qadriyatlar – bu tabiiy ne'matlar, mehnat mahsullarining iste'mol qiymati, ijtimoiy hodisalarda mujassamlashgan ijtimoiy ne'matlar, tarixiy voqealar, madaniy meros, axloqiy ezgulik, go'zalik mezonlarigani qanoatlantiruvchi estetik hodisalar, diniy ibodat predmetlari yoki o'zining muayyan ramziy ifodasini topgan diniy g'oyalar va sh.k. Moddiy qadriyatlar ongda emas, balki odamlar hayot faoliyatida amal qiluvchi muayyan narsalar, hodisalar dunyosida mavjud bo'ladi. Moddiy qadriyatlarning asosiy sohasi – shaxs va jamiyatning barkamollik haqidagi tasavvurlarini gavdalantiruvchi inson maqsadga muvofiq faoliyatining mahsullari.

Bunda o‘zining moddiy ifodasini topgan qadriyat sifatida faoliyat natijasi ham, faoliyatning o‘zi ham amal qilishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar – bu ijtimoiy va siyosiy hodisalar, voqealar, siyosiy aktlar va harakatlarning qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qatoriga, odatda, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda mujassamlashgan ijtimoiy imtiyozlar, shuningdek jamiyatning ravnaq topishi, xalqlar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikning mustahkamlanishiga ko‘maklashuvchi tarixiy voqealarning progressiv ahamiyati kiradi.

Ma’naviy qadriyatlar – bu ijtimoiy ong hodisalarining tegishli shakllarda namoyon bo‘lgan me’yoriy-nisbiy tomoni. Fan, axloq, san’at, falsafa, huquq qadriyatlarini ma’naviy qadriyatlar deb hisoblash odat tusini olgan.

Ma’naviy qadriyatlar qatoriga baxt-saodat, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, adolat va adolatsizlik, huquqiylik va nohuquqiylik, tarixning mazmuni va insonning vazifasi va hokazolar haqidagi me’yoriy tasavvurlar ko‘rinishida ifodalangan ijtimoiy ideallar, mo‘ljallar va baholar, me’yorlar va taqiqlar, harakat prinsiplari kiradi. Moddiy qadriyatlar inson ehtiyojlari va manfaatlari obyektlari sifatida amal qilsa, ma’naviy qadriyatlar ikki xil funksiyani bajaradi: ular qadriyatlarning mustaqil sohasi va moddiy qadriyatlarni baholash asosi, mezonidir.

Jamoaviy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g‘oyalarning odamlar muayyan birligi (sinf, millat, mehnat jamoasi va sh.k.) uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Gruppaviy qadriyatlar muayyan jamoaga kiruvchi individlarni yagona manfaatlar, qadriyatlar va mo‘ljallar bilan birlashtirib, mazkur jamoaning hayot faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu narsalar, hodisalar, g‘oyalarning jahon hamjamiyati uchun qadriyat sifatidagi ahamiyatidir. Umuminsoniy qadriyatlar, birinchidan, jahon hamjamiyati aholisining aksariyati amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy tamoyillardir. Ikkinchidan, umuminsoniy ideallar, umumxalq maqsadlari va ularga erishishning asosiy vositalari (ijtimoiy adolat, insonning ha’ni va qadr-qimmati, fuqarolik burchi va sh.k.) majmuidir. Uchinchidan o‘z mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra umuminsoniy xususiyat kasb etuvchi qadriyatlar: tabiiy boyliklar,

tinchlikni saqlash, qurolsizlanish, xalqaro iqtisodiy tartib muammolaridir. Umuminsoniy qadriyatlar – jamiyat va madaniyatning rivojlanishi mahsuli.

Shaxsiy, jamoaviy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan ijtimoiy nuqtai nazardan uzviy bog'liq.

Ijtimoiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida birlamchi ahamiyatga ega, ular shaxsga ijtimoiy sharoitlarga moslashish, jamiyatda muayyan o'rinni egallash, qoniqarli shaxsiy maqomga ega bo'lish imkonini beradi. Shaxs o'zining ijtimoiylashuvi jarayonida asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Ammo individual qadriyatlarning shakllanishida faoliyatning rang-barang shakllari (mehnat, bilish, muloqot, o'yin)gina ishtirok etmaydi. Bunday vosita sifatida umuman ijtimoiy tuzilmalar amal qiladi. Bozor va kundalik turmush, reklama va moda, siyosat va huquq, ta'lim va tarbiya, ommaviy axborot vositalari va san'at, hukmron madaniy me'yorlar va ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan rasmiy darajada andoza sifatida e'tirof etilgan ayrim shaxslarning obro'si, ijtimoiy-psixologik stereotiplar, andozalar, axloq va tabu – bularning barchasi jamiyat ma'naviy hayotining shaxsning qadriyatlarg munosabatini shakllantiruvchi omillaridir.

Shaxsning shakllanishi o'ziga xos qadriyatlar majmuiga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar, birliklar va birlashmalar doirasida yuz beradi. Qadriyatlar shaxs xulq-atvorini tartibga solish vositalari sifatida u yoki bu hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilishi yoki idrok etilmasligidan qat'i nazar shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. qadriyatlar tizimi haqidagi ongli tasavvurlar, qadriyatlar va mo'ljallar majmui shaxsning qadriyatlarga munosabatini belgilaydi. Bu munosabat davr hamda shaxs -qo'shilgan ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy me'yorlari va talablarini o'zlashtirishi jarayonida shakllanadi.

Qadriyatlarga munosabat individning hayot tajribasi va shaxs kechinmalarining butun majmui bilan mustahkamlanadi va tartibga solinadi. Ular individga muhimni nomuhimdan ajratish imkonini beradi, motivlarning barqarorligini hamda shaxs xulq-atvori va tafakkurining vorisiyligini belgilaydi. Ustuvor qadriyatlarni tanlash jarayonida o'z-o'ziga munosabat va haqiqiy shaxsiy maqom

o‘rtasidagi ziddiyat, shuningdek yaz individuallashgan qadriyatlari bilan nufuzli ijtimoiy guruhlar tomonidan e’tirof etilgan qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni anglash ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi

Jamiyat va inson hayotidagi qadriyatlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar.Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi. Masalan, avtomobil’ moddiy qadriyat, lekin u bo‘lmasa ham inson o‘z hayotini to‘g‘ri tashkil etishi mumkin.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma’naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar – bu o‘z ahamiyatiga ko‘ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog‘liq. Ular individni uning o‘zidan yuksak bo‘lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog‘liq bo‘lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Oliy qadriyatlar guruhida qadriyat sifatidagi hayot (hayot qadriyatlari), qadriyat sifatidagi sog‘liq va qadriyat sifatidagi erkinlik alohida farqlanadi.

Qadriyatlarga munosabat – bu shaxsning hayot tajribasi, uning barcha kechinmalari majmui bilan mustahkamlangan va shaxs uchun muhim ahamiyatga molik bo‘lgan narsalarni ikkinchi darajali, ahamiyatsiz narsalardan ajratuvchi muhim elementlari.

Vujudga kelgan, keng tarqalgan qadriyatlarga munosabatlar majmui ongning shaxsning barqarorligini, muayyan turdagi xulq-atvor va faoliyatning vorisiyligini ta’minlovchi, individning ehtiyojlari va manfaatlariga yo‘l ko‘rsatuvchi o‘ziga xos o‘zagini

tashkil etadi. Ayni shu sababli qadriyatlarga munosabat shaxs motivatsiyasini tartibga soluvchi, belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Rivojlangan qadriyatlarga munosabat – shaxsning yetuklik belgisi, uning ijtimoiylik darajasi ko'rsatkichi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, ijod shaxsning muhim qadriyatlarga munosabatlari hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Tarix falsafasi,jamiyat, barqarorlik, tarixiy taraqqiyot konsepsiyasi, mafkura, ijtimoiy kichik tizim, katta ijtimoiy guruhlar, etnik birliklar,ijtimoiy makon, siyosat, sivilizatsiya, madaniyat, "ommaviy madaniyat", jamiyat va oila, qadriyat

Qo'shimcha va tushuntiruvchi matnlar





Tarix falsafasining strukturasi

Tarix falsafasi Ontologiyasi	Tarix falsafasi gnoseologiyasi
Tarix falsafasi	
Tarix falsafasi antropologiyasi	Tarix falsafasi tarixi

Tarix falsafasining funksiyalari

Dunyoqarashga doir funksiya	Nazariy funksiya
Tarix falsafasining asosiy funksiyalari	
Prognostik funksiya	Metodologik funksiya

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Jamiyat nima?
2. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?
3. Jamiyat kichik tizimlari nima bilan tavsiflanadi? Ularning birligi nimada?
4. Sivilizatsiya nima?
5. Evropa sivilizatsiyasi chindan ham sivilizatsiyaning oliy shakli hisoblanadimi va u butun insoniyat rivojlanishiga yo'l ko'rsatishga qodirmi?

6. Madaniyat nima? Uning sivilizatsiya bilan aloqasiga tavsif bering.

7. Tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalari qaysilar?

8. Tarix falsafasi va falsafa tarixi: o'zaro uyg'unlik va farqlarni aniqlang.

Mavzuga oid test savollari:

1. Madaniy tarixiy tiplar nazariyasi qachon vujudga keldi?

a) XIX asr;
b) XVII asr;
v) XVIIIasr;
g) XXasr;

2. Madaniy tarixiy tiplar tushunchasi kim tomonidan fanga kiritilgan?

a) N. Dostoyevskiy;
b) P.A.Sorokin;
v) Gegel;
g) T. Kun

3. Insoniyatning paydo bo'lishida asosan qaysi omillar rol o'ynagan?

a) Mehnat va nutq;
b) Iqtisod;
v) Ehtiyoj;
g) Din;

4. Qadriyatlarning asosiy nechta guruhi mavjud?

a) 3 guruh;
b) 4 guruh;
v) 5 guruh;
g) 6 guruh;

8-MAVZU. FALSAFIY ANTROPOLOGIYA (INSON FALSAFASI)

Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog'ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero Forobiy aytganidek -"Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi"[1]. O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma'lum bo'lgan. Unga turli ko'rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an'anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Del'fidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o'yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko'rgan «O'z-o'zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo'lgan. Uchinchi ming yillikda ham bu fikr o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig'ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o'z-o'zini anglashga chorlovchi fikr bo'lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir yangi avlod o'z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtai nazaridan yechishga harakat qiladigan o'ta

[1] Ал-Фаробий Философия политики. – Москва.: 1989. – С.529.

murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao szi fikriga ko‘ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o‘zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o‘rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O‘zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o‘zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

Qadimgi Sharq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik konsepsiyalardan iborat bo‘lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog‘liq deb qaraladi. «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o‘rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim ma’nosi hisoblanadi; bunga jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o‘z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o‘lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o‘zini kamol toptirishi lozim. Shu ma’noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479-yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo‘lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o‘rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so‘nggi darajasiga yetadi. Niyatlar sof va xolis bo‘lsa, qalb rostgo‘y va samimiy bo‘ladi. qalb rostgo‘y va samimiy bo‘lsa, inson to‘g‘ri yo‘lga kiradi, kamol topadi. Inson to‘g‘ri yo‘lga kirsa va kamol topsa, oilada tartib o‘rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi» [1].

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi o‘ringa qo‘yish, ya’ni antropotsentrizm xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb e’lon qilinadi. Nirvana jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yo‘qoladi va ichki uyg‘unlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

[1] Будда. Конфуций. Жизн и учение. – Москва., 1995. – С.139.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy ta'limoti – jaynizm nuqtai nazaridan inson o'zining ma'naviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va og'ir yo'l – jonning erkinlashuvi yo'lini bosib o'tishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan, al-Forobiy fikricha "Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir Bu kuch avval-boshda faqat qobiliyatdir bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil emas"[1]. Aqlni hayotga tadbiq etish uchun, unga tashqi kuch ta'sir etishi kerak, bu esa faol aqldir. Faol aql - mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, Birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Forobiy ta'biri bilan "moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirlandek bo'ladi"[2]. Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhi da paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqlli mavjudod. Yusuf Xos Xojib fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti yetgach ketadi. Inson umrining qimmati necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinichisi yaxshi degan nom qoladi Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band bo'lgan Sharq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan G'arb falsafasidagidan o'zgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda shunday deb yozgan edi: «Inson tabiatni o'ziga bo'ysundirish uchun tug'iladi va bu o'rinlidir, ammo G'arb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi

[1] Al-Forobiy. Fozil shahar aholisi. -T.: «Sharq», 1999.- B. 69
[2] Al-Forobiy Fozil shahar aholisi.-T.: «Sharq», 1999 –B.73.

tabiat o‘zining barcha tog‘lari, okeanlari, daryolari, o‘zining cheksiz kuchlari, cheksiz rang-barangligi bilan juda ulug‘vor, lekin undan ham ulug‘vorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, yer va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig‘maydigan dunyodir. G‘arb odami tashqi dunyoda «o‘ziniki» bo‘lganidek, bu ichki dunyoda Sharq odami ham xuddi shunday «o‘ziniki»dir. Shu bois... G‘arb ma’naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab yetmoqchi bo‘lsa, u Sharq oyoqlari ostiga cho‘kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir ma’lum ma’naviy uyg‘onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni Sharqdan oladi»[1].

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o‘z holiga qo‘yilsa va insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, unda Xudo ne’matini qo‘lga kiritish kamdan – kam kishiga muyassar bo‘ladi. Xayr va shayorr oralig‘ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo‘lganida, unda sharrni tanlaydi, zero inson tabiatida sharrga moyillik ko‘proq. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. Shuning uchun jamiyatda kishilarning bir-birlariga jabr qllmasliklari uchun ma’xrifatga erishmoq zarur. Keltirilgan so‘zlar nafaqat teran ma’noga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo‘ladi. Inson barcha yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo‘lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi.

Xususan, Sharq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarni

[1] Вивекананда Свами. Философия йога. – Магнитогорск, 1992. – С.488-489

dunyoviy fan nuqtai nazaridan o'rganadi. U "odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan"[1], deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la oladi. "Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan"[2]. Beruniy fikricha, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, "Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi"[3], deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. Yakka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi. "Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin"[4]. Inson o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. Yolg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. Ibn Xaldun insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir.

---

[1] Beruniy A. Tanlangan asarlar. I jild. –T.: «Fan», 1968. -B.16-17.
[2] Qarang: Irisov A. Abu Rayxon Beruniy hikmatlari. –T.: «Yosh gvardiya», 1973. –B.40-43
[3] Ibn Sina. Danishname. -Dushanbe.: 1957. -S. 59
[4] Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –B.69

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan Ma'rifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi fransuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur fransuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

«Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyutsiyaning o'ziga xos cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir»[1], deb qayd etadi atoqli fransuz faylasufi va teologi P.T. de Sharden (1881-1955). Unga zid o'laroq, A.Shopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta'kidlaydi.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Bu yerda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qayerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyutsiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur

[1] Гейяр де Шарден П. Феномен человека. –Москва, 1987.-С.40

konsepsiya 1859-yilda inson kelib chiqishining tabily-ilmiy talqiniga asos bo'lgan Ch.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyutsion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtai nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

G'arb falsafasida kosmotsentrizm nuqtai nazaridan inson avvalo, kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida (Demokrit), ba'zan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bog'liq bo'lgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglab yetish mumkin deb hisoblaganlar (Platon, Aristotel). Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donishmandlik muhim rol o'ynagani bois, ular doim kosmotsentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bunday qarashlar yevropa falsafiy an'anasida V asrgacha, ularning o'rnini teotsentrizm konsepsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi.

Uyg'onish davrida inson o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtai nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi, o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, o'z ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar ital'yan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmati haqida so'z» deb nomlangan mashhur asarida o'z aksini topdi. Tasviriy san'at, me'morchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi tushunadigan har tomonlama komil inson o'sha davrning idealiga aylandi. Uyg'onish davri bu idealga to'la mos keladigan Leonardo da Vinchi, Al'berti Bottichelli, Rafael' kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi. O'sha davr falsafasida insonga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik konsepsiyalari xristianlar Xudosini siqib chiqara boshladi. Yunonlarning kosmotsentrizmi tabiiysentrizm sifatida qayta anglab yetildi. Bunda antik faylasuflarning markazida yer joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari cheksiz va markazsiz kosmosga o'rin bo'shatdi.

Yangi davrda insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'lanadi. Yangi davrda insonga biluvchi subyekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr fransuz materialist faylasuflari (Didro, Gol'bax, Gel'vetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblagan. Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalga tatbiq etishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir»[1], deb qayd etadi.

[1] Кант И. Соч. Т. 6. – Москва., 1966.– С.351.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi ma'naviy faoliyat subyekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushunildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda obyektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. Feyerbax insonga tarixiy ma'naviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, fransuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir.

Ayni shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab yevropa falsafiy tafakkuri F.Shelling, A.Shopengauer, M.Shtirner, S.K'yerkegor, F.Nitsshe, N.Berdyaev, A.Bergson kabi faylasuflarning sa'y-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistensializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantirildi. Xususan, ekzistensializm nuqtai nazaridan obyektiv dunyo – bu avvalo, «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab yetadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi ta'limot, ya'ni falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

Insonga fan nuqtai nazaridan yondashuv.Tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi

tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va yangi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu yerda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Insonni bilish borasidagi ko'p asrlik sa'y-harakatlarni bir yerga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil yechilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shak-shubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo, shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo'lishi yerda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982-yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va yer geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki yerdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e'tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyutsion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa, genetika ba'zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o'zgartiradigan yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-shuvga sabab bo'lgan eng so'nggi xabarlarga ko'ra. qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o'lmaydigan odam yo'qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani

jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, ital'yan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66ShC sifatida ma'lum bo'lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyatsiya bo'yicha umrning o'rtacha uzunlik ko'rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtai nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo'linish yo'li bilan ko'payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning yetuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo'linishlar soni elliktagacha bo'ladi. Bo'linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba'zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas» [1].

Biroq fan bir joyda to'xtab turgani yo'q va shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo'layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to'xtatadigan moddani topish, shuningdek, organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar o'ziga jiddiy e'tibor berishni talab qiladi.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa, inson bilan bog'liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o'laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil yechimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to'la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o'laroq, falsafaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday hodisani o'rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo'ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli bu yerda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi.

[1] Годфруа Ж. Что такое психология. – Москва., 1996. Т. 2. – С.10

U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd etishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo'lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

Insonga intovertiv va ekstrovertiv yondoshuvlar

Insonni o'rganishga nisbatan «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor, biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkul'tizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa, nemis antropologlari M.Sheler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtdan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu yerda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm va antropotsentrizm ayniqsa keng

tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Biologizatorlik konsepsiyalari. Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Mal'tus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Mal'tus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdir. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Mal'tus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi. Demografik muammolarning yechilmagani, shuningdek, ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo'ldiki, Mal'tus g'oyalari neomal'tuschilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – yengishga qodir emas.

Inson tabiati xususida shunga o'xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik konsepsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa

bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Mazkur g‘oyalar zamirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta’limot – yevgenika yotadi.

XX asr boshlarida bu ta’limot shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog‘landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Sotsiologizatorlik konsepsiyalari. Sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko‘rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba’zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo‘yadilar, balki so‘nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e’tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e’tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o‘ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardida ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o‘ziga bo‘ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta’limotlarga, xususan, Platon falsafasi ayniqsa, xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Passionarlar va subpassionarlar nazariyasi. Lev Nikolayevich Gumilyov (1912-1992) insonni tushunishga yangicha yondashgan va tarixiy-madaniy jarayonda individlarning uch turi: passionariylar, subpassionariylar va muvofiq odamlarni farqlagan. Passionarlik (lotincha «passio»–«ehtiros») deganda energiyaning «tur me’yoridan og‘uvchi, ammo patologik xususiyatga ega bo‘lmagan» turi tushuniladi. Passionarlik har safar materiyani o‘zini qayta tashkil etishga majburlovchi to‘lqin manbai, atrof-muhitni o‘zgartirish qobiliyati hamda bunga bo‘lgan intilish yoki fizika tili bilan aytganda, muhitning agregat holatini buzishga bo‘lgan intilish tarzida namoyon bo‘luvchi biofizik omildir. Passionar turtki mutatsiyaga olib keladi. Gumilyovning fikriga ko‘ra, mutantlarning tug‘ilishi passionariylar– o‘ta g‘ayratli shaxslarning tug‘ilishidir. Passionarlik turtkisi shu qadar kuchli bo‘lishi mumkinki, mazkur belgi egalari o‘z qilmishlarining oqibatlari haqida o‘ylashga o`zlarini majbur qila

olmasliklari mumkin. Shuning uchun ham passionarlikni ong belgisi deb emas, balki asab sistemasining konstitutsiyasida namoyon bo'luvchi muhim belgisi deb tushunish lozim, u, ong faoliyati bilan bog'liq faollikdan farqli o'laroq, emotsiyalar sohasida yashaydi. Passionariylarni ideal xususiyatlardan ancha uzoq xususiyatlar: takabburlik, mag'rurlik, manmanlik, ochko'zlik va b. tavsiflari ham mumkin. «Passionarlik – muayyan maqsadga (ko'pincha xayoliy maqsadga) erishishga yo'naltirilgan faoliyatga (ongli yoki ko'pincha ongsiz) ichki intilish. Mazkur maqsadni passionariy hatto o'z hayotidan hamda zamondoshlari va qabiladoshlarining baxtidan afzal deb biladi»[1]. Passionarlik darajasi har xil bo'lishi mumkin, ammo bu hodisa tarixda aniq va qayd etiladigan tarzda namoyon bo'lishi uchun passionariylar soni ko'p bo'lishi kerak, ya'ni passionarlik nafaqat individual belgiga, balki populyatsion belgiga ham tayanadi. Passionariylar orasida ruh passionariylari va tana passionariylari ham farqlanishi mumkin. Salbiy impul'slarga ega bo'lgan, hech narsaga qaramay, hatto o'z zarariga ish tutishga intiladigan odamlar passionariylar deb ataladi. Ijobiy, hayotbaxsh impul'slarga ega odamlar esa subpassionariylar deb ataladi. L.Gumilyovning fikriga ko'ra, passionariylar tubanlashgan hollarda ularning o'rnini subpassionariylar egallaydi. Ularni «sodda», «qoloq» odamlar deb hisoblaydilar, ularning keng maydonga chiqishi etnosning intihoga yuz tutganini anglatadi, chunki ularda instinktiv impul'slardan boshqa hech narsa qolmaydi. «Passionarlik» hodisasi dunyoning yagona axborot-energetik manzarasida tarixda chuqur iz qoldirgan «buyuk odamlar va xalqlar»ning faoliyati mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Uni tushunib yetishga «inson xulq-atvorining shakllanishiga jug'rofiy muhitning ta'siri» masalalari bilan) ulkan hissa qo'shdi. Passionarlik muammosi L.Gumilyov konsepsiyasining nazariy negizini tashkil etadi. Muallifning fikricha, passionarlik– biologik belgi, osoyishtalik inersiyasini buzuvchi dastlabki turtki; bu passionariylarning ma'lum sonidan iborat avlod. Ular o'z hayoti bilan odatdagi vaziyatni buzadilar, chunki o'zlarini qiziqtirgan maqsadsiz kundalik tashvishlar bilan yashay olmaydilar. Muvofiq odamlar jamiyatning ummiy qonuniyatlari va siyosiy tizimiga

[1] Гумилев Л.Н. Конец и вновь начало.–Москва, Наука, 1994. -С. 71.

moslashuvchanlikda namoyon bo'ladi va ijtimoiy jarayonlar aynan muvofiq odamlarning faoliyatibilan belgilanadi,

Gumilyov ta'riflagan qonunga binoan, «etnik jamoa tomonidan amalga oshiriladigan ish passionar kuchlanish darajasiga to'g'ri proporsional» bo'lib, bunda «etnosning passionar kuchlanishi deganda etnik tizimda mavjud passionarlik miqdorining etnosni tashkil etuvchi shaxslar soniga bo'linishi tushuniladi»[1]. Madaniyat va turmush darajasining barqaror o'sish davrlari esa passionar kuchlanish umumiy tarzda pasaygan davrlar bilan bog'liq.

Umuman olganda, passionarlik hodisasining manbai koinot omillariga, jumladan, quyosh faolligining davriy jarayonlari bilan bog'lanadi. L. Gumilyov aniqlagan passionarlik hodisasi inson to'g'risidagi V.I.Vernadskiy ta'riflab bergan «boshqa kuchlar bilan bir qatorda, real jug'rofiy kuch», degan qarashni qabul qilish imkonini beradi. Bu kuch doimo bunyodkor kuch emas, ba'zan u halokatli oqibatlarga olib keladi. L. Gumilyovning: «Biosfera odamlarni to'ydira oladi, ammo ularning butun yer yuzini biotsenzlar konversiyasi siklidan chiqarilgan ashqol-dashqollar bilan to'ldirishga bo'lgan intilishini qondira olmaydi», degan so'zlari buning real isbotidir[2].

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa tarixida inson individualligining ichki, yashirin holatini aks ettiruvchi «jon» va «ong» tushunchalarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan atoqli sofistlardan biri Protagor (mil. av. 490-420-yillar) mil. av. V asrdayoq «inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi», deb qayd etgan edi. Suqrot (mil. av. 469-399-yillar) ham haqiqat izlab insonga murojaat etadi. Inson o'z joni faoliyatini boshqara oladi, shu bois dunyoni tushunish yo'li o'z-o'zini bilish orqali o'tadi, deb hisoblaydi. Suqrotning mashhur shogirdi Platon birinchi bo'lib jon haqidagi yaxlit ta'limotni yaratdi. U odamlar jonining qandayligiga qarab ularni har xil tiplarga ajratdi.

Keyingi davrlarda Seneka, R.Dekart, A.Navoiy, A.Jomiy, I.Kant, I.G.Fixte, J.P.Sartr, M.Xaydegger va boshqa mutafakkirlar

[1] Гумилев Л.Н. Этногенез и BIOSфера Земли.–Москва, Наука,1989. -С. 257-256.
[2] O'sha yerda. – B. 418.

insonning ma'naviy negizini birinchi o'ringa qo'yib, uning ongi, ma'naviy dunyosi va bilish qobiliyatlarini o'rganish ishiga salmoqli hissa qo'shdilar. Biroq XXI asrda deyarli ikki yarim yillik tarixiy taraqqiyot jarayonida ham inson muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Inson borlig'ida ongning tabiati. Ong inson borlig'ining eng muhim xossasi.Ongning tabiati shunday: ongni o'lchash, biron-bir tarzda miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin emas, zero uning massasi ham, energiyasi ham yo'q, shuningdek u moddiy obyektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega emas.

Ong shak-shubhasiz mavjud, ammo u mavhum bo'lib, balki bilvosita – odamlar tili va muayyan faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, inson borlig'ining bu elementlarini tahlil qilmasdan ongning mohiyatini aniqlash mumkin emas. Mazkur tahlil ongning biologik jihatini ham o'z ichiga oladi, zero uning mavjudligi inson bosh miyasi faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli ongning tabiati nafaqat falsafada, balki fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, kibernetika, informatika va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarda ham o'rganiladi. Atrof muhitda, o'z ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarga odamlar qadim zamonlardayoq e'tibor berganlar. Bu jon va ruh haqidagi mulohazalar paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu tariqa bashariyat tarixida animizm - odamlar, hayvonlar hayoti, narsalar va hodisalarga jon va ruhlar ta'sir ko'rsatishiga bo'lgan e'tiqod paydo bo'ldi, shu asnoda shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar keyinchalik u yoki bu tarzda turli dinlar negizini tashkil etdi. Jon haqidagi ilk falsafiy tasavvurlar odatda muayyan birinchi asoslar (havo, olov, atomlar harakati va sh.k.) bilan bog'langan va shaxssiz bo'lgan, ya'ni inson tabiatining betakrorligi, uning individualligi bilan tenglashtirilmagan. Suqrotdan oldingi falsafa to'laligicha shunday xususiyatga ega bo'lib, bu yerda ideallik tushunchasini deyarli uchratmaymiz. Masalan, olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan Geraklit jon (psixeya) olov yoki suvdan iborat bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi. Olov ko'proq bo'lgan «quruq» jonni - eng oqil va maqbul deb hisoblaydi. Jon namlangach, o'z kuchini yo'qotadi, ho'llangach esa – halok bo'ladi. Shu sababli jon olovi kuchliroq yonishi uchun faol ma'naviy va aqliy hayot kechirishga harakat qilish lozim. O'z navbatida ayrim

kishilarning jonlari butun dunyoning birinchi sababi hisoblanadigan va uni boshqaradigan dunyoviy aql olovi – «logos» bilan bog'liq.

Suqrot va Platon moddiy va ideal hodisalarni farqlagan. Shuningdek, Platon yevropa falsafiy an'anasida ideal asosni qayd etibgina qolmasdan, balki undan moddiy asosni ham keltirib chiqargan birinchi faylasuf hisoblanadi. Ayrim inson ongi esa, Platon fikriga ko'ra, uning joni bilan bevosita bog'lanadi. Bu o'lmas jon u yoki bu tanaga, tana tug'ilgunga qadar o'z «zindoni»ga tushgandek kirib joylashadi va u o'lganidan keyin esa boqiy g'oyalar dunyosida mushohada yuritadi va shu tariqa ularni o'rganib yashaydi. Platon ruhiy hodisalarni tuyg'ular dunyosi (sezish va idrok etish) va intellektga ajratadi. Intellektda u aql va idrokni farqlaydi. Bunda sof g'oyalar bilan ish ko'ruvchi aql fikrlashning formal usullari bilan bog'liq (masalan, matematikada) idrokka qaraganda yuksakroq hodisadir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyinchalik falsafada ideal narsalar va hodisalarni tushunishga nisbatan ko'p sonli har xil yondashuvlar paydo bo'ldi, ammo ularning barchasi ideallikni moddiylik va ko'lamlilikka qarshi qo'yadi.

Aristotelning «Jon haqida» risolasini qadimgi yunon faylasuflarining ong haqidagi falsafiy mulohazalarining muayyan yakuni deb hisoblash mumkin. Bu yerda jon tananing mohiyati, uning uyushtiruvchi tamoyili sanalsa-da, lekin aql ichki faolligining in'ikosiga emas, balki kosmos hayotining umumiy qonunlariga bo'ysunadi.

O'rta asrlar Yevropa falsafasi «din cho'risi»ga aylanib, ong haqidagi masalaga butunlay o'zgacha nuqtai nazar bilan yondashdi – uni abadiy mavjud bo'lgan dunyoni, shu jumladan inson va uning jonini yo'qlikdan yaratgan Xudoning yagona dunyoviy asos sifatidagi talqini bilan bog'ladi. Bu ta'limotga binoan inson aqli ilohiy aqlning bir zarrasi sifatida muayyan darajada o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, ongning bu faoliyati Tangrini bilish va u bilan muloqot qilishga qaratilgandir. Ongning mazkur obyektiv-idealistik talqini bilan bir qatorda o'rta asrlarda ongni «fikrlovchi materiya»dan keltirib chiqargan materialistik an'anada ham uzilish yuz bergani yo'q. Bunday qarashlarga Sharq falsafasi (ibn Sino, Ibn Rushd) o'z ta'sirini

ko‘rsatgan yevropalik ayrim faylasuflar Duns Skot, brabanlik Sigerning asarlarida duch kelish mumkin.

Seneka qalb, ruh yetukligini, hurligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. “Shunday narsani izohlash kerakki, – deb yozadi u shogirdi Lutsiliyga, - hech nima unga hukmronlik qilolmasin, hech nima unga g‘ov bo‘laolmasin. Bu nima deysanmi? U mag‘rur, oliyjanob, yuksak ruhdir. Uni kishi vujudidan joy topgan xudodan boshqa narsa deyish mumkinmi?.. Vujud biqiqligidan kechib ko‘kka intil va shoir aytganidek, o‘z ruhingni Xudoga monandligini namoyon et. Ruhning hurligi uchun tilla ham kerak emas, kumush ham, chunki haqiqiy xudo timsolini yasab bo‘lmaydi. Esla xudolar bizga xayrixoh bo‘lganlarida ular loydan edilar. Komil ruhni qarzga ham, sotib ham olib bo‘lmaydi”[1].

Seneka nazarida ezgulik, poklik, adolat va yetuklik izlagan kishi eng avvalo o‘z ruhini ilohiy talablarga monand qilishi darkor. Ilohiylik – bir timsol, simvol, unga yetish kishi ixtiyoridadir. Kishi qayerda yashamasin, nimalarni izlamasin, kimlarga hamroh bo‘lmasin o‘zining ruhini poklamaguncha, uni yuksaklikka yo‘naltirmaguncha hayotdan zavq, orom, buyuklik topolmaydi. “Yashash joyingni emas, ruhingni o‘zgartir, - deb yozadi Seneka, - qancha ko‘p kezsang, shuncha ruhing iztirobga botadi. Kema uchun bab-baravar ortilgan yuk emas, balki notekis ortilgan yuk halokat keltiradi”[2]. Ruh bezovta, xasta ekan kishini hech qanday olamgardlik, tomosha, hazz-huzur qutqara olmaydi. Qayerda va kim bilan emas, qanday qalb, ruh bilan yashashing muhim. “ruhim hur bo‘lsin desang, biror makonga butun dildan bog‘lanma. Men biror burchak uchun tug‘ilmaganman, butun mening vatanim, degan e’tiqod bilan yasha”[3]. Bir qarashda faylasuf kosmopolitizm tarafdori bo‘lib ko‘rinadi, biroq barcha rimliklar kabi u ham o‘z Vatanining fidoiysi edi. Bu o‘rinda Seneka vatansiz yashashni emas, balki ruhiy osudalikni targ‘ib etadi.

Faylasuf kishidagi barcha illatlar uning qalbi, ruhidagi nopok tuyg‘ular tufaylidir deb biladi. Ba’zi kishilar boshqalarni pok, sofdil, ezgu amalli, xushaxloq ko‘rishni istaydi, hatto ulardan ilohiy sifatlarni talab etadi, O‘zida yo‘q xislatlarni boshqalardan talab etish

[1] O‘sha yerda. –B. 66.
[2] O‘sha yerda. –B. 79.
[3] O‘sha yerda. –B. 83.

zo‘ravonlik bo‘lmasa-da, axloqsizlikdir. O‘zi dardmand kishi o‘zganing dardiga darmon bo‘lolmaydi; qalbi nopok kishining o‘zgalardan poklik talab etishi nokaslikdan boshqa narsa emas. Boshqani to‘g‘rilashdan oldin o‘zingni to‘g‘irla. “O‘z aybingni bilish, ruhni sog‘lom tutish tomon tashlangan birinchi qadamdir”[1]. Kim o‘z qalbini sog‘lom ko‘rishni istamasa, o‘zidagi illatlardan xolos bo‘lmoqchi emas; kim nuqsonlarini eshitishdan qochsa, o‘z nuqsonlarini ezgulik deb biladi; kim poklanishni ixtiyor etmasa, unga hech kim dars berolmaydi. Ruhning poklanishi, sog‘lom bo‘lishi uchun nima qilish kerak? Seneka, eng avvalo, “yetuk donishmandlik ilmi” falsafa bilan shug‘ullanish lozim, deb javob beradi.

Odamni ongli mavjudotga aylantirgan uning aqlidir. Aql donishmandlikka intilib odam ruhini buyuk qiladi. Donishmandlik orqaligina kishi baxtiyor sezadi o‘zini; o‘zini baxtiyor sezmagan baxtiyor ham, ozod ham emas. “Mubarro yashashni istasang falsafaning quli bo‘l”[2].

Gilozoizm ta’limoti. Qadimda jon - pnevma, psyu-xe, fantom, mana, kvintessensiya deb nomlangan. Jon (lot. anima) hayvon, inson va hatto o‘simlik tanasida yashaydigan va uni uyqu paytida yoki o‘limdan so‘ng tark etadigan alohida kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Bundan uning etimologik talqini, ya’ni jonni nafas, nafas olish va nafas chiqarish sifatida tushunish kelib chiqqan. Jon uch tarkibiy qismdan iborat mohiyatga aylangan: hayotbaxsh nafas o‘simlik joni deb, psyuxe – ruhiy jon, nus esa – aqlli jon deb atala boshlagan. Jonni tushuntirish o‘ta og‘ir muammoga aylangan (ayniqsa, materialistik fikrlovchi faylasuflar uchun). Bu alohida turdagi teran materiyaga, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan ichki mohiyatga shubha tug‘ilmasligi uchun ular butun tabiatni jonli deb e’lon qilganlar. Demak, gilozoizm butun tabiatning jonli ekanilgi tan olishdir.

Platonning «Davlat» asarida jon tarkibiy qismlari oqilona jon, emotsional-qahrli jon, buzuq jon kabilardir. Ular tegishli ravishda bosh, ko‘krak va qorin bo‘shlig‘ida joylashgan. Aristotelning «Jon haqida» deb nomlangan risolasida jon va tana bir-biridan ajralmas mohiyatlar sifatida tavsiflanadi, jon haqidagi ta’limot esa hayot va uning shakllari haqidagi umumiy ta’lim sifatida tushuniladi.

[1] Эпикур. Этика. -Москва., 1977. - С. 47.
[2] O‘sha yerda. -B. 39.

O‘simliklar joni, hayvonlar joni va aqlli mavjudot – inson jonini farqlar ekan, Aristotel’ rivojlanish g‘oyasini ruhiyatga tatbiqan bilvosita ta’riflaydi. Uning fikricha, jonning yuqorida zikr etilgan uch tarkibiy qismi insonda yaxlit bir butunga birlashadi va turli funksiyalar: ovqatlanish, his qilish va mulohaza yuritishda namoyon bo‘ladi. Jon unsurlarining barchasi tana unsurlari bilan uzviy bog‘lanadi, ammo ular eng avvalo, kosmik harakatlarga bog‘liq bo‘ladi. Antik davrda jon alohida hayotbaxsh kuch, ichki ma’naviy asos sifatida tushunilgan bo‘lsa-da, uning faqat o‘z faolligi sifatida tushuntirilgan.

O‘rta asrlar falsafasida jon – dunyoviy va ilohiy faoliyat o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in, degan umumiy tasavvur shakllanadi. Foma Akvinskiy (1226–1274) jon insonni «aktuallashtiradi», uning asl mohiyatini belgilaydi, degan fikrni ilgari suradi. Jon imkoniyatlarini Foma potensiyalar deb ataydi. Ular besh xil bo‘ladi: o‘sish, hissiy idrok etish, o‘z xohish-irodasini ifodalash, makonda harakatlanish, aql yordamida dunyoni tushunish. Ayrim potensiyalar tana bilan bog‘liq bo‘lsa, ba’zilari, masalan, o‘z xohish-irodasini ifodalash va aql yordamida dunyoni tushunish ko‘proq oliy asosga bo‘ysunadi. Ammo tana zarur, chunki u jonning barcha potensiyalarini birlashtirishni ta’minlaydi.

Cherkov otalari uchun jon faqat e’tiqodlar tizimiga mos keladigan yoki mos kelmaydigan bir mohiyatni o‘zida ifodalaydi. Jonning normal faoliyatini ta’minlash ruhoniyning vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan jon shaxsiy hayot omili sifatida emas, balki yo‘lga solish lozim bo‘lgan jamoa-umumiy mohiyat sifatida talqin qilinadi. Jonning moddiyligi g‘oyasi cherkov mulozimlari tomonidan taqiqlanadi. Aql va jon Xudo atributlari sifatida sharhlanadi. Faqat jonning panoh topishi haqida qayg‘urish lozimligi ta’kidlanadi, zero jon o‘lmas, inson tanasi esa o‘tkinchidir.

Yangi davr yevropa falsafasida jontushunchasi shaxsning teran, ichki dunyosi bilan ayniylashtirilgan. Xususiy tashabbus va tadbirkorlikning rivojlanishi insonning ma’naviy intilishlari qadriyat sifatida anglab yetilishiga turtki bergan. Shunga qaramay jonning jismoniy kelib chiqishi haqidagi konsepsiya unutilmaydi. Fransuz faylasufi Jyul’yen Lametri (1709–1751) hatto jon qaysi organdan o‘rin olishini ham ko‘rsatadi. «Biz tubanlashuvimiz uchun barcha

kishilarning joni yashaydigan miyamizda zarracha o'zgarish yuz berishining o'zi kifoyadir». «...Bizning jonimiz ehtiyojlarimizga bevosita bog'liq bo'ladi, ularni misli ko'rilmagan tezlikda qondiradi va bu ehtiyojlarga hech narsa qarshi bora olmasligi haqida ogohlantiradi»[1].

Jonda butun dunyo o'zining to'liq tajassumini topadi. U serqirradir. Fransuz faylasufi va matematiki Blez Paskal' (1623–1662) jon ruhiy parvozlarining cheksiz darajada rang-barangligi, uning nozikligi, betakrorligi va beqarorligidan taajjublanib, inson jonining mohiyatini formula bilan ifodalash mumkin emas, u haqda faqat hayotni o'rganish va inson xulq-atvorini kuzatish orqali hukm chiqarish mumkin, degan xulosaga keladi. Jonning mazkur xususiyatlari teran ma'naviy asoslarni ichki darajadan sirtga chiqaradi. Jon individuallikning asosi sifatida amal qiladi.

Shunday qilib, falsafa tarixida mavjud jon haqidagi tasavvurlar o'z-o'zicha to'g'ri, biroq to'liq emas. Mazkur noyob fenomenni tushuntirish uchun energetik, dinamik va temporal mezonlar zarur. Adabiyot va she'riyatda, kundalik muomalada jonning bezovtaligi, uning mayllari va harakatlari haqida ko'p gapiriladi. Jon azaldan muayyan faol kuch, harakat manbai, energiya toki va harakatlantiruvchi asos sifatida tushuniladi. Tana dam jonni ifodalash maydoni sifatida, dam jon «go'ri» sifatida qaraladi. Psixoanalitik K.Yung jon ham, uning ishi ham ko'pchilik uchun ko'rinmas ekanligiga e'tiborni qaratar ekan, jon uchun muhim omillar ongdan tashqarida bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. «Faqat tunda ochiladigan gullar» haqida gapirar ekan, Yang, "jon, barcha ma'naviy asoslar yaratiladigan va shakllanadigan vaqt oralig'ini belgilaydi"[2] deb ta'kidlaydi.

Falsafiy oqimlar, maktablar va yo'nalishlarning deyarli barchasi jonni anglab yetish, oqilona tahlil qilish mumkin bo'lmagan, teran hodisa sifatida tavsiflaydi. Ayni paytda jonga ishora qiluvchi, jonning bokiraligi, uning ichki kuchlari haqida bahs etuvchi mavzular doirasi behad keng.

Ekzistensializm asoschisi daniyalik faylasuf S.Kyerkegor (1813–1855) o'z izlanishlari natijasida jonni tanlash mumkin va bu

[1] Qarang: Ламетри. Сочинения. – Москва., 1983. – 237–238-б.
[2] Qarang: Юнг К. Архетип и символ. -Москва., 1991. – 210-б.

har kimning o‘z xohish-istagiga bog‘liq, degan muhim xulosaga keladi.Individual ruhiy olam, intim ichki dunyoning mavjudligi inson hayotini mushkullashtiradi va ong fenomenini anglab yetish muammosini yanada og‘irlashtiradi. Ammo o‘z o‘zligini saqlab qolish huquqi yerda yashaydigan har bir insonning uzviy huquqi hisoblanadi.

Ong haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi. Yangi davrda R.Dekart (1596-1650) ongni tafakkur bilan tenglashtirib, uni umumiyroq tusdagi «ruhiyat» tushunchasidan ajratdi va ongni mustaqil, erkin fikrlovchi substansiya deb hisoblab, yonma-yon joylashgan boshqa – ko‘lamli, fikrlamaydigan, moddiy substansiyaga qarshi qo‘ydi. Dualizm deb nomlangan mazkur falsafiy yondashuv keyinchalik ongning tabiatini tushunishga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shulardan biri ruhiyni jismoniyga (Gobs); ma’naviyni – moddiyga bog‘lash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuv subyektiv (Berkli, Yum, Fixte, Max va boshqalar) va obyektiv (Platon, Foma Akvinskiy, Gegel) idealizm bilan bog‘liq bo‘lib, moddiy va jismoniy narsalar va hodisalarni ikkilamchi, ideal, ma’naviy, ruhiy narsalar va hodisalar mahsuli deb tushunishi bilan ajralib turadi.

Ikkala yondashuv ham nemis klassik falsafasida faol rivojlantirildi. Masalan, Gegel individual ongga butun rivojlanish negizi sanalgan mutlaq g‘oyaning pirovard shakllaridan biri sifatida yondashdi. Bu yerda ong tarixan belgilangan faol asos sifatida tushuniladi. Mazkur asosda uning tuzilishi darajalari, xususan, hissiy, mantiqiy, individual va ijtimoiy darajalar farqlanadi.

«Vul’gar materializm» nazariyasida ong sof moddiy jarayon bo‘lib, uning mazmuni inson yeydigan oziq-ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibi bilan bog‘liqligi tan olinadi. Byuxner, Foxt, Moleshott kabi faylasuflar bu nazariyani himoya qilib, jigardan safro ajralganidek, aqldan fikr ajraladi, deb hisoblagan.

Tabiatshunoslikning rivojlanishi, ayniqsa neyrofiziologiya, biologiya, eksperimental psixologiya sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar so‘nggi yillarda bizning ong tabiati haqidagi tasavvurlarimizni sezilarli darajada kengaytirdi. Shunga qaramay, sun’iy intellekt yaratish borasidagi ishlar, «fikrlovchi mashinalar»ning paydo bo‘lishi va «axborot portlashi» va komp’yuter inqilobining boshqa natijalari,

xususan shaxmat o'yinida hatto jahon chemionlarini ham yutishga qodir superkomp'yuterlarning yaratilishi inson ongining mohiyati va imkoniyatlari haqidagi masala yangidan qo'yilishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib, avvalgi savollarga javob olish barobarida yangi muammolar ham paydo bo'ldi. Biroq, ular ong muammosini yechishga nisbatan har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi nuqtai nazarlar va falsafiy yondashuvlar sonini aslo kamaytirgani yo'q.

Ongsizlik. Ba'zan «ong» tushunchasi «inson ruhiyati» tushunchasi bilan ayniylashtiriladi. Bu noto'g'ri. Ruhiyat – ongga qaraganda murakkabroq tuzilma bo'lib, u aks ettirishning ikki sohasi – ong va ongsizlikni o'z ichiga oladi.

Olimlar insonda onglilik va ongsizlikning o'zaro nisbati to'g'risida so'z yuritar ekanlar, ba'zan ularni okeandagi muztoqqa o'xshatadilar. Bu muztog'ning suv ustidagi ko'zga ko'rinadigan qismi ongga qiyoslanadi, suv ostidagi ko'rinmaydigan qismi esa ongsizlikka o'xshatiladiki, uning miqyosi, shakli, tuzilishi va mazmuni haqida biz bilvosita belgilarga ko'ra faqat taxmin qilishimiz mumkin.

Ongsizlik sohasi – bu aqldan tashqaridagi ruhiy hodisalar, holatlar va harakatlar majmui, deb hisoblash odat tusini olgan. Bu sohaga, eng avvalo, instinktlar – inson xulq-atvorining uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida hosil bo'ladigan va har bir mavjudotning hayot funksiyalarini, umuman uning mavjudligini ta'minlashga qaratilgan tug'ma harakatlari majmui kiritiladi. Ongsizlikni (ong osti) tushunish yanada ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Uning mavjudligi avstriyalik mashhur psixiatr Z.Freyd (1856-1939) tomonidan XX asr boshida aniqlagan. Har xil tushlar, gallyutsinatsiyalar, xayoldan ketmaydigan g'oyalar, intuitsiya va shu kabilar ongsizlikning namoyon bo'lish shakllariga misol bo'lishi mumkin. Ular odamlar ruhiyati va xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, lekin ayni vaqtda bu jarayonlarni boshqarish nuqtai nazaridan ularga bo'ysunmaydi. Shu sababli ongsizlik ongning muayyan lahzada ong bilan boshqarishga qodir bo'lmagan parchasi, deyish mumkin[1].

Ongsizlik strukturasiga ong sohasida vujudga kelishi va vaqt o'tishi bilan ongsizlik sohasiga kirishi mumkin bo'lgan intuitsiya va

[1] Шрейдер Ю.А. Загадочная притягательност философии (субъективные заметки) // Вопросы философии. 1996. №7. – С.168.

avtomatizmlarni ham kiradi. Intuitsiya – bu olish yo'llari va shartlarini anglamasdan, bevosita hissiy kuzatish yoki mushohada yuritish yo'li bilan olinadigan bilim. Avtomatizmlar – bu avval ong nazorati ostida paydo bo'llb, uzoq mashq qilish va ko'p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari. Tush, gipnoz holati, somnambulizm hodisalari, hushsizlik holatlari ham ongsiz harakatlar hisoblanadi.

Ruhiy faoliyatga ongsiz harakatlarning qo'shilishi natijasida ongga tushuvchi yuk kamayadi, bu esa, o'z navbatida, insonning ijodiy imkoniyatlari maydonini kengaytiradi. Hozirgi zamon fani ong osti sohasi tushunchasi bilan ham ish ko'radi. Bu ongsizlik sohasining alohida qatlami yoki darajasidir. Unga faoliyat amallarining ong darajasidan avtomatizm darajasiga o'tishi bilan bog'liq ruhiy hodisalar kiritiladi.

Ongsizlik va ong inson yagona ruhiy borlig'ining nisbatan mustaqil bo'lgan ikki tomoni hisoblanadi; ularning o'rtasida tez-tez ziddiyatlar, ba'zan konfliktlar yuzaga keladi, lekin ular bir-biri bilan bog'langan, bir-biri bilan o'zaro aloqa qiladi va uyg'un birlikka erishishga qodir. Ongsizlik sohasida inson hayot faoliyatini, ayniqsa subyektning ijodiy faoliyatini oqilonalashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu hol irratsionalistik falsafiy ta'limotlarning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda ongsizlikning turli shakllari: instinktlar, intuitsiya va shu kabilar inson xulq-atvorining salmoqli yoki hatto hal qiluvchi kuchi hisoblanadi. Irratsionalizmning taniqli namoyandalari orasida Artur Shopengauer (Germaniya), Syoren K'yerkegor (Daniya), Fridrix Nitsshe (Germaniya), Eduard Gartman (Germaniya), Anri Bergson (Fransiya), Zigmund Freyd (Avstriya), Martin Xaydegger (Germaniya) kabilar ongs izlik muammosini tahlil qilganlar. Xususan, Zigmund Freyd yaratgan inson xulq-atvori modelining zamirida inson ruhiyatida jinsiy mayllarning hukmronligi haqidagi tasavvur yotadi. Mazkur mayllar ong bilan to'qnashadi va natijada uni o'ziga bo'ysundiradi. Ammo falsafiy maktablarning aksariyati o'zgacha nuqtai nazarni ilgari suradi. Ular inson ruhiyatida yetakchi asos ong bo'lib, u ongsizlik sohasini «oziqlantirish» va uni ko'p jihatdan shakllantirish orqali umuman olganda uni boshqarishga,

shuningdek inson xulq-atvorining umumiy strategiyasini belgilashga qodir, deb hisoblaydi.

Ong inson miyasining obyektiv borliqni ideal obrazlarda aks ettirish va bu obrazlardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati. Uni bevosita kuzatish mumkin emas. Ong faqat inson miyasi ishining natijasi, uning xossasi sifatida, shuningdek, ong namoyon bo'lishining fikrlar, g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar va shu kabilar tarzida ifodalangan turli shakllari orqali tadqiq etilishi mumkin.

Individual ong borlig'ini odatdagi makon va vaqt koordinatalarida tavsiflash mumkin emas. U nafaqat doim «shu yerda va hozir» mavjud bo'ladi, balki go'yoki makondan tashqarida yotadi, chunki biron-bir hajm yoki miqdoriy o'lchanadigan chiziqli ko'rsatkichlar bilan ifodalanishi mumkin emas. Vaqtda u (dalil sifatida, hodisa sifatida), har qanday narsaning borlig'i kabi, faqat hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, zero u o'tmishda yo'q bo'lgan, kelajakda esa hali mavjud emas. Biroq, moddiy narsalar borlig'idan farqli o'laroq, ong bir qancha o'ziga xos xususiyatlar, chunonchi: vaqt shkalasi bo'ylab o'tmishga ham, kelajakka ham bir lahzada ko'chish, ilgari mavjud bo'lgan narsalar, yuz bergan voqealarni xayolda aks ettirish, paydo bo'lishi, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalar va voqealarni tasavvurda gavdalantirish qobiliyatiga egadir. Ammo o'tmish yoki kelajakning ideal obrazlari hisoblangan ongni uning haqiqiy borlig'ida o'z ekranida tasvirlarni almashtiruvchi aylanuvchan kaleydoskop bilangina taqqoslash mumkin.

Shaxs – insonning uni qurshagan boshqa odamlar tomonidan qanday idrok etilishi, tavsiflanishi va baholanishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa. Shaxs faqat jamiyatda, o'ziga o'xshash odamlar bilan muloqot qilish, o'tgan avlodlar to'plagan tajriba va bilimlarni, o'ziga qadar yaratilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish orqali shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham shaxs bo'lish – ijtimoiy «qiyofa»ga ega bo'lish demakdir. Bularning barchasi ijtimoiy borliqning turli holatlari va jarayonlarini tavsiflaydi. Ularni to'la yoritish ijtimoiy falsafa muammolarining butun majmuini tahlil qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong borlig'i borliqning boshqa barcha shakllaridan butunlay farq qiladi. Yaxlit holda olingan ijtimoiy «organizm»

hayvonlar podasidan butunlay farq qiladi. Jamiyatning bu o'ziga xos, betakror xususiyati falsafada «ijtimoiy ong», «jamoa aqli», «obyektivlashgan ma'naviyat» va hokazolar deb ataladi. U har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bu fikrni isbotlash uchun muloqot, kommunikatsiya, odamlarni tarbiyalash va ularning ijtimoiylashuvi vositasi sanalgan tilni ko'rib chiqamiz. Tilning ayrim kishilar ongi, g'oyalari, fikrlari bilan uzviy bog'liqligi aniq, ammo hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan til ijtimoiy tabiatga ega ekanligi ham shubhasiz. Xuddi shuningdek, til- inson nutqi odamlar jamiyatida paydo bo'lgani va faqat shu yerda mavjud bo'lishi mumkin. Uning tashqi og'zaki, ovoz ko'rinishi, mazmuni, teranligi, kengligi, boyligi ko'plab avlodlarning ko'p asrlik o'zaro aloqasi va o'zaro kamol topishi mahsulidir. Bunda ayrim inson u yoki bu tilni faqat muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Ayni holda umuman til haqida so'z yuritilmoqdaki, u tabiiy ham, sun'iy ham bo'lishi mumkin.

Individual ma'naviy borliqdan farqli o'laroq, ijtimoiy ma'naviy borliq haqida uning fan, san'at, din, axloq va umuman madaniyat tarzidagi ko'rinishlariga qarab hukm chiqarishimiz mumkin. Xususan, u yoki bu ilmiy g'oyalarning paydo bo'lishi doim muayyan olimlar bilan bog'liq, ammo fan ijtimoiy hodisa sifatida muayyan shaxslar bilan bog'lanmaydi, zero u ayrim olimlar ilgari surgan nazariy qoidalar majmuidan yuqoriroq darajada turadi. Bosma, audiovizual va boshqa axborot manbalari, tegishli asbob-uskunalar va shu kabilarsiz fanni tasavvur qilish mumkin emas. U yaxlit hodisa sifatida mustaqil borliqqa ega. Bugungi kunda, komp'yuter texnologiyalari inqilobi davrida fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi.

San'at sohasi haqida ham shunday deyish mumkin. Qo'shiqlar, raqslar va musiqa o'z muayyan ijrochilariga ega bo'lgani holda, o'zining odatlar, rasm-rusumlar va ideallar ko'rinishidagi nisbatan mustaqil hayoti bilan yashaydi va shu tariqa ijtimoiy makon va vaqtda harakatlanib saqlanishi, takomillashishi va ko'payishi mumkin.

Ijtimoiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u, individual ongdan farqli o'laroq, o'z «tanasi»ni «tark eta» olmaydi, xuddi shuningdek u o'z «tanasi»dan, ya'ni jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli ijtimoiy ong asrlar mobaynida abadiy mavjud bo'lgan, yo'q qilib bo'lmaydigan narsa

sifatida qaralgan, uning borlig'i esa butun insoniyat borlig'i yo'q bo'lishi bilan barham topishi mumkin, deb hisoblangan.

Ammo XX asrning o'rtalarida odamlar o'z-o'zini qirg'in qilish vositasi – yadro qurolini yaratdilar va shu paytdan e'tiboran insoniyat o'zining «umrboqiyligi»ni yo'qotdi va endilikda u, yashab qolishga harakat qiluvchi ayrim jonli organizm kabi, ijtimoiy hayotni o'z-o'zini qirg'in qilishdan asrab, o'z ijtimoiy borlig'ini saqlash haqida qayg'urishi lozim..

Ong falsafiy muammo sifatida. Irratsionalizm(irrationalis – nooqilona, ongsiz) borliqni oqilona anglash imkoniyatini cheklaydi, ba'zan esa butunlay inkor etadi. Xususan, neofreydizmning atoqli namoyandalaridan biri K.G.Yung (1875-1961) ongni ilmiy vositalar bilan bilish mumkin emas, deb hisoblagan va unga ta'rif berishga urinishlardan butunlay voz kechib, uni rasmlar va metaforalar yordamida tavsiflash bilangina kifoyalanishni taklif qilgan. Ongni tushunish irratsionalizm ekzistensializm va neopozitivizm kabi falsafiy oqimlarga ham xosdir.

Ongni tushunishga nisbatan ratsional yondashuv ongning paydo bo'lishini materiyaning o'zi bilan tushuntirishga intilish, ayni vaqtda uning tabiat va vaqtdan tashqarida hamda nomoddiy kelib chiqishini inkor etish bilan tavsiflanadi. Bunday qarashlarni asoslash uchun ilmiy va amaliy yutuqlardan doim keng foydalanilgan. Mazkur yo'nalish turli davrlarda sezuvchi, fikrlovchi materiyaning farqi va o'ziga xos xususiyatlari nimada?, degan mushkul savollarga javob izlagan.

Mazkur muammoni to'la va uzil-kesil tushunganlikni da'vo qilmasdan, shuni qayd etish mumkinki, hozirgi zamon fani o'zini bevosita yoki bilvosita namoyon etuvchi ong inson miyasining ish jarayoni hisoblanadi, uning funksiyasi sifatida amal qiladi va undan ayri holda namoyon bo'lmaydi, deb e'tirof etadi.

Hozirgi zamon fani inson miyasida yuz milliarddan ortiq asab hujayralari uzluksiz ishlashini, ularning har biri o'z navbatida boshqa o'n ming hujayra bilan axborot va signallar almashishini aniqlagan. Inson miyasi, garchi uning massasi tana massasining atigi ikki-uch foizini tashkil etsa-da, organizm ovqatdan oladigan butun energiyaning yigirma foiziga yaqinrog'ini iste'mol qiladi.

Mazkur o‘ta murakkab biologik «komp’yuter» ishini tadqiq etish mumkin bo‘lib, bu bilan maxsus fanlar shug‘ullanadi, ammo falsafa bunday tadqiqotlarni e’tiborga olib, o‘z oldiga birinchi navbatda ongning tabiati qanday, degan savolga uning vujudga kelishi va genezisini o‘rganish yo‘li bilan javob berish vazifasini qo‘yadi. Bunda falsafa inson miyasining funksiyasi sanalgan ongni o‘rganish bilangina cheklanmaydi, balki masalani kengroq qo‘yadi: ongning boshqa shakllari, xususan o‘zga moddiy tuzilmalardan paydo bo‘lgan ong shakllari mavjud bo‘lishi mumkinmi?, degan savolga javob izlaydi. Shuningdek, falsafa ongning materiyadan oldin paydo bo‘lgan yoki u bilan mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan mohiyat hisoblanishini nazarda tutadigan ta’limotlarni ham istisno etmaydi.

Shunga qaramay bugungi kun nuqtai nazaridan inson aqli tushunishga qodir bo‘lgan borliqqa tayanadigan falsafly g‘oyalar ishonchliroq xususiyat kasb etadi. Shu ma’noda ong haqida hozircha faqat inson miyasi faoliyati munosabati bilan aniq so‘z yuritish mumkin.

Yangi tabiiy-ilmiy ma’lumotlar olinishi ongning tabiatini tushunishga nisbatan materialistik yondashuvlar mavqeini kuchaytirmoqda. Ammo, kezi kelganda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bu o‘ta murakkab masala xususida falsafaning materialistik yo‘nalishi vakillari o‘rtasida ham yagona fikr mavjud emas. Masalan, XX asrning 50-yillari oxirida AQSh va Avstraliyada ilmiy materializm vujudga keldi. U «vul’gar materiallzm» an’anasini davom ettirib, mohiyat e’tibori bilan ma’naviy hodisalarni miyaning fizik holatlari bilan tenglashtirdi (R.Rorti, G.Feygl, D.Armstron va boshqalar). 70-yillarda AQSh va Kanadada yana bir falsafiy yo‘nalish – «emerjentistik materializm» shakllandi (ingl. emerge – yuzaga chiqish, paydo bo‘lish, yuzaga kelish). Uning vakillari – M.Bunge, J.Margolis va boshqalar individul ruhiyat va ongning evolyutsion kelib chiqishi g‘oyasini himoya qilib, ruhiy hodisalarni jismoniy hodisalarga bog‘lashga qarshi chiqdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ongning ilmiy konsepsiyasi hozircha eng mukammal va hozirgi zamon tabiatshunosligi talablariga ko‘proq darajada javob beradigan falsafiy konsepsiya bo‘lib qolmoqda. Ayni shu sababli unga quyida mufassalroq to‘xtalamiz.

Ongning paydo bo'lishini faqat notirik materiyadan tabiiy yo'l bilan vujudga kelgan tirik materiyaning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qilinishi va ong tabiatining talqiniga «in'ikos» tushunchasini kiritilishi ongning falsafiy konsepsiyasidir.Ong materiyaning umumiy xossasi, in'ikosning oliy tipi deb tavsiflanadi va ongning genezisiga tabiiy-tarixiy nuqtai nazardan yondashilib, uning paydo bo'lishi mehnat va til bilan bog'lanadi.

Til va ong. Ong nafaqat insonning mehnat faoliyati, balki odamlar o'zaro aloqasi va muloqotining universal vositasi – til bilan ham uzviy bog'liqdir. Aniq, tushunarli nutqning paydo bo'lishi, nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki insonning o'zi, uning ongi rivojlanishining butunlay yangi va qudratli vositasiga aylandi, chunki biologik omil (irsiyat)dan tashqari odamlarda til yordamida yanada qudratliroq omil – tajriba va muhim axborot berishning ijtimoiy usuli paydo bo'ldi. Bu turli avlodlar va tarixiy davrlarning bilimlari, an'analari, madaniyatlarining vorisiyligini ta'minladi, so'nggi zikr etilgan hol esa, o'z navbatida, tilning yanada rivojlanishi va takomillashuviga turtki berdi va zamin hozirladi.

Shunday qilib, mehnat, ong va til bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'landiki, ulardan har birining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini bir-biridan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Bunda til insonning fikrlash faoliyati amalga oshuvchi muhim shakl hisoblanadi, mehnat esa, o'z navbatida, tilni rivojlantiradi va boyitadi.

Xullas, individning ongi ijtimoiy belgilangandir, ya'ni u faqat jamiyatda shakllanadi va undan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. U nafaqat kelib chiqishiga ko'ra, balki borliq usuli jihatidan ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi, chunki odamlarning xulq-atvori, harakatlarida namoyon bo'ladi, ularning faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

Ongning strukturasi. Ong strukturasining birinchi elementi – bilim. Bu ongning bosh tarkibiy elementi, uning o'zagi, mavjudlik vositasi. Bilim – bu insonning voqelik haqidagi tushunchasi. Inson ongida bilim anglab yetilgan hissiy va mavxum mantiqiy obrazlar sifatida aks etadi. Bilimlar yordamida inson o'zini qurshagan dunyoni va bilishning predmetini to'laligicha qamrab olishi va anglab yetishi mumkin.

Ong strukturasining ikkinchi muhim elementi emotsiyalardir. Inson o'zini qurshagan dunyoni sovuqqonlik va befarqlik bilan emas, balki qoniqish, nafrat yoki hamdardlik hissi bilan anglab yetadi. U o'z ongida aks etgan hamma narsani his qiladi. Emotsiyalar borliqning real hodisalarini individ anglab yetishini yo rag'batlantiradi, yo bunga to'sqinlik qiladi. Ko'zni quvontiradigan narsalar xotiraga osonroq o'rnashadi. Ammo ba'zan dunyoning «ko'zni quvontiradigan» manzarasi o'ziga mahliyo qilishi, illyuziyalar tug'ilishiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Ongning uchinchi tarkibiy elementi iroda hisoblanadi. Iroda inson o'z faoliyatini ongli ravishda, izchillik bilan boshqarishini o'zida ifodalaydi. Bu insonning o'z faoliyatida yuzaga keladigan, subyektiv va obyektiv qiyinchiliklar va to'siqlardan ongli ravishda oshib o'tishni talab etadigan vazifalarni hal qilishga o'z ruhiy va jismoniy kuchlarini safarbar etish va yo'naltirish qobiliyatidir. Inson mehnat qurollarini yaratishi – bu irodani shakllantirishning birinchi va eng muhim maktabidir. Iroda va maqsad bir-birini to'ldiradi. Irodasiz maqsadga erishish mumkin emas; maqsadga muvofiq faoliyatsiz iroda ham bo'lmaydi. Iroda – bu ongli intilish va harakatga mayl uyg'otishdir. Ammo insonga ongsiz mayllar ham xos. Ba'zan inson qayergadir intiladi, lekin qayerga va nima uchun intilayotganini uning o'zi ham bilmaydi. Bunday ong osti harakati insonga hayvonlardan o'tgan.

Ong strukturasining yana bir elementi – bu tafakkurdir. Tafakkur – individ bilish faoliyatining voqelikni umumiy va bilvosita aks ettirish bilan tavsiflanuvchi jarayoni. Ong strukturasiga e'tibor va xotira ham kiradi. E'tibor – bu inson ruhiy faoliyatining muayyan obyektlarga qarab mo'ljal olishda namoyon bo'luvchi shakli.

Xotira – bu individ miyasida uning o'tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo'lgan ruhiy jarayon.Xotiraning asosiy elementlari eslab qolish, saqlash, gavdalantirish va unutish hisoblanadi. Eslab qolishning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'ida vaqtinchalik nerv aloqalarining hosil bo'lishi va qayd etilishi tashkil qiladi. Nerv aloqalarining keyinchalik jonlanishi eslab qolingan materialni gavdalantirish imkoniyatini beradi, bu aloqalarning susayishi esa xotiradagi materialning unutilishiga olib keladi.

Insonning subyektiv borlig'ida muhim kichik struktura – o'zlikni anglash ham bor. Bu insonning o'zini shaxs sifatida anglab yetish, o'zining mustaqil qarorlar qabul qilish va shu asosda odamlar va tabiat bilan ongli munosabatlarga kirishish, qabul qilingan qarorlar va harakatlar uchun javobgar bo'lish qobiliyatini tushunish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, o'zlikni anglash – bu o'z-o'ziga, o'zining ma'naviy qiyofasiga, o'z bilimlari, fikrlari, qiziqishlari, ideallari, xulq-atvor mo'ljallari, harakatlari va shu kabilarga yaxlit baho berishdir. O'zlikni anglash yordamida inson o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ro'yobga chiqaradi, o'z-o'ziga his qilishga qodir bo'lgan fikrlovchi mavjudot sifatida baho berishni amalga oshiradi. Bu holda subyekt o'z-o'zini va o'zining ongini bilish obyektiga aylantiradi. Shu tariqa inson o'z-o'ziga baho beradigan, shusiz hayotda o'z o'rnini belgilash va topishga qodir bo'lmagan mavjudot sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglash – insonning o'zini o'zi tinimsiz kamol toptirishining muhim shartidir. O'zlikni anglash strukturasida o'z-o'zini his qilish, o'z-o'zini bilish, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini boshqarish kabi elementlarni ham ajratish mumkin. Umuman olganda o'zlikni anglash refleksiya bilan uzviy bog'liq. Falsafiy adabiyotlarda refleksiya tafakkurning unga o'z faoliyat shakllarini (tafakkur kategoriyalarini) tahlil qilish va anglab yetishga ko'maklashuvchi tamoyil sifatida tavsiflanadi. Ayni shu sababli refleksiyaga inson ma'naviy dunyosining ichki tuzilishi va xususiyatlarini namoyon etuvchi o'zlikni anglash faoliyati sifatida yondashish, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Ong tarkibiy elementlari bir-biri bilan o'zaro aloqaga kirishadi va ongga inson hayoti uchun o'ta muhim bo'lgan bir qancha funksiyalarni ta'minlaydi.

Ongning funksiyalari.Ongning birinchi funksiyasi bilish yoki aks ettirish, ya'ni insonni qurshagan voqelik haqida va uning o'zi haqida bilimlar olishdir. Bilish faoliyati sifatida anglash jarayoni hissiy, obrazli bilishdan boshlanadi va mavxum fikrlash sari yuksaladi. Hissiy (empirik) bilish bosqichida rang-barang ashyoviy material to'planadi va keyinchalik u mavxum fikrlash yo'li bilan umumlashtiriladi. Ongning bilish funksiyasi jamg'arish funksiyasini belgilaydi. Bu funksiyaning mohiyati shu bilan belgilanadiki.

bevosita, shaxsiy tajribadan olingan bilimlargina emas, balki zamondoshlar yoki o'tmishdoshlardan olingan bilimlar ham inson xotirasida jamlanadi. Bu bilimlar zaruriyatga qarab aktuallashtiriladi, tiklanadi va ongning boshqa funksiyalarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson xotirasi qancha boy bo'lsa, u optimal qaror qabul qilishi shuncha oson bo'ladi.

Ongning aksiologik funksiyasi (baholash funksiyasi)dainson tashqi dunyo haqida ma'lumotlar olish bilan bir vaqtda ularni o'z ehtiyojlari va manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi. Ong, bir tomondan, obyektiv aks ettirish shakli, inson mayllari va manfaatlariga bog'liq bo'lmagan voqelikni bilish shakli hisoblanadi. Bilimlar olish, obyektiv haqiqatning tagiga yetish, bilish faoliyati sifatidagi anglash jarayonining natijasi va maqsadiga aylanadi. Boshqa tomondan, ong voqelikka subyektiv munosabat ko'rinishlarini, uni baholash, o'z bilimini va o'zini anglab yetishni ham o'z ichiga oladi. Ongning baholash funksiyasi bevosita maqsadni shakllantirish funksiyasiga o'tadi. Maqsadga intiluvchanlik – bu ongning muhim xususiyati hisoblanuvchi sof insoniy qobiliyat. Maqsad – bu insonning o'z predmetini topgan ideallashtirilgan ehtiyoji; bu faoliyat predmetining shunday bir subyektiv obraziki, uning ideal shaklida inson faoliyatining mo'ljallangan natijasi namoyon bo'ladi.

Ongning ijod funksiyasida insonning oliy imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Maqsadga intiluvchanlik, ya'ni inson o'z harakatlarini «nima uchun» va «nimaga erishish yo'lida» amalga oshirishini anglab yetish har qanday ongli qilmishning zaruriy shartidir. Maqsadni ro'yobga chiqarish muayyan vositalarni, ya'ni maqsadga erishish uchun yaratiladigan va shunga xizmat qiladigan vositalarni ishga solishni nazarda tutadi. Inson tabiatda mavjud buo'lmagan narsalarni bunyod etadi. U Ongning kommunikativ funksiya (aloqa funksiyasi)da odamlar umumiy mehnatda ishtirok etadilar va bir-birlari bilan o'zaro aloqalarga kirishishga doimi muhtoj bo'ladilar. Fikrlarning bu aloqasi nutq orqali (ovozlik aloqa) va texnika vositalari yordamida (matnlar, kodlangan axborot) amalga oshiriladi. Shuni e'tiborga olish lozimki, yozma matnlarda (kitoblar, jurnallar, gazetalar va sh.k.)da bilim emas, balki axborotgina saqlanadi. Axborot bilimga aylanishi uchun u subyektivlashtirilishi

lozim. Ayni shu sababli bosma so‘zni tarqatish bayon etilgan axborot bilimga aylanishining kafolati emas, balki sharti hisoblanadi. Axborot bilimga, ya’ni subyektiv boylikka aylanishi uchun qo‘shimcha kuch-g‘ayrat sarflash talab etiladi.

Shaxs ongining mantiqiy siklini tartibga solish (boshqaruv) funksiyasi yakunlaydi. Ong omillarga baho berish asosida va qo‘yilgan maqsadga muvofiq inson harakatlarini, keyinchalik esa – jamoalarning harakatlarini ham boshqaradi, tartibga soladi. Ongning tartibga solish funksiyasi insonning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro aloqasiga bog‘liq bo‘ladi va ikki shaklda: da’vat etuvchi tartibga solish va ijroni tartibga solish shakllarida amal qiladi. Ongning bosh funksiyalari ana shulardan iborat. Ularning uyg‘un rivojlanishigina oxir-oqibatda intellektual va ma’naviy jihatdan komil insonni tarbiyalash imkoniyatini beradi.

XXI asr boshiga kelib olimlar intellektning ayrim funksiyalarini informatsion mashinalar zimmasiga yuklash uchun ancha ko‘p zahmat chekdilar. Bugungi kunda komp’yuterlar murakkab ishlarni bajarmoqdalar: bir tildan boshqa tilga tarjima qilmoqdalar, samolyotlarni, poyezdlarni boshqarmoqdalar, shaxmat o‘ynamoqdalar, hatto inson miyasiga xos bo‘lgan ba’zi bir mantiqiy amallarni bajarmoqdalar. Tabiiy bir savol tug‘iladi: inson aqlining o‘rnini bosishga qodir bo‘lgan mashinani yaratish mumkin emasmi?

Texnika imkoniyatlari nuqtai nazaridan, informatsion mashinalarni takomillashtirish chegarasini belgilash o‘rinli bo‘lmaydi. Shunga qaramay, mashinalar bajaruvchi amallar bilan inson miyasida bajariladigan amallarning o‘xshashligi mashinalarni fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblash uchun asos bermaydi. Mohiyat e’tibori bilan mashina inson tafakkurining faqat bir jihatini – formal-mantiqiy fikrlashnigina amalga oshiradi, vaholanki, insonning fikrlash jarayoni amalda iroda, emotsiyalar, intuitsiya, orzu, fantaziya va hokazolardir. Inson ichki dunyosining boyligi uning ijtimoiy aloqalari boyligi va serqirraligining mahsuli hisoblanadi. Ayni shu sababli, inson ongi, uning strukturasi va barcha funksiyalarini to‘liq modellashtirish uchun miya strukturasining o‘zinigina gavdalantirish kifoya qilmaydi.

Antrop tamoyil. Antrop tamoyilda inson amalda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday dunyoda emas, balki uning

xususiyatlarini belgilovchi fizik konstantalarning o'ta aniq majmui bilan tavsiflanuvchi dunyodagina paydo bo'lishi mumkin bo'lgan, degan ma'no kelib chiqadi. Bu bizning Koinot aynan unda insonning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tarzda tuzilganini anglatadi. Agar u o'zgacha bo'lganida, unda biz mavjud bo'lmas edik. Boshqa Koinotlar (agar ular mavjud bo'lsa) bizga mos kelmaydi: ularda bizga o'xshagan aqlli jonzotlar mavjud bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, ontologik jihatdan o'zgacha dunyolar insonning «uyi», uning yashash joyi bo'lishi mumkin emas.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida astronomiyaning rivojlanishi yerdan tashqarida sivilizatsiyalar mavjudligiga bo'lgan shubhani yanada kuchaytirdi. Birinchidan, astronomik ma'lumotlarga aniqlik kiritilishi aqlli hayot mavjud bo'lishi mumkin deb taxmin qilish mumkin bo'lgan kosmik obyektlar soni surunkali qisqarishiga olib keladi.

Ikkinchidan, yuqorida ko'rib chiqilgan, rivojlangan sivilizatsiyalargina amalga oshirishga qodir bo'lgan kosmosni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar faoliyatining amalda kuzatiluvchi biron-bir ko'rinishlari umuman mavjud emasligi o'rtasida ziddiyat vujudga keladi[1]. Bu ziddiyat «astrosotsiologik jumboq» deb ataladi. yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar (SETI)ning radiosignallarini va ularning kosmosdagi faoliyati natijasida qolgan biron-bir izlarni qidirish hozircha hech qanday samara bergani yo'q. «Kosmos sukuti» ayniqsa g'alati, zero texnika taraqqiyotining hozirgi darajasi o'zga sivilizatsiyaning radiosignalini payqash uchun yetarlidir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan bizning davrimizda insonning Koinotdagi alohida o'rni haqidagi qadimgi tasavvurlarga o'ziga xos qaytish yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

O'z-o'zidan ravshanki, bu yerda gap dunyo va insonga doir qadimgi sodda qarashlarga qaytish haqida ketayotgani yo'q. Bu qadimgi g'oyalarni tiklash ularni tubdan qayta ishlash va bilimlarning butunlay yangi darajasida talqin qilish bilan bog'liq. Eski muammo butunlay yangicha tarzda qo'yiladi va uni yechishga nisbatan hozirgi

[1] Гиндилес Л.М. Астросоциологический парадокс в проблеме SETE// Астрономия и современная картина мира.-Москва.:1996. –С.76.

yondashuv qadimgi davr bilan taqqoslaganda o'ta chuqur asoslarga tayanadi.

Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Yunoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Shu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax say-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.Sheler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.Shelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi.

M.Sheler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan, inson borlig'ining asosiy strukturasidan qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»[1], deb qayd etadi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni M.Sheler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlari deb hisoblaydi. U inson shu paytgacha (XX asrgacha) hali hech qachon bu darajada «muammoli» bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Buning asosiy sababini Sheler insonni o'rganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan uncha bog'liq bo'lmagan turli

[1] Шелер М. Избранные произведения. – Москва., 1994. –С. 187.

yo‘nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko‘radi. Masalan, teologik antropologiya insonni faqat iudeycha-xristiancha an’analar nuqtai nazaridan o‘rganadi. Falsafiy antropologiya asosiy e’tiborni insonning o‘zligini o‘rganishga qaratadi, tabiiy-ilmiy antropologiya (tabiatshunoslikning barcha tarmoqlari va genetik psixologiya) esa faqat yer rivojlanishining eng so‘nggi mahsuli sifatidagi, hayvonot dunyosidagi o‘zidan oldingi shakllardan energiya va qobiliyatlar birikmasining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi mavjudot sifatidagi inson haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

M.Sheler fikriga ko‘ra, falsafiy antropologiyaning vazifasi inson borlig‘i strukturasidan insonning barcha ishlari va amallari, shu jumladan til, fan, mif, san’at, din, jamiyat, davlat, tarix, g‘oyalar, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omiliar qanday kelib chiqishini ko‘rsatib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kasb etadi.

M.Sheler fikricha, falsafiy antropologiyaning predmeti– bu inson mohiyati va uning strukturasi haqidagi fandir. M.Sheler G‘arbiy yevropa jamiyatini axloqiy, falsafiy va diniy qadriyatlar odamlar uchun ikkinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani uchun tanqid qiladi va ularga bu qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yishni tavsiya etadi. Jamiyatni chulg‘ab olgan inqirozdan chiqish yo‘lini M.Sheler aynan shunda ko‘radi.

Shunday qilib, inson ongli mavjudot sifatida M.Sheler falsafasida markaziy o‘rinni egallaydi, inson borlig‘ining asosiy tamoyillari sifatida qudratli, biroq kelajakni oldindan ko‘rolmaydigan yashashga intilish, hamma narsani anglab yeta oladigan, ammo hayotni belgilashga ojiz bo‘lgan ong amal qiladi. Sheler ta’limoti hayot falsafasi va ekzistensializmning rivojlanishiga ancha kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning negizida keyinchalik alohida falsafiy-antropologik ta’limotlar – biologik, psixologik, madaniy, diniy va boshqa nazariyalar vujudga keldi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida Shelerdan oldinroq ham so‘z yuritilgan edi. XIX asr o‘rtalariga kelib inson o‘ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to‘la anglab yetish mumkin emasligi, ya’ni inson

jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. Shuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi. Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy konsepsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga yangi va yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar. Boshqacha aytganda, inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtai nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»[1].

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning

[1] Бердяев Н.А. Смысл творчества. – Москва, Наука. 1989. – С.293.

tabiatiga nisbatan yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo'shimcha turtki berdi. Shunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, konsepsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd etish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, biologik antropologiya anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Teologik antropologiya inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtai nazaridan shakllantiradi. Falsafiy antropologiya esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Falsafiy antropologiyaning predmeti va vazifalari. Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. Shu ma'noda falsafiy antropologiyani antropotsentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos «markaziy o'q» hisoblanadi.

Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv zamirida antik falsafaning Protagor ta'riflab bergan «Inson hamma narsalar mezonidir», degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaning antropotsentrizmi yevropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham

kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi.

Shu nuqtai nazardan xristiancha madaniyat vakilining mentaliteti asosida shakllangan falsafiy antropologiyani sharq falsafiy maktablari bilan taqqoslash o'rinli bo'ladi. Shu narsa diqqatga sazovorki, sharq falsafasida inson hech qachon dunyoning markazi hisoblanmaydi, zero u tabiatning tarkibiy qismi, uning uzviy elementi, Koinotning ko'p sonli darajalaridan biri sifatida qaraladi. Sharq falsafasida antropotsentrizm yo'q, umuman olganda falsafiy antropologiya ham mavjud emas. Bu falsafada inson dunyoning tabiiy bir bo'lagi, tabiatning ajralmas elementi hisoblanadi. Tabiatning o'zi esa mukammal bo'lib, inson unga qarshi turmasligi, balki uning izmiga bo'ysunishi lozim.

Shunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan «Inson nima?», degan savol yevropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi (va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan ayni shu jihatdan farq qiladi). Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi.Inson hayoti – tug'ilish va o'lishni cheksiz zanjirning muayyan halqasi sifatida talqin etish qadimgi hind animistik tasavvurlaridan boshlangan. Bunday tasavvurlar aslida tabiatda sodir bo'ladigan muayyan davriy hodisalar hamda ularning o'ziga xos tarzi bilan hamohang. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq

falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi. Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, hayot – jarayondir, bunda borliqning potensial sifatlari uning qadriyatlariga aylanadi. "Hayot borliqning aktuallashish jarayonidir, bu jarayonning turli shakllarida borliqning imkoniyatlari ochiladi. Hayot borliqda o'ziga xos muammo bo'lib, borliq ifodalanishining asosiy usullariga aylanadi"[1]. Bunda hayotning barcha xossalari: yashash, kurashish, lazzatlanish, jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarni qanoatlantirish qamrab olinadi. Organizm-larning faolligi ularning harakatlanishi yoki xulqiga oid qobiliyatida namoyon bo'ladi. Jonivorlarning faolligi o'simliklar faolligidan sezilarli darajada farq qiladi, chunki ular ovqat topib yeyishlari uchun atrof muhitda harakatlanishlari lozim. Turning yashab qolishi ota-ona

[1] Xudoyberganov R.O'lim va barhayotlik to'g'risida ilmiy va diniy g'oyalarning falsafiy tahlili. Fals fanlari nomzodi dissertasiyasi.Toshkent, 2010.

avlodidagi eng muhim belgilarning kelgusi avlodda ko'payishi orqali saqlab qolinadi.

Diniy nuqtai nazardan hayotning ma'nosi Xudoni topish. Uning vasliga yetishishda namoyon bo'ladi. Sufizimda hayotning ma'nosi Xudoga ishqdir.

Hayot ma'nosi hayot maqsadidan farq qiladi, uning qamrovi keng bo'lib, minglab maqsadlarni o'z ichiga oladi. Inson hayotida biror maqsadning amalga oshmay qolishi, uning hayotini "ma'nosiz" qilmaydi.

Ba'zilar uchun hayoti ma'nosi eng yuksak qadriyatlar tizimidir. Ular o'z hayotlariga maqsadlariga erishish bilan ma'no bag'ishlaydilar va o'zining "ikkinchi umri", ya'ni "barhayotlik"ka erishadilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli ana shunday fidoyilar ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi. Ular "elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan"[1] bunday insonlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Hayotni tark etish bosqichlari. "O'limni eslab turish insonning illatlardan qutilishga, yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida yashashga undaydi. Ya'ni, bu foniy dunyoda odamzodning bir-biriga zulm qilishi, mol-dunyo yig'ishga ruju qo'yishi, fisqu fujur bilan shug'ullanishi kabi salbiy illatlar o'limni eslash tufayli inson hayotidan chekinadi, o'limni eslash ezgulikni barqaror va yovuzlikni inkor etishning eng maqbul yo'llaridan biridir"[2]. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o'limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o'z muxoliflaridan birining: «O'ttiz tiran seni o'limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o'limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'limga mahkumdir. Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa

---

[1] Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996. – B. 37.

[2] Xudayberganov R.X. O'lim fenomenining axloqiy masalalari // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2009. - №4. - B. 116.

hech qachon yangilanmaydigan o‘n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo‘ladi. Ammo bosh miya qobig‘ida bunday hujayralar soni 40 milliardga yetadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo‘lmaydi, chunki unda yana o‘n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko‘rsatishda davom etadi»[1].

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o‘zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy o‘lim yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste’mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o‘z hayotidan doimiy norozilik, yo‘l qo‘yilgan xato va jinoatlar oqibatida jamiyatdan ajralish holatlari ijtimoiy o‘llmni bildiradi. So‘ngra ruhiy o‘lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o‘limning muqarrar ekanligini va o‘z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. Miya o‘lishi bilan bosh miya faoliyati butunlay to‘xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon fiziologik o‘lim bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to‘xtaydi.

Shuning ijtimoiy hayotda suitsid - odamlarning o‘zini qasddan o‘ldirishi va parasuitsid - o‘zini o‘ldirishga harakat qilish holatlari ham uchraydi. Umr qisqa, hayot nihoyatda murakkab,lekin har qanday vaziyatda inson yashab qolish uchun kuch va irodaga ega bo‘lishi uning aql imkoniyatlaridan unumli foydalanishining oqibatidir. Bu dunyoda hech bir sabab o‘z o‘zini o‘ldirish uchun asos bo‘la olmaydi. Hayotning ma’nosini bilmaganlargina o‘z joniga qasd qiladi.

Suitsid – o‘z o‘zini o‘ldirish (lot. sui caedere — o‘zini o‘ldirish) ixtiyoriy ravishda qasddan o‘zini o‘ldirish. Urush yoki favqulodda vaziyatlarda o‘zini qurbon qilish sifatidagi o‘z o‘zini o‘ldirish bu qahramonlik namunasi sifatida qaraladi. XIX asrda yevropa hududida o‘z joniga qasd qilish hollari ko‘paygani kuzatiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda dunyoda har 40 daqiqada o‘z ixtiyori bilan joniga qasd qilib kuniga 3 ming aholi yiliga esa 1million aholi hayotni tark etmoqda. (bu ummuiy o‘lim holatining 1,5% tashkil etadi). Statistik

[1] Годфруа Ж. Что такое психология. -Т. 2. – Москва., 1996. – С.11.

ma'lumotlarga ko'ra 15 - 29 yosh oralig'idagi yoshlar o'rta o'z joniga qasd qilish hollari ko'p uchraydi.

Lotin Amerikasi ba'zi arab va Osiyo mamlakatlarida suitsid hollari kamligi aniqlangan. O'rtacha darajadagi suitşid hollari Markaziy va Shimoliy yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Tinch okeanining G'arbiy qismida kuzatilgan. Yuqori darajadagi suitsid Litva, Belorussiya, Rossiya, Shri-Lanka, Qozog'iston Vengriya, Yaponiya, Ukraina, Latviya davlatlarida ekanligi haqida malumotlar bor.

Suitsidning namoyishkorona va haqiqiy shakllari farqlanadi. (parasuitsid va psevdosuitsid). Psevdosuitsid affekt holatlarida amalga oshiriladi va bunda o'zini o'ldirish emas, balki yordamga muhtojlik o'ziga e'tiborni qaratish istagi ustivorlik qiladi. Parasuitsiddan faqrli o'laroq haqiqiy suitsid – bu oldindan puxta rejalashtirilib keyin amalga oshiriladi va bunda yashash imkoniyati deyarli qolmaydi. O'z o'zini o'ldirishga harakat o'zini o'ldirishga harakat deb nomlanadi, ko'p hollarda bu juda og'ir kasallaiklarga olib keladi. Inson o'z joniga qadrsizlanganida, xo'rlangan hollarida, og'ir kasallikdan tuzalish imkoniyati qolmaganini bilganida qasd qilishi mumkin. Aslida o'zjonig aqasd qilish bu ojizlik alomatidir.

Parasuitsid (yunon. para – yonida, + lot. sui – o'zini + caedere – o'ldirish) — haqiqiy suitsiddan faqrli o'laroq ijtimoiy shov shuv uchun amalga oshirlladi, bu o'zini o'ldirish emas o'ziningborligini eslatish, shaxslararo munosabatlarni o'zgartish, o'z o'zini jazolash bilan bog'liq harakat hisoblanadi.

Inson borlig'ida faoliyatning tuzilishi va atributlari. Praksiologiya (yunon. praktikos – faol) – falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig'ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma'naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig'ining alohida usuli hisoblanadi.

Falsafada faoliyat insonga xos bo'lgan va tashqi dunyoni oqilona o'zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga

oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirishi va o'zi ham o'zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha, "inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. Chunki o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi" [1]. Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni ham, unga erishish vositalari, yo'lni ham bilib oladi. Natijada u o'z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi. Shu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutloq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilatdir deb hisoblaydi.

Faoliyatni sotsiologik jihatdan tavsiflash qilmish, xatti-harakat, xulq-atvor tushunchalari yordamida amalga oshiriladi. Bu tasodifiy bir hol emas. Jamiyat odamlar birgalikda amalga oshiradigan faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli inson faoliyati doim ijtimoiy xususiyat kasb etadi, garchi o'z shaxsiy ehtiyojlari va egoistik tushuniladigan manfaatlar yo'lida amalga oshirilsa-da, boshqalarga qaratilgan bo'ladi. Qilmish – shaxs faolligi namoyon bo'lishining bir shakli bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyatga molik natijalar uchun javobgarligini nazarda tutadi. Ayni holda mazkur natijalar shaxsning muayyan maqsadlari yoki mo'ljallari bilan belgilangan yoki belgilanmagani ahamiyatga ega bo'lmaydi. Hatti-harakat – shaxsning ma'naviy o'zlikni anglashi natijasi sanalgan ongli harakati (yoki harakatsizligi) bo'lib, unda mazkur shaxsning o'z-o'ziga va boshqa odamlarga, tabiatga va umuman jamiyatga bo'lgan munosabati aks etadi. Shaxsning axloqiy mo'ljallari ro'yobga chiqadigan qilmishlar tizimi uning xulq-atvorini tavsiflaydi. Xulq-atvor faoliyatning tashqi ko'rsatkichi hisoblanadi, shu sababli uning ichki mexanizmlari xulq-atvorda bilvosita namoyon bo'ladi va inson

[1] Forobiy Fozil odamlar shahri. –Tashkent., A Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993 –B.55.

o‘z faoliyatida amal qiladigan motivlarni doim ham namoyon etavermaydi.

Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. Hayot ehtiyojlari (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari), ijtimoiy ehtiyojlar (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek, shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va ma’naviy (ma’rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) ehtiyojlar farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. Faoliyat motivsiz bo‘lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat subyektiv pinhona motivga ega bo‘ladi.

Harakatlar va amallar. Faoliyat harakatlardan tashkil topadi. Harakat alohida maqsadga, ya’ni erishilishi lozim bo‘lgan natija haqidagi tasavvurga bo‘ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat obyektiv holatlarining nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O‘z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo‘llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. Shunday qilib, umuman faoliyat motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi. Faoliyatning atributlari. Inson faoliyati o‘ta rang-barangdir. Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo‘lib uning inson tomonidan o‘zgartiriladigan obyekt: tabiat, jamiyat, insonning o‘ziga qaratilganligi xizmat qiladi. Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo subyektlilik va moddiylik qayd etiladi.

Subyektlilik va moddiylik.Faoliyatning subyektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o‘tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo‘ljallari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bllish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo‘li bilan o‘zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratllganini anglatadi. Ammo insonning o‘zi, uning o‘z-o‘zini kamol toptirishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashi va shaxs o‘z oldiga

qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish. Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi."[1]

Inson faoliyatini tartibga solishning mexanizmlari va uning ahamiyati

Faoliyatning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati uni tartibga solish, individ, jamoa va umuman jamiyat faoliyatini boshqarish muammosini kun tartibiga qo'yadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi mexanizmlarni shartli ravishda ikki turkumga: ichki va tashqiga ajratish mumkin. Faoliyatni tartibga solishning ichki mexanizmlarini biz uning asosiy atributlarini o'rganish jarayonida ko'rib chiqdik. Bu maqsadni belgilash, motivatsiya, shaxsning fel-atvorini tavsiflovchi xususiyatlar – uning mijozi, xarakteri, irodasi, xullas, maqsadlar va ularga erishish vositalarini tanlashni, shuningdek, faoliyat uslubini belgilaydigan shaxsning barcha xususiyatlaridir.

Xulq-atvorni tartibga solishning ichki mexanizmlari qatoriga ideallar va didni ham kiritish lozim. Ideal – barkamollik va yetuklikning xayoliy obrazi, odamzotning inson va tabiat, inson va inson, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga solish, kamolotga yetkazish, uyg'unlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarining ma'naviy ifodasi. Ideal tartibga solish funksiyasini bajaradi, u inson amalga oshirishga o'z hayotini baxshida etishga tayyor bo'lgan strategik maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

Did – shaxsning borliq hodisalariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan estetik komillikning o'ziga xos me'yori. Insonning didiga qarab uning tajribasi, san'atga oshnoligi, badiiy ijod

[1] Фихте И.Г. Назначение человека. – СПб.:2006. – С.81.

durdonalarining murakkab va rang-barang dunyosida mo'ljal olish imkonini beruvchi bilim va ko'nikmalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Didning hukmi go'zal va xunuk, fojeaviy va kulgili, yuksak va tuban kabi kategoriyalar bilan ish ko'radi. Didning o'ziga xosligi shundaki, u tuyg'ularga tayanadi va mantiqiy asoslashni talab qilmaydi. Qadimgi mutafakkirlar didning tavsifida uning asosiy qarama-qarshiliklariga duch kelganlar: did individual, insonning shaxsiy ichki tuyg'usi bilan bog'llq va ayni vaqtda umumiydir; did o'ta shaxsiy va subyektiv hisoblanadi, lekin u umumiylikka da'vo qiladi. Didda sezish va tushunishning qarama-qarshiligiga ham duch kelish mumkin. Did, xulq-atvor tarzida, turmush va bo'sh vaqtni tashkil etishda, san'at asarlariga bo'lgan munosabatda, kiyinish uslubida namoyon bo'ladi.

Faoliyatni tartibga solish mexanizmlari. Faoliyatni tartibga solishning umumiy mexanizmlari qatoriga insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari tizimini to'la qamrab oladigan va madaniyat algoritmi bo'lib xizmat qiladigan rang-barang ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni kiritish lozim. Xulq-atvor, odatlar va an'analarning ijtimoiy-madaniy me'yorlari, qoidalarining mavjudligi va rivojlanishi inson faoliyatini tartibga solish omili hisoblanadi. Me'yorlar muayyan sharoitda odamlar o'zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi va inson faoliyatida bevosita ishtirok etib, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarga shaxsning moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy jarayonning uzluksizligini ta'minlovchi mexanizm hisoblanadi. Mazmuni, ijtimoiy mustahkamlash usullari va ijtimoiy funksiyalariga ko'ra me'yorlar har xil bo'ladi.

Faoliyat maqsadlari, vositalari va usullarini qat'iy belgilovchi qoidalarning butun bir turkumi mavjud. Bu qoidalar ijtimoiy amaliyotda yaratilgan narsalar dunyosini va odamlar o'rtasidagi munosabatlar dunyosini o'zgartirish usullarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bular standartlar - muayyan ishni bajarishda qat'iy rioya qilish lozim bo'lgan sifat, shakl va o'lchamning qat'iy belgilangan namunasi; qoidalar - tegishli holatlarda qanday ish ko'rish lozimligini belgilovchi ko'rsatmalar; etalonlar - faoliyatda mo'ljal sifatida foydalanish lozim bo'lgan qat'iy belgilangan, standartlashtirilgan qadriyatlardir. Inson faoliyatini tartibga solishni

ta'minlovchi ijtimoiy me'yorlar tizimida huquq normalari va axloq me'yorlari alohida o'rin egallaydi.

Huquq va axloq. Huquq - davlat tomonidan belgilangan va uning majburlov kuchiga tayanadigan xulq-atvor umumiy normalarining majmui. Axloq ham jamoatchilik fikri, ya'ni qilmishni ma'qullash yoki qoralash bilan mustahkamlanadigan xulq-atvor qoidalari majmuidir.

Axloq va huquq normalari o'zlari muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni, normativ talablarni mustahkamlash usullari, ularning shaxs xulq-atvoriga samarali ta'siri darajasiga ko'ra ajralib turadi. Axloq va huquq normalarining mazmuni o'rtasida jiddiy farq mavjud emas.Masalan, «o'g'rilik qilma» - bu ham axloqiy qoida, ham huquq normasidir. Ammo huquq normalari o'z tartibga solish doirasi bilan axloq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ulkan hajmini to'la qamrab olmaydi. Masalan, oilaviy munosabatlar sohasida huquq ota-onaga o'z farzandlarini tarbiyalash majburiyatini yuklaydi, lekin ota-onani bir-birini sevish, bir-biriga g'amxo'rlik qilishga majburlamaydi. Huquq va axloq o'rtasidagi farqni ular ko'rsatadigan ta'sirning samaradorlik darajasida ham ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda, davlat majburlovi kuchiga tayanadigan huquq axloqqa qaraganda samaraliroqdir. Ammo muayyan sharoitda inson uchun huquq axloqiy me'yorlar nufuzi qarshisida ojiz bo'lishi mumkin. Bu hol shaxsning qadriyatlarga munosabati mazmuni bilan, muayyan inson qaysi axloqiy qadriyatlarga tayanishi, shuningdek u yashaydigan muhit, ya'ni individ fikrini qadrlaydigan referent guruhning qandayligi bilan belgilanadi. Shu sababli axloqiy yo'l tanlashda ayrim inson uchun ishlab chiqarish jamoasi yoki maktab (talabalar) guruhining nufuzi muhim ahamiyat kasb etishi mumkin, boshqa shaxs uchun esa diniy sekta yoki jinoiy guruh a'zolarining fikri ustunlik qilishi mumkin.

Xulosalar. Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo'ladi), ammo u o'z hayot yo'lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab yetmagan bo'lsa, mazkur vazifani yechish o'z hayot yo'lini endigina

tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o‘z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo‘lib qoladi.

Inson o‘z tabiatiga ko‘ra o‘limga mahkum, ammo, buni tushungan holda, u o‘zi bilan bog‘liq hamma narsa o‘zining tug‘ilish va o‘lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig‘ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o‘z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma’naviy uyg‘onish bilan bog‘lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo‘lni din taklif qiladi. Bu yerda u yoki bu e’tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o‘xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Yana bir imkoniyat – bu dunyoda o‘z hayotini odamlarga, ezgulik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag‘ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o‘z ishlari, g‘oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Inson bu yo‘llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o‘ziga bog‘liq. U o‘z hayotida bu yerda ko‘rsatilganidan butunlay boshqa yo‘lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

Tayanch so‘z va iboralar:

Falsafiy antropologiya, inson, hayot, tasodif, anomaliya, yerda inson paydo bo‘lishi, inson ma’naviyati, ekzistensializm, insonnning bioijtimoiy mohiyati, insonning mohiyati, hayotning mazmuni, hayotni tark etish, insonning vazifasi.

Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar





Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Turli falsafiy tizimlarda inson haqidagi tasavvurlar qanday shakllangan?
2. Falsafiy antropologiya qachon vujudga kelgan va u nimani o‘rganadi?
3. Antropologiyadagi falsafiy va boshqa yo‘nalishlar o‘rtasidagi farq nimada?
4. Nima uchun inson mohiyati «boqiy» falsafiy muammo hisoblanadi?
5. Inson hayotining mazmuni muammosi.
6. Falsafa hayotning mazmunini anglashda yordam berishi mumkinmi?

7. “Hayot”, “o‘lim”, “umrboqiylik” falsafiy kategoriyalar sifatida.8.Insonni falsafiy tushunishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Mavzuga oid test savollari

1. Quyidagi so‘zlar muallifi kim? «Inson o‘zini dunyodan oldinroq va ko‘proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o‘zidan keyin va o‘zi orqali anglab yetadi...”

a) N.A.Berdyaev;
b) V.Solov’yev;
v) V.Kuznetsov;
g) A.Chumakov;

2. «Inson-mashina» asarining muallifi kim?

a) J.Lametri;
b) Dj.Berkli;
v) Dj.Bruno;
g) B.Spinoza;

3. Insonning paydo bo‘lishi haqidagi evolyutsion konsepsiya asoschisi kim?

a) Ch.Darvin;
b) K.Linney;
v) Ch.Pirs;
g) A.Eynshteyn;

4. Insonni o‘rganishning introvertiv yondashuvi vakillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping?

a) M.Sheler, A.Gelen, K.Lorens;
b) N.A.Berdyaev, A.Gelen, K.Lorens;
v) S.L.Frank, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov;
g) N.O.Losskiy, L. P.Karsavin, S.N.Bulgakov;

9-MAVZU. GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI

Globallashuv – yangi falsafiy mavzu.

Globallashuv hodisasi va globalistika

Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi. Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv deb nomlandi. Globallashuv (lot. globus – yer kurrasi) jamiyat hayotining turli jabhalarida butun yer sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.

Shuningdek, globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo'lishiga olib keldi.

«Globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.Globalistika bilishning shunday bir jabhasiki, bu yerda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin

uning paydo bo'lishi uchun obyektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida global muammolar» tushunchasi keng tarqaldi va ilmiy va siyosiy muomala (leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, yer kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim obyektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning yechilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat

inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Er kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. Shuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. Shu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Yevropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»[1]. Shu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan yer kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

[1] Харенберг Б. Хроника человечества. – Москва, Слово, 2000. – С.387.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o‘zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi, XX asr o‘rtalariga kelib esa u to‘la darajada borliqqa aylandi.

Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo‘lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek, ma’naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s’yezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o‘sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

Shunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o‘rtasida keskin kurash va ta’sir doiralarini bo‘lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardda Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko‘p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki shu davrgacha dunyo miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog‘liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo‘lmasa uning ta’siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e’tiboran tarix faqat yevropa tarixi yoki, aytaylik, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G‘arb, Sharq tarixi bo‘libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya’ni tom ma’nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918-yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog‘lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig‘idagi davrda globallashuv jarayonlari

yanada bo‘rtibroq namoyon bo‘ldi. Bu davrda, globallashuvning asosiy beligilari:

a) biosferaga antropogen ta’sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi; b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste’mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi; v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o‘tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ‘ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi; g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko‘rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit’alararo qo‘nmay, to‘g‘ri uchib o‘tishlarlarda namoyon bo‘ldi.

Ammo yechilmagan ziddiyatlar va umumiy bog‘liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda yer aholisining to‘rtdan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko‘proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtai nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o‘rtasidagi farq faqat miqdor ko‘rsatkichlarida ko‘rinadi. Mohiyat e’tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni yechish – XX asr boshida bo‘lib olingan, yaxlit va o‘zaro bog‘langan dunyoni qayta bo‘lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta’sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo‘lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo‘l, avtomobil’ transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko‘p karra kuchaytirilishida namoyon bo‘ldi.

Globallashuvning serqirraligi dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishida namoyon bo‘ladi. 1970-yillardan globallashuv o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarildi va serqirra tus oldi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi. nif, din, falsafa,

fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirraligi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi: a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi; b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi; v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Globallashuvning serqirraligi siyosatning ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi.

Globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mutlaqo yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.

Jahon hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Global muammolar globallashuvning oqibati. Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallashuvidan kelib chiqadigan yangi (global) muammolar keltirdi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, shuningdek «jamiyat-tabiat» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat.

Ikkinchi tomondan esa, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», aniqroq aytganda, yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan yer deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab yetish jarayoni so'nggi o'n yilliklardagina yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomaliyalar mahsuli ham emas. Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Texnooptimizm. Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning yangi to'lqini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy

taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, Sharqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi.. Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi. Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatsion» jamiyatlarning turli konsepsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957-yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli fransuz faylasufi R.Aron asarlarida, shuningdek, uning 1956-1959-yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalarida, amerikalik siyosatshunos U.Rostouning 1960-yilda chop etilgan va o'z davrida shov-shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroq asoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu yerda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqadi. Sanoatning rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlariga aylanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga komp'yuterlarning keng joriy etilishi yangi nazariyalar, chunonchi: «postindustrial», «informatsion» (D.Bell, G.Kan, J.Furast'ye, A.Turen), «texnotron» (Z.Bjezinskiy, J.J.Servan-Shrayber), «o'ta industrial», «kompyuter» (A.Toffler) jamiyati nazariyalari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishi amal qiladi. Komp'yuter texnikasi negizida yaratilgan

yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezoni hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidan ancha oldin shunday degan edi: «Shunga ishonchim komilki, axborot va nazariy billm postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining yangi rolida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir»[1].

D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. U «Hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda»[2], – deb qayd etgan edi.

Texnopessimizmfan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko'chaga olib kiradiva pirovardda u halok bo'ladi deb hisoblaydi. Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan atrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar: aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular

---

[1] Белл Д. Социальные рамки информационного общества / Новая технократическая волна на Западе. – Москва., 1986. – С.342

[2] O'sha yerda. – С.342

fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi.

Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendensiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «texnologik pessimizm» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. «ekopessimizm», asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.

Ko'pgina taniqli olimlar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz ssiyentizmda[1], insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Rim klubi. Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968-yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972-yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Yerimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini

[1] Ssiyentizm (ingl. *science* – fan) – fanning jamiyat hayotidagi rolini mutlaqlashtiruvchi konsepsiya

ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim»[1].

Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendensiyalarining komp'yuter modelini tuzib, mazkur tendensiyalar saqlangan holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli. Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi.

Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq etishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti obyekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. Shu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni yechishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu

[1] Печчеи А. Человеческие качества. – Москва., 1980. – С.123, 124.

jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o‘z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab yetishga u yoki bu darajada muhtoj bo‘ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy yechimi to‘g‘risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o‘zaro aloqa qilishini rag‘batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo‘lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o‘rganadi, degan fikr mavjud bo‘lsa-da, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol o‘ynaydi. Zero, umumiy nazariyalarba’zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko‘proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma’lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta’sir ko‘rsatadi, deb aytish uncha o‘rinli bo‘lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o‘rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli yechimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta’minlashdan iborat.

Falsafiy tadqiqot muayyan fanlarning mazkur sohadagi yutuqlariga tayanib, masalaning ayrim jihatlarini mavhumlashtiradi va global muammolarni ular bir-birini qay darajada taqozo etishi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy belgilanganligi nuqtai nazaridan yaxlit o‘rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot avvalo, global muammolarning mohiyatini aniqlashni nazarda tutadi, chunki ularning asl tabiati va genezisini aniqlash bu muammolarning ilmiy va amaliy yechimini topish yo‘llarini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Global muammolarni falsafiy anglab yetishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz.

Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nallshini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. Shu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologikfunksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. Shunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi obyektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendensiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo etish darajasini falsafiy nuqtai nazardan anglab yetish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamasdan yechish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish

imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Ettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining obyektiv tendensiyalarini tushunish va anglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «tsivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Global muammolarning turli darajalari. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariyalar,

nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968-yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq etishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan

kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir.

Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.

Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining obyektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas.

To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Global muammolarning tasnifi. Hozirgi zamonda global muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida ayniqsa, keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va yechimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar. Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular interijtimoiy global muammolar deb ataladi. Bu yerda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta'minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi:

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilar bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek, Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Uchinchi guruhni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar ya'ni demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi ma'naviyat masalalari va shu kabilardir.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday tasnif masala yechimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tavsif beramiz.

Demografik muammo. Hozirgi zamonda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko'payishiga sabab bo'layotgan aholining nazoratsiz o'sishi qayd etiladi. Ayrim mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, sayyorada mavjud energetika, xom ashyo, oziq-ovqat va boshqa resurslar yerda faqat 1milliardga yaqin kishi («oltin milliard») munosib hayot kechirishini ta'minlashi mumkin. Vaholanki, oxirgi ming yillik mobaynida sayyoramiz aholisi 15 baravar ko'paydi va bugungi kunda 7,5 milliard kishidan oshib ketdi. Bunda nafaqat miqyos, balki aholining o'sish sur'atlari ham aqlni lol qoldiradi. Xususan, birinchi ikki baravar ko'payish 700 yil ichida, ikkinchisi – 150 yil ichida, uchinchisi – 100 yil ichida va oxirgisi – 40 yildan kamroq vaqt ichida yuz berdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki,, XX asrning birinchi o'n yilligida yer yuzida jami 1 milliard, 1956-yil yerda 2,8 milliard, 1985-yilda 5 milliard aholi yashagan bo'lsa XXI asrning 2018-yilida yer yuzida yashovchi aholining umumiy soni 7,5 millarddan oshib ketdi. Futurologlarning fikricha, 2050-yilda yer da 15 millarddan ortiq aholining yashashi bashorat qilinmoqda. O'zbekistonda 1991-yilda 19,5 million aholi yashagan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 33 millionga yetdi.

Shu ta'kidlash lozimki, XX asrda yer kurrasi aholisining «demografik portlash» deb nomlangan mislsiz darajada o'sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo'ldi.

Demografik muammo urbanizátsiya bilan bog'liq. Urbanizátsiya (lotinchadan urbanus — shaharga oid, shaharlik) — shaharlarning jamiyat taraqqiyotidagi rolining ortib borishi, shahar aholisi sonining qishloq aholisi soniga nisbatan o'sishidir. Urbanizatsiyaning sabablari — shaharlarda sanoatning o'sishi, madaniy va siyosiy hayotning rivojlanishi, qishloq joylaridagi ishsizlik kabilardir. Urbanizatsiya qishloq aholisining shaharga, kichik shahar aholisining katta shaharlarga ko'chib o'tishi bilan xarakterlanadi.

Ta'lim muammosi. Demografik portlash sabablari ta'lim muammosi bilan uzviy bog'liq. So'nggi yillarda jahonda savodsizlar soni foiz hisobida kamaygan bo'lsa, mutlaq hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik ollaviy an'analarga bo'ysunadi. Pirovardda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishda davom etmoqda. Hozirgi vaqtda ajabtovur vaziyatni kuzatish mumkin: savodxonlik mutlaq raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarishni bilmaydigan odamlar soni ham o'sib bormoqda (Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz).

Shu bilan bir qatorda aksariyat odamlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va komp'yuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laqonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq funksional savodsizlik ham o'sib bormoqda.

Bu muammoning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan bo'lib, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi davrda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayonida gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirishi lozim. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlarning amalga oshirilishi aynan shu

maqsadlarni o'zida ifodalaydi. "O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi"[1]. Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda, xususan O'zbekistonda ta'lim tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilishi jarayoni boshlandi. Oliy ta'limning sifati maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liqligi aniqlandi. Masalan, dunyoning rivojlangan mamalakatlarida Daniyada 95 foiz, Germaniyada 92 foiz 3-6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan bo'lsalar, O'zbekistonda 27 foiz bolalar maktabgacham ta'lim muassasalarida tarbiya olishi aniqlandi. Shu bois, 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Prezidentining maktabgacha ta'lim muasasalarining rivojlanishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari bo'yicha qaror e'lon qilindi. 2017-yilda maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Har bir viloyatda 20tadan xususiy maktabgacha ta'lim muasasalarini tashkil etish jarayoni amaliyotga joriy etila boshladi.

Agar sovet tuzumi davrida O'zbekistonda 20 ta oiy ta'lim muassasasi faoliyat olib borgan bo'lsa, 25 yil davomida ularning soni 82taga yetdi. Birgina 2017-2018-yillarda 20ga yaqin oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Xalqaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi, xorijlik professor-o'qituvchilarning O'zbekiston ta'lim muasasalarida mahorat darslari, professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobilligi tashkil etildi. Xususiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish jarayoni boshlandi. 2019-yildan oliy ta'lim tizimiga qabul kvotasi olib tashlanib, aholining barcha qatlamlarining oliy ta'limga ega bo'lish huquqiga cheklov olib tashlandi va tabaqalashtirilgan shartnoma to'lov belgilandi. Demak, dunyo va O'zbekistonda ta'lim bilan bog'liq muammoni bartaraf etish hakmkorlikda amalga oshirilmoqda. Aks holda ta'limning inqirozi millatning inqiroziga olib keladi.

Sog'liqni saqlash. Aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global

[1] Karimov I.A. BMT Sammiti ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutq. –T.: «O'zbekiston», 2010.

muammosi bilan uzviy bog'liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o'zgarishlar o'rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof-muhit ifloslanishining hali o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan ko'p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergan o'zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat muammosi. Ommaviy kasalliklar va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosidir. Xususan, surunkali to'yib ovqat yemaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo'layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili ochlikdan bir necha o'n millionlab odamlar, kattalardan ko'ra ko'proq bolalar halok bo'lmoqda.

Oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan mamlakatlar uni import qilishga majbur, lekin bu, odatda, ocharchilikka qarshi kurashda kam samara beradi va bundan tashqari, mazkur mamlakatlarni eksportchilarga qaram qilib qo'yadi. Shu tariqa g'alla ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tazyiq o'tkazishning samarali vositasiga va mohiyat e'tibori bilan, avvalo eng qashshoq mamlakatlarga qarshi «oziq-ovqat quroli»ga aylanadi.

O'zbekistonda bu muammoning yechimini topishga oqilona yondashildi. Paxta yakkahokimligiga chek qo'yilib, g'alla, sholi, chorma mollarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi, qishloq infratuzilmasini takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish, g'alla mahsulotlarini ishlab chiqish texnologiyalaridan unumli foydalanish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda barcha viloyatlar kesimida aholini oziq ovqat bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturi qabul qilingan.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi. Dunyoda 200dan ortiq mamlakat bo'lsa, ularda iqtisodiy o'sish sur'atlari turlicha. yevropa va ba'zi Uzoq Sharq mamlakatlarida iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'lsa, Afrika mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari nihoyatda past. Masalan, Gaiti dunyoning eng kambag'al mamlakati

hisoblanadi. Shuningdek, Sudan, Somali kabi mamlakatlarda ochlik hukm surmoqda.

Aholining turmush darajasini mamlakatning iqtisodiy siyosiy vaziyati va aholining moddiy va ma'naviy ehtijlarining qondirilish darajasi bilan bog'liq. Turmush darajasi tushunchasi hayot sifati hayot darajasi kabilar bilan bog'liq, bu esa aholining ish bilan ta'minlanganligi, ta'limi, sog'ligi, ma'ishiy hayoti kabilarni kamrab oladi. Turmush darajasi insonning unga yaratilgan sharoitlardan foydalanish sifat darajasi va aholining o'z daromatlarini to'g'ri taqsimlash imkoniyati bilan bog'liq.Turmush darajasi inson ongining rivoji uning tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. 80 - yillarning oxiri va 90 - yillarning boshlarida aholining bo'sh vaqtlarida kooperativ va individual mehnat faoliyati uchun sharoit yaratildi. Bu odamlar turmush darajasidagi farqlarga, ba'zi hollarda bir guruh aholining cheksiz boyib ketishiga olib keldi. Turli qarindosh urug'lar vositasida daromatli joylarga mutlaqo nomunosib odamlarning ishga joylashishi amaliyoti rivojlandi.

2018-yilda O'zbekiston voyaga yetmagan bolalar mehnatiga chek qo'yilishi munosabati bilan uchinchi davlatlar toifasidan chiqarilganligi eng katta yutuqdir (paxta terimi bilan bog'liq muammo). 2018-yilda aholi oylik maoshining 30% dan 100 % gacha ko'tarilishi, pensiya, stipendiyalar miqdorining ko'tarilishi, kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli uylarning ajratilishi, 2017-2021-yillarda 15 mingta arzon va qulay uylarni qurib aholiga foydalanish uchun topshirish jarayonining bosqichma bosqich amalga oshirilayotganligi xalqni boy va ba'tli qilish istagining amaliyotga joriy etilishining ifodasidir.

Energetika va xom ashyo resurslari. Yana bir global muammo – insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta'minlash xalqaro maydonda ko'p sonli ziddiyatlar, shu jumladan, harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o'ynaydi.

Mazkur resurslar tiklanadigan, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan tiklash mumkin bo'lgan resurslarga (gidroenergiya, yog'och, quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralar bilan

chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft', ko'mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo'linadi.

Hozirgi iste'mol sur'atlari saqlangan taqdirda tiklanmaydigan resurslarning aksariyati insoniyatga bir necha o'n yillardan bir necha yuz yillargacha bo'lgan muddat bilan o'lchanadigan yaqin kelajakda foydalanishgagina yetishi hisoblab chiqildi. Shuningdek, mavjud zaxiralarning anchagina qismi murakkab sharoitda joylashgan konlarda jamlangan yoki nisbatan qashshoq rudalardan iborat.

Yaqindagina odamlar aksariyat foydali qazilmalarni ochiq usulda yoki 600 m dan oshmaydigan chuqurlikda qazib olgan bo'lsalar, bugungi kunda vaziyat sezilarli darajada o'zgardi. Qulay joylardagi foydali qazilmalar tugab bormoqda va endilikda 8-10 km chuqurlikda yoki okean tubida joylashgan konlarni ishga solish vazifasi paydo bo'lmoqda. Bu esa nafaqat ko'p miqdorda kapital qo'yilmalarni, balki ularni qazib chiqarish va qayta ishlash uchun yangi texnika va texnologiyalar yaratishni ham taqozo etadi. Shu sababli chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda insoniyat ixtiyorida mavjud resurslardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda O'zbekistonda energiya resurslaridan foydalanish amaliyoti davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2018-yilda O'zbekiston va Rossiya hamkorligida Markaziy Osiyoda birinchi tinchlik maqsadlarida foydalanilishi rejalashtirilgan ikki blokdan iborat atom elektrostansiyasining qurilishi boshlandi va u 2028-yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda.

Urush va tinchlik muammosi. Jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va yerda mustahkam tinchlikni ta'minlash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimi deb e'tirof etiladi. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo'lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga «o'lish yo qolish?» degan mudhish savolni qo'yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Bugungi kunda harbiy qarama-qarshilik ma'lum darajada susayganiga qaramay, aksariyat mamlakatlarda mudofaa va atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlarida ulkan nomutanosiblik hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bu tafovut mudofaa foydasiga ba'zan ellik baravar va undan ko'proq darajaga yetadi. Bu hol

«uchinchi dunyo» mamlakatlarida ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Bu yerga, bir tomondan, qurol-aslaha, boshqa tomondan esa – murakkab ekologik vaziyatni yanada og‘irlashtiruvchi eskirgan asbob-uskuna va noekologik texnologiyalar tobora ko‘proq yetkazib berilmoqda. Natijada ifloslanish va tabiatning zavol topish sur’atlari bu yerda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha yuqoridir.

Tinchlik, qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik uchun kurash boshlagan jahon ilmiy hamjamiyati bu borada o‘z kuch-g‘ayratini birlashtirish lozimligini anglab yetdi va 1957-yilda Pagoush (Kanada)da o‘z tarafdorlarining birinchi konferensiyasini o‘tkazdi. Pagoush harakati deb nomlangan bu tashkilot tinchlik uchun kurash olib boruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. Endilikda unga hozirgi globallashuv muammolari va nomutanosibliklarini bartaraf etish yo‘lida kurash olib borayotgan boshqa ko‘p sonli tashkilotlar va harakatlar (Grinpis, Rim klubi, antiglobalistlarning harakatlari va boshqalar) qo‘shildi. Tinchlik va qurolsizlantirish, xalqaro terrorizmga qarshi birgalikdagi kurash g‘oyasini 2017-yilda Sh.Mirziyoyev BMTning 72 sessiyasida taklif qildi.

Terrorizm (lat. terror — qo‘rqo‘v, dahshat) — doimiy terror harakatlari qo‘llaniladigan siyosat. Terror so‘zining sinonimlari zo‘ravonlik, qo‘rqitishdir.Terrorizm zo‘ravonlik siyosati zo‘ravonlik mafkurasi va ijtimoiy onggga ta’sir qilish vositasi, davlat hokimiyati va mahalla boshqaruv organlari va xalqaro tashkilotlarning qarorlar qabul qilishiga kuch ishlatish orqali ta’sir, aholini qo‘rqitish va boshqa noqonuniy harakatlar amaliyotidao‘z ifodasini topadi. Eng qadimgi davrdagi terrorchillk harakatlaridan biri eramizdan oldingi 340-yilda Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp Ilning o‘ldirilishidir.

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Ularning asosiy maqsadi turli terroristik harakatlar bilan jamiyatda beqarorlikni shakllantirish millatlararo nizolar asosida ommaviy tartibsizlikni yuzaga keltirishdan iborat. Fanatizm o‘z aqidasining shak-shubhasiz to‘g‘riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishlaridan biri. Diniy fundamentalizm – muqaddas kitoblar ma'nosini mantiqiy dalillar asosida o'rganishni emas, balki so'zma so'z kiroat qilinadigan fikrning harfiy bayonini tan oladi. Bu Muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari – eng avvalo, davlat xizmati xodimlari oladigan maosh darajasining pastligi, shuningdek ularga firmalar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganida namoyon bo'ladi. Amaldorlarga taqchil resurslarni tasarruf etish uchun keng vakolatlar berilgan joyda korrupsiya chuqur ildiz otadi. Bu rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi, ammo u rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga turar joyni imtiyozli taqdim etish dasturini amalga oshirish chog'ida korrupsiya hollari avj oladi. Biroq, iqtisodiy sabab asosiy sabab bo'la oladimi? Ba'zi iqtisodiy rivojlangan mamlakat rahbarlarining, masalan, Koreya davlati Prezidenti, Braziliya Prezidentl, Pokistonning bosh vaziri, Rossiya Federatsiyasi sobiq mudofaa vazirining, ba'zi gubernatorlarning, korrupsiya bo'yicha lavozimidan chetlashtirilganligi iqtisodiy sabab asosiy emasligini asoslaydi. Demak, korrupsiya insonning ijtimoiy-madaniy tubanlashuvi sababi ustuvorlik etadi.

Korrupsiyaning institutsional sabablari sifatida davlat idoralari ishida yopiqlik darajasining kuchliligi, o'ta beso'naqay hisobotlar tizimi, qonun ijodkorligi tizimining ochiq va oshkora emasligi, davlatning kadrlar bilan ishlash siyosatidagi kamchiliklar e'tirof etiladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari qatoriga jamiyatdagi umumiy ma'naviy tubanlashuv jarayonlari, fuqarolarning davlat boshqaruvi qonunlaridan xabardorlik va ularga munosabati darajasining pastligi, hokimiyat tepasidagilarning o'zboshimchaligiga nisbatan jamoatchilikning befarqligi va kuchli nazoratning yo'qligi kiritiladi. Korrupsiyaning bu sababining ildizlari shu qadar

chuqurki, hatto biz qaysidir tashkilotga biror muammo bilan murojaat etganimizda albatta qo'limizda sovg'a salom bilan borishning tashvishini qilamiz, aks holda istalgan natijaga erishish murakkablashadi (Masalan, shifokor ko'rigi, maktabdagi o'qituvchi bilan farzandimiz muammosi bilan murojaat etish, bolani yaxshi sinfga qo'yish, yaxshi maktabda o'qitish kabilar).

Ko'rsatib o'tilgan omillarning uchala guruhi mavjud bo'lgan mamlakatlarda (bular, eng avvalo, rivojlanayotgan va postsotsialistik mamlakatlar) korrupsiya ayniqsa kuchlidir. G'arbiy yevropa sivilizatsiyasi mamlakatlarida esa, aksincha, mazkur omillar ta'siri uncha kuchli emas va shu sababli bu yerda korrupsiya hollari kam kuzatiladi.

Korrupsiyaning shakllari: poraxo'rlik, favoritizm, nepotizm (urug'-aymoqchilik), proteksionizm, lobbizm, jamoat resurslari va jamg'armalarini qonunga xilof ravishda taqsimlash va qayta taqsimlash, jamoat resurslarini shaxsiy maqsadlarda qonunga xilof ravishda o'zlashtirish, noqonuniy xususiylashtirish, siyosiy tuzilmalar (partiyalar va sh.k.)ni qonunga xilof ravishda qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, ta'magirlik, imtiyozli kreditlar, buyurtmalar berish, jamoat resurslari – tovarlar, xizmatlar, daromad manbalari, imtiyozlarga ega bo'lish uchun shaxsiy aloqalardan foydalanish, o'z qarindoshlari, do'stlari, tanishlariga turli xizmatlar ko'rsatish va h.k.dir. Faoliyat sohasiga qarab korrupsiyaning quyidagi turlari farqlanadi:

- davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya;
- parlamentdagi korrupsiya;
- jamoa tashkilotlari, korxonalardagi korrupsiya;
- iqtisodiy korrupsiya;- g'oyaviy korrupsiya;- siyosiy korrupsiya;
- kadrlar korrupsiyasi.

Ta'lim va fandagi korrupsiya, ayniqsa, XX asrda yanada rivojlanganligi jamiyatning inqirozga yuz tutganligi bilan baholanadi. Fan sohasidagi korrupsiya uning turli tarmoqlarida mutlaqo nokompetent mutaxassislarning kadrlar korrupsiyasi natijasida jalb qilinishidir. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan bog'liq jarayonda ko'p hollarda proteksionizm va favoritizmning amal qilayotganligi sir emas. Bu esa, bir tomondan fandan mutlaqo yiroq odamlarning kirib kelishi, ikkinchi tomondan esa, ilmiy salohiyatning sayozlashuviga olib keladi. Fandagi korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi haqida o'ylamaydi.

Ko‘plab mutaxassislar fikriga ko‘ra, sud tizimi korrupsiya uchun, ayniqsa, jalb qiluvchan sohalardan biri hisoblanadi. Bu yerda deyarli har qanday lavozim korrupsion jalb qiluvchanlik bilan tavsiflanadi, uning funksional mazmuniga faqat korrupsiya ko‘rinishlarining shakllari va ko‘lamigina jiddiy bog‘liq bo‘ladi. Shu o‘rinda, alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasining sud’yalari bilan uchrashuvda kelgusida bu sohadagi korrupsiyaga uzil-kesil barham berish, sud’yalar faoliyatida adolat mezoniga rioya qilish asosiy vazifa qilib belgilandi.

Dunyo miqyosida kadrlar korrupsiyasining eng xavfli korrupsiya sifatida rivoj olayotganligi, uning siyosiy mentalitet va ma’naviy muhitga aks ta’sir etayotganligi nihoyatda achinarli hol. Shu bois, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan 2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun mamlakatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatning shakllanishiga poydevor bo‘ldi. Qonunga ko‘ra, barcha turdagi korrupsiyaga qarshi kurash, kadrlar korrupsiyasiga chek qo‘yish, faoliyatda soflikni va adolatni ta’minlash masalasiga e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, 2017-yil 2-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar o‘z mazmun mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun

talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur"[1] deb ta'kidlaydi. Demak, kelgusida O'zbekiston xalqining siyosiy hushyorligi ta'minlanadi va siyosiy mentalitet yangi bosqichga ko'tariladi.

Xalqaro kuchlarning birlashuvi. Odamlar dunyoqarashi nafaqat ularning dunyo haqidagi bilimlarida, balki ular bu bilimni qanday talqin qilishi, qanday xulosalar chiqarishi va qanday ish ko'rishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli global muammolarni butun dunyo bahamjihat hal qillshi lozimligi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, insoniyat nazariyada muayyan yutuqlarga va ba'zi bir amaliy natijalarga erishgan holda, dunyo rivojlanishining salbiy jarayonlarini to'xtatishga hali muvaffaq bo'lmaganini e'tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emas. Xalqaro kuchlarning muayyan darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo'lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to'la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa yechishga harakat qilayotgan bosh masalalardir.

Tarixiy tajriba turli xalqlarning yaqinlashuvi ularning manfaatlari mos kelgan joyda ayniqsa yaxshiroq yuz berishini ko'rsatadi. O'zaro manfaatdorlik turli qiyinchiliklarni tez bartaraf etish, savdo-sotiqni faol rivojlantirish, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Odatda bu yo'lda yengishga to'g'ri keladigan eng katta qiyinchiliklar eskicha qarashlar, qotib qolgan fikrlash uslubi, an'analar bilan bog'liq bo'ladi. Ular o'zgarish xususiyatiga ega, lekin bu juda uzoq, katta qiyinchiliklar bilan tashqi yoki ichki omillar ta'sirida yuz beradi. Masalan, tashqi omillar qatoriga ekologik tanglikning kuchayishi, «demografik portlash» oqibatlari, urush xavfi va nafaqat odamlarning turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirgan, balki ularning ongiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan boshqa global muammolar kiradi. Ichki omillar inson manfaati, uning subyektiv, shaxsiy asosi bilan bog'liq.U yoki bu muammolarning

[1] Mirziyoyev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: «O'zbekiston», 2016. – B.10.

keskinlik darajasi, hatto buning uchun zarur shart-sharoit va yetarli asoslar paydo bo'lgan hollarda ham, nima uchun pasaymayapti, degan savolga javob topishda yuqorida zikr etilgan omillar, ayniqsa manfaat omili albatta hisobga olinishi lozim.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar uyg'unligi. Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo'nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o'z muayyan manfaatiga ega bo'ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o'z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o'xshamasligiga sabab bo'ladi. Ba'zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtai nazaridan bu qo'shni hududlarda yashovchi xalqlarning qarama-qarshi manfaatlari to'qnashgan hollarda ko'p kuzatiladi.

Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallashuvi va iqtisodiy aloqalarning o'sib borayotgan integratsiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat obyektiv manfaatlarini o'zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko'payib bormoqda. Ma'rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab yetayotgan kelishilgan harakatlarga bo'lgan bu obyektiv ehtiyoj hozirning o'zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda. O'zbekiston o'z taraqqiyotining yuksalish bosqichida dunyoning barcha yetakchi davlatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy hamkorlik bo'yicha shartnomalar imzoladi. Birgina 2017-yilda 60 milliard dollar, shundan 23 milliard dollar Xitoy davlati investitsiyalari O'zbekistonga ajratildi. 2018-yilda Rossiya bilan 27 milliard dollar miqdorida shartnoma imzolandi, bu umumiy va xususiy manfaatlar yo'lidagi sa'y harakatlarinnig debochasidir.

Inqiroz ildizlari. Ayrim mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish texnokratik jamiyat tuzilishi va mohiyatidan kelib chiqadigan katta qiyinchiliklar

bilan bog‘liq. U komp’yuter inqilobi ta’sirida o‘zgarganiga qaramay, texnogen sivilizatsiyaning asosiy shakl-shamoyillarini saqlab qolmoqda va shu sababli hozirda mavjud ko‘rinishda nafaqat bunday jamiyat tanqidchilarini, balki texnika taraqqiyoti tarafdorlari (texnokratik optimistlar) sobiq izdoshlarining bir qismini ham qanoatlantirmayapti.

Ularning aksariyati fikriga ko‘ra, hozirgi G‘arb sivilizatsiyasi insoniyat uchun shikastli bo‘lgan ko‘pgina ziddiyatlarni yuzaga keltirdi, chunki uning zamirida tabiat va uning resurslariga nisbatan iste’molchilik yondashuvi yotadi. Tegishli qadriyatlar tizimidan mustahkam o‘rin olgan bunday tasavvurlar tarixan sanoat inqilobi, keyinroq - fan-texnika inqilobi davrida shakllangan bo‘lib, o‘z ildizlari bilan inson, xuddi yerdagi Xudo kabi, dunyoni bunyod etadi, uni tabiat imkoniyatlari va o‘z imkoniyatlari bilan hisoblashmasdan o‘z ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartiradi, degan dunyoqarashga borib taqaladi. Pirovardda nafaqat ekologik va demografik tangliklar, balki ma’naviy inqiroz ham yuzaga keladi, bunda avvalgi dunyoqarash mo‘ljallari obyektiv sharoit tazyiqi ostida o‘zgarayotgan amaliyot bilan to‘qnashadi.

Yangi qadriyatlar tizimi. Ayni shu sababli qadriyatlar muammosi, ijtimoiy rivojlanishning yangi ustuvorliklarini va boshqa dunyoqarash mo‘ljallarini izlash jamiyatni ma’naviy yangilashning bosh vazifalariga aylanadi. Bugungi kunda turli mamlakatlarning olimlari boshqa qadriyatlarga muvofiq bunyod etilgan o‘zga sivilizatsiyaga o‘tish amalga oshirilgan taqdirdagina insoniyat ekologik va boshqa global muammolarni bartaraf eta olishi mumkinligini deyarli yakdillik bilan qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, mazkur qadriyatlar tabiat va uning ehtiyojlarini tabiatdan ustun qo‘yuvchi antropotsentrizmga emas, balki hayot fenomenining betakrorligiga va biosferani muvozanat holatida saqlash lozimligiga e’tiborni qaratuvchi biosferotsentrizmga asoslanishi lozim. Inson esa, aqlli mavjudot va mazkur murakkab tizimning tarkibiy qismi sifatida, bu bilan nafaqat hisoblashishi, balki tegishli tarzda ish ko‘rishi ham lozim. Uning dunyoga munosabatini o‘zgartirish, insonparvarlik va koevolyutsiya, ya’ni tabiat va jamiyatning mushtarak rivojlanishi tamoyillariga tayanib, yangi qadriyatlar tizimini va ijtimoiy rivojlanish mo‘ljallarini yaratishdan boshqa yo‘li yo‘q.

Dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro aloqa va asosli hamkorlik yo‘liga yanada ishonch bilan kirishi, odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati esa tabiat bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun dunyoda yuz berayotgan hozirgi jarayonlar haqidagi ilmiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, shuningdek odamlarning yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarga o‘z javobgarligini yanada teranroq tushunishiga erishish lozim. Bu yana shuning uchun ham muhimki, zamonaviy elektron qurilmalar va hisoblash texnikasi insonning o‘z faoliyati natijalarini ham, ular olib kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni ham chamalash va bashorat qilish qobiliyatini ko‘p karra oshiradi. Shu sababli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda olimning roli ortishi bilan bir qatorda uning inson uchun ham, atrof muhit uchun ham muayyan ekologik, tibbiy va boshqa oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan texnik loyihalar bo‘yicha qarorlar va tavsiyalar uchun javobgarligini mislsiz darajada oshirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda genetika sohasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlar o‘ziga tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Bu yerda jonli organizmlarni, shu jumladan insonni ham klonlash imkonini beruvchi gen injeneriyasi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu ko‘p sonli axloqiy va psixologik masalalarni yuzaga keltiradi, chunki inson shaxs sifatida genlar ta’sirida faqat ellik foizga shakllanadi, qolgan jihatdan u ijtimoiy muhit va muayyan yashash sharoitlari bilan belgllanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

Shu munosabat bilan eng yangi falsafiy adabiyotlarda insonparvarlik masalalari yana birinchi o‘ringa chiqmoqda. Fan-texnika taraqqiyotini nafaqat ayrim insonning, balki butun insoniyatning axloqiy fazilatlariga bevosita bo‘ysundiruvchi inson faoliyatini butunlay o‘zgartirish lozimligini ifodalovchi «ilmiy insonparvarlik» atamasi faol ishlab chiqilmoqda. «Ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin

Texnika va texnologiya.Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida nafaqat bilimga, balki shu bilimdan foydalanish uchun texnika va texnologiyalarga ehtiyoj ortmoqda. Texnika (yunoncha-

techne-san'at, mahorat) inson tomonidan atrof muhitni o'zgartirish maqsadida yaratilgan har qanday mehnat quroli, artefaktlar texnikadir. Texnik artefaktlar ikkita vazifani bajaradi: mehnat predmetining energetik, yoki informativ holatini o'zgartirish; ishlab chiqarish faoliyati majmuasi, vositalarining turlarini ko'paytirishdir. Shu bois, texnika inson ishlab chiqarish faoliyati sohasini o'zgartiradi. Texnika inson va tabiat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Texnologiya – artefaktlar, ishlab chiqarish operatsiyalari va jarayonlari, resurs manbalari, axborotning ijtimoiy oqibatlari rivojlanishining murakkab tizimi. Zamonaviy texnologiyalar alohida texnologiyalarning majmui sifatida amal qiladi. Zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning ilmiyligi, qulayligi, kamxarjligidir. Axborot texnologiyasi – bu axborotni tanlash, jamg'arish, tahlil qilish va foydalanuvchiga yetkazib berishga yo'naltirilgan hisoblash texnikasi, elektr aloqa, informatika imkoniyatlarining uyg'unligidir.

Nanotexnologiya. XXI asrda insoniyat axborot texnologiya-larining takomillashgan shakli nanotexnologiyalarni yaratdi. Nano o'lchov birliklarning old qo'shimchasi bo'lib, milliarddan birni belgilaydi. Masalan, bir nanometr metrning milliarddan biridir. Nano yunoncha "nanos" so'zidan olingan bo'lib, mitti degan ma'noni bildiradi. Nanotexnologiya-mitti texnologiya bo'lib, uning prototipi tabiatning o'zida mujassam. Ko'zga ko'rinmas bakteriyalar, chumoli, o'rgimchak va shunga o'xshash hasharotlar tabiiy nano jismlardir. Atomlar va ular orasidagi masofalar ham nanometr ulushlarida o'lchanadi. Nanotexnologiya atamasini birinchi bo'lib, 1974-yilda yapon olimi Norio Taniguchi yangi obyektlar va materiallar tuzish jarayonini izohlash uchun ishlatgan. Bu sohadagi dastlabki texnik vositalar Shveytsariyaning IBM laboratoriyasida ixtiro qilingan. 1982-yilda skanerlovchi zondni ixtiro qilgan Gerd Bining va Genri Rorerlar 1986-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Nanonaychalarning qalinligi soch tolasidan o'n ming marta kichik, ammo mustahkamligi po'latdan o'n marta katta. Kelajakda bir metr uzunlikdagi nanonaychalar sintez qilinishiga erishilsa, sanoat va texnikada katta o'zgarish ro'y berishi mumkin. Chunki, yuzlab kilogramm yukni ko'taradigan soch tolasidek ingichka material juda ko'p sohalarda foyda berishi ko'zda tutilmoqda. Ekspertlar fikricha

uchinchi ming yillik nanofan va nanotexnologiyalar asri bo‘ladi. Yaqin 40-50 yil ichida nanomahsulot va nanotexnologiyaga bo‘lgan biznes iqtisod eng rivojlangan tarmoqqa aylanadi. Nanobiotexnologiyalar vositasida tibbiy xizmat rivojlanadi va inson sog‘lig‘ini saqlashda yangi imkoniyat paydo bo‘ladi. Jumladan, bugungi kunda yaratilgan jarrohlik nanotexnologiyalari og‘ir operatsiyalar va ularning salbiy oqibatlarining oldini olmoqda. Xususan, lazer qaychilari odam organizmining yalliqlangan joyidagi yarani hech qanday qiyinchiliksiz olib tashlamoqda.(Burun, jigar va boshqa organlardagi o‘simta). 2020-yillarda nanotexnologiyalar yordamidagi operatsiyalar yanada takomillashishi, inson tomir va to‘qimalarida harakatlanib, kasallangan hujayrani topib, o‘ldiradigan nanojarrohlarni yaratish ko‘zda kutilmoqda. Bunda organizmga 20 mingta nanorobortlar in’yeksiya orqali yuboriladi, nanorobortlarning hajmi bitta bakteriya hajmiga teng, bu nanorobortlar organizmning qaysi qismi yalliqlanganligi aniqlab shu parchani yo davolaydi yoki kesib tashlaydi.

Olimlar, 2020-yilda insonni avtomobil halokatidan saqlaydigan, kayfiyatini ko‘taradigan, organizmining qaysi qismi nosog‘lom ekanligidan xabar beruvchi nanokiyimlar yaratilib, ular oddiy magazinlarda sotilishi bashorat qilinmoqda. Barcha aloqa tarmoqlarini birlashtiruvchi globallashgan yangi aloqa tizimini o‘rnatish imkoni tug‘iladi. Biroq XX asrning boshida suv osti kemalari kir yuvish mashinalari, mobil telefonlari, rangli televizorlar, komp’yuterlar, soatiga ikki ming km tezlikda uchadigan avialaynerlar, suv osti tunnellarining yaratilishiga insoniyat ishonmagan va ular yaratilgandan so‘ng foydalana boshlagan. Shu bois, nanotexnologiyalarning imkoniyatlariga ham hozircha shubha bilan qarash mumkin, lekin 2020-yilga juda oz vaqt qoldi, dushman to‘pponchasidan otilgan o‘qni boshqa tomonga yo‘naltiruvchi birinchi harbiylar kiyimlari esa yaratildi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, 1975-yilda Toshkent davlat texnika universitetini tamomlagan Anvar Zohidov 2001-yilda Texas universiteti huzurida nanotexnologiya institutiga asos solishda ishtirok qildi. Hozirgi kunda u shu institutning direktor o‘rinbosari va “Nanoscience” jurnalining muharriri lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda. A.Zohidov ilk bor yorug‘lik ta’sirida qo‘zg‘atilgan zaryadlarning o‘zaro

biriktirilgan fyulleren polimer tuzilmasidan o'tishini va undagi fotokimyoviy jarayonlarni kashf qilgan. U fyulleren bilan o'tkazgich polimerlar va ishqoriy metallar kompleks birikmalari asosida o'ta o'tkazgich fyulleridlarni va organik ferromagnit materiallarni birinchi marta sintez qilgan olim. 2003-yilda A.Zohidov nanotexnologiyalar sohasida erishgan yutuqlari uchun yilning Osiyo-Amerika muhandisi unvoni bilan mukofotlangan.

Sun'iy intellekt tushunchasi va uning tahlili. Intellekt (lotincha intelligence- aql, insonning fikrlash qobiliyati) insonning tafakkuri mahsuli, sun'iy intellekt (artificial intelligence) inson faoliyati sohasiga tegishli vazifalarning avtomatik qurilmalarda bajarilishi nazarda tutiladi. Shu nuqtai nazardan sun'iy intellektning ikki xil ta'rifi mavjud: sun'iy intellekt – insoninng aqliy faoliyatiga tenglashtirishgan amaliy jarayon va sun'iy intellekt komp'yuter yordamida inson tafakkurini imitatsiyasi bilan shug'ullanuvchi informatikaning bir bo'limi. Bunga tabiiy tilda dialogni davom ettiruvchi informatik tizimlar (tabiiy til interfeyslari), turli vaziyatlarda foydalanuvchiga maslahat beruvchilar (masalan, avtomobillardagi navigatorlar), amaliy vazifalarni dasturlashtirishsiz bajaradigan amaliy dasturlarning intelletual paketlari va h.k. Tabiiy til interfeyslari EHM bilan ular yaratilgan davrdanboshlab muloqot qilishning eng qulay usuli hisoblanadi. Bu foydalanuvchiga buyruq tilini o'rganish yoki kompyuetrda boshqa vaziflarni yechish bo'yicha qulaylik yaratadi. Shu bois, bunday interfeyslarni yaratish amaliyoti 20 asrdayoq boshlangan.Ekspert tizimlari dastlab tibbiyot qo'llanilgan. Yosh mutaxassislarga yordam berish maqsadida tibbiyot sohasi vakillarining bilimlarini birlashtirib, barcha ma'lumotlarning yagona elektron bazasi yaratilgan. Tibbiyot sohasining tanlanishi negizida eng avvalo bu sohada inson umri va salomatligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldini olish maqsadi turgan. Keyinchalik, tibbiyot sohasidan bu texnologiya boshqa sohalarga xususan, ishlab chiqarish sohalarida, qishloq xo'jaligiga jalb qilingan. Ekspert tizimidan foydalanish eng avalo tizimni o'rganishni taqozo etadi, ya'ni dastlab texnologik bilimni egallash va keyin bu bilimlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ekspert tizimlari faqat tizim bo'yicha maslahat beradi. Amaliy dasturlar intellektual paketlari,ekspert tizimlarga bilimlar

bazasini yaratishni,keyin esa shu bilimlardan foydalanib biimlar integratsiyasiga erishishni ko‘zda tutadi.

Xulosalar. Insoniyat o‘zini o‘zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o‘z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni yengib, o‘z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an’analarning o‘ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo‘q. Bunday birlashuvga esa, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar:

Globallashuv, globalistika, global muammolar, ijtimoiy rivojlanish, Rim klubi, globallik sun’iy intellekt, global muammolarning tasnifi, nanotexnologiya, til, axborot inqilobi, inqiroz ildizlari, umuminsoniy qadriyatlar.

Qo‘shimcha va tushuntiruvchi matnlar





Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Falsafada yangi mavzu yuzaga kelishiga nima sabab bo'ldi?
2. Global muammolar qachon va nima uchun paydo bo'ldi?
3. «Globallashuv», «global muammolar», «globalistika» tushunchalarining o'zaro nisbatiga tavsif bering.
4. Texnooptimizmning mohiyati nimadan iborat?
5. Texnopessimistik falsafiy konsepsiyalar qaysi g'oyalarga asoslanadi?
6. Globallikning mezonlarini ayting. Ularning yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
7. Globallashuv muammolarini yechishda falsafa qaysi funksiyalarni bajaradi?
8. Global muammolar tasnifi nima uchun kerak?

Mavzuga oid test savollari

1. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida nechanchi yillardan shakllana boshladi?

a) 1960-yillarning oxirlaridan;
b) 1950-yillarning oxirlaridan;

v) 1970-yillarning oxirlaridan;
g) 1980-yillarning oxirlaridan;

2. Globallashuvning vujudga kelishiga asos bo‘lgan yirik sabablarni toping.

a) Hayotning barcha sohasidagi integratsiyalashuv;
b) Fan va texnika kashfiyotlari;
v) Falsafada yangi ta’limotlarning vujudga kelishi;
g) Odam sonining keskin o‘sishi;

3. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy holat bugungi kunda global muammolarni bartaraf qiluvchi qaysi asosiy hamkorlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi?

a) BMT;
b) YUNESKO;
v) yeHHT;
g) MDH;

4. Hozirgi zamonda jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlarning paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?

a) Serqirra globallashuv;
b) Ekologik globallashuv;
v) Siyosiy globallashuv;
g) Madaniy globallashuv;

II-QISM

10-MAVZU. MANTIQ ILMINING PREDMETI, ASOSIY QONUNLARI

Tushuncha tafakkur shakli sifatida mantiq ilmi o‘rganadigan masalalar. Mantiq ilmining asosiy qonunlari

Ilm o‘rganish tafakkur qilish orqali amalga oshadi. Imom G‘azzoliy ta’birlari bilan aytganda,”Ilm aqlda daraxtdagi meva, quyoshdagi ziyo va ko‘zdagi nur o‘rnida yuradi.[1]” Aql jihatdan afzallikka erishish uchun qadimdan mantiq ilmini o‘rganish zarurligi ta’kidlanadi.

Mantiq ilmi qachon shakllangan, uning asoschisi kim?

Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Aristotel (er. av. 384-322-yy.) ning nomi bilan bog‘liqdir. U birinchi bo‘lib, mantiq ilmi o‘rganadigan masalalar doirasini aniqlab berdi. Aristotelning «Kategoriyalar», «Talqin haqida», «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Sofistik raddiyalar haqida» nomli asarlari bevosita mantiq masalalariga bag‘ishlangandir. Uning «Ritorika», «Poetika» asarlari ham mantiqiy ta’limotining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. «Metafizika», «Ruh haqida» asarlarida esa mantiq masalalari ma’lum darajada bayon qilingan. Aristotel o‘z ta’limotini “logika” emas, “analitika” deb atagan. Logika termini er.av. III asrdan boshlab, fanni ifodalovchi termin sifatida qo‘llanila boshlagan.

“Mantiq” so‘zi yunon tilidagi “logika” so‘zining arabcha tarjimasidir. “Logikos” – so‘z, aql, aql yuritish, qonun ma’nolarini beruvchi keng qamrovli termindir. “Mantiq” istilohining qamrovi ham “logos”niki kabi bo‘lib, uning o‘zagi “so‘zlashuv” ma’nosini beradigan “nutq” so‘zidir.[2]

---

[1] Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhamad al-G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. –T.: «Movarounnahr»., 2003. 206-b.
[2] Muhammad Fazlul-imom Xayrobodiy. Mirqotul mantiq. –T.: Toshkent islom universiteti, 2011. 3-bet.

Biz "mantiq" istilohini fanni ifodalash uchun qo'llaymiz. Mantiq fan ma'nosida qator tushunchalar bilan birgalikda keladi. Bular:

Formal mantiq – mulohazalar va isbotlashning strukturasini analiz qilish, o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, unda asosiy e'tibor mazmunga emas, shaklga qaratiladi. Bu tushuncha I.Kant (1724-1804-y.) tomonidan fanga kiritilgan. Formal mantiq ikki qiymatli sistema bo'lib, unda mulohazalar "chin" yoki "yolg'on" qiymatga ega bo'ladi. Matematika va tabiiy fanlarda qo'llaniladigan formal mantiqning isbotlash usullari chinlik qiymatiga ko'ra baholansa, gumanitar fanlarda qadriyatlar tizimiga ko'ra (yaxshi, yomon,...) baholanadi. Shuning uchun formal mantiq "isbotlash mantig'i", noformal mantiq "argumentlash mantig'i" deb ataladi.

Noformal mantiq – Noformal mantiq(informal logic)– tabiiy tilda argumentlashni qurish va baholashning noformal standartlarini, uni talqin qilishning usullari va mezonlarini ishlab chiquvchi normativ fandir. Noformal mantiq XX asrning 70- yillarida formal mantiq imkoniyatlarini tanqid qilish asosida shakllangan. Uning asoschilari kanadalik Entoni Bleyr (Vinzdor universiteti) va Ral'f Djonson (Ontario universiteti)dir.

Nazariy mantiq –muayyan bilimlarning mantiqiy sistemasi yoki mantiqiy nazariyalar yig'indisi bo'lib, ular tabiiy va maxsus formallashgan (sun'iy) til vositasida, ma'lum bir prinsip va aksiomalarga asosan qurilgandir. Nazariy mantiqqa an'anaviy (formal) mantiq, klassik simvolik mantiq va noklassik simvolik mantiqning turli yo'nalishlari kiradi. Nazariy mantiqning o'ziga xosligi yuqori darajada abstraksiyalashganligidadir.

Amaliy mantiq – 1. Insonlarning tabiiy tafakkurlash jarayonini; 2. Nazariy mantiqdan konkret xolatlarda foydalanishni, ya'ni dalillash va rad etishni; 3. Faoliyat mantig'i, qaror qabul qillsh mantig'i, tanlash mantig'i, evristika, prakseologiya, konfliktologiya va b. shu turdagi mantiqiy nazariyalar va tadqiqotlarni ifodalaydi.

Nazariy mantiqni formal, amaliy mantiqni noformal mantiq deb ham yuritiladi. Formal mantiq tarixiy kelib chiqishiga ko'ra an'anaviy (klassik) mantiq deb ham nomlanadi.

Er.av. IV asrdan boshlangan va XIXasrning oxiri – XX asrning boshlarida yakunlangan (formal) mantiq rivojlanishining birinchi

bosqichi an'anaviy (klassik) mantiq deb ataladi. An'anaviy mantiq to'g'ri tafakkurlashni asosan tabiiy tilga tayangan holda o'rgangan.

Noan'anaviy (noklassik) mantiq – klassik mantiqni tanqid qilish va takomillashtirish bilan birga, uni mukammallashtirish, to'ldirish va undagi zamonaviy mantiqning asosini tashkil etuvchi g'oyalarni yanada rivojlantirish natijasida vujudga kelgan mantiqiy nazariyalarning majmuidir. Noan'anaviy mantiq ko'p qiymatli bo'lib, unda mulohazalar "chin" yoki "yolg'on" qiymatlaridan boshqa qiymatlarga ham ega bo'ladi.

Zamonaviy mantiq atamasi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida mantiq ilmi rivojining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu bosqich yana matematik mantiq va simvolik mantiq terminlari bilan ham ataladi. Matematik mantiq terminining qo'llanishi uning zamonaviy mantiq bilan qo'llaydigan usullariga ko'ra o'xshashliklarini bildiradi. "Simvolik mantiq" termini esa zamonaviy mantiqda mantiqiy taxlil qilish maqsadida maxsus yaratilgan formallashgan tillar qo'llanishini ko'rsatadi.

Biz formal mantiqni o'rganamiz. Formal mantiqning o'rganish predmetini quyidagilar tashkil etadi:

- Tafakkurlash shakllari, ularning tabiati va ularning tuzilmasi (strukturasi) bilan bog'liq qonuniyatlari;
- Fikrlar o'rtasidagi aloqalarning qonunlari;
- Bu qonunlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar.

Mantiq va boshqa fanlar.

Har bir fan kabi mantiq ham o'zining o'rganadigan obyekti va predmetiga ega. Tafakkur mantiq fanining o'rganish obyektidir. Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Masalan, grammatika mantiq faniga yaqin bo'lib, fikrni aniq va bexato ifodalashga yordam beradi. Tushuncha va mulohazalarning ifodalanish strukturasini aniqlashda ham grammatikaning roli katta. Falsafa tafakkurni moddiylik va ideallikning o'zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan o'rganadi. Psixologiya tafakkurni ruxiy jarayonlar bilan bog'liq xolda tadqiq etadi. Yuqorida tilga olingan fanlarning har biri tafakkurga o'z nuqtai nazaridan yondashadi, uning turli qirralarini ochib beradi.

Tafakkur va uning hususiyatlari.

Tafakkur bilishning yuqori bosqichi - ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi.

Aqlly bilish, tafakkurlash voqelikni abstraktlashgan (mavhumlashgan) va umumlashgan holda aks ettiradi. Tafakkurlash til bilan uzviy aloqada, ya’ni til fikrning voqe bo‘lish shakli hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari tilga katta e’tibor berganlar.

Tafakkur (aqliy bilish) hissiy bilish bilan uzviy bog‘liq. Tafakkur yordamida buyum va hodisalarning mohiyatini tushunishga erishiladi.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya’ni tushuncha, mulohaza va xulosa chiqarish hamda ular o‘rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma’lum mantiqiy qonun-qoidalarni vujudga keltiradiki, to‘g‘ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan xoli fikrlash ana shu qonun-qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlash yoki rad etish, ularning to‘g‘riligi yoki xatoligini tasdiqlash yoxud inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari

Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat, xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qiladi, fikr-mulohaza yuritadi, ularni mantiqiy bog‘lab, xulosalar xosil qiladi. Bu jarayonni tushunish uchun tafakkur shakli va tafakkur qonuni nima ekanligini bilib olish zarur.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifodalangan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Masalan, “non” tushunchasida un, suv va tuz qo‘shib qorilgan xamirdan ma’lum bir shaklga keltirilgan va yuqori haroratda (tandirda) pishirib olingan, oziqlanish uchun tayyorlangan mahsulot aks etadi. Agar tushuncha (non) aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya’ni fikrlash elementlarini a, b, s,..., n bilan

belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasini A (a, b, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Mulohaza (hukm)larda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjudligi haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, "Hunarli kishi – xor bo'lmas" degan mulohazada predmet (hunarli kishi) bilan uning xossasi (xor bo'lmaslik) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. "Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan zamondosh bo'lgan"degan mulohazada ikkita predmet (Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu mulohazalar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda mulohazaning mantiqiy tuzilishini S - R(emas) formulasi yordamida ifoda etish mumkin. Tushuncha va mulohazani farqlashda ularning shakli e'tiborga olinadi. Masalan: a'lochi o'quvchi(tushuncha) va o'quvchi a'lochidir (mulohaza).

Xulosa chiqarishda ham uning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli mavjud bo'lib, unga ko'ra o'zaro mantiqan bog'langan mulohazalardan yangi bir mulohazani xosil qilish mumkin.

Masalan, Insonni kamolotga yetishtiruvchi narsalar foydalidir
Ilm egallash insonni kamolotga yetishtiradi
Demak, ilm egallash foydalidir.

yoki

Tadbirkor insonlar reja bilan ish yuritadilar
Demak, reja bilan ish yuritadiganlar tadbirkor insonlardir.

Bu xulosa chiqarish yo'llari turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida ham xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan mulohazalardan xulosa mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lgani sabab xosil qilindi.

Yuqoridagi misollar tafakkurning mantiqiy shakli fikrning konkret mazmuniga nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishini va o'ziga xos qonuniyatlarga egaligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mantiq ilmida tafakkurning mantiqiy shakli alohida olib o'rganiladi.

Fikrning chin bo'lishi va shakl jihatdan to'g'ri qurilishi ishonchli bilimga erishishning zaruriy shartlaridan biridir. O'zi ifoda

qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr chin hisoblanadi (masalan, paxta-yumshoq). Predmetga mos kelmaydigan fikr yolg'ondir (masalan, suv – suyuqlik emas»). Fikrning chin yoki yolg'on bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatdir.

Fikrning chin bo'lishi formal jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishiga ham bog'liq. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xildagi mantiqiy amallarda o'z aksini topadi. Fikr chin bo'lib, shakliga ko'ra xato bo'lishi, va aksincha, fikr yolg'on bo'lishi, lekin shakliga ko'ra to'g'ri tuzilgan bo'lishi mumkin.

Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlash elementlari o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin.

Bu talablarga birinchi navbatda, ularning muayyan prinsiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilinishi kiradi. To'g'ri tafakkur prinsiplarining buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Masalan,

O'simlak yerdan baland.

Baland narsalar kattadir.

O'simlik yerdan katta.

Bunda, "baland" tushunchasining ikki xil ma'noda qo'llanishi chin fikrlardan xato xulosa chiqishiga olib keldi. Yana bir misol:

Yo'lbars - o'txo'r hayvon.

Qo'y yo'lbarsdir.

Demak, qo'y – o'txo'r xayvon.

Bunda xato qurilgan muhokamadan xulosa chiqarish qoidalariga amal qilingani uchun chin xulosa chiqdi.

Tafakkur shakli va qonunlarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish bilish jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to'g'ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo'lish va asoslanganlik to'g'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo'lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Formal mantiq qonunlarining mohiyati. Ayniyat qonuni.

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati Ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir.Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuniming asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlarning qo'llanishi ham ba'zan turli fikrlarning o'zaro aynanlashtirilishiga, ya'ni noto'g'ri muhokamaga olib keladi. Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibini aldash va yutib chiqish maqsadida Ayniyat qonuni talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi, ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida Ayniyat qonuni talabining ataylab buzilishini so'zlarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi. Aytish mumkinki, hayotda, amaliyotda tushunchalarning turli ma'nolarda qo'llanilishi g'arazli yoki beg'araz, yaxshi yoki yomon maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi.

Nozidlik qonuni

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'lishi bilan birga, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng

muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligi, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, yolg'on bo'lishini ifodalaydi.Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llanadi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda yolg'on bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda yolg'on bo'lmaydi, ulardan biri yolg'on bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo'lmaydi, ya'ni ulardan birining yolg'onligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: "Aristotel — mantiq fanining asoschisi" va "Aristotel — mantiq fanining asoschisi emas" — bu o'zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda yolg'on bo'lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo'lganligi uchun, ikkinchisi yolg'on bo'ladi. O'zaro qarama-qarshi bo'lgan "Bu qog'oz oq rangda" va "Bu qog'oz qora rangda" mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki qog'oz oq ham, qora ham bo'lmasligi, balki sariq, qizil yoki boshqa rangda bo'lishi mumkin.

Ba'zida ikki qarama –qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo'lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan bo'ladi. Masalan: "Akmal musobaqada qatnashmadi" va "Akmal musobaqada qatnashdi". Bu mulohazalar turli vaqtga nisbatan (bir oy avval yoki keyin), turli munosabatda (suzish yoki shaxmat bo'yicha)

bayon qilingani tufayli bir-birini inkor etmaydi. Demak, fikrlash jarayonida vaqt, munosabat va obyekt birligining saqlanishi Nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta'qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq mantiqiy ziddiyatlar bilan real hayot ziddiyatlarini chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi subyektiv, ikkinchisi obyektiv ziddiyatdir.

Uchinchisi – istisno qonuni

Uchinchisi istisno qonuni Nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib, bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi yolg'on, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi.

Bu qonun fikrlar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda "Uchinchisi – istisno" qonuni amal qilmaydi.

Masalan: Bu dori shirin ta'mga ega.

Bu dori shirin ta'mga ega emas.

Ushbu misolda fikrning to'liq mazmuni qamrab olingan, ya'ni dori ta'miga ko'ra achchiq, nordon, sho'r, bemaza va h.k. bo'lishi mumkin. Lekin ularning hammasini ta'miga ko'ra "shirin emas" degan tushunchaga birlashtirdik. Yuqoridagi misolni boshqacha bayon qilamiz:

Bu dori shirin ta'mga ega.

Bu dori achchiq ta'mga ega.

Bu misolda fikr to'liq mazmuni bilan qamrab olinmagan. Shu bois unga nisbatan nozidlik qonuni qo'llanadi.

"Uchinchisi-istisno" qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

"Uchinchisi-istisno" qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki yolg'onligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi.

Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki yolg'on ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Etarli asos qonuni

To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri asoslilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun uni asoslash, isbotlashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak.

Etarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki,

mantiqiy asos hammavaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo'lishining obyektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalari, tushunchalar ta'rifi, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi. Shuningdek, asoslashning subyektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjud. Intuitsiya, e'tiqod, avtoritet va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalaniladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Bu qonunlarning talablari bir-birini to'ldirgan holda mantiqiy tafakkurning chin bo'lishini ta'minlaydi.

Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari

Tushuncha tafakkur shakllaridan biri sifatida til orqali ifodalanadi. Tushunchaning mohiyatini bilish uchun uning nom va so'z bilan qanday bog'liqligini aniqlab olamiz.

Inson buyum va hodisalar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun ularning nomlarini bilishi zarur. Olamdagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning, voqea va hodisalarning nomi bor. Nomlar

bilish va muloqotning zaruriy vositasidir. Buyum va hodisalarning nomi tilni mavjud voqelik bilan bog‘lab turadi. Faraz qiling, olamdagi hech bir narsaning nomini bilmasak, ular haqida tushunchaga ega bo‘lishimiz, fikr yuritishimiz mumkinmi?

Nom nima? U tushuncha bilan aynanmi?

Nom alohida predmetni yoki predmetlar gruhini belgilovchi til ifodasidir. Masalan: “Amur Temur” so‘zi temuriylar davlatining asoschisi bo‘lgan buyuk bobokalonimizning nomini bildiradi; “o‘qituvchi” so‘zi bilim beruvchi insonni, “qizil”so‘zi esa barcha buyumlardagi qizil rangni ifodalaydi. Nom tushuncha bilan aynanmi yoki yo‘qmi degan savolga javob berish uchun quyidagi rivoyatni taxlil qilamiz: Qadimda bir podsho “Hech kim bilmagan, hech kim ko‘rmagan g‘aroyib narsani topib kelgan yoki uning suratini chizgan odamga yarim davlatimni beraman”- deb farmon chiqaribdi. Odamlar g‘aroyib narsani topish uchun rosa harakat qilishibdi. Turli jismlarni, mavjudotlarning qismlarini birlashtirib hech kim bilmagan, hech kim ko‘rmagan narsani yasashga, suratini chizishga harakat qilishibdi. Lekin bu ishning uddasidan chiqa olishmabdi. Chunki ular yasagan, chizgan narsalarining o‘z nomi bo‘lmasa ham, bu narsalardagi qismlarning nomi (masalan, it boshli odam) bor ekan. Buyum va hodisalarga inson nom qo‘yadi va nom tufayli ular haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, nom til ifodasi bo‘lsa, tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha buyum va hodisalarning umumiy, muhim va farq qiluvchi belgilarini bir butun, yaxlit xolda aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Buyum va hodisalarning belgilari muloqot va fikr yurtish jarayonida biror predmetning vakili sifatida xizmat qiladigan belgilardan farq qiladi. Buyum va hodisalarning belgilari predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘xshashligini ifoda qiluvchi xususiyatlar va munosabatlarni ifodalovchi belgilardir. Masalan, savdo-sotiq bilan shug‘ullanish faqat insonga xos belgidir. Boshqa tirik mavjudotlar bunday faoliyat bilan shug‘ullanmaydilar.

Buyum va hodisalarning belgilari umumiy, muhim, farq qiluvchi turlarga bo‘linadi. Bir sinfga mansub bo‘lgan hamma predmetlarga xos bo‘lgan belgilar – umumiy belgilardir. Insonlar sinfi uchun qaddini tik tutib yurish, kulish va b. shunday belgilarga

misol bo‘ladi. Biror belgining o‘zgarishi yoki yo‘q bo‘lishi tushunchaning ham o‘zgarishi yoki yo‘q bo‘lishiga olib keladigan belgi muhim hisoblanadi. Inson uchun aqllilik (tafakkur qilish) muhim belgidir. Farq qiluvchi belgi predmetni o‘ziga o‘xshash boshqa predmetlar orasidan tanib olishga imkon beruvchi belgidir. Masalan, har bir inson o‘ziga xos individual belgilari bilan boshqalardan ajralib turadi. Demak, tushuncha ma’lum belgilariga ko‘ra bir to‘plamga birlashgan predmetlarning birligini ifodalaydi.

Tushuncha so‘z bilan uzviy bog‘liq. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning konkret tarzda namoyon bo‘lishidir. Tushunchalar so‘z (talaba, universitet, qog‘oz) va so‘z birikmalari (O‘zbekiston Milliy universitetining talabasi, O‘zbekiston Milliy universiteti, rangli qog‘oz) yordamida ifodalanadi. Lekin bundan tushuncha va so‘z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Ba’zi so‘zlar (ammo, chunki, uchun va h.k.) hech bir tushunchani ifodalamasligi ham buning sabablaridan biridir. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba’zan bir tilda ham turli xil so‘zlar bilan ifodalanadi. Tildagi omonim va sinonim so‘zlarning mavjudligi esa so‘z va tushunchaning aynan emasligidan dalolat beradi. Ayrim so‘zlarning ko‘p ma’noliligi ba’zan tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shu sababdan kundalik hayotda qo‘llanadigan til bilan ilmiy til bir-biridan farq qiladi. Ilmiy til tabiiy til, sun’iy til va maxsus termin (atama)lardan tashkil topadi.

Termin(atama)ilmning har bir sohasida predmetlarni belgilash uchun faqat bir ma’noda qo‘llaniladigan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Ilmiy tilda termin va tushuncha bir ma’noda qo‘llanadi.

Tushuncha va so‘z shakllanishiga ko‘ra ham bir-biridan farqlanadi. So‘zning shakllanishida so‘z yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etadi. Shuningdek, o‘zlashtirma (boshqa tillardan kirib kelgan) so‘zlar ham milliy tillarda yangi so‘zlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Tushuncha esa quyidagi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi:

Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning turlari.

Har bir tushuncha muayyan hajm va mazmunga ega. Tushunchaning hajmiunda fikr qilinayotgan predmetlar yig‘indisini aks ettiradi. Masalan. “orol” tushunchasining hajmi yer yuzidagi

mavjud barcha orollarni o‘z ichiga qamrab oladi. Tushunchani ifodalovchi so‘zda ko‘plik qo‘shimchasi “lar” bo‘lmasa ham, u umumiy xajmga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, inson, uy, davlat tushunchalari kabi.

Taqqoslash usulida predmetlarning sifat va xususiyatlari o‘zaro solishtirilib, tushuncha xosil qilinadi.
Analiz – tahlil yordamida predmet uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga fikrda ajratilib, har qaysinisi haqida alohida tushuncha hosil qilinadi.
Sintez usulida tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlar fikran birlashtirilib, predmet haqida tushuncha hosil qilinadi.
Abstraksiyalash, ya’ni mavhumlashtirish usuli yordamida predmetning sifat, hususiyatlari fikran ajratib olinib, tushunchada ifodalanadi.
Umumlashtirish usulida predmetlar umumiy, muhim xususiyatlariga ko‘ra sinflarga birlashtirilib, tushuncha hosil qilinadi.

Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to‘g‘risidagi axborot tashkil etadi. Masalan, “imij” tushunchasining mazmunini – odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyektga mos keladigan, idrok etilayotgan obyekt haqidagi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da’vat etadigan muayyan sintetik obraz haqidagi ma’lumot tashkil qiladi.

Hajmiga ko‘ra yakka va umumiy, ayiruvchi va to‘plovchi, shuningdek, bo‘sh hajmli tushunchalar farqlanadi:

Hajmiga ko‘ra tushuncha turlari	Misollar
Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi	“O‘zbekiston Respublikasi”, “Ko‘kaldosh madrasasi”
Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. Umumiy tushunchalarni aks ettiruvchi predmetlarning miqdori sanaladigan va sanalmaydigan bo‘lishi mumkin.	Inson, stol, shoir – sanalmaydigan umumiy tushunchalar. XIX asr o‘zbek shoiralari, Nobel mukofotini olganlar – sanaladigan umumiy tushunchalar.

Ayiruvchi tushuncha shunday sinf (umumiy) tushunchasiki, unda aks etgan belgilar shu sinfning har bir predmetiga xosdir.	Fan, non.
To‘plovchi tushuncha ham sinf (umumiy) tushunchasi bo‘lib, u aks ettirgan belgilar shu sinfni (umumiylikni) tashkil etuvchi har bir predmetga taalluqli bo‘lmaydi.	Qo‘shin, o‘rmon.
Bo‘sh hajmli tushuncha real voqelikda mavjud bo‘lmagan, lekin tushunchada ifodalanadigan buyum va hodisalarni aks ettiradi.	Uchar gilam, kentavr, simob dengizi.

Tushunchalarning mazmuni va hajmiga ko‘ra turlarini bilish fikrlash jarayonidagi noaniqliklarni bartaraf etishga, fikrni aniq va to‘g‘ri bayon qilishga yordam beradi. U yoki bu tushunchaning mazmuni va hajmiga ko‘ra qaysi turga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish deyiladi. Masalan:

Universitet - umumiy sanaladigan, to‘plovchi, aniq, musbat, nisbatsiz tushuncha.

Kentavr – bo‘sh hajmli, aniq, musbat, nisbatsiz tushuncha.

Bilimsiz – umumiy sanalmaydigan, mavhum, manfiy, nisbatdosh tushuncha.

Mazmuni bo‘yicha tushunchalar olti turga (konkret, abstrakt, musbat, manfiy, nisbatdosh, nisbatsiz) bo‘linadi:

Mazmuni bo‘yicha tushunchalarning turlari	Misollar
Konkret (aniq) tushunchalarda predmet o‘zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi.	uy”,“guldon”, traktor
Abstrakt (mavhum) tushunchalarda predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi.	“oq”,“bosim”, qo‘rquv”
Musbat (ijobiy) tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo‘lgan belgilar orqali fikr qilinadi.	“aqlli”,“uyli”, hunarmand”

Manfiy (salbiy) tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo‘lmagan belgilar orqali fikr qilinadi.	“aqlsiz bola”, “hayosiz odam”,“kuchsiz jangchi”, “foydasiz ish”
Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo‘lishini taqozo qiladigan, biri orqali boshqasini bilish mumkin bo‘lgan predmetlarni yoki ularning belgi va hususiyatlarini aks ettiradi.	“ustoz va shogird”, “qattiq va yumshoq”, “sevinch va qayg‘u”
Nisbatsiz tushunchalar zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo‘lishini taqozo qilmaydigan, nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo‘lgan predmetlarni aks ettiradi.	“ustoz va shogird”, “qattiq va yumshoq”, “sevinch va qayg‘u”

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik teskari nisbat qonunida ifodalanadi. Bu qonunga ko‘ra tushunchaning hajmi keng bo‘lsa, uning mazmuni tor bo‘ladi va aksincha, tushunchaning hajmi tor bo‘lsa mazmuni keng bo‘ladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuni tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar

Avval ko‘rib o‘tganimizdek, tushunchalar hajmiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ba’zilarining hajmi keng, boshqalariniki tor, ba’zilarining hajmi boshqalarining hajmiga kiradi va h.k. Shuningdek, mazmuniga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan (“talaba” va “hunarmand”) yoki juda uzoq bo‘lgan (“qalam” va “tog‘”) tushunchalar ham bor. Mazmuni biror umumiylikka ega bo‘lgan tushunchalarni o‘zaro taqqoslash mumkin, mazmuni bir-birdan uzoq bo‘lgan tushunchalarni esa taqqoslab bo‘lmaydi. Aytish mumkinki, ba’zi tushunchalar mazmuni va xajmiga ko‘ra yaqin bo‘lsa, boshqalari uzoq bo‘ladi.

Umumiy belgilarga ega bo‘lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalarga taqqoslanadigan tushunchalar deyiladi. Masalan, “kvadrat” va “romb”, “muhandis” va ”olim”

tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Bir-biri bilan uzoq aloqada bo‘lgan, ko‘p hollarda moddiy yoki ideal bo‘lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo‘lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalar taqqoslanmaydigan tushunchalardir. “Planeta” va “daraxt”, “baxt” va “non” tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar hisoblanadi. Taqqoslanmaydigan tushunchalarni taqqoslash albatta fikrning xato bo‘lishiga, noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi. Noto‘g‘ri, xato fikr xatti - xarakatlarning ham noto‘g‘ri bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Masalan, “baxt” va “qimmatbaho taqinchoq” tushunchalarini taqqoslab bo‘lmaydi. Shuning uchun insonning baxtli yoki baxtsiz bo‘lishi uning qimmatbaho taqinchoqqa ega ekanligiga bog‘liq emas.

Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlar o‘rganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar hajm jihatidan sig‘ishadigan va sig‘ishmaydigan bo‘ladi. Hajmi umumiy elementlarga ega bo‘lgan tushunchalar sig‘ishadigan tushunchalar bo‘lib, ularning hajmi bir-biriga butunlay, to‘laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o‘rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo‘ysunish.

Sig‘ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo‘lmagan tushunchalardir. Bu tushunchalar o‘rtasida ham uch xil: birga bo‘ysunish, qarama-qarshilik, zidlik munosabatlari mavjud.

Moslik munosabati	A – A.Navoiy. V – “Mahbub ul-qulub” asarining muallifi. A=V
Qisman moslik munosabati	A – deputat. V – huquqshunos. 
Bo‘ysunish munosabati	A – tarix. V – O‘zbekiston tarixi 

Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni bilish ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, aloqadorlik tomonlarini topishga yordam beradi. Masalan, “talaba” va “yoshlar yetakchisi” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash asosida “Ba’zi talabalar yoshlar yetakchisidir” degan mulohazani hosil qilish mumkin.

Birga bo‘ysunish munosabati	A – shifokor V – kardiolog S – endokrinolog	
Qarama-qarshilik munosabati	A – ta’m V – achchiq S – shirin A	
Zidlik munosabati	A – urush. V – adolatli urush. V – adolatsiz urush. A	

Tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun doiraviy ifodalardan foydalanib, quyidagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

1-misol.

A - geometrik figura



B – uchburchak
S – to‘rtburchak
D – kvadrat
E – teng yonli uchburchak

1- misolda birga bo‘ysinish va bo‘ysinish munosabatlari aks etgan: geometrik figura tushunchasi hajmiga uchburchak va to‘rtburchak tushunchalari va ularga bo‘ysinuvchi tushunchalar kiradi.

2-misol.
A – bobo
B – ota
S – o‘g‘il
D – o‘g‘il nabira



2-misoldagi tushunchalar bo‘ysinish munosabatida bo‘lib, ulardan o‘g‘il nabira tushunchasiming hajmi boshqa tushunchalarga nisbatan keng bo‘lgani uchun, qolgan tushunchalar unga bo‘ysinadi.

3-misol.
A – din
B – islom dini
S – musulmon



3-misolda din tushunchasiga islom dini tushunchasi bo‘ysunadi. Musulmon tushunchasi avvalgi ikki tushuncha bilan hajmiga ko‘ra umumiylikka ega bo‘lmagani uchun alohida doira bilan ifodalandi.

4-misol.
A – okean
B – dengiz
S – daryo
D – ko‘l



4-misoldagi har bir tushuncha bir-birini inkor qiladi: okean bu dengiz emas, daryo ko‘l emas, ko‘l okean emas va h.k. shuning uchun ham ular qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardir.

Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar. Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish

Tushunchani chegaralash – jins (hajmi keng) tushunchadan tur (hajmi tor) tushunchaga fikran o'tishdan iborat. Tushuncha chegaralanganda jins tushunchaning mazmuniga tur tushunchani hosil qiluvchi belgilar qo'shiladi. Masalan: Inson → ayol → o'zbek ayoli → o'zbek shoirasi → shoira Uvaysiy. Chegaralash amali yakka tushunchada to'xtaydi.

Tushunchani umumlashtirishtur (hajmi tor) tushunchadan jins (hajmi keng) tushunchaga fikran o'tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada, mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko'ra kengroq bo'lgan jins tushuncha hosil bo'ladi. Masalan: Olma daraxti → mevali daraxt → daraxt → o'simlik.

Umumlashtirish amali eng umumiy tushuncha – kategoriyalarda to'xtaydi. Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari ilmiy bilishda va kundalik turmushda keng qo'llaniladi.

Tushunchalarni ta'riflash (definitsiya). Har bir inson hayoti davomida tushunchalarning aniq ta'riflanishiga ehtiyoj sezadi, tushunchaning ta'rifiga asoslanib bilimga ega bo'ladi, voqea va hodisalarga nisbatan o'z munosabatini belgilaydi. Masalan, Majid Xavofiyning: "Sahiylik - bu (biror narsani) boshqa kishiga hech qanday yomonlikni niyat qilmay va tamagirlikni o'ylamay hamda shu narsaning qaytarilishiga umid bog'lamay tuhfa qilishdir,"- degan fikrini o'qib, sahiylik tushunchasining mazmunini bilib olamiz. Tushunchaning mazmunini aniqlash, unga ta'rif berish demakdir.

Ta'riflash – definitsiya tushunchaning mazmunini ochib beruvchi mantiqiy amaldir.

Biz kundalik hayotda va ilmiy bilishda qo'llaydigan tushunchalarning ta'riflari yuqoridagi usullar orqali hosil qilingan.

Ta'riflashning strukturasi	Aniqlanuvchi qism – mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha Aniqlovchi qism – aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar
Ta'riflashning turlari	
Nominal ta'rif- predmetni ifodalovchi tushunchaning ma'nosini aniqlovchi ta'rif.	
Aniq real ta'rif- predmetning muhim belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash	Aniq real ta'rifning 2 turi mavjud: 1. Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash; 2. Genetik ta'rif.
Noaniq real ta'rifda-tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi.	Noaniq real ta'rifning 3 turi mavjud: 1. Aksiomatik ta'rif. 2. Kontekstual ta'rif. 3. Induktiv ta'rif.
Ta'riflashning qoidalari	
1. Ta'rif teng xajmli bo'lishi kerak, ya'ni aniqlanuvchi va aniqlovchi tushunchalarning xajmlari o'zaro teng bo'lishi shart. 2. Ta'rif aniq bo'lishi kerak, unda obrazli iboralar, mazmuni noaniq so'zlar ishlatilmasligi kerak. 3. Ta'rif aylana shaklida bo'lib qolmasligi kerak, ya'ni aniqlovchi tushunchaning mazmunini aniqlash uchun aniqlanuvchi tushunchaning o'ziga murojaat qilish mumkin emas. 4. Ta'rif iloji boricha inkor shaklida bo'lmasligi kerak.	

Har bir fan doirasida qo'llaniladigan atamalar qat'iy ta'riflangan bo'lib, ilmiy jamoat tomonidan qabul qilingandir. Bu ta'riflarni subyektiv xohishga ko'ra o'zgartirish mumkin emas. Kundalik hayotda qo'llaniladigan tushunchalar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, insonning yoshi, shaxsiy tajribasi, bilimi, dunyoqarashi, ruhiy holati va b. ta'sirida o'zgarib turadi. Shu bois odamlar bir-birlarini tushunmasliklari, bir hodisaga nisbatan turli nuqtai nazardan yondashishlari mumkin. Bunday holatlarda tomonlar avvalo, bahsga sabab bo'layotgan tushunchalarning mazmunini, ya'ni ta'rifini aniqlab olishlari zarur.

Tushunchalarni bo‘lish

Har bir inson atrofidagi odamlar, voqea-hodisalar, buyumlar va b. ga o‘z munosabatini belgilar ekan, ularni toifalarga, qismlarga, turlarga bo‘ladi. Bunday bo‘lish uning tushunchalar olamida amalga oshadi. Inson fikr yuritish jarayonida tushunchalarni turli asoslarga ko‘ra bo‘ladi.

Ta’riflashga o‘xshash mantiqiy usullar:
1. Tushunchani unga qarama qarshi bo‘lgan tushuncha orqali ta’riflash. 2. Tasvirlash- tushunchaning mazmunini u aks ettiruvchi predmetning ba’zi tashqi belgilarini ko‘rsatish orqall aniqlash. 3. Tavsiflash - predmetning ba’zi bir munosabatdagi muhim tur belgilarini ko‘rsatish. 4. Ko‘rsatish (ostensiv ta’riflash) - predmetning o‘zini yoki suratini ko‘rsatish orqali ta’riflash. 5. Misol keltirib ta’riflash. Bunda ta’riflanayotgan predmetning mazmuni uni boshqa predmetga o‘xshatish, tafovutlash orqali aniqlanadi.

Tushunchani bo‘lish deb, tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlarga (ayrim predmetlarga) ajratish yo‘li bilan aniqlashga aytiladi.

Tasniflash (turkumlash, klassiflkatsiya) tushunchalarni bo‘lishning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda bo‘lish izchillik bilan amalga oshiriladi va bo‘lish a’zolarining har biri yana boshqa bo‘linmalarga ajratiladi. Bunda bo‘lish a’zolarining har biri boshqalariga nisbatan o‘zining aniq va qat’iy o‘rniga ega bo‘ladi. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, kataloglar va shu kabilarda o‘z aksini topadi.

Tasniflash predmetlarning muhim belgisiga ko‘ra amalga oshirilsa, tabiiy tasniflash deyiladi. Tabiiy tasniflash predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog‘lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Mendeleyev tuzgan kimyoviy elementlarning davriy jadvali tabiiy tasniflashning klassik namunasidir.

Bo‘lishning strukturasi	1. Bo‘linuvchi tushuncha- xajmi aniqlanishi lozim bo‘lgan tushuncha. 2. Bo‘lish asosi – predmetning tushunchada fikr qilinadigan birorta umumiy belgisi 3. Bo‘lish a’zolari – bo‘lish natijasida xosil qilinadigan tur tushunchalar.
Bo‘lishning turlari	
1. Asos bo‘lgan belgining o‘zgarishiga qarab bo‘lish	Masalan: Burchaklar- to‘g‘ri, o‘tkir va o‘tmas burchaklarga bo‘linadi.
2. Dixotomik bo‘lish	Masalan: Burchaklar o‘tkir yoki o‘tkir bo‘lmagan turlarga bo‘linadi.
Tushunchalarni bo‘lish qoidalari. 1. Bo‘lish teng hajmli bo‘lishi, ya’ni bo‘lish a’zolari hajmining yig‘indisi bo‘linuvchi tushuncha hajmiga teng bo‘lishi shart. 2. Bo‘lish bir asos bo‘yicha amalga oshirilishi shart, ya’ni asos qilib olingan belgi bo‘lish davomida o‘zgartirilmasligi zarur. 3. Bo‘lish a’zolari hajmi bo‘yicha bir-birini istisno qilishi shart. Ular o‘zaro birga bo‘ysunish munosabatida bo‘lishi zarur. 4. Bo‘lish uzluksiz amalga oshirilishi, ya’ni jins tushunchaga eng yaqin bo‘lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinishi shart.	

Sun’iy tasniflash predmetlarning birorta nomuhim, umumiy belgisiga ko‘ra amalga oshiriladi. Kutubxonadagi kitoblar katalogi, lug‘atlarda so‘zlarning muayyan tartibda berilishi sun’iy tasniflashga misol bo‘ladi. Sun’iy tasniflash bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Tasniflashda ham tushunchani bo‘lish qoidalariga amal qilish zarur.Tasniflar bilish va kundalik turmush jarayonida uzoq yillar davomida ishlatiladi, mavjud bilimlarimizni tizimga solish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Aql, tafakkur, mantiq, tafakkur shakli, tafakkur qonuni, nom, termin, tushuncha, oddiy tushuncha,murakkab tushuncha, jins, tur, tushunchani chegaralash, tushunchani umumlashtirish, tushunchani ta'riflash, tushunchani bo'lish.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1.Tafakkur qonuni nima?
2. Formal mantiqning predmetiga berilgan ta'rifni izohlang.
3.Tafakkur qanday qonunlarga bo'ysuna
4.Tafakkur qonunlarini bilmasdan ham to'g'ri fikrlash mumkinmi?
5.Tushunchani ifodalamaydigan so'zlar ham bormi?
6.Tushunchaning mazmuni va xajmining ta'rifini ayta olasizmi?
7.Ayiruvchi va to'plovchi tushunchalar o'rtasidagi farqni tushuntiring.
8.Taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni bir-biridan qanday farqlash mumkin?

Mavzuga oid test savollar

1. Formal mantiq nimani o'rganadi?
a) to'g'ri tafakkurlash shakllari va qonunlarini;
b) tafakkurning vujudga kelishini;
v) tafakkur taraqqiyotini;
g) fikrning konkret mazmunini;

2.Tushunchaning hajmida nima ifoda qilinadi?
a)tushunchada aks etgan predmetlar yig'indisi;
b) predmetning egallab turgan joyi;
v) miqdor jihatdan aniq bo'lgan predmetlar;
g) tushunchada aks etgan predmetlar mohiyatl;

3. Quyidagilardan qaysi birida tushunchalarni chegaralash amali to‘g‘ri bajarilgan?

a)siyosiy tashkilot- partiya- “Adolat” partiyasi;

b) Oliy o‘quv yurti- institut- fakul’tet;

v) Tinch okeani – Orol dengizi – Amudaryo;

g) Kitob – O‘quv qo‘llanma – darslik;

4. Bo‘lish teng hajmli bo‘lmaganda qanday hatolarga yo‘l qo‘yiladi?

a) A va V xollari vujudga keladi;

b) bo‘lish to‘liqsiz bo‘ladi;

v) bo‘lish ortiqcha bo‘ladi;

g) to‘g‘ri javob yo‘q;

11-MAVZU. MULOHAZA. XULOSA CHIQARISH.

Mulohaza tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi

Klassik formal mantiqda mulohaza tafakkur shakllaridan biri sifatida tushunchadan keyin o'rganiladi. Mantiqdan yozilgan xorij adabiyotlarining ba'zilarida esa tafakkur shakllarini o'rganish mulohazadan boshlanadi. Mulohaza bilan bog'liq masalalar doirasida tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. Xulosa chiqarish alohida o'rganiladi[1]. Tafakkurlash jarayonini bunday tartibda o'rganish insonning bolaligidan boshlab mulohaza ko'rinishida fikr yuritishi, uning tushunchalar olami keyin shakllanishi bilan asoslanadi. Shuningdek, faqat mulohazalargina "chin", "yolg'on" qiymatlariga ega bo'ladi. Tushunchalarga esa bunday qiymatni berib bo'lmaydi. Masalan, "yo'lbars yirtqich xayvon" mulohazasini "chin" deb, baholaymiz. "Yo'lbars" tushunchasini esa "chin" yoki "yolg'on" deb ayta olmaymiz, chunki unda biror fikr tasdiqlanmagan ham, inkor qilinmagan ham.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mulohazani chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin bo'lgan fikr yuritish shakli deb, ta'riflash mumkin.

Mulohazaning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog'lanishlarini hamda munosabatlarini bilib boramiz. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun ularni ifodalaydigan mulohazalar ham har xil bo'ladi. Ba'zi mulohazalarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Mulohazalar voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo'ladi.

---

[1] Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli, 2007. Restall G. Logic. An introduction.Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006.

Chinligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza chin bo‘ladi. YOlg‘onligi isbotlangan fikrni yolg‘on deb tasdiqlovchi mulohaza chin bo‘ladi.

Chinligi isbotlangan fikrni yolg‘on deb tasdiqlovchi mulohaza yolg‘on bo‘ladi. YOlg‘onligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza yolg‘on bo‘ladi.

Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo‘lmaydigan mulohazalar – noaniq bo‘ladi.

Mulohazalar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Mulohaza mantiqiy kategoriya bo‘lsa, gap grammatik kategoriyadir. Mulohazalar, asosan, darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor shaklda bo‘ladi va ular chin yoki yolg‘on qiymatlari bo‘yicha aniqlanadi.

Masalan, “Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasidir”, “Hiyonatkorlarning hech biri vijdonli emas” kabi gaplar mulohazani ifoda qiladi. Demak, mulohaza – predmetga ma’lum bir belgining (xossaning, munosabatning) xos yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Mulohaza tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko‘rsatish mumkin.Mantiqiy ega – fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi va fanda subyekt degan termin bilan ifodalanadi (simvolik belgisi - S). Mantiqiy kesim predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi va fanda predikat degan termin bilan ifodalanadi(simvolik belgisi - P). Mulohazaning subyekt va predikati uning terminlari deb ataladi. Mulohazaning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog‘lamadir. U subyekt va predikatni bir-biri bilan bog‘laydi, natijada mulohaza hosil bo‘ladi. Mulohazaning simvolik ifodalanishi:

S – P (tasdiq mulohaza), S – P emas (inkor mulohaza)

Mulohazalar tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab bo‘ladi.

Oddiy mulohaza tarkibidan yana bir mulohazani ajratib bo‘lmaydigan mulohazadir yoki bir subyekt va bir predikatdan tashkil topgan mulohazadir.

Tarkibidan ikki yoki undan ortiq mulohazani ajratish mumkin bo‘lgan mulohaza murakkab mulohaza deyiladi. Masalan, “Mantiq ilmini o‘rganish to‘g‘ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi”, degan

fikr oddiy mulohazani ifodalaydi. "Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi" - bu murakkab mulohazadir.

Oddiy mulohazalar ikki tamoyilga, ya'ni miqdori va sifatiga ko'ra tasniflanadi. 1- tamoyll. Miqdoriga ko'ra oddiy mulohazalar yakka, umumiy va juz'iy bo'ladi.

Oddiy mulohazalarni tasniflashning ikkinchi tamoyilibu ularning sifatidir, ya'ni tasdiq yoki inkor mazmunga ega bo'lishidir. Mulohazaning sifatini mantiqiy bog'lama belgilaydi. "Ba'zi ilonlar zaharlidir" mulohazasining predikatida subyekt haqidagi fikr tasdiqlanadi. Bunday mulohaza tasdiqlovchi deyiladi. "Hech bir riyo amal maqbul emas" mulohazasida subekt haqida nimadir inkor qilinadi. Bu inkor mulohaza deyiladi. Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va ularni mantiqiy tahlll qilishda oddiy mulohazalarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq mulohazalar. Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Hamma talabalar mantiq ilmini o'rganadilar." Bu mulohaza lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va "Hamma S – P dir" formulasi orqali ifodalanadi..

2. Umumiy inkor mulohazalar bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi." Bu mulohaza "Hech bir S – P emas" formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz'iy tasdiq mulohazalar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar mas'uliyatli." U lotincha Iharfi bilan belgilanadi va "Ba'zi S–Pdir" formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz'iy inkor mulohaza bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar tartibli emas." Uning formulasi "Ba'zi S–P emas" bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Ajratib ko'rsatuvchi va istisno qiluvchi mulohazalar

Shunday mulohazalar borki ularda nimadir ajratib ko'rsatiladi yoki istisno qilinadi. "Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi

musobaqada qatnashadi." Bu ajratib ko'rsatuvchi mulohazadir. "Davrada yaqinlarimdan boshqa boshqa hamma bor edi." Bu istisno qiluvchi mulohazadir.

Mulohazalar o'rtasidagi munosabatlar. Mulohazalar ham tushunchalar kabi taqqoslanuvchi (umumiy subyekt va predikatga ega bo'lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo'linadi. Taqqoslanadigan mulohazalar sig'ishadigan yoki sig'ishmaydigan bo'ladi. Mantiqda ikki mulohaza (r va q) dan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi zaruriy kelib chiqadigan bo'lsa, ular o'zaro sig'ishmaydigan mulohazalar deyiladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatida bo'ladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Sig'ishadigan mulohazalar aynan bir fikrni to'liq yoki qisman ifodalaydi. Sig'ishadigan mulohazalar o'zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo'ysunish va qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo'ladi. Bu munosabatlarni quyidagi misollarda taxlil qilamiz:

Masalan, 1-misol. A_1. "Hamma o'simliklar shifobaxshdir."

Bu umumiy tasdiq mulohaza bo'lib, uni umumiy inkor, juz'iy tasdiq va juz'iy inkor mulohaza ko'rinishlarida quyidagicha ifodalaymiz:

E_1. Hech bir o'simlik shifobaxsh emas.

I_1. Ba'zi o'simliklar shifobaxshdir.

O_1. Ba'zi o'simliklar shifobaxsh emas.

Tajribamiz va bilimimizga asoslanib, yuqoridagi mulohazalardan faqat I va O mulohazalarni chin deb baholashimiz mumkin.

2- misol:

A_2. Har bir jamiyat o'z axloqiy normalariga ega.

E_2. Hech bir jamiyat o'z axloqiy normalariga ega emas.

I_2. Ba'zi jamiyatlar o'z axloqiy normalariga ega.

O_2. Ba'zi jamiyatlar o'z axloqiy normalariga ega emas.

Mantiq ilmida mulohazalarning chinligini aniqlash uchun ular o'rtasidagi munosabatlarga asoslaniladi:

1. Qarama-qarshilik munosabati mazmuniga ko'ra turlicha bo'lgan umumiy mulohazalar o'rtasida mavjud bo'lib, bu munosabatga ko'ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Bu mulohazalar (A_1 va ye_1) bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; agar

ulardan birining chinligi aniq bo'lsa (A_2), unda boshqasi xato bo'ladi (E_2).

2. Zidlik (kontradiktor) munosabati mazmuni va hajmiga ko'ra turlicha bo'lgan mulohazalar (1- misolda: A_1 va $O_{1, ye1}$ va I_1; 2-misolda: A_2va O_2, ye_2 va I_2.) o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu mulohazalarning har ikkisi bir vaqtda chin ham, xato ham bo'lmaydi. Ulardan biri hamma vaqt chin, boshqasi esa xato bo'ladi. 1-misolda A_1 – yolg'on, O_1-chin va ye_1– yolg'on, I_1 - chin mulohazalardir;

2-misolda A_2- chin, O_2 – yolg'on va ye_2 - yolg'on, I_2- chin mulohazalardir.

3. Bo'ysunish munosabati sig'ishadigan mulohazalardan mazmuni bir xil, hajmi turli xil bo'lgan mulohazalar o'rtasida bo'ladi. Bunda umumiy mulohazalar bo'ysundiruvchi, juz'iy mulohazalar bo'ysunuvchi bo'ladi. Bo'ysunish munosabatida umumiy mulohazalar chin bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juz'iy mulohazalar ham chin bo'ladi. Lekin juz'iy mulohazalar chin bo'lganda, umumiy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi. Agar umumiy mulohazalar xato bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juz'iy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi.

Yuqoridagi 1- misolda A_1– xato, I_1 – chin; ye_1 – xato, O_1 – chin bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, umumiy mulohazalar xato bo'lsa, juz'iy mulohazalar chin bo'lishi mumkin.

2- misolimizda A_2– mulohaza chin bo'lgani uchun unga bo'ysinuvchi I_2 mulohaza – chin; ye_2 - mulohaza xato bo'lgani uchun unga bo'ysinuvchi O_2 mulohaza ham xato bo'ldi.

4. Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har xil bo'lgan juz'iy mulohazalar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu mulohazalar bir vaqtda chin bo'lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, unda boshqasi, albatta, chin bo'ladi. Yuqoridagi 1- misolimizda I_1- va O_1- mulohazalar bir vaqtda chin bo'lsa, 2-misolimizda O_2 – mulohazaning xatoligi aniq bo'lgani uchun I_2 – mulohaza chindir.

Ekvivalentlik munosabatidagi mulohazalar hamma vaqt chin bo'ladi, chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, "A. Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifi" va "A. Oripov – O'zbekiston Qahramoni" mulohazalari

o‘zaro ekvivalentdir, ya’ni ular bir xil subyektga, lekin har xil predikatga ega bo‘lgan mulohazalardir.



Mulohazalarning chinligiga ko‘ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko‘rsatilgan qonuniyatlar bilishda va xulosa chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Oddiy va murakkab mulohazalar, ularning turlari. Murakkab mulohazalarning chin bo‘lish shartlari

Mulohaza tarkibidagi mantiqiy ega va/yoki mantiqiy kesimni ifodalovchi terminlar soni birdan ortiq bo‘lsa, murakkab mulohaza deb ataladi. Murakkab mulohazalar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog‘lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo‘llash orqali ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladi. Mantiqiy bog‘lovchisining mazmuniga ko‘ra murakkab mulohazalar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: birlashtiruvchi (kon’yunktiv), ayiruvchi (dizyunktiv), shartli (implikativ), ekvivalent.

Birlashtiruvchi) mulohazalar ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog‘lovchilar vositasida birikishidan hosil bo‘ladi. Masalan, 1.Ustozining bergan topshiriqlarini bajardi va a’lo baho oldi. 2. Yaxshi niyat va yaxshi

so‘z insonni saodatga yetaklaydi. 3. Mantiq ham amaliy, ham nazariy fandir.

O‘zbek tilida birlashtiruvchi mulohazalar «ammo», «lekin», «biroq» kabi bog‘lovchilar va bog‘lovchilarsiz ohang vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog‘lamalar kon’yunksiya belgisi “∧” (&) orqali ifodalanadi. Formulasi: Kon’yunktiv (birlashtiruvchi) mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalarni “r” va “q” shartli belgilari bilan belgilasak, ular orasiga kon’yunksiya belgisini “∧” (&) qo‘ysak, unda bu mulohaza r ∧q(p &q) formulasi orqali ifodalanadi. Kon’yunktiv mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar chin yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy mulohazalar chin bo‘lsa, birlashtiruvchi mulohaza ham chin bo‘ladi. Boshqa hamma holatlarda esa yolg‘on bo‘ladi[1]. Masalan, “Yolg‘on gapirish va o‘g‘irlik qilish jinoyatdir” mulohazasidagi birinchi oddiy gap “Yolg‘on gapirish jinoyatdir” chin bo‘lmaganligi uchun bu mulohaza chin bo‘lmaydi.

Kon’yunktiv mulohazaning chinlik tablitsasi

r	q	r ∧q
chin	chin	chin
chin	yolg‘on	yolg‘on
yolg‘on	chin	yolg‘on
yolg‘on	yolg‘on	yolg‘on

Ayiruvchi mulohaza deb «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog‘lovchilar vositasida bog‘langan oddiy mulohazalarga aytiladi. Bu bog‘lovchilar ikki oddiy mulohaza, bir qancha predikatlar yoki bir qancha subyektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan: “Nodira ingliz tilini yoki nemis tilini yoki ispan tilini o‘rganadi”. “Konsertda birinchi yoki ikkinchi qatorda o‘tiramiz”. Ayiruvchi (diz’yunktiv) mulohazalar oddiy va qat’iy turlarga bo‘linadi. Oddiy ayiruvchi mulohaza tarkibidagi mulohazalardan biri yoki hammasi chin bo‘lishi mumkin, qat’iy ayiruvchi mulohazada esa tarkibidagi mulohazalardan faqat bittasi chin bo‘ladi. Masalan: “A.Avloniy shoir yoki dramaturgdir.” Bu - oddiy ayiruvchi mulohaza. “Abdullayev

[1] Look: Restall G. Logic. An introduction.Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.14.

musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi." Bu - qat'iy ayiruvchi mulohaza. Oddiy diz'yunksiya "∨", qat'iy diz'yunksiya "⩒" belgisi bilan ifodalanadi. Oddiy diz'yunktiv mulohaza p ∨ q formulasi bilan, qat'iy diz'yunktiv mulohaza p ⩒ q formulasi bilan belgilanadi.

Diz'yunktiv mulohazaning chinlik tablitsasi

P	Q	p ∨ q	p⩒ q
Chin	Chin	chin	yolg'on
Chin	Yolg'on	chin	chin
Yolg'on	Chin	chin	chin
Yolg'on	Yolg'on	yolg'on	yolg'on

Shartli mulohaza ikki oddiy mulohazaning «agar... unda» mantiqiy bog'lovchi orqali birikishidan tashkil topadi. Shartli mulohazaning mohiyatini aniqlash uchun "zaruriy va yetarli shart" tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb, uning mavjudligini ta'minlaydigan holatga aytiladi. Agar hodisaning sharti zaruriy bo'lmasa, hodisa ham bo'lmaydi. Masalan, "Agar o'simlik suvsiz qolsa, u quriydi".

Shartli mulohaza tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. Shartli mulohazaning «agar» va «unda» so'zlari oralig'idagi qismi – asos (antetsedent), «unda» so'zidan keyingi qismi – natija (konsekvent) deb ataladi. Mulohaza qismlarining bunday nomlanishiga sabab ularning turli vazifalarni bajarishlari bilan bog'liq. Agar bu qismlarning o'rni almashsa, mulohaza ham o'zgaradi.[1] "Agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi ho'l bo'ladi" mulohazacida «yomg'ir yog'sa» – asos, «uylarning tomi ho'l bo'ladi» – natija hisoblanadi. Demak, asosda ko'rsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun yetarli shartni ifodalagan mulohaza shartli mulohaza deyiladi.

Implikativ mulohazalardagi «agar ... unda» mantiqiy bog'lamasi "→" belgi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon mantiq ilmida esa ba'zan (⊃) simvoli bilan belgilanadi. Bu simvollar moddiy implikatsiya belgisi deb ataladi. Implikativ mulohazaning formulasi: p →q.

[1] Look: Restall G. Logic. An introduction.Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.17.

Implikativ mulohaza asosi – chin, natijasi – yolg‘on bo‘lgan holatdan boshqa hamma ko‘rinishlarda chin bo‘ladi.

Implikativ mulohazaning chinlik jadvali

p	q	p →q
chin	chin	chin
chin	yolg‘on	yolg‘on
yolg‘on	chin	chin
yolg‘on	yolg‘on	chin

Ekvivalentlik mulohazalari «agar va faqat agar ... unda» mantiqiy bog‘lovchisi yordamida ikki oddiy mulohazaning o‘zaro bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik mulohazasi shartli mulohaza ko‘rinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli mulohazaning ekvivalent mulohaza ekanligini aniqlash zarur bo‘ladi. Agar shartli mulohazaning asosi natijada qayd etilgan fikr uchun zaruriy va yetarli shart hisoblansa, unda bu mulohaza ekvivalent mulohaza bo‘ladi. Ekvivalent mulohazaning mantiqiy bog‘lovchisi (≡) yoki (↔) simvoli, ya’ni (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent mulohazaning formulasi quyidagicha yoziladi:p ↔ q. Bu mulohazani ikki qismga ajratish mumkin: p → q&q→p. Masalan, Agar berilgan butun son juft son bo‘lsa, unda u ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.

Ekvivalent mulohazaning asosi va natijasi chin bo‘lganda yokiasosi ham, natijasi ham yolg‘on bo‘lganda,u chin hisoblanadi. Shartli va ekvivalent mulohazani bir-biridan farqlash uchun asos va natijaning o‘rni almashtirib ko‘riladi. Agar natija bo‘lgan mulohaza asos mulohaza uchun sabab bo‘lmasa, u holatda ekvivalent mulohaza bo‘lolmaydi.[1] Quyidagi shartli mulohazaning asos va natija qismlarini o‘zgartiramiz: “Agar insonning fikr doirasi keng bo‘lsa, unda u ko‘p mutoala qilgan bo‘ladi.” “Agar inson ko‘p mutoala qilgan bo‘lsa, unda uning fikr doirasi keng bo‘ladi.” Inson fikr doirasining keng bo‘lishi faqat ko‘p mutoala qilishiga emas, balki

[1] Look: Restall G. Logic. An introduction.Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

hayot tajribasiga, tafakkurlash qobiliyatiga ham bog‘liq. Demak, berilgan mulohaza ekvivalent mulohaza emas.

Ekvivalent mulohazaning chinlik jadvali

p	q	$p \leftrightarrow q$
chin	chin	chin
chin	yolg‘on	yolg‘on
yolg‘on	chin	yolg‘on
yolg‘on	yolg‘on	chin

Murakkab mulohazalarning chin bo‘lish shartlarini bilish, fikrlarning chin yoki xatoligini aniqlash bilan birga, bu mulohazalar asosida to‘g‘ri xulosa chiqarishga hamda xulosa chiqarishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashga imkon beradi.

Mulohazalarning inkor qilinishi. Mulohazalarni inkor qilish muhim mantiqiy amallardan bo‘lib, u orqali yangi mulohazalar (inkor mulohazadan tasdiq mulohaza va tasdiq mulohazadan inkor mulohaza) hosil qilinadi.

Ikki mulohaza bir-biriga zid bo‘lib, ulardan biri albatta chin, boshqasi yolg‘on bo‘lsa, bu mulohazalar bir-birini inkor qiluvchi mulohazalar bo‘ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza chin bo‘lsa, inkor qilayotgan mulohaza yolg‘on bo‘ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza (p) yolg‘on bo‘lsa, inkor qilayotgan mulohaza (p) chin bo‘ladi[1]. ($\neg$ - inkor belgisi).

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Mantiqiy ergashish tushunchasi. Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

[1] Look: Restall G. Logic. An introduction.Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

Xulosa chiqarish – bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir.

Xulosa chiqarish asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tish jarayonidan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalardan iborat bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak. Masalan, "Ibn Sino "Donishnoma" asarini yozgan" va "Pifagor matematik bo'lgan" degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, "Do'stlarim sport bilan shug'ullanadilar" degan mulohazadan "Do'stlarim sport masteri" deb, xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Demak, xulosa chiqarishning tuzilishi uch elementdan iborat: xulosa asoslari, xulosa va mantiqiy ergashish (xulosa asoslarining o'zaro mantiqiy aloqadorligi va xulosa asoslari bilan xulosaning mantiqiy aloqadorligi).

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra zaruriy va ehtimoliy; xulosa asoslarining soniga ko'ra bir asosli (bevosita) va ko'p asosli (bavosita); fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra deduktiv, induktiv, analogiya kabi turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyani hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

DEDUKTIV XULOSA CHIQARISH. Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati - unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni subyekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. Aylantirish (lot.–obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi.[1] Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo'sh inkor sodir bo'ladi, ya'ni avval asosning predikati, keyin bog'lovchisi inkor etiladi.

Aylantirishga misol:

A. Hamma shifokorlar oliy tibbiy ma'lumotga ega.

E. Shifokor bo'lganlarning hech biri oliy tibbiy ma'lumotsiz emas.

E. Hech bir yolg'onchi rostgo'y emas.

A. Hamma yolg'onchi bo'lmaganlar rostgo'ydir.

I.Ba'zi yo'llar uzundir.

O. Ba'zi yo'llar qisqa emas.

O. Ba'zi jumlalar tushunarli emas.

I. Ba'zi jumlalar tushunarsizdir.

Almashtirish (lot.–conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subyekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi:[2]

Juz'iy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Almashtirishga misol:

1-misol. A. Hamma shifokorlar oliy ma'lumotlidir.

I. Ba'zi oliy ma'lumotlilar shifokorlardir.

2-misol. ye. Hech bir inson tosh emas.

ye. Hech bir tosh inson emas.

3-misol. I. Ba'zi yoshlar tadbirkordir.

I. Ba'zi tadbirkorlar yoshlardir.

---

[1] Look:Morri s R . Cohen Ernes t N a g e l an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P59.

[2] Look:Morri s R . Cohen Ernes t N a g e l an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P 58.

4- misol. A. Hamma odamlar jonli mavjudotdir.

I. Ba'zi jonli mavjudotlar odamlardir

5-misol. I. Ba'zi san'atkorlar qo'shiqchidir.

A. Hamma qo'shiqchilar san'atkordir.

Demak, almashtirish usuli qo'llanganda mulohazadagi subyekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlar o'rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Predikatga qarama-qarshi qo'yish (lot.– contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo'lib, bu usul qo'llanganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so'ngra almashtiriladi. Natijada hosil bo'lgan mulohazaning (xulosaning) subyekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subyektiga mos bo'ladi.

Masalan:

A. Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar.

E. Islom diniga e'tiqod qilmaydiganlarning hech biri musulmon emas.

Juz'iy tasdiq mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo'yish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki, juz'iy tasdiq mulohazani aylantirsak juz'iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Sillogizm.

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. "Sillogizm" so'zi qo'shib hisoblash, degan ma'noniberadi. Bu termin mantiq fanida, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifodalashda qo'llaniladi.

Sillogizm o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi – yangi qat'iy mulohazani zaruriy tarzda keltirib chiqaruvchixulosa chiqarish usulidir. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hamma baliqlar suvda yashaydi.

Sazan – baliq.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – Sazanlar suvda yashaydi, degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conslusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar terminlar deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S– kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – katta termin (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) o'rta termin deb ataladi. Asoslarda katta terminni o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi. Demak, asoslarning katta yoki kichik asos deb ajratillshi ularning qanday ketma-ketlikda kelishiga bog'liq emas.

S – kichik termin;
M – o'rta termin;
R – katta termin.



O'rta termin katta va kichik terminni bog'lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbot talab qilmaydigan, isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasi mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to‘g‘risida bildirilgan tasdiq yoki inkor fikr shu sinf tarkibidagi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrimlar ham taalluqli fikr hisoblanadi.

Masalan:

Hamma odamlar tirik mavjudotdir.

Hamma talabalar odamlardir.

Hamma talabalar tirik mavjudotdir.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo‘lgan narsalar buyum, hodisaning o‘ziga ham ziddir.

Sillogizmning qoidalari.

Xulosa asoslarining chin bo‘lishi xulosaning chin bo‘lishi uchun yetarli emas. Xulosa chin bo‘lishi uchun muayyan qoidalarga amal qilish ham zarur.[1] Bular:

- Har bir oddiy qat’iy sillogizmdafaqat uchta termin (katta, kichik va o‘rta termin) bo‘ladi.
- O‘rta termin hech bo‘lmaganda sillogizm asoslaridan birida to‘la hajmda olinishi kerak.
- Katta va kichik terminlar asoslarda qanday hajmda olingan bo‘lsa, xulosada ham shunday hajmda bo‘lishi kerak.
- Sillogizm asoslaridan biri inkor mazmunda bo‘lsa, xulosasi ham inkor mazmunda bo‘ladi.
- Sillogizm asoslarining har ikkisi inkor mulohaza bo‘lsa, ulardan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

[1] Логика. Учебник для бакалавров. Под ред. А.И.Мигунова, И.Б.Микиртумова, Б.И.Федорова. - Москва: Проспект, 2015. С.161.

➢ Sillogizm asoslaridan biri juz'iy hukm bo'lsa, xulosa ham juz'iy bo'ladi.

➢ Sillogizm asoslarining har ikkisi juz'iy mulohaza bo'lsa, ulardan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

➢ Sillogizmning har ikki asosi tasdiq mulohaza bo'lsa, xulosa ham tasdiq mulohaza bo'ladi.

Sillogizm figuralari va moduslari

Sillogizmlar bir-biridan 1) o'rta terminning joylashishiga qarab va 2) asoslar va xulosadagi mulohazaning miqdori va sifatiga ko'ra farq qiladi. O'rta terminning o'rni sillogizmning figurasini belgilab beradi.

I figurada o'rta termin katta asosning subyekti, kichik asosning predikati bo'lib keladi. II figurada o'rta termin katta va kichik asoslarning predikati bo'lib keladi.III figurada o'rta termin har ikki asosning subyekti bo'lib keladi.IV figurada o'rta termin katta asosning predikati, kichik asosning subyekti bo'lib keladi.[1]

Ifigura	II figuraIII figura	IVfigura	
M_____P	P_____M	M_____P	P_____M
S_____M	S_____M	M_____S	M_____S
S – P	S – P	S – P	S - P

Sillogizm asoslari oddiy qat'iy mulohazalardan iborat. Bu mulohazalarning ikki asos va xulosada o'ziga xos tartibda (to'plamda) kelishi modus deb ataladi. «Modus» – shakl degan ma'noni anglatadi. Sillogizm figuralarining o'ziga xos shakllari mavjud. Har bir figuraning to'g'ri shakllarini aniqlab, to'g'ri xulosa chiqarishda sillogizmning umumiy qoidalari bilan birga har bir figuraning maxsus qoidalariga ham amal qilinadi. Figuralarning maxsus qoidalari sillogizm terminlarining o'ziga xos bog'lanishi asosida aniqlanadi.

Oddiy qat'iy sillogizmning birinchi figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

➢ Katta asos umumiy mulohaza bo'lishi kerak.

➢ Kichik asos tasdiq mulohaza bo'lishi kerak.

[1] Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli, 2007. p.82

I figuraning to‘rtta to‘g‘ri modusi mavjud:

AAA-Barbara, EAE-Celarent, AII-Darii, EIO-Ferio.[1]

Moduslarning birinchi harfi katta asosning, ikkinchi harfi-kichik asosning, uchinchi harfi xulosaning sifat va miqdorini ko‘rsatadi. Figuralarning moduslarini bir-biridan farqlash maqsadida ularning har biri alohida nom bilan ataladi.

Har ikki asosi va xulosasi umumiy tasdiq mulohaza bo‘lgan AAA-Barbara shakli.

A. Hamma juft sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.

A. Hamma nol bilan tugagan sonlar – juft sonlardir

A. Hamma nol bilan tugagan sonlar ikkiga qoldiqsiz bo‘linadi.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan EAE-Celarent shakli.

E. Hech bir ma’ruza ko‘chirilgan emas.

A. Majlisdagi hamma nutqlar ma’ruzadir.

E. Majlisdagi hech bir nutq ko‘chirllgan emas.

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi juz’iy tasdiq mulohaza bo‘lgan AII-Darii shakli.

A. Hamma avtobuslar tasdiqlangan grafik bo‘yicha yuradi.

I.Shahar transportining katta qismi – avtobuslardir.

I.Shahar transportining katta qismi tasdiqlangan grafik bo‘yicha yuradi.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juz’iy tasdiq, xulosasi juz’iy inkor mulohaza bo‘lgan EIO-Ferio shakli.

E. Hech bir transport vositasi yoqilg‘isiz yurmaydi.

I. Ba’zi boshqariladigan texnik qurilmalar – transport vositasidir.

I. Ba’zi boshqariladigan texnik qurilmalar yoqilg‘isiz yurmaydi.

Sillogizmning I figurasida oddiy qat’iy hukmlarning barcha turlari bo‘yicha hulosalar beriladi.

Oddiy qat’iy sillogizmning II figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

- Katta asos umumiy mulohaza bo‘lishi kerak.

[1] Look:Morri s R . Cohen Ernes t N a g e l an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.84

➢ Asoslar bir-biridan sifatiga ko‘ra farqlanishi kerak.

II figuraning to‘rtta to‘g‘ri modusi mavjud:

AEE-Camestres, EAE-Cesare, AOO-Baroko, EIO-Festino.[1]

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan AEE-Camestres shakli. Misol:

A. Hamma savollar so‘roq gap orqali ifodalanadi.

E. Hech bir farmon so‘roq gap orqali ifodalanmaydi.

E. Hech bir farmon savol emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan EAE-Cesare shakli. Misol:

E. Hech bir daftar kitob emas.

A. Hamma o‘quv qo‘llanmalar kitobdir.

E. Hech bir o‘quv qo‘llanma daftar emas

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi juz’iy inkor mulohaza bo‘lgan AOO-Baroko shakli. Misol:

A. Hamma tarixiy yodgorliklar davlat muhofazasidadir.

O. Ba’zi turar joylar davlat muhofazasida emas.

O. Ba’zi turar joylar tarixiy yodgorlik emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juz’iy tasdiq, xulosasi juz’iy inkor mulohaza bo‘lgan EIO-Festino shakli. Misol:

E. Hech bir olim shuxratparast emas.

I. Ba’zi amaldorlar shuxratparastdir.

O. Ba’zi amaldorlar olim emas.

Sillogizm II figurasidan faqat inkor mulohaza ko‘rinishida xulosa chiqariladi.

Oddiy qat’iy sillogizm III figurasining maxsus qoidalari:

➢ Kichik asos tasdiq mulohaza bo‘lishi kerak.

➢ Xulosa juz’iy mulohaza bo‘lishi kerak.

III figuraning to‘g‘ri moduslari oltita:

AAI-Darapti, AII-Datasi, IAI-Disamis, EAO-Felapton, EIO-Ferision,OAO-Bokardo.[2]

Katta va kichik asoslari umumiy tasdiq , xulosasi juz’iy tasdiq mulohaza bo‘lgan AAI-Darapti shakli. Misol:

[1] Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.85.

[2] Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.85-86.

Hamma mantiqshunoslar faylasufdir.

Hamma mantiqshunoslar – ilmli kishilardir.

Ba'zi ilmli kishilar faylasufdir.

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi juz'iy tasdiq mulohaza bo'lgan AII-Datasi shakli. Misol:

Hamma o'quv qo'llanmalar fan dasturiga mos yozilgan.

Ba'zi o'quv qo'llanmalar bilim olishga ko'maklashadi.

Ba'zi bilim olishga ko'maklashadiganlar fan dasturiga mos yozilgan.

Katta asosi juz'iy tasdiq, kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juz'iy tasdiq mulohaza bo'lgan IAI-Disamis shakli. Misol:

Ba'zi metallardan qimmatbaho buyumlar yasaladi.

Hamma metallar qattiq jismlardir.

Ba'zi qattiq jismlardan qimmatbaho buyumlar yasaladi.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi juz'iy inkor mulohaza bo'lgan EAO-Felapton shakli. Misol:

Hech bir sahiy xasis emas.

Hamma sahiy insonlar mehribon bo'ladilar.

Ba'zi mehribon bo'lganlar xasis emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juz'iy tasdiq, xulosasi juz'iy inkor mulohaza bo'lgan EIO-Ferision shakli. Misol:

E. Hech bir baliq kit emas.

I.Ba'zi baliqlar sun'iy ko'paytiriladi.

O. Ba'zi sun'iy ko'paytiriladiganlar kit emas.

Katta asosi juz'iy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq, xulosasi juz'iy inkor mulohaza bo'lgan OAO-Bokardo shakli. Misol:

O.Ba'zi o'simliklar ko'p yillik emas.

A. Hamma o'simliklar tirik mavjudotdir.

O. Ba'zi tirik mavjudotlar ko'p yillik emas.

III figuraning xulosalari faqat juz'iy hukmdan iborat bo'ladi

Oddiy qat'iy sillogizmning IV figurasi quyidagi maxsus qoidalarga ega:

- Asoslarning biri inkor mulohaza bo'lsa, katta asos umumiy mulohaza bo'ladi.
- Katta asos tasdiq mulohaza bo'lsa, kichik asos umumiy mulohaza bo'ladi.

IV figuraning beshta to‘g‘ri modusi mavjud:

AAI-Bramalip, AEE-Camenes, IAI-Dimaris, EAO-Fesapo, EIO-Fresison.

Katta va kichik asoslari umumiy tasdiq , xulosasi juz’iy tasdiq mulohaza bo‘lgan AAI-Bramalip shakli. Misol:

A. Halol odamlarning hammasi vijdonlidir.

A. Hamma vijdonlilar adolatli kishilardir.

I. Ba’zi adolatli kishilar halol odamlardir.

Katta asosi umumiy tasdiq, kichik asosi va xulosasi umumiy inkor mulohaza bo‘lgan AEE-Camenes shakli. Misol:

A. Hamma zamonaviy ko‘priklar metaldan yasalgan.

E. Metaldan yasalgan buyumlarning hech biri mo‘rt emas.

E. Zamonaviy ko‘priklarning hech biri mo‘rt emas.

Katta asosi juz’iy tasdiq, kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juz’iy tasdiq mulohaza bo‘lgan IAI-Dimaris shakli. Misol:

I.Milliy teatrning ba’zi akterlari kinoda ham rol o‘ynaydi.

A. Kinoda rol o‘ynaydiganlarning hammasi el nazariga tushadi.

I. El nazariga tushganlarning ba’zilari Milliy teatrdandir.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi umumiy tasdiq va xulosasi juz’iy inkor mulohaza bo‘lgan EAO-Fesapo shakli. Misol:

E. Hech bir fan doktori assistent emas.

A. Assistent bo‘lganlarning hammasi dissertatsiya yoqlaydi.

O. Ba’zi dissertatsiya yoqlaydiganlar fan doktori emas.

Katta asosi umumiy inkor, kichik asosi juz’iy tasdiq va xulosasi juz’iy inkor mulohaza bo‘lgan EIO-Fresison shakli. Misol: ye.Hech bir fan doktori assistent emas.

I. Ba’zi assistentlar talabalarga dars beradilar.

O. Ba’zi talabalarga dars beradiganlar fan doktori emas.

Sillogizmning IV figurasi umumiy tasdiq hukm ko‘rinishidagi xulosani bermaydi.

Arastudan boshlab barcha mantiqshunoslar sillogizmning I figurasi va uning moduslariga katta e’tibor berganlar. Ular I figurani mukammal, deb bilganlar, uning xulosalarini aniq va yaqqol, deb hisoblaganlar.

Entimema (qisqartirilgan qat'iy sillogizm)

Insonning fikr yuritish jarayoni ko'proq entimema ko'rinishida amalga oshadi. Masalan, "U talaba bo'lgani uchun, stipendiya oladi", "Birodarim e'tiqodda sobit, shuning uchun unga ishonsa bo'ladi." Entimema deb, asoslaridan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. Entimema so'zi – aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Zarur bo'lganda uni topib, o'rniga qo'ygan holda entimemadan to'la sillogizmni tiklash mumkin.

Entimemalar uch turli bo'ladi:

1- tartibli, ya'ni katta asosi tushirib qoldirilgan.

2- tartibli, ya'ni kichik asosi tushirib qoldirilgan.

3- tartibli ya'ni, xulosasi tushirib qoldirilgan.[1]

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:

Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi.

Bu o'quvchi matematikani biladi.

Bu o'quvchi masalaning javobini to'g'ri topadi.

Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:

1. Bu o'quvchi matematikani bilgani uchun, masalaning javobini to'g'ri topadi (katta asos tushirib qoldirildi).

2. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi. shuning uchunbu o'quvchi masalaning javobini to'g'ri topadi (kichik asos tushirib qoldirildi).

3. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi, jumladan bu o'quvchi ham (xulosa tushirib qoldirildi).

Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayoni va notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.

Murakkab mulohazalardan xulosa chiqarish.

Murakkab mulohazalarga asoslangan deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslariga mantiqiy bog'lovchilar orqali bog'langan oddiy mulohazalar deb qaraladi. Xulosa asoslari yo shartli, yoki ayiruvchi, yoki ham shartli, ham ayiruvchi mulohaza ko'rinishida bo'lishi mumkin. Asoslardagi mulohazalarning turiga ko'ra bunday xulosa chiqarishning quyidagi shakllari mavjud:

[1] Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic ... New Dehli. 2007. p.78.

I. Shartli xulosa chiqarish.

II. Ayiruvchi xulosa chiqarish.

III. Shartli-ayiruvchi xulosa chiqarish.

I.Shartli xulosa chiqarish deb har ikki asosi yoki asoslaridan biri shartli mulohaza bo'lgan sillogizmga aytiladi. Ular sof shartli va shartli-qat'iy turlarga bo'linadi.

Sof shartli xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi shartli mulohaza bo'lgan sillogizmga aytiladi. Uning formulasi quyidagicha:

1) $p \rightarrow q$ $\underline{q \rightarrow r}$ $p \rightarrow r$	2) $p \rightarrow q$ $\underline{\neg r \rightarrow q}$ q
yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow r)] \rightarrow (p \rightarrow r)$	yoki $[(p \rightarrow q) \wedge (r \rightarrow q)] \rightarrow q$

1- misol:

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda u chin bo'ladi.

Agar fikr chin bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi.

Agar fikr isbotlangan bo'lsa, unda uni rad etib bo'lmaydi.

2- misol:

Agar havo yaxshi bo'lsa, teatrga boramiz.

Agar havo yaxshi bo'lmasa ham teatrga boramiz.

Teatrga boramiz.

Shartli-qat'iy xulosa chiqarish deb, katta asosi shartli mulohaza, kichik asosi oddiy qat'iy mulohaza bo'lgan sillogizmga aytiladi. Bunday xulosa chiqarishning ikkita to'g'ri (aniq xulosa beradigan) shakli mavjud. Uning formulasi quyidagicha:

Tasdiqlovchi modus – modus ponens	Inkor etuvchi modus – modus tollens
$r \rightarrow q$ $\underline{r}$ q	$r \rightarrow q$ $\underline{\neg q}$ $\neg p$

1. Shartli mulohazaning natijasini tasdiqlovchi xulosa chiqarish:
Agar aqlli bo'lsa, o'ylab gapiradi.

U o‘vlab gapiradi.

Demak, u aqlli.

2. Shartli mulohazaning natijasini inkor etib, xulosa chiqarish:

Agar me’yor buzilsa, unda miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga olib kelmadi.

Demak, me’yor buzilmagan.

Shartli – qat’iy sillogizmning xulosasi aniq, chin bo‘lishi uchun quyidagi holatlarga e’tibor berish zarur:

1. Shartli mulohazadagi asosning chinligidan natijaning chinligi, natijaning xatoligidan asosning xatoligi mantiqan kelib chiqadi.

2. Shartli mulohazadagi natijaning chinligi asosning chinligini, asosning xatoligi esa natijaning ham xatoligini isbotlamaydi.

Bu qoidalar buzilganda shartli-qat’iy sillogizmning xulosasi noaniq bo‘ladi. Xulosa chiqarishning bu shakli formulalarda quyidagicha ifodalanadi:

$r \rightarrow q$ q ehtimol, r	$r \rightarrow q$ $\neg p$ ehtimol $\neg q$
$[(p \rightarrow q) \wedge q] \rightarrow r$	$[(p \rightarrow q) \wedge \neg p) \rightarrow \neg q$

1. Shartli mulohazadagi natijaning tasdiqlanishidan asosning chinligini mantiqan keltirib chiqarish mumkin emas. Chunki boshqa asos ham shunday natijani keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan:

Agar bemorning qon bosimi ko‘tarilsa, uning boshi og‘riydi.

Bemorning boshi og‘rivapti.

Ehtimol, uning qon bosimi ko‘tarilgandir.

Yuqoridagi misolda shartli mulohazaning asosi xato, noaniq, natijasi chin bo‘lganligi uchun sillogizmning xulosasi noaniq bo‘lgan.

2. Shartli mulohazada asos qismining inkor qilinishi, natijaning noaniq bo‘lishiga olib keladi.

Agar bemorning qon bosimi ko‘tarilsa, unda uning boshi og‘riydi.

Bemorning qon bosimi ko‘tarilmagan.

Ehtimol, uning boshi og‘rimayotgandir.

Bilamizki, bosh og‘rig‘iga faqat qon bosimining ko‘tarilishi sabab bo‘lmaydi, undan boshqa sabablar ham bo‘lishi mumkin. Bu esa, xulosaning noaniq bo‘lishiga olib keladi.

II. Ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi yoki asoslaridan biri ayiruvchi mulohaza bo‘lgan sillogizmga aytiladi.Sof ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi ayiruvchi mulohaza bo‘lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi-qat’iy xulosa chiqarishda xulosa asoslaridan biri ayiruvchi mulohaza bo‘lsa, boshqasi oddiy qat’iy mulohaza bo‘ladi. Bunday xulosa chiqarishning ikki modusi bor: tasdiqlab inkor etuvchi va inkor etib tasdiqlovchi modus. Ularning formulasi quyidagi tablitsada keltirilgan.

Xulosa chiqarish shakli	Formulasi
Sof ayiruvchi sillogizm	$S - a \vee b \vee c$ $\underline{a - d \vee f}$ $S - d \vee f \vee b \vee c$
Ayiruvchi-qat’iy xulosa chiqarish tasdiqlab inkor etuvchi modus modus ponendo tollens	$r \vee q$ $\underline{r}$ $\neg q$
Ayiruvchi-qat’iy xulosa chiqarish inkor etib tasdiqlovchi modus modus tollendo ponens	$r \vee q$ $\underline{\neg r}$ Q

Sof ayiruvchi xulosa chiqarishga misol:

Xulosa chiqarish asoslarining soniga ko‘ra bevosita yoki bavosita bo‘ladi.

Bavosita xulosa chiqarish ikki asosli yoki ikkidan ortiq asosli bo‘ladi.

Demak, xulosa chiqarish asoslarining soniga ko‘ra bevosita yoki ikki asosli yoki ikkidan ortiq asosli bo‘ladi.

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishning tasdiqlab inkor etuvchi shakliga misol:

O'simliklar bir yillik yoki ko'p yillik bo'ladi.

Daraxtlar ko'p yillik o'simlikdir.

Demak, daraxtlar bir yillik o'simlik emas.

Ayiruvchi-qat'iy xulosa chiqarishning inkor etib, tasdiqlovchi shakliga misol:

Odamlar hayoli yoki hayosiz bo'ladi.

Mening do'stlarim hayosiz emas.

Mening do'stlarim hayoli.

Ayiruvchi sillogizmda to'g'ri xulosa chiqarish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Ayiruvchi mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar hajmiga ko'ra kesishmasligi shart, aks holda xulosa xato bo'ladi. Masalan:

Shirinliklar mazali yoki chiroyli bo'ladi.

Bu shirinlik mazali.

Bu shirinlik chiroyli emas.

Shirinliklar ham mazali, ham chiroyli bo'lishi mumkin. Bunda ayiruvchi mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar bir – birini inkor etmaydi va hajmiga ko'ra, kesishadi. Shuning uchun xulosa xato.

2. Ayiruvchi mulohazada muqobillar bir-birini inkor etishi va to'liq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Burchaklar o'tkir yoki o'tmas burchakli bo'ladi.

Bu burchak o'tkir burchakli emas.

Bu burchak o'tmas burchaklidir.

Xulosaning xato bo'lishiga sabab, ayiruvchi mulohazadagi muqobillar to'liq ko'rsatilmagan, ya'ni to'g'ri burchakning mavjudligi e'tibordan chetda qolgan.Ayiruvchi sillogizmlardan ko'proq bir necha yechimga ega bo'lgan masalalarni yechishda, ya'ni muqobil holatlardan birini to'g'ri tanlab olishda foydalaniladi.

III. Shartli – ayiruvchi – lemmatik (taxminlab) xulosa chiqarish deb, asoslardan biri ikki yoki undan ortiq shartli mulohazalardan, ikkinchisi esa ayiruvchi mulohazadan iborat bo'lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi asosdagi a'zolarning soniga ko'ra, bunday xulosalar dilemma (ayiruvchi asos ikki a'zodan iborat bo'lgan), trilemma (ayiruvchi asos uch a'zodan iborat bo'lgan) va polilemma

(ayiruvchi asos to'rt va undan ortiq a'zodan iborat bo'lgan) deb ataladi.

Dilemmada asoslardan biri (kattasi) ikki shartli mulohazaning iborat bo'ladi, ikkinchi asosi (kichigi) ayiruvchi mulohaza bo'ladi. Kichik asosda shartli mulohazalarning asoslari (antetsedentlar) tasdiqlanadi yoki ularning natijalari (konsekventlari) inkor qilinadi. Dilemmalar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy dilemmaning xulosasi tasdiq mulohaza bo'lsa – konstruktiv, inkor mulohaza bo'lsa – destruktiv deyiladi. Murakkab dilemmalarda ham xuddi shunday. Demak, dilemmalar oddiy konstruktiv, oddiy destruktiv, murakkab konstruktiv va murakkab destruktiv ko'rinishda bo'ladi.

Oddiy dilemma	
Dilemmaning turi	Formulasi
Oddiy konstruktiv dilemma	$a \to c,\ b \to c$ $\underline{a \vee b}$ s
Oddiy destruktiv dilemma	$a \to b,\ a \to c$ $\underline{\neg b \vee \neg c}$ $\neg a$
Murakkab dilemma	
Murakkab konstruktiv dilemma	$a \to b,\ c \to d$ $\underline{a \vee c}$ $b \vee d$
Murakkab destruktiv dilemma	$a \to b\ c \to d$ $\underline{\neg b \vee \neg d}$ $\neg a \vee \neg c$

Misollar:

1. Oddiy konstruktiv dilemma.

Agar bemor shifokorga ishonsa, unda u sog'ayadi.
Agar bemor vaqtida davolansa, unda u sog'ayadi.
Bemor shifokorga ishondi yoki vaqtida davolandi.
Bemor tuzaldi.

2. Oddiy destruktiv dilemma.

Agar ko‘p kitob o‘qisa, unda bilimli bo‘ladi.

Agar ko‘p kitob o‘qisa, unda nutqi ravon bo‘ladi.

Bilimli emas yoki nutqi ravon emas

Demak, ko‘p kitob o‘qimagan.

3. Murakkab konstruktiv dilemma.

Agar suratda tabiat manzarasi tasvirlansa, unda peyzaj deyiladi.

Agar suratda inson tasvirlansa, unda portret deyiladi.

Suratda tabiat manzarasi yoki inson tasvirlanadi.

Surat peyzaj yoki portret bo‘ladi.

4. Murakkab destruktiv dilemma

Agar majlisda nutq so‘zlanadigan bo‘lsa, unda rasmiy uslubdan foydalaniladi.

Agar badiiy kechada so‘zlanadigan bo‘lsa, unda badiiy uslubdan faydalaniladi.

Rasmiy uslubdan yoki badiiy uslubdan foydalanilmadi.

Majlis yoki badiiy kecha bo‘lmadi.

Dilemmalarni to‘g‘ri tuzish va hal qilish uchun ko‘rilayotgan masalaning barcha yechimlarini aniqlash zarur. Dilemmani ba`zan unga qarama-qarshi mazmundagi boshqa bir dilemma orqali rad etish mumkin. Bunga mantiq ilmi tarixidan quyidagi misolni keltiramiz: «Afinalik ayol o‘g‘liga shunday maslahat beradi: jamoat ishlariga aralashmagin, chunki agar haqiqatni gapirsang, seni odamlar yomon ko‘radi, agar yolg‘on gapirsang, unda seni xudolar yomon ko‘radi. Bunga Aristotel quyidagicha rad javobni o‘ylab topadi: Men jamoat ishlarida ishtirok etaman, chunki agar haqiqatni gapirsam, meni xudolar yaxshi ko‘radi, agar yolg‘on gapirsam, meni odamlar yaxshi ko‘radi»[1].

Ba’zan, “masalaning boshqa yechimlari (al’ternativalari) ham mavjud bo‘lishi mumkinmi?” – degan savolni qo‘yish dilemmaning “shoxlari” orasidan chiqib ketish imkonini beradi. Bunday savolning qo‘yilishi sizga taklif etilgan, lekin siz uchun maqbul bo‘lmagan yechimlarni rad qilishga yordam beradi. Trilemma, polilemma shaklida ham lemmatik xulosa chiqarish mumkin. Bunda muqobillar soni uchta va undan ortiq bo‘ladi.

[1] Look:Morris R. Cohen Ernest Nagel an introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.108

Induktiv xulosa chiqarish

Yakka mulohazalarni umumlashtirib xulosa chiqarish kundalik hayotda, ilmiy bilishda ko'p qo'llaniladi. Inson hayotiy tajriba natijalarini, kuzatishlarini umumlashtirib, aynan shu usul asosida xulosa chiqaradi. Fikrning yakkalikdan umumiylikka qarab harakatlanishini ifodalovchi bunday xulosa chiqarish turi induksiya (lot. "inductio" – yagona asosga keltirish) deb ataladi. Induktiv xulosa chiqarishda kuzatish va tajriba natijalari muhim ahamiyatga ega. Induktiv xulosa chiqarish balvosita xulosa hisoblanadi. Induktiv xulosa chiqarish asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladi. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy mulohaza tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Induktiv xulosa chiqarishda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.

Induktiv xulosa chiqarishning tarkibi xulosa asoslari, tekshirilayotgan belgi va xulosadan iborat. Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi mavjud: to'liq va to'liqsiz induksiya.

To'liq induksiyada birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligi aniqlanib, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy ekanligi haqida xulosa chiqariladi. To'liq induksiya miqdori cheklangan va aniq bo'lgan (sanaladigan) predmetlar sinfi haqida empirik materiallarni umumlashtirish yo'li bilan xulosaviy bilim olishning samarali vositasi bo'lib, uning xulosasi doimo aniq bo'ladi.

To'liqsiz induksiyada birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) xosligini (yoki xos emasligi) aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

To'liqsiz induksiyada fikrimiz, xuddi to'liq induksiyadagidek, harakat qiladi. Lekin unda, to'liq induksiyadan farqli ravishda, xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o'rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo'ladi. To'liqsiz induksiya bo'yicha

xulosa chiqarishda asoslardan xulosaning mantiqan kelib chiqishi ko'pincha kuchsiz bo'ladi. Dastlabki kuzatish va tajriba natijalarini tanlab olish usuliga ko'ra to'liqsiz induksiyaning ikki turi: sanash orqali (enumerativ induksiya) va istisno qilish orqali to'liqsiz induksiya (eliminativ induksiya) ajratilishi mumkin.

Sanash orqali to'liqsiz induksiya yoki ommabop induksiyada (enumerativ induksiya) bir sinfga mansub predmetlar biror belgining takrorlanishini kuzatish asosida, uning shu sinfga kiruvchi barcha predmetlarga xosligi haqida ehtimoliy xulosa chiqariladi. Insonlarning ob-havoni uzoq yillar davomida kuzatishining natijasi bo'lgan fikrlar ham shunday xulasalarni ifodalaydi.

Istisno qilish orqali to'liqsiz induksiyada tekshirilayotgan sinfning bir qismiga o'rganilayotgan belgining xos yoki xos emasligi aniqlanib, xos bo'lmaganlarini chiqarib tashlab, xulosa qilinadi. Masalan, o'rmondagi daraxtlarning bir qismi tekshirilib, kasal bo'lganlari aniqlanadi. Shu ma'lumotgaga asoslanib, o'rmondagi daraxtlarning qancha qismi kasallanganligi haqida tahminiy xulosa chiqariladi. To'lqsiz induksiyaning yana bir turi statistik umumlashtirishdir.

Statistik umumlashtirish ommaviy tusga ega, keng ko'lamda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishda qo'llaniladi. Iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish, aholining tug'ilishi va o'lish haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va shu kabi hollarda statistik umumlashtirishdan foydalaniladi. Masalan, "Andijon viloyatining aholi zich joylashgan Oltinko'l tumanida 7 ta kasb-hunar kolleji bor, ularni bu yil turli mutaxassisliklar bo'yicha 2 ming 300 nafar bitiruvchi tamomlaydi. Tuman hududida 714 ta xo'jalik yurituvchi subyekt, jumladan, sanoatda – 371 ta subyekt, qurilishda – 167 ta subyekt, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida – 156 ta subyekt va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.Tumandagi har bir xo'jalik subyektiga o'rtacha 3 nafar bitiruvchi to'g'ri keladi,"[1] – deb chiqarilgan xulosa statistik umumlashtirishning natijasidir.

Ilmiy induksiya

Ilmiy induksiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgining mavjudlik sababi o'rganiladi. To'liqsiz

[1] Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

induksiyaning bu turi hodisalarning sababini aniqlash va ularni ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham ilmiy induksiya deb ataladi.

Sababiy aloqadorlikni aniqlash ilmiy induktiv xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Sababiy aloqadorlikni aniqlash va o'rganishda quyidagilarga e'tibor beri zarur:

- Ikki hodisa o'rtasidagi zaruriy aloqadorlik muayyan sharoitda ularning biridan (sabab) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Sabab-hodisaning yo'qligi oqibat-hodisaning ham yuzaga chiqmasligini bildiradi.

- Sabab-oqibat munosabatlari umumiy xarakterga ega, olamdagi hech bir hodisa sababsiz mavjud bo'lmaydi.

- Sabab va oqibat vaqtda ketma-ket keladi. Lekin, oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikda bo'lavermaydi.

- Sabab-oqibat munosabatlari bir ma'noli bo'lib, muayyan sabab o'ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqaradi.

Sababiy aloqadorlik murakkab strukturaga ega. Xususan, sabab-hodisa turli xil sharoitlarda turli oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki aksincha, bir oqibat turli sharoitlarda har xil sabablar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin.

Sababiy aloqadorlikni aniqlashning bir qancha metodlari mavjud bo'lib, ular ilmiy induksiya metodlari deb yuritiladi. Bularga o'xshashlik, tafovut, yo'ldosh o'zgarishlar va qoldiqlar metodlari kiradi. Ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Yagona o'xshashlik metodi. Unda o'rganilayotgan hodisaning sababi haqidagi xulosa shu hodisaning kuzatilayotgan tomonlarini solishtirish, ularning o'xshash tomonini aniqlash asosida hosil qilinadi. Bu metoddan foydalanib xulosa chiqarilganda, hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun faqat bitta holatgina umumiy bo'lsa, ana shu holat mazkur hodisaning sababi deb olinadi. Yagona o'xshashlik metodining formulasi:

1.ABS _____ a
2. ADE_____ a
3. AGF_____ a

_____

Demak, A holat ma'lum darajada a hodisaning sababidir.

Yagona tafovut metodi.Bu metod faqat ikki holatda, ya'ni hodisaning vujudga kelgan va kelmagan hollarini taqqoslash asosida hodisaning sababini aniqlash usuli bo'lib, unda mavjud hollar bir-biridan faqat bitta holati bilan farq qiladi. Shuning uchun ham mazkur holat kuzatilayotgan hodisaning sababi bo'lsa kerak, deb taxminiy xulosa hosil qilinadi.

AVS_____a
BC _____a emas._____
Demak, A holat a hodisaning sababi bo'lishi mumkin.
Yo'ldosh o'zgarishlar metodi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodiga muvofiq, bir holatning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga ham olib kelsa, shu holat kuzatilayotgan hodisa o'zgarishining sababidir.

1.AVS--------a
2.A_1VS---------a
3.A_2VS---------a
.....
N. A_nBC-------a_n

Ehtimol, A holatning o'zgarishi unga mos holda a ning o'zgarishiga sababchidir.

Qoldiqlar metodi. Bu metod tatbiq etiladigan obyekt murakkab hodisadan iborat bo'lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo'lganda, ana shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo'llaniladi.

ABC_____abc
B_____b
C_____c

Demak, a ning sababi A bo'lishi mumkin.

Qoldiqlar metodiga ko'ra, agar o'rganilayotgan murakkab hodisani tashkil etuvchi hodisaning (yoki hodisa qismining) bitta

holatdan boshqa holatlar bilan aloqasi zaruriy tavsifga ega bo'lmasa, ana shu qoldiq holat mazkur hodisaning (hodisa qismining) sababi bo'lishi mumkin.

Ilmiy induksiyaning boshqa metodlari singari qoldiqlar metodi ham ehtimoliy bilim olish vositasi hisoblanadi.

Analogiya – (grek. – moslik, o'xshashlik) bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, induksiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juz'iy holatdan boshqa juz'iy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalariga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o'xshashlik ham mavjud. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, Imom G'azzoliy "Kimiyoi saodat" asarida dil(ko'ngil)ni badan mamlakatining podshohi, aqlni esa uning vaziriga qiyoslab, "podshoh - Dil vazir - Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g'azabni vazir Aqlga bo'ysundirsa, badan mamlakati (inson) saodatga erishadi. Agar Dil vazir Aqlni shahvat va g'azab ilgida asir qilsa, badan mamlakati vayron bo'lib, podshoh Dil ham asir bo'lib, badbaxt va halok bo'lg'usidir"[1]- deb yozadi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asos, xulosa va asos bilan hamda xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining obyektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqa va munosabatlardir. Modeldan prototipga o'tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko'ra analogiyaning

[1] Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T.: «Adolat», 2005. -37-b.

ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o'xshash belgilariga ko'ra o'zaro taqqoslanadi. O'xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo'lgan belgining boshqasida ham bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi.

O'xshatilayotgan predmetlarni A va V harflari bilan, belgilarni a, v, s harflari bilan ifoda qilsak, xususiyatlar analogiyasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

S_1 - P_1, R_2, R_3, R_4, belgilarga ega.
S_2 - P_1, R_2, R_3, belgilarga ega.

Demak, S_2 - R_4 belgisiga ega.

Misol:

Oiladagi kelishmovchiliklar mehrni yo'qotadi, oila a'zolarini beobro' qiladi, ro'zg'orni bebaraka qiladi, bolalar tarbiyasiga e'tibor kamayadi.

Bu oila a'zolari bir-biri bilan doimo janjallashadi. Ular bir-biriga mehrsiz, maxallada obro'yi yo'q, ro'zg'ori bebaraka.

Demak, ular bolalar tarbiyasiga e'tiborsiz.

Analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini oshirish uchun, ya'ni xulosaning chin bo'lish ehtimolini oshirish uchun ma'lum shartlarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari imkoni boricha ko'proq aniqlanishi lozim. Shunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chiqarish imkoni ortadi.

2. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari predmetlar uchun muhim belgilar bo'lishi kerak. Shunda xulosa chin fikrga yaqinlashadi.

3. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan boshqa belgilari zaruriy aloqada bo'lishi kerak. Shunda xulosaning ishonarli, aniq bo'lish shartlari bajarilgan bo'ladi.

4. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan o'xshash belgilari bir turda bo'lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning farq qiluvchi belgilari miqdori kam bo'lishi va bu belgilar zaruriy, muhim bo'lmasligi shart. Agar predmetlar muhim, zaruriy belgilari bilan bir-biridan farq qilsa, analogiyaning xulosasi xato bo'ladi.

Yuqoridagi qoidalarning buzilishi analogiya usuli orqali chiqarilgan xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Mulohaza, subyekt, predikat,umumiy mulohaza, juz'iy mulohaza, oddiy mulohaza, murakkab mulohaza, birlashtirivchi mulohaza, ayiruvchi mulohaza, shartli mulohaza, ekvivalent mulohaza, chin mulohaza, yolg'on mulohaza, xulosa asosi, xulosa, mantiqiy ergashish, duduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogi, dilemma, trilemma.

Takrorlash uchun savollar

1. Induktiv xulosa chiqarish nimaga asoslanadi?
2. Induktiv yo'l bilan sababiy aloqadorlikni aniqlab bo'ladimi?
3. Analogiyada fikr qanday yo'nalishda harakat qiladi?
4. To'liq induksiyada berilgan sinfga mansub predmetlarning barchasini o'rganish...
5. Induktiv yo'l bilan sababiy aloqadorlikni aniqlab bo'ladimi?
6. Xulosa chiqarishning qanday turlarida xulosaning chinligi ehtimoliy xarakterga ega?

Mavzuga oid test savollari

1. Mulohaza deb...

a) predmet yoki hodisalarning belgilarini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi fikrga aytiladi;

b) predmet yoki hodisalarning mavjudligini qayd etuvchi fikrga aytiladi.

v) bironta predmet yoki hodisa to'g'risida bildirilgan chin yoki hato fikrga aytiladi;

g) A,B,V hollarda

2. Deduktiv xulosa chiqarishda fikrning harakat yo'nalishi qanday?

a) juz'iylikdan umumiylikka tomon;
b) umumiylikdan juz'iylikka tomon;
v) juz'iylikdan juz'iylikka tomon;
g) umumiylikdan umumiylikka tomon;

3. Xulosa chiqarish nima?

a) A, B, S. holatlari;
b) fikrni qurish shakli;
v) yangi bilim olish vositasi;
g) ikkita hukmdan uchinchisini keltirib chiqarish;

4. Xulosa qanday hollarda chin bo'ladi?

a) "A" va "B" hollarda;
b) asoslar chin hukmlardan iborat bo'lsa;
v) xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilinsa;
g) asoslar ko'p bo'lganda.

12-MAVZU. ARGUMENTLASH VA BILIMLAR TARAQQIYOTINING MANTIQIY SHAKLLARI

Asosli muhokama yuritish shartlari

Inson kundalik muloqotida dalillash, isbotlash tushunchalarini ko'pincha bir xil ma'noda, sinonim tushunchalar sifatida qo'llaydi. Aslida ular mazmuniga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan va hajmiga ko'ra bo'ysunish munosabatidagi tushunchalardir. Dalillash hajmiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, isbotlash tushunchasi unga bo'ysunadi. Dalillash argumentlash tushunchasi bilan ekvivalentdir.

Argumentlash – (lot. argumentatio – dalil, argument keltirish) ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (ma'qullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish. Argumentlashning maqsadi – ilgari surilgan holatlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga, konstruktiv munosabatlarning shakllanishiga erishishdir; auditoriyani uning e'tiboriga havola qilinayotgan holatning, fikrning adolatli ekanligiga ishontirishdir, uni shu fikrni qabul qilishiga va shunga muvofiq harakat qilishiga erishishdir. Argumentlashda "haqiqat-yolg'on", "ezgulik-yovuzlik" dilemmalari muhim emas. Muhimi, ilgari surilgan fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish, ishontirishdir. Tinglovchilar yoki kuzatuvchilarni ishontirish, e'tiqodini shakllantirish uchun nafaqat verbal (nutq orqali), balki noverbal (harakat, yuz ifodasi, ko'rgazmali vositalar va b.) usullardan ham foydalaniladi. Argumentlashning tarkibida tezis – mulohaza yoki mulohazalar tizimi va dalil yoki argument – tezisni asoslash uchun keltirilgan fikr, mulohazalar ajratiladi. Argumentlash til vositasida ta'sir qilish bo'lib, biron-bir fikrni ma'qullash yoki rad etish uchun dalillar, argumentlarni o'z ichiga qamrab oladi. U avvalo, inson ongiga qaratilgan bo'lib, inson o'ylab, bu fikrni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Argumentlashga quyidagilar xos:

- Argumentlash hamma vaqt til vositasida amalga oshiriladi;
- Argumentlashning vazifasi kimningdir e'tiqodini, ishonchini kuchaytirish yoki susaytirishga yo'naltirilgan faoliyatdir;

- Argumentlash ijtimoiy faoliyatdir, chunki u faqat insonga va insonlarga qaratilgan bo‘lib, boshqa tomonning keltirgan dalillariga o‘zining faol munosabatini bildirishni - dialogni nazarda tutadi;

- Argumentlash retsipiyentlarning aqliy faolligini, ya’ni argumentlarni o‘ylab qabul qilishi yoki qarshi chiqishini nazarda tutadi.

Argumentlashning tuzilishi va usullari bilan tanishishdan avval isbotlash va rad etishning mohiyati, tuzilishi, usullari va qoidalarini bilib olish zarur, chunki ular argumentlashning xususiy ko‘rinishidir.

Isbotlash – bir mulohazaning chinligini u bilan bog‘liq boshqa chin mulohazalar yordamida asoslashdan iborat bo‘lgan mantiqiy amal.Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e’tibor uning chinligini ko‘rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o‘zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremalar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko‘rsatuvchi mulohazalardan iborat bo‘ladi.

Argumentlar – (lot. argumentum – isbot asosi) – dalillanishi (isbotlanishi) talab qilingan tezis (mulohaza, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladigan bir yoki undan ortiq mulohazalardir.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Argumentlash (isbotlash)ning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash.

Bevosita argumentlash (isbotlash)da tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan mulohazalardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O‘zbekiston – mustaqil davlatdir», degan mulohaza (tezis)ning chinligi «O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita argumentlash (isbotlash)da esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan mulohazaning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik argumentlash (isbotlash) tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «muloqot insonlarni birlashtiradi», degan mulohazaning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «muloqot insonlarni birlashtirmaydi», degan mulohaza olinadi.

Apagogik argumentlash (isbotlash)da antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi.

Ayiruvchi argumentlash (isbotlash)da tezis sof ayiruvchi mulohazaning (kuchli diz'yunksiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, "Bu xatni do'stlarimdan A, yo B, yo S yozgan», degan fikr tekshirilib, «xatni B ham, S ham yozmaganligi"ligi aniqlanadi va shu tariqa «Xatni A yozgan», degan mulohazaning chinligi asoslanadi. Bu misolda isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – argumentlash (isbotlash)ni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani argumentlash (isbotlash)ning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham argumentlash (isbotlash) kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan mulohaza), argumentlar (tezisni rad qiluvchi mulohazalar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar

bo‘yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I. Tezisni rad etish
II. Argumentlarni rad etish
III. Demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo‘lib o‘tgan voqealar, statistik ma’lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Bu qo‘lyozma XVII asrda yozilgan», degan tezisni rad etish, ya’ni uning noto‘g‘ri ekanligini isbotlash uchun yozuv usuli, qog‘ozning turi, qaysi alifboda yozilganligi kabi faktlarga asoslanamiz va tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko‘rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema’nilikka olib kelish», deb ataladi.

Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto‘g‘ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema’nilik bo‘ladi. «Bema’nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha: $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo‘lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo‘lishi ham mumkin. Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi.

Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi. Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llanadi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzllsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo'llnadi:

1. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad

etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z

bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar.

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar

Argumentlashning strategiyasi – argumentlashning maqsadi bo'lib, ishontirish, g'alaba qozonish, kelishish, yechimni topish, o'ziga nisbatan ishonchni mustahkamlash va shu kabilarda namoyon bo'ldi. Mantiq qonunlari, isbotlovchi muhokama yuritish argumentlashning strategik prinsiplari hisoblanadi. Konkret vaziyatga mos bo'lgan kommunikativ modelni tanlash ham argumentlashning strategiyasiga kiradi. Argumentlashning strategiyasi ishtirokchilarning maqsadi orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra, haqiqatga, ishonchni shakillantirishga, g'alabaga va kelishuvga qaratilgan strategiyalarni farqlash mumkin. Ba'zan bu strategiyalar birlashib ketishi kuzatiladi.

Argumentlash strategiyasi ma'ruza, suhbat, dialog, bahs-munozara, yozma argumentlash, o'zi uchun argumentlashda turli xil bo'ladi. Argumentlash strategiyasini belgilab olganda argumentlovchi dalillar asosiy va qo'shimcha turlarga ajratiladi, asosiy dalillar yetarli bo'lmasa qo'shimchalaridan foydalanish yoki asosiy dalillar yetarli bo'lsa, qo'shimchalarini qo'llamaslik rejalashtiriladi.

Argumentlashning taktikasi deb, argumentlarni eng unumli qo'llash usuli; raqibning qarshi argumentlariga munosabat shakli; argumentlashning strategik maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan usul va vositalar majmuiga aytiladi.

Argumentlashning taktikasi turli usullarni o'z ichiga oladi:

- Argumentlarni tanqid qilish (opponentnig yolg'on tezisini ishonchli faktlar bilan rad etish);
- Dushmanning qurolini o'ziga qarshi qo'llash prinsipi (opponentning fikrlarini o'ziga qarshi ishlatish);
- Isbotlash yukini raqibiga ag'darish (haqiqat sukut saqlashdadir);
- Pala-partish so'zlash;
- Hamma narsani rad etib, o'zini aqlli ko'rsatish;
- "Bema'nilikkka olib kelish" usuli (opponentning fikri bema'ni ekanligini istehzo va kinoya bilan isbotlash);
- "Shaxsga murojat qilish" (tezisni almashtirish);
- Bumerang usuli (qarshi tomonning argumentini o'ziga qaytarib qo'llash);
- Isbotlash usulini rad etish;.
- Savollar hujumini uyushtirish va b.

Bahsda qo'llaniladigan hiylalar:

- Yolg'on uyatga qo'yish (opponentning atrofdagilar oldida obro'si to'kilishdan xavotirlanishni bilib, undan foydalanish);
- Argumentlarni "yog'lash" (opponentga oshkora xushomadgo'ylik qilish);
- Yosh, ma'lumot va mavq'yeni pesh qilish (masalan, avval diplom oling, keyin gapiring);
- Gapni boshqa tomonga burish;
- Qat'iy ohangda so'zlash;
- Ataylab bahsni to'xtatish va b..

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar turli-tuman bo'lib, ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Cofizm so‘zi “ayyorlik”, “soxta donolik” degan ma’nolarni bildiradi. Bunday ishlar bilan shug‘ullanuvchilar, ya’ni rostni yolg‘on, yolg‘onni rost deb tasdiqlovchi, o‘zini dono, boshqalarni esa nodon qilib ko‘rsatuvchi kishilar sofistlar-safsatabozlar deb ataladi. Sofistlar chin fikrni xato, xato fikrni esa chin deb isbotlovchi kishilar bo‘lib, o‘z maqsadlarini amalga oshirishda o‘ziga xos isbotlash usullaridan foydalanadilar.

Forobiy “Falsafatu Aristutolis” nomli risolasida safsatabozlar qo‘llaydigan quyidagi olti usulni ko‘rsatadi: “1) tanbeh berish; 2) dovdiratish; 3) tuxmat qilish; 4) nutqda duduqlanishga majbur qilish; 5) be’mani narsalardan foydalanish, safsata; 6) suhbatdoshga so‘z bermaslik”. Sofistik muhokamalarga chalkashtirish, yanglishtirish, aldash, noto‘g‘rini to‘g‘ri, to‘g‘rini noto‘g‘ri deb bilish xosdir.

Sofistlar o‘z maqsadlarini amalga oshirishda insonning ruhiy holatidan, tafakkurida o‘rnashib qolgan fikrlaridan, odatlaridan, shuningdek, biror g‘oyaning tarafdori ekanligidan ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, . “Kal” sofizmi:

- Agar odamning boshidan bir dona soch tolasi to‘kilsa, u kal bo‘ladimi?
- Yo‘q.
- O‘n dona to‘kilsa-chi?
- Kal bo‘lmaydi.
- Bittadan boshdagi hamma sochlar to‘kilgandachi?
- Unda kal bo‘ladi.
- Sen o‘z so‘zingga o‘zing qarshi chiqayapsan. Hozirgina bitta sochi to‘kilsa kal bo‘lmaydi degan eding. Bu sofizmda bir dona soch tolasining to‘kilishi bilan bittadan hamma soch tolasining to‘kilishi bir hodisa deb ko‘rsatiladi.

Bahs-munozara jarayonida mantiqiy qonun-qoidalarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan va bilmasdan yo‘l qo‘yilgan mantiqiy xato – paralogizmlar deb ataladi. Masalan: “Missioner” parologizmi. Bir missioner (dinni targ‘ib qiluvchi odam) kannibal (odamxo‘r)lar orasiga tushib qolibdi. Kanniballar uni qanday qilib yeyish masalasida bahslashib qolishibdi. Ba’zilari qovurish kerak desa, boshqalari qaynatish kerak debdi. O‘zaro kelisha olmay bir qarorga kelishibdi. Ular missionerga: “Sen biror gap aytgin. Agar gaping to‘g‘ri bo‘lsa, seni qaynatib, noto‘g‘ri bo‘lsa, qovurib yeymiz” -

deyishibdi. Missioner ularga "Meni qovurib yeysizlar"- deb javob beribdi." Missionerning javobi kanniballarning o'zaro tortishuviga sabab bo'libdi. Chunki qovirib yesalar, u to'g'ri gapirgan bo'ladi va uni qaynatish kerak bo'ladi. Agar qaynatib yesalar, unda noto'g'ri gapirgan bo'ladi va shartga muvofiq uni qovirish kerak bo'ladi. Kanniballarning tortishuvidan foydalangan missioner qochib qutilibdi.

Chinligini ham, xatoligini ham birdek isbotlash mumkin bo'lgan fikrlarga esa paradoks deyiladi. Masalan, "Buning isboti yo'qligi isbotlangan", "Hech qachon "hech qachon" so'zini aytma", "O'yinning faqat bitta qoidasi bor, u ham bo'lsa, hech qanday qoida yo'q."

Yuqorida qayd etilgan holatlarni bilib olish insonga bahs-munozara jarayonida dadil ishtirok etib, o'z qarashlarini himoya qilishga, mustaqil nuqtai nazarga ega bo'lishga va boshqalarning zararli ta'sirlaridan saqlanishga yordam beradi.

Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya

Bilish jarayonida inson voqea va hodisalarning mohiyatini tushunib boradi. Inson qancha ko'p bilimga ega bo'lmasin, bilmagan narsalari undan ham ko'proq bo'ladi. Bilmagan, noma'lum narsalarni bilish uchun hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yetarli bo'lmaydi. Bilish jarayonida mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, komp'yuter viruslariga qarshi himoya tizimini yaratish shunday muammolardan hisoblanadi. Tibbiyot sohasida rak kasalligini davolash, avtomobilsozlikda yoqilg'ini tejovchi vositalarni ixtiro qilish, ekologiya bilan bog'liq muammolar va boshqa sohalarga oid muammolar mavjud. Hozirgi kunda bu muammolarni hal qilish uchun mavjud qonun va prinsiplarning yetarli emasligi, fanda yangi izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda matematikada to‘plam nazariyasi bilan bog‘liq muammolarni xal qilish zaruriyati bunga misoldir.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o‘rtasidagi ziddiyatning paydo bo‘lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta’limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo‘g‘inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o‘zgartirishning obyektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Muammoni qo‘yish va hal etish

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo‘lmagan va yechish usuli noma’lum bo‘lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo‘yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba’zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Ko‘lamiga ko‘ra shaxsiy, hududiy, bir davlat yoki bir necha davlat miqyosidagi va umuminsoniyat muammolarini ajratish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to‘g‘ri qo‘yish va aniq bayon qilishdan iborat. To‘g‘ri qo‘yilgan savol muammoning yarim yechimi hisoblanadi. Muammoni to‘g‘ri qo‘yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o‘zi yetarli emas. Har qanday muammoning yechimi ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko‘ra bilish muhim ahamiyatga ega.

Muammolarni qo‘yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Odatda, ko‘p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba’zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy ma’naviyatimizga yot g‘oyalarning yoshlar

ongiga salbiy ta'siri muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, OAV, Internetdagi ayrim ma'lumotlar endigina ma'naviy olami shakllanayotgan, shaxsiy tajribasi haqiqatni yolg'on, uydirmadan farqlashga yetarli bo'lmagan yoshlarda hayotiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh avlod ma'naviy olamining dahlsizligini asrash jamiyatimiz oldida turgan muammolardan biridir. Bu muammo faylasuflar, gumanitar fan vakillari tomonidan tadqiq etilmoqda.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida, jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi va uning yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani o'zgartirish va muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalar aniqlanadi;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilib, ularga baho beriladi;

v) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llari belgilab olinadi;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlari ko'rsatiladi.

Bu ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni yechishga kirishiladi.

Barcha muammoning yechilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmaslikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Gipoteza (faraz) – bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli. Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi. Gipoteza (faraz) – o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiruvchi asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma'noda u bilimlarning mavjud bo'lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida mavjud bo'ladi.

Gipotezani qurish o'rganilayotgan hodisani tushuntiruvchi taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo'ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo'lgan qonuniyatlar haqidagi

mulohazalar yoki mulohazalar tizimi tarzida bo‘ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza)da, odatda, gipotezaning bosh g‘oyasida aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va ma’lum bir ishchi gipotezalar – vaqtinchalik, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimolly xulosa chiqarish hisoblanadi. Shuningdek, gipoteza ba’zi hollarda qat’iy xulosa chiqarish shakllarida ham ilgari surilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo bo‘ladi. Ana shuning uchun ham gipoteza – bu har qanday taxmin emas, balki o‘zining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, ma’lum bir darajada asoslangan farazdir.

Ilgari surilgan gipoteza, albatta, asoslanishi zarur. Bu bosqichda gipotezadan ma’lum bir natijalar keltirib chiqariladi va ularning mavjud faktlarga (yoki boshqa ishonchli bilimlarga) muvofiqligi aniqlanadi.

Gipoteza rad qilinishi ham mumkin. Bu gipotezadan kellb chiqadigan natijalarning mavjud faktlarga nomuvofiqligini ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi.

Gipotezaning natijalarini topa olmaslik, bu gipotezaning mavqeini ancha pasaytirsa-da, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezaning chinligi undan kelib chiqadigan natijalarga zid bo‘lgan holatlar aniqlangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning yerning harakatlanmaydigan markaz ekanligi haqidagi gipotezasi Kopernikning geliotsentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, o‘rganilayotgan hodisa haqida bir vaqtning o‘zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Gipoteza tasdiqlanmaguncha o‘zining bilishdagi ahamiyatini yo‘qotmaydi. Rad etilsa, o‘rniga boshqa gipoteza quriladi va bu hol to gipotezalardan birortasi tasdiqlanmaguncha, ya’ni muammoning yechimi topilmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo'lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juz'iy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi.

Juz'iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juz'iy gipotezaga misol bo'ladi.

Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo'lib, o'z oldiga o'rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

Shunday qilib, gipoteza muammoning yechimini topish uchun xizmat qiladigan fikrlarning, bilimlarning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida. Har bir fan sohasida turli nazariyalar mavjud bo'ladi. "Nazariya" atamasi keng ma'noda amaliyotdan farq qiluvchi aqliy faoliyat turini ifodalaydi. Tor ma'noda esa, nazariya ma'lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar, gipotezalarni tizimga soladigan, shu sohani yaxlit tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklidir. Nazariya ilmiy bilishning shakli sifatida empirik va nazariy bosqichlarning birligini ifodalaydi.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to'planadi, o'rganiladi, tizimga solinib, turli xll jadvallar, shakllar, grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin o'zaro aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog'liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o'rtasida zaruriy aloqadorllk mavjud. Nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning

ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o'rtasida mantiqiy aloqalar o'rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, uning mohiyatini tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, nazariyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Nazariya ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Har bir nazariya o'z tushunchalari va ta'riflash qoidalariga ega. Bunga misol qilib ximiya fanidagi atom, molekula, ishqor kislota kabi tushunchalarni olishimiz mumkin. Xuddi shuningdek, har qanday nazariya xulosalar tarzidagi o'z natijalariga ega. Demak, ilmiy nazariyaning tarkibida uning har bir elementi o'z o'rniga ega.

Muammoni aniqlash va yechimini asoslashda savol-javobning o'rni.Inson dunyoqarashini kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi eng asosiy vositalardan biri - savol-javob (dialog)dir. Savol-javobni tashkil eta bilish insonda voqelikka mos (adekvat) tushunchalarning shakllanishiga, mulohazalarini to'g'ri qurishga va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Savol-javob, dialog erotematik (grek. yerotematikos – savol shaklida) mantiqda o'rganiladi. Savol mantiqiy reallikning o'ziga xos alohida ko'rinishidir. Savol berish ya'ni fikrni to'g'ri javobga yo'naltirish san'ati - tafakkurlash madaniyatining zaruriy elementidir. Mantiqan to'g'ri savollarni qo'ya bilish aqllilik, farosatlilikning muhim belgisidir. Savol nima? Savol – keng ma'noda tafakkur shakli bo'lib, uning yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ma'lum turdagi bilimlarning yetishmaslik (tanqislik) xolati tilda ifodalanadi.[1] Inson bilimi predmet va hodisalar haqida avvalgi hosil qilingan mulohazalardan yangi, ularni to'ldiradigan, kengaytiradigan mulohazalarni yaratishga qarab taraqqiy etib boradi. Bu jarayon ma'lum bir savollarni qo'yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo'ladi. Savol so'roq gap yordamida ifoda qilingani uchun, undagi ma'lumot yakunlanmagan bo'ladi. Mulohaza va so'roq gap bilishda turlicha vazifalarni bajaradi.

[1] Федоров Б.И. Эротетическая логика. //Логика. Учебник для бакалавров. Под ред. А.И.Мигунова, И.Б.Микиртумова, Б.И.Федорова. - Москва: Проспект, 2015.С. 428-429.

Mulohazaning vazifasi predmet haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo‘lsa, savol uning yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga, aniqlashga, o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Savollar iltimos yoki talab qilib beriladi. Demak, savol avvaldan ma’lum bo‘lgan axborot –asosida qo‘shimcha axborot olish uchun iltimos yoki talabni ifodalovchi nutq shaklidir. Savolda ma’lum bir boshlang‘ich bilim mujassamlangan bo‘ladi, ya’ni savol berish uchun ma’lum bilimga ega bo‘lish talab qilinadi.

Savol va javob insonlarning dialog ko‘rinishidagi muloqat shaklidir. Uning muhim funksiyalaridan biri kommunikativlikdir. Axborotni qidirish vositasi sifatida ham savolning ahamiyati beqiyosdir. Savol bo‘lmasa bilish ham bo‘lmaydi. Lingvistikadan yaxshi ma’lumki, gapning har bir bo‘lagiga nisbatan va umuman gapning o‘ziga nisbatan savol berish mumkin. Masalan, “Professor Azlarov 314- auditoriyada fizikadan 3-kurs talabalariga ma’ruza o‘qiydi.” Ushbu gap bo‘yicha 9ta savol tuzish mumkin. Mantiqda savollarning tasnifi lingvistik tasnifdan farq qiladi. Savollarni chin yoki yolg‘on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko‘proq o‘rinli-o‘rinsiz, ma’noli-ma’nosiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri, to‘liq-to‘liqsiz kabi tasniflardan foydalaniladi.

Mantiqda savollar har xil asoslarga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi:

1. Oddiy va murakkab savollar. Tarkibida boshqa savol bo‘lmasa, oddiy savol, bo‘lsa – murakkab savol deb yuritiladi. Murakkab savollar o‘z navbatida qo‘shuvchi, ayiruvchi, shartli turlarga bo‘linadi. Masalan, Konsertda G‘.YOqubov bilan O.Nazarbekov ham ishtirok etdimi? Xatiga javob yozdingmi yoki yozmadingmi? Agar aytganingni qilsam, shartimga rozi bo‘lasanmi?

2. Aniqlovchi va to‘ldiruvchi savollar. Masalan, “Sen o‘qishni bilasanmi?”- degan savol aniqlovchi, “Sen qaysi qo‘shiqni kuylamoqchisan?”-degan savol to‘ldiruvchi savoldir.

3. Mantiqan o‘rinli va mantiqan o‘rinsiz qo‘yilgan savollar. Bitta bo‘lsa ham to‘g‘ri javob bersa bo‘ladigan savol mantiqan o‘rinli savoldir. Be’maniligi tufayli javobsiz qolgan savol o‘rinsiz savoldir.

4. Ilmiy va ilmiy bo‘lmagan savollar. Ilmiy savollarning remasida, ma’lum bir kontekstda empirik yoki abstrakt obyektlarning sinfini

ifodalovchi, hech bo'lmaganda bitta ilmiy termin bo'ladi. Ilmiy bo'lmagan savollarda bunday termin bo'lmaydi.

Har qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo'lib uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo'ladi.Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni xal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug'dirish va yechimini tezroq aniqlashga imkoniyat yaratiladi

Javob – qo'yilgan savolga muvofiq holda avvalgi bilimni aniqlashtiradigan, to'ldiradigan yangi mulohazadan iborat. U savolning asosini tashkil etuvchi bilimga tayanilgan holda yangi bilim olishga imkon beradi. Javob savolda mavjud bo'lgan noaniqlikni kamaytirish uchun xizmat qiladi.Inson o'zinig shaxsiy tajribisiga, olgan bilimlariga, dunyoqarashiga mos xolda savolga javob qidiradi. Ular yetarli bo'lmasa, bilimning konkret sohalariga, turli manbalarga murojaat qiladi. Ular javobni qidirish sohasi, deb ataladi. Mantiqda javobning bir qancha turlari ajratiladi:

1. Bevosita (aynan so'ralgan savolga javob berish) va bilvosita javoblar (so'ralgan savolga taalluqli boshqa ma'lumotlarni qo'shib javob berish).

2. To'liq (savolming barcha elementlari haqida ma'lumotlar berilgan)va to'liqsiz (savolning ba'zi elementlari haqida ma'lumotlar berilmagan) javoblar.

3. Chin (voqelikni adekvat aks ettirgan) va xato (voqelikni adekvat aks ettirmagan) javoblar.

4. Qisqa (ha, yo'q, bilmadim) va batafsil (savolning har bir elementi takrorlanadigan) javoblar.

5. Aniq (tushunchalar, so'zlarning mazmuni va ma'nosi konkret va ravshan bo'lgan) va noaniq (ikki xil ma'noli tushunchalar, so'zlar ishlatilgan) javoblar.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Argumentlash, tezis, asos-dalil, isbotlash, rad etish, tanqid, argumentlashning strategiyasi, argumentlashning taktikasi, paralogizm, sofizm, paradoks, kommunikativ model, proponent, opponent, muammo, savol, javob, muammoli vaziyat, muammoni qo'yish, muammoni hal etish, gipoteza, ishchi gipoteza, nazariya.

Savol va javobga qo‘yiladigan umumiy talablar:

- Savol ham javob ham grammatik jihatdan to‘g‘ri qurilgan bo‘lishi;
- Savol ham javob ham aniq, ravshan va iloji boricha ixcham bo‘lishi;
- Savol ham javob ham yetarli darajada asoslangan bo‘lishi zarur.

Yuqoridagi ko‘rsatmalar bilim olish, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil qilish uchun muloqot olib borishda nihoyatda ahamiyatlidir.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Muammoli vaziyat qanday vujudga keladi?
2. Muammo nima?
3. Muammolar ko‘lamiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
4. Muammoni xal etish uchun nima qilish kerak?
5. Gipoteza nima?
6. Nima uchun gipotezalarni mantiqiy qurish vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish hisoblanadi?
7. Gipotezalarning qanday turlari bor?
8. Nazariya nima?

Mavzuga oid test savollari

1. Argumentlash nima?

a) Ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (ma’qullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish;

b) Ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomonning ijobiy munosabatini shakllantirish;

v) Ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomonning ishonchini susaytirish;

g) Ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomonning fikrini eshitish.

2. Bahs jarayonida biror mulohaza (tezisni)ni isbotlayotgan shaxs ... deb nomlanadi.

a) Proponent;
b) Opponent;
v) Referent;
d) Agent.

3. Biron-bir mulohaza chinligining to'liq asoslanishi qanday nomlanadi?

a) Isbotlash;
b) Rad etish;
v) Tasdiqlash;
g) Tanqid;

4. Mantiqda argumentlashsiz fikrni chin deb qabul qilsa bo'ladimi?

a) bo'lmaydi;
b) bo'ladi;
v) to'g'ri javob yo'q;
g) ba'zida bo'ladi

13-MAVZU. "ETIKA" FANINING PREDMETI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Etika fanining predmeti, mazmun mohiyati, etik ta'limot tasnifi

Etika falsafiy fan bo'lib, u olam-odam munosabatlarining eng umumiy tizimining inson mavjudligi, hayoti, o'limi va abadiyligining o'ziga xos tomonlarini o'rganuvchi, bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan.

Etika axloqning paydo bo'lishi, uning rivojlanishi hamda mavjudlik qonuniyatlarini o'rganadi. Axloq inson mavjudligining eng muhim jihatlarini tashkil etadi. Shuning uchun ham inson o'zini tanigan kunidan boshlab, uning muhim sifati bo'lgan axloq ham vujudga keldi. Axloq haqida gapirganda odob, xulq, axloq tushunchalarini alohida olib qarash ularning mazmunan to'liq tushunish imkonini beradi.

Etika yunoncha "ethos" so'zidan olingan bo'lib, mazkur atama ilmiy termin sifatida birinchi marta fanga qadimgi yunon faylasufi Aristotel' (Arastu) tomonidan kiritilgan. O'z davrida Arastu fanlarni tasnif qilib, ularni nazariy, amaliy va ijodiy guruhlarga ajratadi. Birinchi guruhga – falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga – etika va siyosatni; uchinchi guruhga – san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi.

Miloddan avvalgi IV asrda lotin tilidagi "moralitas" atamasi yunoncha "ethos" so'ziga mazmunan o'xshashligi bois bir ma'noda foydalanila boshlanadi. Etika atama sifatida Aristotel tomonidan birinchi marta "amaliy falsafa"ning muayyan bir sohasini belgilash uchun ishlatilgan. Albatta, dastavval, "ethos" va "moralitas"so'zining mazmunida umumiy turar joy yoki qo'shma turar joy uchun taaluqli bo'lgan qoidalar, jamoani birlashtiruvchi me'yorlar, tartib intizom tamoyillari aks etgan va asosan ma'lum turar joy uchun qabul qilingan qoidalar, manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odat, fe'l, fikrlash tarzi singari ma'nolar nazarda tutilgan. Shu bois ham qadimgi greklar etika deyilganda, hatti-harakat, tartib, munosabat normalarini tushunganlar. Mazkur qoidalardan jamoadagi individualizm va agressivlikni bartaraf etishda foydalanilgan.

Keyinchalik esa "ethos" mazmuni vijdon, yaxshi va yomonni baholash, xayrixohlik, do‘stlik, hayotning mazmuni kabi ma’nolar bilan boyib borgan. Hozirda esa uning mazmuni yanada boyib inson hayotining mazmundorligini tashkil etuvchi tushunchalarni qariyib barchasini qamrab olgan.

Aristotel’ inson baxtli yashashi uchun nima qilmoq kerak? degan savolga javob berar ekan, axloqiy hatti-harakatning asosiy maqsadi bu baxtiyorlikka erishishdir deb tushungan. Shuningdek, u insonning o‘zini-o‘zi anglash faoliyatini ruhiyatning fazilatlaridan biri deb bilgan. Aristotel’ inson axloqiy, oqilona hatti-harakati deb o‘zini-o‘zi anglashda haddan oshmaslik, balki, oltin o‘rtalikni saqlash muhim ekanligiga urg‘u bergan. Aristotel’ fikricha, etika insonlar o‘rtasidagi munosabat doirasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o‘rganuvchi fan. Bu haqda o‘zining “Nikomax etikasi”, “Evdem etikasi”, “Katta etika” kitoblarini yozib “etika” faniga asos solgan[1].

Etika fanining nomi axloq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu tushuncha to‘g‘risida hozirgacha yaxlit umumiy qarashlar yo‘q. Buning boisi eng avvalo, Etika so‘zining ko‘p ma’noli va ko‘p qirrali ekanligi bilan izohlanadi. Jumladan, muayyan adabiyotlarda Etika kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa Etika axloq haqidagi fanning obyektiv ifodasi, maxsus insonshunoslik fani sifatida axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o‘rganadi deyiladi.

Etika atamasi ba’zida ma’lum bir ijtimoiy guruhlarning axloqiy me’yorlar tizimiga murojaat qilish uchun ishlatilsa, ba’zida esa butun bir ijtimoiy institutlar va ijtimoiy munosabatlarning axloqiy rivojlanish darajasini belgilash uchun ham ishlatiladi. Aristotel’ “axloqiylik”ni inson qalbining takomillashgan sifatlari – xotirjamlik, og‘irlik, vazminlik, bosiqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, o‘rtachalik, mo‘’tadillik, evidalik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani – yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo‘lgan kishilarni yoki

[1] Аристотель. Никомохова этика / Аристотель. Сочинение. В 4 х-т. -М.: Мысль, 1984. Т. 4. С. 55-62.

kishilarning yaxshi sifatlarini, ya'ni xayrli, saxovat va himmatli, ezgu ishlarini o'rganuvchi ilm sohasi deb tushungan.

Axloqiy qarashlar, tamoyillar obyekt sifatida alohida olingan kishilarning hatti-harakati, ularning hayotdan qoniqishi hamda boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishi, jamiyatda qabul qilingan tartib va qoidalarga rioya qilish, rahm-shavqat, adolat, do'stlik, birdamlik kabi bir qator tushunchalar orqali muayyan ijtimoiy institut va munosabatlarning axloqiy riyojlanishini boshqaradi. Etika ijtimoiy ong shakllaridan biri sotsial tartib-qoida sifatida hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi.

Etika atamasi greklar tomonidan ilmiy muloqotga kiritilsada, mazkur fanining genezisi qadimgi Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo xalqlarining axloqiy qarashlar tizimiga borib taqaladi.

Etika taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ya'ni antik davr etikasi; o'rta asrlar etikasi; yangi va eng yangi davr etikasi; hozirgi zamon etikasi. Yuqorida keltirilgan har bir davrning axloq falsafasi o'ziga xos xususiyatiga ega.

Antik davr etikasi jamiyat axloqiy munosabatlarini tabiatga ko'chirish va uni tabiatdagi singari umumiy uyg'unlikda tasavvur qilishga, alohida olingan kishining hayotdan qoniqishi gedonizm sifatida va har bir kishining boshqalar oldida javobgar ekanligini anglash falsafasi sifatida ko'rinadi. Antik davr etikasiga Aristotel' katta hissa qo'shgan. U axloq-odob masalalariga bag'ishlangan "Nikomax etikasi" asarini o'g'liga bag'ishlangan. Mazkur asar to'g'ri yurish-turish, axloq-odob haqida, amaliy nasihat sifatida yozilgan. U birinchi bo'lib antik dunyo axloqida inson xulqining tizimini tadqiq qildi. U amaliyotga murojaat qilib, iroda erkinligi masalasini qo'yadi. Aristotel' etikasi dunyoviy, har bir ozod kishini davlat fuqarosi ruhida tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan.

O'rta asrlarga kelib etika Sharqda ham G'arbda ham axloq va uning tabiatini diniy qarashlardan kelib chiqqan holda tushuntirishga asoslangan edi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning baxti, hayot mazmuni diniy nuqtai-nazardan tushuntirildi. O'rta asr etikasida Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) va fikhiy, tasavvufiy yo'nalishlarda (Abu Lays Samarqandiy, Imom-G'azzoliy,

J.Rumiy, A.Nasafiy, Voiz-Koshifiy) asarlari etika taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Uyg'onish davri G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkur taraqqiyotining asosiy alomatlari tafakkurda va ilmu ijodda, dogmatizm, jaholat va muttassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash, uning iste'dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, tiklash, boyitish g'oyalarini olib chiqdi. Bu ta'sirni yangi davr axloqshunosligida ham yaqqol ko'rish mumkin. (Gobbs, Spinoza, Gel'vetsiy, Gol'bax, Russo) kabi ma'rifatchilar axloqning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rniga, demokratik o'zgarishlarning axloqiy ildizlariga e'tiborni qaratdi.

Har bir davrda jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitidan, muayyan jamiyatda takomil topgan umuminsoniy qadriyatlar mazmunidan kelib chiqib insonni yashashdan maqsadi va hayotining mazmuni bo'yicha turli xil qarashlar va o'ziga xos konsepsiyalar shakllangan. Tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kuniga qadar hayot mazmuni tashkil qiluvchi qator o'ziga xos modellarni taklif qilingan. Etik ta'limotning tasnifi muammosi haqida fikr bildirilganda ham eng avvalo, naturalizm etikasida keng tarqalgan gedonizm, evdemonizm, utilitarizm tushunchalari va ularning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan, gedonizm: (yun nedone - lazzatlanish) – lazzatlanib umr kechirish inson hayotining asl mazmunini tashkil etishi[1]. Huzur-halovatga intilish insonga xos oliy xislat, deb hisoblovchi axloqiy ta'limot bo'lib, aksariyat gedonizm tarafdorlari inson uchun eng yaxshi jamiyat - farovon, moddiy boyliklar mo'l-ko'l bo'lgan davr, deb hisoblashadi.

Gedonizm Etika nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash tamoyili bo'lib, unga ko'ra huzur-halovat keltiruvchi va azob-uqubatdan qutqazuvchi narsa yaxshilik deb, azob-uqubat keltiruvchi narsa esa yomonlik deb ta'rif qilinadi. U axloq-odob tamoyili sifatida kishilarga dunyoning shod-xurramliklariga, o'zlari va barcha uchun yuksak rohat-farog'at olishga intilishni buyuradi. Mazkur ta'limotga ko'ra, huzur-halovat shunday narsa bo'lishi kerakki, uning ketidan

[1] Falsafa qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –T.:« Sharq», 2004. – 83 b.

azob-uqubat, dard-alam, ya'ni yomonlik kelmasligi kerak. Ammo lekin, hozirda ayrim devirsion kuchlar, yoshlar ongi va qalbi uchun ketayotgan kurash jarayonida gedonizm mazmunidagi "huzur-halovat", "lazzat" ma'nolaridan o'z manfaatlari yo'lida niqob sifatida foydalanmoqdalar. Tabiiyki inson hayotini mazmundorligiga gedonistik qarash salbiy ta'sir ko'rsatib ma'naviy-axloqiy muhitga putur yetkazadi. Hayot mazmunini lazzatlanish bilan cheklash natijasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlar susayib, axloqiylik va insoniylikka zarar yetadi.

U qadimgi Yunonistonda Aristipp va Epikur nazariyasida rivojlandi. Bu qadimgi davrdan tortib, hozirgacha yetib kelgan ta'limotlardan biri sifatida yaxshi sharoitlarda yashash, huzur-halovotga intilishni targ'ib etib keldi. Chunki, inson tabiatan huzur-halovatga intiladi. Ammo, har bir narsada me'yor bo'lgani kabi inson huzur-halovatida ham me'yorga rioya qilishi zarur. Nima uchun, chunki inson o'z hayotida me'yorlarga asoslanib yashashi bilan o'zligini yo'qotmaydi.

Yunon tilidan olingan Evdemonizm esa "rohat-farog'at, baxt-saodat" ma'nosini bildiradi. U ham axloqiy ta'limot bo'lib, bu baxt-saodatga intilishni axloqning asosi deb talqin etadi. Evdemonizm antik davr axloqiy nazariyasida to'liq namoyon bo'lgan. Demokrit, Suqrot, Aristotel' evdemonizmni baxt-saodatga intilish axloq-odob mezoni va inson axloqiy xatti-harakatining asosi deb hisoblaydi. Evdemonizm baxt-saodatni jismoniy va bir lahzali huzur, lazzat bilan tenglashtirmaydi, balki, uni keng ma'noda ya'ni, jismoniy va ma'naviy qadriyatlarning majmui tarzida tushunadi. Mazkur ta'limot evdemonizm: (yun. yeudaimonia - baxt – saodat, rohat farog'at)ni kishilar hayotining oliy maqsadi deb hisoblaydigan axloqiy yo'nalish[1]. Ushbu yo'nalish tarafdorlari hayotning mazmuni baxtli yashashda, o'zida barcha jismoniy va ma'naviy qadriyalarni mujassamlashtira olgan kishigina chinakam baxt-saodat sohibi bo'la oladi deb uqtiralar. Aynan shunday baxtgina insonga haqiqiy lazzat farog'at baxsh etib umrini mazmunli yashab o'tish imkonini yaratadi.

Umuman evdemonizm o'z ta'limoti asoslari bilan utilitarizmga yaqindir. Utilitarizm (lot. utilitas – foyda, naf) – G'arb etika

[1] Falsafa qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –T.: «Sharq». 2004. — 455 b.

nazariyasidir. Bu nazariya xatti-harakatning foydaliligini, axloq-odob mezoni deb biladi[1] ya'ni axloqning asosi foyda olish, manfaat ko'rish deb biluvchi ta'limot bo'lib uning asosiy prinsipi shaxsiy manfaatlarni qondirish vositasi bilan ko'pchilikni baxtli qilish. Keyinchalik foyda tamoyilini bilish nazariyasiga ko'chirish pragmatizmning paydo bo'lishiga olib kelgan ya'ni axloqiy mulohazalarni tahlil qilish ya'ni – etikada emotivizm ham shakllangan. Pragmatizm oqimi ham (yun. pragma – ish, harakat) harakat, amaliyot orqali hayot mazmunini boylik bilan bog'lovchi, moddiy boylikka va qulay sharoit, hamda obro' va nufuzga intiluvchanlik holatlari darajasiga ko'targan. Etikada pragmatizm meliorizmga, ya'ni hayotdagi ustivor qoidalar, qonunlarning takomilashib borishiga ishonishga tayanadi. Meliorizm (lot. melior – eng yaxshi) ma'nosini anglatuvchi - falsafiy yo'nalish[2] ushbu oqim maqsad nuqtai nazaridan optimizmga yaqin bo'lib, jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish insonlar hayotini mazmunli yashab o'tishlari baxtga erishish masalasini kishilarning shaxsiy kamoloti hamda umumiy ma'rifatni yuqori darajaga ko'tarish yo'li bilangina jamiyat hayotini umuman dunyoda yaxshilash mumkin deb hisoblashgan. korporativlik: lotinchada irlashuv, uyushma korporatsiya manfaatlari bilan cheklanganlik xususiy manfaalarni nazarda tutuvchi perfeksionizm: lotinchada mukammallik, kamolot – hayotning mazmunini shaxsiy barkamollik yetuklik bilan borg'lovchi ta'limot.

Etikaning tadqiqot obyekti inson axloqi, fanning baxs mavzui, axloqiylik tarraqiyot jarayoni esa uning predmetini tashkil etadi.

Etika axloq me'yorlari, tushuncha va tamoyillari, axloqiy hatti-harakat mulohoza va axloqiy g'oyalarni yaratmaydi, aksincha, uni nazariy jihatdan umumlashtirib tizimga soladi va albatta, umumiy me'yorlarni qadriyat va ideallarni asoslaydi, tadqiq etadi.

Etikaning ilmiy muammolaridan yana biri bu fazilatli, fazilatsiz hatti-harakatlarni ta'riflash, ya'ni hatti – harakatning qanday ekanligini aniqlashdan iborat. Shu bois ham etikaning ochuvchi va to'ldiruvchi omili bu insonning xulq-odobi, axloqiy hatti-harakati va kishilararo munosabatidir. Demak, umumiy ma'noda Etika

[1] Falsafa qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –T.: «Sharq», 2004. – 256 b.
[2] Falsafa qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –T.: «Sharq», 2004. – 416 b.

kishilarning jamiyatda yurish-turishi, yashash qoidalari, fe'l-atvori, hatti-harakatlarining majmui va mazmunini ifodalaydi.

Etika tushunchasi quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

- kundalik hayot muomalasida odob, axloq, hulq-atvor ma'nolarini anglatadi;

- ma'lum bir ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, kasb-hunar yoki ixtisosliklar, rahbarlar etikasi;

- kishilarning axloq-odobini, xulqini, fe'l-atvorini o'rganuvchi fan, ya'ni Etika.

Odamning o'z xohishiga ko'ra boshqaradigan muayyan axloqiy qoidalar, axloqiylik sifatlari aksariyat hollarda axloq yoki sinonimi sifatida etika deb ham qo'llaniladi.

Kundalik hayotda va ilmiy adabiyotlarda axloq va etika tushunchalari bilan bir qatorda odob tushunchasi ham ishlatiladi. «Odob» (arabcha «adab» so'zining ko'pligi) xulq-atvorii, yurish-turish madaniyatining tashqi va ichki jihatlarini ya'ni, sharmu-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik, ozodalikni ifodalaydi. U kishilarning hatti-harakatida, o'zaro munosabatida namoyon bo'lib, ta'lim-tarbiya, amaliy tajriba jarayonida shakllanadi. Xusayn voiz Koshifiy «Axloqiy Muhsiniy» asarida odobni quyidagicha ta'riflaydi: «Odob - bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarning obro'sini tushirmaslikdir». Odob – kishilarning hayot va turmushlariga nisbatan belgilab berilgan muayyan axloqiy chegara yoki me'yor. Mazkur me'yorga rioya qilgan odamni odobli, aksincha holda esa odobsiz, tarbiyasiz deyiladi. Odob Etikaga nisbatan tor tushuncha bo'lib, u o'z navbatida barcha axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishi. Etika va odob o'zaro bog'liq va ma'lum darajada farq qiluvchi tushunchalar bo'lib, barchasi insonning hatti-harakatini, yurish-turishini, boshqa odamlar bilan munosabatini ifodalaydi. Odatda bularni umumiy ma'noda axloq, kundalik hayotda, turmushda odob, xulq, fe'l-atvor va ularni o'rganuvchi fan Etika deb yuritiladi.

Xulqning jamiyat hayotidagi o'rnini yuksak baholagan A.Avloniy unga ta'rif berib quyidagilarni yozadi: «Xulq har narsadan murakkabdir. Biri jasad, ikkinchisi nafsdirki. Jasad nafsi ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondin, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki,

yo yaxshi, yo yomon bo‘ladur. Jasadning surati hammaga ma’lum bir narsadirki, har vaqt ko‘zga ko‘rinib turadi, ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydigan, aql ila o‘lchanadirg‘on bir narsadirki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib tarbiyasiz, ahloqsiz bo‘lib o‘sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak befoydadir»[1]. Shu ma’noda xulq-odob qadriyatlarining egallanishi, inson amaliy faoliyatida ularga amal qilishi xulq-odobning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Yaxshi xulq-odobning hayotiyligi esa, uning xususiyatlari va me’yorlari kishilar hatti-harakatida, ijtimoiy faoliyatida belgilanib, davrga muvofiqlashtirib turiladi.

Xusayn voiz Koshifiy xulqni tarbiyalay olish, o‘zini boshqarish va o‘zgalarni hurmat qilishni axloqiylik deb atagan. Shunday qilib, Etika kishilarning yaxshilik va yomonlikka nisbatan munosabatini namoyon etadigan va tarixan tarkib topgan xulq-atvor, yurish-turish va hatti-harakatini ifodalaydi. Ularning bir-biriga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini aks ettiradigan hamda o‘zaro ixtiyoriy tarzda amalga oshadigan norma va qoidalar yig‘indisidir.

Etika axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga, insonlarning o‘zaro munosabatlarini yuqori saviya va sifatini ta’minlashga, insonparvar va adolatli munosabatlarning maqbul modelini yaratishga xizmat qiladi.

Etikaning tadqiqot obyekti va tadqiqot doirasiga ko‘ra quyidagi bo‘limlarga ajratish mumkin. Birinchisi, bu umumiy etika bo‘lib, axloqning tabiati, mohiyati, xususiyatlari, uning tarkibi, o‘zaro aloqadorligini ilmiy asoslaydi. Axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar rivojlanishi xususiyatlarini etika taraqqiyotidagi ijtimoiylik, tarixiylik, zamonaviylik, umuminsoniy va milliy jihatlarini o‘rganadi.

Ikkinchisi, bu tarixiy etika bo‘lib, axloqning tarixiy shakllarini, uning tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini va xususiyatlarini, axloqiy ta’limotlarning tarixdagi o‘rnini tadqiq etadi.

Uchinchisi, bu me’yoriy-aksiologik etika bo‘lib, etika qoidalarini, axloqiy zaruriylik talablarini, axloqiy ongni o‘rganadi.

To‘rtinchisi, bu kasbiy etika muayyan kasb doirasidagi kishilarning axloqiy xususiyatlari bilan shug‘ullanadi.

[1] Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud ahloq.-T.: «O‘qituvchi», 1992, 11-bet

Beshinchi, tarbiyaviy etika nazariyasi axloqiy tarbiyaning omillardan samarali foydalanish yo'llari, shakllari va vositalarini belgilash masalalarini umumlashtiradi.

Axloq genezisi

Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundanoq axloq paydo bo'lgan. Aniqrog'i, odamzodning o'zi ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan.

Axloq va uning mazmun-mohiyatiga doir juda ko'plab ta'riflar mavjud. Jumladan, axloq ruscha moral, lotincha «mores», «moralitas» so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. U arabcha so'z bo'lib, xulq so'zining ko'pligi. Axloq kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. U - ijtimoiy ongning muayyan shakli bo'lib, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarining, ya'ni hatti-harakat prinsiplari va normalarining yig'indisidir.

Abdulla Sher "axloq" iborasi ikki xil ma'noga ega ekanligini, ya'ni umumiy tushuncha sifatida u fanning predmetini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va hatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Shuning uchun "Axloq – jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy hatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisadir"[1] desa, akademik J.Tulenov "Axloq muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat, me'yor, qoida va prinsiplar majmuasidir"[2] deb ta'rif bergan. A.A.Guseynov va R.G.Apresyanlar tadqiqotlarida "Axloq bu 1) aqlning affekt (jazava) ustidan hukmronligi; 2) oliy baxt-saodatga intilishi; 3) jamiyatda insonning yashash usuli; 4) erkin yashashi, beminnat xizmat qilishi; 5) insoniylik yoki odamlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishi; 6) iroda erkinligi; 7)

[1] Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. - T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. -8 b.
[2] Tulenov J.T. Dialektika nazariyasi. –T.: «O'zbekiston», 2001. -264 b.

axloqiylikning oltin qoidalari asosida o‘zaro munosabatda bo‘lishi”[1],- degan ta’rif berilgan. A.A.Radugin esa “Axloq bu burch va axloqiy qadriyatlarni shaxsiy, subyektiv, beg‘araz hurmat qilish asosida inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarni qadriyatli-qat’iy talab, amr asosida tartibga solish shaklidir”[2],- deb ta’riflagan. Faylasuf olima M.A.Nurmatova esa axloq deb, avvalo inson bilan inson, so‘ngra inson bilan jamiyat o‘rtasidagi obyektiv va subyektiv aloqadorliklar tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh, millat, elatning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan, yaxshi ezgu niyatlar sari yo‘naltiradigan, qadriyat maqomini olgan muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuiga aytiladi deb xulosa qilgan.

Axloq me’yorlari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe’l-atvoriga qo‘yiladigan talab. Bu me’yorlar shaxsning jamiyatga, Vatanga, davlatga munosabatini, shuningdek, shaxsning turmushdagi, ayrim kishilarga, kasbi-koriga, mutaxassisligiga, hatto o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlaridagi xatti- harakatni ham o‘z ichiga oladi.

Insonning paydo bo‘lishi tarixiga nazar tashlasak, insonning paydo bo‘lishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir-biriga qapama-qarshi ikki qarash mavjud. Birinchisi, diniy nuqtai nazar ya’ni odamni Xudo yaratgan, ikkinchisi Charlz Darvin qarashiga ko‘ra evolyutsion ta’limot, odamni tabiat yaratgan, u tabiatning bir qismi deb bilish. Shuni ham aytish kerakki, ayrimlar dunyoqarashida diniylik bilan dunyoviylik bir-biri bilan uyg‘unlashadi. Ular nafaqat uyg‘unlashadi, balki bir-birini taqozo etadi. Xususan, dunyoviylik diniylikning mavjudlik sharti.

Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar ana shu tanlovni ro‘yobga chiqarishga, yana ham aniqroq aytganda, uni osonroq amalga oshirishga xizmat qilgan. Axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne’mat. Ya’ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o‘zini - o‘zi va iloji bo‘lsa, o‘zgalarni

[1] Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник – М.: Гардарики. 2004. -26 б.
[2] Радугин А.А. Этика. Учебное пособие для высших учебных заведений. – М.: Центр. 2003. -88 б.

axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda ijobiy fazilatlar, ya'ni savob ish sanaladi.

Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar muqaddas kitoblarda o'z aksini topgan zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da axloqiy qonun-qoidalar ishlab chiqilgan. Unda insonni inson tomonidan o'ldirishi qat'iy taqiqlanishi bilan birga hatto, nabobat va hayvonot olamini behuda halok etish, nobud qilish qat'iyan man etilgan.

Inson faqat ezgu uy, ezgu niyat na ezgu amallar bilan yashashi lozimligi ta'kidlangan.

Buddizmning muqaddas manbalari Tripitakada o'ldirish, nobud qilish eng katta gunoh hisoblanashi ta'kidlanadi.

Xristianlikning muqaddas kitobi Injilda "O'z qavmdoshingni cev", "odam o'ldirma", degan da'vatlar va dalillar bor.

Muqaddas kitob Qur'oni Karimda esa xun olishdan ko'ra tovon olmoq ma'qulligi aytilgan. Sahih hadislarda hatto chumoliga ham ozor berish mumkin emasligi bayon etilgan.

Muqaddas manbalardagi mazkur qonun-qoidalar inson axloqiy hayotining asosi sifatida hozir XXI asrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Masalan, nomus tushunchasini olaylik.

Tarixga nazar tashlasak, hatto xun olish jarayonining ham taraqqiy topib borganini ko'rish mumkin. Hozirgi davrga kelib esa, xun olish axloq muammosi sifatida kun tartibidan chiqib ketdi. Nomus tushunchasining asosiy qamrovi esa boshqacha bo'ldi. Demak, insoniyat tarixida axloqiy taraqqiyot bo'lgan va u qaysidir ma'noda qat'iy izchilik va tadrijiylikka ega bo'lmasada davom etmoqda. Axloq esa ana shu taraqqiyotdan hech qachon chetda turmaydi.

Axloqning jamiyatdagi funksiyalari:

- Kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- Kishilar faoliyatini insonparvar qadriyatlar asosida ezgu, halol va adolatli munosabatlarga undaydi;
- Jamiyat va shaxs taraqqiyotining umumijtimoiy qonuniyatlar asosida amalga oshiradi.

Axloq kishining jamiyatda tutgan o‘rnini belgilab beradi. Bu bilan u kishi axloqiy harakat qilishi lozim bo‘lgan maqsadini ham asoslab beradi. Inson jamiyatda shug‘ullanadigan faoliyat turlariga hamohang ravishda axloqni quyidagicha shakllarda tasnif qilishimiz mumkin:

1. fuqarolik axloqi;
2. mehnat axloqi;
3. milliy axloq;
4. sinfiy axloq;
5. harbiy axloq;
6. oilaviy axloq;
7. do‘stlik axloqi;
8. jamoa axloqi;
9. tadbirkorlik axloqi;
10. kasbiy axloq va boshqalar.

Demak axloq – bu barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan ijtimoiy talab va ehtiyojlar, ijtimoiy munosabatlardan qat’iy nazar insonlarning o‘zini-o‘zi idora qilish shakllari va me’yori, o‘zaro muloqot va munosabatlarining muayyan jamiyat uchun namuna darajasidir.

Axloq tuzilmasi

Axloq ham o‘ziga xos ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, u alohida, ba’zi kishilarga emas, balki jamiyatdagi barcha kishilarga xos bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotdagi hatti-harakatlari, yurish-turishlari, o‘zaro bir-biriga hamda ijtimoiy birlashmalarga bo‘lgan munosabatlarni ifodalaydi. Shuningdek, o‘zaro munosabatlarni tartibga solib, insonlar hayotida tarbiyalovchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega.

Axloq tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar odatda, uch omil-asosdan iborat. Birinchisi – axloqiy anglash (axloqiy ong), ikkinchisi axloqiy his etish (axloqiy hissiyot) va uchinchisi axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-harakatlar, axloqiy faoliyat).

Inson xulq-odob fazilatlarining mohiyati mazmuni, namoyon bo‘lish va shakllanish xususiyatlariga e’tibor beriladigan bo‘lsa,

ularning bir qismi shaxsning bevosita munosabat, muomala va muloqatida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, bu fazilatlar go'yoki inson ahloqiy ongining kategoriyalaridir. Jumladan, xulq-odob-inson munosabatlarini ichki va tashqi jihatdan xarakterlovchi, muayyan jamiyat a'zolarining turli munosabatlaridagi shakllanganlik darajalarini belgilovchi falsafiy kategoriya ekanligi bilan ham e'tiborga loyiqdir.

Axloqiy ong – qarashlar, g'oyalar va hissiyotlar yig'indisi va ularning inson ongida aks etishi. Axloqiy ong deb, kishilarning jamiyatdagi axloqiy hatti-harakatlari, yurish-turishlari, yashash qoidalari, tamoyillari, shuningdek, ularning o'zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy guruhlarga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi qarashlari, tasavvurlari, jami axloq haqidagi nazariyalarini tushunish mumkin.

Axloqiy ong yordamida axloqiy madaniyat shakllanadi. Axloqiy madaniyat axloqiy ongni inson xarakteriga, tabiatiga singib, amaliy faoliyatda namoyon bo'lishi. Axloqiy madaniyat mustaqil falsafiy kategoriya bo'lib, etika, axloqiy ong kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq va bir butunlikni tashkil qiladi. Unda axloqiylikning nazariy jihatlari o'z aksini topib qolmasdan, balki ongli axloqiy faoliyatni, hatti-harakatni yuzaga keltiradi.

Axloqiy mafkura – kishilar hatti-harakatining yig'indisi. Axloqiy norma, axloqiy qarashlar, axloqiy ta'limotlardir. Axloqiy mafkurada shaxsning, ijtimoiy guruhning, millatning, jamiyatning axloqiy mohiyati ko'rinadi. Chunki bunda axloq abstrakt shaklda olinib, tushunchalar orqali, hukmlar orqali va muhokamalar orqali bayon etiladi va baholaydi.

Axloqiy psixologiyada biz, axloqiy sezgi, axloqiy idrok, axloqiy tasavvur, axloqiy kayfiyat, axloqiy xarakter bilan munosabatga kiramiz. Shu bois unda axloqning tashqi tomonlari, xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

«Xulq-odob madaniyati deb, shaxsning muomala va hayot faoliyatining barcha sohalarida umuminsoniy axloqning qoida, dastur, talablari, chegaralash va ta'qiqlashlariga asoslanadigan munosabatiga aytiladi".[1] Xulq-odob madaniyati o'sgan sari uning

[1] Yo'ldoshev M.M. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yoshlarini tarbiyalash jarayonida xulq-odob madaniyati va siyosiy madaniyatni shakllantirish muammolari Falsafa fan. dok. diss.1999,26-bet.

ijobiy tomonlari qadriyatga aylanib boraveradi. Xulq-odob qadriyatlari kishilar tarixiy turmush jarayonida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zida bilim, baho, tarbiya kabi sifatlarni mujassam qilgan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarni tashkillashtirishga, barqarorlashtirishga hamda yangi avlod turmush tarziga ushbu munosabat va sifatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bunda muhim omil vorislik hisoblanadi. Xulq-odob qadriyatlari borasidagi vorislik ajdodlar yaratgan madaniyatni, ma'naviyatni o'rganish, rivojlantirish, hayotga tatbiq etishdan iborat. Xulq-odob qadriyatlari insoniyat taraqqiyotida bir-biriga zanjirday bog'langan avlodlar vorisligidan iborat.

Axloqiy hissiyot – insonning, shaxsning jamiyat va o'z atrofidagi kishilarga munosabatini ifodalaydigan kechinmalarini, his - tuyg'ularini o'ziga xos ko'rinishlarini anglatadi. Axloqiy hissiyotga insonning va shaxsning o'z qadr-qimmati hissi, ijtimoiy burch hissi, vatan hissi, vatanparvarlik tuyg'usi, o'rtoqlik, jamoaviylik hissi, mehr-muhabbat, g'oliblik hissi kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Axloqiy munosabatlar kishilarning axloqiy hatti-harakatlari, faoliyati jarayonida ular o'rtasida shakllanadigan, mavjud bo'ladigan o'zaro aloqalar, bog'lanishlar, munosabatlarning tizimidir. Axloqiy munosabatlar zamirida axloqiy hatti-harakat, axloqiy faoliyat yotadi. Shu bois ham o'ziga xos axloqiy motiv, sabab, intilish bilan, ya'ni yaxshilik qilish, burchga sodiq holda harakat qilishni, muayyan axloqiy ideallarni amalga oshirish maqsadida qilingan sa'yi harakatni axloqiy harakat deb aytiladi. Axloqiy hatti-harakatlar jarayonida axloqiy baholash ijtimoiy voqelikning turli hodisalarini va kishilarning hatti-harakatlarini ular qanday axloqiy ahamiyatga ega bo'lishiga qarab ma'qullaydi yoki aksincha qoralaydi. Bir so'z bilan aytganda, axloqiy baholash yaxshilik va yomonlik tushunchalarida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan axloq tuzilmasidagi uch omilsiz axloq tushunchacini to'laqonli tasavvur qilib bo'lmaydi. Axloq tuzilmasidagi bu uch omil muntazam bir-birini taqozo etadi. Biri ikkinchisiz kamdan-kam holatlarda mavjud bo'ladi. bir zanjirning o'zaro bog'lab turuvchi uch halqasi sifatida doimo bir-birini taqozo qiladi.

O‘zbekistonning siyosiy-iqtisodiy va ma’naviy vazifalarini hal etish bir qator boshqa omillardan ko‘ra, ko‘proq yoshlarimizning axloqiy ongi, axloqiy faoliyati va axloqiy tarbiyasi darajasiga bog‘liq. Sir emaski, hech bir jamiyat odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Kishilarda axloqiy anglash (axloqiy ong), axloqiy his etish (axloqiy hissiyot, axloqiy maqsadlar) va axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-harakatlar, axloqiy faoliyat) axloqiy tarbiya vositasi bilan amalga oshiriladi. Chunki, axloq tarbiyaning eng ta’sirchan usuli, bir so‘z bilan aytganda, ta’sirchan qurolidir. Undan oqilona foydalanib kelajak avlodni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, haqsevarlikka o‘rgatish kerak.

Axloqiy tarbiya axloqning eng asosiy funksiyalaridan biri bo‘lib, inson farzandiga tug‘ilgandan to umrining oxirigacha insonga xos barcha axloqiy fazilatlarni singdirib, uni barkamol inson qilib tarbiyalashga aytiladi. Axloqiy tarbiya ilm, bilim berish tarbiya bilan uzviy va uyg‘un amalga oshiriladi. Bunda qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan axloqiy boyliklar, axloqiy o‘gitlar, pand-nasihatlar, xullas axloqiy merosning bugungi kun uchun ahamiyatli qismidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy ideal – kishi yoki guruhning intilishi va hatti-harakatini belgilab beruvchi namuna, oliy maqsad. U ideal shaxs rivojining maqsadi bo‘lgan mukammal axloqiy munosabatlar to‘g‘risidagi nazariy asoslangan qarashlar yig‘indisi.

Inson intilishi lozim bo‘lgan oliy namuna sifatida axloqiy ideal kishilarning kundalik turmushidagi hatti-harakatini belgilab beruvchi axloqiy qoidalardan farqli o‘laroq ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi va o‘zini-o‘zi tarbiyalash oqibat maqsadini belgilab beradi. Masalan, tadbirkor axloqiy ideali, talaba axloqiy ideali, umuminsoniy axloqiy ideal kabi.

Axloq inson va jamiyat hayotida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Axloqning tartibga solish, boshqarish funksiyasi.

Mazkur funksiya tartibga solish, boshqarish, moslashish, talab qilish, taqiqlash, chegaralash, ibrat-namuna bo‘lish orqali

amalga oshiriladi. Axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini esa axloq tamoyillari, normalari, jamoatchilik fikri, el-yurt o'rtasidagi obro'-martaba, an'ana, urf-odat, o'git, pand-nasihat va boshqalar tashkil qiladi.

2. Axloqning aksiologik funksiyasi axloqiy qadriyatlarning qanchalik hayotiy yoki hayotiy emasligini ifodalovchi vositalardan biri sifatida amal qiladi.

3. Axloqning maqsadga yo'naltirish funksiyasi har bir jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan axloqiy qadriyatlar tizimini ishlab chiqish va kelgusidagi istiqbollarini belgilab beruvchi yo'lchi yulduz vazifasini bajaradi.

4. Axloqning bilish funksiyasi yaxshi va yomon fazilatlarni anglab olish asosida voqelik to'g'risida muayyan bilimlarni hosil qlladi va muayyan vaziyatda axloqiy tanlov vazifasini bajaradi.

5. Axloqning tarbiyaviy funksiyasi bu fuqarolarni axloqiy jihatdan tarbiyalashni amalga oshiradi.

6. Axloqning kommunikativ funksiyasi fikr almashish, o'zaro aloqa qilish vositasi konsensus vazifasini bajaradi

Etikaning kategoriya va tamoyillari

Etikaning asosiy kategoriyalari kishilarning bir birlariga, oilaga, jamoaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi hamda insonlarni to'g'ri yo'lga solishga, tevarak-atrofda yuz berayotgan hodisalarni baholashga hamda ulardan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Etika kategoriyalaridan biri bu yaxshilik va yomonlikdir. Yaxshilik bu ezgulik alomatl, yomonlik esa yovuzlik namoyoni. Etika yaxshilik tushunchasining konkret tarixiy mazmuniga jamiki ijobiy, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni kiritadi. Kishilarning mehnatsevarlik, halollik, mardlik, insoniylik, oliyjanoblik, mehr-muhabbati, himmati, muruvvati, kabi ijobiy hatti-harakatlarini yaxshilik deb ataydi va muayyan jamoaga, shaxsga, insonga beriladagan axloqiy baho, fazilatlarni ifodalaydi. Yomonlik esa yaxshilikning aksi, kishidagi salbiy hatti-harakatlar, illatlar amaliyoti.

Etikaning yana bir muhim kategoriyasi bu adolat, adolatlilik bo‘lib, ularning mazmunida poklik, to‘g‘rilik, haqiqat mujassamlashadi.

Insoniyat yaralgandan buyon adolatni qadrlab yashagan. «Adolatli bo‘lish – adabning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Har bir kishi adab va insoniylikka yetishaman desa, adolatli so‘z aytuvchiga ham, eshituvchiga ham manfaat yetkazadi. To‘g‘ri so‘zlab o‘lmoq yolg‘on gapirib qutulmoqdan afzal. To‘g‘rilik yaxshilik sari yetaklaydi, yaxshilik esa adolatga yetkazadi»[1]. Adolat bo‘lgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo‘lgan. Adolat oyoq osti qilingan joyda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. Inson axloqiy kamolotining fazilatlaridan hisoblangan “adolat” tushunchasi va adolat tuyg‘usi ma’naviy-axloqiy merosimizda keng tavsif hamda tasnif etilgan. Jumladan, bu axloqiy kategoriya xalq maqollarida ko‘p va xo‘p talqin qilingan mavzulardan hisoblanadi. Bir maqolda o‘qiymiz: “Adolat qilichi kesgan qo‘l og‘rimas”[2].

Buning ma’nosi shuki, adolat tarozi posangisi singari har bir ishni tenglik, haqiqat va odilonalik tarzida hal qiladi. Shu sababli adolatli qarorda nohaqlik ham, norozilik ham bo‘lmaydi. Adolat qudratli kuch sifatida muammo yechimini mutlaq darajada hal qiladi. Shu bois ham adovat emas, adolat yengadi degan g‘oya kuchli ma’naviy-ma’rifiy, hamda axloqiy tarbiya vazifasini bajaradi. Adolatga zid bo‘lmish adolatsizlik adovatga yo‘l ochadi. Qayerdaki adolat bo‘lmasa, o‘sha yerda adovat ildiz otadi. Adolatning qudrati o‘zganing manfaatini ro‘yobga chiqarish, oy singari zulmatni yoritish, johillikka barham berish va daryo misoli yerni yashnatish, har bir ishga adolat ko‘zi bilan qarash, bir so‘z bilan aytganda, haqni qaror toptirishdir. Bu ma’nolar adolatning naqadar muhim axloqiy kategoriya ekanligini, adolatparvar bo‘lish kishidan juda katta ma’naviy kuch talab qilishini ko‘rsatadi.

Etikaning yana bir muhim kategoriyasi bu burch. U kishilarning jamiyatda o‘z vazifalarini bajarishi odamlarga va ijtimoiy hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarini ifodalaydi. Shu ma’noda olimlar tomonidan tez-tez eslatiladigan «Etika - burch

[1] Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. – T.: «Fan», 1994. – 14 b.
[2] O‘zbek xalq maqollari. – T.: «O‘qituvchi», 1989. –B. 44 -96.

haqidagi fandir»[1] degan fikr haqiqatga yaqindir. Chunki, burch-axloqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatidir. "Burch shaxsning axloqiy faoliyatini ifodalovchi mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir»[2]. Bosh qomusimizning 11-bobida barcha fuqarolarning konstitutsiyada belgilab quyilgan burchlarini bajarishga, qonunlarga amal etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga, O'zbekiston xalqining tarixiy madaniy va ma'naviy merosini avaylab asrashga, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'inlarni to'lashga majburdirlar va O'zbekiston Resupblikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir deb ta'kidlanadi.

Etikaning vijdon va vijdoniylik kategoriyasi insonning o'z xulqini muayyan jamiyat etika qoidalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholashi va nazorat qilishi, o'z hatti-harakatlarini va bu hatti-harakatlarga bog'liq bo'lgan his-tuyg'ularni, kechinmalarni o'zida tahlil etishga aytiladi.

Vijdon va vijdoniylik inson uchun g'oyat zaruriy, qimmatli axloqiy fazilat, uning o'z mezoni va bahosi bor. Vijdon quvonish, yengil tortish, iztirobdan qutulish, xijolatdan forig' va yuzi yorug' bo'lish kabi ijobiy his-tuyg'ular, shuningdek, tavba, uzr so'rash, iztirob chekish, pushaymon va xijolat bo'lish, uyalish kabi salbiy kechinma, his-tuyg'ularda, hatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Vijdon inson uchun eng oliy hakam.

Yana bir muhim kategoriya inson-sha'ni, or-nomus, qadr-qimmatidir. Qadr-qimmat yoki or-nomus deb insonning jamiyatdagi o'z qimmatini, izzat-nafsi, sha'ni, sharafi, shon-shuhratini anglashni, ajdodlar, oila va millat sha'niga dog' tushurmaslikni va ularning jamiyat tomonidan tan olinishi hamda e'tirof etilishiga aytiladi. U shaxsiy, ijtimoiy, milliy, kasbkor sharafi, yigitlik sha'ni, qizlik nomusi, izzat, hurmat, ishonch, rag'bat, maqtov, taqdirlov, nishonlash, xotirlash, nomini abadiylashtirish va hokazo kabi axloqiy fazilatlarda namoyon bo'ladi.

---

[1] Попов Л.А. Этика. – М.: Центр, 1998. – 10 с.

[2] Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. – T.: «Fan», 1994. – 28 b.

Etikaning g'oyat muhim kategoriyalar turkumiga hayotning ma'nosi va mazmuni, baxt-saodat kiradi. Hayotning ma'nosi deb ongli insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi, uning umri, hayot faoliyatining umumiy yo'nalishini anglatuvchi jarayonlarga aytiladi. Hayotning ma'nosi insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadi, hayotda ko'zlagan manfaati va belgilagan vazifalarida namoyon bo'ladi. Professor X.Shayxova hozirgi jamiyatimiz haqida fikr yuritib, shunday deydi: Hozirgi jamiyatimiz «baxtli yashash imkonini yaratmoqda. Bir donishmanddan «Kim baxtli?» deb so'rashganida u javob beribdiki, «Fikrni to'g'rilik bilan, so'zni rostlik bilan, mehnatni halollik bilan, fe'lni saxovat bilan bezagan kishi baxtlidir»[1]. Demak, bunda quyidagi mulohazalar diqqatni tortadi:

1) Jamiyat baxtli yashash imkonini yaratadi.

2) Shaxsning o'zi baxtli yashashga intiladi.

Demak, shaxs baxtli yashashi uchun to'rt qoidaga amal qilishi lozim: to'g'ri fikrlash; rost so'zlash; halol mehnat qilish; xush axloqqa ega bo'lish.

Hozirgi sharoitda ham jamiyat yaratgan imkoniyatlardan foydalanish shaxsning o'ziga, uning faoliyatiga bog'liq. Shaxs ijtimoiy qonuniyatlarga rioya qilsa, u hayotda baxtli yashab o'tadi. Chunki, «hayotning ma'nosi faqat yeb-ichish, kiyim-kechak va o'yin-kulgidan iborat emas. Bu moddiy qadriyatlar insonga yashash va faoliyat ko'rsatish imkonini beradi»[2], xolos. Imkoniyatlardan ezgulik maqsadi yo'lida unumli foydalanish shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, o'z faoliyatida poklik, halollik, sabr-qanoat va shijoat kabi axloqiy mezonlarni dasturi amal qilishi hayotning haqiqiy mazmunini belgilaydi. Bugungi jamiyatimizda hayot mazmuni shaxsning orzu-maqsadlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan. Uning so'nggi nuqtasi baxtli yashashni ta'sis etishdan o'zga narsa emas. Shu bois ham hayotning mazmunini yashash uchun kurash, yashash uchun kurash ehtiyojlarini qondirish, ehtiyojlarni qondirish esa, cheksiz jarayon ekanligi va uni muayyan darajada qondirish uchun shaxsda ma'naviy-axloqiy immunitet bazasi bo'lishi kerak.

Hayotning mazmuni bu etika kategoriyasi sifatida ma'naviy - axloqiy qadriyatlar majmuini anglatib, shaxs tomonidan ixtiyoriy

[1] Shayxova X. Ma'naviyat va sog'lom avlod kamoloti. – T.: «Akademiya», 2006. - 13 b.
[2] O'sha manba. – 14 b.

tanlab olinadigan, ijtimoiy ma'no kasb etuvchi oliy strategik hayotiy faoliyat uslubi, turmush tarzidir. U axloq kategoriyasi sifatida etikaning markaziy muammolaridan biri bo'lmish insonning borliq va turmushdagi o'rni, yashashdan maqsadi va hayot mazmundorligini anglatadi.

Inson hayotining oliy maqsadi baxt-saodatga erishishdir. Oddiy so'z bilan aytganda baxt bu insonning orzu-istaklari, maqsadlariga yetishib yashashidir. Yoki boshqacha qilib aytganda, baxt, baxtlilik har bir kishining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilganligi, o'z maqsadlari, orzu-istaklarining ro'yobga chiqqanligi, hayotdan, o'z hatti-harakatlaridan ma'naviy qoniqish oqibatida hosil bo'ladigan oliy ne'matdir. Baxt tushunchasi xilma-xil. Vatan baxti, shaxs baxti, mehnat baxti, yor baxti, oila baxti, farzand baxti, qarilik baxti va boshqalar. Insonga baxt o'z-o'zidan kelmaydi. Har bir inson o'z baxtini halol mehnati, tinch-totuv yashashi, kasbkor, ilm-fan, texnika yutuqlarini egallashi bilan topadi. Demak, baxt-insonlar orasidan o'zining halol mehnati bilan munosib o'rin topish, o'zgalarning yukini yengil qilish, ona xalqi orasida nomi ardoq bilan tilga olinishi, el farovonligi uchun qo'shgan hissasi, kelajak avlodlarga qoldira olgan yaxshi nomi.

Etika kategoriyalari xaqida fikr bildirar ekanmiz, jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga doir axloqiy kategoriyalar va hozirgi zamon global etika muammolarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Gap shundaki, so'nggi paytlarda jahon etikashunos olimlari global etika to'g'risida fikrlashmoqda[1]. Unga ko'ra, XXI asr boshidayoq insoniyat hayotiga narkobiznes, OITS, «ommaviy madaniyat» niqobidagi salbiy holatlar, diniy ekstremizm, terrorizm kabi illatlarning tahdidi kuchaydi. Bu umumiy illatlarga qarshi global etika normalarini ishlab chiqish va umumbashariyat ongiga singdirish muhim vazifadir.

Albatta, global etika normalari umuminsoniyat uchun ijobiy ta'sir vositasiga ega. Bu normalar milliy axloq an'analarini hisobga oladimi? Bu muammolarni jahon olimlari tomonidan ham hal etishga harakat qilinmoqda[2]. Unga ko'ra, global etika normalari barcha milliy

[1] Эфроимсон В. П. Генетика этики и эстетики. – М.:СПбИзд ПГУ, 1995. – 212 с. Гуревич П. Современний гуманитарний словарь. – Москва: Республика, 1999. Даллемар Ф. Глобальная этика: Преодоление дихотомии «универсализм» - «партикуляризм»// Вопроси философии. – Москва, 2003. – №3. – С. 13-29.

[2] Гусейнов А.А. Обшее абсолютной морали // Вопроси философии. – Москва, 2003. – №3. – С. 3-12.

axloq an'analariga xos bo'lgan Adolat, Majburiyat, Hayot mazmunini anglash kabi axloq kategoriyalariga asoslanadi. Ularni odamlar ongi va qalbiga singdirishda «oltin o'rta hollik» – me'yor qoidalari birlamchi hisoblanadi[1]. Shu ma'noda, hozirgi jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga doir axloqiy kategoriyalarni belgilashda global etika normalari sifatida belgilanayotgan quyidagi axloqiy kategoriyalarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Shaxsda adolat tuyg'usini shakllantirish.
2. Shaxsda majburiyat ko'nikmasini hosil qilish.
3. Shaxsni hayotsevarlikka o'rgatish.

Mazkur axloqiy qadriyatlarni shaxsning ongi va qalbiga singdirishda quyidagi me'yor tamoyillariga asoslaniladi: insoflilik, vijdonlilik, aqllilik. Zero, boshqa global muammolardan farqli o'laroq, global etikaning tushunchalari, normalari, g'oyalari va axloqiy qadriyatlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Milliy jamoa, umuman, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga doir axloqiy kategoriyalarni belgilashda global etika normalariga uyg'unlashish muhim masala.

Ta'kidlash lozimki, milliy jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini ta'sis etishda eng maqbul yo'lni tanlash lozim bo'ladi. Chunki milliy an'analar o'ta ustuvor darajada qabul qilinsa, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida mahdudlik, xudbinlik va mutaassiblik illatlari paydo bo'ladi. Bordi-yu, umumbashariy odatlar keskin ustuvorlik qilsa, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida milliy qiyofasizlik, o'zlikni yo'qotish va havoyi ideallarga sodiqlik tarkib topadi. Bu muammoni hal qilishda bugungi falsafiy fanlar jumladan, etika oldida muhim vazifalar turibdi. Shu ma'noda, jamiyatimiz ma'naviy-axloqiy muhitining asoslari va me'yorlarini belgilashda ma'naviy va axloqiy omillarga e'tibor qilish maqsadga muvofiq. Ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviylik – odoblilikning ichki jihati, axloqiylik esa uning reallikda namoyon bo'lishidir.

Etikaning tamoyillariga insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va o'zaro hamkorlik kabilar kiradi. Insonparvarlik (gumanizm) - kishilarga nisbatan mehr-oqibatli, muruvvatli, himmatli, hurmatli bo'lish, kishilarga yaxshilik qilish, kishi gunoh qilganda

[1] Степанянс М. Метафора «золотая середина» как ключ пониманию общего и частного в философии морали //Вопроси философии. – Москва, 2003. – №3. – С. 42-48.

ham uni kechirish, uni tushunishga harakat qilish, kishining sha'ni va mustaqilligini hurmatlash demakdir.

Insonparvarlik odamzot paydo bo'lgandan beri paydo bo'lgan shaxsiy, faqat insongagina xos ongli fazilat. Uning negizida odamlarga mehr-oqibat ko'rsatish, ularni hurmatini joyiga qo'yish, ardoqlash, insonning moddiy farovonligini oshirish, ma'naviy kamolatini yuksaltirish, baxtli, sifatli, erkin, ozod, dahlsiz yashashini ta'minlash, kelajagi haqida g'amho'rlik qilish kabi maqsad va g'oyalar bilan sug'orilgan axloqiy hatti-harakatlar hamda fazilatlar yotadi

Etikaning yana bir muhim tamoyili mehnatsevarlik, ya'ni insonning moddiy va ma'naviy boylik yaratishga va ijodkorlikka hamda farovon umuminsoniy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan faoliyat. Mehnatsevarlik kishi kamolotining birlamchi omillaridan biri hisoblanadi. U kishilarni muhtojlikdan, ma'naviy - axloqiy buzuqlikdan saqlab insonni ham ma'nan, ham jismonan chiniqtiradi. Mehnat, mehnatga bo'lgan munosabat tufayli odamning obro' e'tibori ortadi, kishilar haqida yaxshi taassurot va yaxshi nom qoladi. Eng asosiysi kishilarda mehnatsevarlik fazilati ularning hayotini sermazmun, serjilo va barakali qiladi.

Etikaning eng muhim prinsipi bu vatanparvarlik, Vatan tuyg'usi, Vatanni sevishdir. Milliy davlatchiligimiz rivojida etikaning asosiy tamoyili bo'lmish vatanparvarlik g'oyasi ham muhim o'rin tutgan. Unga ko'ra, Vatan – insonning bir parchasi (bu atama o'zbek tilida «yurt» deb yuritilgan), davlat Vatan manfaatlari uchun tuziladi. Ilk muqaddas kitob – «Avesto»da Vatan deganda «Insonning botinini, inson uchun zarur bo'lgan yer va suvni tushurish» uqtiriladi[1]. Shuningdek, Vatan nomini pok saqlash va uni muqaddas bilish qat'iy talab darajasiga ko'tarilgan. Hatto Vatan tuprog'ini pok saqlash maqsadida insonning jasadi tuproqqa ko'milmagan, faqat suyak tarzida ko'milgan, xolos. Bunday vatanparvarlik mazmuniyati, ayniqsa, davlat xizmatchilarida kuchli shakllangan edi. Unga ko'ra, davlat xizmatchilarining asosiy burchi Vatanni himoya qilishdan iborat bo'lgan. XIX asrda sharqshunos olim I.Bichurin Xitoy solnomalarida bir bitigni uchratgan va quyidagicha tarjima qilgan: «Tabg'ach imperatorlaridan biri turkiylar xoqoni Modega (bu shaxs eramizdan

[1] Avesto. Tarixiy - adabiy yodgorlik. – T.: «Sharq», 2001. – 101b.

avvalgi IX-VIII asrlarda faoliyat yuritgan O'g'uzxon) maktub jo'natdi. Maktubda xonning eng suyukli malikasini tortiq qilish so'ralgan edi. Turkiylar xoqoni davlat a'yonlari bilan kengash o'tkazdi. Kengash ahli bir ovozdan dedi: «Bosh malikamizni so'rashga qanday haddi sig'di?! Kurashamiz». Lekin xoqon o'zgacha yo'l tutib, malikani so'ralgan yurtga yubordi. Tabg'ach imperatori yana maktub yozdi va bu gal turkiylar xoqonining o'zi minadigan tulpor otini so'radi. Turkiylar xoqonligining a'yonlari Kengashda tulpor otni bermaslik va Tabg'achga qarshi urush e'lon qilishni tavsiya qilishdi. Biroq turkiylar xoqoni bu gal ham so'ralgan tulpor otni berib yubordi. Turkiylar yurtiga uchinchi maktub keldi, unda shunday deyilgandi: «Mamlakatingizning biz tomondagi hududida tashlandiq bir parcha yer bor, shuni bizga bersangiz». Turkiylar xoqoni yana Kengash chaqirib, masalani kun tartibiga qo'yadi. Kengash qatnashchilari: «Haqiqatan ham u yer tashlandiq, botqoq, ekinga yaroqsiz joy, bersak bo'ladi», deyishadi. Shunda xoqon: «yo'q, ular bu tashlandiq yerni so'rash bilan bizdan Vatanni so'rashyapti, endi kurashamiz»,[1] - deydi. Turkiylar xoqoni qudratli qo'shin bilan yurish qiladi va dushmanni yengadi. Xitoy solnomalarida yozib qoldirilgan bu tarixiy voqeada vatanparvarlik tamoyili shunday xulosani beradi: birinchidan, Vatan manfaatini himoya qilishda xalqlarning vatanparvarlik tuyg'usi muhim rol' o'ynaydi; ikkinchidan, Vatanning keraksiz joyi bo'lmaydi u muqaddas bo'lib, Vatan manfaatlariga doir masalalar davlat miqyosi darajasida ko'rib chiqiladi; uchinchidan, Vatanga dahl qilinganida, uning himoyasida qat'iy bo'lish hamma uchun burch hisoblanadi. Davlatchiligimiz tarixida bunday voqealar ko'p bo'lgan. Lekin davlat a'yonlari va xalq bunday voqealarga munosib javob berishgan. Ular birov madaniyat so'rasa, berganlar (yuqoridagi voqeada «malika» – turmush tarzi, urf-odat, madaniyat timsoli), mulk so'rasa berganlar (yuqoridagi voqeada «ot»-boylik, mulk timsoli edi), biroq Vatan haqida so'z borganida hotamitoylik qilinmagan. Vatanni muqaddas bilish va uni himoya qilish eng oliy axloqiy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ham etikada vatan, vatanparvarlik asosiy axloqiy tamoyil sifatida milliy va umuminsoniy jihatdan o'rganiladi. Vatanga muhabbat oddiy mafkuragina emas, balki barkamol

[1] Qaranг: Бичурин И.В. Собрание сведение о народах обитавших в Средней Азии в древних временах. – М.: Госиздат, 1951. – 104с.

axloqdir. Vatanparvarlik tushunchasi tarkibiga kirgan barcha fazilatlar axloqiy qadriyatlar tizimiga ham kiradi. Xalqimiz Vatanni bizga iloha Umay onamiz bergan deb hisoblashar, shu sababli Vatanga «ona» so'zini qo'shib aytishar edi. VIII asrdagi shahzoda To'nyuquq bizni ogohlantirgan edi: «O', turkiy xalq! Pokning uyati yaxshi, deydilar. Tangri Umay muqaddas yer-suvni (Vatanni) bosib berganmi, nega uning himoyasida sustlanasan. Chekinma, Vatan uchun o'lsang ham mayli!»[1]. Demak, vatanga xiyonat qilish onaga xiyonat qilish hisoblanadi. Shunday ekan, or-nomusli bo'lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, mardlik va qahramonlik, mehr-muruvvatlilik, sabr-toqatli ya'niy iymonli bo'lishlik kabi axloqiy qadriyatlarimiz bugungi kun shiori bo'lmog'i lozim. Yoshlarimizni mazkur fazilatlar sohibi qilib tarbiyalamog'imiz shart.

Etikaning yana bir muhim prinsipi baynalminallik va xalqaro hamkorlikdir. Baynalminalchilik arabcha "baynalmilal", millatlararo so'zidan olingan bo'lib, jahondagi yoki muayyan mamlakatdagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi va hamkorligini ifodalaydi.

Etikaning, axloqiy munosabatlarning me'yorlariga xushmuomalalik va shirinsuxanlik, halollik va rostgo'ylik, kamtarlik, faxr va iftixor, oliyhimmatlilik, samimiylik, sadoqat va vafo, sharmu-hayo singarilar kiradi. Xushmuomalalik insonning kishilarga hurmat, samimiy, yoqimli, muloyimlik bilan ifodalanadigan hatti-harakatlari va fazilatlaridir. Xushmuomalalik shirinsuxanlik deb yuritiladi. "Bizda xushmuomalalikdan ham ko'ra qimmatliroq va qadr-qimmati baland boshqa narsa yo'q", – deb yozgan edi, ispan yozuvchisi M.S.Servantes.

Insonlar hayotida halollik va rostgo'ylik singari Etika mezonlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni inson Axloqiy sofligining ko'zgusi deyish mumkin. Chunki ularda kishining axloqiy e'tiqodi ham, maqsadlari ham, hatti-harakatlari ham xuddi oynadagidek shaffof aks etib turadi. Halollik kishi hatti-harakatlarining va xulqining to'g'riligi, qat'iyligi, samimiyligi bilan ifodalanadi. Halollikka eng yaqin fazilat rostgo'ylik bo'lib, uni haqgo'ylik ham deb ataydilar. Insonning rostgo'yligi, haqiqatni sevishi, achchiq bo'lsa ham undan

[1] Abdurahmonova G'., Rustamov A. Bitigtoshlar. – T.: «O'qituvchi», 1982. – B.76-77.

yuz o‘girmasligi, yolg‘onchilikka yo‘l qo‘ymasligi uning axloqiy barkamolligining sinov toshi (etaloni) axloqiy fazilatidir. Inson axloqiy qiyofasini ifodalovchi mezonlardan biri kamtarlik bo‘lib, u kishining sodda tabiatligini, boshqalardan o‘zini ustun qo‘ymasligida, kishilarning hayotiy tajribalariga, bilimiga, his-tuyg‘ulariga hurmat tarzida namoyon bo‘ladigan hatti-harakatlarini ifodalaydi. Ammo kamtar bo‘laman deb o‘z qadr-qimmatini yerga urmaslik, izzat-nafsini poymol qildirmaslik lozim. Hatto, ortiqcha kamtarlik pinhona takabburlik, manmanlik ham bo‘lishi mumkin. Demak, kamtarlik insonga obro‘, kuch-quvvat baxsh etadigan, obro‘-e’tiborini oshiradigan va uni takabburlik, maqtanchoqlik, dimog‘dorlik, manmanlik, mensimaslik kabi qusurlardan xalos qiladigan fazilatlardir. Bu ibratli mezon bilan kishining irodaliligi, chidamliligi, sabr-toqatliligi ham hamohang va yaqindir. Yana bir mezon bu sharm-hayo bo‘lib, u kishilarning nafsni tiyish, yomonlikni tark etish, behayolardan o‘zini olib qochish, ehtiyotkorlik qilish va uyalish, nomus, sharafini saqlash kabilarni anglatadi. Uning aksini oddiy tilda behayolik, uyatsizlik, sharmisorlik deyiladi. Sharm-hayo, andishalik bilan bog‘liq bo‘lib, u kishining oqibatni o‘ylab, yuz xotir qilib qiladigan hatti-harakatlarini ifodalaydi. Hayo-ibolilik – Sharq xalqlariga xos bo‘lgan axloqiy go‘zallikning g‘oyat ko‘rkam va go‘zal ko‘rinishi. Ibn Sino hazratlari aytganidek, “Insonda doim turadigan husn va latofat hayo ila iffatdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir” deydilar. Alisher Navoiy: “Vafosizda hayo yo‘q hayosizda vafo yo‘q” degan bo‘lsa, A.Avloniy: “Hayo – dilni ravshan qiladurg‘on bir nurdirki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdir” deya o‘z fikrini bayon etadi. Hayo-ibolilik – bu poklik, sabr-bardosh, qanoat, odob, ixlosdir.

Etikaning eng muhim mezonlaridan biri do‘stlik bo‘lib, kishilarning o‘zaro yordamini, hamkorligini, yaqinligi, hatti-harakatlari va fazilatlarini ifodalaydi. Do‘stlik kishilar o‘rtasidagi qiziqish va manfaatlar, maqsadlar birligiga, o‘zaro yaqinlikka moslanadigan munosabatdir. Yuqoridagilarning hammasi Etikaning mezonlarini ifodalaydi.

Jamiyatning axloqiy muhiti hamisha axloq qonuniyatlariga asosan me’yorlashtirib boriladi. Chunki axloq universal hodisa – uning qoidalari, normalari va talablari o‘zgarmaydi, hamisha hamma uchun umumiy talab hisoblanadi. Xulqiy fazilatlar, fe’l-atvor

xislatlari o'zgarib borishi mumkin, lekin ular axloq qonuniyatlari doirasida o'zgarishi kerak. Shu ma'noda bugungi jamiyatimizning ma'naviy - axloqiy muhiti va uning axloqiy darajasi talab darajasida, unga milliylik va umuminsoniylik xos. Buning sababi shundaki, jamiyatimizning axloqiy muhiti qadimgi tarixiy tajriba hosilasidir, bizda kattaga hurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, muhtojga saxovat, o'ziga talabchanlik va Vatanga nisbatan fidoylik axloqiy madaniyat darajasiga ko'tarilgan. Bu qadriyatlarsiz bizning axloqiy ongimiz g'arib bo'lib qoladi. Bu konservativ hodisa emas, aksincha, milliy o'ziga xoslik va mental xarakterga egadir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish sharoitida axloqshunoslik fanning ahamiyati ham ortib bormoqda. Chunki yangi jamiyat yangi axloqiy madaniyatni taqazo etmoqda.

Axloq falsafasida ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Ixtiyor erkinligi axloqiy muammo sifatida ham qadimiy ham zamonaviy xarakter kasb etadi. Buyuk jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat o'zining axloqshunoslikka doir «Oila» asarida ixtiyor erkinligini «ixtiyoriy fe'l va harakatlar» deb ataydi[1]. Ixtiyor bilan iroda bir-birini to'ldiruvchi, uzviy izchillikda amal qiluvchi hatti-harakatlar bo'lib, uning nazdida iroda va ixtiyorimiz, holat, tasavvur, muhokama, solishtirish va ijroning natijasidir. Shaxsning axloqiy-irodaviy sifatlaridan biri bu e'tiqodlilikdir. U shaxsda ishonch, umid va harakatni shakllantiradi. Inson nimagadir (Xudoga, insonga, o'ziga, kelajakka va hakozolarga) ishonishi bilan ma'naviy quvvat hosil qiladi va shu yo'lda harakatlanadi. E'tiqodli odam o'zi va o'zgalar uchun mas'uliyat sezadi. Buning aksi bo'lgan e'tiqodsizlik insonni ma'naviy quvvat manbai bo'lgan ishonchdan ayiradi, buning natijasida insonda umid yo'qoladi va endi u befarq, faoliyatsiz kimsaga aylanadi.

Darhaqiqat, inson ixtiyor erkinligi chegaradan chiqib, boshboshdoqlikka aylanib ketmasligi uchun, axloqiylik chegarasidan chiqib axloqsizliklar sodir etmasligi uchun ham unga iroda kuchi

[1] Abdurauf Fitrat. Oila. T.: «Ma'naviyat», 1998. 84-b.

kerak bo'ladi. Inson faoliyati va o'zaro munosabatlarida iroda va ixtiyor o'zaro uyg'un holatda hatti-harakatga kirishishi oliy maqsadga xizmat qiladi. Ixtiyor erkinligi insonga berilgan ilohiy ne'mat bo'lsada, aksariyat xollarda inson zoti undan oqilona foydalanavermaydi. Shu bois ham ixtiyor erkinligidan foydalanishda ayrimlar ulug'vorlikka erishsa, ikkinchi birlari tubanlik darajasiga tushadi. Ixtyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat hissi mavjudligican dalolat beradi.

Insoniyat tarixi ham, alohida inson hayoti ham aslida erkinlik uchun kurashdan iborat bo'lgani bois ham qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha u hammani ohanrabodek o'ziga tortib keladi. Erkinlik insonning oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida o'z niyatlari, xohish-istaklari va manfaatlariga mos tarzda faol harakat qilish qobiliyati»[1]. Erkinlik shaxsga tanlash, anglash va tushunish imkonini beradi. Inson erkin so'zlashi, erkin fikrlashi va erkin yashashi lozim. U bularni tanlaydi, bular bilangina hayotining, umuman inson hayotining mazmunli (ma'nili) kechishini anglab yetadi va bu yorug' dunyoda inson fikrsiz, maqsadsiz yashay olmasligin tushunadi. Erkinlik odamni odam bo'lib yashashga o'rgatadi. Erkinlikning aksi mute'likdir. Mute' odamda tanlash, anglash va tushunish malakasi bo'lmaydi. U o'zgalar fikrining, qarashlarining, xatti-harakatlarining quliga aylanadi. Shu sababli bugungi bashariyat «demokratiya» deganda mute'likni tark etib, erkinlikka intilishni nazarda tutadi.

Erkinlikning yuzlab turini uchratish mumkin. Ularning hammasini shaxs erkinligi, u individning o'z xohish-istaklari va manfaatlarini ro'yobga chiqarishiga qaratilgan va jamoaviy erkinlikga ajratish mumkin.Inson o'z vijdoni da'vatiga monand yashaydigan, har bir qadamini haqiqat va ezgulik qonunlariga mos tashlaydigan, yuksak axloq egasi darajasiga ko'tarilgandagina haqiqiy erkinlikka erishadi.

Zero, erkinlik ixtiyor bilan bog'liq, ya'ni erkinlik individning ixtiyor erkinligi orqali obyektivlashadi. "Ixtiyor" so'zi «xohish», «xohish-istak erki» ma'nolari bilan izohlanadi. Imom G'azzoliy

[1] Философский энциклопедический словарь. М., «Советская энциклопедия», 1989. С. 569.

ixtiyor erkinligini Xudoning ixtiyori namoyon bo'ladigan maydon, insonni esa, ana shu muqaddas ixtiyorni amalga oshiruvchi xatti-harakat sharti tarzida talqin qiladi va uni kasb tushunchasi bilan bog'laydi: inson Xudoning ixtiyorini o'ziga kasb etguvchi, yuqtiruvchi o'rtaliqdagi – Yaratgan va olam o'rtasidagi jonzot. «Chunonchi, yong'in alangasidagi olovning harakati, – deb yozadi G'azzoliy, – sof majburiylik, Yaratganning hatti-harakati – sof ixtiyor erkinligi, insonning hatti-harakati esa, ana shu ikki hodisa o'rtasidagi bosqichdir. Aynan ana shu bosqich ixtiyor erkinligi bilan amalga oshgan majburiylik deb ataladi»[1].

Ixtiyor erkinligining endogen va ekzogen jihatlari avvalo, ixtiyorning uch bosqichida voqe bo'ladi. Bu bosqichlarda ichidan harakatga aylantirish mumkin bo'lgan alohida xohish-istaklardan faqat bittasi tanlab olinadi va muayyan qaror orqali xohishning o'ziga mos jismoniy harakatga o'tiladi. Ixtiyor jarayonidagi erkinlik, faqat tanlovning boshlanishida va tanlov paytidagina mavjud bo'ladi. Tanlov jarayoni tugashi bilan ixtiyor uchun berilgan erkinlikning vakolati tugaydi. Tanlov ikki xil xohish o'rtasidagi kurash jarayoni, unda faqat bittagina kuchli tomon qoladi. Qaysi biri asossiz va kuchsiz bo'lsa kuchli xoxish uchun o'rin bo'shatadi. Chunki ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig'idagi fikrlash mobaynidagina voqe bo'ladigan hodisa. Demak, ixtiyor qilingandan keyin erkinlik cheklanadi, balki, amalga oshirilgan tanlov ijrosi amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Etikada tanlov muammosi psixologiyadan farqli o'laroq qadriyat bilan bog'liq, aqlga asoslangan tushuncha sifatida tadqiq etiladi. Psixologiya esa tanlov hissiyotga asoslangan, qanday sabab orqali vujudga kelishi ahamiyatsiz bo'lgan ruhiy omil sifatida o'rganiladi. Axloqshunos olim Abdulla Sher mazkur jarayonga quyidagicha yondashadi. U tanlov muammosini tadqiq etar ekan birinchisi – bor narsa, ikkinchisi – bo'lishi kerak deb hisoblangan narsa; birinchisi – mavjud omilni, ikkinchisi – idealni, me'yorni anglatadi deb tushuntiradi. Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga bo'ysundirilgan ravishda, ideal va me'yorlarga mos tarzda cheklanadi. Aks holda, muayyan bir. yo bir necha inson,

[1] *Газали Абу Хамид.* Воскрешение наук о вере. М., «Наука». 1980. С. 305.

yoki guruhning betiyiq erkin ixtiyori nafaqat boshqa insonlar va guruhlar, balki, nabotot, hayvonot olami, butun dunyo uchun fojiaga aylanishi mumkin deb xulosa qiladi olim. Tanlov bilan nihoyasiga yetadigan ixtiyor erkinligi ilohiy majburiyat va ikki zaruriyat o'rtaligida axloqiy xatti-harakatga aylanadi: birinchisi, tashqi zaruriyat – boshqalarning erkinligi, ikkinchisi, ichki zaruriyat – insonning o'zidagi iroda kuchi. Shuning uchun deyish mumkinki, «axloqli insongina erkindir, chunki, erkin insongina axloqiy hatti-harakat qila oladi»[1]. Axloqiy tanlov – har bir hatti-harakat, har bir qilmishning ibtidosi, insonning axloqiy tanlovi uning insonlik maqomini belgilaydi. Faylasuf-axloqshunos P'yer Abelyar xristianlikda iymon masalasini tahlil etar ekan, iymon axloqiy tanlovdir, axloqiy tanlovni to'g'ri hal qilgan inson Xudo va u tomonidan yaratilgan mavjudotlar mohiyatini anglab yetadi, iymonli odam cheksiz qudrat, donishmandlik va mehr-muhabbatlilik sifatlariga ega bo'ladi[2] degan. Shu tariqa xristianlik iymonini axloqiy bilim, fikr va tushunchalar bilan boyitadi. Inson hamda jamiyat axloqiy hayotida ixtiyor erkinligi va tanlovning ahamiyati beqiyos, bu borada ko'xna tarix ko'plab dalillarga ega. Masalan, Nasimiyning g'azalini yod o'qiyotgan yosh yigitning kufrda ayblanish voqeasi, yigitning oldidagi tanlov va ikki yo'ldan biri qo'rqoqlik, sotqinlik yoki tavba qilib, banddan ozod bo'lish holati va axloqiy tanlovni amalga oshirgan yigitning ikkinchi yo'lni tanlashi, bu voqeadan xabar topgan Nasimiy oldida ham tanlov yuzaga kelishi va u ham axloqiy tanlov asosida yigitni bandilikdan qutqarishi va o'zini bandi qilishi, hakam bandi Nasimiyning terisini shilishga buyurib, bu kofirning tomchi qoni biror yeringizga tegsa, o'sha yerni kesib tashlash kerak bo'ladi deb hukm qilishi va Tangrining qudrati bilan bir tomchi qon sachrab, raisning jinjilog'iga kelib tushishi oqibatida raisning ham oldida tanlov yuzaga kelishi, u o'z so'zida turib o'z jimjilog'ini kesib tashlashi yoki gapidan qaytib riyokorlik qilishi natijada rais axloqan nopok, qo'rqoq va xudbin odam sifatida gapidan qaytish epizodi aks etgan. Xulosa qilib aytganda, inson oldidagi tanlovga ko'ra uning oldida doimo ikki va undan ko'proq tanlov yo'l

[1] Штайнер Р. Философия свободи. Ереван, «Ной», 1993. С. 150.
[2] Августин А. О граде Божьем // Антология мировой философии. В 4-х т. – М.: Мысль, 1969. Т.1. - 17 - 21с.

bo‘lishi va bunda faqat va faqat axloqiy barkamol inson axloqiy tanlovni amalga oshirib mukammal yo‘lni tanlab xazrati inson maqomiga munosib qolishi, aksincha yo‘lni tanlab axloqsizlik, tubanlik qilishi mumkinligidan dalolat beradi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan asrlarga o‘tdi, o‘zi esa insoniy poklik va yuksak axloqiylikning o‘lmas timsoli bo‘lib qoldi.

Axloqiy muhit (etosfera)ning global muammolari.

Insoniyat XIX asrning oxiri XX asr boshlariga kelib o‘z tafakkur quvvati bilan biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Bugun texnika bizning nafaqat yashash muhitimizga aylandi, balki texnik taraqqiyot ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqqan insonga o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ochib berdi. Noosferaning paydo bo‘lishi atmosferani, olamiy okeanni, yer osti va yer usti suvlarini, nabobotni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Noosfera ta’limoti asoschilaridan biri V.I.Vernadskiy «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o‘zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig‘ini, uning barcha tabiiy suvlarini o‘zgartirmoqda. Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o‘zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz»[1] deb ta’kidlagan. Ammo lekin olimni hayratga solgan masala hozir ham o‘z yechimini topa olganicha yo‘q albatta.

Bu sharoitida insoniyatda axloqiylikni saqlab qolish va etosferani yaratish imkoniyatlari muayyan jamiyat muhiti sharoitiga uning shakllantiruvchilik omillari va o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq. Muhit - insonni o‘rab turgan va unga bevosita yoki bilvosita ta’sir etuvchi shart-sharoitlar majmui. “Muhit” etika qonuniyatlaridan bo‘lib, u inson mavjud bo‘lgan holat va joyni anglatadi[2]. Olimlar uni «tabiiy muhit», «geografik muhit», «sun’iy muhit» kabi turlarga bo‘lib tadqiq etadilar.

[1] Вернадский В.И. Начало и вечност жизни Москва. Сов. Россия. 1989. С. 186 – 187.
[2] Донсов А.И. Проблеми групповой сплоченности. – М.: Висшая школа, 1979. – 60 с.

Ilmiy adabiyotlarda «ijtimoiy muhit» tushunchasi ham keng qo'llaniladi. Ijtimoiy muhit insonni o'rab turgan va uning ongi hamda hulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar (atrofdagi odamlar, ijtimoiy guruh, qatlamlar, jamiyatdagi tartib-qoidalar), faoliyat va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriyadir. U «siyosiy muhit», «iqtisodiy muhit», «ma'naviy muhit», «axloqiy muhit», «ilmiy muhit» kabi qismlarga bo'linadi[1]. Ularning mikro, makro, mezo va mego darajalari mavjud. Ular ichida muhim o'rin tutadigan ijtimoiy muhit qismlaridan biri oila muhitidir.

Oila muhiti jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining birlamchi negizidir. Chunki oilalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya asosiy masala hisoblanadi. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oilada shakllangan. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan axloqiy tushuncha, mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas fazilatlarning poydevori oilada qaror topadi.

O'quvchi maktab muhitida shaxs sifatida voyaga yetadi. Agar oilada uning axloqiy shakllanishiga poydevor qo'yilsa, maktabda bu xususiyat yanada rivojlantiriladi. Shaxsning axloqiy tasavvurlari bilan atti-harakatlari uyg'unlashadi. O'zbekistonda maktab muhiti orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayni paytda, bu muhitda isloh qilinishi lozim bo'lgan jarayonlar ham mavjud. Bular bizning nazarimizda, quyidagilardan iborat:

birinchidan, maktabda shaxsning axloqiy ongini maqsadli shakllantirishga jiddiy e'tibor berish;

ikkinchidan, shaxsda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda yangi ta'lim-tarbiya texnologiya usullarini joriy etib borish;

uchinchidan, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish;

Rahbar, xodimlar va jamoa a'zolarining o'zaro munosabati, hurmat, ishchanlik, jamoa obro'si uchun raqobat, mas'uliyat hissi,

[1] Normurodov B. Ijtimoiy muhit va uning taraqqiyotdagi o'rni va roli // Ta'lim – tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning roli. – Qarshi, 2004. – 21 b.

manfaatdorlik, talabchanlik, g'amxo'rlik, rag'batlantirish usullari, yuqori lavozimlarga tavsiya etish, jamoa bilan faxrlanish axloqiy faoliyatining muhim makoni ishxona muhitida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda ishxona muhiti katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ishxonada shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi to'liq namoyon bo'ladi. «Shaxs xizmat doirasida o'ziga bo'ysunuvchilarga, rahbariyatga, jamoadoshlarga va murojaat qiluvchilarga o'ziga nisbatan yaxshi munosabat keltiradigan axloqiy munosabatda bo'lishi shart»[1]. Xalqimiz tarixiy-madaniy tajribasiga xos muhit mahalla muhitidir. U o'nlab, yuzlab oilalar uyushmasidan iborat, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy maqsadlar yo'lida birlashuvchi kishilar makonidir. Unda jamiyatning jamoatchilik tamoyilini ro'yobga chiqaradi. Bu muhitda sharqona axloq, sharqona tushunchalar reallikka aylanadi.

Yuqoridagllarni umumiy ko'rinishi «jamiyat ma'naviy-axloqiy muhiti» tushunchasida o'z ifodasini topadi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhlti murakkab ijtimoiy voqelikdir. Ushbu voqelik negizida shaxs – guruh (jamoa) – jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy axloqiy munosabatlar yotadi.

Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhiti o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- birinchidan, u insonning butun hayoti va axloqiy sifatlarini ifodalaydi, shaxs, guruh va jamoaning axloqiy faoliyatini belgilovchi mezonlarning makonda tarkib topishiga xizmat qiladi;
- ikkinchidan, u turli jamoalarda turlicha namoyon bo'ladi va turlicha vazifalarni bajaradi, shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi omil hisoblanadi;
- uchinchidan, u shaxs va jamoadagi ijtimoiy munosabatlarning ifodasi sifatida yuzaga keladi;
- to'rtinchidan, u jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasini, shuningdek ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishlarini belgilab beradi.

Masalan, etosferaning vujudga kelishi va qaror topishida ma'naviy-axloqiy muhitning o'rni muhim. Ilmiy nazariy qarash-larning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ma'naviy axloqiy muhit shaxs va jamiyat munosabatlarini, manfaatlarini uyg'unlashtirish asosida

[1] Ботавсина Р.Н. Этика делових отношений. – М.: Финанси и статистика, 2005. – 5 с

shakllanadi. Manfaatlar esa har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi, ularda salbiy tomonlar ham mavjud. Bu esa ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi ijobiy va salbiy omillarni klassifikatsiya qilishga undaydi: Salbiy omillar jamiyatimiz ravnaqi uchun ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishni taqozo etadi. O‘zbekistonning strategik maqsadi yuksak ma’naviyatli avlodni tarbiyalashdir. Ushbu maqsad salbiy, destruktiv omillarni bartaraf etib, ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirish uchun zarur ijobiy, yaratuvchanlik omillarini ko‘paytirishga undaydi. Chunki, “Inson aynan ijtimoiy muhitda o‘z ehtiyojlarini qondirish va o‘z imkoniyatlaridan foydalanish yo‘lini topadi. U aynan shu yerda o‘z his-tuyg‘ularini, tabiat ato qilgan samimiylik, do‘stlik, mehribonlik, bag‘rikenglik va iztirob chekish fazilatlarini ko‘rsatadi”[1]. Jamiyatda ijobiy va salbiy omillarning tarkib topishi yoki odamlarni ularning ta’siriga tushib qolishi muayyan muhitda ro‘y beradi.

Muayyan muhitdagi har qanday muammoning yechimi manfaatlardan izlanadi. Agar manfaatlar silsilasida insonning ichki, axloqiy, ruhiy dunyosi mavjudligini esdan chiqarib faqatgina moddiy manfaat ustuvor ahamiyatga ega bo‘lsa, bunday yondashuv insoniylik, ezgulik singari axloqiy tamoyillarning susayishiga ham olib keladi, individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik illatlari shaxs sifatlariga aylanadi. Bu muammolardan qutulish uchun etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish kerak bo‘ladi.

Etosferani yaratishda ma’naviy idealni shakllantirish va uni jamiyat axloqiy muhitining asosiy negizi sifatida qabul qilishni taqozo etmoqda. Chunki ma’naviy ideal jamiyat axloqiy muhitini me’yorlashtirishda va axloqiy ongning maqsadli shakllanishida muhim ahamiyatga ega. «Ma’naviy ideal» tushunchasini sof axloqiy tushuncha sifatida shaxs axloqiy ongini shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi va harakatlantiruvchi namunalar majmui.

Ma’naviy idealning o‘zlikni anglash tamoyili Suqrotning mashhur «o‘zingni angla» fikridan[2] boshlangan va Immanuel’ Kant bu prinsip markaziga ezgulik g‘oyasini qo‘yib: «Agar barcha odamlar ezgulikni maqsad qilib olganlarida, ular uchun burchning keragi

[1] История в энциклопедии Дидро и Д.Аламбери. – М.: Наука, 1978. – 63 с.
[2] Фрагменти греческой филасофии. – М.: Наука, 1989. Т.2. – 41 с.

bo‘lmas edi, chunki hech kim yovuzlik tomon qadam bosmas edi»[1], - deb ta’kidlaganida nechog‘lik haq bo‘lganligini hozirgi kunda ham ko‘rish mumkin. Shunday ekan, ezgulik insonning o‘zligini anglab yetishga turtki beruvchi asos sifatida ma’naviy idealning negizini tashkil qiladi.

Aslida bunday qarash milliy etikamiz taraqqiyotida bayon qilingan bo‘lib, u «ma’naviy vujud» (ya’ni borliq) hosil qilish, deb atalgan. Misol uchun Xoja Ahror Valiy «Ma’naviy vujud bu - keraksiz hoyu havaslardan, xarakterdan va ehtiyoju talablardan voz kechib, ruhiy borliq hosil qilishdir»[2], - deydi. Demak, o‘zlikni anglash bilan insonning mohiyati kashf qilinadi, bu - ma’naviy idealning eng muhim funksional vazifasidir. Chunki o‘zligini anglamagan inson yomonlikka, yovuzlikka va vayrongarchilikka moyil bo‘ladi. Negaki, o‘zligini anglamagan insonda asta sekin fikrsizlik, axloqsizlik va faoliyatsizlik tarkib topadi.

«Yomonlik, yovuzlik - bu ehtiyojning hosilasidir»[3], - deydi ba’zilar. Bu albatta noto‘g‘ri fikrdir. Chunki, inson tabiatan yomon xulq-atvor, odob-axloq bilan tug‘ilmaydi, balki uni noto‘g‘ri tarbiya, nosog‘lom muhit va befarqlik, dahlsiz va loqayd munosabatlar yomonlikka boshlaydi. E’tibor berilsa, jinoyati uchun qamoqda jinoiy jazo o‘tayotgan kimsada ham ezgulik, yaxshilik tuyg‘usi mavjud bo‘lishi mumkin. Yoki, bugungi kunda e’tiborsiz qolayotgan yoshlar mutaassiblar qo‘liga tushmoqda va mutaassiblarning nosog‘lom muhiti, g‘arazli tarbiyasi va sovuqqon munosabati natijasida u xudkushlikni (kamikadze) «kasb» qilmoqda. Bu yerda ko‘proq bilimsizlik, tarbiyadagi sustkashlik va albatta istak bilan ehtiyojni aralashtirib yuborish amalga oshmoqda.

Ma’naviy idealning ezgulik, e’tiqodlilik, erkinlik kabi axloqiy kategoriyalari mavjud. Ezgulik shaxsda xulq, fe’l-atvor va xarakterni shakllantiradi, umuman olganda, axloqiylik ezgulikning manbaidir. Ezgulik tuyg‘usi tarbiyalanmagan insonda yovuzlik hislari «uyg‘onadi». Shu bois ham bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash dolzarb masala bo‘lib turibdi. Chunki insonda nafs tuyg‘usi

---

[1] Кант И. Лексии по этике // Этическая мысл. Научно публицистические чтений. – М.: Изд, 1991. – 300 с.
[2] Фахриддин Али Сафий. Рашохату айнил - хаёт. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. – 282 б.
[3] Кам Й. А. Бунтующий человек. М.: Мисль, 1989. – 72 б.

bor, bu tuyg'uning istaklari cheksiz. Shu ma'noda ezgulik ruhiy-ma'naviy, yovuzlik esa nafsoniy tuyg'u hisoblanadi.

Erkinlik shaxsga tanlash, anglash va tushunish imkonini beradi. Inson erkin so'zlashi, erkin fikrlashi va erkin yashashi lozim. U bularni tanlaydi, bular bilangina hayotining, umuman inson hayotining mazmunli (ma'nili) kechishini anglab yetadi va bu yorug' dunyoda inson fikrsiz, maqsadsiz yashay olmasligini tushunadi. Erkinlik odamni odam bo'lib yashashga o'rgatadi. Zero, ma'naviy idealning kategoriyalari insonni ma'naviy poklik, bag'rikenglik va birodarlik ruhida voyaga yetkazadi bu esa etosferaning yaratish va amal qilishida eng muhim omil hisoblanadi.

Inson jamiyatda muayyan maqsad – muddaosiz yashay olmaydi. Har bir kishi o'zining kelajagini biron-bir maqsad shaklida oldindan tasavvur qila olmasa, uning bunyodkorlik harakati susayadi, natijada inson kayfiyatini tushkunlik, faoliyatini esa beparvolik, loqaydlik va dahlsizlik kabi illatlar egallab oladi. Shu ma'noda «ma'naviy ideal» ham shaxsga jamiyatda o'z o'rniga va muayyan ijtimoiy mavqeiga ega bo'lib yashashi uchun yo'naltiruvchi g'oyalar, tushunchalar va axloqiy qarashlar tizimini taqdim etadi.

Biologik axloq. Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biologik axloqning tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog'liq yo'nalishida totli o'lim - evtonaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyoridan tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o'z yechimini kutmoqda.

Etikaning anchadan buyon ko'pchilikka ma'lum muammosi, bu – abort. Har qanday abort, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etish. Tana transplantatsiyasi, odamlar hujayrasini

boshqa hujayra o'rniga ko'chirib o'tkazish tajribalari, irsiyatning, genofondining bir yoqlama o'zgarishiga olib kelmoqda. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham Etika javob topmog'i lozim.

O'lim jazosi. O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa, majburiy o'lim. Shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-harakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas, u qilgan yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirish, o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin.

Hozirgi kunda nabobot va hayvonot olamining ko'plab turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida ekanligi hech kimga sir emas. Bu xavf xatarlar sirasiga kuchli Eko xavflar, ekologik buhronlar, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar, kislota yomg'irlarining ko'payib borishini misol qilishimiz mumkin. Eng muhimi insoniyatning ko'z o'ngida bu kabi muammolar eko muammo sifatida emas, balki tom ma'nodagi global axloqiy muammolar sifatida tobora kengroq gavdalanmoqda

Mashhur avstriyalik etolog olim Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», – degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.[1]

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini barqarorlashtirish orqali etosfera davriga o'tishi, axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylanishiga erishmoq kerak. Bunda Etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos. Etika oldida ana

[1] Лоренц К. Восем смертних грехов цивилизованного человечества. Журнал «Вопроси философии» № 3, 1992, с. 42.

shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda yetakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero, mazkur global muammolarni bugungi kunda Etikaning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Axloqshunoslik, etika, odob, xulq, axloq, yaxshilik, adolat, tinchlik, burch, vijdon, or-nomus, baxt-saodat, muxabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch, nomus, ideal, insonparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov, mas’uliyat, axloq tuzilmasi, axloqiy ong, axloqiy munosabatlar.

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. Etika fanining predmeti, mohiyati.
2. O‘rta asrlar musulmon Sharqi va G‘arb axloqshunosligining asosiy yo‘nalishlari.
3. Hozirgi zamon axloq falsafasining asosiy vakillari va ularning ta’limotlari.
4. Axloqni kelib chiqishi muammosida diniy hamda dunyoviy qarashlar mavjudligi.
5. Etika kategoriyalarining falsafiy mazmuni.

Mavzuga oid test savollari:

1. Etika fani nimani o‘rganadi:
a) axloq, uning kelib chiqishi, mavjudlik qonuniyatlarini;
b) aksiologiya;
v)borliq;
g) sinergetika;

2. Aristotelning qaysi asari axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan:
a)“Nikomax etikasi”;
b) «Metafizika»;

v) «Davlat»,
g) «Siyosat»;

3. Axloq deganda nimani tushunasiz?

a) Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurish turish qoidalari va xulq-atvori normalari;

b) axloq kishining turli xil kayfiyatlari;

v) axloq yaxshilik va yomonlikning o'lchov mezoni;

g) axloq – bu baxt –saodat;

4. Axloqning ijtimoiy hayotdagi o'rni nimadan iborat?

a) v insonni ma'naviy kamolatga yetkazadi, jamiyatni ma'lum muvozanatda saqlab turishga imkon beradi;

b) insonga omad va baxt-saodat keltiradi;

v) kishini hato qilmaslikka undaydi;

g) kishining o'z nafsini tiya bilishini va insofli bo'lishini ta'minlaydi;

5. Quyidagi qaysi qatorda etikaning asosiy kategoriyalar to'g'ri ko'rsatilgan?

a) yaxshilik va yomonlik; adolat; burch; muxabbat; vijdon;baxt;

b) muxabbat va nafrat; ezgulik va yovuzlik; ulug'vorlik va tubanlik; v) fojeaviylik; kulgulilik; or-nomus; hayotning ma'nosi;

g) sevgi; go'zallik; xunuklik; burch.

6. Gedonizm nima?

a) huzur-halovat, rohatlanishga intilish insonning oliy maqsadi deb hisoblovchi axloqiy ta'limot;

b) baxt-saodatga intilishni inson axloqiy faoliyatining mezoni deb hisoblanuvchi axloqiy ta'limot;

v) dunyo bo'linmas bo'lakchalardan tashkil topgan ta'limot;

g) kishining kechinmalari, his-tuyg'ulari to'g'risidagi ta'limot.

14-MAVZU. NIKOH VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI, UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Nikoh va oilaning axloqiy asoslari

Mamlakatimizda oilani mustahkamlash, yosh avlodni jismonan, ruhan va ma’nan sog‘lom qilib tarbiyalash, oilani jamiyatning ravnaq topishidagi tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida belgilanib, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish Strategiyasiga oid Davlat dasturlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e’tirof etish, oila mustahkamligini ta’minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirish, yosh oilalarning moddiy ta’minoti va ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq chora tadbirlar Davlat dastur[1]lari mazmuniga singdirilishi bilan birga uni amalga oshirish mexanizmlari ham ishlab chiqilgan. Zero, oila muqaddas qo‘rg‘on, oilaviy rishtalar ajralmas va mustahkam bo‘lmog‘i lozim.

Oila so‘zining lug‘aviy ma’nosi arabcha «ayolmand, niyozmand» ma’nolarini anglatuvchi «Oil» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida bu so‘zning “er-xotin, ularning bola-chaqalari va yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchilar, xonadon” tushunchasini anglatishi qayd etilgan. Mustahkam va sog‘lom oilani shakllantirish barcha davrlarda bo‘lgani kabi hozirda ham o‘zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Buning uchun zarur sharoitlar yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma’naviy rivojlantirishda ona va oilaning rollni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Oila sog‘lomligini ta’minlash – har tomonlama jismoniy, ma’naviy va aql-zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo‘llash asosida qat’iy bilim, erkin fikrlash ko‘nikmalarini

[1] Oila yili, Ona va bola yili, Ayollar yili, Sog‘lom avlod yili, Ijtimoiy himoya yili, Yoshlar yili, Barkamol avlod yili, Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, Faol tadbirkorlik innovasion g‘oya va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili, Faol investitsiya va ijtimoiy rivojlantirish yili Davlat dasturlari. Lex.uz.

shakllantirish, atrof muhitning boyligi va xilma-xilligi, jahon madaniyati bilan keng tanishtirish vazifalarini qamrab oladi.

Ushbu ezgu maqsadlarga erishishda an'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida bolalarni Vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashda ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahallalarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish talab etiladi.

Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda, uni mustahkamlovchi kafolatli omillarning rolini o'rganish, ayniqsa, oilada ma'naviy-ahloqiy tarbiyani olib borish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir. Ma'lumki, hayotimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, chinakam, to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta'minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy hodisa bo'lib, ikki jinsdagi shaxslarning o'zaro rozilik, tenglik, ixtiyoriylik asosida Oila qonunchiligi normalarida belgilab qo'yilgan, nikoh tuzish tartibi va shartlariga rioya etib, ahdnoma asosida tuziladigan ittifoqdir. Nikoh bu erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vosita.

Oila qurishda, nikoh munosabatlarini o'rnatishda o'zbekona urf-odat va an'analar, azaliy qadriyatlarning o'rni beqiyos. Masalan, sovchilikka borish taomili, tanishtiruv, unashtiruv marosimlari, sovg'a-salomlar taqdim etish odatlari, to'y-tantana, chorlov va chaqirdi udumlarining hammasi respublikamiz huddudlarida o'ziga xos va betakror tarzda amal qiladi.

Nikoh va oilaning huquqiy asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida[1], O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida[2] nikoh tuzish ixtiyoriy ekanligi, nikoh faqat nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Nikoh tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil

[1] Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2008. 16-modda.
[2] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: «O'zbekiston», 2008. 63-modda.

12-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarining V bo'limida" aks ettirilgan bo'lib, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzishga majburlash qonun bilan ta'qiqlanadi va ayolni o'z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortiladi. Mazkur masalaning huquqiy jihatlari bilan bir qatorda axloqiy tomoni ham borki, nikoh sevgi-muhabbat asosida va xohish-irodaga ko'ra amal qiluvchi ixtiyoriy ittifoqdir. Dunyodagi hamma narsa-hodisalar kabi muhabbat ham parvarishga muhtoj. Agar muhabbat har ikki tomondan e'zozlab, avaylab-asralmasa uning yakuni achinarli yakun topadi. Unda ehtiroslar axloqqa bo'ysundiriladi. Oddiy birga yashashda tabiiy ehtiyojni qondirish birinchi o'rinda turadi, nikohda esa u ikkinchi darajali mavqe egalaydi.

Oila boshqa turdagi kichik guruhlardan, ya'ni o'qish, ish va yashash joyida mavjud guruhlardan o'zining bir qator jihatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, oila ko'p muddatga, ayniqsa milliy axloqda bir umrga quriladi;

ikkinchidan, oilada o'zaro munosabatlarning bir necha turi amalga oshadi, ya'ni ota-ona bilan farzand, er bilan xotin, qaynona bilan kelin, farzandlar orasida, katta, o'rta va kichik avlod o'rtasida, er-xotin qarindoshlarining (qaynsingil, qaynbo'yi, kelin, kuyov) o'zaro munosabatida;

uchinchidan, oila muhitidagina tarbiyaviy, psixologik, moliyaviy, hissiy, jinsiy, reproduktiv (farzand ko'rish) va boshqa vazifalarning amalga oshirilishida;

to'rtinchidan, oiladagi barcha munosabatlar zamirida salbiy yoki ijobiy holatlar yuzaga keladi, ya'ni oila a'zolarining bir-biriga ta'siri tufayli ularda yaxshi xislatlar yoki yomon xislatlar shakllanishi mumkin.

Oila – birgalikda yashaydigan qarindoshlar er-xotin, ota-onalar va bolalar guruhi. U umumiy manfaatlar bilan birikkan odamlar birligi, birlashmasidir. Oila tuzishdan maqsad bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, uning

muqaddas vazifasi bu eng avvalo nasl qoldirish va qobiliyatli farzandlarni o'stirib, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Oila a'zolari orasida mehr-muhabbatning mavjud bo'lishi, erkak kishining baxt va huzur-halovatga o'z oilasidagina erishishi mumkinligi, ayolning turmush o'rtog'ini huzur-halovatga erishtirish uchun bor kuchi bilan harakat qilishi, baxt-saodatga eltishi muqaddas kitoblarda alohida ta'kidlangan.

Oilada mehr-muhabbatning yuzaga kelishi va hukm surishi uchun quyidagi shartlarni bajarilishi joiz:

- oila a'zolarining bir-birini qadrlashi, e'zozlashi;
- oila a'zolarining bir-birlariga ishonishi va himoyalashi;
- yaqinlik, o'zaro yordam va o'y-fikrlarini o'rtoqlashishlari;
- oila a'zolarining o'z burch va mas'uliyatlarini his etishlari;
- qiyinchiliklarga qarshi birgalikda kurashish va ularni hal qilish;
- o'zini-o'zi namoyon qilish va baxtli yashash uchun munosib muhit yaratish;
- oilada ma'nan sog'lom va aqlan yetuk muhitga ega bo'lish.

Shu bois, inson uchun zarur bo'lgan eng oliyjanob insoniy tuyg'u va fazilatlar, inson kamoloti oiladan, uning sog'lom turmush tarzidan boshlanadi. Oiladan boshlangan mehr-muruvvat, tinchlik-osoyishtalik kabi bir qator hatti-harakatlar o'zaro munosabatlarda davom etadi, unadi, o'sadi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi mazmun-mohiyat kasb etib, takomillashib boradi. Chunki, oilada kamol topgan insoniy fazilatlar mustahkam bo'lib, jamiyat maqsad va manfaatlariga mos ravishda rivojlanadi. Oila o'z burch va mas'uliyatini chuqur anglagan holda kamol topayotgan farzandlar kamoloti uchun sog'lom axloqiy muhit yaratsa, bunday oila jamiyatning tayanchiga, davr talabiga mos tarbiya o'chog'iga, jamiyat boshlang'ich va ishonchli uyushmasiga aylanadi.

Oilada sog'lom axloqiy muhit, o'zaro muomala madaniyati, axloqiy tamoyil chuqur ildiz otmasa oilada ma'naviy bo'shliq, salbiy holatlarning qaror topishi muqarrar. Oilada axloqiy asoslar sog'lom bo'lmasa o'sib – unayotgan "umr daraxti" sinadi va hosil bermaydi. Oila mustahkam poydevorga qurilib, unda sharqona va jahon andozasiga monand axloqiy va ma'naviy qadriyatlar qaror topsa,

sog'lom avlodni voyaga yetkazishda yetakchi o'rinni egallasa, bunday oila ostonasidan Vatan, millat, inson kamoloti, yangi sog'lom avlod kelajagi boshlanadi.

Jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qlluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi katta. Chunki, oilalarning nosog'lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog'lom muhitda shakllangan bolada ham keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsizlik, balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan ham shafqatsiz, zolim, xudbin, jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlariga zid bo'lgan har xil salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxsning shakllanishiga, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

O'zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom – bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Ushbu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Darhaqiqat, har bir inson dastavval, oilada o'rin topolmasa– jamiyatda o'rin topishi qiyin bo'ladi, oilada qadr topolmasa – jamiyatda qadrlanishi dargumon; oilada mehribonlik ko'rmasa va oilada mehrsiz ulg'aysa, jamiyatda ham begonalardek yashaydi.

Oila uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar;
- nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar;
- farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4 bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar.

Albatta bu mezonlar nisbiy ahamiyat kasb etishi bilan birga, joy va hududlar kesimida ham o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, rivojlangan davlatlarda 3-4 bolali oilalar ko'p bolali oilalar

hisoblansa muayyan davlatlarda bunday farzandlar soni o‘rtacha bo‘lgan oilalar sarasiga kiradi. Masalaga O‘zbekiston misolida yondashsak, yaqin tarixda, sobiq ittifoq davrida bunday songa ega bo‘lgan oilalar kam farzandli oila, yaqin o‘n yilliklarda o‘rta sonli oila, hozirda esa ko‘p farzandli oilalar turkumiga kirmoqda:

- oila a’zolarining ijtimoiy kelib chiqishi, hududiy va mintaqaviy joylashuvi, moddiy ta’minlanganlik darajasi, ma’lumoti, yoshi hamda millatiga ko‘ra: bir millatli yoki baynalminal oilalar;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ko‘ra (liderlik) biarxat hamda o‘zaro munosabatlarda avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar;
- yuridik rasmiylashtirilganligiga ko‘ra: sinovdagi oila, rasmiylashtirish arafasidagi oila, nikohdagi oila, nikohdan tashqari oilalar.

Buyuk sharq mutafakkirlarining oila va nikoh munosabatlariga oid qarashlari

Moziydan shu kunga qadar odob-axloq, oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning, jamiyatning eng ilg‘or kishilari – olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida bo‘lgan. Sharqning buyuk allomalari – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshg‘ariy, Kaykovus, Xotam ibn Toy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab olim va yozuvchilarning mazkur muammo borasidagi falsafiy qarashlari ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyat kasb etib, hozirgi zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Markaziy Osiyoda oilalarning tarixiy shakli patriarxal oilalar hisoblangan. Bunday oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo‘lib, oilaviy munosabatlarda har bir oila a’zolarining hatti-harakatlariga alohida e’tibor berilgan. Eng asosiy ma’naviy merosimiz “Avesto”da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki, inson oilaviy turmush yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi ta’kidlangan. Unda erkaklar roppa-rosa 16 yoshdan uylanib, bir necha xotin olish huquqiga ega ekanligi, birinchi xotin

boshqalarga bosh bo'lishi, erkak kishi eng avvalo, uylanishi uchun moddiy va ma'naviy to'q va jismonan baqquvat bo'lishi, o'z xizmat va axloqiy burchlarini to'laqonli bajarishi qayd etilgan.

Jumladan, tadqiqotchi X.Hamidovning fikricha: "Erkak zurriyod qoldirish qobilyatiga ega bo'lsayu, ammo uylanmasa unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishardi. Ba'zida bunday erkaklarni qopga solib kaltaklashgan. "Avesto"da qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash maqsadida qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iyan man etilgan. Ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo'la 2-3ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor deb, uqtiriladi"[1].

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, bironta ham xalq nikohdan xoli emas, jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin ota-ona va farzandlar o'rtasida, axloqiy huquqiy majburiyatlar o'rnatadi. U nikoh jinsiy ehtiroslarni maxfiylik pardasiga o'raydi, er-xotinning orasidagi tabiiy munosabatlarni axloqiy ma'naviy go'zallik, andisha bilan hal etadi. Mutaffakkir o'zining "Minerologiya", "Geodeziya", "Hindiston" nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql-idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U bunday yozadi: "Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarini ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir"[2]. U ozodalik va orastalik oliyjanoblikning o'zagi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapirib, "tishni yuvib, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda bo'yab, tirnoqlarni olib turish va silliqlash" inson salomatligi va ruhiy pokligining asosidir, deb ta'kidlaydi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, chunki oila a'zolarining, er-xotinning ushbu ko'rsatmalarga amal qilishi oila totuvligining zaminidir. Odob-axloq egasi bo'lgan inson eng avvalo, o'z yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bo'lishi

[1] Xamidov X. "Shoxnoma"ning shuxrati -T.: "O'zbekiston", 1993. - 93-94-b.
[2] Минерология. 1966. 10-с.

kerakligi haqidagi fikrlari olimning oila etikasi bo'yicha ibratli qarashlar namunasidir. "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'nan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir".

Ulug' mutafakkir Beruniy oila va nikoh munosabatlarining juda nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilar ekan, oilaning mustahkam va tinch-totuv bo'lishi, er-xotinning ahilligi va shirinso'zligi, bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatiga bog'liq, degan xulosaga keladi. Ayniqsa, uning yosh kelinlarga qarata: "Ey, qizim, sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u osmon bo'ladi, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oliyjanob bo'ladi. Osmon shifoli yomg'iri bilan yerni ko'kartirgani kabi, u ham o'z mehri-shavqati bilan seni xushnud etadi. Ering sendan shirin va yumshoq so'zlar eshitsin. Yaramaydigan yoki eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uni oldiga o'tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va olib berishga qudrati bo'lmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang oradagi totuvlik yo'qoladi, turli xil janjallar paydo bo'ladi. Qizim, rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilishni man qilaman. Chunki bu ezmalik nafratini uyg'otadi. Yaxshisi u bilan xushmuomalada, shirinso'zli bo'lgin, bu ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalangin. O'zingga hushbuy narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin[1] deya bergan nasihatlari hozirgi kunda ham o'z oqibat va natijalari bilan benihoya ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi. Oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru-oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi

[1] X. Boboyev, S. Xasanov. "Beruniyning siyosiy-huquqiy qarashlari" «Hayot va qonun-(jurnali). 1996 y. № 3.

ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining hozirgi kun uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Tibbiyot fani asoschisi ibn Sino qalamiga mansub bo'lgan "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Tadbiri manzil" kabi qator asarlarida bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning «Tadbiri manzil» asarida alohida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Donishmand asarning katta bir bobini oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlagan. Ibn Sino oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi va uning ta'kidlashicha, oilada otaning tabiatan yumshoq bo'lishi bola tabiatini buzadi. Uning fikricha, oilada bosh tarbiyachi otadir va otaning qattiqqo'l bo'lishi bolalar tarbiyasida muhimdir, chunki ota katta ta'sir kuchiga egadir. Oilada onalarning ta'siriga oid esa ibn Sino mazkur kitobning «Ayollarning yaxshi sifatlari» bo'limida shunday fikr bildirgan: "Onalar oilada bosiq, dono, halol va kamtar bo'lishlari hamda bola tarbiyasida otaga eng yaqin ko'makdosh bo'la olishlari oila mustahkamligini saqlashda yordam beradi". Sharoit qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bola tarbiyasi ota-onalarning vazifasidir, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan. Uning asarlarida ota-ona davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy bir a'zosimi baribir bola tarbiyasi masalasida ularga bir xil talab qo'yiladi, degan mazmundagi g'oya bayon etilgan.

Buyuk «Tib qonunlari» kitobida esa bola tarbiyasidagi emizuvchi ayolning mumkin qadar sipo, vazmin va bosiq bo'lishi

kerakligi, undagi «g'azablanish, qayg'urish, qo'rqish» kabi psixologik kechinmalar bolaga zarar keltirishi uqtirilgan. Ibn Sino ayol kishiga insoniy munosabatda bo'lib, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va bir birini tushunishga asoslanmog'i lozimligini ta'kidlagan. Uning mehnat tarbiyasi borasidagi fikrlaridan birida bolani albatta biror hunarga o'rgatmoq shart, yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotda tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim deyilgan.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilig», ya'ni «Saodatga boshlovchi bilim» - kitobida oilaviy maishiy turmush muammolariga e'tibor qaratib, kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini bayon etgan. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolada mas'uliyat hissini rivoj topishi, bola tarbiyasida ota-onaning mavqei, ular tomonidan tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarning kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhim ekanligini asoslagan. Jamiyatda farzandlar xulq-atvoriga qarab ota-onalariga baho berilishini aytib ularni ogohlantiradi.

Kaykovus «Qobusnoma» pandnomasida o'z farzandingni sening haqingda qanday fikrda bo'lishini istasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir», deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi.

Muhammad Qoshg'ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo'lgan qizini ko'rmog'i, uylanadigan qizining bokira bo'lmog'i hamda to'rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va to'rt narsada, husni jamolda, xulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega. Kitobdagi asosiy g'oyalaridan biri «Ota-ona haqqini bilmoq zikrida» bobida bayon etilgan: «Ular bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay».

Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yaxshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalarini tadqiq etgan. Risolaning «Uylanish va xotinlar to'g'risida» bobida insoniyat dunyosida mavjud bo'lgan 3 xil sevgining naqadar go'zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini asoslagan. Navoiy ayol kishining oiladagi o'rniga quyidagicha to'xtaladi: «Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u, teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'nglingga g'am yuzlansa, u hamrox, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko'rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo'r bo'lsa, u uy odobligi yo'qoladi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi». Alisher Navoiyning mazkur fikrlarini bilish va ularga amal qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo'lmog'i shart.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida oilada bolaga ilk yoshdan boshlab odob va axloqqa oid tarbiya berish lozimligini uqtirgan: "Tarbiyani tug'ilgan kunidan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq kerak, zehnimizni esa ravshanlantirmoq lozim...". Avloniy ta'kidlashicha, bolani har tomonlama barkamol bo'lishida dastlab ota-ona sababchi. U oilada farzand tarbiyasiga juda muhim va jiddiy vazifa sifatida yondashish lozimligini uqtirib: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan.

Nikoh tuzishning huquqiy asoslari

Insonparvar demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Oila" instituti o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati, uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi.

Mamlakatimizda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan oliy maqsadlarga asoslanib ish olib borish ustuvor vazifa sanaladi. O'zbekiston Respublikasida nikoh tuzishning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra nikoh rasmiy qonunlar asosida ro'yxatdan o'tkazilgandagina huquqiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning 1-moddasida nikoh – fuqarolik holatl dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi lozimligi belgilangan. Buning uchun nikohdan o'tuvchilar FHDYOga ariza bilan murojaat qilganlaridan keyin bir oy o'tgach shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi" ning 15-moddasida balog'atga yetmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'lig'ini himoya qilish maqsadida va oila qurish uchun ma'lum hayotiy, jismoniy va ma'naviy yetuklik talab qilishlikni e'tiborga olish haqida shunday qoidalar belgilangan: Uzrli sabablar bo'lganda, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarnigina iltimosiga ko'ra davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimligi nikoh yoshini bir yilga qisqartirishi mumkin, bunda ular O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra nikohdan o'tgan vaqtdan boshlab muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Oila kodeksida belgilangan nikoh yoshiga rioya qilmasdan g'ayri-qonuniy ravishda nikoh munosabatlarida bo'lish har xil huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishi mumkin. Xususan, bunday nikoh haqiqiy emas deb topillb, tegishli shaxsiy va mulkiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bunda hattoki jinoiy oqibatlarga: Jinoyat Kodeksining 125-1-moddasiga binoan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishish – eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Nikoh

yoshiga yetmagan shaxs bilan nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirish -- eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga binoan, ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish esa – eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida nikoh tuzish uchun ariza bilan murojaat etgan shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tishi bugungi kunda majburiy holat qilib belgilangan bo'lib, Oila kodeksida: nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri haqidagi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga muvofiq, oilada er-xotinning huquqiy munosabatlari nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Oilada ota onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashlari to'g'risida majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida o'z ifodasini topgan[1]. Oilaviy munosabatlar quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi, bular: oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning

[1] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: «Adolat», 2017.

shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillaridir.

Nikohning diniy jihatlari

Ma’lumki, oila va nikoh masalalari xalqimizning milliy qadriyatlari ko‘p asrlardan beri Islom qadriyatlari bilan chambarchas bog‘lanib, bir-biriga singib ketgan. Islom oilaning pokligi, jipsligi, osoyishtaligiga e’tibor bilan qarab kelgan. U oilaning bosh muammosi sanalmish nikohni inson munosabatlari ichida eng muqaddasi deb hisoblaydi. Shunday ekan, ota-bobolarimiz ulug‘lagan odamiylik, ma’rifat, poklik dini bo‘lgan islomning jamiyatni ruhiy-ahloqiy jihatdan sog‘lomlashtirish borasidagi ta’limoti, xususan, uning uzviy qismlaridan bo‘lgan oila tarbiyasiga oid qarashlarini chuqur o‘zlashtirish, o‘z kelajagini qurishga bel bog‘lagan har bir kishiga har tomonlama kamolga yetgan avlodni vujudga keltirishga yordam beradi. Islom shariati qoidalarida ayol kishi avvalo ayolligini – ibo-hayosini, nazokatini, odobu hulqini, o‘z salomatligini asrash zarurligi, u birinchi navbatda ona ekanligi, ya’ni, hayot manbai hisoblanishi uqtiriladi, jumladan, Niso surasida ayol beqiyos ulug‘langan.

Qur’on va hadislarga tayangan holda shariat qonunlari oila va jamiyat, mol-mulkka egalik, jinoyat huquqi, xazina-soliq va moliyaviy tartib va hokazolarni boshqaradi. Shariat so‘zi aslida arabchadan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi to‘g‘ri yo‘l, ilohiy yo‘l, qonunchilik, demakdir. Shariat xukmlarini bilib olish, har bir mo‘min musulmon uchun farz hisoblanadi[1]. Shariat musulmonlarning huquqiy hayotidan tashqari ularning ahloqiy va diniy marosim talablarining majmuini ham o‘z ichiga oladi. Shariat jazoga nisbatan o‘z yo‘l-yo‘riq dasturlarining butun qahru g‘azabini, axloqi buzuqlarni va gunoh hisoblanadigan hatti-harakatlarni keskin bartaraf etishga qaratgan. Shariat zo‘ravonlik, zino va o‘g‘rilikka qarshi

[1] Ahmad Hoji Maksudiy “Shariat hukmlari”. -T.: 1990. 2-bet.

shafqatsiz jazo berish choralarini ham belgilaydi. Misol uchun, Shariat qonun-qoidasiga ko'ra zino qilishda ayblangan ayol toshbo'ron qilingan yoki sochidan otning dumiga bog'lanib sahroga haydab yuborilgan.

Nikoh – oila huquqiy munosabatlari Qur'oni Karim hamda shariat va odat qoidalari bilan tartibga solingan. Odat huquqida turli tushunchalar, masalan "Baranta", ya'ni kelinning ota-onasiga tegishli bo'lgan chorva mollarini zo'ravonlik bilan haydab ketishdir. "Alengerlik" odat huquqiga asosan, bu beva qolgan ayol erining aka-ukalaridan biriga yoki uning qarindoshiga erga tegish majburiyatidir. Bevalik boshlangandan bir yil o'tgach, mazkur bevaga uylanish huquqiga ega bo'lgan nomzod o'z huquqidan foydalanishga kirishish mumkin bo'lgan. Alengerlik odatini bajarishdan bosh tortgan beva bolalaridan, chorvalaridan, mol-mulkidan mahrum etilib, shundan keyingina u o'z xohishi bilan erga tegishi mumkin bo'lgan. Bu qoidalar o'troq aholi o'rtasida keng tarqalgan.

Musulmon huquqinig hamma sohalari shu bilan birga nikoh, qon-qarindoshlik, taloq masalalarini qamrab olgan manbalardan biri "Hidoya"dir[1]. Ushbu asarda islomning qator masalalari bilan huquqiy va axloqiy me'yorlari, nikoh va oila masalalari bilan bog'liq bo'lgan qoidalar hamda jinoyat va jazoga oid tadbiq etish lozim bo'ladigan choralar yoritilgan. Fuqarolik, nikoh va oila va boshka nizoli ishlarni ko'rib hal qilishda "Hidoya"dan unumli foydalanishgan. Shariat izohlar to'plami "Muxtasar ul- Voqea" (Muxtasarning sharxi) ham katta e'tiborga ega bo'lgan. Bu asar Movarounnaxrning turkiy-o'zbek tilida so'zlashuvchi xalqlari o'rtasida o'zining obro'si va ahamiyati bilan xizmat qilib kelmoqda. Endilikda bu asar birinchi marotaba o'zbek tiliga tarjima etildi. Mazkur diniy manbalarda ham oilaning nechog'lik muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, erning xotiniga hurmat va e`zozi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralganligini ko'rish mumkin.

Oila madaniyatini chuqur va har tomonlama tahlil etgan olimlardan yana biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat o'zining "Oila" nomli asarida oilaning mohiyati va ahamiyati masalalarini chuqur tahlil

[1] Нидо Y. Комментарий мусулманского право. I- T.: " Адолат", 2001.

etishga harakat qilgan. U ayniqsa islom dinining olla va ko'pxotinlik haqidagi aqidalarni ijtimoiy va tabiiy asoslarni ochib berishga harakat qilgan.

Tarbiya xususida islom ta'limotida bayon etilgan asosiy qoidalar huquqiy me'yorlarning ahamiyatini butun dunyo allaqachon e'tirof etgan. Hadislarda kishining uchta qizi bo'lsa, tarbiyasini yaxshi qilsin, Alloh taolo uni qiyomat kunida jannatga kiritadi, degan purma'no fikrlar bor.

Islom dinida oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas'uliyatlari, ota-onaning bola va o'z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, erning xotiniga hurmat va e'zozi muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashda davlatning tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzini ta'riflab:«Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shundaki, avvalambor inson qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini, orzusini, istagini bilaman" – deb ta'kidlaganlar.

Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ta'kidlash bilan birgalikda, uni mustahkamlovchi kafolatli omillarning rolini o'rganish, ayniqsa, oilada ma'naviy-ahloqiy tarbiyani olib borish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir. Fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini, tinch-totuvligini ta'minlashni asosiy maqsadlardan biri deb e'lon qilgan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, shu qisqa vaqt mobaynida mamlakatimizda asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mustaqil davlatlar hamdo'stligi, qolaversa, dunyo Konstitutsiyalari ichida o'zining

mukammalligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Jumladan, qomusimizda Oilaga alohida bob ajratilib, oilaviy munosabatlarning davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etishi, xalqimizning nechog'lik oilaparvar va bolajon ekanligidan dalolat beradi. Dunyo tajribasidan ko'rinadiki, hech qaysi davlatning bosh Qomusi inson shaxsiga nisbatan bunchalik e'tiborlilik bilan yondashmagan. Bizning Konstitutsiyamizda esa inson shaxsining go'daklik davridan tortib, to qarilik davrigacha, oila davrasidan tortib to faoliyat muhitigacha barcha jihatlarga ahamiyat berilgan.

Mamlakatimizda oila barqarorligi – jamiyat barqarorligi sifatida e'tirof etilib, shaxsning oilada kamol topishi uchun barcha huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egadir, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyani ko'zdan kechirar ekanmiz, yoshi keksalarning mehnat faoliyati layoqatlari susayganda ijtimoiy ta'minot olishga imkoniyatlari mavjudligi ham ko'rsatib berilganligini shohidi bo'lamiz: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega". Inson biologik mavjudot sifatida o'zidagi jismoniy imkoniyatlari, quvvati, kuchi kamayganda, jamiyat orasida himoyalanganligini his etishi, uning hayotga qiziqishini susaytirmaslikka va umrini uzayishiga olib keladi. Konstitutsiyada: "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar", deb belgilangan. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglikning qo'shimcha kafolati sifatida Konstitutsiyaning 46-moddasida: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" mazmundagi bandi qat'iy belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining barcha qonunlarida erkak va ayolning teng huquqliligi haqidagi Konstitutsiyaviy tamoyil asos qilib olingan.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, mehr-muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burchga sadoqat hissi va boshqa jihatlar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yo'rgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni

biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi.

O'zbek oilalari asrlar davomida mustahkam, ahil jamoa, ma'naviyat va tarbiya o'chog'i bo'lib kelgan. Bu esa bolalarni tarbiyalash ularni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar, an'analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi shunday, azaliy an'analardan odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikka, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, bilim egallashga intilishni o'rganadilar.

Tayanch so'z va iboralar

Oila, poligam, monogam, nikoh, nikohning huquqiy asoslari, er-xotin, ota-ona, farzand tarbiyasi, Oila kodeksi, sha'riy nikoh, axloqiy tarbiya, mahalla.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Oila va nikoh tushunchalari va ularning vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari.
3. Nikohning axloqiy mohiyati nimada?
4. O'zbekistonda oilaning ijtimoiy-demografik rivojlanishi.
5. O'zbek ayoli – odob timsoli.

Mavzuga oid test savollari

1. Etikaning asosiy vazifasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan:

a) insonda yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish;
b) ma'naviyatni shakllantirish;
v) diniy ta'lim berish;
v) tarbiya yo'llarini o'rgatish;
g) ma'rifatni o'rgatish;

2. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" qaysi mutafakkir tomonidan aytilgan?

a) Abdulla Avloniy;
b) Abdulla Qodiriy;
v) Behbudiy;
g) Fitrat

3. Axloq nazariyasi va amaliy axloqni o'zida uyg'unlashtirgan «Oila yoki boshqarish tartiblari» asari qachon kim tomonidan yozilgan?

a) Fitrat 1914-yil;
b) Abdulla Qodiriy 1920-yil;
v) Usmon Nosir 1925-yil;
g) Behbudiy 1931-yil

3. Oila va uning uch asosiy axloqiy jihati nimalardan iborat?

a) nikoh, oilaviy mulk va anjomlar, farzand tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish;
b) muhabbat, nikoh va farzand tarbiyasi;
v) oila qurish, mol-mulk orttirish, bo'lajak farzand haqida g'amxo'rlik;
g) jamiyatning eng muhim hujayrasi, ikki tomonning roziligi asosida oila qurish, avlodni davom ettirish

4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi qachon qabul qilingan:

a) 1998-yil 30-aprelda;
b) 2000-yil 12-aprelda;
v) 2010-yil 15-mayda;
g) 2018-yil 2-fevralda

15-MAVZU. AXLOQIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR

Axloqiy madaniyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

O‘zbekiston jamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichida jamiyat hayotiga oid bir necha muammolarning ilmiy-nazariy yechimlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shunday muammolarning eng asosiysi – jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini takomillashtirish masalasi bo‘lib, jamiyatning ma’naviy muhiti bevosita xalqimizning axloqiy madaniyatiga daxldor masaladir. Axloqiy madaniyat takomili jamiyat ma’naviymuhitiga, barqaror ma’naviy-axloqiy muhit esa, odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy madaniyat iqtisodiy madaniyat, tibbiy madaniyat, estetik madaniyat umuman, madaniyatning barcha sohalarida ishtirok etsada, xususan ma’naviy madaniyat doirasida uning o‘rni beqiyodir. U shaxs hayotida xilma-xil omillar, vositasilar orqali voqea bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat jamiyat axloqiy ongi va dunyoqarashining rivojlanganlik darajasini, “soxta, sun’iy, yasama axloq” va “tabiiy, mukammal, haqiqiy axloq” orqali ifodalaydi.

Axloqiy madaniyat inson faoliyati davomida insonparvarlik, demokratiya, mehnatsevarlik, ijtimoiy tenglik, egoizm va al’truizm, tinchliksevarlik kabi insoniy, axloqiy fazilat va tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yishni ifoda etadi.

Jamiyat axloqiy madaniyati individlarning har birida konkret va o‘z shaxsiga xos tarzda namoyon bo‘ladigan axloqiy madaniyatlar majmui sifatida axloqiy ong, ma’naviy dunyoqarash, axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Shuningdek, ularning shaxs xulq-atvorida, o‘zini o‘zi boshqarishida, muloqotida va faoliyatida to‘la-to‘kis hamda izchil namoyon bo‘lishini ko‘zda tutadi. Axloqiy madaniyatning o‘ziga xos shakli hisoblangan subyekt axloqiy madaniyati jamiyat axloqining hosllaviy va subyektivlashgan in’ikosidir. Uning ayrim ko‘rinishlarida odob va axloq aynan-lashtiriladi, tushunchalar esa sinonimlar sifatida ko‘llaniladi. Maxsus tadqiqotlarda odob o‘xshatilgan, buyurilgan imperativlar yig‘indisi sifatida tushuniladi. Axloq esa qanday bo‘lsa shundayligicha mavjud bo‘lgan chinakam, haqiqiy, amaliy narsa sifatida baholanadi. Ushbu

ma'noda, odob va axloq o'rtasidagi farq axloqiy (amaliy) madaniyatning qat'iy belgisi so'z va amal birligini aks ettiradi.

Axloqiy madaniyat shaxsga quyidagilarni o'rgatadi:

- o'zgalar bilan munosabatda an'anaviy axloqiy qonun-qoidalardan ijobiy foydalanishni;
- ularga zamonaviylik nuqtayi nazardan yondashishni;
- egallagan axloqiy bilimlardan samarali foydalanishni.

Axloqiy madaniyat shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi sifatida davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi. Ishlash mexanizimi va ishlash tabiatiga ko'ra u doimo zamonaviy ahamiyat kasb etadi. Muayyan zamon erishgan axloqiy yutuqlarini, ma'naviy axloqiy qadriyatlarini butunlay inkor etmaydi, balki zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Axloqiy madaniyat quyidagicha tuzilmalarga ega:

a) jamiyat subyektlari axloqiy ongining belgilari va elementlari;

b) xulq-atvor va muloqot madaniyati;

v) axloqiy hatti-harakatlar va faoliyat;

Shaxs axloqiy madaniyati quyidagicha tuzilmaga ega:

a) axloqiy ongning rivojlanganligi;

b) axloqiy dunyoqarashning yuqoriligi;

v) axloqiy sifatlarning mukammalligi;

g) axloqiy sifatlarning amaliyotga tatbiq etilishi.

Shaxs axloqiy madaniyati mazmunan guruh yoki jamiyat axloqiy madaniyatiga to'g'ri keladi. Lekin ulardan o'zining subyektiv fikrlashi va ifodalanishi, muayyan axloqiy kadriyatlarni ustuvor qo'yishi va ularga yo'nalganligi bilan farqlanadi.

Axloqiy madaniyat murakkab tuzilishga ega. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- muayyan bilimlar va ularning hayotga tatbiq etish mexanizmlari;
- kelajakka qaratilgan g'oya va maqsadlarga erishish darajasi;
- tabiiy va ijtimoiy fan yutuklaridan foydalanilish darajasi;
- qadriyatlar va ularga amal qilinishi;
- kelajakka ishonch, e'tiqod, fikr, hissiyot va boshqalar.
- Mazkur komponentlar ichida e'tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U axloqiy madaniyat mazmunini tashkil etadigan asoslardan biri sifitida insonning o'z qarashlari va g'oyalari to'g'riligiga, orzu-

umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va hatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo'lgan chuqur ishonchidan yuzaga keladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Bulardan ma'lum bo'ladiki, bir tomondan, axloqiy madaniyat madaniyatning jamiyat moddiy va ma'naviy hayotiga oid boshqa turlari bilan muvofiq keladi, boshqa tomondan esa, u jamiyatdagi illatlar, yomonlik, tengsizlik, vijdonsizlik, nomussizlik, g'ursizlik kabi boshqa axloqqa qarshi hodisalarga ziddir. Hozirgi zamonda axloqiy madaniyat shakllari o'zining yetuklik darajasi, tashuvchilari va mazmuniga ko'ra bir biridan ajralib turadi.

Umuman olganda, axloqiy madaniyatning shakllanish va namoyon bo'lish xususiyatlari, ko'p jihatdan, axloqning o'ziga xosligi bilan bog'liq. Axloq singari, axloqiy madaniyat ham alohida individlarda o'z-o'zidan, tartibsiz holda ham, maqsadga yo'naltirilgan holda ham shakllanadi va yuzaga chikadi. U kishilar hayot faoliyatining barcha sohalari va tomonlarini qamrab oladi, ijtimoiy ishlarni samarali boshqaradi. Axloqiy madaniyatning qadr-qimmati va ahamiyati, xuddi axloq kabi, kishilarning xulq-atvori, muloqoti va faoliyatida, oshkora dunyoqarashida, shaxsiy o'rnak ko'rsatishida yuzaga chiqadi. Axloqiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan to'g'pi anglash, uning jamiyat madaniy taraqqiyoti va shaxs ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi salmoqli o'rni bunga zarur asos bo'la oladi. Axloqiy madaniyatning shakllanishida aql-idrok, tafakkur va his-tuyg'u ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Bu jarayon kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog'liq, chunki inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Axloqiy madaniyatda zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o'z ifodasini topadi. Shuningdek, jamiyatda tashkiliy-tadbirkorlik faoliyat usulining shakllanishi natijasida, ya'ni, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida individlarning tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun eng samarali axloqiy madaniyat turi pragmatik axloqiy madaniyat yuzaga keladi. Pragmatik axloqiy universal axloqiy madaniyatning pragmatik madaniy guruh tomonidan talqin etilishi, unga pragmatizm, ijodiy faollik, uddaburonlik va tashabbuskorlik, aniq hisob-

kitob, o‘z qobiliyatlaridan imkon qadar yuqori foydalanish, hamkorlik va murosa qilishga tayyorlik tamoyillari xos.

Axloqiy madaniyat muomala odobi, etiket, kasbiy odob ko‘rinishlarida nafaqat ishtirok etadi, balki ma’lum ma’noda ularning yashash shartini belgilab beradi. Axloqiy madaniyat axloqiy munosabatning mohiyatini tashkil etadi. Uning eng muhim elementlaridan biri – muomala odobidir. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etib, insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etadi. U so‘z, nutq vositasida, eng avvalo, shirinsuxanlilik, xalimlik singari axloqiy me’yorlar orqali namoyon bo‘ladi. Muomala odobida muloqotning asosi bo‘lmish til katta ahamiyatga ega.

Muloqot madaniyati ichki va tashqi madaniyatga bo‘linadi. Ichki madaniyat – bu axloqiy ideallar va qoidalar, xulq-atvor me’yorlari va tamoyillari bo‘lib, shaxs ma’naviy qiyofasining poydevori hisoblanadi. Bular shunday asoslarki, ularga tayanib inson ijtimoiy hayotning barcha sohalarida boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi. Muloqot jarayonidagi axloqiy madaniyat qator zarur elementlarni o‘z ichiga oladi, bular:

- muloqot maqsadini belgilash;
- sherikni tanlash;
- turtki beradigan motivlar va kayfiyat;
- muloqot shakllari va usullari;
- yakuniy natijalar va ularga baho berish.

Shaxs ichki madaniyati muloqotning tashqi madaniyatini shakllantirishda yetakchi, belgilovchi rolni o‘ynaydi, unda turli-tuman usullar orqali namoyon bo‘ladi. Ichki madaniyat esa insonning o‘zini tutishida, hatti-harakatlarida, sherigiga murojaat kilishi kabilarda ko‘rinadi. Ichki va tashki madaniyat doimo bir-biri bilan uzviy bog‘liq, izchillikda va uyg‘un mavjud bo‘ladi. Biroq ular hamma vaqt ham o‘zaro muvofiq kelavermaydi.

Muomala odobining yana bir «ko‘zgusi», bu – insoniy qarash, nigoh, so‘zsiz-noverbal harakatlar. Ma’lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab

ketish, fikrga nisbatan ensani qotirish kabilar muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi.

Muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'siri ko'rsatishi, o'zini - o'zi tarbiyalash, ibrat vositasi sifatida xizmat qiishi bilan boshqa odob turlaridan ajralib turadi.

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu — etiket. Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan hatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z icbiga oladi. Etiketning zamonaviy va milliy-an'anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotini tasavvur qilish qiyin.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. To'y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to'yxonaga boshlab kirishi va h.k. Etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega. Etiketning o'ziga xos jihati, unda odob bilan go'zallik uyg'unlashadi.

Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitidagi axloqiy madaniyat odamlarning o'zaro munosabatlari va o'zaro hamkorligining natijasi. Shu nuqtai nazardan, har qanday muhit kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning majmui, axloqiy madaniyat ko'rsatkichidir.

Jamiyatimizda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shu ma'noda, yaxshilik qilishning turli ko'rinish va shakllari tarkib topgan. Bizning axloqiy madaniyatimizda yaxshilikning asosi "mehr-oqibat", "mehr-shafqat", "qadr-qimmat" tushunchalarida mujassam. Unga ko'ra, o'zgaga yaxshilik qilish oqibatlilik, shafqatlilik va qadr-qimmatlilikda namoyon bo'ladi. Bu jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitining asosini tashkil qiladi. Yaxshilik kishining so'zi, hatti-harakati va munosabatida namoyon bo'ladi.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu avvalo insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh bilan, oilaning oila bilan, eng muhimi – shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini" anglatadi. Zero, jamiyatimizda yaxshilikning ko'rinishlari ana shunday keng ko'lamli shakllarga ega.

Ikkinchidan, adolat, burch va mas'uliyat sifatlariga ega shaxs axloqiy ong, qiyofa (xulq-atvor) va faoliyatda yetuk hisoblanadi. Bu muayyan jamiyatda axloqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishiga olib keladi.

Uchinchidan, jamiyatimizda shaxsning adolatli, burchga sodiq va mas'uliyat egasi sifatida faoliyat ko'rsatishga intilishi ma'naviy-axloqiy muhitdagi axloqiy madaniyatning eng muhim xususiyatdir.

Axloqiy qadriyatlar

Axloqiy qadriyatlarning tabiatini ochish, ularni tasniflash muammosi birinchi navbatda "axloq" tushunchasini teran anglashni taqozo etadi. Biz yuqoridagi mavzu doirasida axloq va uning mazmun-mohiyatiga doir ayrim fikrlarni tahlil qildik, bir qator axloqga berilgan ta'riflarni, ularning kelib chiqishi va jamiyat rivojidagi ahamiyatini ko'rib chiqdik. Va axloqni jamiyatning axloqiy hayotini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatidagi kundalik amaldagi axloq ya'ni, axloqiy amaliyot va muayyan qadriyatlar asosida baholovchi axloqiy ong hamda o'zini o'zi axloqiy anglash darajalarini aniqlashtirib oldik. Vaholanki, aynan mana shu uchta darajadan o'tgan ijobiy hatti-harakatlar xususan, yaxshilik, mehr-muruvvat, fidoyilik, saxovat, o'zaro-hurmat, beg'arazlik, shijoat, sadoqat vafo va qanoat kabi axloq me'yorlari va fazilatlar asta-sekinlik bilan axloqiy qadriyatlarga aylanib boradi.

Qadriyat maqomini olgan axloq ana shu jarayonda o'zining ijobiy kuchini namoyish qiladi. Falsafa lug'atida butun insoniyatining obodligi, ozodligi, ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan eng qadrli va umumijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan narsalar, hodisalar,

voqealar va jarayonlarni umuminsoniy axloqiy qadriyatlar deb aytilgan.

Ma'lumki, ulug' ajdodlarimiz ma'naviy-axloqiy yetuklikka erishish borasida milliy axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Unda asrlar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat, andisha, sharmu hayo, ibo, iffat kabi yuksak axloqiy tushunchalar, axloqiy qadriyatlar mujassam bo'lib kelajak avlod tarbiyasida muhim vazifani bajargan.

Axloqiy qadriyat bu ideallik va reallikning dialektik birligi, yuksak orzu va unga mos keluvchi aniq hatti-harakatlarni o'zida aks ettirgan ijtimoiy-axloqiy munosabatlar tizimidir. Axloqiy qadriyatlar deb nimaga aytiladi? degan savolga axloqning kelib chiqishi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, bajaradigan funksiyalari hamda qadriyatlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, professor M.A.Nurmatova quyidagicha ta'rif beradi. "Axloqiy qadriyatlar deb, har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg'un, barqarorlik kasb etib, o'zligini bildirib, namoyon etib nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlarning muayyan tizimiga aytiladi". Axloqiy qadriyatlar u yoki bu jamoa, siyosiy kuchlar tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy kodekslar qanchalik mukammal bo'lmasin, baribir, uning talablari doirasiga sig'maydi. Chunki, u insoniyat axloqiy tarbiyasining hosilasi sifatida doimo harakatda bo'lib, cheksizlik sari intiladi. Bu cheksiz harakat insoniyatni yangidan yangi olijanobezgu-maqsadlar sari boshlab boradi.

Axloqiy qadriyatlarga quyidagilarga kiritish mumkin:

a) axloqiy tamoyiliardan, insonparvarlik; jamoatchilik; vatan-parvarlik; mehnatsevarlik; futuvvat; tashabbuskorlik; bag'rikeng-lik; fidoyilik va boshqalar.

b) axloqiy kategoriya va me'yorlardan, adolat; xalimlilik; kamtarlik; halollik; haqiqatparvarlik; mardlik; saxiylik va muruvvatlilik; do'stlik; samimiylik; sabr-qanoat v toqatlilik; hayolilik va pokizalik; homiylik va sahovatpeshalik; sadoqat, mehr-oqibalilik; jo'mardlik va boshqalar kiradi.

Axloqiy qadriyat insonning ongli hatti-harakati, insoniyligi, uning maqsadga erishish borasidagi axloqiy faoliyati, halol mehnati, sabr-qanoatidir. Axloqiy qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud holatini emas, balki ongli hayot-faoliyati yo'nalishining miqdoriy va sifatiy hajmini ifodalab, shakl-shamoyilini ko'rsatib, unga muqarrarlik baxsh etadigan voqea hodisadir.

Axloqiy qadriyatlarning jamiyat rivojida tutgan o'rni quyidagicha:

- axloqiy qadriyatlar barcha qadriyatlarning yadrosini tashkil etadi, ular hayotdan ajralgan qandaydir abstrakt kuch emas;
- xalqning axloqiy hayoti darajalarini o'lchaydigan mezon;
- axloqiy qadriyatlar dunyoviy negizga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy kuch.

Axloqiy qadriyatlarning mazmuni, shakli va amal qilish doirasiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Axloqiy qadriyatlar mazmuni	Axloqiy qadriyatlar shakli	Axloqiy qadriyat-larning amal qilish doirasi
burch, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, sabr-qanoat, kamtarlik, sobitqadamlik.	ijobiy yoki salbiy, yaxshilik va yomon-lik, adolat-adolat-sizlik, baxt-baxtsizlik, hayo va behayolik.	umuminsoniy axloqiy, milliy axloqiy va shaxsiy axloqiy qadriyatlar.

Bugungi kunga qadar etikaning axloqiy qadriyatlari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, adolat, baxt, hayot mazmuni kabi kategoriyalarga alohida e'tibor qaratilar edi. Bizning sharoitimizda bular qatoriga ma'naviyat tushunchalari bo'lgan iymon, erkinlik, sabrlilik, irodalilik, bag'rikenglik kabi qadriyatlar qo'shildi. Mazkur nisbatni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Axloqning asosiy kategoriyalari:	Ma'naviyatning asosiy kategoriyalari:
Yaxshilik-yomonlik	Iymonlilik-iymonsizlik
Adolat-adolatsizlik	Erkinlik-tobelik
Burch-mas'uliyatsizlik	Sabrlilik-sabrsizlik
Vijdon-vijdonsizlik	Irodalilik-irodasizlik
Baxt-baxtsizlik va h. k	Bag'rikenglik-toshbag'irlik va h. k

Axloqiy qadriyatlarni axloqning tarkibiy tuzilishiga qarab:

- axloqiy ongda barqaror shakllangan axloqiy-ma'naviy qadriyatlar;
- axloqiy amaliyotda bevosita qo'llaniladigan axloqiy qadriyatlar;
- axloqiy munosabatlar tufayli zohir bo'ladigan axloqiy qadriyatlar;
- xuquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yuzaga kelgan axloqiy kategoriyalar va qadriyatlar.

Axloqiy qadriyatlar shaxs ma'naviy kamolotida eng ta'sirchan vosita sifatida ham azaliy, ham zamonaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirib, insonlar hayotida ma'naviy idealni shakllantiradi. Fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm) ma'naviy idealda umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini tarkib toptiradi. Tinchlikparvarlik, mehnatsevarlik, birodarlik kabi umuminsoniy qadiriyatlarsiz ma'naviy idealni jamiyatda tarkib toptirishda to'laqonli samaraga erishib bo'lmaydi. Chunki axloqiy qadriyatlarning ma'naviy idealda tutgan o'rni ikki jihatdan ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Axloqiy qadriyatlar umummanfaatni ko'zlaydi.
2. Axloqiy qadriyatlar shaxsni burchga da'vat qiladi.

Zero, fikrlar xilma-xilligi umuminsoniy-axloqiy qadriyatlarni ma'naviy ideal tarkib toptirish vositasida jamiyatga singdiradi. Bu jarayonda bunyodkorlik g'oyalari bilan qurollangan keng xalq ommasining ideallari, manfaatlarini o'zida mujassam etuvchi mafkuragina insonparvarlik, taraqqiyparvarlik tamoyillari asosida mamlakat, xalq taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi, kishilarni ezgu ishlarga da'vat etadi.

«Global etika to'g'risida Deklaratsiya»[1]da shunday deyiladi: «Biz dunyo xalqlari uchun umumiy axloqiy qadriyatlar dunyo dinlarida o'z ifodasini topganligini qayd etamiz va aynan bu umumiy axloqiy qadriyatlar global etika uchun asos bo'lib xizmat qiladi»[2]. Bu umumiy axloqiy qadriyatlar to'rtta bo'lib, quyidagilardan iborat:

- Zo'ravonlikdan voz kechish va hayotni hurmat qilish;
- Birodarlik va adolatli iqtisodiy tartib o'rnatish;
- Sabr-toqat va haqiqatgo'ylik; (haqiqatgo'ylik muhim axloqiy qadriyat sifatida shaxsning ma'naviy – axloqiy qiyofasida alohida o'rin tutadi).

---

[1] Даллемар Ф. Глобальная Этика: преодоления дихотономии «универсализм» - «партикуляризм». // Вопроси философии. 2003. – №3. – С. 17–29.

[2] Даллемар Ф. Глобальная этика: преодоление дихотомии «универсализм» - «партикуляризм» // Вопроси философии. – Москва, 2003. – №3. –С. 16.

- Teng huquqlilik hamda erkak va ayoliar o‘rtasida hamkorlik.

Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi

Kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri sifatida har bir kasb egasiga o‘zining fidoyilik bilan qilgan mehnatidan rohatlanish, zavqlanish, o‘z vujudining sog‘lomligini va saodatini mehnatdan topganligini idrok eta olish imkonini beradi. Kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o‘zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma’naviy hodisa.

Muayyan soha egasining kasbiy odobi uning yuksak mahorati va ma’naviyatida bilinadi. Uning yaxshilik, adolat, mas’uliyat, burch, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kasbga sodiqlik, o‘z kasbidan faxrlanish, zavqlanish, g‘ururlanish, o‘z qadr-qimmatini anglash, mas’uliyati, javobgarlikni his etish, axloqiy bilim va qarashlarga umuminsoniy va axloqiy qadriyatlar, diniy, dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zida tarbiyaning aniq ijobiy maqsadning tarkib toptirish va unga erishish hamda kasbiy va shaxsiy sifatlarni namoyon etishi muayyan kasb egasining bunyodkorlik va shijoatkorlik faoliyatida juda katta ijobiy ta’sir kuchiga egadir. Yuksak kasbiy mahorat har bir mutaxassisning shaxsiy e’tiqodi va ehtiyojiga aylanishi va o‘z faoliyati oldida turgan vazifalarni yangicha yo‘l bilan hal etishga intilishi kerak.

Kasbiy tayyorgarlik, mehnatga ijodiy yondashuv, mahorat, intellekt, innavatsion faoliyat, mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklik, ijtimoiy-kasbiy faollik, bilimdonlik kasbiy qobiliyat, tashkilotchilik, tashabbuskorlik sifatlarini matonat, qat’iyat, mas’uliyat, xalollik va mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar bilan uyg‘unlashtirish kasb odobining talablari sirasiga kiradi.

Yuksak aqliy salohiyat va tajribaga ega bo‘lish bilan birga kasb egasida axloqiy fazilatlar, axloqiylik talablari uyg‘unlikda amal qilsa soha yo‘nalishlarida sifat va samaraga erishiladi. Mutaxassislar o‘z aql-idroklari va axloqiy xatti-xarakatlari ila dono, teran fikrli, rostgo‘y, to‘g‘ri va uzoqni ko‘ra biladigan, nafsning qo‘liga tushmaslik kabi xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ular tajriba va ilm olish bilan aqlini rivojlantirsa, sabr qanoat va mehnatsevarligi orqali kamolotga yetadilar. Haqiqatdan ham aqliy salohiyatga va axloqiy kamolotga ega bo‘lgan inson kasbiy faoliyati,

shaxsiy hayotida faqat ezguliklar qiladi va ezguliklar ko‘radi, o‘zligini anglab yetadi, el-yurt deb yashaydi, yurt istiqboli uchun qayg‘uradigan komil inson ekanligini namoyon etadi.

Kasb egasining umumiy axloqiy sifatlari			
Axloqiy fazilatlar			
insonparvarlik	do‘stlik	g‘amxo‘rlik	jonkuyarlik
samimiylik	odamiylik	xalimlik	fidokorlik
kechirimlilik	diyonatlilik	xushmomilalik	to‘g‘rilik
vatanparvarlik	mehr-oqibatlilik	mehnatsevarlik	halollik
Ishbilarmonlik xislatlari			
ishchanlik	tirishqoqlik	serharakatlilik	mas’uliyatlilik
insoflilik	epchillik	uddaburonlik	sarishtalik
barkamollik	aniqlik	tadbirkorlik	tejamkorlik
Zukkolik, idroklilik fazilatlari			
zehnlilik	bama’nilik	xotirjamlik	sog‘lom fikrlilik,
donishmandlik	sezgirilk	zakovatlilik	topqirlik
notiqlik	tanqidiylik	dadillik	omilkorlik
Sobitlik xislatlari			
faoliyat	sabotlilik	nafsni tiyishlik	botirlik
qat’iyatlilik	barqarorlik	o‘ziga talabchanlik	dovyuraklilik
tezkorlik	intizomlilik	O‘zini boshqarish	jasurlik
Ehtiroslilik xislatlari			
kelajakka ishonch	ko‘tarinkilik	tantanavorlik	jo‘shqinlik

Kasb egasi bilish jarayonida maqsadning aniqligi va ruhiy faollikning mavjudligi, yetarli darajadagi tajriba, bilim, ko‘nikma, mahoratga ega bo‘lishi maqsadga xizmat qilsa, undagi axloqiy tuyg‘u, axloqiy hissiyot va axloqiy ishonch hamkasblar o‘rtasida chin ma’nodagi axloqiy munosabatlarni namoyon etadi. Shuningdek, xodimlarning kasbiy xotirasini maqsadli rivojlantirish, kasbiy tafakkurni faollashtirish orqali kasbiy faoliyatda hissiy-irodaviy barqarorlikka erishish, o‘zini o‘zi boshqara olishi sifati oshiriladi. Bu ham kasb odobi

doirasidagi ijobiy kommunikatsiya va faollashuv jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kasb etikasi talablariga ko'ra xodim eng avvalo, Vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan holda e'tiqodli, o'z kasbiy faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan ma'naviy barkamol inson kabi sifatlarga ega bo'lishi zarur. Erkin va ijodiy fikrlay oladigan, o'z ustida mustaqil ishlaydigan, talabchan mehnatsevar, fidoyi, adolatli, odobli bo'lish bilan birga ijtimoiy mas'uliyatni yuksak darajada his etish, ma'naviy ruhiy jihatdan tarbiyali bo'lishi shart.

Mutaxassisning kasbiy faoliyati umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi. Qobiliyatlarning sezgirlik, kommunikativlik, dinamik, hissiy, kreativlik kabi guruhlarga ajratib ko'rsatish mumkin.

Kasb odobida eng muhimlaridan bu kommunikativlik, ya'ni insonlarga yuz tutish, xayrihohlik, xushmuomalalik va perseptiv kasbiy yetuklik, impatiya, kasbiy tuyg'udir.

Kasb odobi xodimlarining kasbiy mahorati bilan hamohang tarzda amal qiladi. Unga ko'ra kasb egasini odobi quyidagi mahorat qismlarida namoyon bo'ladi. Jumladan, kasb egasining o'z fikrini sodda, ravon yetkaza olish nutq mahorati va odobida, ish faoliyatini to'g'ri tashkil etishi intizom va oqillikda, professionalizm va mas'uliyatlilikda.

Axloqiy tarbiya hamda uning yo'llari va vositalari

Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy tarbiya aslida axloqiy madaniyatning o'zagini tashkil etadi, biz ko'rib o'tgan muomala odobi, etiket, kasbiy odob singari axloqiy hatti-harakatlar uchun asos vazifasini o'taydi. Biroq u o'zini yetarli namoyon qilishi uchun ta'lim bilan doimiy aloqada bo'lishi shart. Shuning uchun biz ko'pincha "ta'lim-tarbiya" degan qo'shaloq atamani qo'llaymiz. Axloqiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib inson ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'liq masala hisoblanadi. Demak, hozirgi axloqiy tafakkur

tarbiyada ma'naviy-axloqiy tushunchalarini uyg'un va izchillikda qo'llash axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy hamkorlik jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida «homo sapiens», ya'ni fikrli va axloqli shaxsni tarkib toptiradi[1]. Shu bois, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitida shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi ham muhim hisoblanadi. Zero, xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan odob - axloq fazilatlari ma'naviyatimiz asosidir. Asrlar mobaynida xalqimiz umuminsoniy, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish, shaxs ongi va qalbiga singdirish axloqiy tarbiya vositasida kechgan. Chunki axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishishida eng asosiy omil hisoblanib, u orqali individ axloqiy qadriyatlarni anglaydi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashaydi, umuman axloqiy fazilatlar sohibiga aylanadi. Axloqiy tarbiya inson farzandini komillikka yetkazish yo'llaridan biri bo'lib, unda an'anaviy va zamonaviy vositalardan keng foydalaniladi.

Abdurauf Fitrat axloqiy tarbiyani jismoniy va aqliy tarbiyadan keyingi – uchinchi bo'g'in tarbiya sifatida uqtirib, u «Insonni komil, chiroyli xulq-atvor egasi va jamiyatga foydasi tegadigan a'zo qilib shakllantiradi»[2], deb uni amalga oshirishning quyidagi tizimini taklif qiladi.

1.Bolaga hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini tushuntirish. A.Fitrat Shayx Muslihiddin Sa'diyning (XIII asr) maslagi va hikoyatlarini tavsiya qiladi, uning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarida kichik hikoyatlar vositasida axloq qoidalarini bayon qiladi[3].

2.Tarbiyachining o'zi ibrat bo'lishi lozimligi. Tarbiyachining so'zi bilan hatti-harakati uyg'un bo'lib, u hatti-harakati bilan barchaga ibrat, o'rnak namuna bo'lmog'i lozim. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotida ibrat muhim o'rin tutadi, inson fe'l-atvorini faqat pand-nasihat, dashnom va va'z aytishlar emas, balki munosabat va ibrat shakllantiradi"[4], jumladan, axloqiy ong, axloqiy hatti-harakat va axloqiy munosabat uyg'un holda in'ikos etadi.

---

[1] Мур Дж. Принципи этики. – М.: Прогресс, 1984. – 140с.

[2] Fitrat A. Rahbari najot /SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – 157 b.

[3] Qarang: K.Hoshimov va boshq. Pedagogika tarixi. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona, 2006. – B.145-155.

[4] Qarang: Ochilova B.M. Ajdodlar merosiga ixlosmandlik va shaxs ma'naviy- axloqiy kamoloti.: F.f.d-ri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtor.....f. – Toshkent: O'zMU, 2005. – 22b.

3.Yomonlarning yomonligini ko‘rsatib, yaxshilarning yaxshiligini uqtirib borish. Bunda tarbiyachi hayotiy voqealar asosida bolalarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olib, ish faoliyatini shunga muvofiq tashkil qiladi[1]. Ya’ni axloqiy tarbiya real voqelik va amaliy jihatlari bilan ma’naviy-axloqiy muhitni muayyan darajada barqarorlashtiradi.

Jumladan, A.Fitrat axloq tarbiyasini ongli va maqsadli olib borish masalasini ilgari suradi va insonda ezgu axloqni shakllantirishga asos bo‘luvchi bir necha fazilatlarni izohlaydi. Bu o‘rinda mazkur fazllatlardan eng muhimlarini tahlil qilib o‘tamiz.

1. Karamlilik – sahovat, yaxshilik demakdir. Bu halol va pok, mehnatkash, mehribon bo‘lish va vijdon amriga bo‘ysunib yashashdir. Karamlilik ma’naviy axloqiy poklanish, nogironlarga, yetim-esirlarga xayri-ehson, yaxshilik qilish, ularning ko‘nglini ko‘tarish, moddiy yordam berish kabi insoniy fazilatlarni qamrab oladi. A.Fitrat uni «odamlarga yaxshilik qilib, millatni yuksaltirish»[2], deb tushuntiradi. Unga ko‘ra, insonda karamlilik tuyg‘usi yuksak darajada shakllansa, millat ravnaq topadi. Chunki, karamlilik millatga madaddir. Karamli bo‘lib voyaga yetgan kishi vaqti kelib yuksaladi, u o‘zini,o‘z faoliyatini, hayotini millat ravnaqisiz tasavvur qilaolmaydi. Karamli inson nafaqat yaxshi xulqlar bilan bezanadi, balki el manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ya oladi.

2. Shijoat – «insonning o‘z haq-huquqlarini bilib yashashidir»[3]. A. Fitrat shijoatni inson o‘z haq-huquqlarini anglab, ijtimoiy faol shaxs sifatida harakatda bo‘lishi tarzida talqin etadi. A.Fitrat shijoat fazilatini izohlab shunday yozadi: «Meni orzuim, falon jamoani pismadon g‘ayri-shar’iy ishdan ma’n etishdir. Bu esa mening ishim, birov meni bu ishdan ma’n etolmaydi, chunki bu mening huquqimdir. Aslida komil inson bunday mushkilot va bema’ni to‘siqlar andishasiga bormay, erkinlik bilan o‘z vazifalarini bajo keltiradi»[4]. Zero, shijoat insoniylik sharafi bo‘lib, u insonga qadr-qimmat ato qiladi. Shijoatning haqiqati qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iborat. Bu axloqiy fazilat zamirida maqsadlar sari intilish tuyg‘usi mavjud.

---

[1] Fitrat A. Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – B.157-158.
[2] Fitrat A. Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – 77 b.
[3] O‘sha manba.– 97b.
[4] O‘sha manba.– 98 b.

3. Sabotlilik – «ulug‘ maqsadga yetishish uchun qat’iy harakatdir»[1]. A.Fitratning fikricha, ulug‘ maqsad yo‘lida intilgan odamni «na faqirlik, na qiyinchilik, na maqsad uzoqligi» cho‘chita oladi. Shuningdek, «besabotligi bilan mashhur bo‘lgan millat pastlikdan, xorlikdan, zolimlik changalidan xalos bo‘laolmaydi»[2]. Ushbu fazilat, avvalo, har bir kishida, qolaversa, ijtimoiy faol va albatta, tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchilarda bo‘lishi kerak ekanligini qat’iy uqtiradi[3]. Uning fikricha, kishida sabotlilik fazilatini shakllantirish uzoq vaqt va izchil olib boriladigan mehnatni talab qiladi. Bu fazilat insonni kashfiyotga boshlaydi.

4. Halimlik – «odamni odamga birodar va do‘st qiluvchi fazilatdir»[4]. A.Fitrat halimlik fazilatini inson madaniyatining negizi sifatida talqin qilib, uning «muomala», «talab» «iddao» tushunchalariga asosan shakllanishini uqtiradi. Sharq tarbiya nazariyasida qattiqko‘ngillik rad etiladi. A.Fitrat ham bu g‘oyadan kelib chiqib, insonda haliimlik (yumshoqlik) tuyg‘usini shakllantirish g‘oyasini ilgari suradi. U yozadi: «Komilu olim insonlar nafslarini (o‘zliklarini) shunday tarbiyalaydilarki, natijada afv, murosa va muloyimlik odatlariga aylanadi»[5]. Halimlik quyidagi hulqlarni shakllantirish bilan yuzaga keladi: a) afv (kechirimlilik); b) murosa (kelishuvchanlik); v) muloyimlik (mo‘’tadillik).

Demak, o‘zligida halimlik fazilati bo‘lgan kishi ruhan kuchli inson hisoblanadi. Halimlik nodonlikka qarshi xushxulqlikdir va ushbu fazilat kishini tinchliksevar inson sifatida voyaga yetkazadi.

5. Sadoqat – «jamiki huquqlarimizdan foydalanishimiz va barcha vazifalarimizni ado etishimizdir»[6]. A.Fitrat sadoqatni ijtimoiy axloq turlaridan biri sifatida talqin qilib, insonni ikki olamda baxtga yetaklovchi omillardan biri sifatida uqtiradi. «Bu dunyoda mo‘’tabar, oxiratda baxtiyor bo‘lishni istaganlar, deb yozadi A.Fitrat, - o‘zlarida sadoqatni paydo qilib, doimiy odatlariga aylantirishlari kerak. Ijtimoiy aloqalarning yagona nazoratchisi sidqu sadoqatdir»[7]. Kishi o‘zligidagi sadoqat tuyg‘usi bilan ijtimoiy

---

[1] Fitrat A.Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – 100 b.
[2] Fitrat A. Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001.– 101 b.
[3] O‘sha manba. – 101 b.
[4] Fitrat A. Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001.– 103 b.
[5] O‘sha manba. – 104 b.
[6] Fitrat A.Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – 108 b.
[7] O‘sha manba. – 108 b.

foydali shaxsga aylanadi. Sadoqat ezgu ishlarga fidoyi bo‘lish natijasida shakllanadi. Olim bu masalani shunday izohlaydi: «Bir millatning vakillari sadoqat sababli bir-birlariga o‘zaro yordam beradigan va bir-birlaridan foyda oladigan bir oila a’zolari kabidirlar. Agar oilada sadoqat bo‘lmasa, u uyda osoyishtalik ham bo‘lmaydi. Shuningdek, millat og‘alarining orasida ham sadoqat bo‘lmasa, rohat, boqiylik ham bo‘lmaydi»[1]. Sadoqat xislati muayyan kishida shakllansa, u avvalo, shu shaxsning oilasida namoyon bo‘ladi. So‘ngra u jamiyat ishlarida ko‘rinadi.

6. Qanoat – «barcha narsaga shukur qilib, insoniy martabada yuksalmoqdir».[2] Ta’kidlash lozimki, A. Fitrat o‘z zamonida tarkib topgan qanoat talqinini tanqid qilib, rad etadi. U yozadi: «Biz turkistonliklarda ajib bir holat borki, axloqiy fazilatlarni va sha’riy ajrlarni yo bilmasdan, yo bilib, ya’ni qasddan xato, g‘alati tushunamiz. Masalan, bugun uyda o‘tirib, hech yerga chiqmay, sa’y-harakat qllmay, qotgan nonga rozi bo‘lishlikni qanoat deb o‘ylaymiz».[3] Bu qanoat emas, balki tanballikdir. Aksincha, qanoat mavjud narsalarga shukur qilib, nafsni jilovlab, o‘zgalar ishi uchun harakat qilmoqdir. Olim bu fazilatni insoniylikni saqlovchi mezon, axloqning tarkibiy qismi sifatida inson botinida shakllanadi deb talqin qiladi va axloq tarbiyasida mazkur ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasini tavsiya etadi. E’tibor berilsa, olim axloq tarbiyasida ko‘proq ijtimoiy tarbiyani nazarda tutadi.

Ayni paytda olim axloq fazilatlarining aksi bo‘lgan salbiy xislatlarni aytib, ularni rad etadi. Bu borada u, ayniqsa, nodonlik, xudbinlik, isrofgarchilik, baxillik, jur’atsizlik, manmanlik, ikkilanish, qaysarlik, g‘azab, uyatsizlik (vajohat), nifoq, xushomadgo‘ylik (shaloq), bekorchilik (ihmol), hirs, munofiqlik (riyo), molu dunyoga o‘chlik (sarvat) kabi illatlarni izohlab o‘tadi. Fitrat bu salbiy xususiyatlar shaxsni g‘ofillik va inqirozga boshlashini alohida uqtiradi.

Shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi axloqiy me’yorlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

---

[1] O‘sha manba.– 108 b.
[2] O‘sha manba. – 111 b.
[3] Fitrat A.Rahbari najot / SH.Vohidov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. – 111 b.

1. Shaxs irodasini shakllantirish. Iroda ichki his-tuyg'u, ammo muhim insoniy fazilatdir. Iroda kishida bilish, his qilish va chiniqish quvvatini hosil qiladi. Iroda vositasida shaxs olam va odamni, voqea va hodisalarni anglab yetadi, haqiqatni teran his qiladi, yaxshilik – yomonlik ta'sirida bardoshlilik ko'nikmasini hosil qiladi. Shaxsda iroda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki u muayyan vaqt davomida shakllantiriladi. Irodali shaxs jamiyatning ongli individi sifatida faoliyat ko'rsatadi, buning aksi bo'lgan irodasiz kishi esa ongsiz, mute va o'zgalarga qul sifatida shakllanadi. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va murakkab vaziyatda mas'uliyani qo'lga oladi.

2. Shaxsni haqiqatgo'y qilib voyaga yetkazish. Haqiqatgo'ylik muhim axloqiy qadriyat sifatida shaxsning ma'naviy – axloqiy qiyofasida alohida o'rin tutadi. Haqiqatga intilish shaxsni jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Shu ma'noda, haqiqatgo'ylik shaxs xarakterini shakllantiruvchi omillardan biridir.

3. Shaxsni insonparvar qilib voyaga yetkazish. Insonparvarlik shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi va uni baholovchi muhim axloqiy tamoyilidir. Shaxs o'z faoliyatida insonparvarlik fazilatini namoyon qilmas ekan, u jamiyatning ilg'or kishisiga aylana olmaydi.

Zero, jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichida ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyatimiz demokratik qadriyatlarni qabul qilib borgan sari uning a'zolarini «tarbiyalovchi» da'vogarlar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning ongini, axloqi va hayotini izdan chiqaruvchi g'arazgo'y kuchlar, turli diniy oqimlar o'z mutaassibona, illyuzion xususiyatga boy tarbiya yo'llarini tiqishtirishga urinishmoqda. Bunday sharoitda ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarini aniq belgilab olish dolzarb masala hisoblanadi. Shu ma'noda, ma'naviy-axloqiy tarbiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi: maqsadlilik, onglilik, samaradorlik.

Axloqiy tarbiya ishlari insonda ezgulik, e'tiqodlilik va erkinlik tuyg'ularining g'olib tarzda shakllantirishga asoslanishi va shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan izchil tarbiyalab borishni taqozo etadi.

Bunda ideal darajadagi qadriyatlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bu borada, bizningcha, mutloq ma'naviy-axloqiy tushunchalarga yangicha nuqtai nazardan qarash va asoslanishning vaqti keldi. Masalan, shaxsning axloqiylik darajasini belgilashda uning iroda erkinligiga, burch va mas'uliyatga egaligini nazarda

tutish maqsadga muvofiq. Albatta, bular mutloq axloqiylik elementlari hisoblanadi. Negaki, shaxsning iroda quvvatini, burch tuyg'usini va mas'uliyat hissi ko'lamini aniq belgilashni imkoni yo'q. Ayni paytda, bu sifatlarsiz shaxsning ma'naviy-axloqiy darajasini belgilab bo'lmaydi. Iroda, burch va mas'uliyat oliy ma'naviy-axloqiy fazilatlar bo'lsada, ular muayyan ma'naviy muhitda shaxsning xulq-atvori va hatti-harakatida namoyon bo'ladi. Bu sifatlar shaxsni axloqiy jihatdan mudom yuksalib borishiga turtki berib turadi. Shu ma'noda shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalab borishda vaj-sabablarning muhim o'rin tutishini e'tirof etish lozim. Ma'lumki, axloqiy motivlar insonni yo'naltirib turadi, uning insoniy sifatlari, fazilatlari va hatti-harakatlarini yangi asoslar bilan to'ldirib boradi. Ilm-fan inson ruhiyatida ezgulik tuyg'usini ustuvor ekanligini asoslab beradi. Shu ma'noda, Suqrot (er. av. 469-399) haqdir. U deydi: «Maqsadli yovuzlik qilish mumkin emas»[1]. Mantiqan qaralsa, inson ongli ravishda yovuzlik qilishga intilmaydi, yovuzlik – inson ongli ravishda qochadigan hatti-harakat. Negaki, ashaddiy jinoyatchi ham o'z hatti-harakatlarida ezgulik harakatlarini «ko'radi». Demak, har bir shaxsda iroda, burch va mas'uliyatni shakllantirishning imkoniyatlari bor. Bunday imkoniyatlardan shaxs butun hayoti davomida foydalanishi mumkin. Shu ma'noda, ba'zan ishlatiladigan «bu bola odam bo'lmaydi», «tarbiyasi qiyin bolalar» kabi iboralar mazmunsiz tushunchalar. Bunday fikrlash va yondashish shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi usullarining eskirgani va texnologiyaning zaifligini ko'rsatadi. Shaxsni butun hayoti davomida tarbiyalab borish ishlarida nodavlat tashkilotlarning faoliyati va rolini oshirishga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Chunki fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylandi. Shu bois ham siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamg'armalar va markazlar

[1] История философии / Под ред. А.А. Гусейнова.– М.: Мисль, 2004. – 91с.

o‘z a’zolarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalab borishni birlamchi vazifa qatorida bilishlari kerak. Ularning faoliyatiga baho berishda shu nuqtai nazardan yondashish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tashkilotlarning ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini kuchaytirish ya’ni, o‘quv trening seminarlar, ma’naviy-axloqiy mavzularni qamrab olgan turli konkurs va tanlovlarni kuchaytirish; ma’naviy-axloqliy talablarga javob bergan shaxslar va jamoa a’zolarini rag‘batlantirib borish mexanizimini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish orqali jamiyat a’zolari ongi va hayotida ibrat, namuna, ixlos fazilatlari majmui ma’naviy ideallarni kuchaytirish kerak. Inson ruhi ezgu va yorug‘ g‘oyalarni tez qabul qilish xususiyatiga egaligi ma’lum[1]. Uning aqli esa mantiqiy asosga ega me’yorlar va qonuniyatlarni qabul qilishga moyil[2]. Shu sababli insonni axloqiy tarbiyalashda uning ruhi va aqlini to‘g‘ri shakllantirish kutilgan samarani berishi mumkin. Bu bilan inson tabiatida ezgulik g‘oyalarining ustuvor darajada tarkib toptirish mumkin bo‘ladi.

Shaxsni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash



[1] Qarang: G‘azzoliy A.X. Kimyoi saodat. –T.: «Kamalak», 1993. – B. 46-47. Komilov N. Tasavvuf yoxud komil inson axloqi. – T.: «Yozuvchi». 1996. K.1. – B.32-34.

[2] Aliqulov H. Gumanistik meros va shaxs ma’naviy kamoloti. – T.: Falsafa va huquq, 2006. – 13 b.



"Ommaviy madaniyat" tahdidi

Ayni paytda, dunyoning hozirgi rivojlanish jarayoni, o'zga jamiyatlarda ham kuzatilayotganidek, bizning jamiyatimiz axloqiy muhitiga ham ikki jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bor: birinchidan, ba'zi oqimlar tomonidan milliy axloqiy qadriyatlarimizga daxl qilishga doir urinishlar. Bunda «ommaviy madaniyat» niqobi ostida mutaassiblik, behayolik, fahsh kabi ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini tiqishtirishga urinishmoqda. Ikkinchidan, globallashuv bahonasida umuminsoniy qadriyatlarni mutloqlashtirishga urinish. Bunda «erkin hayot» niqobi bilan murtadlik (prozelitizm), ayirmachilik (radikalizm), xudbinlik (nigilizm), vatansizlik (kosmopolitizm) kabi illatlarni umumiy axloq g'oyalari sifatida targ'ib qilishga urinish bor.

Bugungi dunyo boshidan kechirayotgan globallashuv jarayoni insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Lekin, ayrim kuchlar dunyoni yanada murakkablashtirishga xarakat

qilayapti. Xususan, doimo zo‘ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar «ommaviy madaniyat» shiori ostida turli salbiy g‘oyalarni keng targ‘ib qilmoqdalar. Kimki «ommaviy madaniyat» ortidan ergashsa, o‘zining ijodiy qobiliyatidan yiroqlashadi va tayyor madaniy mahsulotlar «iste’molchisi»ga aylanib qoladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, «ommaviy madaniyat» asosan hayotiy tajribasi kamroq yoshlarni ohanrabodek o‘ziga tortadi. Ommaviy madaniyatni niqob qilib, buzuqlik va zo‘ravonlik singari inson shaxsini ruhan yemiradigan g‘oyalarni targ‘ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo‘q. Ushbu madaniyatning asosida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini zamonaviy fan ham e’tirof etmoqda.

Bir qarashda jamiyatning ma’naviy-axloqiy yetuklikka bo‘lgan ehtiyoji butun dunyoda kechmoqda. 2005-yil yanvar’ oyida Rossiyaning Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan YuNESKOning “Etika” va “Bioetika” fanlarini o‘qitish bo‘yicha Xalqaro mintaqaviy Kengashida bu haqda alohida ta’kidlab o‘tildi. Jumladan, Kengashda ta’kidlandiki: «Me’yoridan ortiq dajaradagi biznes axloqni buzmoqda, axloqiy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatli roliga soya solinmoqda»[1]. Chunki noqonuniy tadbirkorlik va bir shaxsning me’yoridan ortiq darajada boyib ketishi jamiyatning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga, shaxsning axloqiy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘zga tashlanmoqda. O‘zgacha aytganda, Aristotel’ (er. av. 384-322) ta’kidlaganidek, bu borada ham «o‘rta hollik eng asosiy mezondir, chunki eng yaxshi hayot o‘rta hollikda»[2].

Shunday ekan, ommaviy madaniyatni niqob qilib olgan aksilmadaniyatga, uning didsizligiga va axloqsizligiga, insonni haqoratlovchi, tubanlashtiruvchi mahsulotlarga qarshi kurashish davr talabidir. Unutmaslik kerakki, ba’zi ijtimoiy qatlamlarning rivojlanmagan didiga «ommaviy madaniyat»da ko‘p uchraydigan mazmunan sayoz, siyqa va jo‘n mahsulotlarning mos kelishi va mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi.

---

[1] Апресуан Р., Шамов И. Совещание YUHECKO по проблемам преподованиуа етики и биоетики // Вопросы философии. – Москва, 2005. – №7. – С. 161.

[2] Аристотель. Политика. Афинская политиЙ. – М.: Мысль, 1997. – 148 с.

«Ommaviy madaniyat» turli xil ko‘rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo‘sh vaqtni o‘tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadriyatlarga munosabatda namoyon bo‘lmoqda. Bular esa behayolik va zo‘ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik holatlarining kuchayayotganligi kuzatilayapti. Xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma’naviy yurish-turish andozalarining kinofil’mlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini ma’lum ma’noda zaharlayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishdan ko‘ra kompyuter o‘yinlarining oldida vaqtini o‘tkazish, mazmunan sayoz fil’mlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

Ommaviy madaniyat tashqi ko‘rinida aks etsada uning zamirida bir qator g‘oyaviy-ma’naviy tahdidlar yashiringan bo‘lib, hozirda ularning bir qator ta’sir doiralari va namoyon bo‘lish shakllari aniqlangan. Jumladan, u eng avvalo, insonning erkinligiga daxl qiladi, uni fikriy jihatdan qaram oladi. Va insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot xurujlari shaklida amalga oshiriladi.

Ommaviy madaniyat va uning tahdidlari turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostiga yashiringan holda jamiyat va davlatning juda katta ma’naviy yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlariga tahdid soladi, jamiyatni inqirozga olib keladi. Eng asosiysi ommaviy madaniyatning tahdidi va salbiy ta’siri dunyoning barcha mamlakatlari, xalqlari hayotiga daxldor masala bo‘lib, u qaysi davlat yoki xalqqa qarshi qaratilishidan qat’iy nazar, butun insoniyatni inqiroziga sabab bo‘luvchi niqoblangan illatdir.

“Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlik, hayosizlik va shafqatsizlikni targ‘ib qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda esa behayolik, shafqatsizlik va zo‘ravonlik haqida hikoya qiluvchi, inson qadr-

qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishlariga sabab bo'luvchi adabiyotlarni tarqatish, filmlarni namoyish etishning taqiqlanishi belgilab qo'yilgan. Milliy qonunchilik tajribasida bu kabi normalarning aks etishi yoshlarimizda turli axborot xurujlari, jamiyatimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, farzandlarimizni xalqimizning milliy ma'naviyati, oilalarimizda amal qilinadigan tartib-qoidalarga, ota-onaga hurmat ruhi asosida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Zero, har qaysi davlatning yoshlari uning ertangi kunini, taqdirini belgilovchi kuch bo'lib sanaladi.

Zero, biz bu masalada hamisha ogoh va hushyor turmasak, mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini zaharlashi, "ommaviy madaniyat" deb atalayotgan illat xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan odob-axloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizni nursizlantirib, ko'p mingyillik milliy qadriyatlarimizga putur yetkazishimiz mumkin.

Kibermakon va axloq

Kibermakon komp'yuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik, tarmoq orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud komp'yuterning ma'lumotlari doirasida faoliyat olib boruvchi kishilar jamoasining makoni. Kibermakon faylasuflar ta'biriga ko'ra, ma'rifat va jaholat kuchlari kesishgan chorraha, axborotlar maydonidir. Bu maydonda o'z ichki tahlil qobiliyati va sintez qilish metodidan yiroq inson adashadi, o'z dunyoqarashi va hatti-harakatida beqarorlik kasb etadi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, internet tarmog'i ham xuddi shunday xususiyatlarga ega ulkan resurs majmui. Biroq, bu resursdan kim, qachon, qayerda, qanday maqsadlarda foydalanishi ana shu makon foydalanuvchilarining axloqiy kamoloti bilan bog'liq jiddiy masaladir.

Sir emas, internet va yuqori texnologiyalardan foydalanish bugungi kun odamining odatiy ehtiyojlaridan biriga aylangan. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik yo

yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Internet inson qochishi yoki taqiqlanishi lozim bo‘lgan yomonlik manbai emas, o‘zini anglagan odam uchun bitmas-tuganmas bilim manbaidir. Ammo lekin, har qanday taraqqiyot mahsulidan inson kamoloti, jamiyat ravnaqi va insoniyat farovonligi yo‘lida foydalanilmas ekan, u g‘ayriinsoniydir.

Vaholanki, kibermakon va uning vositalaridan oqilona foydalanib, axloqiylikni oshirish, yuksak ma’naviyatga erishish, qalblarni zabt etishda axloq omili muhim rol’ o‘ynaydi.

Hozirda turli diversion kuchlar ham o‘zining yot g‘oyalarini tarqatish, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitini izdan chiqarishda kibermakonni vosita sifatida ustamona qo‘llamoqda. Xususan, ma’lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etmoqda. AQShda o‘tkazilgan tadqiqotda ma’lum bo‘lishicha, 7-18 yoshdagi bolalarning 80 foizi har kuni elektron manziliga virusli, yoki axloqqa salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi fayllarni qabul qiladi. Kibermakonda sayr qiladigan har beshinchi bola turli tahdidlarga bir marta bo‘lsa-da uchraydi, har to‘rtinchisi yoshiga mos bo‘lmagan axborotni oladi.

Shu bois ham xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning kibermakondagi faoliyatida AKTdan foydalanish axloqi va kibermadaniyatini yanada yuksaltirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Sababi, internetdagi g‘arazli kuchlar o‘z yovuz manfaatlarini qondirish yo‘lida aynan kibermakondan foydalanishmoqda. Sir emaski, bugun yot g‘oyalar tarafdorlari o‘z "o‘ljasi"ni asosan kibermakondan axtaradi. Negaki, internet foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Foydalanish bu yaxshi, axborot kommunikatsiyalardan foydalanish savodxonligi undanda yaxshi, ammo, axloqda mavjud me’yor mezon qoidasining buzilishi bu yomon albatta. Chunki, ortiqcha internetga berilish va vaqtni sarhisob qilmaslik oqibatida yoshlarimizda kibermakonga mute’lik yuzaga kelmoqda. Internetga mute’ odamlar, odatda, virtual hayot kechira boshlaydi. Yuzma-yuz muloqotdan qochadi. Ularda depressiya yo agressivlik kuchayib, faqatgina kibermakonda o‘zini ancha erkin tutishadi. Erkinlikni su’istemol qilishadi. Tobelik ortgan sari hohishsiz ijtimoiy tarmoqlarga kirish va elektron manzilni tekshirish odati va mut’yelik darajasi yuqorilab boradi. Ijtimoiy

tarmoqda ishlashni beixtiyor istash, bu uchun vaqt va mablag'ni ayamaslik, boshqalarning bu boradagi fikrlari bilan hisoblashmaslik kabi axloqqa zid harakatlar amalga oshadi. Bu esa insonni jamiyatdan, o'zidan, oilasidan, yiroqlashuviga sabab bo'luvchi begonalashuv xavfini kuchaytiradi.

Aslida xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida ommalashtirilgan global axborot tarmog'i bugun bitmas-tuganmas axborot makoni, elektron kutubxona vazifasini o'tash bilan birga axloqiy buzuqlikni keng tarqatish, millatlarni qadriyatlaridan ayirish, axloqsizlikni ustamonlik bilan targ'ib qilish manbaiga aylandi.

Diversion kuchlarga qarshi tegishli choralar ko'rilsada, global tarmoqda hammani, ayniqsa, bolalarni xulq-odobiga salbiy ta'sir etuvchi rang-barang saytlar, axloqsizlik va yovuzlikka yo'g'rilgan jozibador o'yinlar ko'paymoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi kun kibermakonidagi eng katta xavflardan biri yoshlarni axloqiy buzuqlikka yetaklovchi g'arazli maqsadlarga xizmat qiluvchi turli dasturlar mavjudligi. YUNISEF tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy so'rovlarda internetdan foydalanadigan 90 foiz bolalar axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi bu turdagi axborotni maqsadli ravishda izlaganligi aniq bo'lganligi ham bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Internetda taraqatilayotgan illatlardan himoyalanishning eng yaxshi usullaridan biri bu barcha manbalarga ehtiyotkorona yondashish, ularga tanqidiy va tahliliy nazar bilan qarash va eng asosiysi yoshlarni tahlil qobiliyatini oshirish va mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bu esa juda murakkab va davomli vazifadir. Chunki, turli maqsad va maslakda, turfa shakllarda tarqatilayotgan manbalar oqimi orasidan zarur va foydalisini topish oltin izlab qum elashday gap.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keldi.

Mamlakatimizda yoshlarimizning ongu qalbida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini kuchaytirish, ularning ma’naviy olamini yanada boyitish, turli axloqiy buzuqliklarga qarshi immunitetini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sir emaski, yoshlariga egalik qila olgan mamlakatgina ularning munosib kelajagini ta’minlay oladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi yoshlarning ongi va mafkurasini to‘g‘ri shakllantirishdan iborat. O‘zbekiston aholisining qariyib 61 foizini yoshlar tashkil etadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlarga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Afsuslar bo‘lsinki, bunyodkor kuch bo‘lmish yoshlarning nazoratsiz qolishi, tarbiyadagi noqisliklar, iroda erkinligi va axloqiy tanlovning shakllanmaganligi sababli jahondagi qurolli to‘qnashuvlarda 18 yoshgacha bo‘lgan 300 mingdan ortiq yosh jangarilar ishtirok etmoqda. Eng achinarlisi, ularning 80 foizi 15 yoshdan oshmagan yosh nihollar ekanligi va mazkur guruhlar yosh jihatdan yosharib borishidir. Masalan, 2000- yilda terrorchi tashkilotlarga a’zo bo‘lganlarning o‘rtacha yoshi 28 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yil ma’lumotlariga ko‘ra ularning aksariyatini 20 yosh atrofidagilar tashkil etmoqda. Sayyoramizdagi yoshlar o‘rtacha 2 milliardni tashkil etishini hisobga olsak, bu fojia zudlik bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb muammodir. Masalan, odnoklassniki.ru ijtimoiy tarmog‘i kunlik auditoriyasining 20 foizini aynan, O‘zbekistondan kiruvchilar tashkil etib, ularning aksariyati yoshlardir. Shu bois ham mamlakatimizdagi barqarorlikka putur yetkazish va yoshlarni ichkaridan buzishga urinadigan kuchlar bugun ijtimoiy tarmoqlarda juda faol. Bu jarayonda erkinlik niqobi ostida axloqiy buzuqlik va tubanlik, nikohsiz yashash kabi illatlar ortib, inson sha’niga dog‘ tushuruvchi axloqiy tuban ishlardan biri bir jinsli nikohlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi kabi adashgan yoshlarning aksariyat qismi aynan, kibermakonda faoliyat olib borayotgan yot kuchlar qurboni ekanligidan kelib chiqsak, yoshlarimizda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy

manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan manbalarni tanlay olsin.

Internetdan qanday foydalanish oilaviy muhitida, unagi iste'mol chora-tadbirlarining qanday yo'lga qo'yilganligida, bir so'z bilan aytganda, tarbiyaga bog'liq. Chunki, axloqiy madaniyat va iste'mol madaniyatiga ega yoshlar, salbiy axloqiy buzuqlik va illatlarni ta'siriga tushib qolmaydi. Chunki, ularda AKT orqali tarqaluvchi illatlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi. Yoshlar o'rtasida axloqiy buzuq ma'nan tuban ishlarning oldini olish oiladagi muhit va ota-ona nazorati ham muhim o'rin tutadi. Shu bois ham kibermadaniyatni rivojlantirish uchun oilada farzand tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan yondashish, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga internetdan foydalanish madaniyatini o'rgatish va ular orqali yoshlarning internetdan to'g'ri va samarali foydalanishlarini ta'minlash zarur. Yoshlar ongida internet-madaniyat va axborot xavfsizligi ko'nikmalarini oshirish, jumladan, odob-axloq me'yorlariga rioya qilinishi hamda fuqarolarni turli ma'naviy tahdidlardan saqlash, ularning ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish kerak.

Xalqimiz hamisha farzandlari o'zidan o'zishi, har tomonlama yetuk bo'lib hayotga kirib borishi, yovuzlik va yomonlikka qarshi kurashuvchan ezgu fazilatlarga boy inson bo'lib voyaga yetishi uchun kurashib yashagan va yashamoqda. Mamlakatimizda sog'lom axborotlashgan jamiyatni shakllantirish, internetda milliy segmentni boyitish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, milliy manfaatlarimizga mos saytlarni ko'paytirish ham yuqorida aytilgan ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Globallashuv xavf-xatarlariga qarshi tura oladigan, o'z ma'naviy kuch-qudratini isbotlashga qodir, o'zini hurmat qilgan inson borki, o'z sha'ni va qadr-qimmatini asrashga urinadi. Bu esa Vatan sha'ni va fuqarolar o'rtasidagi ma'naviy rishtaning yanada mustahkam bo'lishiga katta ehtiyoj tug'diradi.

Farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq.

E'tirof etish kerakki, asrlar osha sayqallanib kelayotgan oilaviy qadriyatlar va tarbiya an'analari bu borada dunyo davlatlari uchun ibrat namunadir.

Tayanch so'z va iboralar

Axloqiy madaniyat, muomala odobi, suhbat, imo-ishora, etiket, kasbiy odob, axloqiy tarbiya, axloqiylik, tarbiyalanuvchi, komil inson, namunaviylik, ommaviy madaniyat, bioetika, klon, evtanaziya.

Mustaqil ishlash uchun savollar:

1. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri.
2. Axloqiy madaniyatning rivojlanishida internetning o'rni.
3. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi.
4. Etiket nima?
5. Etikaning zamonaviy muammolari.
6. Axloqiy tarbiya nima va uning asosiy vositalari.

Mavzuga oid testlar:

1. Axloqiy madaniyat tushunchasining mazmuni to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang:

a) axloqiy madaniyat-shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalnishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi;

b) axloqiy madaniyat axloq-odobda hammaga namuna bo'lish tushuniladi;

v) axloqiy madaniyat axloqiy qonun-qoidalarga amal qilib yurgan odam;

g)axloqiy madaniyat-o'ta tarbiyali, mulohazali inson;

2. Inson axloqiy madaniyatning uzviy qismi, unsuri – bu..?

a) muomala odobi;

b) rostgo'ylik;

v) yaxshilik;
g) xaqgo'ylik;

3. An'anaviy axloqiy tarbiya vositasi – bu...
a) san'at;
b) kitob;
v) ilm;
g) sport.

16-MAVZU. ESTETIKANING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

"Estetika" fanining obyekti va falsafiy mohiyati

Falsafa va uning fan sifatidagi umumnazariy masalalari doimo tafakkur ahlining e'tiborini jalb etib kelgan. Inson olamni his-tuyg'ulari, aql idroki va iroda-ixtiyori yordamida o'zlashtirar ekan, falsafaga ehtiyoj sezib yashashi tabiiydir. Zero, tabiat, jamiyat va insonning rivojlanish muammolari bilan bog'liq jarayonlarda tafakkurga murojaat qilish - falsafaga murojaat qilish, haqiqatni anglash – falsafani anglash demakdir. Bir so'z bilan aytganda, falsafaning bosh maqsadi – haqiqat va uni yuzaga keltirishdir. Bu haqiqat tafakkur orqali reallashadi.

O'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan estetika shu ma'noda falsafiy fan hisoblanadiki, u ham tabiat, jamiyat va inson muammolariga falsafaning bosh maqsadi bo'lgan haqiqat tamoyiliaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Biroq, estetika haqiqatga go'zallik talablari, mezonlari va qonunlari orqali boradi. Shuning uchun ham estetika haqida gapirilganda, albatta, go'zallik ham tilga olinadi. Zero, insonga oddiy qilib "estetikasi zo'r inson" deb baho berish bilan o'sha insonning go'zallikka munosabatini ham baxolagan bo'lamiz.

"Estetika" (yunon. aisthetikos – his qilinadigan) iborasi dastlab olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (u G'arbiy Yevropa falsafiy tafakkurida muhim o'rin tutgan Vol'f maktabi namoyondasi hisoblanadi)ning "Estetika («Aesthetica»)" nomli ikki tomlik asari (1750-1758-y.y.)da muomalaga kiritilgan. Baumgarten estetikani bilishning yuksak darajasi hisoblangan mantiqdan farqli o'laroq, hissiy bilishning quyi darajasidagi fan sohasiga tegishli deydi. Uning fikricha, mantiqiy mushohada aniq tasavvurlarga, estetik mushohada esa noaniq va mavhum tasavvurlarga asoslanadi. Buning birinchisi – aql muhokamasiga, ikkinchisi – did muhokamasiga tegishlidir. Biroq, insonning universum bilan munosabati avval estetik mushohada orqali ro'y beradi, so'ngra mantiqiy mushohada orqali amalga oshadi. Shunga ko'ra, estetikaning predmeti – go'zallik, mantiqniki – haqiqatdir.

Baumgartenning estetikaga kiritgan ushbu nazariyasi keyinchalik san'at falsafasiga nisbatan keng qo'llanildi. Bu nazariya Immanuil Kant, Fridrix Gegel va boshqa faylasuflar tomonidan rivojlantirildi, hatto fanning predmetini aniqlashda go'zallik masalasi bilan boshlangan mulohazalar to g'oyalar olamining falsafiy mohiyatiga tegishli mulohazalar bilan bog'lanib ketdi. Shuning uchun ham ko'pchilik nazarida Baumgarten "estetikaning asoschisi" sifatida tilga olinadi. Ammo, nemis faylasufi Teodor Lipps estetikani mohiyatan "nemislarga xos fan" ekanligini ta'kidlagani holda Germaniyada estetikaning asoschilari sifatida 4 nafar faylasuf - Gotxol'd Efraim Lessing, Iogann Gotfrid Gerder, Immanuil Kant, Fridrix Shillerni ko'rsatib o'tadi. U Immanuil Kant "estetikaning asoschisi" sifatida birinchi bo'lib estetik qadriyatlarni shakllanadigan va rivojlanadigan "hudud"ning chegarasini belgilab berdi. Shundan keyingina estetika masalalari Kantning idealistik falsafasi bilan birlashdi va rivojlandi, – degan xulosaga keladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, "Estetika fan emas, uning mazmuni fanning ilmiy talablariga javob bermaydi", - degan fikrlar estetikaning mohiyatini tushunmaslik natijasida kelib chiqqan fikrlardir. Odatda, fan - dunyo haqidagi obyektiv bilimlar tizimi; uni ma'lum maqsadlar yo'lida o'zgartirishga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Estetika ham fan sifatida o'zining qonuniyatiga, kategoriyalariga va tushunchalar tizimiga ega. Biroq, "Estetika – go'zallik haqidagi fan" deyish asl mohiyatni anglatmaydi. Aksincha, estetika keng qamrovli fan sifatida:

a) u yoki bu voqelikka dahldor go'zallik tuyg'ularining mohiyatini bilishga intiladigan hodisalar majmui;

b) borliqni hissiy idrok etishga asoslangan ong shakli;

v) haqiqatni anglash va his qilish, qadriyatlarni bilish va tahlil etishga qaratilgan inson faoliyatining turidir.

Estetika ilmiy-nazariy masalalar va fan talablari doirasidan tashqarida qo'llanilganda ko'plab ma'nolarni anglatishiga sabab ham ana shunda. Qolaversa, boshqa fanlar kabi estetika ham odamlarga umumiy zaruriyat yuzasidan kundalik faoliyatda kerak bo'ladigan narsa-hodisalarni (chiroyli bo'lish, orasta kiyinish, ozoda yurish, nafis harakat qilish kabi masalalar bilan estetikaning muayyan sohasi

shug‘ullanadi) emas, balki estetika fan sifatida estetik tarbiyani takomillashtirish, badiiy tafakkurni rivojlantirish, odam tuyg‘usini tarbiyalash, uning did-fahm-farosatni yuksaltirishga qaratilgan fundamental masalalarning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va yechimini topishga e’tibor beradi. Zero, estetikaning mavjudlik shartini nafosatshunos O.A.Krivsun ”Qayerdaki inson tafakkuri va tabiat hodisasi tufayli yaratilgan predmetlar olamini xis etish yoki undan zavqlanish tuyg‘usi sodir bo‘lar ekan o‘sha yerda “estetik jarayon”, “estetik hodisa” ro‘y beradi” – deb izohlaydi. Shu ma’noda, qayerdaki, yashashga ishonch, yashash umidi, yashashdan maqsad yoki voqelikni hissiy idrok etishga, tabiat hodisalarini anglashga ehtiyoj sezilsa, o‘sha yerda estetika mavjuddir, desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi.

Estetika predmeti, obyekti va tadqiqot doirasiga ega fan. Ma’lumki, barcha fanlar o‘z predmetiga ega bo‘lib, olamning mohiyatini bilish, borliqning mazmunini tushunish, voqelikni tasavvur qilishga qarab har bir fan o‘z predmetini belgilaydi. Olaylik, salomatlik tibbiyotning maqsadi bo‘lsa, uning predmeti - inson salomatligini asrash, mustahkamlash, himoya qiluvchi vositalar, hodisalar, omillar hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmetini tibbiyotnikidek bir so‘z bilan ifodalash qiyin. Mohiyatan insonni paydo bo‘lishi va voqelikni idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha qadriyatlar estetikaning predmeti bo‘la oladi. Jumladan, tabiat va uning estetik xususiyatlari, san’at va uning badiiy obrazlardagi ifodasi, ijod jarayoni va uning qonuniyatlari, jamiyat va uning rivojlanish prinsiplari estetikaning predmeti bo‘lib xizmat qiladi. Chunonchi, Immanuil Kantning nazarida estetikaning predmeti – bu san’atdagi go‘zallik bo‘lib, u estetik muhokama qobiliyatini tanqid sifatida namoyon bo‘ladi. Fridrix Gegel esa estetikaning predmetini umuman san’at, xususan tasviriy san’at bilan cheklab qo‘yadi. Shu ma’noda estetikaning predmeti – olam va uning umuminsoniy ahamiyatiga ko‘ra o‘rganiladigan estetik hodisalar hisoblanadi. Biroq, estetikaning predmeti estetik tajribaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama tadqiq etishni, shuningdek, insonning bir oz bo‘lsada o‘zining ma’naviy olamga tegishli ekanligini, global ijtimoiy-utilitar tobelikdan halos bo‘lish yo‘llarini anglashni, shaxsiy erkinligi va mutloq va uyg‘un to‘laqonli

hayotning bir qismi ekanligini his qilishga qaratilgan masalalar bilan belgilanadi.

Estetika fan sifatida ilmiy, ma'rifiy, badiiy taraqqiyotning o'ziga xos muammolari doirasida baxs yuritadi, tahlil qiladi, o'rganadi va o'rgatadi. Ularning asosylari quyidagilardan iborat:

1. Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Ushbu funksiya badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar va ijodiy faoliyat uchun juda zarur. Ayniqsa, ranglar jilosini xis qilish, musiqa sehrini anglash, asardan xulosa chiqarish aynan ushbu funksiyaning ta'sirida ro'y beradi. Zero, dunyoqarash ijodkorni boshqaradi, ijod jarayoni rivojiga ko'mak beradi.

2. Bilish funksiyasi. Bu funksiya san'at asarini bilish va baholash faoliyati natijalarini, semantik va pragmatik axborotni yetkazib berish, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik san'ati»ni rad qila olishda muhim ahamiyatga ega.

3. Yaratuvchanlik funksiyasi. Bu funksiya yangi ko'rinishdagi iqtisodiyotning estetik asoslariga, tadbirkorlik faoliyatiga estetik tus berishga, bunyodkorlikni namoyon etishga imkon beradi Ayniqsa, go'zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

4. Metodologik funksiyasi. Mazkur funksiya badiiy asarda aks ettirilgan voqea-hodisaning mohiyatini o'quvchiga to'laqonli yetkazish imkonini beradi, asarni bilish va uni xuddi hayotdagidek idrok qilinishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu funksiya estetik masofani taqozo etadi: masofa tufayli badiiy reallik idrok etiladi. Masalan, teatr asarini tomosha qilish jarayonida tomoshabin bir paytning o'zida ham sahna bezaklariga, ham aktyorlarning kiyimlariga, ularning xatti-harakatlariga sinchkovlik bilan nazar tashlaydi, va bu holatlarning barchasini estetik tasavvuri orqali mutanosib holga olib kelishga intiladi. Asar rejissyori, operator, rassom, chiroq ustasigacha barcha ijodkorlar estetik masofaning ahamiyatini hisobga olishi shartdir. Chunki, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. Shu bois badiiy asar inson tomonidan qandaydir qalbga yaqin, tanish hodisa sifatida idrok etiladi va masofa tufayli idrok etuvchida mushohada qilish erki saqlanib qoladi. U

hayajonlanadi, qalbi ravshan tortadi. Ushbu masalalarni o'rganish, tahlil qilish estetikaning metodologik funksiyasiga kiradi.

Bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha sohalarida estetikaning u yoki bu tamoyili ustuvor yo'nalish sifatida ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, iqtisodiyot va bozor munosabatlarida go'zailikni qiymat kasb etuvchi mexanizmga aylanishi tamoyili sohaga estetik tamoyillar kirib kelayotganligini ko'rsatadi. "Falsafa. Qomusiy lug'ati"da "prinsip" tushunchasining ma'nosi "turli ahamiyatga ega bo'lgan faktlar va bilimlar majmuining asosi, poydevori; har qanday hatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang'ich qoidalari" deb izohlangan. Ushbu izoh estetika fanining prinsiplariga xos mazmunni ham anglatadi. Odatda, estetikaning quyidagi an'anaviy prinsiplari mavjud. Bular:

1. Uyg'unlik (garmoniya) tamoyili;
2. Yaxlitlik (butunlik) prinsipi;
3. Ifodalilik (obrazlilik) prinsipi;
4. Maqsadga muvofiqlik prinsipi. Ushbu prinsiplar orasida estetik munosabatlarda ko'proq ko'zga tashlanadigan uyg'unlik va maqsadga muvofiqlikning mohiyati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

Uyg'unlikning falsafiy-estetik mazmuni ilmiy adabiyotlarda "garmoniya" tushunchasi bilan ham izohlanadi. Milliy estetikamizda mazkur tushunchaning estetik mohiyati ko'pchilik olimlar tomonidan ilmiy tahlil qilingan. Bular orasida faylasuf Tllab Mahmudovning mulohazalari bir qadar diqqatga sazovor. Faylasuf uyg'unlikda nomutanosiblik xususiyati, garmoniyada disgarmoniya alomatlari borligini uqtiradi. Shunday narsa-hodisalar borki, uning tarkibiy qismlari uyg'un bo'lmasa ham go'zal tasvirni bera oladi. Bundan tashqari, uyg'unlik buzilishi, nomutanosiblikka asoslangan garmoniyalar bo'lishi mumkin. Gap ana shu hayotiy predmetning mutanosibligi inson hayotining yo'nalishi bilan qanday munosabat va aloqadorligidadir. Agar faylasufning narsa va hodisalar tashqi ko'rinishidan bizga uyg'un ko'rinmasligi mumkin, lekin o'z ichki uzviy birligi va mutanosibligi bilan ma'lum garmoniyaga ega bo'lishi aniq, degan xulosasini e'tiborga olsak, fikrda jon bor. Zero, tabiatda shunday hodisalar borki, u o'z go'zalligini disgarmoniyada ham aks ettiradi. Qolaversa, tabiat va jamiyatda bir-biri bilan o'zaro

bog‘lanmagan, ma’lum aloqadorlikda bo‘lmagan, muallaq predmet va hodisaning o‘zi yo‘q: har bir narsa o‘zining aloqadorlik doirasiga ham ega.

Nemis faylasufi Georg Gegel maqsadga muvofiqlik prinsipini go‘zallik va san’atning o‘zaro aloqadorligida ko‘radi. U go‘zallikni maqsadga muvofiqlik bilan bog‘liqligini tahlil qilib, bu bog‘liqlikning asosida tashqi va ichki qarama-qarshiliklar markaziy o‘rin egallashini uqtiradi. Garchand, predmetlarning shakliy go‘zalligida mutanosiblikni muhim element deb hisoblasada, Gegel uning xususiyati faqat geometrik asosdangina iborat emasligini ta’kidlaydi.

Odatda, fanga tegishli qonunlar hodisalarning hamma xususiyatlarini emas, balki hodisalardagi umumiylikni aks ettiradi va undagi mustahkam barqarorlikni ifodalaydi. Biroq, hodisalar ayni bir vaqtda bir-biriga o‘xshaydi va bir-biridan farq qiladi. Xususan, voqelikni estetik o‘zlashtirshning oliy shakli bo‘lgan san’atga umumiy va xususiy qonunlar tegishli bo‘lib, ularga badiiy ijod jarayoni ham, san’atning ijtimoiy olami ham ta’luqlidir. Ular san’atning antropologik, genetik va gnoseologik mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Shunga asosan “Estetik faoliyat qonuni”, “Badiiy ijod qonuni”, “Badiiy jarayon qonuni”, “Badiiy idrok qonuni”, “Estetik idrok qonuni” kabi qonuniyatlar tizimi shakllangan. Ushbu qonunlar olamni estetik o‘zlashtirish jarayonining mohiyatini izohlaydi va quyidagi natijalarga olib keladi:

1) voqelikning estetik xususiyatlari inson tomonidan olam hodisalarini tasavvur qilish, anglash hamda tajribaga tayangan holda insoniyat oldiga qadriyatlarni o‘rganishni vazifa qilib qo‘yadi.

2) estetik faoliyat predmetlar olami va insoniy idealni botiniy tuyg‘ular asosida o‘zlashtirish natijasida yuzaga keladi, u umuminsoniy qadriyatlarga oqilona munosabatni shakllantiradi hamda erkin ijodkorlik muhitini yaratishga ko‘mak beradi.

Estetika fanida ko‘p amal qiladigan qonunlardan yana biri “Badiiy ijod qonuni” hisoblanadi. Ushbu qonunning mazmuni haqida faylasuf Abdulla Sherning fikrlari ahamiyatlidir. Faylasuf badiiy ijod jarayoni boshqa barcha aqliy mehnat turlaridan katta farq qiladigan mehnat turi bo‘lib, unda mehnat qandaydir sirli ruh bilan amalga oshadi, deydi. Chunonchi, badiiy ijod jarayonining ibtidosi

san'atkorning muayyan g'oyani yoki g'oyalar tizimini badiiyat orqali boshqalarga yetkazish istagi bilan bog'liq bo'lib, bu g'oyaviy niyatda aks etadi. G'oyaviy niyat ko'zga ilg'amaydigan darajada nozik va ko'z ilg'amaydigan darajada miqyoslikka ega. Chunki g'oyaviy niyat o'z nomi bilan g'oyaga taalluqli, u ijodkorning dunyoqarashining mevasi, butun asarning poydevori. U badiiy asarning mavzui, shakli, mazmuni, "tili", badiiy vositalari qanday bo'lishi kerakligini belgilab berish uchun ular bilan "kurash olib boradi". Ba'zan ularni o'ziga bo'ysundiradi, ba'zan esa ularga bir oz yon berib, ma'lum nuqtalarda o'zgaradi, "sharoitga moslashadi". G'oyaviy niyatni shu bois hech qachon to'liq amalga oshgan estetik hodisa sifatida tasavvur qilish mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda "Badiiy ijod qonuni"ning asosiy kamponenti hisoblangan "ijod"ni inson taraqqiyoti uchun ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni ijod:

a) muayyan badiiy uslub yordamida shaxs va jamiyatning madaniyatini yuksaltiradi;

b) obrazli tafakkur yordamida badiiy olamning asl va betakror mohiyatini anglash imkonini beradi;

v) olam go'zalligidan zavqlanish, iztiroblardan forig' bo'lish va yaratuvchanlikka rag'batni paydo qiladi.

Estetikaning qonuniyatlari narsa-hodisalar va voqelikdagi jarayonlarning estetik mazmunini turli rakursda o'rgansa-da, estetika uchun umumiy bo'lgan metaqonun - "Insonning voqelikka estetik munosabati qonuni"ga amal qiladi. Bu qonun yordamida estetika o'z tadqiqot obyektining predmetini konkretlashtiradi, funksiyalarini belgilaydi.

"Estetika" iborasini ilmiy muomalaga kiritilganiga ham uch yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. Bu vaqt oralig'ida estetika dunyo faniga aylandi, jahonda bu fanni rivojlantirish, uning ilmiy-nazariy muammolarini o'rganishga qaratilgan yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, mamlakatimizda estetika ilmi, ta'limi va tarbiyasini rivojlantirish, estetik dunyoqarashni boyitish masalalari doimiy e'tiborda bo'lib keldi.

Estetika kategoriyalarining an'anaviy va zamonaviy tasnifi

Har bir fan o'z maqomiga ko'ra muayyan faoliyatning tadqiqot sohasi bo'lib, bu faoliyat tabiat, jamiyat va tafakkur haqida yangi bilimlar hosil qilishga qonun va kategoriyalar asosida olamni yangidan idrok etishga qaratilgan bo'ladi.

Ma'lumki, falsafaning biror-bir kategoriyasini voqelikdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, bu kategoriyalar (olam, harakat, makon, me'yor, ziddiyat, yaxlitlik, qism, zaruriyat, tasodif, mohiyat, sifat va h.k) insonni o'rab turgan olamda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar haqida aniq xulosalar chiqarishga, ularni to'g'ri tahlil etishga ko'mak beradi. Shuningdek, kategoriyalar insonga o'z tevarak-atrofidagi olamni, voqea-hodisalarning mohiyatini chuqur bilishga imkon beradi. Biroq, "Falsafada o'rganiladigan kategoriyaning boshqa aniq fanlar kategoriyalaridan farqi shundaki, deyiladi "Falsafa qomusiy lug'at"ida,- ular voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida munosabat va aloqalarinigina ifodalamasdan, balki butun olam, inson hayoti va tafakkur olamiga xos umumiy belgilar, aloqalar, xususiyatlar va munosabatlarni aks ettiradi. ... Falsafiy kategoriya voqelikni chuqur va mmukammal aks ettirishi, olamning barcha sohalarida amal qilishi bilan oddiy tushunchalardan farqlanadi. Shu tufayli har bir konkret fan o'zi o'rganayotgan sohaning xususiyati va belgilarini ochishda falsafiy kategoriyaga murojaat etadi."

Aytish mumkinki, kategoriyalar qandaydir o'zgarmas tushuncha emas, aksincha ular doimo jamiyat va inson taraqqiyoti natijasida o'zgaradi, takomillashadi. Shu bois zamon falsafasi katoriyalarni o'rganish va ularga tizimli yondoshishni talab etadi.

Estetika ham falsafiy fan sifatida o'zining qonun va kategoriyalariga ega. Estetika kategoriyalari (go'zallik, hunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojiaviylik, kulgililik va h.k.)inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va ijtimoiy borliq bilan doimo hamkorlikda vujudga keladi. Biroq, estetika kategoriyalari nafaqat bilimni oshishiga xizmat qiladi, balki ayni paytda bilimni baholaydi ham. Shu jihati bilan estetika kategoriyalari boshqa falsafiy fanlarning kategoriyalaridan farq qiladi. Bu – birinchidan.

Ikkinchidan, estetika kategoriyalari nafaqat gnoseologik va ontologik mohiyat kasb etadi, balki ular qadriyatlilik mazmuniga ham ega. Ayniqsa, bu jihat go'zallik va ulug'vorlik kategoriyalarida ko'proq aks etadi. Zero, narsalar go'zal va chiroyli, ulug'vor va mantunkor bo'lgani uchun ham insonga qadrlidir. Uchinchidan, estetik kategoriyalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular mohiyat-mazmuniga ko'ra umumiy va qamrovlidir. Bu xususiyatlar aymiqsa, estetik faoliyat va san'at sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Falsafiy fanlar tizimida estetika kategoriyalarining nazariy taxlili va ilmiy o'rganilishi qorida ko'rsatib o'tilgan uch tamoyilga asoslanadi. Shuning uchun estetika kategoriyalarining o'rganilish doirasi kengqamrovli bo'lib, bu masalaga estetika fanining qator bilimdonlari murojaat qilishgan. Bu borada rus nafosatshunoslari N.A.Dmitriyev, V.V.Vanslov, L.N.Stolovich, O.Butkevich, Yu.B.Borev, D.D.Sredneg, A.F.Losev, V.P.Shestakovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Shuningdek, estetika kategoriyalarini tizimlashtirish masalasi g'arb olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariyalarda ham kuzatish mumkin. Jumladan, nemis psixologiya estetikasining vakili Ernst Meyman o'zaro munosabatlar jarayonida kategoriyalarning sababiy bog'lanishini estetik tasavvurlarning ikki jihatiga ko'ra ajratadi.

Birinchisi – obyektiv sharoitdan kelib chiqadigan dastlabki jarayonlar. Bular - go'zallik, ulug'vorlik, chiroylilik hamda ularning ziddi bo'lmish – hunuklik, tubanlik, pastkashlikdir. Ikkinchisi – turli xil obyektiv sharoitlarda yuzaga keladigan hamda bevosita psixologik jarayonlarga tegishli bo'lgan sharoitlardir. Bular – fojeaviylik va kulgililikdir. Italyan estetigi Morpurgo-Tal'yabue esa estetik kategoriyalarning ikkita turini ajratib ko'rsatadi: ontologik va ta'sirchanlik (ekspressivniy).

Estetik kategoriyalarning tasnifi, tizimlari, turlari va xususiyatlari rus nafosatshunos olimlarning qator tadqiqotlarida o'rganilgan. Ayniqsa, Ye.G.Yakovlev tomonidan estetika kategoriyalarining tizimlashtirilishi bir qadar qiziqarli va kengqamrovliligi bilan muhim ahamiyatga ega. U o'zi ishlab chiqqan tizimda kategoriyalarni uchta guruhga ajratadi. Bular:

1) obyektiv,

2) obyektiv-subyektiv,

3) subyektiv.

Bu tizim ushbu jadvalda quyidagicha aks etgan:

Nafosat	Universal kategoriyalar	
Go‘zallik	Estetik ideal	San’at
Ulug‘vorlik	Estetik did	Badiiy obraz
Fojeaviylik	Estetik tuyg‘u	Ijod
Obyektiv kategoriyalar	Obyektiv-subyektiv kategoriyalar	Subyektiv kategoriyalar

E.G.Yakovlevning fikriga ko‘ra, mazkur tizim shu turda yaratilgan boshqa tizimlardan o‘zining universal-kengqamrovli mazmun va falsafiy-estetik mohiyat kasb etib, moslashuvchanlik (subordinatsiya) va muvofiqlashtiruvchilik (koordinatsiya) tamoyilini mujassam etgani holda “ontologik-fenomenologik va ijtimoiy-gnoseologik jihatlar”ga ega.

Ayniqsa, V.P.Shestakovning estetika kategoriyalari tarixi, ularni tizimlashtirish muammolari, kategoriyalarga o‘ziga xos yondoshuvning zamonaviy talqinlari hamda estetik kategoriyalar tasnifiga doir salmoqli tadqiqotlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Faylasuf bu borada yuqorida nomlari tilga olingan estetika nazariyotchilaridan farqli o‘laroq, kategoriyalarni uch turkumga ajratadi: dastlabki kategoriyalar, umumestetik kategoriyalar, estetik kategoriyalar ko‘rinishlari. Tadqiqot davomida mazkur turkumning har biri alohida tahlil qilinadi. Jumladan, dastlabki kategoriyalarni faylasuf nafosatga tegishli, deb biladi va uni beshta umumestetik kategoriyaga ajratadi: go‘zallik, fojeaviylik, kulgulilik, ulug‘vorlik va hunuklik.

Mazkur jadvalda V.P.Shestakov tomonidan tizimlashtirilgan kategoriyalarning umumiy ko‘rinishi aks etgan:

DASTLABKI KATEGORIYA	Nafosat
	Go‘zallik
	Fojeaviylik
UMUMESTETIK KATEGORIYALAR	Kulgulilik
	Ulug‘vorlik
	Hunuklik

ESTETIK KATEGORIYALARNING KO'RINISHLARI	Disgarmoniya
	Dahshatlilik
	Mubolag'a
	Garmoniya
	Hazil
	Forig'lanish
	Qahramonlik
	Ideal
	Latofat

Biroq, ta'kidlash lozimki, aksariyat adabiyotlarda estetika kategoriyalari asosan go'zallik – fojeaviylik – kulgulilikdan iborat uchlik sifatida taqdim etilgan. Biroq, davrlar o'tishi bilan bu an'anaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, bu tizimga Yu.B.Borev - ulug'vorlikni, L.N.Stolovich - hunuklikni, M.S.Kagan - garmoniya va dramatiklikni, N.I.Kiyashenko – qahramonlikni, o'zbek olimlari T.Mahmudov uyg'unlikni, Abdulla Sher qiziqarlilikni kiritdi.

Shu o'rinda Abdulla Sher taklif etgan estetika kategoriyalari (mezoniy tushunchalari) tasnifi o'ziga xos ahamiyatga ega. Tasnifga ko'ra, barcha estetik tushunchalar uch guruhga bo'linadi. Birinchisi, – mezoniy tushunchalar. Ular subyekt-obyekt munosabatlarida estetik obyektning xususiyatlarini subyektga ochib beruvchi, tashqi nafosat bilan bog'liq eng qamrovli, eng mushtarak tushunchalardir. Masalan, go'zallik ulug'vorlik, fojeaviylik v.h. Ikkinchisi – subyekt – obyekt munosabatlarida subyektdagi estetik anglash muruvatlarini tushuntirib beradigan, ichki nafosat bilan bog'liq estetikaning xususiy tushunchalari. Masalan, estetik hissiyot, estetik mushohada, estetik did, v.h. Uchinchisi – san'atning mohiyati, san'at turlari, umuman, badiiy ijod biln bog'liq estetikaning muayyan tadqiqot obyektlariga qaratilgan tushunchalar. Masalan, san'at, ijodkor, dizayn janr, uslub v.h. Bu o'rinda tushunchalar guruhlarining nomlari shartli ekanini alohida o'qtirib o'tish joiz.

Biz yuqorida faylasuflarning estetika kategoriyalarining tarixi, uni tizimlashtirish muammolari, ko'rinishlari va o'ziga xos jihatlari bilan bog'liq qarashlar va nazariyalarga bejiz murojaat etmadik. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, kategoriyalar tizimi qanday ko'rinishda

bo‘lmasin, ularning har birida go‘zallik markaziy kategoriya sifatida ishtirok etmoqda. Biz manashu jihatga ko‘ra go‘zallik falsafasini tushuntirishdan avval go‘zallikning muhim mezoniy tushuncha - kategoriya sifatidagi mohiyatini ko‘rib o‘tishni maqsadga muvofiq, deb bildik. Zero, estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko‘p yillardan buyon olimlar e’tiborini jalb etib kelayotganligidan maqsad ham go‘zallikning falsafiy, axloqiy, hatto siyosiy mohiyatini atroflicha o‘rganishga qaratilganligidadir.

Go‘zallik va uning muqobillari

Go‘zallik estetikaning asosiy kategoriyasi sifatida barcha estetik tushunchalar uchun asos vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham odatda “Estetika fani nimani o‘rganadi?”, “Estetika fanining maqsadi nima?”, “Estetika qanday fan?” degan qator savollarga “Estetika – go‘zallikni o‘rganuvchi fan!”, “Estetikaning maqsadi – go‘zallikni yaratish!”, “Estetika – go‘zallik haqidagi fandir!” – degan javob beriladi. Ko‘rinib turibdiki, estetika bilan bog‘liq har qanday savolning javobi go‘zallik masalasiga borib taqaladi.

Go‘zallik o‘z-o‘zidan vujudga keladigan hodisa emas, balki shakli, mazmuni va xususiyatiga ko‘ra ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Birinchi ko‘rinishi go‘zallik ontologiyasi bilan bog‘liq. Go‘zallik tafakkur va tabiat mahsuli. Kulol loydan, naqqosh yog‘ochdan, misgar misdan, zargar tillodan shunday buyum yaratadiki, uning jozibasi insonni hayratga soladi. Yoki tabiatdagi purviqor tog‘lar, yuksak cho‘qqilar, dengiz-u ummonlarning go‘zaligini inson takrorlashga ojiz.

Ikkinchi ko‘rinishi go‘zallik gnoseologiyasi bilan bog‘liq. Ya’ni go‘zallik ayni paytda bilishning mahsuli. Voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go‘zalligi uning ishonchlilik, qiziqarlilik, haqqoniylik mezonlari bilan o‘lchanadi. Inson go‘zallikni chinakam xis etganda, uning mohiyatini bilgandagina zavqlanadi, huzur qiladi. Zero, go‘zallikni bilish, idrok etish insonning badiiy-estetik tafakkurini o‘stiradi.

Go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tarixiy taraqqiyot hamda ijtimoiy munosabatlar

jarayonida moddiy va ma'naviy zaruriyatga aylangan tushuncha ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bular:

Birinchidan - ijtimoiy hayotning barcha sohalariga go'zallikni tatbiq etish, uning qonuniyatlarini ma'naviy jarayonlarga qo'llash orqali ilg'or qadriyatlar tizimini barpo etish mumkin. Jamiyatning iqtisodiy sohalariga go'zallikni tatbiq qilish orqali moddiy ehtiyojlar manbai yaratiladi.

Ikkinchidan – globallashuv jarayonlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, go'zallikni amaliy-pragmatik jihatdan ahamiyati katta ekanligi yanada oydinlashadi. Chunki, hozirgi kunda tinchlikni barqarorlashtirish, ekologik xavfning oldini olish, davlatlararo va etnik nizolarga chek qo'yish, ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishni yo'q qilish, terrorizm, genotsid va giyohvandlikning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik kabi umumbashariy muammolarga aylanib bormoqda. Endilikda texnogen sivilizatsiyani ham go'zallik qonunlari asosida tashkil etishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Uchinchidan - go'zallik normativ-baholash xususiyatiga ega. Chunki, go'zallikni his etish, uni baholash orqali inson o'zida uyg'unlikni namoyon qiladi. Uyg'unlik insonni faollikka undaydi, loqaydlik, dangasalik kabi illatlardan halos etadi. Agar faoliyatning boshqa turlari (siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ahloqiy) shaxsning alohida kuchlarini rivojlantirishga ko'maklashsa, go'zallik ularni yaxlit shakllantiradi.

Go'zallik estetik tafakkur tarixida tushuncha sifatida, qonuniyat sifatida, nazariya sifatida, dunyoqarash sifatida o'rganilgan. Shu bois faylasuflar, adabiyotshunoslar va san'atshunos olimlar o'z sohalarining umumnazariy masalalarini yoritishda go'zallikka murojaat qilganlar. Xususan, go'zallikning nazariy va amaliy tahlili, ma'naviy va axloqiy mohiyati, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Mazkur tadqiqotlarni umumiy ma'noda asosan ikkiga ajratish mumkin.

1. Go'zallikni ilmiy-nazariy asoslarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar.

2. Go'zallikni ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq holda amaliy-progmatik asoslarini yaratishga yo'naltirilgan tadqiqotlar.

Go‘zallik tushunchasi azaliy muammo sifatida mutafakkirlarning diqqat e’tiborida bo‘lib keldi. Donishmandlar go‘zallikning mohiyatiga u yoki bu tarzda yondoshganlar. Shuning uchun yillar davomida estetik tafakkur tarixida go‘zallik haqidagi g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar va ta’limotlarning butun bir tizimi shakllandi.

Falsafa, estetika, etika, politologiya singari ijtimoiy fanlarning ilmiy asoslari ko‘proq antik davr qarashlari bilan muqoyasa qilinadi. Buning boisi antik davrlarda ushbu fanlarga dahldor muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etildi va muayyan tizimga solindi. Masalan, XII-XY asr Movarounnahr mutafakkirlari ning go‘zallikka doir qarashlarida go‘zallik nazariya darajasidan ko‘ra ko‘proq qarashlar tarzida tahlil etildi, go‘zallik san’at hamda badiiy adabiyotning muhim vositasiga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, go‘zallik nasrdan nazmga ko‘chdi. Chunonchi, so‘z san’atida go‘zallikni namoyon ettirish ko‘proq g‘azal, she’rdagi shakl va mazmuning hamohangligiga bog‘liq. Bu borada Alisher Navoiyning estetik me’rosiga murojaat etish o‘rinlidir.

Navoiy o‘zining «Hamsa» asarida falsafa, ilohiyot, axloq, siyosat hamda estetikaning qator masalalariga murojaat qilib, borliq va inson munosabatlarini chuqur tahlil etadi. Xususan, uning go‘zallikka doir mulohazalari «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»)da mufassal bayon etiladi. Shoir Sharq she’riyatining ko‘zgusi bo‘lgan so‘zning go‘zalligiga alohida ahamiyat berib, uni quyidagicha bayon etadi; «So‘z gavharining qolipi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo‘la olmaydi, to‘rt sadaf (suv, havo, olov, tuproq) ichida gavharga qutu ham shu so‘z, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so‘zdir». «Lison ut-tayr» («Qush tili») asarida esa Allohning hamma sohada tengsiz va yakkayu yagonaligi, borliqdagi barcha go‘zalliklar Allohdan ekanligini bosh falsafiy-estetik masala qilib oladi. Qolaversa, Navoiyning barcha asarlarida ilohiylik ruhi pirovard maqsad qilib belgilanganki, bu holat «Xamsa» da ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, Navoiy Qur’onning «Al-Isro» surasiga murojaat etgan holda, payg‘ambarimiz Muhammad (SAV)ning Me’roj tunida ko‘rganlarini «Saddi Iskandariy», «Farhod

va Shirin», «Sab'ai Sayyor» dostonlari orqali tasvirlashga harakat qiladi.

Umuman, O'rta asrlar musulmon Sharqi estetik tafakkuri taraqqiyotida go'zallik haqidagi ta'limotlar, nazariyalar, qarashlarda umumiy dunyoqarashning kengligi, insonparvarlik va ratsionalizmning yetakchiligi yaqqol seziladi. Musulmon Sharqi mutafakkirlari go'zallikni aql va tafakkurdan ayri holda olib qaramaslikka, moddiy go'zallikni ma'naviy go'zallikdan ajratmaslikka, aksincha, ularni uyg'un xolda rivojlantirishga harakat qildilar.

Shuni ham unutmaslik lozimki, bu davr falsafiy ta'limotlarida Arastuga mansub olamning abadiyligi, voqelikdagi qonuniyatlarga inson tafakkur salohiyati, mantiqiy yondashish orqali mushohada qllish imkoniga ega, degan qarashlar yetakchilik qildi. Biroq, ular Arastu ta'limotiga ko'r-ko'rona emas, balki uning «Metafizika» asrida ilgari surilgan Tavhid – Xudoning yagonaligi haqidagi nazariyani yangi g'oyalar bilan boyitdilar. Va o'ziga xos yangi falsafani kashf etdilar. Zotan, har qanday ta'limotlar davrlar o'tishi bilan takrorlanadi, eskilari yangicha qarashlar bilan boyitiladi, yangicha ruh bilan sug'oriladi.

«Go'zallik»ning tugal ilmiy ta'rifi haqida biror-bir qat'iy fikr mavjud emas. Biroq, go'zallikning idrok etilishi, tabiatda namoyon bo'lishi, san'atda aks etishi hamda uning jamiyat rivojiga ta'siri haqida bildirilgan fikrlar, ilgari surilgan g'oyalar, yaratilgan ta'limotlar o'zining salmog'i bilan ahamiyatlidir. Inson va uning ruhiy-jismoniy, axloqiy-estetik faoliyati, tabiat va undagi hodisalar, jamiyat va unda ro'y berayotgan ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar go'zallikka yondoshuvning tarixan tarkib topgan asosiy obyektlaridir.

Ta'kidlash zarurki, go'zallik haqidagi qarashlar va nazariyalar markaziga «Go'zallik nima?» degan savol qo'yiladi-yu, ammo ularning aksariyatida «Nima go'zal?» degan savolga javobni ko'ramiz. Bu borada «Huvarnosi Ahura Mazda ko'p go'zaldir, go'zaldir juda» (Zardusht), «Go'zallik bu g'oyalardan iborat g'oyaning g'oyasi» (Aflotun), «Go'zallik-bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to'g'ri keladigan, odamlar erishishga havas qiladigan narsalardir» (Abu Nasr Forobiy), «Har qanday go'zallik, go'zallikni

anglay olgan muhabbat obyektidir» (Abu Homid G'azzoliy), «Go'zallikka muhabbat qo'yishning asosida ham aql, ham hissiyot yotadi» (Ibn Sino), «Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi» (Umar Hayyom), «Go'zallik bu hayotdir» (N.G.Chernishevskiy),«Go'zallik hissi, yoqimlilik tuyg'usiga bog'liq holda, odamlarning birlashuviga, ularda ijtimoiy-ahloqiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi» (E.Byork), «Go'zallik manfaatsiz maftunlikning, muhabbatning obyekti» (I.Kant), «Go'zallik-hodisaga aylangan erkinlik» (F. Shiller), «To bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go'zal» (A. Shopenhauer), «Go'zallik Xudo-san'atkor tomonidan yaratilgan Illyuziya-xayolotdir» (F. Nitsshe), «Qayerdaki modda nurafshon bo'lsa, o'sha yerda go'zallik hodisasini uchratish mumkin: modda va nurning uzviy omuxtaligi-hayotdir» (Vl.Solov'yov) va shu kabi fikrlar go'zallikka turlicha yondoshuv natijasida yuzaga kelgan.

Odatda, go'zallik ikki omil asosida yuzaga keladi. Bular: inson tafakkuri va mehnatining mahsuli natijasida yaratiladigan go'zallik; inson tafakkuridan tashqarida, insonga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keladigan go'zallik. Birinchisida aql, ruh va xissiyot ustuvor bo'lsa, ikkinchisida makon va zamon salmoqli o'rinni egallaydi.

Shuningdek, nafosat falsafasida go'zallikni bilishning mahsuli sifatida munosabat bildiruvchi qarashlar ham mavjud. Bu muayyan asosga ega. Chunki, voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go'zalligi uning ishonchlilik, haqqoniylik va realligi bilan belgilanadi. Zero inson nazari tushgan go'zallikkina qadriyatga aylanadi. Bundan tashqari, inson go'zallik haqidagi dastlabki ma'lumotni 5 ta sezgining eng rivojlangan turi bo'lmish ko'rish sezgisi orqali o'zlashtiradi, undan so'ng eshitish, ta'm bilish, hid bilish va tana sezgisi natijasida go'zallik anglanadi hamda his etiladi. Masalan, harid qilmoqchi bo'lgan kiyimingizni, iste'mol qilmoqchi bo'lgan taomni, turmushingiz uchun zarur bo'ladigan jihozni avvalo ko'rasiz, o'rganasiz, tomosha qilasiz, so'ngra sifatiga, qulayligiga ishonch hosil qilganingizdan keyin ehtiyojingiz uchun ishlatasiz... Yarashmagan kiyimni kiyish naqadar kulgili va hunukligini tasavvur qilish qiyin emas. Shunday ekan, go'zallik xususiyatlarining namoyon bo'lishida sezgilarning alohida ahamiyatga ega ekanligini

e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Shuningdek, go'zallik haqidagi qarashlar tahlili shundan dalolat beradiki, mazkur besh sezgi ham go'zallikni to'laqonli aks ettirish uchun yetarli emas.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda go'zallikka quyidagicha ta'rifni berishni maqsadga muvofiq, deb bildik. Go'zallik - ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi tushuncha bo'lib, narsa-hodisalarning inson tafakkurida lazzatning uyg'unlik, me'yor, hamohanglik, mutanosiblik, maqsadga muvofiqlik asosida namoyon bo'lishidir.

Ma'lumki, voqelik o'z ichiga talaygina ekvivalent tushunchalarni qamrab oladi; u yagona va ayni paytda rang-barangdir, abadiy va ayni paytda o'tkinchidir, o'zgarmas va ayni paytda o'zgaruvchandir. Xususan, go'zallik o'z mohiyatini muayyan ziddiyatlar bilan bog'liqlikda namoyon qilib boradi. Zero, go'zallikning dialektik ziddi uni yanada takomillashib borishidagi zaruriy shartdir. Ana shu zaruriy shart nafosatshunoslikda umumiy nom bilan «xunuklik» deb ataladi: u go'zallikning dilemmasi.

Gohida shakl va mazmun go'zalligi bir-birini dialektik tarzda inkor etadi. Shunday esa-da, bu bir tomondan ijobiy holat. Negaki, mazmun o'z vaqtida shaklning kamchiligini ko'rsatib, uning go'zallashuviga turtki berib turadi yoki aksincha. Yo'qsa yo shakl yoki mazmun xunuklikka aylanib qolishi shubhasiz. Zotan, bu kabi holatlar hayotimizda ko'plab uchraydi; ko'rinishi chiroyli bo'lgan insonlarning hammasini ham ma'naviyati boy bo'lmaganidek, yuksak fazilat sohiblarining barchasi ham husn va chiroyda barkamol emaslar.

Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, xunuklik bir paytning o'zida ham go'zallikning, ham nafosatdan lazzatlanishning ziddidir. Chunki, xunuklik lazzatlanish tuyg'usi mavjud bo'lgan jarayondan uzoqroq joyda vujudga keladi; u insonga hayrat baxsh etishdan, uning vujudini forig'lashdan mahrum.

Olmon faylasufi K.Rozenkrans o'zining «Hunuklik estetikasi» nomli asarida xunuklikni go'zallik bilan munosabati masalasini ko'rib chiqadi. Qizig'i shundaki, muallif asarda hayotning og'riqli qusurlarini emas, balki xunuklikka to'g'ridan-to'g'ri go'zallikning murosasiz inkori sifatida yondashadi. Bu borada ta'kidlaydiki,

«Bizga xunuklik emas, aksincha, o‘zidagilarni bardosh bilan yengib, ulardan ajralib chiqqan go‘zallikkina zavq bag‘ishlaydi. San’at bizga xunuklikning barcha ikr-chikirlarini ochiq-oydin tasvirlamog‘i lozim». Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, estetika kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his-tuyg‘u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. Tubanlik ana shunday tushuncha, uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Chunki, xunuklik kishilarda yengil noxushlik tuyg‘usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg‘otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik yengil noxushliklar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi, biroq, tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib yetadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Inson tomonidan qilinadigan ayrim hatti-harakatlardan esa nafratlanish va hatto jirkanish mumkin. Mamlakat boshiga og‘ir kulfat tushganda undan o‘z moddiy manfaatlari yo‘lida foydalanuvchi tuban odamga misol bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, go‘zallikning o‘zi murakkab masala bo‘lishi barobarida uning ziddi hisoblangan xunuklik ham murakkablikda qolishmaydi. Shunga qaramay, go‘zallik o‘z mukamalligiga xunuklikni bartaraf etish orqali erishadi. Zotan, ongli mavjudot hech qachon xunuklikka e’tiqod qo‘ygan emas, aksincha, go‘zallikning qudratini tan olgan.

Ulug‘vorlikning falsafiy mohiyati

Ingliz nafosatshunosi E.Byork go‘zallikni ulug‘vorlik bilan qiyoslaydi va ularni bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida tadqiq etadi. Olmon faylasufi I.Kant esa go‘zallik va ulug‘vorlikni uyg‘unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Ulardan farqli o‘laroq, faylasuf Gegel ulug‘vorlikni go‘zallikning bir ko‘rinishi bo‘lib, ulug‘vorlik – zohiriy go‘zallikning botiniy go‘zallikka aylanishidir, deb tushuntiradi. Mazkur fikrlardan ulug‘vorlik- insonning narsa hodislarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg‘usini hosil qiluvchi estetik hissiyot majmui, degan fikr kelib chiqadi.

Ta'kidlash zarurki, ulug'vorlik go'zallik singari qamrovli tushuncha. U o'zida hajm, miqdor, ko'lam va buyuklikni namoyon qiladi. Fridrix Shiller ulug'vorlik qayg'u va qo'rquvni yenguvchi va insonni ulug'lab unga go'zallik baxsh etishini tushuncha ekanligini uqtiradi. Buni u «axloqiy xavfsizlik» tushunchasi orqali izohlaydi. Chunki, qo'rquv va dahshatga qarshi borish uchun ham xavfdan xoli bo'lish lozim. Zero, jismoniy xavfsizlik bevosita shaxsning o'ziga tegishli bo'lib, insondagi qat'iy ishonch bois xotirjam, xavfsiz. Biroq, dahshatli yo'qotishlar va mudhish qotilliklar qarshisida insonning xotirjamligi yo'qoladi. Agar xavf insonning o'zigagina yaqinlashsa-yu, u o'zini hotirjam his qilsa, demakki, uning vijdoni xavfdan xoli; unga hech qanday havf tahdid solmaydi. Shu bois «axloqiy havfsizlik» din, e'tiqod va abadiylikka dahldorlikni taqazo etadi. Buni o'zbek xalqi ma'naviy merosida muhim o'rin tutgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi sarkardalarning, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi olimlarning hayotidagi ma'naviy jasoratni asos sifatida aytish mumkin. Ayniqsa, Abu Mo'min Nasafiy islomiy xalqlarning zaiflashuvi va o'zaro e'tiqodiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda e'tiqodiy masalalarda hujjatlari eng aniq keltirilgan manbalar asosida ahli sunna val jamoa bilan unga xusumatlashgan boshqa firqalarning o'zaro murosaga kelishini ta'minlash yo'lida ko'rsatgan ma'naviy jasorati bunga misol bo'ladi. Shunga ko'ra, ulug'vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladiki, bu muhokama go'zallik muhokamasidan ustuvorroqdir, deyish mumkin.

Tabiatdagi ulug'vorlikcheksiz osmon, purviqor tog'lar, yuksak cho'qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo'ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo'shqinlik egallay boshlaydi, ularni butunligicha ko'z bilan qamrab ololmaslik darajsiga yetganda esa bu hayajon yanada ortadi. Tabiatdagi ulug'vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida hajm, dinamik xususiyatida kuch ustuvor ahamiyatga kasb etadi. Biroq, ikkala xususiyat ham insonda kuchli hayrat va hayratlanish tuyg'ularini paydo qiladi. Tog'lar insonni yuksak fikrlashga, buyuk g'oyalarga undaydi: Everestga O'zbekiston

bayrog‘ini tikib qaytishgan alpinistlarimizning taassurotlari nihoyatda hayajonlidir.

Odatda estetikaning asosiy kategoriyalariga “zid”, “qarama-qarshi” va “teskari” tushunchalar tabiat, jamiyat munosabatlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq, estetika kategoriyalari orasida ulug‘vorlikning ziddi bo‘lgan tubanlik bevosita inson va uning faoliyati bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Tubanlik- insonda kuchli nafratlanish tuyg‘ularini hosil qiluvchi estetik kategoriya. U kishilarda salbiy his-tuyg‘u paydo qiladigan xunuklikdan ko‘ra kuchliroq, ta’sirchanroqdir: Shu bois uni hunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib yetadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Gohida muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi natijasida insonni tubanlashtiradi.

Tubanlik kategoriyasi Etika bilan Estetikaning bir-biriga yaqin, uzviy va ajralmas ekanligini isbotlovchi tushuncha hamdir. Tubanlik etikada – xoinlik, sotqinlik, qotilllk, vahshiylik kabi lllatlar bilan bab-baravar mazmun kasb etadi.

Fojeaviylik kategoriyasi

Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy va estetik tafakkurning muhim tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Har qanday fojea zamirida alohida fojiali to‘qnashuv yotadi, uning eng muhim jihati ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga tegishligidadir.

Fojeaviylik real hayot va inson kamolidagi kuchlar to‘qnashuvining natijasi bo‘lib, bu to‘qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. Bu hol fojeaviylikning falsafiy jihatdan murakkab estetik kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Odatda, fojeiy qahramoni ko‘pincha ijobiy tusda tasvirlanadi: u o‘z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etadi. Lekin fojea to‘qimasida boshqa turdagi

qahramonlar kam aks ettirilgan bo‘lib, o‘z taqdirlari bilan tomoshabinda o‘ta kuchli his-tuyg‘ularni qo‘zg‘aydi.

Ma’lumki, ilg‘or madaniy tafakkur doim hayotni o‘zlashtirish, o‘lim xavfini qisqartirish haqida o‘ylab kelgan. O‘lim qayg‘usidan farqli o‘laroq fojeaviylik qayg‘u va iztirobdan iborat bo‘lib, ulug‘vorlikning vayron bo‘lishi bilan bog‘liq: u - hayotning tugashi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqelikning barbod bo‘lishidir.

Fojiaviylik estetika kategoriyalari orasida ulug‘vorlik bilan ko‘p jihatdan yaqin bo‘lib, haqiqiy ulug‘vorlikni fojiaviylikning davomi, deyish mumkin. Shu bois estetika ilmida fojiaviylik ulug‘vorlik bilan uzviylikda o‘rganiladi. Chunki, ulug‘vorlikning barcha xususiyatlari fojiaviylikning ham u yoki bu ko‘rinishi orqali namoyon bo‘ladi. Fojiaviylik mezoniy tushunchasining estetikasidagi markaziy muammosi-insonning imkoniyatlarini har tomonlama kengaytirish (san’at, badiiy adabiyot, jamiyat va tabatga nisbatan munosabatda), qahramonlik, buyuklik tushunchalarining qat’iy va o‘zgarmas chegaralarini buzib, uning mohiyatini yanada yaqinlashish, tashabbuskor va bunyodkorlikni rag‘batlantirish, hayotda umidvorlik va unga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirishdan iboratdir. Fojeiy qahramon kelajakka yo‘l tashlaydi, u eskirgan chegaralarni daf etadi. U doimo insoniyat kurashining oldida boradi.

Fojeaviylikning yana bir xususiyati shundaki, u insonga borliqning mazmunini ochib berishda yaqindan ko‘mak beradi. Shaxs rivoji jamiyat va insoniyat o‘rtasidagi munosabatga bog‘liq ekanligini, jamiyat taraqqiyoti inson hisobiga emas, balki inson va inson orqali rivojlanishi zarurligi bevosita fojeaviylik tushunchasi orqali yanada konkretlashtiriladi. Bu esa pirovardida inson va insoniyat muammolarini insonparvarlik yo‘li bilan hal etishga olib keladi. Fojeaviylikda jamiyat va insoniyatning ezguligini himoya qiluvchi xususiyat mujassam. Mahmud Torobiy qo‘zg‘aloni natijasiz tugashi, uning o‘zi esa fitna qurboni bo‘lishi ajdodlarimiz qismatidagi fojeadir. Mahmud Torobiy g‘anim qo‘lida emas, o‘z qavmidan chiqqan-nurga emas, zulmatga talpingan kaltabin johil Olovxon Yusuf qo‘lida halok bo‘ladi. Biroq, Torobiy timsolidagi fojea hiyonat, sotqinlik,diyonatsizlik, zulm va zo‘ravonlik boshidan kechirgan va unga qarshi kurashgan millat, xalq va Vatan fojeasidir.

Yoki istiqlol muqaddas tutgan, o'lkaning milliy, diniy zaminidagi taraqqiyot uchun kurashgan va xalq orasidagi g'oyat katta mavqega ega bo'lgan jadid ma'rifatchilarining fojeasi ham jamiyatni to'qimtabiat «muhabbat»dan xalos etishning natijasi edi. Shu ma'noda fojeaviylikning estetik mazmuni:

- shaxs bunyodkorligining abadiyatga dahldorligini;
- ma'naviy jasorat xarakterini;
- inson va borliq hayotining uyg'unligini;
- tarixiy ziddiyatlarni;
- yashash zavqi va hayotga muhabbat tuyg'ularini;
- qalbni forig'lash orqali ma'naviyatga yaqinlashish;
- yovuzlikdan begonalashishda o'z ifodasini topadi.

Ilmiy, o'quv va o'quv uslubiy adabiyotlarda fojiaviylik kulgulilikning ziddi sifatida o'rganiladi. Shu o'rinda biz ham kulgulilikning estetik mazmuniga doir ayrim fikrlarni bayon etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Kulgililik kategoriyasiga doir tadqiqotlar kulgining predmetini bir tomondan, obyektiv xususiyat sifatida, ikkinchi tomondan, shaxsning subyektiv imkoniyatlari natijasi sifatida, uchinchi tomondan - subyekt va obyekt o'zaro aloqadorligining natijasi sifatida o'rganadi. Bu o'z navbatida, kulgililik kategoriyasini turli rakursda o'rganishga olib keldi.

Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, nodonlik - insonni kulgili qiladi, deydi. Arastu fikriga ko'ra, kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor yetkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi. Insondagi jahldorlik, suskashlik, qizg'onchiqlik, subutsizlik, izzattalablik, shuhratparrastlik kabi illatlar kulgililik obyektidir. Bundan tashqari, Arastu kulgi - axloq hududlarini bezarar buzishdir, degan fikrni bildiradi.

Kulgililik boshqa nafosatli hodisalar singari faqat obyektiv tomonga ega bo'lmay, subyektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgilllikning subyektiv tomoni – keng ma'nodagi hazil(yumor) tuyg'usidir. (Mol'yer hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Hazil - insonlararo munosabatlarni tabiiy va erkin idrok etishi, turli beo'xshov ziddiyatlarni anglagan holda ularga nisbatan oqilona kulgi bilan javob berish

qobiliyatidir. Hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uda insonning his-tuyg'usi, aqliy madaniyati, orzu-umidlari va tabiati aks etadi. Shuning uchun ham insonning nima uchun kulayotganligiga qarab, uning qanday illat va qanday fazilatga ega ekanligini bilish mumkin bo'ladi.

Insonning turli sabalarga ko'ra kulgisi qistaydi. Masalan, to'yimli va mazali ovqatlanishdan rohatlanib kuladigan odamlar ham uchraydi, chunki bunday odamlar uchun kulgi hayotni sof fiziologik-jismoniy idrok etish ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Kulgililik bevosita biror bir hodisa - insonning tashqi ko'rinishi bilan uning asl mohiyati o'rtasidagi nomuvofiq ziddiyat natijasida yoki amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo'lgan voqelik o'rtasidagi muhim tafovutlar hamda kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi. Ba'zi odamlar o'zining pastkash, johil, loqayd, xudbin mohiyatini tashqi viqor, oliftalik, takabburlik bilan «bezab» ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bu kabi odamlarni uchratganda ham insonda beihtiyor kulgi tuyg'usi yuzaga keladi. Bunday kulgili holatga o'sha odamning ichki olami bilan uning tashqi ko'rinishi o'rtasidagi beo'xshovlik sabab bo'ladi. Mazkur nisbatning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, kulgili holatdan olgan zavqimizga sog'lom ma'nodagi «xudbinlik» hissi ham qo'shilib ketadi. Chunki biz bachkana, kalondimog', ovsarsifat odamning asl mohiyatini anglash qobiliyatimiz bilan ma'naviy-insoniy jihatdan u odamdan yuksakroq ekanligimiz o'zimiz uchun hamisha yoqimlidir. Shu jihatiga ko'ra kulgi insonni ruhan ko'taradi, unga insoniy g'urur tuyg'usi bag'ishlaydi.

Kulgi o'z mohiyatiga ko'ra demokratik xususiyatga ega: u barchani teng ko'radi. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rango-ranglik, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi. Umuman olganda, estetikaning go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik kategoriyalari insonning tabiat va jamiyatga estetik munosabati hamda borliqni estetik jihatdan o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda go'zallik kategoriyasi bog'lovchi vazifasini

bajaradi. Shu bois ulug‘vorlik va fojiaviylikda go‘zallik elementlari uchraydi va ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, inson ma’naviy olamni asosan uch soha orqali o‘zlashtiradi: aql-idrok, iroda-ixtiyor va his-tuyg‘u. Ular o‘z navbatida, insonning falsafiy, mantiqiy, axloqiy, estetik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, iroda-ixtiyorni o‘rganish – axloqshunoslik (etika)ning, aql-idrokni o‘rganish - mantiq ilmi (logika)ning, hissiyotni o‘rganish esa nafosatshunoslik (estetika)ning zimmasidadir. Mazkur sohalar azaldan falsafada o‘z o‘rinlariga ega bo‘lib kelgan. Inson ma’naviyatining yuksalishi uning fazilati bilan bog‘liq jarayon. Bu jarayon estetik tarbiyani ham taqazo etadi. Estetik tarbiya esa ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida inson ma’naviy va jismoniy olamining uyg‘un tarzda rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Chunonchi, estetik tarbiyada did, axloqiy tarbiyada fazilat ma’lum darajada shaxsning madaniyatlilik darajasini belgilaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotidagi har bir muammo u yoki bu fanning tadqiqot doirasiga tegishlidir. Shu ma’noda estetika ham fan sifatida maqsadi va vazifasi doirasida muayyan sohani o‘rganadi. Bu vazifalar umuman olganda, tabiat, jamiyat va tafakkur haqida yangi bilimlar hosil qilishga, qonun va kategoriyalar asosida olamni yangidan idrok etishga qaratilgan bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar:

Kategoriya, go‘zallik, inson go‘zalligi, go‘zallik va san’at, hunuklik, ulug‘vorlik, tubanlik, «axloqiy havfsizlik», fojeaviylik, fojeaviy to‘qnashuv, fojeaviy qahramon, kulgililik, hazil, kinoya, istehzo.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetikaning fan sifatidagi mohiyatini tushuntiring.
2. Estetika nima uchun falsafiy fanlar turkumiga kiradi?
3. Estetikaning asosiy qonuniyatlari haqida ma’lumot bering.
4. Qaysi funksiyalar estetikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi?

5. “Go‘zallik falsafasi” degan iborani izohlang.
6. Inson go‘zalligining asosiy mezonlarini sharhlang.
7. Ulug‘vorlik nima uchun ham axloqiy ham estetik kategoriya hisoblanadi?
8. Nima uchun xunuklik go‘zallikning teskarisi yoki ziddi hisoblanadi?

Mavzuga oid testlar

1. «Estetika» iborasi qanday ma’noni anglatadi?
a) Didni yuksaltirish;
b) San’at asarini idrok qilish;
v) Go‘zallikni o‘rganish;
g) His qllish, his qilinadigan, his etiladigan;
d) voqelikka estetik munosabat;

2. Estetikaning juft kategoriyalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) Sabab va oqibat;
b) Go‘zallik va xunuklik;
v) Chiroylilik va badbasharalik;
g) Ulug‘lik va pastkashlik;
d) Butun va qism;

3. Aleksandr Baumgarten estetikani qanday nazariya sifatida ilgari surdi?
a) Aqliy idrok etish nazariyasi sifatida;
b) Ruhiy idrok etish nazariyasi sifatida;
v) Hissiy idrok etish nazariyasi sifatida;
g) Ma’naviy idrok etish nazariyasi sifatida;
d) Amaliy faoliyat turi sifatida;

4. Quyidagi javoblarning qaysi birida go‘zallik xususiyatlari ko‘rsatilgan?
a) Sifatlilik, qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik;
b) hashamdorlik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik;
v) chiroylilik, manfaatdorlik, yoqimlilik, hashamdorlik;

g) qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik;
d) ko'rkamlik, jozibadorlik, qulaylik;

5. Estetika o'z tadqiqot obyektiga faqat...
a) amaliy yondashadi;
b) iqtisodiy yondashadi;
v) nazariy yondashadi;
g) umumiy yondashadi;
d) ilmiy yondashadi;

17-MAVZU. TABIAT VA TEXNOGEN SIVILIZATSIYA ESTETIKASI

Tabiatning estetik xususiyatlari

Tabiat go‘zalligi va tarbiyaviy ahamiyati azaldan faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Insoniyat ma’naviy yuksalishidagi eng buyuk davrlar ham tabiat va odamzod hayotidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikning mavjudligini idrok etish, tabiat va dunyoning tartibli yaratilishi haqidagi oqilona munosabatlar bilan bog‘liq.

Ma’lumki, go‘zallik haqidagi ilk tasavvurlar ham tabiatga dahldor bo‘lib, tabiatdagi organizmlarning har biri o‘z holicha emas, balki boshqa organizmlar bilan bog‘liq holda yashaydi. Masalan, nabotot olami ham, hayvonot olami ham quyosh, suv, havo, tuproq ta’sirida yashaydi, rivojlanadi. Buni zardo‘shtiylikning kitobi bo‘lgan “Avesto”da ham ko‘p bora ta’kidlab o‘tiladi. Axura Mazda qiyofasidagi ezgulik hayot ramzi, yerni hayvonot va nabotot bilan boyitadi, inson ularni sog‘lik, kuch-qudrat, baxt shodlik, umid, ishonch, go‘zallik, farovonlik yordamlda munavvar qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, “Avesto” da inson oliy jonzot sifatida talqin etiladi, ayni paytda yeru-ko‘kdagi barcha ne’matlarni sevish, ardoqlash, insonning muqaddas burchi hisoblagan. Ozodalik, tozalik tushunchalari axloqiy hamda ilohiy tushuncha darajasiga ko‘tariladi. Suvni, atrof-muhitni toza tutish, jonivorlarga shafqatli munosabat, bularning bari “Avesto”da eko-estetik tarbiyaning uzviy bog‘liq ifoda etilishini ko‘rsatadi.

Tabiatga estetik munosabat xususida Qadimgi Xitoy daochilik ta’limotida ham o‘ziga xos yondoshuv mavjuddir. Daosizm ta’limotida Inson mavjud olam kabi dao qonunlari asosida vujudga kelgan., u tabiatning bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo‘lidan borish. Har qanday sun’iy aralashuv, tabiatning muvofiqlik tartibini o‘zgartirishga intilish-odamlar uchun halokatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoqsiz baxtsizliklarning manbai tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishdir. Shu sababli Lao-tszi nazdida faoliyat-daoga qarshi qaratilgan va xalqqa zarar keltiradi., uning asosiy axloqiy tamoyili “uvey”-faoliyatsizlik, donishmand kishining “dao”si-bu kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida

tabiatga qarshi bo‘lmagan faol hatti-harakat, faqat daoga xos, tabiat qonunlariga mos faoliyatdir. Tabiat go‘zalligini asl holda saqlash va uni ko‘rish, his qilish daochilikda muhim ahamiyat kasb etgan.

Muqaddas Islom dinining muborak manbalari - Qur’oni Karim va Hadisi sharifda atrof-muhitni toza saqlash, tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanishga da’vat qilinadi. Tabiat ne’matlarini isrof qilmaslik, insonning yashasha tarzi, shaxsiy gigiyenasi, zurriyotni tozaligiga, o‘simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan. Chunonchi, Hadisda “Kimki daraxt ekib uni muhofaza qilishga sabr qilsa, meva bergunicha parvarish qilsa, u odamga mevasidan kelgan har bir foyda uchun Alloh huzurida ajr savob bo‘lgay” “Dunyo yam-yashil va go‘zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi. Kimki nafs xohishi bilan dunyoni mukasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do‘zaxdan boshqa narsaga erishmaydi” – degan hikmatlar bir necha marta ta’kidlanadi.

Tabiatdagi eng oddiy narsa va hodisalar mazmuni va shakli uyg‘unligi bilan go‘zaldir. Go‘zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, san’at) hodisasi bo‘lib, aniq hissiy ta’sir o‘tkazish orqali insonda jismoniy va ma’naviy kuchlar oqimining ko‘payishiga, shodlik, zavqlanish, to‘la ma’naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go‘zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Tabiatdagi go‘zallik ijtimoiy hayot go‘zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go‘zallik badiiy ijoddagi go‘zallikdan farq qiladi. Lekin go‘zallik qanchalik o‘zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo‘lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go‘zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Inson hamma yerda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to‘qnashar ekan, u albatta tabiatning go‘zalligidan zavq-shavq oladi, ongli yoki anglamagan holda sevinadi, ma’naviy boylik orttiradi. Inson tabiatdagi u yoki bu davr, u yoki bu ijtimoiy guruh ijtimoiy orzusiga muvofiq keladigan hodisalarni go‘zallik sifatida baholaydi. Hamma vaqt tabiatga estetik munosabat va tabiatni estetik o‘zlashtirish uni «insoniylashtirish», tabiat

hodisalariga inson talab-ehtiyojlarini, maqsad-orzularini tatbiq etish bilan bog‘lanib ketgan.

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo‘lish tuyg‘usi birdaniga paydo bo‘lmagan, albatta, u sekin-asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgani sari shakllanib borgan, ibtidoiy san’at manzarali tasvirlarni bilmagan, tabiat hodisalarining go‘zal yoki hunuk ekanligini baholamagan, qadimgi ovchi-musavvir o‘z diqqat e’tiborini asosan tirikchilik manbai bo‘lgan narsalar, voqea hodisalarga qaratgan edi. (Omonqo‘ton, Sarmishsoy, Zarautsoy, Xojikent, Panjikent va boshqa qoya rasmlarni eslang). O‘sha paytlarda inson faoliyatining asosiy turi bo‘lgan ovchilik o‘rniga u yoki u bilan yonma-yon dehqonchilikning paydo bo‘lishi bilan, ya’ni inson atrofidagi tabiatni o‘zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o‘lchanadi, inson uchun tabiatning go‘zallik va xunuk tomonlari ayon bo‘la boshlaydi.

Go‘zallikni yuksak darajadagi foydalilik tarzida idrok etiladi. Biroq, bu go‘zallikka munosabatning faqat bir jihati, xolos. Bizning asrimizda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo‘lgan vositalarni qo‘lga kiritdi. Shu narsa aniq-ravshan bo‘lib bormoqdaki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish salbiy oqibatlarga ham olib keladi.

Estetik xususiyatlar orasida tabiat go‘zalligi inson uchun hammadan ko‘ra yaqinroq va tushunarliroqdir. Tabiat bilan yaqin bo‘lishga botiniy intilish, undagi go‘zallik va nafosat olamini o‘zlashtirish, idrok etish inson zotiga xosdir.

Tabiat estetikasi insonni uyg‘unlikka asoslangan go‘zallikni ko‘rish, xis qilish, zavqlanish va qadrlashga o‘rgatadi. Chunki, tabiat go‘zalligi ko‘z bilan ko‘rish, qalb bilan his etish va harakat bilan barpo etish orqali idrok etiladi. Bu jarayon uchta jihatni to‘laqonli anglash va munosabatda bo‘lishni taqozo etadi. Bu:

a) tabiiy organizmning o‘ziga xos tuzilishi va o‘zaro mutanosibligini;

b) doimiy harakatda, rivojlanishda bo‘lgan jonli organizmning o‘ziga xos xususiyatlarni;

v) tabiiy obyektlarga xos bo‘lgan dekorativ nafosatni. Bunday hodisa odatda san’at orqali yetkazib beriladi.

Tabiatning estetik xususiyatlari insonni tabiatni sevishga, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ya’ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, tabiat estetikasining zamonaviy ko‘rinishi bo‘lgan landshaft dizayni masalalariga zamonaviy yondashuv, atrof-muhitni go‘zallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda landshaft dizaynini yanada rivojlantirish, aholi punktlari va qishloqlararo hududlarning arxitekturaviy-badiiy qiyofasini yaxshilash, landshaft dizayni mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori qabul qilindi. Qaror asosida ishlab chiqilgan dasturda Toshkent shahar hokimligi obodonlashtirish bosh boshqarmasi, Nukus shahri va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlar obodonlashtirish boshqarmalarining landshaft dizayni guruhlarini, loyihalash tashkilotlarini malakali kadrlar, mutaxassislar bilan ta’minlash, zarur texnika, asbob-uskunalar va materiallar sotib olish uchun mablag‘lar ajratish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa, landshaft, me’moriy dizayn bevosita inson turmush tarzining farovonlashuvi va sog‘lom turmush tarzining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Olmon faylasufi Immanuil Kant tabiatni axloqiylik bilan bog‘laydi: “Kimniki bevosita tabiat go‘zalligi qiziqtirsa, bu uning fikrlash tarzida, yo‘q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi”, – deydi. Biroq, yana bir olmon faylasufi Gegelning “Tabiatda ideal yo‘q, shu sababli u ikkinchi darajali go‘zallikdir!” – degan fikri estetikada uzoq davrlar hukmronlik qildi. Bu ayniqsa, “tabiatdan in’om-ehson kutmaymiz, balki uni bo‘ysindirish vazifamizdir” - degan g‘oya tarafdorlari uchun juda qo‘l keldi. Natijada uzoq yillar tabiat, atrof-muhim va ekologiya estetikasi muammolari nazarda chetda qolib keldi. Me’moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg‘urdi, ularni estetik qadriyatlar deb e’lon qildik, lekin landshaft estetikasini chetga chiqarib qo‘ydik.

O‘zbekistonda tabiatga estetik munosabatni takomillashtirish borasida muayyan tajriba orttirildi. Sohadagi vazifalarning ko‘lami mamlakatimiz hamda mintaqada ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq muammolarni kompleks hal etishni, bu borada davlat organlari, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Zero, sog‘lom va go‘zal atrof-muhit muhofazasi davlatning, jamiyatning va har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir.

Inson hayotining farovonligi bevosita tabiat bilan bog‘liq, shu bois ekologiya va inson salomatligi, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish masalalari bugun ijtimoiy zaruriyatga va ma’naviy ehtiyojga aylanib bormoqda. Bu jamiyat, davlat va har bir fuqaro manfaatiga birdek dahldor masalalar sirasiga kiradi. Tabiatni muhofaza qilish, hududlarni obodonlashtirish, ko‘chat-daraxtlar o‘tkazish va ularni parvarishlash, foydali qushlar va hayvonlarga zarar yetkazmaslik, ko‘l va ariqlarni ifloslantirmaslik, ularni doim tozalab turish tabiatni go‘zallashtirish muammolari bilan bevosita bog‘liq.

Hozirgi kunda tobora oydinlashib borayotgan haqiqat shuki, tabiatni estetik qadriyat deb bilmaslik estetik savodsizlik, aniqrog‘i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas.

Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o‘rni.

Globallashuv sur’atlarining ortishi, xalqaro raqobatning kuchayishi, axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi hamda fanlar integratsiyalashib borayotgan hozirgi sharoitda jamiyat yangicha falsafiy tafakkurga zaruriyat sezmoqda. Endilikda, falsafa inson, jamiyat va davlatga har doimgidan ham ko‘ra ko‘proq kerak ekanligi ayon bo‘lib bormoqda. Chunki, inson ma’naviy kamol topib, jamiyat, fan va texnika rivojlanib borgani sari falsafiy tafakkurga bo‘lgan ehtiyoj ham kengayadi, chuqurlashadi. Bu esa falsafiy fanlarga yangicha, ijodiy yondashish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Globallashuv jarayonida yangicha mazmunga va zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan estetik qadriyatlar shakllanmoqda. Bu insonning tabiatga, jamiyatga, turmush tarziga, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatida tobora aks etmoqda.

XXI asrda olamni bilish, voqelikni estetik o‘zlashtirish bilan bir qatorda uni qadriyat sifatida e’zozlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Endilikda odamlarning yaratuvchanlik faoliyati yuksalishi barobarida estetik qadriyatlarga nisbatan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Bu o'z navbatida inson mohiyatan eng oliy qadriyat ekanligi, inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash barcha islohot va evrllishlarning bosh maqsadiga aylanganligi bilan belgilanadi.

Ekologiyaning inson ekologiyasi bo'limi odamning atrof-muhitga moslashishi, kasalliklarning kelib chiqishi va ularni oldini olish, salomatlikning tabiiy va ijtimoiy omillari, irsiyat, atrof-muhit, turmush tarzi, oilani rejalashtirish, sog'liqni saqlash, sport bilan shug'ullanish va shaxsiy gigiyenalar haqida bilimlar beradi, shuningdek, salomatlikni baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shubhasiz, ekologik ta'lim dolzarb global muammo hisoblangan tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda katta o'rin egallaydi. Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodlaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutlaq va muqaddas qadriyatlardir. Darhaqiqat tabiat go'zalligini his qilish, undan zavqlanish, nafosat qonuniyatlari asosida tabiatni yanada go'zallashtirish, inson estetik didini rivojlantirish va estetik ehtiyojini qondirish bilan estetik qadriyatlarning yangi ko'rinishlari shakllanib bormoqda. Tabiat va uning borlig'idagi estetik qadriyatlarga aylangan nabotot va hayvonot olami shular jumlasidandir.

Ekoestetika quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- Dunyoni ekologik manzarasiga estetik munosabat.
- Inson hayoti-Hayvonot dunyosi - Nabotot olami uyg'un rivojlanishi.
- Atrof-muhitni muhofaza qilishning estetik asoslari.
- Tabiatni estetik qadriyat sifatida baholash.
- Tirik organizmlar bir butunliginini estetik anglash.
- Tabiiy jarayonlar va hodisalarning antropotsentrikdan bio-tsentrik va politsentrikka o'zgarishi usulini qo'llash.
- Ekologik tanglikning estetik madaniyat tangligi sifatida xis etish.
- Ishlab chiqarish munosabatlarni estetik mezonlar asosida tartibga solish.

- Ekoestetika va etikosferaning axloqiy-estetik maqomini anglash.

- Insoniyat barqaror rivojlanish konsepsiyasiga tabiat va jamiyat koevolyutsiyasi sifatida estetik baho berish.

Insoniyat kech bo'lsada yer sayyorasidagi tabiatning yuksak qadriyat ekanligini anglab bormoqda. Endilikda tabiat go'zalligini asrash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish va tabiatni go'zallashtirish global masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha halqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir" - deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, insoniyat hozir o'z tarixining mas'uliyatli davrida yashamoqda, u "Tabiat – Jamiyat - Inson" munosabatlari uyg'unligining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu tarixiy davr o'z real imkoniyatlari, obyektiv taraqqiyot qonuniyatlari bilan jamiyat oldiga turli muammolarni qo'ymoqda. Bu muammolar orasida eng muhimi - tabiatni asrash va oqilona munosabatdir.

Tabiat alohida bir xalq va millatniki emas. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo, ona zamin, insoniyatning umumiy uyi. Shunday ekan, uni avaylab-asrash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, umumdavlat, umuminsoniyat ishidir. Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning yashab qolishi ham ushbu muammoni qay tariqa hal qilinishiga bog'liq. Bu o'z navbatida, insonning tabiatga estetik munosabatini o'zgartirishni taqozo etadi. Negaki, voqelikka estetik munosabat - tabiatga muhabbatdan boshlanadi. Chunki, tabiat inson kamoloti, salohiyati, iqtidori, imkoniyati uchun betakror manba bo'lib xizmat qiladi.

Inson bilimining ortishi, tabiatni o'rganish va o'zlashtirish imkoniyatlarini kengayishi texnik-texnologik taraqqiyotga va inson qudratini yuksalishiga olib keldi. Bu holat o'z navbatida, insonni tabiat ustidan hukmronlik qilishga undadi. Buning oqibati turli ko'rinishdagi ekologik halokat, tahdid, zarar va illatlarni yuzaga keltirdi.

Endilikda tabiat va inson o‘rtasida yangicha muloqot vujudga kelmoqda. Inson tabiatning hukmroni emas, balki uning bir bo‘lagi ekanligi tabiatga nisbatan qilingan har qanday yomonlik oqibat insonga qilingan yomonlik ekanligini anglab yetdi. Har qancha ekologiyaga e’tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo‘r berib o‘qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ‘ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligida erishish mumkin. Chunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go‘zalligiga beg‘araz munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi, ya’ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Ekologiya atrof-muhitning sifat holatini belgilovchi omil bo‘lganligi uchun u iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ham kirib bordi. Bu bejiz emas, chunki dunyoda ekologik muammolarning jiddiylashib borayotganligi hech kimga sir emas. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib butun insoniyatning umumiy muammosiga aylandi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik rivojlanmoqda va takomillashmoqda, genofondni barqaror rivojlantirishni saqlab qolishni tabiiy resurslarda oqilona foydalanishni ta’minlaydigan hamda fuqarolarning maqbul atrof muhitga bo‘lgan huquqni kafolatlaydigan xalqaro konvensiyalar, shartnoma va bitimlarga qo‘shilish jarayoni davom etmoqda.

Atrof-muhitga bepisandlik, tabiat ne’matlariga hurmatsizlik, o‘simlik va nabotot olamiga e’tiborsizlik bugungi kunga kelib pirovardida inson va uning genofondiga salbiy ta’sirini o‘tkaza boshladi. Bundan tashqari, tabiatga g‘ayriestetik munosabat biologik xilma-xillikning qisqarishiga, katta hajmdagi sanoat va boshqa xil chiqindilarning ko‘payishiga, cho‘llanish, yer va suv resurslari degradatsiyasiga hamda mintaqaviy va global miqyosda yechilishi zarur bo‘lgan muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar inson hamda uning manfaatlari himoyasi, avvalo, sog‘lom va musaffo atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash jarayoni amalga oshirilayotgan islohotlarning o‘zagini tashkil etgan O‘zbekiston

uchun atrof tabiiy muhitni asrab-avaylashni va uni sog'lomlashtirishni yanada dolzarb qilib qo'ydi.

Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri

XX asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida biosfera ichida noosfera ya'ni texnikaviy muhitning paydo bo'lishi inson hayoti va faoliyatining asosi bo'lgan mehnatga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Bugun uyali aloqa, kompyu'terlarsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Bu esa texnika hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi. Albatta, biosferadagi barcha o'zgarishlarning sababchisi inson-uning tafakkuri ekanligi ayon. XXI asr yuqori texnologiyalar, axborotlar asri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kishilarning ongi, faoliyati mana shu tezkorlikka moslashishi lozimligini taqozo etadi.

Texnika rivojining ko'p yillik tarixi bizning texnik bilimlarimiz, ixtirochilik, konstruktorlik qobiliyatimiz fan, inson ehtiyojlari, yashash muhiti rivojiga muvofiq doimiy mukammalashib borishini ko'rsatmoqda. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir. U industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati deb atalmoqda. Texnogen olam, sivilizatsiya bevosita fan, texnika, «ratsionallik» singari tushunchalar bilan bog'liqdir. Texnika yordamida insontabiatni, o'z-o'zini, jamiyatni tubdan o'zgartiradi. Inson va jamiyat "texnosfera"da joylashgan bo'lib, texnika bir joyda to'xtab turmaydi. Texnika innovatsiyasi inson hayotini to'xtovsiz o'zgartirib turuvchi katalizator - harakatga keltiruvchi sifatida inson ongidan joy oldi. Mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy hayotga, iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi. "Inson va mashina" munosabatlari tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Texnika insoniyat tomonidan yaratilgan barcha yutuqlarni o'ziga singdirib, inson qudrati va aqliga xizmat qilishi lozim. Har qanday rivojlangan texnika ham ijtimoiy masalalarni insonsiz hal eta olmaydi. Biroq, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik va mustaqil tafakkur bilan birga

borishi kerak. Texnik taraqqiyotni, uning jamiyatdagi o'rni va rolini to'xtatish, inkor etish mumkin emas. Shunday ekan, texnogen sivilizatsiyada inson texnogen madaniyat-fan amaliyoti, texnikaning yangidan-yangi shakllari, ularni ishlata bilish uquvi va mahoratiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Maishiy turmush estetikasi

Turmush azaldan madaniy qadriyatlarni vujudga keltiradigan va asraydigan muhim makon bo'lib kelgan. Turmush madaniyati inson hayoti va ijtimoiy muhitda iqtisodiy, ijtimoiy, estetik mezonlarni ko'ratish bilan birga estetik madaniyatni ham shakllantiruvchi hodisadir.

"Turmush" tushunchasi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "inson, millat va xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, rasm-rusum majmui, obyektiv reallik, moddiy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog'liqni saqlash, shuningdek, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat ijtimoiy hayotning noishlab chiqarish sohasi" deb talqin etiladi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va ijtimoiy-siyosiy amaliyot bilan bir qatorda shaxs tarbiyasida turmushning ta'siri ham muhim omil sanaladi. Turmush madaniyatining o'ziga xosligi mehnat, oila, Vatan, kattalarga hurmat, o'zini tutish me'yorlari kabi tabiiy, sodda ammo, asosiy qadriyatlarni singdirishida namoyon bo'ladi. Aynan turmush tarixiy xotira madaniyatini asrovchi hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi, chunonchi u san'at, dinga nisbatan barqarorligi bilan farqlanadi. Turmushga singgan qadriyatlar nisbatan mutlaq bo'ladi, juda kam o'zgaradi. Ushbu fazilatlar, qadriyatlarni har bir shaxs o'zi bilan oilasiga olib o'tadi va uning abadiyligini ta'minlaydi.

Turmush estetikasi dizayn, ekoestetika, atrof-muhit estetikasi, estetik tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, moddiy va badiiy madaniyatni integratsiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir.

Turmush estetikasi estetikaning insonning voqelikka munosabatini namoyon etadigan sohalaridan biri. Bunda tashqi ko'rinish, kiyinish, muomala madaniyati, narsa-buyumlarga, turar joylarga munosabat aks etadi. Turmush estetikasi insonning barcha sohalarda go'zallikka bo'lgan intilishining ifodasidir.

Insonni o‘rab turgan narsa va buyumlar olamining go‘zalligi bir tomondan inson hayotining uyg‘unligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan estetik tarbiyalaydi. Turmush tarzi, tashki ko‘rinishi, kiyim ko‘rkamligi orqali inson yashayotgan, mansub bo‘lgan jamiyat haqida estetik tasavvur shakllanadi. Aksincha, turmushda tartibsizlik, palapartishlik estetik madaniyat pastligidan dalolat beradi.

Maishiy turmush estetikasi insonni o‘rab turgan narsa va buyumlar olami, atrof-muhit, yashash tarziga munosabati masalalarini o‘z ichiga oladi. Insonning dizaynerlik, ijodkorlik qobiliyatlari dastavval turmushda shakllanadi. Bunda ma’lum bir xalqning tarixi, mentaliteti, avvaldan shakllanib kelgan turmush tarzi muhim o‘rin tutadi. Turli xalq, ijtimoiy guruh va boshqalar turmush madaniyatining moddiy ko‘rinishlari kishilarning narsa va buyumlar olami, estetik didi va ijtimoiy ideallari haqidagi tasavvurlari umumiyligi va rang-barangligi bilan uzviy bog‘langan.

Inson yashash va ijtimoiy muhiti iqtisodiy, ijtimoiy, funksional, estetik me’yor va shart-sharoitlarini gavdalantiradigan turmush madaniyati olamni estetik idrok etish, uning estetik madaniyati asosini tashkil qiladi. Bu jihat esa insonning atrof-olamga keng qamrovli estetik munosabatini shakllantiradi. Kiyinishidan tortib, oilaviy an’analar, oilaviy makongacha bo‘lgan hodisalarda odamlarning narsalar dunyosiga, go‘zallik va ulug‘vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o‘ziga xos munosabatlari namoyon bo‘ladi va bu pirovard natijada turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Maishiy turmush estetikasi turli madaniyatlar ta’siri, turmush tarzi va usuli, an’anaviylik va yangilik, milliylik va umuminsoniylik masalalari bilan bog‘langan bo‘lib, texnika, ekologiya, predmetli muhitni jihozlash, tarbiya sohasidagi estetik jihatlarni ifodalaydi, moddiy va badiiy madaniyat integratsiyalashuvining samarali vositalaridan hisoblanadi. Turmush estetikasining o‘ziga xosligi ham shu jarayonda takomillashib boradi.

Estetik did turmush estetikasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ayni paytda, turmush estetikasi ham insonda badiiy-estetik didning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, chiroyli narsa va buyumlar muhiti inson his-tuyg‘ulari, kayfiyatiga estetik ta’sir ko‘rsatadi.

Odamlarning turmush tarzini o‘zgartirish, estetik dunyo-qarashini boyitish orqali bir xillikdan – rang-baranglikka, qo‘pol-likdan – ihchamlikka, noqulaylikdan - qulaylikka qarab yo‘nalish maishiy turmush estetikasining asosiy maqsadi va prinsipi hisob-lanadi. Ayniqsa, estetik madaniyat infratuzilmasi, madaniy hordiq maskanlari maishiy turmush estetikasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardir.

Turmushning ijtimoiy-estetik mohiyati uchta omil bilan belgilanadi: 1) inson hayot kechiradigan rang-barang predmetlar olami; 2) insonning boshqalar bilan muloqotda o‘zligini namoyon qilish holatlari; 3) insoniy munosabatlarning odob-axloqda aks etish imkoniyati va xususiyatlari.

Bundan tashqari,yaratuvchanlik va bunyodkorlik turmush estetikasining muhim mezonlari hisoblanadi. Chunki, inson turmush tarzini qay tarzda yo‘lga qo‘yishi uning badiiy tafakkuri va ruhiyatini ham aks ettiradi. Zero, Gegelning “Agar san’atni uning butun maftunkorligi bilan yaxlit idrok etish zaruriyati tug‘ilsa, uni hamma joyda - varvarlarning zebu ziynat, liboslaridan tortib, to bag‘oyat go‘zal qilib bezatilgan ibodatxona anjomlarigacha - jami narsalar olamida uchratish mumkin”- degan fikri bejiz emas.

Zamonaviy maishiy turmush estetikasi farovon hayot va uning uchun zarur bo‘ladigan kamponentlarning o‘zaro maqsadga muvofiqligi, mutanosibligi va mosligini taqozo etadi. Bu moddiy ne’matlar (orgtexnika, tele va mobil kommunikatsiya vositalari) va ma’naviy ne’matlar (kitob, sayohat, qadriyat)ning boy zahirasini taqozo etadi.

Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyatda inson haqidagi dastlabki ma’lumot uning tashqi ko‘rinishi orqali olinadi. Bunda insonning kiyinish madaniyati muhim omil hisoblanadi. Chunki, kiyim-libos insonni nafaqat go‘zallashtiradi, balki uning madaniyatlilik darajasini ham belgilaydi. Shuning uchun kiyinish ham ijtimoiy-ma’naviy, ham axloqiy-estetik hodisadir.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, kiyinish dastlab tabiiy zaruriyat - ya’ni tashqi omillar ta’siridan badanni himoya etish vositasi sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, zamonlar o‘tishi bilan u inson madaniyati namunasiga aylandi. Shu bois yuksak madaniylikka asoslangan kiyinishni ham axloqiy qadriyat, ham estetik qadriyat deb

aytish mumkin. Axloqiy qadriyat ekanligi shundaki, kiyim o‘zida uyat, hayo, ibo kabi fazilatlarni mujassam etadi. Kiyimning estetik qadriyat ekanligi esa u insonga go‘zallik va chiroy baxsh etadi.

Bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyatida zamonaviylik bilan an’anaviylikning uyg‘unligini ta’minlash milliy-madaniy taraqqiyotda muhim o‘rin tutadi. Buning uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur:

Birinchi omil - did bilan kiyinish. Bu kiyinish madaniyatining nozik jihatlariga e’tibor qaratish demakdir. Chunki, inson o‘z chiroyini egnidagi libosni to‘g‘ri tanlay olganligi bilan ham boyitishi mumkin.

Ikkinchi omil - zamonaviy kiyinish. Bu yoshlarning didini, qiyofasini qiyofasini aks ettirishi bilan bir Moda - maishiy turmush estetikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Moda – bu tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o‘zgarish va takrorlanib turishidir. Bunday takrorlanishlar va o‘zgarishlar iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo‘ladi.

Modani asosiy ko‘pchilik e’tirof etadi, u o‘zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, san’atda ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda odamlarning yashash tarzidan (uslubidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o‘zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Zotan u ommaviy estetik didning darajasi va o‘ziga xosliklarini zamon ko‘zgusida aks ettirish xususiyatiga ega. Shu jihatdan u, yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘zgaruvchanlik tabiatiga ega.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, kiyimish insoniylikni taqozo etadi. Chunki, kishilar jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, ruxiy holatiga qarab kiyim tanlaydi va kiyadi. Shu bois bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyati quyidagi jihatlar asosida shakllanayotganligini kuzatish mumkin:

1. Badanni tabiiy omillar ta’siridan himoyalash;
2. Qulaylikka erishish.
3. Zamonaviy axloq va etnik xususiyatga mos odobni namoyon etish.

4. Atrofdagilarning e'tiborini qozonish.

Yoshlar tomonidan yuqoridagi jihatlarning amalga oshish mexanizmi modani taqozo etadi. Chunki, modakiyinishning o'ziga xos me'yori. Biroq, bu me'yor insonning go'zalligini ta'minlashishi shart. Aks holda me'yorning buzilishi natijasida bachkanalik vujudga keladi. Qolaversa, ijtimoiy madaniy taraqqiyot muayyan moda umrining qisqarishiga olib keladi. Taraqqiyot natijasida yangi modalar eskisini muomala jarayonidan siqib chiqaradi.

Bugungi kunda yoshlarning kiyinish madaniyatiga e'tibor qaratishning ijtimoiy ehtiyojga aylanish sababi shundaki, har bir xalqning tarixiy-madaniy rivojlanish bosqichlari ularning ajdodlari tomonidan kiyilgan kiyimlarda o'z aksini topgan. Bu esa milliy g'urur, vatanparvarlik va o'zlikni anglash kabi buyuk hodisalar bilan chambarchas bog'liq. Shunday ekan, bugungi kunda kiyinish madaniyatiga jo'n va oddiy maishiy hol sifatida munosabat bildirish mumkin emas.

Inson faoliyatining barcha ko'rinishlari estetik bilimni taqozo etadi. Estetik bilim esa insonda turmush tarzini tartibli, oqilona va maqsadli tashkil etish ko'nikmasini shakllantirishga ko'mak beradi. Bu boradi dizaynning turmush estetikasiga ta'sirini alohida ta'kidlash joiz.

Narsalar inson ehtiyojlarini qondirishi uchun o'zgarib takomillashib boradi, bu inson faoliyatini erkin va qulay tashkillashtirish ijobiy, mo''tadil ruhiy muhit yaratishga imkon yaratadi. Estetik A.P.Marder rivojlangan hozirgi jamiyatda obyektiv olam faqat fizikaviy, kimyoviy va boshqa xossalar bilan emas, shu bilan birga, estetik xususiyatlar va unga munosabatlar yig'indisi sifatida ham inson ma'naviy va moddiy hayoti, axloq-odobiga emotsional tus beradigan estetik reallik bo'lib namoyon bo'ladi, - degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, insonni qurshagan predmet va narsalar muhiti uyg'unlik, shinamlik va qulaylik xususiyatlari bilan insonda zavq, ko'tarinki kayfiyat, xotirjamlik kabi hissiyotlarni uyg'otishi; insonga o'z hayotidan mamnunlik uyg'otishi, ruhiy muammolar yechimini hal etishda yordam berishi mumkin. Binobarin, me'morlar, amaliy san'at namoyandalari, dizaynerlar, umuman ijodkorlar bu estetik qulayliklarni nafaqat moddiy balki insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratadi.

So‘nggi besh yilda mamlakatimiz shaharlari va qishloqlari qiyofasi tubdan o‘zgardi. Buning natijasida odamlarning estetik dunyoqarashi va tafakkurida ham o‘zgarish paydo bo‘ldi. Chunki, barpo etilayotgan ijtimoiy obyektlar – muassasa, maydon, markaz, hiyobon, maskan, ziyoratgoh odamlarda turmush estetikasi haqidagi tasavvurini boyitadi, yuksaltiradi. Atrof-muhitning go‘zalligi kayfiyatga ta’sir ko‘rsatish, faollikka undash, hatti-harakatlariga tetiklik baxsh etishi asosida baholanadi.

Estetik muhitda tarbiya topgan inson narsalar olamining estetik shakli va mazmunini qadrlaydi, anglaydi, oqilona munosabatda bo‘ladi. Ayniqsa, badiiy konstruktorlik badiiy loyihalash unsurlarini ham o‘z ichiga oladi. Konstruktorlikni rivojlantirish bolalar va o‘smirlarda badiiy loyihalash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi, konstruktorlik ishlarini amalga oshirishi ijodiy tasavvur va badiiy qobiliyatning rivojlanishiga olib keladi. Bu esa estetik xarakter kasb etadi.

Turmush estetikasi inson faoliyati sohalari, narsalar olami, inter’yerning tarkibiy qismlari, uning shakllanish qonuniyatlari, ish joylar muhitini shakllantirish kabi masalalarni hal etishda yangi texnik va texnologik ishlanmalar va dizaynga asoslanadi. Narsa-buyumlarni qulay, shinam joylashtirish va ulardan to‘g‘ri foydalanish hayotimizning kun tartibidan muhimi o‘rin egallagan. Chunki kishilarning turmushi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy-madaniy jihatlarini o‘zida aks ettiradi va bu oiladagi sog‘lom muhitni belgilaydi. Insonni o‘rab turgan predmet-narsalar insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan chek-lanmaydi, tashqi muhit, shu bilan birga, insonning o‘z qiyofasini shu muhitga moslashtirishga ham ma’naviy-ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, dizayn inson bilan narsalar olami o‘rtasidagi uyg‘unlikni qaror toptirish vazifasini bajaradi.

Zamonaviy shaharsozlik estetikasi

Har bir shahar yoki viloyat, tuman markazi o‘ziga xos estetik ko‘rinishga ega. Bugungi kunda shaharsozlik sohasiga estetikaning zamonaviy prinsiplari joriy etilmoqda. Ayniqsa, davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tizimini tubdan qayta tashkil etish,

shaharsozlikning eskirgan metodologiya va normativlari, kapital qurilishdagi nomutanosiblik va muammolarni bartaraf etish, shuningdek, loyiha institutlarining samarasiz faoliyatini tubdan takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyotning ikki muhim jihati – moddiylik va ma'naviylikni o'zida namoyon ettiradigan me'morchilik o'z navbatida, mamlakatda shaharsozlik sohasining shakllanishiga, ravnaq topishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kundalik hayotda «shaharsozlik» va «obodonlashtirish» degan so'zlar tez-tez tilga olinmoqda. Sobiq Ittifoq davrida shaharsozlik madaniyati va estetikasi me'moriy majmualarning umumiy ko'rinishi, ularning ekster'yer (tashqi) va inter'yer (ichki) bezagidagi bir xillik shaharning badiiy-estetik qiyofasiga salbiy ta'sir etganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, aholi uchun qurilgan turar joy binolarining bir xil shaklda bo'lganligi shundan dalolat beradi. Mazkur binolar tartibsiz, noqulay hududda bunyod etilganligi, aksariyatining qurilishida tabiiy muhit, milliy xususiyatlar hisobga olinmaganligi natijasida shaharning jozibadorligini buzgan.

Shahar o'z ko'rki va go'zalligini qo'yidagi estetik xususiyatlar orqali namoyon etadi: a) shaharda me'moriy obidalar, ko'hna yodgorliklar, ziyoratgohlarning mavjudligi va ularni odamlar e'tibori va tasarufida ekanligi; b) binolarning aholi tarmush tarzi uchun qulayligi va mos kelishi; v) shaharda bunyod etilgan inshootlar, yo'llarning xalq manfaati bilan muvofiqligi; g) shaharning geografik jihatdan joylashuvi – suv va havosining musaffoligi, tabiiy manzaralarga boyligi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bunyod etilayotgan muhtasham inshootlar, ma'muriy binolar, ta'lim muassasalari milliy me'morchilik an'analarining Ovro'pa me'morchilik an'analari bilan uyg'unligiga asoslanadi. Misol uchun, Vatanimiz poytaxtida qad rostlagan - Ma'rifat markazi, Simpoziumlar saroyi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Yoshlar ijod saroyi, Poytaxt biznes markazi kabi betakror inshootlar bir-biriga hamohang tarzda yaxlit kompozitsiyani tashkil qilgan. Yoki Vatanimizning bosh maydoni - Mustaqillik maydoni betakror landshaft dizayni bilan g'oyat go'zal qiyofa kasb etgan.

O‘zbek shaharsozligi estetikasi sobiq Ittifoq davrida nazardan chetda qoldi: me’moriy obidalar qarovsiz holatga keltirildi, xalq amaliy san’atining nodir turlari yo‘qola boshladi, erkin ijodiy muhit ta’qiqlandi. San’atkorlar, me’morlar, usta va naqqoshlar tomonidan ko‘plab binolar, xalq amaliy san’atining nodir namunalari yaratilgan bo‘lsada, ammo ularda milliy bezak va uslublar, naqshlar to‘laligicha o‘zini namoyon etolmas edi. Bugungi me’moriy binolar, tarixiy inshootlar, xususan O‘zbekiston anjumani, mahobati, shakl va kompozitsiyasi, naqsh va bezaklari o‘zining falsafiy-estetik mazmuni bilan jahon me’morligining buyuk namunasi, o‘zbek xalqining estetik qadriyatiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XXI asrni O‘zbekistonda shaharsozlik estetikasida tub burilish davri deyish mumkin. Bugungi kunda, shaharlarda nafaqat tarixiy obidalar qayta tiklandi, balki ziyoratgohlar obodonlashtirildi, qator zamonaviy kasb-hunar kollejlari, maktablar, zavodlar, fabrikalar, sport maydonlari, shifoxonalar, mehmonxonalar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, bozorlar, yo‘llar, ko‘priklar, savdo majmualari, favvoralar, gulzorlar barpo etildi.

Dizayn va uning estetik xususiyatlari

Italyanchada loyiha, rasm ma’nolarini anglatuvchi disegno so‘zi o‘rta asrlarda inson tabiatida mavjud bo‘lgan ijodkorlik xususiyatlarini ham ifodalagan. Ammo, “ingliz tilidagi design so‘zi birinchi marta 1919-yil ingliz rassomi Djozef Sinelo tomonidan sanoatda ishlab chiqarilgan narsalar namunasiga nisbatan qo‘llanilgan. Bunda u aniqroq ifodalash uchun industrial so‘zini kiritib «industrial design“ sanoatga, uning taraqqiy etgan mashina texnikasi va seriyali ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yangi badiiy predmetli ijod sohasini anglatuvchi so‘z birikmasini qo‘llaydi. Vaqt o‘tishi bilan bu ibora xalqaro ahamiyatga ega bo‘lib bordi.”

Dizayn avval narsa va buyumlar olamini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati bo‘lsa bugunga kelib inson faoliyatining barcha yo‘nalish va ko‘rinishlarini qamrab olib, nufuzli, keng tarqalgan ijodiy faoliyatga aylandi. Narsa va predmetlar, atrof-muhitni loyihalar ekan dizayner ayni paytda inson va uning hayot tarzini ham loyihalaydi.

Dizayn estetikaning ijodiy faoliyat turiga mansub bo‘lib, uning maqsadi sanoat mahsulotlari shakli va sifatini baholash, belgilashdan iborat. Bu xususiyatlar mahsulotning tashqi belgilarini qamrab oladi, shu bilan birgalikda mahsulotni xaridor-iste’molchi nuqtai nazarida ham, tayyorlab-etkazib beruvchi nuqtai nazaidan bir butunlikka olib keluvchi funksional va strukturaviy aloqadorligini ham o‘z ichiga oladi. Dizayn amaliy san’at sohalarini sanoat olamiga ham tadbiq etib, mahsulot shaklini faqat mantiqiy tuzilish, maqsadga muvofiq emas balki, hissiyotlarga ta’sir etishini ta’minlaydi.

Dizayn jamiyatning ilmiy-texnik va estetik darajasini ham ko‘rsatadi. Bu kundalik amaliyotimizda qo‘llaydigan mehnat qurollaridan tortib, uy jihozlari-yu, kommunikatsiya vositalari televizor, komp’yuterlarda ham namoyon bo‘ladi. Insoniyat uchun yaratilgan buyumlar bir-birini to‘ldirishi hamda estetik qimmatga ega bo‘lishi lozim. Negaki ular insonning jismoniy-biologik, ruhiy-estetik rivojlanishiga xizmat qilmog‘i kerak. Bu vazifaning bajarilishi nafaqat dizaynerga, balki iste’molchiga ham bog‘liq. Iste’molchi yoki haridor o‘z didiga mos narsani tanlaydi, xarid jarayoni tovarga faol munosabat shakliga aylanadi. Ana shunday munosabatga loyiq bo‘lishi uchun tovarning shakli muhim ahamiyatga ega. Avvalo go‘zal va sifatli, qulay narsalargina xaridor e’tiborini qozonadi. Shunda tovarning umumezonga javob beradigan estetik qadriyat sifatida qabul qilinishi ro‘y beradi va u ishlab chiqarishning xaridorga, xaridorning esa ishlab chiqarishga estetik ta’sirini ta’minlaydi.

Utilitar va estetik qonuniyatlarning birligi, chambarchas aloqasi dizaynning o‘ziga xos xususiyatni tashkil etadi. Utilitar xususiyatlar deganda - foydalilik, funsionallik, qulaylik, texnologik tejamlilik va konstruktiv xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Estetik prinsiplar esa go‘zallik, nafislik, badiiylik, obrazlilikni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda texnika estetikasi mehnat vositalaridan tortib ishlab chiqarish jarayonining moddiy shart-sharoitlarini ham o‘z ichiga oladi. U ishlab chiqaruvchining ish faoliyati, mehnat sharoitiga ta’sir ko‘rsatadi, mashina-yu uskunalarni yangilash, yaxshilashdan tortib, ularning ish joylarida estetik muhitni yaratish, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishini ta’minlashni ham o‘z oldiga qo‘yadi. Demak, inson badiiy-texnik faoliyatning xususiyatlari va

qonuniyatlarini ochib berish texnika estetikasining vazifasidir. Dizayn esa dunyoqarashga ham tegishli va umumiy estetik nazariyaning tarkibiga kiradi.

Inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o'zi tomonidan yaratilgan narsalar olamiga ham bog'liq. Inson o'zini qurshab turgan olamning qanday bo'lishini ko'p hollarda o'zi belgilaydi. Ana shu jarayonning asosida esa zamonaviy amaliyotning muhim ko'rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi.

Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Dastlabki yaratilgan texnika vositalarini kishilar go'zallik olamiga mutlaqo begona bo'lgan hodisa sifatida idrok etishgan edi. Keyinchalik loyihachilar tomonidan texnikaga nisbatan badiiy yondashuv natijasida u o'zining avvalgi dag'al, qo'pol, noqulay, insonni cho'chitadigan ko'rinishini yo'qotdi. Endilikda texnika o'zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan «insoniylama» boshladi. Mazkur holatning rivojlanib borishi bilan birga texnika loyihasiga nisbatan ikki xil munosabat ham shakllanib bordi. Birinchidan, loyihaning asosida texnikaning mexanik faoliyati, uning ishlash jarayoni ko'zda tutilgan bo'lsa, ikkinchidan, uning tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratildi. Keyinchalik mazkur ikki munosabatning uyg'un faoliyati natijasida mashinalashgan ishlab-chiqarishning «insoniylashgan» yangi uchinchi olami, zamonaviy ibora bilan aytganda-dizayn yuzaga keldi.

Dizayn go'zallik bilan hamkorlikda taraqqiy etib boradi. Holbuki, buyumni badiiy loyihalashtirishda uning shakli bilan mazmuni hamohang, mos bo'lishi kerak. Qisqasi, dizayndagi estetik talab shaxsning moddiy ehtiyoji bilan birga ma'naviy ehtiyojini ham qondira olgandagina o'zida go'zallikni namoyon ettiradi.

Mustaqillikdan so'ng aholi turmush darajasining yuksalayotganligi, estetik madaniyatning takomillashib boryotganini kuzatish mumkin. Bunda dizayn katta rol o'ynamoqda. Dizayn moddiy ishlab chiqarish muhitini estetik qayta qurish, uning insonning manfaatlari va ehtiyojlariga mos keltirishga xizmat qiladi. Dizaynning zaruriyatga aylanishi esa faqat zamonaviy ilmiy-texnikaning taraqqiyotigagina emas, balki ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy madaniyat darajasining yuksakligiga ham bog'liqdir.

Dizayn estetikasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar muallifi N.Abdullayeva dizayn yoki badiiy loyihalash texnika estetikasining tarkibiy qismi ekanligini uqtiradi. Uning fikriga ko‘ra, dizayn texnika estetikasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini, hozirgi davrdagi ahamiyati, san’at bilan o‘zaro aloqadorligi, buyumlar olamining estetik muammolarini o‘rganadi. Dizayn ishlab chiqarishda go‘zallik va foydalilikning uyg‘unligini taqozo etadi. Iqtisodiy, utilitar, texnologik jihatlar bilan birgalikda buyumlarning estetik qimmati ham muhim ahamiyatga ega. Negaki, u insonda ma’naviy zavq uyg‘otibgina qolmay, moddiy ishlab chiqarish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega.

Dizaynning estetik mohiyati uning san’at bilan aloqadorligida ham namoyon bo‘ladi. Bizga ma’lumki, dizaynning san’at bilan hamkorligi o‘ziga xos bo‘lib, bu xususida tadqiqotchilarning fikrlari turlichadir. “Dizayn-abstrakt san’at” (Genrbert Rid), “Dizayn san’at emas” (Gloag, Eshford), “iste’mol predmeti badiiy asar funksiyasini bajarishi mumkin emas, u san’at taqdiri bilan mos kela olmaydi”(T.Mal’donado), “dizaynnning maqsadi go‘zal shakl va narsalar dunyosini yaratishdan iborat bo‘lib, ular sivilizatsiyamizning chinakam xarakterini ochib berishi lozim” (D.Ponti) deb ta’kidlashgan.

Darhaqiqat, dizayn sohasini aniqlash juda murakkab, ayrim vaqtda ular san’at bilan o‘zaro qorishib ketadi. Har ikkalasi ham ijodiy faoliyat ekanligi, inson ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi, estetik qonuniyatlar asosida vujudga kelishi ularning chambarchas aloqadorligini ko‘rsatadi. San’atning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud bo‘lib ularning asosida ikki xil mazmun yotadi. Biri u o‘yin natijasida, ikkinchisi esa mehnat. San’at o‘yindan kelib chiqqan, chunki unda majburiylik yo‘q, san’at avalo inson ma’naviy ehtiyoji natijasi degan fikr asos sifatida olinadi. Dizayn san’atni istisno qilmasada bizning nazarimizda mehnat natijasida vujudga keladi. Chunki hunarmand ko‘zga yasaydi, unga ishlov beradi, bezaydi bu uning mehnatining tarkibiy qismi hamdir. U majburiyat bilan bog‘liq, maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy hodisa va mehnatdan manfaatdorlik mavjud. Yuqorida ta’kidlanganidek, xalq amaliy san’ati haqida gap ketganda bu yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Xalq amaliy san'ati

Amaliy san'at turlarining estetik xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o'zida ham badiiy, ham amaliy vazifani bajaradi. Shu bois, xalq madaniyati tarixini uning amaliy san'atisiz tasavvur qilish qiyin. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosining eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek xalq amaliy san'ati yodgorliklari o'tmish ajdodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho asarlarning namunalari bo'lib, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy-estetik didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham ham o'zbek xalqi amaliy san'ati kishilarning badiiy, axloqiy, umuminsoni jihatdan tarbiyalab, ularning ilmiy dunyo-qarashini shakllantirishda ham madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan hisoblanadi. Bu manbalardan bugungi kunda ham usta va hunarmandlar samarali foydalanib keladi.

Xalq amaliy san'atining milliy estetik mazmuni naqqoshlik san'atida yaqqol ko'zga tashlanadi. Naqqoshlik san'ati g'oyat boy va mazmundor bo'lib maishiy turmushimizda ishlatiladigan oddiy qoshiq, lagan, sandiq, cholg'u asboblaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, zavqlantiradi. Bino yoki xonadon devoridagi naqshlar turli xil bo'lib ulardan "girix" arabcha "tuguncha" degan ma'noni anglatgan xandasaviy naqshlar ya'ni to'g'ri to'rtburchak, romb, kavadrat kabi yaxlit kompozitsiyani tashkil qilgan naqshlar va "islim" (arabcha) yuguruvchi ma'nosini anglatib to'g'ri yo'l ichiga ilon izi shaklida chizilgan o'simliksimon naqshlardan iborat bo'lgan. Ular faqat foydali-amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki xonadon egalarining orzu-umidlari, badiiy-estetik didi va estetik idealining ko'rsatkichi sifatida ham namoyon bo'lgan. Bugun ham zamonaviy turar joylar va binolarni bu naqshlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Bugungi zamonaviy inshootlar kabi turar joylarda amaliy san'atning bir qancha turlarini ko'rish mumkin. Turar-joy binolarining turli-tuman badiiy-texnologik usullarda namoyon

etilgan badiiy bezak turlari O‘zbekiston me’morchiligida muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, turar-joy dizayni bu milliy an’analarga tayangan noyob ijodiy faoliyat bo‘lib, ularning mahorati va badiiy bezatilishning ko‘pgina qirralarini ifodalaydi. Turar-joylar inter’yerlaridagi umumiy devorlarning sathi an’anaviy kompozitsion bo‘linish usullari, inter’yerlarni badiiy-bezakli pardozlashning asoslariga tayanadi va ko‘plab estetik xususiyat kasb etadi. Masalan, binoning tashqi ko‘rinishi - tarz (fasad)ga qaraganda uyning inter’yeri ko‘p hollarda ko‘rkam bezakli bo‘ladi. Devorlarning tokchalarga bo‘linishi turg‘unlik va sokinlik taasurotini yaratsa, devorning barcha sathi naqshinkor bezatiladi, bezakni bajarishda simmetriya, ritm, mutanosiblik qonunlariga rioya qilinishi unga tartiblilik, uyg‘unlikni namoyon qiladi. O‘yma bezaklar bilan oro berilgan yog‘och eshiklar, ustunlar, shift bolorlari, gohida shift ustidan ko‘prangli naqshlar, shuningdek, naqqoshlik bilan devor sathining barcha qismlari tokchalar, shiftlar karniz va bolorlar ham bezatilishi, deraza darchalari va eshik tabaqalari, ustunlari devor va intererga berilgan naqshu bezaklar imoratga badiiy tantanvorlik va estetik qiyofa baxsh etadi.

Inter’yerlarning badiiy bezatilishda asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo‘lib bu o‘zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi. Devorda ketma-ket joylashgan naqshinkor va pardozlangan naqshlar yordamida juda ham rang-barang, jozibador kompozitsiyalar yaratiladi. Inter’yer dizaynida devoriy naqqoshlikning bir necha kompozitsion yechimlarini kuzatish mumkin. Bu tokchalarga bo‘lingan, yalpi naqqoshlik bilan bezatilgan devor sathi va naqshinkor va o‘ymali naqshlar ketma-ket joylashgan, rang-barang naqshinkor kompozitsiya. Shift naqqoshligi ham Toshkent inter’yerlarida muhim o‘rin tutadi. Ular o‘zida konstruktiv va badiiy yechimning sintezini namoyon etadi. Ular turar-joylari ayvon va dahlizlarda ham keng qo‘llaniladi. Bu amaliy san’at turining gullashi va rivojlanishi, hozirgi davrda shaharda shakllangan qulay iqtisodiy sharoit, innovatsion ta’sir va amaliy-bezak san’atining ko‘p asrlik an’analari bilan bog‘liqdir.

Yog‘och o‘ymakorligi faqat inter’yerning sirtida namoyon bo‘lib qolmay turli shakl va kompozitsiyalarda ham aks etadi. Bu inter’yer uchun ishlangan stol, stullar, xontaxtaning nafaqat

shaklining bejirimligi balki yog‘och fakturasining go‘zalligi va ularga berilgan ishlov hamda naqshlarning betakror va yengilligi kishiga zavq bag‘ishlaydi. Toshkent turar joy me’morchiligida O‘rta Osiyo me’morchiligi amaliyotida qo‘llanilgan badiiy bezaklarning deyarli barcha turlari mavjud: suvalgan devor ganch naqqoshligi avva o‘ymakorligi shular jumlasidandir.

Inter’yerning badiiy bezalishida asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo‘lib, bu o‘zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi. Ko‘pincha naqqoshlik ganch o‘ymakorligi bilan muvofiqlikda bajariladi. Ayniqsa Toshkentda keng tarqalgan o‘simlik naqshlari- majnuntol, anor, xrizantema butalarining yoyilgan shoxlarini ko‘plab uchratish mumkin. Bu lavhalar faqatgina bezak emas o‘z falsafiy ma’nosiga egadir. Masalan majnuntol - sevgi sog‘inchi, anor - serhosillik, lola - bahor, gulsafsar - osoyishtalik va uzoq umrni anglatgan.

O‘zbek xalq amaliy san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zardo‘zlik, kigizchilik, kashtachilik kabi bir qancha turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyasi, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar yo‘qolib ketishi xavfi bor edi. Ammo mustaqillikka erishgach milliy san’atimizning bu sohalariga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Ular tiklanib yangi an’analar paydo bo‘la boshladi. Bu esa hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, mualimlar amaliy bezak sirlarini shogirdlariga o‘rgatib qolmay bu san’at asarlarini keng targ‘ib etib jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tayanch tushunchalar:

Inson go‘zalligi, san’at, turmush estetikasi, ishlab chiqarish estetikasi, estetik idrok etish, qadriyat, ekologiya, estetik tarbiya, estetik munosabat, shaharsozlik estetikasi, fan, dizayn, amaliy san’at.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tabiatga estetik munosabatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tabiatni estetik idrok etishning qanday an'anaviy usuli mavjud?
3. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi nimadan iborat?
4. Ekoestetikaning falsafiy mohiyatini izohlang.
5. Texnotsivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi rivojiga ta'sirini izohlang.
6. Maishiy turmush estetikasining asosiy kamponentlarini tushuntiring.
7. Zamonaviy turmush tarzining estetik talablarini izohlang.
8. Zamonaviy shaharsozlik qaysi estetik mezonlarga asoslanadi?

Testlar:

1. Dizayn so'zi nima ma'noni anglatadi?
a) Inglizcha rasm chizish, loyihalash;
b) Nemischa o'lchamoq, chizmoq;
v) Fransuzcha proyekt, surat;
g) Lotincha suratga olish;

2. Ekoestetika fani nimani o'rganadi?
a) Estetik didni o'rganadi;
b) Atrof-muhit estetikasini o'rganadi;
v) Tabiat estetikasini o'rganadi;
g) Tabiatga nafosatdor munosabatni o'rganadi;

3. Tabiat estetikasi insonga nimani o'rgatadi?
a) Tabiat estetikasi insonga uyg'unlikni ko'rish va qadrlashga o'rgatadi;
b) Tabiat estetikasi insonga tabiiy go'zallikni ko'rish va qadrlashga o'rgatadi;
v) Tabiat estetikasi insonga tabiiy go'zallik va uyg'unlikni ko'rish va qadrlashga o'rgatadi;
g) abiat estetikasi insonga insonni qadrlashga o'rgatadi;

4. Voqelikka estetik munosabatda bo‘lish nimadan boshlanadi?

a) Voqelikka estetik munosabatda bo‘lish insonga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi;

b) Voqelikka estetik munosabatda bo‘lish jamiyatga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi;

v) Voqelikka estetik munosabatda bo‘lish tabiatga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi;

g) Voqelikka estetik munosabatda bo‘lish milliylikka bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi;

18-MAVZU. ESTETIKANING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Estetik tarbiya va uning vositalari, yo'nalishlari, vazifalari.

Tarbiya masalasi barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqot obektining muayyan qismini tashkil etadi. Bu xususiyat estetikaga ham xos. Biroq, tarbiyaning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, estetik tarbiya insonning doimiy hamrohi, ya'ni uning tug'ilishidan toki umrining oxiriga qadar ehtiyoj sezib yashaydigan tarbiya shaklidir. Inson o'zining estetik tarbiyasini takomillashtirmay turib, hayotini to'laqonli yo'lga qo'yishi mumkin emas. Chunonchi, hayotning go'zalliklarini his etish va undan bahramand bo'lish ham insonning estetik jihatdan qanday tarbiya ko'rganligiga bog'liq.

Estetik tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Tarbiyaning bu shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etar ekan, o'z navbatida, kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan qiziqish tuyg'usini uyg'otishni asosiy maqsadlari sirasiga kiritadi. Bundan tashqari, estetik tarbiya insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda uni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga o'rgatadi ham. Negaki, inson olamga estetik jihatdan boy dunyoqarashga ega bo'lgan, estetik tuyg'usi va estetik didi tarbiyalangan holda kelmaydi. Bu ko'nikmalar inson tomonidan voqelikni kuzatish, o'rganish va ulardan tegishli xulosalar chiqarishi natijasida shakllanadi. Inson ana shu tuyg'ular ta'sirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi.

Estetik tarbiya ma'naviyatning aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyati sifatida ish olib boradi. Shuningdek, ayrim kishilarning yohud biror-bir guruhning turli xil faoliyatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Estetik tarbiya mohiyatan insoniy ideali bilan bog'liq bo'lib, bu ideal nafis didga, pokiza tuyg'ularga egaligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, shaxs ijtimoiy jarayonlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Shaxs bu bilan ijtimoiy taraqqiyotning estetik

subyektiga aylanadi. Shu bois jamiyatda yashayotgan biror-bir shaxs estetik jarayonlardan chetda turmaydi, aksincha, o'zining muayyan xatti-harakati bilan mazkur jarayonlarga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyaning maqsadi ana shunday ta'sirlarni go'zallik mezonlari asosida ongli yo'naltirishdan iborat.

Estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan aloqador bo'ladi. Biroq, bu "estetik tarbiya badiiy tarbiya bilan bir xil ma'no kasb etadi", degani emas. Chunki, badiiy tarbiya badiiy ijod jarayonining inson tomonidan estetik tarzda anglash va o'zlashtirishning bir qismi, xolos. Estetik tarbiya esa jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim faoliyat turi bo'lib, u inson didini shakllantirish va rivojlantirish asosida insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Estetik tarbiya insonda bunyodkorlik va yaratuvchanlikdan zavqlanish, qiziqish tuyg'usini uyg'otishni nazarda tutadi. U insonni yangilik va zamonaviylikka undaydi, faoliyatni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga o'rgatadi. Shu bois bugungi kunda estetik tarbiyaning bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning estetik didi va estetik dunyoqarashini boyitishdan iboratdir. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagilar estetik tarbiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Estetik tarbiyaning tadqiqot obyekti kengayib borishi qator muhim vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Ya'ni:

- inson san'atni faol o'zlashtiruvchi subyektgina emas, balki san'atning estetik mohiyatini anglovchi va baxolovchi subyekt sifatida yondashish;

- ijodiy imkoniyatlarni namoyon qilishi va undan samarali foydalanishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirishning samarali targ'ibotini yo'lga qo'yish.

- shaxsni hayotni oqilona, teran xis etadigan, turmush tarzini bunyodkorlik asosida tashkil etishga intilgan yangi kishini shakllantirish;

- yosh avlodda san'at asarlari va badiiy ijod namunalarini faol o'zlashtirish, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash

qobiliyatini takomillashtirish; estetik tuyg‘u va estetik didning insonning barcha faoliyatlarida ustuvor bo‘lishini ta’min etish.

Estetik tarbiyaning vazifalari estetik tuyg‘u va estetik didning insonning barcha faoliyatlarida ustuvor bo‘lishini ta’minlash bilan belgilanadi. Bu vazifalar ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarga, inson salohiyati va imkoniyatlariga singdirilsagina maqsadga erishadi.

Ko‘rinib turibdiki, estetik tarbiyani qaror toptirish jamiyatning birdan bir maqsadi emas. Estetik tarbiyaning vazifasi nafaqat yuksak estetik did, esetik ideal va estetik tuyg‘ularga ega bo‘lgan insonlarni yaratish, balki ularni jamiyat hayotida, turmush nafosatida, mehnat faoliyatida, shuningdek ahloqiy munosabatlarda go‘zallik va ulug‘vorlikni his qiladigan va yarata oladigan insonlarni shakllantirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida insonning amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sohalarda estetik tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish munosabatlari o‘zgarayotgan, axborot kommunikatsiya texnologiyasi va Internetning insonlarga tobora yaqinlashuvi, xizmat ko‘rsatishning yangidan-yangi turlari shakllanayotgan hamda inson ongini egallash uchun olib borilayotgan ko‘rash jarayonida estetik tarbiya masalalari kun tartibining dolzarb masalalariga aylanmoqda. Ma’lumki, shaxs ijtimoiy taraqqiyotning turli jabhalarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi va bu jarayonda ijtimoiy taraqqiyotning estetik subyektiga aylanadi. Biror-bir shaxs jamiyat ijtimoiy jarayonlaridan chetda turmaydi, aksincha, o‘zining hatti-harakati bilan bu jarayonlarga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi. Estetik tarbiya ana shu ta’sirlarni go‘zallik va ulug‘vorlik asosida yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Estetik tarbiyani shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi hamda tartibga soluvchi vositalar mavjud bo‘lib, ular yillar davomida xalqimiz tajribasidan o‘tgan, xalq turmush tarzining asosiy mezoniga aylangan. San’at, mehnat, sport, matbuot, muhit kabi an’anaviy vositalar shular jumlasidandir. Ular orasida san’at eng ta’sirchan estetik tarbiya vositasi hisoblanadi.

San’at mohiyatan shaxsning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim jarayon hisoblanadi. Shuning barobarida, u

insonni doimo o‘ziga jalb etib kelgan. San’at insonning ehtiroslar va tuyg‘ular olamiga singib borib ularni yig‘latadi, kuldiradi, o‘ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak san’at barcha davrlarda insonga hamroh bo‘lib kelgan. San’atni “bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir”, – deb bilgan taniqli jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat san’at va uning insonga ko‘rsatajak ta’siri to‘g‘risida mulohaza yuritib, shunday degan edi; “Buyuk bir shodlik ko‘rgan kishi o‘zining shod tuyg‘ularini boshqalarga bildirib, shodligini orttiradir. Ulug‘ bir qayg‘uga uchragan esa, o‘z dardini boshqalarg‘a o‘tkarib, o‘zini ovuntirg‘an bo‘ladir. Miyasi yuksalmagan bolalar, san’atdan xabarsiz kishilar shodli-qayg‘uli tuyg‘ularini sakrab, o‘ynab, kulib, yig‘lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg‘a anglatadilarda, shu yo‘l bilan ovuntirilgan bo‘ladilar, san’at egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o‘zlarining tuyg‘ularini jonlantirib maydonga chiqaradir. Shu yo‘lda boshqalarni o‘z tuyg‘ulari bilan tuyg‘ulantirishga tirishadir”.

San’atning estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati shu bilan belgilanadiki, estetik tarbiya faqat va faqat insonga xos bo‘lib, u inson orqali voqelikka aylanadi. San’at tasvir vositalari orqall insonning idellari va orzu-umidlarini ranglarda, ohanglarda, badliy obrazlarda aks ettiradi, insoniyatning fazilat va illatlarini chiroyli qiyofalar bilan uning o‘ziga namoyish qiladi. Bu bilan san’at o‘ziga insonni jalb etadi, uning qiziqishini orttiradi. Natijada inson san’atning muxlisiga, tomoshabiniga aylanadi. Agar inson o‘zining estetik tuyg‘ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo‘naltira olgan bo‘lsa, chinakam san’at uning kelajakdagi buyuk ishlariga rahnamolik qiladi. Aksincha, estetik tuyg‘usi va estetik didi tarbiyalanmagan kishi san’atning buyuk imkoniyatlaridan mosuvo bo‘lib qolaveradi. Biroq, san’at u yoki bu ko‘rinishda tobora insonga yaqinlashib boraveradi. Zero, haqiqiy san’at asarlari insonni doimo yuksaklikka, bunyodkorlikka undab kelgan estetik tarbiya vositasidir.

Shaxsning estetik tarbiyasini san’at vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat ko‘ra ifodalash mumkin. Birinchidan, san’at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta’sir ko‘rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, san’at insonni estetik jihatdan kamolotga etkazish jarayoniga muayyan mafko‘raviy mazmun

bag‘ishlashi bilan birga inson ma’naviy qadriyatlarini ro‘yobga chiqarishda yaqindan yordam ko‘rsatadi.

San’at o‘zining estetik bisotini to‘laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘lanadi. Ma’naviy jarayonlarni inson tomonidan anglanishi shaxs estetik didining qay tariqa shakllanganligi bilan belgilanadi. Chunki, inson estetik didi uning go‘zallikdan xunuklikni, ulug‘vorlikdan tubanlikni, fojeaviylikdan kulgulilikni ajrata olish qobiliyatlariga qarab baholanadi. Did yordamida odamlar hayotiy faoliyatlarini shakllantirishga harakat qiladilar. Shunga ko‘ra, insonning didsizligini fojea deb bilish yaramaydi; didsizlik bu tariqa fojeaga aylanmaydi. Didsizlik fojeaga aylanishi mumkin qachonki, biror-bir shaxsning past darajadagi didi boshqa bir yuksak didli shaxsning didiga hukmronlik qilsa va uni o‘z izmiga bo‘ysundirishga harakat qilsagina did fojea tusini oladi. Bunday holat o‘z navbatida hayot go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishga monelik ko‘rsatadi. San’at ana shunday fojealarning oldini olishda insonga ko‘mak beradi.

Estetik tarbiyaning barcha vositalari shaxsning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, u o‘ziga xos ta’sirchanlik, tug‘yoniylik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko‘lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o‘stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Shunga ko‘ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo‘layotgan hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni insonga tushunarli tarzda yetkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik hususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida etkazib berishi bilan diqqatga sazovordir.

Insonni estetik jihatdan tarbiyalash favqulodda murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, amalga oshiriladigan islohotlar ham mazkur jarayonni takomillashtirishni nazarda tutadi. Estetik tarbiyani takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish estetik madaniyat shaxs – jamiyat – shaxs tizimida mavjud bo‘lib, bunda shaxs madaniyati ustuvor ahamiyatga ega. Ya’ni, estetiklashgan shaxs jamiyatni estetiklashtiradi, estetiklashgan jamiyat esa, o‘z navbatida yangi darajadagi estetiklashgan shaxsni yaratadi va shu

tartibdagi o‘zaro ta’sir millatning qadam-baqadam komillik darajasiga ko‘tarilishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi paytda milliy ma’naviyatga ta’sir o‘tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma’naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo‘naltirishni taqazo etadi.

Tarbiyada estetik ta’lim va estetik bilimning zaruriyati

Inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim va tarbiyadan boshlanadi. Ilmning hikmati va fazilatiga doir alloma vatandoshimiz Muhammad Imomzoda al-Cho‘g‘iy (vafoti 1177)ning qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning “Shir’at al-islom – Islom yo‘li” nomli kitobida ilm olish odoblari va fazilatlariga doir ko‘plab ma’lumotlarni muayyan axloqiy tizimga solgan. Qizig‘i shundaki, u shar’iy bo‘lmagan ilmlarni ikki qismga - maqtalgan va yomonlangan turlarga bo‘ladi. Dunyoni obod qillsh uchun zarur bo‘lgan bilimlar – tibbiyot, hisob-kitob, dehqonchilik, to‘quvchilik kabi hunarlar hatto qon olishni bilishni maqtalgan va o‘rganish kerak bo‘ladigan ilmlar sirasiga kiritadi, bu bilimlar sababli insoniyat boqiy qoladi, deydi. Ayni paytda, riyoziyotga chuqur kirishish, uning eng nozik jihatlarini ham tadqiq va tahlil etishga urinishni fazilat hisoblaydi. Yomonlangan bilimlarga esa – sehr-jodu va har xil tilsimlar, folbinlik bilan shug‘ullanishni kiritadi. Muboh, ya’ni ihtiyoriy bilimlarga she’riyat va tarix kiradi. Biroq, falsafani ba’zi joylarda va ba’zi hollatlarda kerak bo‘ladigan fan, uni shunday zarurat holati uchun o‘rganish kerak. Aks holda, u yomonlangan fan sohasidir, deydi.

Allomaning ilm haqidagi fikrlari ijtimoiy-ma’naviy jihatdan yuksak ahamiyat kasb etadi. U ilmga hiyonat qilishni o‘zgalarning moliga hiyonat qilishdan og‘irroq deb biladi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, al-Cho‘g‘iy ilm oluvchining zimmasiga ham bir qator axloqiy mas’uliyatni yuklaydi. Chunonchi, chala eshitgan narsasini oshkor qilmasligi, aniq ishonch qilmagan bilimini odamlar orasida gapirmasligi va atrofga yoymasligi zarurligini uqtiradi.

Tarbiyada estetik ta’lim va bilimning zarur ijtimoiy talab hisoblanadi. BMTning ming yillik sammitida keltirilgan quyidagi ma’lumotlari mushohada va mulohaza uchun asos bo‘ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2001-2002 o'quv yilida dunyo bo'yicha 115 million bola yoki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning 18 foizi maktabga bormagan. Bularning 61,3 millioni qizlar (53 foizi), 45 millioni (39%) Afrika Saxarasidagilar va 42 millioni (36%) Janubiy Osiyodagi bolalardan iboratdir. Maktabni qoldirish ehtimoli katta bo'lgan bolalar G'arbiy va Markaziy Afrikadagi (45,3%), Sharqiy va Janubiy Afrikadagi (38,5%) Janubiy Osiyodagi (26%) hamda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi (18,7%) bolalar bo'ldi. Mazkur mintaqalarning barchasida o'g'il bolalardan ko'ra qiz bolalar ko'proq maktabga bormasligi kuzatilgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng katta farq Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada kuzatilgan. Mazkur mintaqada o'g'il bolalarning 15,4 foizi, maktabni qoldirgan bo'lsa, bu holat qizlarning 22,1 foizida kuzatilgan.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish axloqiy, estetik va mantiqiy tafakkurni yangilash va boyitishni taqozo etadi. Xususan, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini axloqiy va estetik madaniyatdan, mantiqiy tafakkur va mushohadadan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maqsadga erishish uchun bo'lajak mutaxassis yoki davlat xizmatchisi avvalo, axloqiy ko'nikma, estetik bilim va mantiqiy mushohadaga ega bo'lishi zarur. Qolaversa, estetika fani doirasida o'zlashtiriladigan bilimlar umuman sharqliklarga, xususan xalqimizga begona emas. Zero, bu ilmsiz o'zbek xalqi tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyati, madaniyati, bir so'z bilan aytganda, uning buyukligini anglash mumkin emas.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning "3.3.1. Uzluksiz ta'limni tashkil etish hamda rivojlantirish prinsiplari"da ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish"ga bog'liq ekanligi bundan buyon odamlar tafakkurini o'zgartirish estetik tarbiyadan ayri holda amalga oshmaydigan jarayon ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunga kelib g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash aynan estetik bilimni taqazo etmoqda. Shu bois avlodni estetik tarbiya asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Hozirda estetik bilimlar doirasi shu qadar kengayib bormoqdaki, u deyarli barcha sohalarda masalan, sog'liqni saqlash tizimida – tibbiyot estetikasi, ekologiya sohasida – ekologik

estetika, texnikaviy taraqqiyot sohasida – texnika estetikasi (dizayn)ning yuzaga kelgani shular jumlasidandir. Shu bilan bir qatorda, jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish ham estetika fani oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda.

Estetika fani insonning kundalik hayotiga g'oyatda yaqin. Chunki, erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlari, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlashlari, «ommaviy madaniyat»ning g'ayri estetik xususiyatlarini rad qila olishlari lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimida estetika faniga bo'lgan hozirgi munosabatni tubdan o'zgartirish zarur. Chunki, jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalarida estetika fanini o'qitish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Birgina Garvard Universitetida (AQSh) estetika bo'yicha 3 ta markaz, 18 ta yo'nalishda (bu yo'nalishda estetika sohasiga doir 46 ta fan o'qitiladi) ilmiy tadqiqot hamda ta'limiy ishlar olib borilayotganligi, Oksford Universitetida (Angliya) esa "Estetika" fakul'teti mavjudligi va unda shu sohaga doir 66 ta fan o'qitilishi estetik bilimlarga bo'lgan e'tibor katta ekanligidan dalolat beradi. Shu ma'noda, faylasuf olim Abdurahim Erkayevning "Yoshlarni kitob o'qishga o'rgatmoq mumtoz va zamonaviy yuksak san'at asarlariga qiziqtirmoq, estetik va axloqiy tarbiya saviyasini ko'tarmok kerak. Ma'naviy tarbiyaning asosini tashkil qiluvchi etika va estetika fanlarini o'qitishni oliy o'quv yurtlarida qayta tiklash maqsadga muvofiq. Aks holda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimida tarbiya jarayoni qashshoqlashib, biryoqlamalik avj oladi. Bo'lajak mutaxassis texnokrat, o'qituvchi va tarbiyachi nasihatguy safsataboz bo'lib yetishadi", degan fikri g'oyatda ahamiyatlidir.

Bugungi kunda odamlarga, ayniqsa yoshlarga "huzur-halovat va lazzat manbai" sifatida taqdim etilayotgan ma'lumotlarning aksariyati horijiy ommaviy-axborot vositalari hamda Internet tarmoqlaridagi turli xil saytlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi paytlarda fetish estetika (engil-elpi, yaltiroq estetika), "ommaviy madaniyat"ning inson maishiy turmushi bilan bog'liq saytlari shunchalik ko'payib ketdiki, ular yoshlarning estetik didini pasaytirishga va estetik dunyoqarashini to'poslashtirishga olib kelayotganligi bugungi kunda ochiq-oydin namoyon bo'lib qolmoqda. Yoshlar tarbiyasiga bunday g'ayriestetik g'oyalarning

tahdid va uning salbiy oqibatlarini tushuntirib beradigan ilmiy nazariy asos aynan estetik bilimni yuksaltirish orqali amalga oshadi.

Estetik bilimning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, ular orasida eng dolzarbi sayyoramizda nafosatga asoslangan estetosfera muhitini yaratish bilan bog'liq. Chunki texnogensivilizatsiya davrida texnika, texnologiya, umuman noosfera insonning yashash muhitiga aylanib qolgan. Binobarin, insoniyatning tabiiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengayib borayotgan bir davrda ularning estetik muhitga ehtiyojlari ortib bormoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda Internetdan foydalanuvchilar soni kam bo'lsada, global tarmoqda ishlash yoshlar tomonidan juda qisqa fursatlarda o'zlashtirilib olinmoqda. Biroq, yoshlarning qaysi veb saytlardan foydalanishi g'oyaviy tarbiya masalasida katta ahamiyatga ega. Bu borada bel'giyalik professor Frenk Tevisson tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yevropa mamlakatlarida 90 foiz talabalar Internetdan foydalanishar ekan. Ammo, ularning qaysi saytdan foydalanishlarini o'rganilganda, atigi 10 foiz talaba bevosita o'quv jarayoniga taalluqli saytlarga, 90 foizi esa, asosan pornografik mazmundagi saytlarga kirishni xush ko'rishi ma'lum bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida "oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish" muhim vazifalar etib belgilab berildi. Mazkur vazifalarni ta'lim muassasalarida to'laqonli va oqilona bajarilishi avvalo, estetika fanining ilmiy va ta'limiy asoslarini yanada mustahkamlashni nazarda tutadi. Bunda estetika fanini o'qitishni takomillashtirish, fanning mazmunini dolzarb mavzular bilan boyitish, ta'lim bilan tarbiyaning uzviyligini ta'minlash hamda estetika ta'limi sifatini yuksaltirish dolzarb ahamiyatga ega. Bundan tashqari, estetika faniming tarbiya jarayonidagi o'rni ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning to'g'ri yo'naltirilishi "talaba + mutaxassis = ziyoli" ko'rinishning tarbiyaviy maqsadi va

asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu turli tahdidlarning doirasi kengayib borayotgan, "ommaviy madaniyat"ning g'ayriestetik ko'rinishi tez o'zgarib inson tafakkuriga salbiy ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida estetika faniga bo'lgan ta'limiy, tarbiyaviy ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Yurtimizda har bir yil qay nomda nomlanmasin, unda davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan, kengqamrovli maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin tutadigan reja va vazifalar hisobga olinadi. O'tgan 2017-yilda ham mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.Joriy 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da ham barcha amalga oshiriladigan ishlarning markazida bilim, ma'rifat ustuvor bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bu haqda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin ma'rifat, ma'rifiy bilimlar qayerda – avvalo, ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo''tabar kitoblarda emasmi? Biznmg ushbu yo'nalishdagi barcha amaliy harakatlarimiz aynan mana shunday ezgu maqsadga qaratilgan bo'lib, nafaqat mamlakatimiz va musulmon dunyosida, balki jahon miqyosida ham katta qiziqish va e'tibor uyg'otmoqda. Ana shunday bebaho boylikka, minglab bilimdon ulamolar, faol ziyolilarga ega bo'lgan, bu sohada katta tashabbuslar bilan chiqayotgan xalq va davlat sifatida yurtimizdan qandaydir aqidaparast, diniy oqimlarga berilgan kimsalarning chiqishi albatta bizga yarashmaydi" – degan to'g'ri talabni qo'ydi.

Mehnat-turmush estetikasining muhim omili

Mehnat moddiy va ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan

zararini kamaytiradi, qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda mehnatga bo'lgan yangicha estetik munosabatni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik hissiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnatga bo'lgan estetik munosabat orqali ro'yobga chiqadi.

Mehnat – insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan estetik faoliyat. U ma'naviy va moddiy jihatdan odamzot hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda inson ayni paytda ham aqliy, ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. Shu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara borishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Agar mehnat erkin va ijodiy bo'lsa ko'plab yuksak asarlar, mukammal mahsulotlar yaratiladi. Va aksincha, mehnat asarlari xunuk bo'lsa insonning mehnat qilish zavqi va baxtidan mosuvo ekanligi, bu esa ular yashayotgan jamiyatning ma'naviy qashshoqligini ko'rsatadi.

Mehnat – mehnat sharoiti, mehnat jarayoni va mehnat natijalaridan iborat. Mehnat sharoiti yoki muhiti ishchi mehnat qilayotgan korxona binosi, arxitekturasi, dizayni, yorug'ligi, havo muhiti, shovqin, undagi mikroiqlim omillari harorat, nisbiy namlik, atmosfera bosimi, o'zaro ishchan vaziyat, axloqiy-estetik muhitni ham qamrab oladi. Mehnat jarayoni esa insonning ishlab chiqarish vositalari, ularni boshqarishi, ishlab chiqarish vaziyatidan iborat. Mehnat natijalari yaratilajak, yaratilgan mahsulot-tovarlardir. Bu uchchalasi o'zaro bog'liq bo'lib mehnat muhiti ijobiyligi, mehnat jarayonini inson uchun mashaqqatli, sog'ligiga ziyon yetkazadigan, toliqtiradigan emas, aksincha, zavqli va qulay bo'lishiga, mehnat jarayonining ijobiyligi esa mahsulot-tovarlar sifati, estetikasi, qulayligi, uyg'unligi bilan belgilanadi.

Mehnat estetikasi deganda mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalarida estetik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi

tushuniladi. Mehnatning estetik jihatlari shaxsning ijodiy faoliyat potensiali uning ma'naviy, aqliy, axloqiy-estetik tomonlari bilan umumiyligi va mehnat natijalaridan beg'araz lazzatlanishiga bog'liqdir. Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi uchun avvalo, obyektiv omillar, ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat ko'rinishidan qat'iy nazar texnika taraqqiyotiga bog'liq. Ibtidoiy davrdan boshlab bugungi eng yangi ilg'or texnologiya shakllanganigacha mehnat vositalari bir necha bor o'zgardi, davrdan davrga takomillashib bordi. Bu albatta mehnat estetikasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oddiygina kompyuter texnologiyasini oladigan bo'lsak, u hisob-kitob bilan shug'ullanuvchi kasb egalaridan tortib, yozuvchi-ijodkorlar mehnatini yengillashtiribgina qolmay ular vaqtining tejalishi, vaqtdan unumli foydalanish imkonini yaratdi. Bugun fermer va dehqonlarimiz ham zamonaviy texnika orqali yerga ishlov bermoqda.

Texnika taraqqiyoti ishchini og'ir jismoniy mehnatdan xalos etgani bilan birga uning ruhiy-axloqiy mas'uliyatini kuchaytiradi, ya'ni zamonaviy texnologiyani boshqarish, uni asrash insondan hushyorlik, axloqiy mas'uliyat talab etadi. Jismoniy mehnat texnika zimmasiga o'tgani sari, uning ijodiy tabiati ortib boradi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir inson o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, bu mehnat estetik tarbiya omiliga aylanadi. Mehnat inson iqtidori, xayolotini yuzaga chiqaradi, funksional jihatlari bilan estetik madaniyat, estetik faoliyatning shakli, mazmuni, hajmi, natijalarini belgilaydi. Inson hayotining turli soha va yo'nalishlaridagi estetik munosabatlar estetik madaniyatning o'zini namoyon etadigan maydoni sanaladi. Bu avvalo, inson hayotiy faoliyatining asosiy nuqtasi bo'lgan mehnatga taalluqlidir.

Mehnat qurollari va kundalik turmush buyumlarining funksional-texnologik qiymati hamda estetik belgilari va loyihalanishiga qarab kundalik turmush bilan bog'liq buyum-jihozlar va ikkilamchi yaratishga mo'ljallangan mehnat qurollariga bo'linadi. Ammo bugungi kunda insonning ijtimoiy faoliyati hisoblangan mehnat turlarini jismoniy va aqliyga ajratish har doim ham to'g'ri emas.

Chunki mehnat jarayonida bugun ikkalasi uzviy bog'lanib bormoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ishlab chiqarishning mislsiz taraqqiyoti natijasida bu ikki faoliyat bir-birini taqozo etib bormoqda.

Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish insonni estetik kamol toptirish bilan birga, uning foydali amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligini va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi. Mehnat insonning hayotiy ehtiyoji, uning turmush estetikasini shakllantiruvchi vosita hamdir. Mehnat estetikasining shakllanishida ishlab chiqarish vositalarining zamonaviyligidan tashqari, mehnat kollektividagi o'zaro axloqiy-estetik muhitning ham o'rni bor. Negaki ahil jamoa, o'zaro axloqiy-estetik munosabat ish jarayonining sifati va natijasi estetikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir buyum o'z davrining, shu davrda yashagan inson mehnatining mahsulidir. Bu buyumlar o'z zamonasining texnikasi, materiali, odamlar didi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan ham biz ushbu narsa va buyumlarga qarab u davr ma'naviy-moddiy madaniyati, xalq ehtiyoji, didi haqida ma'lumot olamiz.

Mehnat jarayonida estetik hissiyotning shakllanishi sifat jihatdan insoniyat olami bilan hayvonot dunyosi o'rtasidagi tafovutlarni farqlashda muhim omil bo'lib xizmat qllgan. Tabiiyki, insonning mehnat jarayoni o'ta rang-barangdir. Shu bois uning estetik mohiyatini bir xilda belgilab bo'lmaydi. Mehnat estetikasi inson ma'naviyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mehnat jarayoni insonning intilish, hatti-harakat, muayyan amallarni ado etish oqibatida yuz beradi. O'z mehnati muvaffaqiyatidan manfaatdor inson amallarni mukammal bajarishga intiladi. Mehnat jarayonida yuzaga keladigan estetik zavq uning teran, botiniy mohiyatini anglash, ijodkorlik, bunyodkorlik ruhi bilan bog'langan bo'ladi. Inson mehnat jarayonida o'zini ijodkor his etadi, mehnatining yaratuvchanlik ma'nosini anglab yetadi.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobatning mavjudligi moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchilardan har tomonlama keng ijodiy faoliyat ko'rsatish, sifatli mahsulotlar yaratish, iste'molchilarning badiiy-estetik didi va ehtiyojlariga mos tovarlar yetishtirishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. Shunday qilib, mehnat estetikasi insonga kuchli va ko'p-qirrali ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik ma'no-

mazmun baxsh etadi, ma'naviy kamol topishiga ko'maklashadi. Bunda ijod ustuvor, mukammallik qancha yuqori bo'lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma'naviy ta'sirchanligi kuchli bo'ladi.

Mehnat estetikasi amaliyoti insonning yaratuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaribgina qolmay, yaratilayotgan go'zallik uning qo'li bilan yaratilgani, uni ruhiy-estetik jihatdan rag'batlantiradi, o'ziga ishonch tuyg'usini orttiradi, yangi ijodiy faolikka undaydi. Mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan soha ergonomika mehnatni yengillashtiribgina qolmay, uning unumi, samarasini oshishiga ham yordam bera boshladi. Shuning bilan birgalikda insonga ulkan mas'uliyat ham yukladi. Negaki, yangi texnologiya inson tomonidan o'zlashtirilishi va foydalanishi uchun qulay, uning jismoniy, ma'naviy-ruhiy xususiyatlarini ham e'tiborga olishni talab etadi. Bu esa o'z o'rnida insonning jismoniy va ruhiy-ma'naviy imkoniyatlarini o'rganish va shunga muvofiq mehnat qurollari, mehnat sharoitini yaratishni o'z oldiga maqsad qilgan yangi ilm-ergonomikaning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Ergonomika 1949-yilda Angliyada paydo bo'lib mehnat qilayotgan odamning imkoniyatlari, ruhiyati, anatomiyasi, fiziologiyasiga asoslanib, mehnat sharoitiga qarab o'rganadi. Bugungi kunda ergonomika fan sifatida shakllanib maxsus oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. Shuningdek, turli konstruktorlik byurolari, ishlab chiqarish jarayoni kompleks tashkil etilgan sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ergonomika narsalar olamini yaratish jarayonida eng muhim falsafiy-axloqiy jihat – buyumga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish masalasiga e'tibor qaratadi. Predmetlar olami bilan iste'molchi o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatni ergonomika - muhandislik psixologiyasi bartaraf qiladi. Ergonomika yordamida dizayn mahsulotlari inson tabiatiga moslashtirildi. Bunda dizayner, nafosatshunos, loyihachi-konstruktor, texnik-muhandis, ruhshunos birlashishi talab etiladi.Jonli mehnat jarayoni murakkabroq tuzilma - ishlab chiqarishning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'zaro bir-birlari hamda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan muayyan ijtimoiy munosabatda bo'ladi. Tabiiyki, mahsulot tayyorlashda muayyan mehnat qurollari (mashina, dastgoh, aslaha va boshqalar),

shuningdek, ularni maqsadga muvofiq joylashtirish va o‘zaro ta’sirini ta’minlashdek murakkab vazifani ado etishga to‘g‘ri keladi. Bularning barchasi muayyan sur’atda kechadigan, o‘z funksiyasi, strukturasi, tashkiliy ko‘rinishiga ega bo‘lgan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Bu tuzilma yuksak darajada yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi va mukammalligi bilan estetik ifodaviylik kasb etadi. Yuksak darajada tashkillangan jarayon, uning muayyan sur’atda gavdalanish va kechish manzarasi kishilarga estetik ta’sir etadi, faoliyatga ijodiy munosabat uyg‘otuvchi emotsional ko‘tarinkilikni vujudga keltiradi. Texnika estetikasining amaliyoti dizayn va muhim tarkibiy qismi ergonomika hamkorlikda mehnat estetikasining vujudga kelishini ta’minlaydi.

Shuningdek, mehnatning estetik mohiyati u kechadigan ijtimoiy shart-sharoitlarga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaqin o‘tmishda kommunistik mafkura, ijtimoiy mulkchilik asoslariga bo‘y-sundirilgan mehnat shaxsda ijodiy erkinlik, qobiliyat, shaxsiy manfaatdorlikni so‘ndirar, uni ma’naviy kambag‘allashtirishga olib kelar, eng muhimi, o‘z mehnati natijalaridan “begonalashtirar”, boqimandalik kayfiyatlari shakllanishiga olib kelar edi. Mustaqillik mehnatning shaxsdan begonalashuviga chek qo‘ydi va uning ma’naviy-ijodiy kuchlari to‘la va har tomonlama namoyon bo‘lishiga real shart-sharoitlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar, ayniqsa, respublikamizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik sharoitida shaxsning yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanishiga, xususiy mulk dahlsizligining huquqiy kafolatlanishi, mulkchilik va tadbirkor-likning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi mehnat jarayonida insonning haqiqiy mohiyati namoyon bo‘lishiga yo‘l ochdi.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobat amal qilishi moddiy ne’mat ishlab chiqaruvchilardan har tomonlama keng ijodiy faoliyat ko‘rsatish, sifatli mahsulotlar yaratish, iste’molchilarning badiiy-estetik didi va ehtiyojlariga mos tovarlar yetishtirishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. Moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash va rivojlantirish shaxs, millat va jamiyat taraqqiyoti garovlaridan biridir. Mehnat jarayonlari va mahsulotlar tayyorlashga estetik me’yor hamda talablarni oshirdi, bu narsa zamonaviy texnologiyalar, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishda qo‘llashga katta e’tibor qaratdi, xususan, dizaynerlik faoliyati, ishlab

chiqarish va sanoat estetikasi eng jozibali hamda serdaromad sohaga aylandi. Albatta, har bir soha, yoki har bir mutaxassislikning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish va shu asosda ishlab chiqarish vositalarini loyihalash talab etiladi. Odam biron harakat va usullarni bajarishdagina charchamasdan, balki kishi e'tiborini chalg'itadigan shovqin-suron, hid va nurdan ham charchaydi. Shovqin-suron ko'zni toliqtiradi, rang esa kishi asabiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu omillarni e'tiborga olmaslik, uskunalarning estetik ko'rinishiga ham ziyon yetkazadi. Uskunani ishlatishning osonligi, boshqarish va sozlashning soddaligi, uskuna shaklining mutanosibligi mehnat vaqtida kishi kuch-quvvatini tejaydi va oqibatda sanoat mahsuloti sifati yaxshilanadi.

Texnika taraqqiyoti barcha turdagi kasb egalarining mehnat faoliyatini yengillashtirmoqda. Traktorchidan tortib, san'atkorgacha bugun zamonaviy texnologiyalardan o'z faoliyati jarayonida qo'llab bormoqda. Ammo ular bajaradigan ish mazmuni turlicha bo'lganidek texnologiyalar va ergonomika qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat zamonaviy texnologiyalarga bog'liq balki ish jarayonida axloqiy-estetik muhitni yaratishni ham taqozo etadi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi bilan korxonalar ta'mirlanib, modernizatsiya qilina boshlandi. Har bir zavod, fabrika yoki sexlarning ichki muhitidan tortib, ishchilarning ish kiyimi, ular uchun yaratilgan sharoit, mehnat qurollari, dam olish, tibbiy xizmatlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish texnika taraqqiyoti esa inson mehnatini yengillashtiribgina qolmay, zamonaviy texnologiyani o'zlashtirish va qo'llash mas'uliyatini ham yuklaydi. Ammo yuqori unum bilan ishlaydigan zamonaviy ishlab chiqarish uskunasining o'zigina korxonaning texnik-estetik darajasini belgilab berolmaydi. Bino, uskunalarning joylashtirilishi, bino ichidagi yorug'lik, undagi mo''tadil temperatura, bezalishi ham muhim o'rin tutadi. Yana shuni alohida ta'kidlsh lozimki, korxonalarda axloqiy-estetik muhit uyg'unligiga e'tibor kun sayin oshib bormoqda.

Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi avvalo obyektiv omil - ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta, bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, axloqi, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng yuqori va ilg'or texnologiya ham

did, mahorat, madaniyatga ega emas. Uni inson boshqaradi va inson didi, mahorati, madaniyati mehnat mahsulida o'z ifodasini topadi. Texnika taraqqiyoti ishchini og'ir jismoniy mehnatdan xalos etsada, lekin ruhiy-axloqiy mas'uliyatini kuchaytiradi. O'z o'rnida texnika taraqqiyotining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. A-1-85+(1-159) "Ta'limda menejment va marketingning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ishlab chiqish va milliy madaniyatni umuminsoniy madaniyat bilan uyg'unlashtirishga oid uslubiy qo'llanma tayyorlash" mavzusidagi grant doirasida bir qator oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomaga ko'ra "Zamonaviy texnika va texnologiyaning ijobiy jihatlari nimada? "degan savolga respondentlarning 57,48 foizi " Mehnat jarayoni yengillashadi", 55,51 foizi "Vaqt tejaladi", 46,30 foizi "Ish unumi oshadi", 18,42 foizi "Insonning dam olish imkoniyatlari kengayadi" degan javobni tanlashgan.

So'rovnomada yoshlar zamonaviy texnikaning mehnat faoliyatidagi ahamiyatini baholash bilan birga, uning salbiy jihatlarini ham ta'kidlab o'tishgan. Buni "Zamonaviy texnika va texnologiyaning salbiy tomonlari nimada?" – degan savolga tanlagan javoblari ham tasdiqlaydi. Respondentlarning 17,68 foizi "Mehnat jarayoni murakkablashadi", 35,69 foizi "Kishilar bir-birlariga befarq bo'lib qolishadi", 19,98 foizi "Milliy madaniyat tanazzulga yuz tutadi", 31,33 foizi "Inson texnika quliga aylanadi", 25,82 foizi "Ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi", 3,87 foizi "Bir madaniyatlilik shakllanadi" degan javobni tanlashgan. Demak, shundan ko'rinib turibdiki, ijobiy jihatlari: inson og'ir mehnatdan xalos bo'ladi, mehnat unumdorligi, ish haqi hayot farovonligi oshadi, bo'sh vaqt paydo bo'ladi, ma'naviy- jismoniy qobiliyatlarini taraqqiy etish imkoni paydo bo'ladi. Shu bilan birga salbiy jihatlari: diqqat talab qiladigan murakkab texnikani boshqarish jarayonida insonda ruhiy zo'riqishlar paydo qilishi, kasalliklar ko'payishi, ruhiy va jismoniy jihatdan me'yordan orta qolish, internet, mobil telefonda foydalanish oqibatida yangi kasailiklarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot insonga yangi ma'naviy talablar qo'ya boshlaydi. Jamiyatdagi asosiy ishlab chiqaruvchi texnika emas, chunki u inson tomonidan boshqariladi. Shunday ekan, bu talablar texnika emas insonga tegishli bo'lib quyidagilardan iborat:

1) inson hayotiy suratlarining oshishi natijasida tartib, mas'uliyat kabi fazilatlar ortadi;

2) jamiyatning turli sohalarda intensivlashtirish oqibatida kishilar o'rtasidagi axloqiy mexanizmlarni boshqarish murakkablashadi, konflikt va qarama-qarshiliklar kuchayadi;

3) ilmiy-texnik taraqqiyot xizmatchilar kasbiy, mutaxassislik tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yadi, yangi texnikalarni boshqarish, xizmatchilarning o'z-o'zini idora qilishi, irodaviy qobiliyatlarini kuchaytirish;

4) inson faoliyat sohalari murakkablashuvi natijasida ularning faoliyatida axloqiy javobgarlik ortib boradi;

5) xizmatchilarning ijodiy faoliyatini oshishi talab etiladi, ushbu faoliyatni takomillashtirish esa aqliy va ruhiy zo'riqishlarni kuchaytiradi.

Bu ijtimoiy munosabatlar jarayonida, mehnat jarayonida, ma'naviy hayotda, iste'mol sohasida ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri kuchayadi. Shunday qilib, mehnat insonga kuchli va ko'p-qirrali ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik ma'no-mazmun baxsh etadi, ma'naviy kamol topishiga ko'maklashadi. Bunda ijod ustuvorligi qancha yuqori bo'lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma'naviy ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Hozirda mehnatning estetik mazmun-mohiyatiga munosabat o'zgardi: davlatimizning siyosatida "Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi" etib belgilandi.

"Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri

Bugungi kunda ma'naviy olamni yuksaltirish, milliy-umuminsoniy estetik qadriyatlarni qaror toptirish va estetik tarbiyani mustahkamlash dolzarbmasala bo'lib qolmoqda. Bu ayniqsa, hozirgi murakkab va taxlikali zamonda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil hurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tarbiyaning oliy shakli bo'lmish estetik tarbiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ana shunday ta'sirning zamonaviy ko'rinishlaridan biri - "ommaviy madaniyat"dir.

"Ommaviy madaniyat"ning inson estetik tafakkuriga, jamiyatdagi estetik qadriyatlarga hamda shaxs estetik kamolotiga salbiy ta'siri ko'plab vosita, omil va yo'nalishlarga ega. Bular orasida eng ta'sirchani va keng qamrovlisi – Internet va ijtimoiy tarmoqlardir.

Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, past saviyali "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishiga qarshi kurashish, yoshlarni internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan ilg'or zararli ma'lumotlardan himoya qilish avvalo, Internet-klublar faoliyatiga talablarni oshirishni talab etadi. Sababi Internet aloqaning bir muncha tez taraqqiy etgan vositasi, shu bilan birgalikda axborot tarqatishning ham eng tezkor mexanizmi hisoblanadi. Bugungi kunda axborot texnologiyasi va Internetning yaqinlashuvi dunyoni industrlashtirish inqilobi kabi o'zgartirib yubordi. Tahlillarga ko'ra, 50 millionli auditoriyani radio 38 yilda, televideniye 13 yilda, internet esa bor-yo'g'i 4 yilda egallab olishini inobatga olsak, internetning yoshlar estetik dunyoqarashiga ta'siri va o'zgartirish tezligini tasavvur qilish qiyin emas. Bugungi kunga kelib esa internetdan foydalanayotganlar 1,5 mlrddan oshib ketdi. Agar hozirda internetga uyali aloqa vositalari orqali bog'lanish yo'lga qo'yilganligini inobatga olsak, mazkur raqam bir necha barobar oshishi mumkin. Demakki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi hozirgi paytda ma'naviy va moddiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini hatto tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgarishiga olib kelayotganligini inkor etib bo'lmaydi.

XXI asrda "ommaviy madaniyat" zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish, liberallashish, demokratlashish niqoblari ostida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar bu niqoblar ostidagi salbiy xolatlar va ular shakllantirishi mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglashlari kerak. Birgina "ommaviy madaniyat" hodisasi eng avvalo, milliy nafosatga zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan xatarli ekanligini to'g'ri tushunish uchun ham estetik bilim zarur. Bunday havf-xatarga qarshi qat'iy tura oladigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning estetik ko'rinishini uyg'un holda olib borish maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, estetika niqobi ostida turli xil ko'rinishdagi "sog'lom turmush tarzi targ'ibotchilari", "ko'ngilochar" va "musaffo tuyg'u" baxsh etuvchi saytlar talaygina. Eng dahshatlisi keyingi paytlarda internet tarmog'ida vampirizm estetikasi va uning targ'iboti bilan bog'liq saytlarning ko'payib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Chunki, go'zallikdan zavqlanishning bu taqlid ko'rinishlari ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning estetik didini, dunyoqarashini yot g'oyalar bilan "boyitadi". Bunday tahdidlarga qarshi go'zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqimizning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish bilan bog'liq tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltirilgan tadbirlar yordamida kurashish maqsadga muvofiqdir. Zero "Tarbiyaning estetik shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etar ekan, u o'z navbatida kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan qiziqish tuyg'usini uyg'otishni o'zining maqsadi deb biladi.

Sport – estetik tarbiyaning muhim omili

Sport estetika va nafosat falsafasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o'rganishi barobarida sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o'rnini, sport bilan san'atning o'zaro aloqadorligini tadqiq etadi. U umummadaniyatning tarkibi qismi sifatida inson jismoniy kamolotining ma'naviy-estetik jihatlarini tahlildan o'tkazadi. Ko'rinib turibdiki, sport nafaqat baxs, kurash, musobaqalardan iborat, balki ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallagan va inson sog'lom turmush tarziga singib ketgan estetik sohadir. Misol uchun, Sharq yakka kurash usullaridan biri "Karate-do" bilan shug'ullanuvchi insonlar nafaqat zarba berish mahoratini, o'zini himoya qilish san'atini, buyumlarni parchalashni o'rganish, jangovar uslub va strategiyasini o'zlashtirib qolmay, olam va odamda bo'lgan barcha mutanosibliklarning o'zaro bog'liqligi va tabiat bilan estetik uyg'unligini idrok etgan holda ongli tarzda o'z hayot tarzini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini tashkil etish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa mazkur jarayonning

ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash imkoniyatini yaratdi. Shu bois mamlakatimizda sportga bo'lgan e'tibor nihoyatda jiddiy va sport hamda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanayotganlarning soni ham ortib bormoqda. Sport inson salomatligini ta'minlaydigan harakatlar yig'indisi hisoblanadi. Biroq sog'lom turmush tarzi faqat sport orqali shakllanib qolmaydi, u insonni estetik jihatdan tarbiyalashni ham taqozo etadi. Chunki, inson ham jismoniy ham ma'naviy-ruxiy tarbiyaga muhtoj. Zero, bu borada "Sog' tanda - sog'lom aql" tamoyili bejiz amal qilmaydi.

Ma'lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda "o'zi uchun" shug'ullanadigan, ommaviylik tabiatiga ega mashqllar yoki mashq majmualaridan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo'lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko'rgan odamlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o'z ichiga oladi. Sport va jismoniy tarbiya o'rtasidagi estetik farqni faylasuf olim Abdulla Sher jismoniy tarbiya qay ko'rinishda bo'lmasin, (yakka yoki jamoaviy), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan hohlaganini tanlash imkonini beradi, deb aytadi. Sportda musobaqa birinchi o'rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sport ma'lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya'ni sportda ijodiy yondashuv ta'qiqlanmaydi, balki qo'llab-quvvatlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, sport estetikasidagi eng muhim muammo, bu uning san'at bilan o'xshashligida. Shundan kelib chiqib, klassik sport turlarini o'ziga xos san'at sifatida talqin qilish mumkin. Bu borada Rene Mehyu, Morin Kovich, Benjamin Lou singari g'arb olimlari va ko'plab mashhur sportchilar sportni san'at sifatida qabul qilish mumkin degan fikrni o'rtaga tashlaydilar. Sport va jismoniy mashqlardagi qonun-qoidalar yoshlarni hayotda o'zining mustahkam egallashlarida muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalar mohiyatan axloqiy va estetik mazmun kasb etadi. Zero sport raqibga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ustoz va murabbiyga bo'lgan e'tiqod mustahkamligi, hakamlar va tomoshabinlarga chuqur hurmat

ko‘rsatish, chidamlilik, g‘alabaga bo‘lgan ishtiyoq, halollik kabi axloqiy qadriyatlarni ulug‘lashga va egallashga xizmat qilsa, ayni paytda go‘zal hatti-harakatlarni namoyon ettirish, insonga estetik zavq bag‘ishlash, hatto sport anjomlariga estetik munosabat orqali didni tarbiyalash ishlarini amalga oshiradi.

Sport musobaqalari va jismoniy harakatlardagi zavqni estetik tahlil etish sport estetikasining muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi paytda sport jahon bo‘ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa, buni O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Bizda mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish odat tusiga kirdi, o‘zbek kurashi esa umumbashariy sport turi maqomini oldi.

Bugungi kunda sport estetikasi sog‘lom turmush tarzimizning bir qismiga aylanib borayotganligini ijobiy xolatdir. Hoh sport, hoh jismoniy tarbiya bo‘lsin sog‘lom turmush tarzini bu ikki omillarsiz shakllantirib bo‘lmaydi. Shunday ekan, sog‘lom turmush tarzini sport estetikasisiz tasavvur etish mumkin emas.

Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e’tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog‘lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir.

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy madaniy merosini qayta tiklash, yuksak ma’naviyat, milliy o‘ziga xoslik va xalq an’analarining mavjud ko‘p asrlik sarchashmalarini butun choralar bilan rivojlantirish, jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va har tomonlama barkamol shaxslar jamiyatini barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to‘la qondirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha tizimli va aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nufuzli xalqaro musobaqalarda O‘zbekiston sharafini munosib himoya qilish va yuksak marralarni zabt etishga qodir mahoratli sportchilar tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Biroq, sport-sog‘lomlashtirish muassasalari, obektlari va inshootlarining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bilan bog‘li muammolarni bartaraf

etish dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada O‘zbekiston xalqining boy va o‘ziga xos madaniyati, san’ati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni ta’minlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida ma’naviy-axloqiy kamolot va sog‘lom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni e’lon qilindi. Farmonda aholining keng qatlamlari o‘rtasida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni tashkillashtirish, jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish, sport tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar, ayniqsa, qizlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, bolalar sport ta’limi sifatini oshirish orqali barcha hududlarda bolalar sport obektlari tarmog‘ini yanada kengaytirish, shu asosda bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularning barqaror jismoniy rivoj-lanishini ta’minlash kabi masalalar asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari qilib belgilangan:

Inson kamolotida did – fahm – farosat uyg‘unligi

Odatda, farosat tushunchasi estetik baho bilan belgilanadi. u ranjish, nomunosib holat, ko‘ngilga xush yoqmagan ishlar qilganda munosabat bildiramiz. Shuning uchun bo‘lsa kerak, kamdan kam hollarda “farosatli kishi, farosati bor, farosatli” degan so‘zlarni ishlatamiz. Biroq. did, fahm, farosat kabi tushunchalar aynan estetika ilmiga tegishli bo‘lib, fahm - haqiqatga, farosat – ezgulikka, did – go‘zallikka munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Har uchchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Shu ma’noda fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did va farosat murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg‘unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, didsizlik va farosatsizlik insonning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga monelik qiladi. Zero, har qanday chiroyli ko'ringan, istarali bo'lishga intilgan, muomalali inson har doim ham go'zal ishlarni qilavermasligini fahm, farosat, did yordamida ajratib olishimizga to'g'ri keladi. Inson ma'naviyatining yuksalishi uning fazllati bilan bog'liq ekan, bu jarayon albatta, estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi.

Farosat ilmi kishining ichki dunyosi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilmlar sirasiga kiradi. O'tmishda farosat ilmi nozik va nazokatli ilm sifatida o'rganilgan. Chunonchi, olmon mumtoz falsafasining vakili Immanuil Kant bu ilmga "botiniy olamni o'rganuvchi ilm" deb ta'rif bergan edi. Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy "Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi" - degan hikmati esa mohiyatan farosat bilan masalasiga dahldor. Bundan tashqari, o'rta asrlar Musulmon Sharqi allomalaridan al-Kindiy farosatning hikmati, fazilati va ahamiyatiga doir "Risolai fil farosa" (X asr) deb nomlangan maxsus asar yozgan bo'lsa, Husayn Voiz Koshifiy o'zining mashhur "Axloqi muxsiniy" asarining 34-bobini "Farosat bayoni"ga bag'ishladi. Shuningdek, turkiy tilda Uzun Firdavsiy (XVI asr)ning "Farosatnoma" asari ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Manbalarda hakimlardan biri tomonidan taqdim etilgan farosat to'g'risidagi kitobni shoh Anushirvon har doim o'zi bilan olib yurgani va hamisha u kitobni mutolaa qilib, uning mazmuni bo'yicha hukm chiqarganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Estetika ilmida farosat did tushunchasining tarkibiy qismi sanaladi. Farosat o'ziga xos estetik tushuncha sifatida mohiyati aqlga borib taqaladi. Odatda, yomg'ir yog'ayotganini ko'ra-bilib turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yo'lga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini yechmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosatsiz deb ataymiz. Shunga ko'ra, fahm - aqliy, farosat - axloqiy, did - estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy-tug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun Sharq allomalari tarbiya jarayonida farosatning zarurligi masalasiga jiddiy e'tibor qaratganlar.

Chunonchi, Sharqning buyuk voizi, notiqlik san'ati nazariyotchisi Husayn Voiz Koshifiy "farosat" so'zining lug'aviy ma'nosiga "biror narsaning yaxshi va yomon xususiyatini ko'rib aniqlashdir. Istilohiy ma'nosi esa umumiy bo'lib, joning su'ratidagi zohir holini mushohada qilib, uning ichki mohiyatidan ogoh bo'lishdir", - deya ta'rif beradi. U hatto farosat hukumat ishlari orasidagi ulug' shartlardan biri ekanligini e'tirof qilib, biror bir voqea haspo'shlanganda, asl mohiyati pinhon tutilganda va adolat mezoni buzilganligi yashirilsa qonun himoyachisi bu hodisani farosat nuri bilan topib, da'vogarlar so'zlariga e'timod qilmasligini uqtiradi.

Alloma talqinida farosatning ahamiyati bir jihatdan ulug'larning "Hukumat ziynati farosat zevari bilan go'zaldir" degan qoidasiga asoslanadi. Ikkinchi jihatida esa "Har bir narsa farosat ahlidan yashirin emas, farosat Haq Taoloning mo'min bandaga bergan nuri" degan tamoyil ustuvor. Bu tamoyilning mohiyatini esa payg'ambarimiz (s.a.v)ning "Qo'rqinglar mo'min farosatidan, u Xudo nuri bilan qarab har narsaning zamiriga yeta oladi", - degan hadis asoslaydi.

Koshifiy farosatni ikki qismga ajratadi. Birinchisi - shar'iy farosat bo'lib, unda pok va sof ko'ngilli kishining ko'zidan ko'tarilib, farosat nuri bilan haqiqatni anglab yetadi. Ikkinchichi - hukmiy farosat bo'lib, donishmanlar uni tajriba bilan topadilar va dalillarini kishining shakli va shamoyilidan mushohada qilib, aniqlaydilar. Odatda, aksariyat holllarda bu usul kishi haqida to'g'ri ma'lumotni bergan. Alloma har ikkala farosatga shoh Anushiravon va Aflotun hakim hayoti bilan bog'liq talaygina misollarni keltiradi ... Alloma inson aksar ish binosini farosat dalillariga qo'yish kerak va o'zining pok zehni, tafakkuri, mulohazasiga ham murojaat qilishi lozim. Chunki, tashqi ko'rinishlarida yomonlik nishonasi bor toifa ichidagi kishilar Haqdan fayzu ilhom topib, o'z ahvolini o'zgartirganlaridan voqif va ogoh bo'lishga harakat qilish zarurligini uqtiradi:

Farosatdan ko'ngilga ko'z ochilg'ay,
Hamma holatni ul ma'lum qilg'ay.

Ma'lumki, so'z sermazmun bo'lib, u ko'p narsalarga dalolat qiladi. Bir so'zning o'zini turli holatlarda, turlicha ma'noda qo'llash mumkin. Binobarin, so'zni to'g'ri tushunish va to'g'ri ishlatish, uning ma'nolarini iloji boricha mukammal bilish uchun ham kishidan farosat talab etiladi. Bu borada "Allomalar ibrati" (Toshkent, 1982) nomli kitobda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning yuksak farosati bilan bog'liq qiziq rivoyat keltirish mumkin. Uning mazmuni quyidagicha: bir kuni yasovulboshi bir yigit va bir qizni Umarshayx Mirzoning kabutarlarini o'ziga o'rgatib olmoqchi bo'lganlikda ayblab, ularni jazolash maqsadida shohning huzuriga keltiradi. Shoh voqeani eshitib, yasovulga "Unday bo'lsa alar boshini olib ..." deyishi bilan birdan yo'tal tutib qoladi. Yasovulboshi har ikkisini boshini kundagi qo'yayotgan paytda shohning suyukli farzandi Bobur Mirzo yasovulboshiga qarab, "Otam ularning boshini oling demadilar. Oliy hazrat alarni bu yurtdan bosh olib chiqib ketsin, deb buyurmoqchi edilar" - deydi. Yasovulboshi qatlni to'xtatib shohning huzuriga boradi va unga Bobur Mirzoning gaplarini aytadi. Shunda Umarshayx saroy ahli oldida o'rnimga podshoh bo'ladi, deb yurgan farzandining so'zini ikkita qilib qo'ymaslikni o'ylab: "Mirzo haq gapni aytibdur. Men alarni boshini oling demoqni hayolimga ham keltirgan emasman" deydi. ... Bobur Mirzoning marhamati tufayli ikkita yosh jallod kundasidan omon qoladi. Bu rivoyatning mazmuni ayni paytda Umarshayx Mirzoni ham Bobur Mirzoni ham yuksak farosatli kishilar bo'lganligini ifodalaydi.

Sharq allomalaridan Burhoniddin az-Zarnujiy (XII asr)ning "Ta'lim al-mutaallim – Ilm oluvchiga ta'lim-tarbiya" asarida "Shijoat – bir lahza sabr", degan hikmatni uchratamiz. Sabr, qanoat esa farosatni yuksaltiruvchi axloq me'yorlaridir. Ayniqsa, ilm istovchining farosati aynan shunga. Chunonchi, tolibi ilm uchun keragi shulki, deydi alloma, - bir ustozga sabot ila sabr aylasin. Biror kitobga ham, hatto uni (mutolaa qilishda, undan dars olishda) noqis (chala) tark qilmasin. Biror fanga ham, hatto birinchisini mustahkam qilishdan avval boshqa fan ila mashg'ul bo'lib ketmasin. Sherik ihtiyor qilish va uni tanlashda esa harakatchan, parhezkor, to'g'ri ta'b sohibi va fahm-farosatlisini ixtiyor qilishi darkor. Dangasa, bekorchi, ko'p gapiruvchi, fisqu fasodga berilgan fitnachi (sherik)dan qochsin.

Alloma ilm tolibining farosati o‘z ustoziga bo‘lgan munosabatida ham namoyon bo‘lishini uqtiradi. Tolibning farosati ustozga ulug‘lik keltiradi, deydi: “Muallimni ulug‘lashning jumlasidan biri uning oldiga tushib yurmagay, uning o‘rnida o‘tirmagay. Muallim oldida faqat uning izni ila gap boshlagay... Kimningki ustozi undan ozor topsa, ilmning barakasidan mahrum qoladi, ilmida ozginagina foyda topadi.” Beruniy nafosat va nafis didni, adabiyot va she’riyatni insonlarning talabi vujudga keltiradi, deb ta’riflagan edi. Uning ta’kidlashicha, madaniylashgan kishilar ichidan chiqqan nozik (tabiatli) odamlar ko‘ngil ochar, shodlik bag‘ishlaydigan joylarga borib turishni odat qiladilar, bunday joylarga faqat nozik tabiatli kishilargagina emas, boshqa musiqaga tashna bo‘lgan kishilar ham ohanglar tinglash uchun boradilar.

Ohanglar esa tartibga tushirilgan, bo‘lgandagina qalbga kuchli ta’sir etadi. Chunki, ruh tartibga tushirilgan narsani qabul qiladi va shuning uchun ham u she’rga ko‘proq intiladi negaki she’r nizomli (tartibli)dir. Muhimi shundaki, Beruniy san’atning paydo bo‘lishini insoniyat jamiyatining madaniylashuvi bilan bog‘laydi. Odamlarning madaniy darajasi oshib, badiiy nafosat tafakkuri o‘sa borishi bilan san’atga ehtiyoj kuchaygan. San’at shodlik, quvonch manbai, u insonlarga orom beradigan, ruhini ko‘taradigan vosita sifatida paydo bo‘lganini ta’kidlaydi. Umuman olganda, hozirda biz yashayotgan davr kishisining faoliyati farosatga ehtiyoj sezmoqda. Farosat endilikda ijtimoiy-ma’naviy hayotning zaruriyatiga aylanib ulgurdi. G‘oyaviy tahdidga qarshi kurash ma’naviy jihatdan mustahkam bo‘lgan estetik tayyorgarlikni taqazo etadi. Birgina farosat va uning fazilatini anglash, amal qilish barcha tahdidlarning mazmun-mohiyatini tushunish imkonini beradi. Shu bois har davrda farosat tarbiyasiga nozik va nazokatli ilm sifatida munosabat bildirilgan.

Tayanch tushunchalar:

Tarbiya, estetik bilim, estetik ta’lim, estetik tarbiya, estetik tarbiya vositalari, san’at, mehnat, turmush estetikasi, inson kamoloti, did, fahm, farosat, “ommaviy madaniyat”, sport estetikasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyadan farqi nimada?
2. Nima uchun tarbiya estetik bilimni taqozo etadi?
3. San'at – estetik tarbiyaning eng asosiy vositasi ekanligini isbotlang?
4. Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini tushuntiring.
5. Mehnatning estetik xususiyati qaysi sohada ko'proqko'zga tashlanadi?
6. Nima uchun did inson komolotida muhim o'rin tutadi?
7. Fahm bllan farosat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.
8. "Ommaviy madaniyat" ning g'ayriestetik ta'sirini hayotiy misollar bilan asoslab bering.

Testlar

1. "Insonning nafosat tarbiyasi to'g'risida maktublar" asari qaysi nafosatshunos tomonidan yozilgan?

a) Shiller;
b) Aflotun;
v) Seneka;
g) D. Lessing;

2. Estetik tarbiyaning bosh maqsadi?

a) Axloqiy kamolotning asoslarini qaror toptirish va shaxsni tarbiyalashdan iborat;
b) Go'zallik va ulug'vorlik tushunchalarining shaxs kamolotidagi o'rnini belgilab berishdan iborat;
v) shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning estetik didi va estetik dunyoqarashini boyitishdan iborat;
g) Insonning estetik dunyoqarashini boyitish, voqelikka estetik munosabatini kamol toptirishdan iborat;

3. Estetik tarbiyaga tahdidning ko'rinishlaridan biri ...

a) Inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish;
b) Insonning xatti-harakatlarini kuzatish;
v) Insonning xotirasiga ta'sir ko'rsatish;

g) Insonning sezgilariga ta'sir ko'rsatish;

4. Estetik tarbiyaning asosiy vositasi?
a) San'at;
b) Til;
v) Nutq;
g) Yozuv;

DARSLIKKA OID QO‘SHIMCHA TESTLAR

FALSAFA ASOSLARI

1. «Falsafa» atamasini birinchi bo‘lib qaysi faylasuf o‘z asarida qo‘llagan?

A. Aristotel
B. Pifagor*
V. Suqrot
G. Platon

2. Arxeolog olimlarning fikriga ko‘ra tik oyoqda yuruvchi “homo sapiens” odam taxminan necha million yil oldin vujudga kelgan?

A. 4, 5 mln avval
B. 3,5 mln avval
V. 1,5 mln avval*
G. 2, 5 mln yil avval

3. Dunyoqarashning tuzilishi qanday?

A. Dunyoni sezish Dunyoni idrok etish, Dunyoni tushunish*
B. Diniy e’tiqod
V. mifologiya
G. fan

4. Dunyoni sezish bu?

A. Bu o‘zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish*
B. Faqat obyektlarni anglash
V. Inson o‘zini tushunish
G. Aql yordamida tushunish

6. Mif atamasi qanday ma’nolarni anglatadi?

A. O‘yin, san’at
B. San’at, voqyea
V. Rivoyat, afsona*
G. Afsona, urush

7. Monoteizm bu?
A. Ko‘p xudolik
B. Yakka xudolik*
V. Xudosizlik
G. Ruhlarga sig‘inish

8. Dunyoqarashning qaysi shakllari e’tiqod va tuyg‘ularga tayangan?
A. Falsafiy dunyoqarash
B. Mifologik va diniy dunyoqarash*
V. Ilmiy dunyoqarash
G. Kundalik dunyoqarash

9. Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?
A. E’tiqodda
B. Tuyg‘ularda
V. Aql va bilimlarda*
G. Sezgilarda

10. Falsafaning predmeti bu?
A. Olamning yaxlit birligi*
B. Borliq
V. Inson
G. Fan

11. Pratogor, Suqrot, va Platon aytganidek falsafa bu - ... ?
A. Ishontirish emas, to‘g‘ri fikrlash san’atidir*
B. Falsafa olamni bilish
V. Umumiylikni o‘rganuvchi fan
G. Ishontirish o‘rgatuvchi fan

12. “Umumiy nisbiylik nazariyasi” ta’limotning asoschisi kim?
A. Eynshteyn*
B. I.Nyuton
V. N.Bor

G. R.Ernest

13. «Ontologiya» atamasi qaysi so‘zdan olingan?
A. Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta'limot. *
B. Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta'limot.
V. Arabchadan olingan
G. To‘g‘ri javob yo‘q.

14. «Hamma narsa yer va suvdan vujudga keladi va rivojlanadi, hatto «biz ham yer va suvdan paydo bo‘lganmiz»» kimning fikri?
A. Ksenofan
B. Anaksimandr
V. Fales*
G. Pifagor

15. «Hamma narsa sondir» kimning fikri?
A. Pifagor*
B. Fales
V. Anaksimandr
G. Ksenofan

16. Faylasuflar orasida birinchi bo‘lib, borliqni kategoriya sifatida kim tavsifladi?
A. Parmenid*
B. Anaksimandr
V. Fales
G. Pifagor

17. Borliqni tushunishga nisbatan dialektik yondoshuvni ilk bor kim ilgari surdi?
A. Geraklit*
B. B. Fales
V. Anaksimandr
G. Ksenofan

18. Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin» ning o'zaro nisbatiga murojaat qiladi?

A. Forobiy*

B. Al - Xorazmiy

V. At – Termiziy

G. To'g'ri javob yo'q.

19. «Substansiya» - bu nima?

A. Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud moddiy asos.*

B. Mutloq «Men» ning erkin, sof faoliyati.

V. Obyektiv rivojlanuvchi g'oya.

G. To'g'ri javob yo'q.

20. Falsafada borliq va yo'qlik o'rtasidagi o'zaro aloqa qanday?

A. Dialektik*

B. Ziddiyatli

V. Chambarchas

G. To'g'ri javob yo'q.

21. O'z – o'zini to'liq belgilovchi borliqni xizmat qiladigan tushuncha?

A) Substansiya *

B) Materiya

V) Realllk

G) Dalll

22. Birinchi asos sifatida ikkita substansiya olingan falsafiy yondashuv nima deb ataladi?

A) Dualizm*

A) Totemizm

V) Fetishizm

G) Deizm

23. Falsafa tarixida dualizmning yorqin vakili sifatida o‘rin olgan faylasuf kim?

A) R. Dekart *
B) Gegel
V) Shelling
G) Spinoza

24. Dunyoning negizida ikkita emas balki undan ko‘proq mohiyat borligini tan oluvchi ta’limot?

A) Plyuralizm *
B) Dualizm
V) Deizm
G) Monizm

25. Nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi nechinchi asrda yaratilgan?

A) XX asrda *
B) XXI asrda
V) XI asrda
G) XII asrda

26. “Men fikrlayapman demak, demak men mavjudman” iborasi muallifi kim?

A) Dekart *
B) Spinoza
V) Kant
G) F. Nitsshe

27. Falsafada turli jismlarning makonda mexanik siljishi, tabliy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o‘zgarishi nima deyiladi?

A) Harakat*
B) nisbiylik
V) Zamon
G) To‘g‘ri javob yo‘q.

28. Ibtidoiy odamning mehnat shakllari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Termachilik, ovchilik, baliqchilik , chorvachilik*

B) Chorvachilik, ovchilik temirchi

V) Dehqonchilik, termachilik, hunarmand

G) Ziroatchilik, chorvachilik, magazinchi

29. «Geosiyosat» atamasini kim va qachon birinchi bo‘lib ishlatgan?

A) 1916 yilda R.Chellen*

B) 1925 yllda D.Yum

V) 1945 yilda Dj.Berkli

G) 1918 yilda I.Kant

30. «Noosfera» atamasi ilk bor kim tomonidan ishlatila boshlandi?

A) E.Lerua va P.Teyyar de Sharden*

B) D.Yum va Dj. Berkli

V) V.I.Vernadskiy va Sh.L.Monteske

G) R.Chellen va E.Gekkel

31. “Yoki-yoki” formulasi tafakkurning qaysi qonunini ifodaydi?

A) ayniyat qonunini

*B) ziddiyatsizlik (nozidlik) qonunini

V) uchinchisi mustasno (istisno) qonunini

G) yetarli asos qonunini

32. Tushunchada nima aks etadi?

A) faqat predmetning umumiy belgilari

B) faqat predmetning individual belgilari

*V) predmetning umumiy va muhim belgilari

G) predmetning barcha belgilari

33. Tushunchaning mazmunini nimalar tashkil etadi?

*A) predmetning muhim va umumiy belgilari haqidagi axborotlar

B) predmetning muhim va nomuhim belgilari haqidagi axborotlar

V) predmetning mavjud belgilari haqidagi axborotlar

G) faqat predmetning bevosita namoyon bo‘lgan belgilari haqidagi axborotlar

34. Quyidagilarning qaysi biri mavhum tushuncha?

*A) go‘zallik

B) qit’a

V) adabiy janr

G) Quyosh sistemasi

35. Quyidagilardan qaysi biri bo‘sh hajmli tushuncha hisoblanadi?

*A) ucbar gilam

B) ideal gaz

V) real mavjud bo‘lgan predmet

G) abstrakt tushuncha

36. Bo‘lish teng hajmli bo‘lmaganda qanday hatolarga yo‘l qo‘yiladi?

A) bo‘lish to‘liqsiz bo‘ladi

B) bo‘lish ortiqcha bo‘ladi

*V) A va V xollari vujudga keladi

G) to‘g‘ri javob yo‘q

37. Klassifikatsiya oddiy bo‘lishdan nimasi bilan farq qiladi?

A) bitta umumiy asosga ega bo‘lishi bilan

*B) bo‘lish a'zolaridan har birining boshqalarga nisbatan qat'iy o‘ringa ega bo‘lishi bilan

V) muhim belgi bo‘yicha amalga oshirilishi bilan

G) ko‘p asoslarga ega bo‘lishi bilan

38. Deduktiv xulosa chiqarishda xulosa asoslardan zaruriy tarzda kelib chiqadimi?

*A) kelib chiqadi

B) kelib chiqmaydi
S) ba'zida kelib chiqadi
D) to'g'ri javob yo'q

39. Xulosa chiqarishda asoslar soni qancha bo'lishi kerak?
*A) 1ta va undan ortiq
B) faqat 1ta
S) faqat 2 ta
D) 2 ta va undan ortiq

40. Xulosa chiqarishning qanday turlarida xulosaning chinligi ehtimoliy xarakterga ega?
A) deduktiv xulosa chiqarishda
B) induktiv xulosa chiqarishda
S) analogiyada
*G) B va S hollarda

41. Asoslar miqdoriga ko'ra xulosa chiqarishning qanday turlari mavjud?
A) zaruriy xulosa chiqarish
B) ehtimoliy xulosa chiqarish
S) bevosita yoki bilvosita xulosa chiqarish
*D) A, B, S. Holatlari

42. Induktiv xulosa chiqarish nimaga asoslanadi?
A) faqat kuzatish natijalariga
B) faqat umumlashtirishga
V) faqat eksperiment natijalarga
*G) A,B,V holarning barchasiga

43. Induktiv yo'l bilan sababiy aloqadorlikni aniqlab bo'ladimi?
A) bo'ladi
B) bo'lmaydi
*V) ba'zan bo'ladi
G) to'g'ri javob yo'q

44. To‘liq induksiyada berilgan sinfga mansub predmetlarning barchasini o‘rganish...

*A) zarur

B) zarur emas

V) ba’zida zarur

G) to‘g‘ri javob yo‘q

45. Analogiyada fikr qanday yo‘nalishda harakat qiladi?

a) umumiydan juz’iyga

v) juz’iydan umumiyga

*s) juz’iydan juz’iyga

d) savol noto‘g‘ri qo‘yilgan

3-Mavzuga oid testlar

1. Bahs jarayonida boror mulohaza (tezisni)ni rad etayotgan shaxs ... deb nomlanadi.

A. Proponent.

*B.Opponent.

V Referent.

G. Agent.

2. Biron-bir mulohaza yolg‘onligining to‘liq asoslanishi qanday nomlanadi?

A. Isbotlash.

*B. Rad etish

V. Tasdiqlash.

G. Tanqid.

3. Mantiqda argumentlashsiz qat’iy ilmiy, mustahkam e’tiqodni shakllantirsa bo‘ladimi?

A) bo‘ladi

*B) bo‘lmaydi

V) ba’zida bo‘ladi

G) to‘g‘ri javob yo‘q

4. Isbotlashning maqsadi nima?
A) tezisning xatoligini ko‘rsatish
*B) tezisning chinligini aniqlash
V) aniq javob berib bo‘lmaydi
G) to‘g‘ri javob yo‘q

5. Isbotlash usuli – bu:
A) tushuncha xosil qilish
B) mulohazani tuzish
*V) xulosa chiqarish
G) nazariya qurish

6. Isbotlashda qanday mulohaza tezis deb ataladi?
*A. Chin yoki yolg‘onligi isbotlanayotgan mulohaza.
B. Ilgari surilgan fikrni isbotlash uchun keltirilgan mulohazalar.
V. Fikr yuritish jarayonida kiritilgan va yakuniy xulosaga kelishda olib tashlanadigan yordamchi mulohaza.
G. Chinligi asoslanishi talab qilingan mulohazaga zid bo‘lgan mulohaza.

7. Isbotlashda qanday mulohaza argument deb ataladi?
A. Chin yoki yolg‘onligi isbotlanayotgan mulohaza.
*B. Ilgari surilgan fikrni isbotlash uchun keltirilgan mulohazalar.
V. Fikr yuritish jarayonida kiritilgan va yakuniy xulosaga kelishda olib tashlanadigan oraliq faraz mulohaza.
G. Chinligi asoslanishi talab qilingan mulohazaga zid bo‘lgan mulohaza.

8. Isbotlash usuli (demonstratsiya) nima?
A. Ashyoviy dalillash.
B. Oraliq faraz mulohazalar to‘plami.
V. Argumentlar to‘plami.
*G. Isbotlash shakli.

9. To‘g‘ri isbotlash qanday bo‘ladi?
*A. Bevosita faktlarga asoslanib isbotlash.

B. Analitik chin mulohazalarni isbotlash. Bunda deskriptiv yoki mantiqiy terminlarning ta'rifidagi ma'lumotning ma'lum bir qismi ajratib olinadi.

V. Deduktiv xulosa chiqarish bo'ladi. Bunda tezis bevosita argumentlardan keltirib chiqariladigan xulosa bo'ladi.

G. Oraliq faraz mulohazalar qo'llaniladigan isbotlash.

10. Muammo nima?

A) har qanday savol

*B) yechish usuli noma'lum bo'lgan savol

V) yechish usuli ma'lum bo'lgan savol

G) gipoteza

11. Gipoteza nima?

*A) o'rganilayotgan xodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

B) o'rganilayotgan xodisani tushuntiradigan faraz.

V) har qanday taxminiy bilim

G) hamma javoblar to'g'ri

12. Nazariya nima?

A) ilmiy faktlarni to'plab, umumlashtiradigan bilim shakli

B) bilishda muhim vazifalarni bajaruvchi mantiqiy shakl

*V) ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan ishonchli bilim

G) o'rganilayotgan xodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan bilim shakli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida. -T.: O'FMJ, 2006.

2. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: «Sharq», 2005.

3. Shermuxamedova H.A. Falsafa. -T.: «Noshir», 2012. -1207 b.

4. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi. -T.: «Noshir», 2009.

5. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.

6. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi. -T.: «Noshir», 2013, 720 6

7. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. -T.: «Noshir», 2017. 460-6.

8. Izzetova E., Po'latova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-6

9. Sharipov M. Fayzixo'jayeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.

10. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Uslubiy qo'llanma. – T.: «O'zbekiston», 2003.

11. Abdulla Sher, Husanov B. Estetika. Uslubiy qo'llanma. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: «O'zbekiston», 2016. -53 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: «O'zbekiston», 2017 -484 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligiming garovi. T.: 2017. - 28 6.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil, 22-yanvar.

6. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017.

7. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jildlar. - T.: «O‘zbekiston», 1996–2016.

8. Davronov Z.D. «Falsafa», o‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod Moliya”, 2006.

9. Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian University Press. 11 New Fetter Lane, London, EC4P 4EE. 2001. P-1-4

10. K.S.Guttenplan. J.Hornsby. C.Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.

11. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. (P - 19)

12. A.Fitrat. Tanlangan asarlar -T.: Ma’naviyat, 2010-301 b.

13. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: «Yangi asr avlodi», 2016. 3186.

14. J. Rumiy. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.

15. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon»-2015.-155 b.

16. Аристотельъ. Сочинения В 4-х томах.-М.: 1975. ч.1.

17. Асмус В. Античная философия.-М.: 1999.

18. Abu Ali ibn Sino tug‘ilgan kunining 1000 yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. -T.: «Fan nashriyoti», 1980.198 b.

19. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi - T.: Universitet, 2011.

20. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2010.

21. Axborotlashuv va jamiyat ma’naviyati. Ilmiy maqolalar to‘plami - T.: “I qtisodiyot” - 2013 136 6.

22. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti -T.: Yangi asr avlodi, 2004.-23 b.

22.Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. - 1606.

23.Yokubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2007.

24. Yokubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o‘rni- T.:”Star - Poligraf”, 2010. -180 b.

25. Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: «Ma’naviyat», 2008. -560 b.

26. Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va huquq, 2007.

27. Mamashokirov S., Usmanov Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalalari. -T.: «Fan», 2009.

28. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. -T.: «O‘zbekiston», 2007.

29. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: «Yangi asr avlodi» 2008.

30. Ochildiyev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. - T.: «O‘zbekiston», 2004.

31. Ochilova B. Millly-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. -T.: «Istiqlol», 2009.

32. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: «Yangi asr avlodi», 2006.

33. Соифназаров И. Курс лекций по философии. - Т.: ТДИУ, 2004.

34. Sirojiddinov I. Mirzo Ulug‘bek dunyosi.-T.: “Sharq”, 2015.108 b.

35. Qahhorova Sh. Global ma`naviyat-globallashuvning g‘oyaviy asosi.- T.:Tafakkur, 2009. -670 b.

36. Qurbonova L. Borliq falsafasi. -Andijon: ADU, 2009.

37. Qurbonova L. Inson falsafasi. -Andijon: ADU, 2009.

38. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Al’bom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekistan Milliy kutubxonasi, 2009.

39. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O‘FMJ, 2006.

40.O‘zbekiston: dinlararo hamjihatlik - tinchlik garovi.-T.:2005.

41. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyalari, 2008.

42. Shermuxamedova H.A. Fan falsafasi. -T.: «Noshir», 2017. - 3606

43. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. -420 b

44. Shayxova X. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi.T.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 y.

45. Karimova V. Oila psixologiyasi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008.

46. Akramova F.A.Oilada ma’naviy-ahloqiy tarbiya. – T.: ROIAM, 2015.

47. Mamadaliyeva X. O‘zbekistonda oilaning ijtimoiy-demografik rivojlanishi. (Monografiya) – Toshkent: 2017. Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi.

48. Qahhorova M. Agzamova N. Etika T.TDPU. 2018

49. Ajdodlarimiz ma’naviy merosidan. –T. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2014.

50. Органова О.Н. Специфика эстетического воспитания. Москва. 2006.

51.Пути и средство эстетического воспитания. –М.: ГАРДАРИКИ, 2003.

52. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muxsiniy. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

53. Abdullayeva N. Dizayn va badiiy-estetik madaniyat. –T.: «Turon-Iqbol», 2016.

54. Arzimatova I. Estetik madaniyat. –T.: «Fan», 2007.

55. Bichkov V.V. Estetika. – M.: Knorus, 2012.

56. Маҳмудова Г.Т. Философская сушность Авести. – Т.: «Санъат», 2010.

57. Медведев В.Ю.Научние аспекти дизайна. — СПб.: СПГУТД, 2014.

58. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. Toshkent: Universitet, 2009.

59. G‘aybullayev O. Shaxs ma’naviy kamoloti va estetik madaniyat. –Toshkent: CHASHMA PRINT, 2008.

60. Theodor Lipps. Asthetik. Die asthetische Betrachtung Und Die Bildende Kunst. Asthetik, Bd 1-2 Lpz., -2003.

61. Davronov Z. Barkamollikka da’vat maktublari T.Tamadun 2018 yil.

Internet saytlari:

www.ziyonet.uz

www.faylasuf.uz

MUNDARIJA

Kirish..... 3

I QISM

1-mavzu. Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli. Falsafa tushunchasining kelib chiqishi. Falsafani shakllanishining asosiy bosqichlari..... 5

2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari. Sharq falsafasi..... 30

3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari. G'arb falsafasi. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi. Sofistlar. Sokrat. Platon..... 62

4-mavzu. Borliq – falsafa kategoriyasi. 98

5-mavzu. Bilish nazariyasi, yo'nalishlari va asosiy muammolari. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari. 144

6-mavzu. Falsafaning metodi, qonun va kategoriyalari. Falsafiy uslublar, qonunlar va kategoriyalar..... 168

7-mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi..... 232

8-mavzu. Falsafiy antropologiya (inson falsafasi)..... 293

9-mavzu. Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari. Globallashuv–yangi falsafiy mavzu..... 345

II QISM

10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari..... 381

11-mavzu. Mulohaza. Xulosa chiqarish..... 406
12-mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari..... 441
13-mavzu. "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati..... 461
14-mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni..... 499
15-mavzu. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar..... 518
16-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari..... 547
17-mavzu. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi..... 573
18-mavzu. Estetikaning zamonaviy muammolari..... 598
Foydalanilgan adabiyotlar..... 638

СОДЕРЖАНИЕ

Введение..... 3

1 ЧАСТЬ

Тема-1. Предмет, содержание и роль философии в обществе. Происхождение термина философии. Основные этапы становления философии..... 5

Тема-2. Этапы развития философской мысли. Философия Востока..... 30

Тема-3. Этапы развития философской мысли. Философия Запада. Философская школа Древней Греции и Рима. Милетская школа. Софисты. Сократ. Платон..... 62

Тема-4. Бытиё - категория философии..... 98

Тема-5. Теория познания, направления и основные проблемы. Предмет и особенности теории познания..... 144

Тема-6. Методы, законы и категории философии..... 168

Тема-7. Духовно-культурные ценности общества в историческом развитии общества. Философия истории и общества..... 232

Тема-8. Философская антропология (философия человека)..... 293

Тема-9. Глобализация и философские аспекты глобальных проблем. Глобализация - это новая философская тема..... 345

2 ЧАСТЬ

Тема-10. Предмет логики, основные законы..... 381
Тема-11. Суждение. Умозаключение..... 406
Тема-12. Аргументация и логические формы развития познания..... 441
Тема-13. Предмет "этики" и её роль в жизни общества. Предмет этики, сущность и классификация этического учения..... 461
Тема-14. Морально-нравственные основы семьи и брака, их роль в воспитании молодежи..... 499
Тема-15. Этическая культура и нравственные ценности..... 518
Тема-13. Предмет, цели и задачи эстетики..... 547
Тема-13. Эстетика природы и техногенной цивилизации. 573
Тема-13. Современные проблемы эстетики..... 598
Список литературы..... 638

CONTENTS

Preface..... 3

PART 1

Theme-1 The subject, content and role of philosophy in society. The origin of the term philosophy. The main stages of the formation of philosophy..... 5

Theme-2. Stages of development of philosophical thought. Philosophy of the East..... 30

Theme-3. Stages of development of philosophical thought. Philosophy of the West. Philosophical school of ancient Greece and Rome. Milesian school.Socrates. Plato..... 62

Theme-4. Being is a category of philosophy. Analysis of the category of being..... 98

Theme-5. The theory of knowledge, directions and major problems. The subject and features of the theory of knowledge..... 144

Theme-6. Methods, laws and categories of philosophy..... 168

Theme-7. Cultural and spiritual values of society in the historical process. The philosophy of history and society..... 232

Theme-8. Philosophical anthro[illegible]gy (philosophy of Man)..... 293

Theme-9. Globalization and [illegible]osophical aspects of global problems.Globalization is a new philosophical theme..... 345

PART 2

Theme-10. The subject of logic, the basic laws..... 381

Theme-11. Judgement. Conclusion..... 406

Theme-12. Argumentation and logical forms of knowledge development..... 441
Theme-13. The subject of "ethics" and its role in society..... 461
Theme-14. The moral values of family and marriage, its role in youth education..... 499
Theme-15. Ethical culture and moral values..... 518
Theme-16. The subject, purpose and objectives of aesthetics.... 547
Theme-17. The aesthetics of a nature and technogenic civilization..... 573
Theme-18. Modern problems of aesthetics..... 598
Bibliography..... 638

FALSAFA

(I-qism)

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.

Nasbr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 05.12.2019.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 39,75. Nashriyot bosma tabog'i 40,5.
Tiraji 300. Buyurtma № 246.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-6151-7-5